



“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

**mavzusidagi IV respublika an'anaviy
ilmiy-amaliy anjumani materiallari**





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA
MALAKA OSHIRISH MARKAZI**

**“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi IV respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 494.375

KBK:81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 360 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi IV respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O.Jamoldinova, pedagogika fanlari doktori, professor

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori

M.Umirzoqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 4-oktabrdagi 7-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9416-6-5

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

SO‘ZBOSHI

Bugun o‘zbek tilining davlat tili maqomini kasb etganiga 35 yil to‘ldi. Ushbu muddat davr nuqtayi nazaridan qisqa vaqtni tashkil etsa-da, yurtimizda bu sohada keng ko‘lamli, ta‘bir joiz bo‘lsa, olamshumul ishlar amalga oshirildi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 4-oktabrida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror ona tilimizning istiqboli va taraqqiyotini tamomila yangi bosqichga olib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aynan o‘sha yili 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining ilk satrlarida barchamizni ruhlantiruvchi quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: “Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir”.

2020-yilning 10-aprelida esa O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tiborning yana bir yuksak namunasi bo‘ldi.

Yangidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ayni davrdan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish borasidagi islohotlar amalga oshirila boshlanishiga keng ko‘lam va tus berdi. Xususan, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi til siyosati borasida amalga oshiriladigan ishlarning kelgusi taraqqiyotini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda Markaz va uning 13 ta oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan hududiy bo‘linmalari Toshkent shahri, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritmoqda.

O‘tgan davr davomida Markaz mamlakatimizda davlat tili siyosatini ta‘minlovchi mustaqil tashkilot sifatida shakllandi, o‘z faoliyatini asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘ydi. Albatta, yangi tashkilotning birdaniga oyoqqa turib ketishi, ish

faoliyatini bir maromga solish qiyin masala. Buning uchun vaqt, qolaversa, juda katta mehnat talab qilinadi.

Markazda dastlab vazirlik va idoralar, mahalliy hokimlik organlari va xo‘jalik birlashmalari xodimlari uchun **“O‘zbek adabiy tili me‘yorlari va davlat tilida ish yuritish”** o‘quv kursi tashkil qilindi. O‘tgan qisqa muddat davomida o‘quv kursida malaka oshirishning an‘anaviy va masofaviy shakllarida jami **30 ming nafardan** ortiq tinglovchi kursni muvaffaqiyatli yakunlab, davlat namunasidagi sertifikatga ega bo‘ldi. Til taraqqiyoti millat istiqboli ekanligini tushunib yetgan aksar rahbarlar bu masalaga alohida e‘tibor bilan qarayotgani quvonarli hol, albatta. Joylardagi qator rahbarlar tashkilotning o‘zida guruh shakllantirib, ko‘chma o‘quv kurslarini tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, keng aholi qatlami uchun **“O‘zbek adabiy tilining yozma nutq me‘yorlari”** kursi tashkil qilingan. Bu kurslarda o‘qish bepul bo‘lib, asosiy e‘tibor yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar joriy yilda yanada jonlantirilib, ayni vaqtda markaz va hududlarda bir necha o‘nlab guruhlar tahsili yo‘lga qo‘yildi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, markaz shu faoliyat bilan cheklanib qolgani yo‘q. Vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan o‘zga millat vakillari ko‘p ekanligi, shunday kursga ehtiyoj borligi ma‘lum bo‘ldi.

O‘zbek tilini o‘rganishga yurtimizdagi boshqa millat egalarining qiziqishi kuchayganini hisobga olib, o‘zga millat vakillari va o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun **“O‘zbek tili”** kursi tashkil etildi. Mazkur kurs uchun universitetning yosh, iqtidorli mutaxassislari tomonidan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmonining 3-ilovasi 11-bandi ijrosi bo‘yicha tasdiqlangan nazorat rejasining 24-bandida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi teleradiokanallarning suxandon va boshlovchilarini **“O‘zbek adabiy tili me‘yorlari va nutq madaniyati”** kursi bo‘yicha o‘qitish belgilangan edi. Buning natijasida teleradiokompaniya tizimidagi teleradiokanallarning suxandon va boshlovchilari uchun **“O‘zbek adabiy tili me‘yorlari va nutq madaniyati”** kursi ishga tushdi.

Shuningdek, markazda joriy yildan davlat tashkilot-muassasalari rahbar-xodimlari uchun mo‘ljallangan **“Davlat xizmatchilarining nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish”** kursi tashkil etildi hamda uning ilk tinglovchilari tahsilni muvaffaqiyatli tamomlashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-sonli qaroriga ko‘ra Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga davlat tilida nom berish (neyming) xizmati ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida markaz va uning hududiy bo‘linmalari huzurida Lingvistik ekspertizadan o‘tkazish komissiyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Anjuman materiallari sifatida tayyorlangan mazkur to‘plam sohadagi muammolar, ularning maqbul yechimlari masalalariga bag‘ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda bir jihatga e‘tibor qaratish zarur: o‘tgan davr mobaynida o‘tkazilgan an‘anaviy hamda joriy yil tashkil etilgan xalqaro anjumanlar natijasi va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining rivoji va istiqboli, uni o‘rganish va o‘rgatish bilan bog‘liq masala va muammolar yana-da aniqlashdi, ilmiylik kasb etdi, ayniqsa, o‘zbek tilining jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, xususan, qardosh turkiy millat va elatlar tiliga aloqadorlikdagi taraqqiyoti masalalari yangicha talqin kasb etdi. Shu ma’noda ushbu anjuman materiallarining ilmiy saviyasi oshib bormoqda va o‘z o‘rnida, o‘zbek tili tadqiqi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarga keng yo‘l ochishiga ishonchimiz komil.

**Inomjon Azimov, filologiya fanlari doktori,
dotsent, Markaz direktori – prorektor**

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” MATNIDAGI HARAKAT BELGILARI VA TURKIY SO‘ZLARNING O‘QILISHI MASALASI

Qosimjon Sodiqov *

Annotatsiya

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining qo‘lyozmasida ayrim o‘rinlarda muayyan harf ustiga va ostiga biryo‘la ikki harakat belgisi: *fatha* va *kasra* yoki *damma* va *kasra* qo‘yib ketilgan. Bugina emas, bir so‘zning o‘zi biryo‘la ikki xil harf bilan ham yozilgan o‘rinlar ham bor. Harfiy ishoratlarning bunday tarzda qo‘yib ketilgani, bir so‘zning ikki xil yozilgani bejiz emas. Ushbu so‘zlar eski turkiy tilda ikki xil talaffuz qilingan; lug‘atchi so‘zning yozma adabiy tildagi ko‘rinishi bilan bir qatorda, uning boshqa bir talaffuzi, shevalardagi fonetik variantini ham ko‘zda tutgan.

Ushbu maqolada lingvistik lug‘atlarda ikki xil harakat belgilari va harflarning biryo‘la qo‘sha qo‘llanishiga tayanib, ularning fonetik vazifasi, eski turkiy so‘zlarning o‘qilishi va fonetik transformatsiya masalalari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *eski turkiy til, qo‘lyozma, turkiy so‘zlar, harakat belgilari, fonetik transformatsiya, harf, tovush, harf va tovush munosabati, so‘zning fonetik variantlari, so‘zning shevadagi shakli.*

Abstract

In the text of the manuscript «Divan lugat at-Turk» by Mahmud Kashgari, in accordance with the rules of Turkic spelling, some letters are accompanied by double diacretic signs: *fatha* and *kesra* or *damma* and *kesra*. In addition, some words are displayed with different letters. These facts recorded in the dictionary are not accidental. And they are connected with the fact that the compiler, along with written literary forms of words, used different phonetic variants of these forms, as well as their dialect correspondences.

This article reveals the reasons for these facts, issues of their phonetic interpretation and transformation.

Key words: *Old Turkic language, manuscript, Turkic words, diacritics, phonetic interpretation and transformation, letter, sound, letter-sound relationship, phonetic version of a word, dialect pronunciation of words.*

Ulug‘ tilshunos Mahmud Koshg‘ariy (*Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad al-Kāshgarī*) qalamiga tegishli «Turk so‘zlari devoni kitobi» [«*Kitābu dīwāni luyāti-t-turki*»] turkiy tilshunoslikning bizga ma‘lum bo‘lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo‘q yodgorligidir. Asar *dīwān* atalganining sababi, unda turkiy so‘zlar

* Filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

muayyan izchillikda, qoidasi bilan keltirilganidadir. Yana oʻrta asrlar turkiy kitobatchiligida yirik asarlarni *kitāb* [yaʼni «asar; kitob»] deb atash rusum boʻlib, bu narsa ularning sarlavhasida ham aks etgan. Muallif turkiy kitobatchilik anʼanasini yaxshi bilgan va oʻz asarini *kitāb* degan (MK.1a).

Oʻz zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharqu Gʻarb ilm ahliga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi toʻgʻrisida toʻliq xabar beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan.

Fanda «Devonu lugʻati-t-turk» asarining bitta qoʻlyozmasi maʼlum, u ham bolsa, ilkin emas, keyingi davrga tegishli. Uni Muhammad bin-Abu Bakr Damashqiy otli kotib Shomda hijriy 664 yil, shavval oyining yigirma yettinchi kuni (=milodiy 1266 yil avgustining birinchisida), oʻzi yozishiga qaraganda, Mahmud Koshgʻariy oʻz qoʻli bilan yozgan qoʻlyozmadan koʻchirib tugallagan (TCĐ.760–761). Ushbu nodir qoʻlyozma hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasida (Millet Genel Kütüphanesi. Kayıt No. Ar. 4189) saqlanmoqda (*qoʻlyozmaning tavsifiga qarang*: DLT.xxxvi–xlii).

Qoʻlyozma 320 varaqli (639 sahifadan iborat). Har betiga oʻn yetti qatordan qilib matn bitilgan. Xati chiroyli, nasxda. Aytarli butun boshli matn qorada; oradagi bob va fasllarning sarlavhasi, boshlanishda turkiy misollar, shuningdek, sarlavha qilib berilgan harflar qizilda. Baʼzi sarlavhalar toʻq qorada ajratib yozilgan. Matn boʻylab turkiy misollar qorada yozilib, ustiga qizil chiziq tortib qoʻyilibdi.

Toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun turkiy oʻrnaklarga harakat belgilari izchil qoʻyib ketilgan. Soʻz-maqolalar oʻtrasi nuqtali yaproqsimon belgi bilan, toʻrtlik-oʻrnaklarning qatorlari esa doirachalar bilan ajratilgan.

«Devonu lugʻati-t-turk» asari qoraxoniylar davri turkiy tilining, turkiy lugʻatchiligining ajoyib kashfiyoti. Ushbu asari bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qoʻyish bilan birga, ushbu sohani yuqori bosqichga olib chiqdi. Qolaversa, Mahmud Koshgʻariy turkiy tilshunoslik rivojigagina emas, Sharq tilshunosligi, xususan, lugʻatshunosligiga ham ulkan hissa qoʻshgan olimlardan.

Asar turkiy tilshunoslikning yirik tarihiy grammatikasi, shuning bilan birga, qomusiy yodgorligi hamdir. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Kitobning ilmiy qiymati, muallifning yutuqlari shularning oʻzi bilan cheklanmaydi. Taʼkidlamoq kerak, olim turkiy soʻzlarning tuzilishi, tilning oʻziga xosligini inobatga olib, lugʻat tuzishning oʻziga yarasha yangi bir usulini ishlab chiqdi. Shuning bilan u lugʻatchilik amaliyotida katta kashfiyot qildi. Yutuqlaridan yana biri, asarda eski turkiy tillarning lugʻat boyligi etnolingvistik, lingvomadaniy, qiyosiy-tipologik yoʻnalishlarda tadqiq etilgan.

Yana bir jihati, muallif turkiy oʻrnaklarni keltirishda arab alifbosi asosidagi eski turkiy yozuvning bor imkoniyatini ishga solib, soʻzlarning talaffuzi, fonetik-fonologik xususiyatini toʻliq aks ettirishga erishgan.

Turkiy soʻzlarning fonetik-fonologik transformatsiyasi.

Baʼzi ilmiy tadqiqotlarda, qoʻlyozmada turkiy oʻrnaklarning yozilishida xatolar koʻp; uni turkiy tilni yaxshi bilmagan kishi koʻchirgan, degan qarashlarni ham oʻqib qolamiz. Bunday qarashlarga butkul qoʻshilib boʻlmaydi. Aksincha, kotib eski turkiyni juda yaxshi bilgan, oʻzi ham turkiylardan ekani aniq (buni kotibning asarga bitgan soʻzboshisidan ham bilsa boʻladi). Matn qunt bilan koʻchirilgan, bilimli va malakali xattotning ishi bu. Aftidan, bitguchi asarni koʻchirib boʻlgandan keyin ham, turkiy oʻrnaklarni qayta-qayta koʻrib chiqqan koʻrinadi; tuzatish kiritilgan oʻrinlar ham bor. Xattot hatto eski uygʻur xatini ham yaxshi bilgan, deya olamiz: bir-ikki oʻrinda yozgan misollari juda chiroyli; har kimsa ham bunday yoza olmaydi uygʻur xatini. Alloh rahmat qilsin u kishini, qoʻlyozmani koʻchirishda uzoq ishlagani, ancha ter toʻkkani bilinib turibdi.

Eng muhimi, qoʻlyozmada turkiy soʻzlarning toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun ularga turli diakritik belgilar (harakatlar) izchil qoʻyib borilgan. Ushbu grafik ishoratlar soʻzlar talaffuzini, ularning toʻgʻri oʻqilishini aniqlashda qoʻl keladi, qoʻlyozma qadrini yanada oshiradi.

Shu oʻrinda matn imlosi, turkiy soʻzlarga qoʻyib ketilgan diakritik belgilar bilan bogʻliq bir xususiyatga eʼtibor qaratmoqchimiz. Qizigʻi shundaki, qoʻlyozmada ayrim oʻrinlarda muayyan harf ustiga va ostiga biryoʻla ikki harakat belgisi: *fatha* va *kasra* yoki *damma* va *kasra* qoʻyib ketilgan. Bugina emas, bir soʻzning oʻzi biryoʻla ikki xil harf bilan yozilgan oʻrinlar ham bor (*qarang*: ДЛТ.7–9; ТЦД.12–15).

«Devonu lugʻati-t-turk»ning hozirgi zamon nashrlarida, qoʻlyozmadagisini yanglish sanab, ulardan biri qabul qilinayotir. Lugʻatda berilgan soʻzlarning bir xilligini saqlash, oʻquvchining koʻpda chalgʻimasligi uchun bu yaxshidir. Lekin qoʻlyozmada soʻzga berib ketilgan ikkinchi ishoratning maʼnisi nima? Muallif nimaga ishora qilmoqda buning bilan? Bizningcha, harfiy ishoratlarning bunday tarzda qoʻyib ketilgani, bir soʻzning ikki xil yozilgani bejiz emas. Chamasi, ushbu soʻzlar ikki xil talaffuz qilingan; muallif soʻzning yozma adabiy tildagi koʻrinishi bilan bir qatorda, uning boshqa bir shakli, shevalardagi fonetik variantini ham koʻzda tutgan chogʻi. Matnda turli harakatlar aralash ishlatilganining sababi ham shu. Qoʻlyozmani koʻchirish chogʻida kotib yanglishgan emas.

Endi buni misollarda koʻrib chiqamiz.

Birinchisi, bir harfga biryoʻla fatha va kasra belgilarining qoʻyilish holati.

Soʻz boshida *alif* harfiga *fatha* va *kasra* belgisi qoʻyilgan. Bu ishorat ikki xil vazifani oʻtaydi. Birinchisi, u ingichka [e] tovushining ifodasi boʻlib, bir soʻzni ikki xil – unday ham, bunday ham yozish mumkinligiga ishora qiladi. Masalan: *ewäk* (أَفَاكْ / إِفَاكْ) – «shoshqaloq», *ewäk er* (أَفَاكْ أَنْ / إِفَاكْ أَنْ) – «shoshqaloq kishi». Yoki yana: *elük* (أَلُوكْ / إِلُوكْ) – «masxara; hazil» (MK.37a).

Ikkinchisi, yo‘g‘on o‘zakli so‘zlarda ushbu ishora bir so‘zning [a] bilan ham, [i] bilan ham talaffuz etilganini anglatadi. Buning misoli: *atınču / ütınču nāḡ* (/ ایتنجو / ایتنجو نانک) – «tashlangan, otilgan narsa» (MK.40a).

tašiqti («tashqari chiqdi») so‘zini yozishda so‘z boshidagi *ta* harfiga biryo‘la ham *fatha*, ham *kasra* belgisi qo‘yib ketilgan. Shunga ko‘ra, bu so‘zni *tašiqti* hamda *tüšiqti* shakllarida o‘qish mumkin bo‘ladi. Mana misoli:

er ewdin tašiqti / tüšiqti (ار اقدن تشقی / تشقی) – «kishi uydan tashqari chiqdi» (MK.163b).

taš so‘zining [i] li variant hozirgi ayrim turkiy tillarda ham saqlangan. Jumladan, turk tilida *tış* so‘zining [d]- lashgan varianti keng qo‘llanadi: «tashqari chiqdi»ni turklar *dışarıya çıktı / dışarı çıktı* deydi; yoki *Dış İşler Bakanlığı* – «Tashqi ishlar vazirligi» degani; yoki havo yo‘llarida: «ichki yo‘llar» – *iç hatlar*, «tashqi yo‘llar» esa *dış hatlar* bo‘ladi. Yana chog‘ishtiring, Xorazm toponimlaridan: *İcānqala* – «ichki qal’a» degani; *Dışanqala* – «tashqi qal’a», ya’ni «shahardan tasqaridagi o‘rda».

Bir harfga biryo‘la damma va kasra belgilarining qo‘yilish holati. Bunda *damma* lisi so‘zning lablangan [u], [ü], [o], [ö] tovushlari bilan, *kasra* lisi esa [i] yoki [i] bilan o‘qilishiga ishora qiladi. Bularning misoli:

ol anī eliklädi / elüklädi (ال أنى إلکلادى / إلکلادى) – «u uni masxara qildi, mazah qildi». Buning kelasi zamon shakli va masdari: *eliklär / elüklär* (إلکلär / إلکلär), *eliklämäk / elüklämäk* (إلکلأمāk / إلکلأمāk) (MK.78a).

Yoki yana:

ol bu aşır çiwkünländi / çiwkinländi (ال بو أشیر چفکنلندی / چفکنلندی) – «u bu ovqatni badanni yengillatadigan, badanga foydali deb bildi». Buning kelasi zamon shakli va masdari: *çiwkünlänr / çiwkinlänr* (چفکنلنور / چفکنلنور), *çiwkünlänmäk / çiwkinlänmäk* (چفکنلنمāk / چفکنلنمāk) (MK.203a).

öñük / öñik (أنک / أنک) – «popuk; yostiqlarning ipaklik quloqlari, bog‘ichlari» (MK.40b).

turuy / türüy (تړغ / تړغ) – «tog‘lardagi qal’a; turar joy» (MK.94a).

sīruq / suruq (سړق / سړق) – «chodirning ustuni» (MK.96b).

Matnda bir harf ustiga ostin-ustun *fatha* va *damma* belgilarini qo‘yish holati ham uchraydi. Masalan, *tat* so‘zini yozishda so‘z boshidagi *tā* harfining ustiga *fatha* va *damma* qo‘yilgan. Bu ishora ushbu so‘zning [a] bilan ham, [u] bilan ham talaffuz qilinganini anglatadi:

tat / tut (تٹ / تٹ) – qilich va pichoqlar ustida paydo boladigan zang (MK.204a).

Yana bir e’tiborli jihati, ayrim o‘rinlarda muayyan bir so‘z ikkita harf bilan ham yozilgan. Masalan, *qoy* so‘zi tushum kelishigida kelganda *yā* harfining ustiga

nūn ning nuqtasini qo'yib, undan keyin *ḍamma* belgisi qo'yilgan. Shunga ko'ra, ushbu so'zni **qoy** va **qon** shakllarida o'qish mumkin:

ol qoyuy / qonuy özüklädi (أَلْ قُوَيْغُ / قُوَيْغُ أَزْكَلَادِي) – «u qo'yning o'q tomirini kesdi» (MK.77b);

ol qoyuy / qonuy baturdi (أَلْ قُوَيْغُ / قُوَيْغُ بَاتُرْدِي) – «u qo'yni bog'latdi» (MK.265a);

er qonuy / qoyuy soydi (أَرْ قُوَيْغُ / قُوَيْغُ سُوَيْدِي) – «kishi qo'y terisini shildi» (MK.276b);

er qonuy / qoyuy sadi (أَرْ قُوَيْغُ / قُوَيْغُ سَادِي) – «kishi qo'yni sanadi» (MK.277b).

Eski turkiy shevalarda bunday so'zlarning ikki xil ishlatilishini Mahmud Koshg'ariyning o'zi ham alohida ta'kidlab o'tgan. Jumladan, **butaq** so'ziga izoh berar ekan, yozadi: **butaq / butiq** (بُتُقُ / بُتُقُ) – «butoq»; bir shevada. Bu so'zdagi *tā* harfining *fatha* li o'qiladigan turi bo'lganidek, *kasra* li o'qiladigan turi ham bor [ya'ni **butiq** (بُتُقُ) va **butaq** (بُتُقُ) tarzidagi talaffuzlari] (MK.95a).

Yoki yana:

sarqiyiq / sarqiniq (سَرْقِيْقُ / سَرْقِيْقُ) – «har narsaning ichi». Muallifning ta'kidlashicha, bu so'zning *nūn* bilan yoziladigan **sarqiniq** (سَرْقِيْقُ) shakli ham bor (MK.262a).

Mahmud Koshg'ariy o'z davridagi turkiy tillarni ikkiga ajratadi: biri, barcha turkiy qavmlar uchun tushunarli bo'lgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotda qo'llanuvchi, o'tmish yozma til an'analarini saqlab kelayotgan qoraxoniylar davri *yozma-adabiy tili*, buni muallif «turkcha» (تُرْكِيَّة) atamasi bilan bir qatorda «xoqoniya turkchasi» (**at-turkiyyatu-l-xāqāniyya**) deb ham atagan edi: «Shahar o'rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida (بِالتُّرْكِيَّةِ الْخَاقَانِيَّةِ) so'zlaydilar» deb yozadi u (ТЦД.40). Muhimi shundaki, buni «turk tili» atamasining o'rnida ishlatgan.

Olim asar davomida o'z davri yetakchi dialektlarini (sharqiy dialektlarni) umumlashtirib «turk tili», qolganlarini esa o'z otlari (o'g'uzcha, qipchoqcha va b.) bilan atagan. Lug'atga asos qilib yozma adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar olingan. Lialektal leksika esa ana shu lug'at qatlami tevaragida, unga chog'ishtirib boriladi (Содиқов 2020,191).

Matn davomida bir harfga qo'yilgan harakatlar so'zning har turli talaffuzi, shevalardagi o'ziga xosligi, tovush o'zgarishlari amal qilganini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, eski turkiy tilning unlilar tizimida quyidagi fonetik hodisalar amal qilgan:

[a] > [i] hodisasi:

aylinč / ilinč yol (أَيْلِنْجُ / اِيلِنْجُ يُولُ) – «qing'ir-qiyshiq yo'l, tekis bo'lmagan yo'l».

Har bir notekis narsaga ham shu so'z qo'llanadi (MK.40a).

ařinču / řinču nāř (أَيْتِنْجُو / اَيْتِنْجُو نَانَكُ) – «tashlangan, otilgan narsa» (MK.40a).

adařliř / adiřliř (أَدِشْلُقُ / اَدِشْلُقُ) – «sodiqlik; samimiylik» (MK.43b).

čaydam / čiydam (جَيْدَمَ / جَيْدَمَ) – uyga to‘shaladigan, yomg‘irga qarshi yopinchiq qilinadigan bir turli yengil namat (MK.261b).

saričya / siričya (سَرَجْغَا / سَرَجْغَا) – «chigirtka». Unga o‘xshatilib, «zaif kishi»ga ham *saričya / siričya er* (سَرَجْغَا / سَرَجْغَا) deyiladi (MK.123a).

er ewdin tašiqti / tišiqti (اَر اَفْدِنْ تَشِيقْتِي / تَشِيقْتِي) – «kishi uydin tashqari chiqdi»; *tašiqti / tišiqti* (تَشِيقْتِي / تَشِيقْتِي) yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu va ba‘zi turkman urug‘lari tilidadir. Ko‘pchilik turklar *čiqti* (چَقْتِي) deyilar. (Buning kelasi zamoni va masdari): *tašiqar / tišiqar* (تَشِيقَار / تَشِيقَار), *tašiqmaq / tišiqmaq* (تَشِيقْمَاق / تَشِيقْمَاق) (MK.163b–164a).

kiši menij birlä taliqdı / tiliqdı (كِيْشِي مَنِكْ بَرْلَا تَلْفِدِي / تَلْفِدِي) – «kiši men bilan so‘zlashdi, mendan ma‘lumot so‘radi»; *ol er esiz taliqdı / tiliqdı* (اَل اَر ايسِرْ تَلْفِدِي / تَلْفِدِي) – «uning yomonligi tillarga tushdi; yomonligi kishilar g‘ashiga sabab bo‘ldi». Birinchisi o‘g‘uzlar so‘zidir. Turklar bu so‘zni bilmaydilar. (Buning kelasi zamoni va masdari): *taliqar / tiliqar* (تَلْقَار / تَلْقَار), *taliqmaq / tiliqmaq* (تَلْقَمَاق / تَلْقَمَاق) (MK.163b).

[a] > [u] hodisasi:

uđmaq / uđmuq (اُذْمَقْ / اُذْمَقْ) – «ergashuvchi; yollangan kishi» (MK.31b).

[ä] > [i] hodisasi:

teräklik / teriklik (تِرَكْلِكْ / تِرَكْلِكْ) – «terakzor, terak o‘sadigan yer». Jarangli *kāf* (ya‘ni [g]) bilan (بالكاف الركيكة) tugaganda ega ma‘nosida qo‘llanadi (MK.127b).

bekmäs / bekmis (بَكْمَسْ / بَكْمَسْ) – «shinni» (o‘g‘uzcha) (MK.116a).

Maqolda (shunday kelgan): *Tewäy / tewi yük kötürsä, qamıç yemä kötürür* (تَقْیَ / تَقْیَ يَكْ كُتْرَسَا قَمِجْ يَمَا كُتْرُرْ). Ma‘nosi: «Hamma yukni ko‘targan tuya cho‘michni ham ko‘taradi» (MK.153b).

[e] > [i] hodisasi:

elänč / ilänč (اَلْنَجْ / اَلْنَجْ) – maslahat beruvchi kishining maslahatida yanglishlik ma‘lum bo‘lgach, uni ayblash (MK.40a).

ewäk / iwäk er (اَفَاكْ / اَفَاكْ) – «shoshqaloq kishi» (MK.37a).

elük / ilük (اَلُوْكْ / اَلُوْكْ) – «masxara; hazil» (MK.37a).

ertä / irtä (اَرْتَا / اَرْتَا) – «erta, tong, sahar vaqti» (MK.37b).

elri / ilri (اَلْرِي / اَلْرِي) – echki bolasining terisi; bir *dāl* orttirib, *eldiri / ildiri* (اَلْدِرِي / اَلْدِرِي) ham deyiladi (MK.38b).

ketmän / kitmän (كُتْمَانْ / كُتْمَانْ) – «ketmon; yer chopadigan uskuna» (MK.112a).

[e] > [ö] hodisasi:

er etmāk / ötmāk sirkäkä mandī (اَر اَتْمَاكْ / اَتْمَاكْ سِرْكَا مَنْدِي) – «kishi nonni sirkaga surdi, buladi» (MK.140a).

[e] > [ö] yoki [e] // [ö] hodisasi turkiy yozma yodgorliklarda keng uchraydi. Chog‘ishtiring: *esrük* (SD.463) // *ösrük* (SD.459) – «sarxush»; yoki «Qutadg‘u bilig»da: *etmāk* – «non» (QBN.97b,5) // Navoiy asarlarida: *ötmāk* – «non» (NMb.37a,15). Yoki yana: *tuz-ötmāk* – «tuz-non» (NMb.48a,24).

Mirzo Mehdixon o'zining «Sangloh» lug'atida urg'ulashicha, turkchada «non»ni *etmāk* yoki *ötmāk* deyilgan. So'zning ushbu variantlari lug'atda shunday izohlanadi:

etmāk (اتماک) – «*sukūn* li *tā* va *fathā* li *mīm* bilan» (besukūn-e tā va fath-e mīm) aytilgan;

ötmāk (اوتماک) esa «*damma* li *alif* bilan» (bedamm-e alif) aytilgan (Sang.85a).

[i] > [e] hodisasi:

ilärsük / *elärsük* (الرُسُكُ / الرُسُكُ) – «ishton bog'i» (MK.44a)

[i] > [ü] hodisasi:

böktir / *böktür* (بُكْتِرْ / بُكْتِرْ) – tog'lardagi baland-past yer (MK.115a).

[i] > [a] hodisasi:

quš siqirdi / *saqirdi* (قُشْ سِقِرْدِي / سِقِرْدِي) – «qush chug'ur-chug'ur qilib sayradi» (MK.155b);

[ö] > [i] hodisasi:

öñük / *öñik* (أَنْكُكْ / أَنْكُكْ) – «popuk; yostiqlarning ipaklik quloqlari, bog'ichlari» (MK.40b).

[u] > [i] hodisasi:

qusyač / *qisyač* (قُسْغَاجْ / قِسْغَاجْ) – kichkina qora jonivor, kishini tishlaydi (o'g'uzcha) (MK.115a).

Maqolda (shunday kelgan): *Ermägükä bulit* / *bulut yük bolur* (أَرْمَگُوكَا بُلُتْ / بُلُتْ). Ma'nosi: «Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo'ladi» (MK.41a).

kün tuysuy / *tuysiy* (كُونْ تُغْسُغْ / تُغْسُغْ) – «kunchiqar; Sharq» (MK.117a).

o'purşuq / *o'yirşuq* (أُغْرَشُقْ / أُغْرَشُقْ) – «urchuq»; ip yigiradigan charx dugini tutib turadigan ayrili cho'p-chalmak (MK.43a).

uylumuq / *uylümiq* (أُغْلُمُقْ / أُغْلُمُقْ) – ustiga to'sin qo'yish uchun tik turg'azilgan yog'och (MK.43a).

suyayu / *siyayu* (سَيَاغُو / سَيَاغُو) – xo'rozlar oyog'idagi pix (MK.261a).

bildur / *bildür* (بِلْدُرْ / بِلْدُرْ) – «bultur, o'tgan yil» (MK.115a).

ewkä suqru / *siqru kirdim* (أَقْكَ سُقْرُو / سِقْرُو كِرْدِم) – «uyga ruxsatsiz kirdim» (MK.106a).

tutma / *tütma* (تُتْمَا / تَتْمَا) – «sandiq» (MK.109a).

bu er-ol işiy anutyan / *anütyan* (بُو أَرْ أَلْ إِيْشِغْ أَنْتَغَانْ / أَنْتَغَانْ) – «bu, ishga yaxshi hozirlanadigan kishidir» (MK.45a).

böz çuylandi / *çiylandi* (بُوزْ جُغْلَانْدِي / جُغْلَانْدِي) – «bo'z va boshqa matolar o'lchandi» (MK.266b).

[ü] > [i] hodisasi:

men anı üdärdim / *idärdim* (مَنْ أَنِیْ أُدْرِدِمْ / إِدْرِدِمْ) – «men uning izidan bordim». (Buning kelasi zamon shakli va masdari): *üdärür-men* / *idärür-men* (أَذَارُرْمَنْ / إِذَارُرْمَنْ), *üdärmäk* / *idärmäk* (أَذْرِمَاكْ / إِذْرِمَاكْ) (MK.49b).

erük / erik (أَرُكْ / أَرِكْ) – terini oshlaydigan har bir narsa; **teri erüklädi / eriklädi** (تَرَى أَرُكْلَادِي / أَرِكْلَادِي) – «terini oshladi» (MK.24b).

üçgöl / üçgil (أُجُكْل / أُجِكْل) – «uchburchak; uch bo‘lak; uch qirrali narsa» (MK.33a).

Lab uyg‘unligining kuchsizlanishi natijasida lablangan unlilarning lablanmagan unlilarga o‘zgarishi. Misollar:

oyurluy / oyurliy iş (أُغْرُلُغْ / أُغْرُلُغْ إِشْ) – «o‘z vaqtida, mahalida bo‘lgan ish» (MK.42b).

azuqliy / aziqliy er (أَزُقْلُغْ / أَرُقْلُغْ) – «ozig‘i bor er». Maqolda (shunday kelgan): **Azuqliy / aziqliy aruq armas** (أَزُقْلُغْ / أَرُقْلُغْ أَرُقْ أَرْمَاسْ). Ma‘nosi: «Ozig‘i bor er safarda tolmaydi, charchamaydi» (MK.43a).

azuqliq / aziqliq (أَزُقْلُقْ / أَرُقْلُقْ) – «oziqlik, ovqat» (MK.43b).

bu näñ-ol tutçi ügülgän / ügilgän (بُو نَانَكْ أَلْ تُتْجَى أَكْلُكَانْ / أَكْلُكَانْ) – «bu, doim uyuladigan narsadir» (MK.45b).

Maqolda (shunday kelgan): **Tayyan yügrükün / yügrükin tilkü sewmäs** (تَيَّغَانْ / يَغْرُكُنْ). Ma‘nosi: «Tulki yugurik tozini sevmaydi» (MK.261a).

Undoshlar tizimida quyidagi fonetik hodisalar kuzatiladi:

[n] > [y] hodisasi:

ol qoyuy / qonuy quyqaladi (أَلْ قُوَيْغْ / قُونُغْ قُيْقَالْدِي) – «u qo‘y terisini qaynoq suvda tozaladi; teri tukdan butunlay tozalandi» (MK.261a).

sarqiyyiq / sarqiniq (سَرَقِيْقْ / سَرَقِيْنُقْ) – «har qanday narsaning ichi». Bu so‘zning *nün* bilan **sarqiniq** (سَرَقِيْنُقْ) shakli ham bor (MK.262a).

Yuqoridagi misollardan Mahmud Koshg‘ariy turkiy o‘rnaklarni berishda so‘zlarning fonetik variantlari, ularning shevalardagi talaffuz shakllariga alohida urg‘u bergani ko‘rinib turibdi. Ushbu tovush hodisalarini u turli grafik vositalar, ishoratlar bilan aniq va ixcham ko‘rinishda o‘z lug‘atida aks ettira olgan. Shunga ko‘ra, turkiy o‘rnaklarni o‘qiganda, ayniqsa, asarning ilmiy nashrlarini yaratishda ularning ikkala shakli ham e‘tiborga olinmog‘i kerak.

Lug‘atchilik tarixida shunga o‘xshash holatlar uchrab turadi. Jumladan, Mirzo Mehdixon tuzgan «Sangloh» lug‘atining qo‘lyozmasida bir qator so‘zlar bir paytda ikki xil harf bilan berilgan: unda *qāf* bilan tugagan so‘zlar ketidan *ḡayn* harfi ham yozib qo‘yilgan. Demak, bunday holatda so‘zning ikki xil o‘qilishiga ishora qilinayotir: *balalamaq / balalamay* (بالالاماق غ) (Sang.196b,6); *buzmaq / buzmay* (بوزماق غ) (Sang.207a,9); *boyuzlatmaq / boyuzlatmay* (بوغوزلاتماق غ) (Sang.211b,9) singari.

Hoshiyadagi kiritmalar va matn to‘liqligi masalasi

Yana bir jihati, «Devonu lig‘ati-t-turk»ning qo‘lyozmasida ko‘p o‘rinda hoshiyaga ham yonboshlatib misol va jumlar yosib qo‘yilibdi (MK.: 15a,b, 16a, 18a, 20b, 24a, 58b, 66a, 75b, 80b, 87a, 95b, 110a, 114b, 123a, 128b, 144a,b, 147a,

152b, 160b, 161b, 165a, 171a, 173b, 183b, 186a,b, 190a, 193a, 197b, 200b, 203b, 205a, 212a, 213a,b, 214a, 215b, 217b, 222b, 274b, 289b, 292a, 295a betlarda). Bularni tasodifan tushib qolgan, ustidan o'qish chog'ida tuzatib chiqilgan, deb bo'lmaydi. To'g'ri, bunday yerlari ham bor: matnda tasodifan tushib qolgan ayrim so'zlar hoshiyaga ham chiqarib qo'yilgan. Yoki sahifa yakuniga sig'may qolgan bir-ikki so'z hoshiyaga qiyalatib yozib qo'yilgan.

Masalan: *oyuṣḍi* (ya'ni qovunni chaqmoqlashdi) so'zi keltirilar ekan, ma'nosi misil bilan ochiqlangan. Biroq, bu fe'lining kelasi zamon va masdar shakllari – *oyuṣur* va *oyuṣmaq* so'zlari, joy yetmagani uchun, sahifaning oxiriga qiyalatib kiritib qo'yilgan (MK.69a).

Yoki: *enüçlädi* («davoladi») fe'lining ma'nosi ochiqlangan yerda ham uning kelasi zamon va masdar shakli – *enüçlär* va *enüçlämāk* so'zlari sahifaning oxiriga qiyalatib kiritib qo'yilgan (MK.76a).

Lekin, biz so'z yuritayotganimiz yozuvlar lug'atning butun boshli so'z-maqolalari yoki yirik jumladir. Ularni yo'l-yo'lakay unutib qoldirib, keyin qo'shib qo'yiluvu mumkin emas.

Masalan: To'rt harfli fe'llar bobida o'rtasi va oxiri *sukūn* li bo'lgan so'zlar bo'limida *ettürdi* fe'li keltirilgan. Uning bir ma'nosiga shunday misol berilgan: *ol meniḡ iṣim ettürdi* deydilar, «u mening ishimni tuzatishga buyurdi» degani. Muhimi shundaki, ushbu so'zning boshqa bir ma'nosiga keltirilgan misol hoshiyaga bitilib, belgi bilan yuqoridagi matnga ulab qo'yilgan.

Mana o'sha misol: *ol etük ettürdi* deydilar, «u maxsini, etikni va boshqa narsalarni yamashga buyurdi» degani. (Buning kelasi zamon shakli va masdari): *ettürür ettürmāk* (MK.58b).

Yoki: besh harflilarning *muḍā'af* bobida *igläldi* («og'ridi, kasallandi»), *emläldi* («emlandi, davolandi») so'z-maqolalari keltirilgan. Biroq *imläldi* so'z-maqolasi hoshiyaga yozilib, belgi bilan ularning yakuniga kiritib qo'yilgan. Mana o'sha so'z-maqola:

kiṣi imläldi deydilar, bu «kishi ko'z qiri va boshqa harakat bilan imlandi» deganidir. (Buning kelasi zamoni va masdari): *imlälüür, imlälmāk* (MK.75b).

Buning singari qo'shimcha matnlar keyinchalik boshqa olimlar tarafidan to'ldirilgan deb ham bo'lmaydi: tili, xat uslubi bir. Demak, hoshiyadagi yozuvlarni kotibning o'zi keyinchalik asarning boshqa bir qo'lyozmasidan olib to'ldirgani oydinlashadi.

Taxminimizcha, kotib ushbu qo'lyozmani ko'chirish jarayonida uning ikki qo'lyozma nusxasiga tayangan ko'rinadi. Boshda u asarni bir qo'lyozma bo'yicha to'liq ko'chirib chiqqan. Qo'lyozmani ko'chirib tugatgach, uning qo'liga asarning boshqa bir eski va burungiga qaraganda to'liqroq nuxasi tushib qolgan. Bu nusxa, harqalay, uning o'zi asar yakunida ta'kidlaganidek, lug'at egasi o'z qo'li bilan tuzgan

ilkin qo'lyozma bo'luvi kerak. Kotib ana shu ilkin qo'lyozmaga tayanib, o'zi ko'chirgan matn ustidan qayta ko'rib, burungisida uchramagan, tushib qolgan o'rinlarni ana shu yangi topilgan nusxadan olib, hoshiyalarga yozib chiqqan (ДЖТ.9; ТЦД.15–16). Hatto, bir harfga qo'yilgan ikki xil diakritik belgini ham ko'proq o'sha, o'zi ta'kidlagan, muallif nusxasiga tayanib qo'yib chiqqan bo'luvi ham mumkin. Bular masalaning bir tarafi.

Yuqorida aytilgan mulohazalar boshqa bir to'xtamga ham olib keladi. Kotib Muhammad bin-Abu Bakr Damashqiy foydalangan ikkita qo'lyozmani asarning ikki xil varianti desa ham bo'ladi. Damashqiy ko'chirgan qo'lyozmaga kiritilgan qo'shimcha jumalarga (bu o'rinda hoshiyaga bitilgan matnlar ko'zda tutilayotir) qaraganda, ularning orasida farq bor. Chamasi, muallif asarni yozib tugatgach, undan nusxalar ko'chirilgan. Oradan bir muddat o'tib, asarni to'ldirish, matnga qo'shimchalar kiritishga ehtiyoj tug'ilgan. Natijada asarning yangi bir varianti ham yuzaga kelgan chog'i. Mahmud Koshg'ariy o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozma ularning to'lig'i va qayta ishlangan varianti edi. Damashqiy ham ana shu nusxadan olib, o'zi ko'chirgan matniga qo'shimchalar kiritgan. Shunday qilib, «Devonu lug'ati-t-turk»ning fanga taniqli, hozircha yolg'iz sanalayotgan ishonchli qo'lyozmasi yaratildi.

Tuganchi. Mahmud Koshg'ariy turkiy fonetika va fonologiyaning o'tkir bilimdoni, o'z davrining buyuk fonetistlaridan edi. U arab xatini turkiy tilga birinchilardan bo'lib tatbiq etgan, arab xati asosidagi turkiy yozuvning imlo qoidalarini ishlab chiqqan, uning ilmiy asoslarini bayon etgan olim. Mahmud Koshg'ariy tarafidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan yozuv prinsiplari yuzyillar osha to XX yuzyilning boshlariga qadar aytarli o'zgarishsiz ishlatildi. Turkiy tillar tarixida to'qqiz asrdan ortiqroq davr mobaynida yaratilgan arab yozuvi asosidagi matnchilik amaliyoti ana shu an'anaga suyanagan.

Qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qoshiqlaridan olingan uzindilar, iboralar, ko'plab misollar, shuningdek, sheva materiallari asar uchun manba bo'lib xizmat qilgan. Ishda so'z ma'nosini ochiqlash maqsadida tarixiy va etnografik ma'lumotlar, so'z bilan bog'liq rivoyatlar ham keltiriladi.

Yana bir jihati, «Devonu lug'ati-t-turk»da turkiy so'zlar, o'rni bilan, fonetik va fonologik, leksik-semantik, morfologik, stilistik, ba'zan etimologik jihatdan ham tahlil etilgan. Buning singari xususiyatiga ko'ra o'tmishda yaratilgan lug'atlar orasida turkshunoslikdagina emas, butun sharq leksikografiyasi, lug'atshunosligida unga tenglashadigani topilmaydi.

“Devonu lug'ati-t-turk” qo'lyozmasida ayrim o'rinlarda muayyan harf ustiga va ostiga biryo'la ikki xil harakat belgisi: *fatha* va *kasra* yoki *damma* va *kasra* qo'yib ketilgani, hatto bir so'zning o'zi biryo'la ikki xil harf bilan yozilgani bejiz emas. Ushbu so'zlar ikki xil talaffuz qilingan; muallif so'zning yozma adabiy tildagi

ko‘rinishi bilan bir qatorda, uning boshqa bir talaffuzi, shevalardagi fonetik variantini ham ko‘zda tutgan. Matnda bir paytda turli harakatlar birga ishlatilganining sababi ham shunda. Qo‘lyozmani ko‘chirish chog‘ida kotib ham yanglishgan emas. Matn qunt bilan ko‘chirilgan, bilimli va malakali xattotning ishi bu. Aftidan, bitigchi asarni ko‘chirish jarayonida turkiy o‘rnaklarni qayta-qayta ko‘rib chiqqan ko‘rinadi; matnda tuzatish kiritilgan o‘rinlar ham bor.

Fikrimizcha, kotib ushbu qo‘lyozmani ko‘chirishda asarning ikki qo‘lyozma nusxasiga tayangan. Boshda u asarni bir qo‘lyozmadan olib, to‘liq ko‘chirib chiqqan. Qo‘lyozmani ko‘chirib bo‘lgach, uning qo‘liga asarning boshqa bir eski, burungisiga qaraganda to‘liqroq nusxasi kelib tushgan. Bitigchi ana shu nusxaga tayanib, o‘zi ko‘chirgan matn ustidan qayta ko‘rib, burungisida uchramagan, tushib qolgan o‘rinlarni ana shu nusxadan o‘lib, hoshiyalarga yozib chiqqan ko‘rinadi. Shuning o‘zidanoq asarning bizgacha yetib kelmagan yana ikki nusxasi bo‘lgani ayon; hozir fanga tanilgan to‘liq qo‘lyozma esa uning uchinchi nusxasidir. Bulardan tashqari, asarning yana qancha nusxasi bo‘lgani biz uchun yashirin. Lekin ochiq ayta olamizki, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asari ilk va o‘rta asrlar tilshunosligida dovrug‘ qozongan va uning qo‘lyozmalari ham keng tarqalgan edi.

Asar fanga ma‘lum bo‘lgandan buyon, o‘tgan yuzyil oralig‘ida tekstologiyada, xususan, uning o‘girma nashrlarini yaratish borasida o‘zgarishlar, siljishlar yuz berdi. Asarning ilk nashlari bilan hozirgilari o‘rtasida sezilarli farq bor: matn bir, lekin unga yondashuv prinsiplari turlicha; keyingilarida turkologiyada erishilgan so‘nggi yutuqlar, bilim kishilarining asar tili, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili va shevalariga bo‘lgan yangicha yondashuvlarini kuzatish mumkin. Nashrlar borgan sayin o‘sha davr tilini o‘zida aniqroq aks ettira boshladi. Asardagi turkcha matnlarni transkripsiya yoki transliteratsiyaga o‘girish, so‘zlar va jumlar ma‘nosini ochiqlash, maqol va she‘riy uzindilarni talqin qilish borasida o‘ziga xos qarashlar, yangi-yangi talqinlar yuzaga chiqmoqda. Kezi kelganda, devon tekstologiyasi borasidagi ishlar ham mukammallasha borayotganini ham tan olmoq kerak.

Adabiyotlar

Kaşgarlı Mahmud. (1990). *Dīvānū Lūgati’t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile*.

Kâşgarlı Mahnud. (2014). *Dîvânu Lugâti’t-Türk*. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu.

Маҳмуд Кошғарий. (2017). *Девону луготит турк*.

Маҳмуд Кошғарий. (2021). *Туркий сўзлар девони* [Dīvānu luḡāti-t-türk].

“Qutadg‘u bilig”ning Namangan (Farg‘ona) nusxasi. (2015).

“Nasoyimu-l-muhabbat”: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 316 / 1513 ko‘rsatkichli Navoiy kulliyotida (22b–154a).

Mirzo Mehdixonning “*Sangloh*” lug‘ati qo‘lyozmasi: Fransiya Milliy kutubxonasi: Suppl.Turc.1000.

Hazırlayan K. (1999). *Mevlâna Sekkâkî divanı*. Eraslan. Ankara.

Содиқов Қ. (2020). *Эски ўзбек ёзма адабий тили*.

QADIM BULOQLARDAN SIZGAN ONA TIL...

Abdulhay Sobirov *

Annotatsiya

Til, millat, jamiyat, davlat tushunchalari bir-birini taqozo etadigan va bir-biridan aslo ayricha yashamaydigan tarixiy birliklar sanaladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, *o‘zbek tili*, *o‘zbek millati*, *o‘zbek jamiyati* va *O‘zbekiston davlati* tushunchalarining ostida xalqimiz tarixi, bugungi hayoti, turmush tarzi, ma’naviyati, madaniyati, san’ati va hokazo jihatlari bilan bog‘liq ulkan xazinalar yashirinib yotganiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Tarixni varaqlab ko‘rar ekanmiz, o‘zbek tili uzoq va mashaqqatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek tili ko‘z oldimizda turkiy til shajara

* Filologiya fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti, sobirov-1957@mail.ru.

daraxtidagi eng baquvvat, hamma davrlarda gullab-yashnagan va har jihatdan uning ko'rkam shoxlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va asrlar osha ona xalqimizning orzu-maqсадlarini, istaklarini, shodliklar-u quvonchlarini, qayg'ularini, alamlarini, chekkan azob-uqubatlarini o'zida yaqqol mujassam etgan ilohiy ne'mat sifatida gavdalanadi.

Shu ma'noda o'zbek tiliga aloqador har qanday masala ustida bosh qotirish millatimiz taqdiri, ona tilimizning mamlakatimiz ichidagi va xalqaro maydondagi nufuzi ustida o'ylash bilan barobar. Shunga asoslangan holda ushbu maqolada o'zbek xalqi va o'zbek tili, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish yo'lidagi mashshqqatlar, muammolar va yechimlar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etildi.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, o'zbek millati, o'zbek jamiyati, qabila tili, urug' tili, til tarixi, turkiy til, jamiyat, O'zbekiston davlati, davlat tili, qardosh tillar, xorijiy tillar.*

NATIVE LANGUAGE LEAKED FROM ANCIENT SOURCES...

Annotation

The concepts of language, nation, society and state are considered historical units that require each other and do not live separately from each other. Hence, under the concepts of the Uzbek language, the Uzbek nation, the Uzbek society and the state of Uzbekistan are aspects of the history of our people, modern life, way of life, spirituality, culture, art, etc., we can be sure that huge treasures associated with this are hidden. Looking back at history, we see that the Uzbek language has gone through a long and difficult path of development.

The Uzbek language appears before our eyes as one of the most powerful, flourishing and beautiful branches of the family tree of the Turkic language; it is embodied as a divine blessing, vividly embodying its sorrows, pains and sufferings.

In this sense, arguing on any issue related to the Uzbek language is tantamount to thinking about the fate of our people, the influence of our native language in our country and in the international arena.

Based on this, this article presented the Uzbek people and the Uzbek language, difficulties, problems and solutions towards giving the Uzbek language the status of the state language.

Key words: *Uzbek language, Uzbek nation, Uzbek society, tribal language, ancestral language, language history, Turkish language, society, state of Uzbekistan, state language, related languages, foreign languages.*

Ifoda imkoniyatlarining kengligi, grammatik jihatdan mukammalligi, uslubiy rang-barangligiga ko'ra o'zbek tili turkiy tillarning eng oldingi tillari qatorida turadi.

Turkiy (o‘zbek) tili azal-azaldan nafis adabiyot tili, jonli so‘zlashuv tili, qadim karvon yo‘llaridagi asosiy tillardan biri bo‘lib kelgan. Xonlar, hoqonlar, saltanat egalari kelib-ketavergan; ular topgan boyliklar, ming azobda to‘plagan xazinalar tarix sahnalaridan izziz yo‘qolgan, osmono‘par saroylardan darz ketgan, ammo ona tilimiz zavol topmagan, aksincha, yillar, davrlar o‘tgani sari to‘lib-to‘lishib, boyib, kengayib borgan; egilgan, bukilgan, lekin sinmagan...

Bu haqda buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat o‘tgan asrning boshlarida shunday deb yozgan edi: *“Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog‘inda bo‘lg‘an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizning holini bilmasdan gapuralar.*

Bir tilning boylig‘i u tildag‘i so‘zning ko‘bligi (kasrati kalimot), undirik kengligi (vus‘ati ishtiyoq), yusup gugalligi (mukammaliyati qavoyid) bilan bo‘lur.

Tilimizdag‘i so‘z boylig‘i, ishtiyoq kengligi, qoida tugallig‘i, sarf-nahv ingichlari boshqa sharq tillaridan qolishmas, bu to‘g‘rularida fors tilini butunlay keyinga qoldiradur” [Fitrat, 2006, 336].

Ayni haq gap. O‘zbek tilini boshqa turkiy tillardan ustun qo‘yganimizni, uning sha’nini Fitratdek yuksaklarga ko‘targanimizni shu millat farzandi, shu til sohibi ekanimizga yo‘yinglar. Fitrat aytgan “turkcha” til ayni o‘zbek tilining o‘zidir.

Til daryosi to‘xtamas, har vaqt teran oqar, hamma undan o‘z imkoniyati, ehtiyojiga qarab ulush oladi.

Hech qaysi til tushmagan, Bizlar bergan oshni yeb,
Osmonlardan, falakdan. O‘zlariga berib zeb,
Ular bari tarqagan, Ayrib, bo‘lib ketishdi,
Bitta o‘zak – palakdan. Qirg‘iz, qozoq, o‘zbek deb.
El koriga yaragin, Qirg‘iz, tatar, qozoqmas,
Moziyga boq, qaragin. Hammamiz bir – turkiymiz.
Bizlar kimmiz? Fikr qil – Shunchaki bir xalq emas,
Bosma xalqing palagin. O‘z yurtiga bek, biymiz.

Shu ma’noda turkiy adabiyotning nodir namunalari sanalgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i, Rabg‘uziyning Qisasi Rabg‘aziy”si, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si kabi noyob asarlarning tili fonetik, leksik, grammatik, uslubiy jihatdan boshqa turkiy tillarga qaraganda o‘zbek tiliga juda yaqin turadi va shunga ko‘ra ular o‘zbek tilining noyob manbalari qatorida tilga olinadi.

Boisi – turkiy qavmlarning tarixiy uyushmalari sanalgan qabila > urug‘> ulus (xalq) > millat bosqichlarida o‘zbek xalqi va unig tili (turkiy – chig‘atoy tili) o‘ziga yarasha mavqega, nufuzga ega bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, turkiy qavmning boshida

turgan *qorluq, chigil, arg'un, yag'mo, qipchoq, barlos, kenegas, jaloyir* va boshqa qabilalar o'zbek xalqining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin egallagan [Asqarov, 2015, 68-b.].

Tarixiy holatiga mutanosib ravishda *o'zbek qabilalari, o'zbek urug'lari, o'zbek xalqi* deb atalib kelingan. Demak, til qaysi bosqichda bo'lishidan qat'i nazar qabila, urug', ulus va millatning bosh belgisidir.

Ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi aholining ko'pchiligi qaysi tilda gapirsa, o'sha til shu yerliklarning o'ziga xos tashrif qog'oziga, markasiga aylanishi tabiiy hol sanalarkan – *o'zbeklar yeri, o'zbek xalqi, o'zbek shaharlari, o'zbek qishloqlari* kabi.

Bu nimani anglatadi? Bu shuni anglatadiki, *til, jamiyat, millat, davlat* kabi ulug' tushunchalar bilan bir qatorda turadi va millatning javhari, milliy qadriyatlarning boshi, xalq ma'naviyati va ma'rifatining gultoji sifatida muayyan jamiyatni tuzish va taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir davlatni barpo etishda siyosiy, hududiy, urf-odatlar va qadriyatlar birligi qatorida til birligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu davlat hududida qaysi xalq vakillari ko'pchilik sonni tashkil etsa, o'sha xalqning tili haqli ravishda davlat tili maqomiga ega bo'ladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida rus tili, Amerika Qo'shma Shtatlarida ingliz tili, Germaniyada nemis tili, Fransiyada fransuz tili, Kolumbiyada ispan tili, Braziliyada portugal tili, Eronda fors tili davlat tili maqomiga ega.

Biroq, davr, sharoit taqozosiga ko'ra ayrim mamlakatlarda ikki yoki undan ortiq tillar davlat tili sanalishi mumkin. Kanadada ingliz va fransuz, Pokistonda urdu va ingliz, Keniyada ingliz va fransuz, Tanzaniya va Ugandada suaxili va ingliz, Filippinda ingliz va filippin tillaridan teng foydalaniladi.

Angliyada ingliz, irland, shodland, Belgiyada fransuz, niderland, nemis, Shveysariyada nemis, fransuz, italyan, retoroman, Singapurda ingliz, xitoy, malay, tamil tillari rasmiy til maqomiga ega.

Janubiy Afrika Respublikasida 11ta til: ingliz, afrikaans, venda, zulu, kosa, ndebele, svati, shimoliy soto, sesoto, tsvana, tsonga tillari rasmiy til sanaladi.

Dunyodagi ikkita davlatda o'zbek tili davlat tili maqomiga ega: O'zbekiston Respublikasi va Afg'onistonda.

Afg'onistonlik tadqiqotchi Muhammad Humoyun Nadimning yozishicha, bu yerdagi turkiy tilli elatlar *turknajot* yoki *turktaborlar* deb ataladi va ular mamlakat shimolidagi Turkiston va Qatag'on mintaqalarida joylashgan 9ta viloyatda istiqomat qilishadi. Turkiston mintaqasiga Foryob, Juvuzjon, Saripul, Balx, Samangon; Qatag'on mintaqasiga Bag'lon, Qunduz, Taxxor va Badaxshon viloyatlari kiradi. Mazkur viloyatlarda yashovchi xalq tili, ya'ni o'zbek tili ingliz, urdu, pashtun, tojik tillaridan keiyn 5-davlat tili sanaladi [Muhammad Humoyun. 2022, 49-b.].

Bizga ma'lumki, hozirgi Markaziy Osiyo hududida qadimda Turon podsholigi, Turk hoqonligi, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmiylar davlatlari, Temuriylar saltanati, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hukm surgan. Ularning tarkibiga turli qabilalar, urug'lar, xalqlar kirgan, bitta davlat, bitta g'oya atrofida birlashgan. Mazkur davlatlarda arab, fors, turk, mo'g'ul tillari yetakchi mavqega ega bo'lgan. O'z navbatida jamiyatning har bir ilg'or kishisi mazkur tillardan yetarlicha boxabar bo'lgan va o'zaro muloqotlarda, ish yuritishda aholi o'rtasida hech qanday muammo kelib chiqmagan. Boisi tillarning qo'llanishi va rivolanishi uchun bosh mezon adolat hamda lisoniy bag'rikenglik bo'lgan. Masalan, Amir Temur o'zining "Temur Tuzuklari" asarida qo'l ostidagi *barlos, tarxon, arg'un, jaloir, barlos, tarxon, arg'un, jaloir, tulkychi, dulday, mo'gul, suldus, tug'oy, qipchoq, orlot, totor* kabi 40 aymoqni teng ko'rganini ta'kidlab shunday deb yozadi: *"Turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga – yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim"* [Amir Temur, 1991, 66-b.] .

Anglashiladiki, Amir Temur bunyod etgan ulkan saltanat hududida o'ziga yarasha lisoniy muhit hukm surgan. Muloqotlardagi to'siqlar haqida bizgacha hech qanday salbiy tarixiy ma'lumotlar yetib kelmagan. Ko'hna Turon, Turkistonda til borasida birov birovni kamsitmagan, muloqotlar jarayonida mahkam ushlahgan azaliy qadriyatlar asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan. Buning natijasida Markaziy Osiyo hududida yashagan ko'p sonli el va elatlar o'rtasida til borasida bironta ham janjal kelib chiqmagan. Turkiy til barcha turkiy qavmlarni bir yerga jipslashtirib, birlashtirib turuvchi bebaho ne'mat sifatida e'zozlanib kelingan.

XIX asrni 2-yarmiga kelib vaziyat boshqa tomonga o'zgardi. O'rta Osiyoni chor Rossiyasi harbiy kucn bilan egallab oldi. Til siyosatida yangi davr boshlandi. Rus tili yetakchilik mavqeiga o'tdi. Undan keyingi darajaga qo'yish uchun turkiy tilni ichidan parchalashga, jamiyatdagi mavqeini pasaytirishga zo'r berildi. Turkiy tilli elatlar yashaydigan hududlarni katta qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan chor Rossiyasi va uning merosxo'ri sanalgan sovet hokimiyati uzoqni ko'zlab ish yuritdi: tarixan bitta, yagona bo'lgan turkiy xalqlarni bir nechta bo'laklarga bo'lib yuborishdi. 1924-1936-yillar oralig'ida dunyo xaritasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tojikiston degan rasman qardosh, ammo amalda bir-biriga qarshi qo'yilgan sovet sotsialistik respublikalari paydo bo'ldi. Pirovard natijada avval yagona sanalgan turkiy til o'zbek tili, qozoq tili, qirg'iz tili, turkman tili, tatar tili, boshqird tili kabi 30ga yaqin tillarga bo'lib tashlandi. Bu harakatning bir tomonlama bo'lganligini shunda ham ko'rish mumkinki, 1924-yilgacha O'zbekiston

Turkiston ASR, Qozog‘iston va Qirg‘iziston RSFSR tarkibida Qirg‘iz va Qara Qirg‘iz avtonom oblasti deb yuritilgan.

Yangi tashkil topgan respublikalarga nom berishda sovetlar o‘z siyosatini o‘tkazishdi. Tarixdan ma‘lumki, 1918-yilning 30-apreldan 1924-yilning 27-oktyabriga qadar sobiq ittifoq tarkibida faoliyat ko‘rsatgan Turkiston avtonom respublikasini 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralashda Turkiston SSR deb nomlash har jihatdan ma‘qul edi, ammo bu yerdagi aholini o‘z tarixidan, o‘zligidan uzoqlashtirish maqsadida 1920-yili o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlarida eng katta sonni tashkil qilgan xalq nomiga ta‘kid berishib O‘zbekiston SSR deb nomlashdi. O‘shanda Turkiston aholisining umumiy soni 5221963 nafarni tashkil etgan. Shundan, 2050775 nafarini o‘zbeklar (41,3 foiz), 1091925 nafarini qozoqlar (18,8 foiz), 522292 nafarini qirg‘izlar (10,0 foiz), 399912 nafarini tajiklar (7,7 foiz), 266681 nafarini turkmanlar (5,1 foiz), 75334 nafarini qoraqalpoqlar (1,4 foiz) tashkil etgan [<https://ru.wikipedia.org/wiki>].

O‘zbeklarning son jihatidan ustunligi yangi tuzilgan respublikani O‘zbekiston SSR deb atashga imkon bergan. O‘z-o‘zidan maktab-maorif, ommaviy axborot vositalari, radio-televideniye va rasmiy ish yuritish qog‘ozlari o‘zbek tilida amalga oshirila boshlandi.

O‘zbek tilini davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlashda o‘sha davrda faoliyat ko‘rsatgan jadidlai: Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va ulardan so‘ng o‘zbek adabiyotining yalovbardorlariga aylangan Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi ijodkorlarning o‘rni katta bo‘ldi. Abdulla Oripov, Erikn Vohidov, Pirmqul Qodirov, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov kabi zamondosh yozuvchi va shoirlarning o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘z mavqeini saqlab qolishda fidoiylik ko‘rsatganlarini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz.

Atoqli yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar” degan gapi fikrimizning yorqin isbotidir [<https://kh.davron.uz/dir/kutubxona/uzbek/ona-tili>].

Demak, muayyan tilning rivoji va taraqqiysi uchun birinchi galda shu til amalda bo‘lgan davlat hokimiyati hamda shu davlatda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar birdek javobgar sanalar ekan. Davlat hududidagi asosiy tilning holati shu davlatning suverinetidan, ichki va tashqi maydondagi nufuzidan, aholisining ma‘naviy saviyasidan dalolat berib turarkan. Aslida ham, davlat bu – nafaqat hududiy, iqtisodiy makon va tranzit yo‘lagi, balki madaniy makon, kommunikatsiyalar va yashash makonidir. Davlat xalqni, madaniy qadriyatlarni, tabiat va barcha tabiiy boyliklarni, insonlarni va inson huquqlarini asrash va himoya qilish maqsadida tashkil etiladi [Yulo Vooglayd, 2023, 259-260].

Davlat o'z hududidagi milliy tillarni, birinchi galda o'zi ish yuritadigan asosiy tilni himoyasiga olib, me'yoriy-huquqiy jihatdan uning maqomini belgilab bergan tadirdagina davlat suvereniteti namoyon bo'ladi, uning xalqaro maydondagi nufuzi ko'zga ko'rinadi.

Alohida ta'kidlab o'tish joiz, 1989-yilga qadar davlatimiz sobiq ittifoq edi. Shunga ko'ra, butun ittifoqda va O'zbekistonda asosan rus tilida ish ko'rilardi. Barcha ish yuritish hujjatlari, davlat tuzilmalaridagi tartibot-tashviqot ishlari, majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar rus tilida olib borilardi. Ayniqsa, mamlakatlar va davlatlar bilan xalqaro aloqalar, diplomatik munosabatlar faqat rus tili orqali amalga oshirilardi. O'zbek tili ittifoq tarkibiga kirgan 150dan ortiq xalqlar millatlarning tillaridan biri sifatida rus tiliga qaram tillardan biri edi. Ish hatto shu darajaga borib yetgan ediki, 1981-yilda chop etilgan 2 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni ham Moskvada "Russkiy yazыk" nashriyotida chop etilgandi. Bir tomondan olib qaralganda, bunga ajablanmasa bo'lardi, chunki davr shuni taqozo qilardi. Hamma shu qonun-qoidaga bo'ysunishga majbur edi.

Dunyoni larzaga solgan 80-yillar o'rtasidagi "qayta qurish" siyosati o'zbek millatini ham g'aflat uyqusidan uyg'otdi... O'zbek xalqi o'z tarixi, qadriyatlari, milliy o'zligini ona tilimiz timsolida ko'rdi va mustaqillik uchun kurashning ilk harakatlarini o'zbek tiliga davlat tili maqomini olish uchun boshladi. O'zligini topgan, yuragida xalq, millat dardi uyg'onganki inson bo'lsa, o'zbek tili atrofida birlashdi, jipslashdi. Ona tilimiz millat tug'i, millat nishoniga aylandi (!)

Bugun O'zbekiston "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" shiori ostida o'z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga dadil qadam qo'ydi. U o'zining Davlat bayrog'iga, Davlat Gerbiga va Davlat Madhiyasiga ega bo'lgan va dunyodagi 200dan ortiq mamlakatlar ichida munosib o'rin topib borayotgan davlatlardan biri sifatida tanildi. O'zbek tilining jamiyatimizda tutgan o'rni bosh qomusimizda alohida moddada belgilab qo'yildi: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 4-modda]. Hamma gap mana shu maqomni saqlab qolishga, uni har xil balo-qazolardan himoya qilishga va uning sha'ni, obro'si uchun muntazam kurashishga borib taqaladi.

Zero, o'zbek tili kelajagi uchun hammamiz birdek mas'ulmiz.

Keyingi yillarda tillararo integratsiya masalasi keskinlashib ketganini hammamiz yaxshi bilamiz. Mustaqillik yillarigacha faqat rus tili va u orqali dunyo tillaridan yangi so'zlarni o'zlashtirgan bo'lsak, bugun ingliz, nemis, fransuz, arab, usmonli turk tillaridan to'g'ridan to'g'ri yangi leksik birliklar tilimizga kirib kelmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, nutqimizda *otpuskaga chiqyapman*, *yest qiling*, *obedga chiqdik*, *pomogat qiling* kabi iboralar paydo bo'ldi. Bugungi kunda barcha uchun xos bo'lgan "*bravo*" (ofarin, barakalla), "*ok*" (okey) (hammasi joyida),

“ayva” (qalesan) “super” (eng zo‘r), “o kruto” (dabdabali), “prima” (zo‘r, qoyil), “fantastik” (qoyil), “o kashmar” (dahshatli), “dahshat” (zo‘r) “the best of the best” (hammasidan a‘lo), “shes sekundda yest qilamiz”, “peshaxodda to‘xtang”, “karochi gaplashamiz”, “ajidaniyada ekansiz”, “bu sening problemang”, “ochirid ko‘p ekan”, “ishlaring chiyotkimi”, “telefoningiz zanyat”, “uje hal bo‘ldi bratan”, “zakaz qildim”, “produktaga ketabman”, “ertalab zvonit qildim”, “bibliotekaga bordim” singari nutqiy birliklar shakllanib ulgurdi.

Nutqning sofliigiga, asosan, quyidagi unsurlar ta’sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi.

2. O‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari.

3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” so‘zlar.

6. Kanselyarizmlar.

Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa, nomlar tarkibidagi xorijiy so‘zlar “sun’iy ravishda tiqishtirilganga”, boshqalarning e’tiborini tortish, nomni reklama qilishga o‘xshaydi.

O‘zbekcha+inglizcha yoki inglizcha o‘zbekcha ikki komponentli *Guliston grand, Atlas market, Termiz palase, Aliya pissa, Okean burger, Nilu bouytquye*; uch va undan ortiq komponentli *Yes Boss kafe Shirin kolbasalari dilleri, Fayz family guest Hause, Termiz, To‘rt aka-uka market*, o‘zbekcha+ruscha+inglizcha *Iskandar mini restoran*; komponentlari ruscha-baynalmilal so‘zlardan yasalgan *Diplomat restourent, Moskovskiy delikates, Nike burger, Street burger, Andalus fast food*; turk, arab tillaridan olingan *Zeytun, Darxon Doner, Doner taym* singari nomlarda buni yaqqol kuzatish mumkin.

Ajablanarliki, *grand, market, palase, burger, bouytquye, Yes Boss, guest, Hause, siti* kabi so‘zlar hali lug‘atimizdan joy olmadi-ku?! Bu xorijiy so‘zlarga mahliyolik, YEropa andozalariga taqlid, chet eldagi neyming (reklama) ko‘rinishlariga intilishdan boshqa narsa emas.

Bu holatni *Arch Desing Servise, Termiz Modern Proyekt MCHJ* kabi qurilish; *ELITA-BAXROM XK, Al Baik Chicken MCHJ, Pizza Xojs Termiz XK, Sar Al Legro MCHJ* maishiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlari; “*NAT GAZ GROUP*” MChJ, “*MERIDIAN HOTEL*” MChJ, “*MEGA AL QASR*” MChJ kabi mehmonxona nomlarida ham uchratamiz.

Shuningdek, *Restoran Ideal SS, 000000market, Arbat 75, HOT DOG & BON DOG, Shashlik & somsa haus, Lag‘mon & Manti bu Sayyora, Kafe 53 Shiken* (torgoviy sentr) ko‘rinishidagi aralash nomlar ham tilimiz qoun-qoidalariga to‘g‘ri

kelmaydi. Oddiy soʻzlar qoʻshilmasidan yasalgan *Azlarsoy ideal parranda* kabi nomlar esa odamda erish uygʻotadi.

Market soʻzi ishtirokida yasalgan *Marvarid minimarket*, *Yubileyniy minimarket*, *Yubileyniy supermarket*, *Minimarket 5 dom*, *Multi market*, *SevSarmarket*, *Multi super market* nomlar ham zamonasozlikdan boshqa narosa emas.

Aygerim, *Murager*, *Rixiz* singari nomlar tilimiz taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi. Kirill alifbosida notoʻgʻri yozilgan *Xan Sultan*, *Karavan kafe* kabi nomlar esa bizni savodsizlik tomon yetaklashi aniq.

Kola goʻsht markazi, *Nurli Diyor Milliy taomlar* kabi nomlardan ham cheklanish payti keldi.

Umuman olganda, til insonga Yaratgan Egamni, olamni va undagi eng ezgu fazilatlarni madq etish, boshqalarga yoyish uchun berilgan. Har bir milliy til oʻz taʼsir doirasida oʻrinli qoʻllangandagi joziba, latofat kasb etadi. Aks holda u siyqalashib, joʻnlashib, uni koʻtarib yurgan sohiblari eʼtiborida sharafsiz bir vazifaga tushib qoladi. Muayyan davrda yashagan insonlar oʻz tillari uchun kelajak avlod oldida qarzdordirlar. Bu qarzni hech narsa bilan uzib boʻlmaydi. Faqat eʼtibor va tilni qoʻllashga tabiiy “ixtiyor” bu yoʻlda eng yaxshi vositadir.

Demak, davlat tiliga eʼtibor, uni hamma joyda oʻrinli qoʻllash, sunʼiylikka, shoshma-shosharlikka, zamonasozlikka, taqlidchilikka berilmaslik, aksincha, yetti oʻlchab, bir kesib korxona va tashkilotlarga, muassasalarga munosib nom qoʻyish bizni oq yuvib, oq taragan barcha millatdoshlarimiz zimmasidagi muqaddas vazifadir. Bu yoʻlda hammamizga omad yor boʻlsin.

Adabiyotlar

Abdurauf Fitrat. (2006). *Tanlangan asarlar. 4-jild.* Darslik va oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. Toshkent: Maʼnaviyat. 336.

Asqarov A. (2015). *Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi.* Toshkent: Oʻzbekiston. 700.

Shukurov A. (2010). *Oʻzbek atamasining kelib chiqishi haqida.* Qarshi: Nasaf.

Muhammad Humoyun Nadim. (2022). Shimoliy Afgʻoniston oʻzbeklari toʻy marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari: *Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss...avtorefati.* Termiz. 49.

Temur tuzuklari. (1991). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. 66.

<https://ru.wikipedia.org/wiki>.

<https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/uzbek/ona-tili>.

Юло Вооглайд. (2023). *Ватандошлик дастури*. Тошкент: Азон китоблари нашриёти. 259-260.

TIL TASHNALIGI

Ibrohim Yo‘ldoshev*

Annotatsiya

Insoniyat uchun ulug‘ bir ne‘mat o‘laroq berilgan til uning hayotida eng muhim vazifani bajarib kelgan va bundan so‘ngra ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Til millatning ruhidir. Usiz millat yashay olmaydi, yo‘qlikka mahkum bo‘ladi. Ayniqsa, til va madaniyat masalasi juda qadimdan o‘ta dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Til orqali har bir millatning xulqi, odobi, ma‘naviyati, madaniyati, qolaversa, millat sifatida jamiyatda nechog‘lik o‘rin egallaganligi ma‘lum bo‘lgan. Shu bois ulug‘ ajdodimiz Yusuf Xos Hojib “Odobning boshi tildir” deb bejiz

* Filologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

aytmagan. Buyuk Navoiy esa "Xamsa"ni bitib, o'zbek tilini adabiy til sifatida jahon sahnasiga olib chiqdi, yuksaklikka ko'targan. Maqola mana shu mavzuda.

Kalit so'z: *bo'z, ipak, kiyimlar to'qish, buyoqchilik, kulolchilik, qog'ozgarlik, zargarlik, duradgorlik, kovushdo'z, mahsido'zlar, hunarmandchilik, muayyan sohalar, ma'danchilik mahsuli, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik sohalari.*

Abstract

The language, given as a great gift to humanity, has performed the most important task in its life and will not lose its importance even after that. Language is the soul of a nation. Without him, the nation cannot live, it is condemned to non-existence. In particular, the issue of language and culture has been one of the most relevant topics for a very long time. Through the language, it was known that the behavior, manners, spirituality, culture of each nation, as well as the place it occupied in the society as a nation. That is why our great ancestor Yusuf Khos Hajib did not say for nothing that "the head of manners is the language". Buyuk Navoi finished "Khamisa" and brought the Uzbek language to the world stage as a literary language. The article is about this topic.

Key words: *gray, silk, clothes weaving, dyeing, pottery, paper making, jewelry, carpentry, leather goods, handicrafts, specific industries, mining products, agriculture, horticulture, animal husbandry.*

Har qanday til o'z tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini ham ichki, ham tashqi manbalar hisobiga boyitib, rivojlantirib boradi. Til taraqqiyotining bu umumiy qonuniyati o'zbek tili uchun ham taalluqlidir. «Bunday qonuniyatga ko'ra, o'z qatlam negizlari bazasida yangi so'zlar yasaldi, mavjud so'z ma'nolari kengaytirildi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha nominatsion funksiyalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalaridan turli davrlarda, ehtiyojga ko'ra, so'zlar qabul qilindi». O'zbek tili lug'atining boyishida ichki manbalar muhim resurslardan hisoblansa-da, dunyodagi hech bir til faqat o'z ichki resurslarigagina tayanib ish ko'ra olmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manba (resurs) muhim rol o'ynaydi. Umuman, dunyoda hech bir til boshqa tillardan mutlaq ajralgan holda rivojlana olmaydi. Shu sababli, har qanday tilning lug'at tarkibida shu til bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa tillarning elementlari mavjud bo'ladi. Xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar negizida tillararo so'z almashtirish yoki o'zaro so'z o'zlashtirish hodisasi sodir bo'ladi. Chunki xalqlar o'rtasida sodir bo'lgan o'zaro munosabatlar natijasida o'zlashgan moddiy ashyolar va ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar bilan birga, o'z navbatida, ularni ifodalovchi so'zlar ham o'zlashadi.

Insoniyat uchun ulug' bir ne'mat o'laroq berilgan til uning hayotida eng muhim vazifani bajarib kelgan va bundan so'ngra ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til millatning ruhidir. Usiz millat yashay olmaydi, yo'qlikka mahkum bo'ladi. Ayniqsa, til va madaniyat masalasi juda qadimdan o'ta dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Til orqali har bir millatning xulqi, odobi, ma'naviyati, madaniyati, qolaversa, millat sifatida jamiyatda nechog'lik o'rin egallaganligi ma'lum bo'lgan. Shu bois ulug' ajdodimiz Yusuf Xos Hojib "Odobning boshi tildir" deb bejiz aytmagan. Buyuk Navoiy esa "Xamsa"ni bitib, o'zbek tilini adabiy til sifatida jahon sahnasiga olib chiqdi, yuksaklikka ko'tardi. Ulug' Navoiy aytganidek, "Tilga e'tibor – elga e'tibor"dir.

Biz tarixdan yaxshi bilamizki, X-XI asrda yurtimizda ro'y bergan sivilizatsiya natijasi o'laroq o'lkamizda madaniy hayot o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Xususan, shahar va qishloqlarda o'troq hayotning ko'payishi natijasida bo'z, ipak kiyimlar to'qish, buyoqchilik, kulolchilik, qog'ozgarlik, zargarlik, duradgorlik, kovushdo'z, mahsido'zlar kabi hunarmandchilikning muayyan sohalari, shuningdek, ma'danchilik mahsuli o'laroq metalsozlik, sug'orish tizimining davrga mos ravishda yo'lga qo'yilishi natijasida dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik sohalari beqiyos darajada rivojlandi. Bu sohalarning rivojlana borishida asosiy kuch bo'lgan xomashyo etkazib beruvchi kasb-kor egalari ham maydonga chiqdi. Bularning natijasida o'zaro savdo-sotiq ishlari kengaydi, millat va elatlar o'rtasida o'zaro muloqotning kengayishi bilan tillararo munosabatlar hajmi ortib bordi. Ana shunday madaniy hayotning yuksala borishi natijasida mamlakatda tarixiy, tibbiy, tabiiy va badiiy asarlar bilan birga ikkita buyuk filologik asar: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarlari maydonga keldi. Ikki og'iz "Qutadg'u bilik" asari haqida: "XI asrning etuk shoiri, olimi Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan bu asar O'rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining uzoq o'tmishini har tomonlama ilmiy asosda yoritish uchun muhim bo'lganidek, o'zbek adabiyoti va tili tarixini o'rganish uchun ham cheksiz muhimdir. "Qutadg'u bilik" hajm jihatdan katta, janr jihatdan u davr uchun tamom yangi va birinchi asar edi. Shuning uchun ham avtor o'z oldiga asar tili (adabiy til) ustida katta talab qo'ydi. "Qutadg'u bilik" asarining tili u davrda alohida bosqichga ko'tarilgan yozuv tili – adabiy tildan namunadir".

Yirik ikkinchi asar sifatida e'tirof etganimiz Mahmud Koshg'ariy qalamiga mansub "Devonu lug'otit turk" asaridir. Xalqaro munosabatlarda til o'rnining muhim ekanligini chuqur anglagan Koshg'ariy o'zaro muloqot tilidagi mavjud bo'lgan xilma-xilliklarga barham berish maqsadida o'zining "Devonu lug'otit turk" asarini yaratdi. "Uning bebaho "Devonu lug'otit turk" asari u davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. Uning asari o'z davri uchun benihoya katta voqea bo'lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo'ldi. Mahmud

Koshg'ariy turkologiya fanining dastlabki ustodi bo'ldi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachon jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi. Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug' ustod sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondoshadilar, unga asoslanadilar". Ushbu e'tiroflar o'z yurtini, xalqini sevuvchi har bir insonni quvontiradi, ulardan o'rnak olishga undaydi.

O'rta asrlar madaniy hayotida, xususan, dunyo tilshunosligida Alisher Navoiyning "Muhokatu-l-lug'atayn" asarining o'rni yuksakdir. Navoiy ushbu asarini 1499-yilda yozdi. Demak, "Navoiy ushbu asarini umrining so'nggi kezlari – ulkan hayotiy tajriba to'plagan, ilmiy qarashlari maromiga etgan, fikri ayni toblangan, tugallik darajasiga erishgan bir chog'da yaratdi. "Muhokatu-l-lug'atayn" Navoiyning ilmdagi ulug' kashfiyotidir. Asar tilshunoslikda yangidan-yangi sohalarga asos solganligi, tilni o'rganishning yangi yo'l va usullarini ochib berganligi bilan ham ahamiyatli. Navoiy ushbu asari bilan dunyo tilshunosligida birinchi bo'lib tillarni tipologik o'rganish sohasini, ularni chog'ishtirib o'rganish ishini boshlab berdi. Navoiy o'z asarida ... turli oilaga mansub ikki til – turkiy va forsiyni o'zaro chog'ishtirib, tipologiyaning leksik-semantik, fonologik, morfologik aspektlarini ishlab chiqdi". Ko'rib o'tilganidek, tilning madaniy hayotdagi o'rni har doim ham sezilib turgan. Yuqorida baxs etganimiz uch buyuk ajdodimiz asarlarining yaratilishi tarixida ham ushbu masala, ya'ni til va madaniyat masalasi bosh mezon bo'lgan.

Bugun yurtimizda har bir sohada buyuk o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning bevosita tashabbuslari bilan buyuk O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlash borasida katta marralar sari intilmoqdamiz. Dunyo miqyosida o'ta murakkab bir vaziyat bo'lib turgan zamonda har birimiz bo'layotgan islohotlar borasida o'z ulushimizni qo'shish sari shijoat qilishimizni davrning o'zi talab etmoqda. Bu yurt, bu o'lka, uning etuk farzandlari qadimdan jahon madaniyati rivojiga katta ulush qo'shib kelgan. Manbalarda aytilganidek, **"Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy-texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan... Qadimiy Turonda axloqqa katta e'tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonning millatidan qat'iy nazar, barcha mavjudodlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va etuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan"** (Жўпаев Н., 1998, 106-107-b.). Biz yaxshi bilamizki, yurtimizda axloq masalasi benihoya serqamrov, mag'zi to'q, qiyosi yo'q tushuncha sifatida ardoqlab kelinadi. "Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to'lqinlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, tarhli nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan". Demak, til va nutq masalasi

qadimdan millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh omillaridan biri bo'lib kelgan. Ona tilimiz kelajagini ta'minlash – xalqimiz madaniyatini asrashdir, uning boqiyiligini ta'minlash bugun uchun, ayniqsa, muhimdir. Bugungi davr shuni taqozo etmoqda.

O'zbek tilining vatani, tabiiyki, jonajon O'zbekistondir. Uning adabiy til sifatidagi hayotiga umrboqiylikni muhayyo qiluvchi, uni saqlab boruvchi, himoya qilish bilan birga abadiy yashashini, taraqqiyotini, shevalar mazkur adabiy tilning jon tomirligini ta'minlovchi yagona yurt – O'zbekistondir. Demak, o'zbek tilining VATANI O'ZBEKISTONDIR. O'zbek xalqi bu tilning egasidir. Yer yuzining q aerida yashashidan qat'iy nazar o'zini o'zbek sanagan inson shu tilning egasi, uning himoyachisidir, qachonki, u shu ona tilini sevsa, uning kelajagi, rivoji uchun qayg'ursa, unga mehr-muhabbat ko'rsatsa ...

Tabiiyki, o'zbek xalqi haqida gap ketganda doimo muhtaram adibimiz Abduqahhor Ibrohimovning “Bizkim, o'zbeklar” kitobida bildirgan fikrlari yodimga tushaveradi. Kitobning “So'zboshi”da yozadi: “Hayotiy lavha. 1967-yilning dekabr oyida taqdir taqozosi ila xizmat safari yo'llanmasi bilan Moskvaga bogan edim. Qahraton qish. Srvuq o'ttiz darajaga yaqinlashib qolgan. Qatqaloq muz ustiga yoqqan quruq qor tizza bo'yi keladi. Shunga qaramay, tarki odat amri mahol deganlaridek, yakshanba kuni ertalabdanoq shaharning ko'hna qismida joylashgan, nodir va kamyob kitoblar sotiladigan “Bukinist” do'konlarini aylana boshladim. Stoleshnikov proezdidagi do'konda hajmi kichik yostiqlik keladigan bir kitobni uchratib qoldim. Erinmay asta ko'zdan kechira boshladim. Sotuvchi chin xaridor ekanimni sezdi shekilli, meni yanada qiziqtirish maqsadida “Bu kitobda tilga olinmagan hech narsa qolmagan. 180 ming atama va so'zga izoh berilgan. Bahosi ham shunga yarasha. Lekin olsangiz, pulingiz o'zingiz bilan ketadi”, deya peshtaxta ustiga qo'limdagi kitobning egizagini qo'ydi: “Bunisi ikkinchi jildi”.

Qo'limdagini qo'yib, ikkinchi jildni ko'zdan kechira boshladim. Shunda xayolimdan bir fikr yarq etibo'tdi: “Bir yuz sakson ming so'zga izoh berilgan ekan, qani, o'zbek haqida ham biror nima deyilganmikan, umuman, dunyoda shunday millat ham borligi e'tirof etilganmikan?” Kitobni alifbo bo'yicha varaqlab, undan tegishli joyini topdim: **“O'ZBEK – jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlar o'rtasida birinchi bo'lib o'troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat ...”** Chunonam sevinib ketdimki, hali o'sha paytgacha bunday ma'naviy huzur-halovat tuymagan edim. Puli qanchalik chaqmasin, millatimizga berilgan rost va xolis ta'rifning borligi uchunoq “The World Encyclopedia Diktinary Book” (“Jahon qomusiy lug'ati”) deb ataluvchi, AQShning Chikago shahrida 200 ming nusxada nashr etilgan, biroq O'zbekistonga etib kelmagan, sobiq ittifoqda kamyob hisoblangan bu ikki jildli kitobni hech og'rinmay sotib oldim” (Иброҳимов А., 1999. 7-8-b.

Abduqahhor Ibrohimov hayotida bundan salkam 60 yil avval sodir bo'lgan ushbu voqeani – millatimiz haqida muhim ma'lumotni, e'tirofni O'zbekiston to o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgunga qadar oshkor qilish, undan foydalanish va ommalashtirishga zarurat bo'lmadi, imkoniyat va sharoit ham, talab va ehtiyoj ham sezilmadi. Ushbuni adibning o'zi ham ta'kidlab o'tadi. Jahon miqyosida ana shunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan o'zbek xalqi va uning ona tili yaqin vaqtlargacha tarixan o'zi erishgan mavqe va ehtiromni ko'ra oldimi? Ona tilimizning jamiyatdagi o'rni qay darajada bo'ldi?

Til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtai nazaridan farqli ma'nolarni ifodalsa-da, bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Tilni xalq yaratadi va o'z navbatida, u jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o'z izlarini, birinchi galda, tilda qondiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda aks aks etadi. Ana shu qonuniyat til va jamiyat tushunchalarining qanchalik uzviy bog'liqligini ifoda etadi. Bu yaqin bog'liqlikni yanada aniq ifodalash uchun quyidagi holatni anglash etarli: agar biz Alisher Navoiy asarlarini o'qisak, Navoiy yashagan davr bilan "gaplashamiz". Navoiy qo'llagan so'zlar o'sha davrdan sado beradi. Unda *bank*, *avtobus*, *mashina*, *telefon*, *futbol*, *monitor* kabi so'zlar mutlaqo uchramaydi, bo'lishi ham mumkin emas. Chunki u davrda bunday tushunchalarning o'zi bo'lmagan. Navoiyda *kotib*, *qalamzan*, *xushnavis*, *kilk*, *xoma* kabi so'zlarni o'qishimiz mumkin va ular Navoiy yashagan davrga xosdir. Jamiyat taraqqiyot etib borishi jarayonida undagi o'zgarishlar bilan hamohang tarzda yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi so'zlar paydo bo'lib boraveradi. Demak, til jamiyat bilan doimo hamnafas yuradi.

Til xususida bildirilgan fikrlar turlicha, lekin haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo'tabardir. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari etaklagan, uning aql ne'matlarini ifoda etib, tafakkur gulshani darvozalarini ochgan tengsiz bir robitadir. Shunday bir buyuk ehtirom va e'zozga sazovor bo'lgan tillarning kechmishi bir xil emas, albatta. Tarix sahnasida o'zbek tili ne mashaqqatlar bilan omon qoldi. Axir, til – millatning ruhi, deyiladi, til o'lsa, millat ham tamom bo'ladi. Bunga misollar kammi? Butun Yevropa tillarining shakllanishida etakchi til vazifasini bajargan buyuk lotin tili, Sharq tillarining bobosi deb ataganimiz sanskritcha tamoman tugab bitdi. Yoki yaqin hududlarimizda keng quloch yoyib taraqqiy etgan so'g'd tili, pahlaviy, parfiyon tillarining kechmishini eslaylik. Yoki Shimoliy Amerikadagi algonkin tillari mikrooilasiga kiruvchi massachuseti hamda mogikan tillarining taqdiri ham yo'qlik bilan yakunlandi. Yoki qadimgi Vaviloniyada keng tarqalgan akkad tili, eramizdan oldingi III asrdan eramizning IV asriga qadar G'arbiy Osiyoda yashagan oromiylarning oromiy tili, shuningdek, qadimgi Finikiyadagi finikiy tili, qadimgi misr tili negizida paydo bo'lgan kopt tili kabi tillarning taqdiri

ham yo‘qlik bilan yakun topib, tarix sahnasidan tushib qoldi. Shuning uchun ham tilimizning bugungi rivoji va jahon tillari orasidagi munosib o‘rni uchun beaded shukurlar qilishimiz kerak. To‘g‘ri, tilimiz ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘p sinoatlardan muvaffaqiyatli o‘ta oldi. U dunyo tillari ummoniga kelib quyilgunga qadar qaerdadir shovullab shiddat bilan oqdi, qaerdadir tarix yo‘lidagi dambaga duch kelib, shiddatini sekinlatdi, yana dambani oshib o‘tib, o‘z o‘zanida til ummoni sari intildi. **Tilimizning bugunga qadar omon-eson kelishi va taraqqiy etishining asosiy boisi, birinchidan, xalqimizning o‘z ona tilini jonidan sevishi, asrab avaylashi, ardoqlashidadir.** Zero, bu haqda bundan ming yil avval buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariy aytgan edilar: “Xudo davlat quyoshini turklar (o‘zbeklar – I.Y.) burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk (o‘zbek) deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, ularni to‘g‘ri yo‘lda yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga etib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular til tufayli o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar” (Koshg‘ariy, DLT, 2016, 21-b.) Mahmud Koshg‘ariy tomonidan bundan ming yil avval aytilgan mazkur fikrlardan ko‘rinib turibdiki, xalqimiz azal-azaldan ona tilimizning muhibi, uni muqaddas bilib, ardoqlab kelgan. Xalqimizning ana shu xususiyatlari tufayli tilimiz tarixning barcha sinovlaridan omon-eson o‘tib, bugungi yorug‘ kunlarga etib keldi. Millatimiz tabiatidagi ko‘p ming yillik til sevgisi, til e‘zozini bugun ham to‘liq kuzatishimiz mumkin.

E’tibor bering: agar Siz biron-bir xorijiy tilda ular mamlakatida ular tilida chiroyli qilib ma’ruza o‘qisangiz, suhbatlashsangiz ular taajjubga tushishmaydi, go‘yoki, Siz ularning tilini bilishingiz shartdek. Magarki, bir xorijlik mehmon bizning yurtimizdagi har qanday tadbirda tilimizda qo‘pol qilib bo‘lsa ham ikki og‘iz so‘z bilan “Assalomu alaykum, aziz do‘stlar”, desa bo‘ldi, biz o‘rnimizdan turib, uni olqishlaymiz. Ma’ruzadan keyin u bilan yuz yillik do‘stdek iliq munosabatda bo‘lamiz. Chunki bu xislat bizga ming yillar avvaldan nasib etgan.

Ikkinchi holat: 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Aslida mustaqillikning ma’naviy poydevoriga 1989-yilning 21-oktyabrida asos solingan edi. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun uzoq yillik tanaffusdan so‘ng o‘zbek tiliga rasmiy maqom berdi va u davlatning asosiy ish yuritish tiliga aylandi. Mustaqillik o‘zbek xalqi, uning tilshunoslari va tilshunosligi zimmasiga ajdodlarimiz qoldirgan

ma'naviy merosni o'rganish, uni bugungi va kelajak avlodlarga etkazish, o'zbek tili taraqqiyotining zamon bilan hamnafas borishini ilmiy kuzatish, bu yo'nalishda zaruriy tadqiqot ishlarini olib borish, o'zbek terminologiyasini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ilmiy xulosalarga asoslangan holda uyg'unlashtirish, tartibga solish kabi dolzarb vazifalarni yukladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi ikki mingdan ortiq tilning oltmishga yaqinida ilmiy terminologiya masalalari tadqiq etiladi va u uch yuz atrofidagi kasb-hunar doirasini qamragan, xolos. Shunga ko'ra, har bir tilda ishlangan sohalar terminologiyasi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Terminologik faollik har bir sohaning samaradorligi, taraqqiy etganligi kabi holatlar bilan ham belgilanadi (Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. 1989, 4-с.).

Uchinchi holat: XX asr o'zbek xalqi madaniy hayotida Davlat tili haqidagi Qonunning qabul qilinishi qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, 2016-yilning 13-mayida Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan imzolangan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon ham XXI asr o'zbek xalqi madaniy hayotida olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi.

To'rtinchi holat: so'nggi besh-olti yil ichida davlatimiz rahbarining domiy e'tibori tufayli o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish borasida yangi bosqich boshlandi. 2019-yilda Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinganining 30 yilligini keng nishonlandi. 1989-yil 21-oktyabrdan keyingi o'tgan davr tarix sahnasida juda qisqa bir vaqtni tashkil etsa-da, yurtimizda bu sohada olamshumul ishlar amalga oshirildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan 2019-yilning 4-oktyabrida imzolangan "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qaror ona tilimiz rivojiga berilgan katta e'tibor namunasidir. Qarorda shunday deyiladi: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir". Shuningdek, ayni shu yili 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning ilk satrlarida barchamizni ruhlantiruvchi quyidagi so'zlarni o'qiymiz: "Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir". Farmonda 21-oktabr sanasi yurtimizda O'zbek tili bayrami kuni deb belgilandi va bu xalqimiz tomonidan katta xursandchilik bilan qabul qilindi. Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va maxsus

dastur ishlab chiqildi. Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida "til ilmi tadqiqi, ta'limi va targ'ibiga daxldor tizimli hamda keng qamrovli ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirildi va oshirilmoqda. O'z-o'zidan bizda bu sa'y-harakatlar dunyo hamjamiyatining ham e'tiborini tortganligi bois, o'zbek tilini o'rganish va tadqiq etishga qiziqish vaqt o'tgani sayin oshib bormoqda".

Davlatimiz rahbarining "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganining o'ttiz yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirdagi bayram tabrigida har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligi alohida ta'kidlandi. Demak, har birimiz o'z ona tilimizga e'tiborli bo'lishimiz, uni ardoqlashimiz, kelajak avlodga nafosat va nazokatli tilimizni butun go'zalliklari bilan etkazishimiz lozim. Bu ish bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi eng muqaddas burchlaridan biridir.

2020-yilning 20-oktyabrida "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi. Bu tarixiy Farmonda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash asosiy maqsad qilib qo'yildi.

2022-yil 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Muhtaram Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga bayram tabrigida tilimizga munosabat masalasida quyidagilarni ta'kidladi: "Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga etkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo'lsa, uning o'zligi va ma'naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrli va mo'tabardir. Qadim turkiy tilimizning ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg'ariyning: "**Erdam boshi tildur**", ya'ni "Barcha ezguliklar tildan boshlanur", degan so'zlarida teran haqiqat mujassam. Darhaqiqat, odamzod qalbidagi jamiki olijanob fazilatlar ona tilining betakror mo'jizasi, sehri va jozibasi bilan kamolga etadi".

Demakki, biz tarixan ona tilimiz shaydosimiz. Shunday bo'lishi ham kerak. O'zbek tilining yurti, Vatani – O'zbekiston, davlat sifatida uni himoya qiladigan, taraqqiyotini, qonuniy asoslarini to'liq ta'minlaydigan ham shu yurtidir. Endigi vazifamiz, asrlar davomida xalqimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab kelingan, Koshg'ariy, Navoiy kabi bobolarimizdek buyuk insonlarimiz bu til yashab ketishi,

taraqqiy etishi uchun butun hayotlarini baxshida etgan tilimizning butun borlig'i bilan kelajak avlodga etkazishdir. Chunki til – millatning ruhi, til yashasa, millat ham yashaydi. Demak, bugun ham ona tilimiz oldidagi mas'uliyatimiz ortsa ortganki, kamaymagan.

Dunyoning ko'pgina tilshunoslari tillarning o'zaro aloqasi xususida talaygina ilmiy izlanishlar olib borishgan. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligida bu masalaga ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik nuqtai nazardan yondashilgan, ya'ni muayyan bir til tarixini o'rganish orqali mazkur tilning o'z taraqqiyoti davomida tarixning u yoki bu davrida boshqa tillar ta'siriga tushishi va buning natijasida tillar o'rtasida o'zaro so'z almashish hodisasi kuzatilgan. Tabiiyki, tillar o'rtasida o'zaro so'z almashish aloqasining miqdoriy natijalari turli tillarda turlicha bo'ladi. Jahon tillari orasida hech qachon va hech qaerda boshqa tillar ta'siriga tushmagan yoki o'z lug'at boyliklaridan bermagan til topilmasa kerak. Shuningdek, hech bir tirik til boshqa bir til bilan o'zaro aloqaga kirishmaslik kafolatini bera olmaydi. Dunyo tillarining o'zaro aloqada bo'lishi, bir-birlariga ta'sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday o'zaro ta'sirning, ayniqsa, leksikada samarali bo'lishi ma'lum fakt. Xalqlarning o'zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta'siri turli davrlarda, turli sharoitda muayyan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat tufayli o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo'lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali tarzda bo'ladi. Shu o'rinda 1993-yil oktyabr oyida Anqara universiteti Til, tarix, jug'rofiya fakulteti "Turkiy lahjalar" kafedrasida bo'lib o'tgan bir hangoma yodimga tushdi: "Kafedrada o'sha davr taqozosi bilan endigina mustaqillikka erishgan turkiy davlatlardan professor-o'qituvchilar mehnat faoliyati olib borishardi. Qozog'istondan o'qituvchi Abay O'rinboev, Xitoydagi qozoq millatiga mansub dos. Zaynash Ismoil, Mo'g'ulistondagi qozoq millatiga mansub Napil Bazirg'on o'g'li, Qirg'izistondan dots. Razzoq Saydilxanov, Turkmanistondan akademik Sapar Kurenov, Ozarbayjondan prof. Mehmon Musayev va O'zbekistondan kamina – hammamiz turkiyalik professor-o'qituvchilar bilan birgalikda uzoq yillik ayriqlik va hasratdan so'ng hamkorlikda mehnat qildik. Albatta, mavzularimiz ko'pincha turkiy tillarning o'tmishi va bugunidagi muammolar borasida bo'lib turardi. Shunday suhbatlarning birida turkiyalik hamkasbimiz: "Turkiy tillar orasida eng toza, ifloslanmagan til bu turk tilidir. Boshqa turkiy tillar rus tili ta'sirida ruscha so'zlar bilan to'lib ketgan, masalan, biz "uchoq" degan narsani sizlar ruscha so'z bo'lgan "самолёт" bilan ataysizlar", – degan iddaoni ko'tarib qoldi. Bu masalada ancha tortishdik. Hamkasblar ham o'z fikrlarini bildirishdi. Shunda men: "To'g'ri, dunyoda sof til mavjud emas. Har qanday til ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy vaziyatlar tufayli turli tillar bilan aloqaga kirishadi va uning natijasida so'z olish-berish jarayonlari sodir bo'ladi. Sobiq sho'rolar davrida turkiy tillar, tabiiyki, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan ko'plab so'zlarni o'zlashtirgan. O'zbek tili ham

bundan mustasno bo‘lmagan. Siz aytganingizdek, turkchada “uchoq”ni biz rus tilidan o‘zlashgan “самолёт” so‘zi bilan ataymiz. Sizda, ya’ni turkchada uchoqni boshqaruvchini nima deb ataysiz?” – deb savol berdim. Qardoshim biroz tin oldi va: “Pilot”, – dedi. Shunda barchamiz kulib yubordik. “Ko‘rdingizmi, turkchadagi fransuz tilidan o‘zlashgan “pilot” (pilote)ni o‘zbeklar “uchuvchi” – deydi, deganimda turk o‘rtog‘imiz o‘ylanib qoldi. Shunda men: “Demak, turkchani ham til sofliги masalasida boshqa turkiy tillardan hech qanday ustunligi yo‘q. Barcha tillar insonlar, xalqlar, mamlakatlar singari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, shu tariqa bir-birini boyitib boradi. Hisob – teng, – dedim”. Shu tariqa bu mavzudagi munozaraga chek qo‘yildi.

Darhaqiqat, turli tarixiy davrlarda o‘zbek tili ham ko‘plab boshqa tillar bilan o‘zaro aloqada bo‘ldi. Shu bois, o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibida qadimgi uyg‘ur, so‘g‘d, xitoy, arab, mo‘g‘ul, fors-tojik, rus va boshqa tillarning unsurlari mavjuddir. Bu tillar o‘zbek tili lug‘at tarkibiga turli davrlarda, turli darajada, turli yo‘llar bilan ta’sir etgan. Ko‘pgina tadqiqotlarimizda biz ko‘proq ona tilimizga o‘zlashgan so‘zlar haqida ko‘p va xo‘p gapiramiz-u, lekin tilimizdan boshqa tillarga o‘zlashgan so‘zlar masalasiga kam e’tibor ko‘rsatamiz. Aytish lozimki, qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan ko‘plab tillarga o‘zbek tilimiz ham o‘z so‘zlaridan bergan. Masalan, yigirmanchi asrda sobiq sho‘rolar tizimining eng faol qo‘llangan so‘zlaridan biri bo‘lmish “товарищ” so‘zining asli o‘zbekcha ekanligiga ishonasizmi? Ko‘pchilikning bunga ishonmasligi tabiiy, go‘yoki so‘z o‘zagini o‘xshatish orqali asoslayotgandek tuyulishi mumkin. Aslida unday emas. Bu tarixiy haqiqat. Men qiziqish uchun internetdan “товарищ” so‘zining etimologiyasi bilan bog‘liq so‘rovni berdim. Javobni oldim: “Большой этимологический словарь, 2013 г, составитель Климова М.В. **Товарищ — X-XII века, от общеславянского из тюркского, соединение tavar и iş “друг”, первоначальное значение “компаньон в торговле”**. Qarang, qadimda mazkur so‘zning ikkala qismi ham asli turkiy bo‘lgan “tovar” so‘ziga “esh” so‘zining qo‘shilishidan yasalgan ekan. Biz ko‘pincha “tovar” so‘zini ruscha deb, uning o‘rnida arabcha “mol” so‘zini qo‘llashga odatlanganmiz. Agar biz buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga muojoat qilsak, mol, mato ma’nolarida asli o‘zbekcha (turkiy) bo‘lgan “tovar” so‘zining qo‘llanganligini kuzatamiz.

Endi savol tug‘iladi: bu so‘z qay tarzda rus tiliga kirib borgan? Tasavvur qiling: qadimda Buyuk ipak yo‘li orqali Sharq bilan G‘arb o‘rtasida tijorat juda rivojlangan. Bugungidek har bir shaxs o‘z tovarini xorijga qulay transport vositalarida olib borib sota olmagan. Buning uchun karvonga tayyorgarlik ko‘rilgan. Masalan, deylik, o‘n tonna paxta xom ashyosini to‘plash uchun besh-o‘n nafar tujjor birlashgan. Katta karvon bilan Rusiyaning biron bir shahriga necha kunlik zahmatlar bilan etib borishgan. Tovarni sotuvga olib chiqishganda xaridor bo‘lib kelgan rus

tujjori uning narxini so‘ragan. Misol uchun bir kilo paxtaning narxi 1 so‘m deyilgan. Rus tujjori agar 90 tiyindan berishsa, hammasini ulgurji narxda sotib olishini aytgan. Shunda bizning hamyurt tovarni olib kelishda birga kelgan tovar eshlari borligini, ular bilan maslahat qilishi lozimligini bildirgan. Tovar eshlarini ko‘rsatib, bular mening tovar eshlarim (tovar bo‘yicha sheriklarim, o‘rtoqlarim), degan. Doimiy muomalada bo‘lib kelgan bu birikma asta-sekinlik bilan rus tilida “товарищ” ko‘rinishida kirib borgan. Zotan, rus tilida “товарищ”ning ma‘nosi “o‘rtoq”, “do‘st”dir.

“Esh” so‘zining asli o‘zbekcha so‘z sifatida tilimizda **o‘rtoq, yo‘ldosh, sherik** ma‘nolarini ifodalashi barchamizga yaxshi ma‘lum. Shu bois xalqimizda mazkur so‘z ishtirokidagi ismlar ham ko‘p: Eshquvvat, Eshqobil, Eshpo‘lat, Eshnazar, Eshniyoz, Eshtemir, Eshturdi kabi.

Tilimizda *savod* so‘zi orqali ko‘plab birikma so‘zlar yasalgan: *savod chiqarmoq, savodi chiqdi, savod olmoq, savodli odam, savodsiz kishi, huquqiy savodlilik* va hokazo. Ushbu so‘zlar tarkibidagi *savod* so‘zining ma‘nosiga hech e‘tibor berganmisiz? *Savod* so‘zi asli arabcha bo‘lib, u tilda «qora, qoralik» ma‘nolarini ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga quyidagicha izoh berilgan: “**SAVOD** [*a.* — qoralik; qoralama yozuv; o‘qish-yozishni bilish]

1. O‘qish-yozishdan xabardorlik; xat-savod.
2. Biror soha bo‘yicha eng zaruriy bilim, ma‘lumot.
3. Umuman, bilim, tushuncha, tajriba.

SAVODLI 1. O‘qish-yozishni biladigan, savodi bor.

2. Bilimli, ma‘lumotli; ko‘p o‘qigan, mustaqil fikrlovchi.

SAVODLILIK 1. Aholi madaniy saviyasi ko‘rsatkichlaridan biri: oddiy matnlar-ni o‘qiy olish yoki ularni o‘qish va yoza olish ko‘nikmasiga egalik.

2. Odamning adabiy til me‘yorlariga mu-vofiq keladigan og‘zaki va yozma nutq ma-lakalariga egaligi.

3. Muayyan soha bo‘yicha etarli bilimga egalik.

SAVODSIZ 1. O‘qish-yozishni bilmay-digan, savodi yo‘q.

2. Yetarli bilimi, ma‘lumoti yo‘q.

SAVODSIZLIK Savodga ega emaslik, savodi yo‘klik.

SAVODXON [o‘rganuvchi, o‘quvchi]

1. O‘qish-yozishni biladigan, xat-savodli. *Savodxon odam.*

2 *ayn.* “**savodli**” bilan birga «qoralama» ma‘nosida ham qo‘llangan”.

Ko‘rinib turibdiki, *savod* so‘zi arabchada qora siyohga nisbatan qo‘llangan va u o‘tmishda siyohning rangi ko‘proq qora rangda bo‘lganligi bois yozuvga nisbatan ham qo‘llangan. Shuning uchun ham yozuvni bilgan kishiga nisbatan *savodli* so‘zidan foydalanilgan.

Musavvidi avroq termini arabcha *musavvada* hamda *avroq* soʻzlarining birikishi natijasida hosil boʻlgan. Bu erda *musavvada* soʻzi «*biror yozuvning birinchi nusxasi, qoralama (hali oqqa koʻchirilmagan)*» maʼnosini ifodalagan: “... *koʻprak kutub va rasoil va gʻazaliyot va qasoyiddaki, ... aning musavvadasin burunroq bu faqirgʻa iltifot va eʼtiqod yuzidin berur erdilarkim*» (Алишер Навоий. Асарлар, 1967, 126-b.)

Shuningdek, *musavvada* soʻzining oʻzagi ham *savod* boʻlib, arab tilida «*qora, qoralik*» maʼnolari bilan birga «*qoralama*» maʼnosida ham qoʻllangan: «*Bu besh ganjnikim kushod ayladim, Varaq uzra oni savod ayladim*» (Алишер Навоий. Асарлар, 1967, 126-b.)

Tilimizda shunday soʻzlar borki, ularning kelib chiqishi tarixi, qaysi tilga oidligi, yaʼni etimologik ildizi haqida oʻylab ham oʻtirmaymiz, goʻyoki oʻzbekchadek. Chuqur tahlillar olib borsakkina, ularning boshqa tillardan oʻzlashganini payqaymiz. **Qalam** shunday soʻzlardan biridir. *Qalam* soʻzini har birimiz bolalik davrimizdan tilimizda qoʻllaymiz. Savodimizni shu qalam orqali chiqaramiz. Agar eʼtibor bilan qarasak, bu soʻzning etimologik tarixini arabcha soʻz sifatida talqin qilamiz. Aslida ham shundaymi?

Buyuk xalq shoirimiz Erkin Vohidov yuqorida aytib oʻtilgan asarida dolzarb bir mavzuni koʻtaradilar: “Vazifa sunʼiy ruslashtirish siyosati natijasida tildan surib chiqarilgan, unutilgan boyligimizni tiklashdir. Tiklaganda ham har tomonlama oʻylab, mantiq asosida etti oʻylab bir kesganimiz yaxshi. Biz yozuv qurolimizni *ручка* deymiz. **Qalam** deb ruscha *карандаш* ni aytamiz. Aslida *ручка* ni **qalam** desak toʻgʻri boʻladi. **Qalam** – *kesmoq* soʻzidan olingan. Qamishni kesib **qalam** qilingan va uni siyohga tekizib xat yozilgan. Demak, siyohli yozuv quroli – **qalam**. Biz **qalam** deydi *карандаш* ham asl turkiy atama. Etimologiyaga oid ruscha lugʻatlarning barchasida bu qayd etilgan. Faqat asliyatni birov **qoratosh** desa, birov **qorintosh** deydi. Biz oʻz soʻzimizni qaytarib olsak, yomon boʻlmasdi. Lekin amalda bu qiyin ish. Shuning uchun ikkala yozuv qurolini **qalam** deb aytsak, xato boʻlmas. “*Карандаш*”ning ham uchini ochish uchun kesiladi, yaʼni **qalam** qilinadi” (Воҳидов Э., 2018, 75-b.). Tahlillardan koʻrinib turibdiki, shoirimiz kuyunib yozgʻiryaptiki, qachon oʻzimizga, oʻzligimizga qaytamiz? Rus tilining oʻzida ham XIV-XV asrlarga qadar *ручка* degan soʻz muomalada boʻlmagan. Dastlab ular yozuv qurolini **nucala** (**nucam** soʻzidan) deb atashgan. Rus tadqiqotchisi V.L.Yanin qadimgi Rusda papirusning ishlatilmagani, uning oʻrnida esa, *qayin poʻstlogʻi (beresta)* qoʻllanilganini hamda yozuv quroli sifatida suyak, metall, taxta kabi ashyolardan tayyorlangan qalamlardan foydalanilganini, bunday yozuv qurollari **pisala** deb atalganini dalillar asosida yoritib beradi. **Писала** lar teridan ishlangan maxsus gʻiloflarda saqlangan. Rus arxeologlari **nucala** larni Novgorod, Pskov, Smolensk, Ryazan, Saratov kabi shaharlarda olib borilgan qazilma ishlarida topishgan. Dastlabki

vaqtlarda ularni «to‘g‘nog‘ich», «teriga ishlov berishda qo‘llaniladigan asbob», «bilaguzuk goldig‘i» deb ham taxmin qilishgan. Keyin ma‘lum bo‘lishicha, ular qadimgi Rusda ishlatilgan asosiy yozuv qurollari – *нусала* lar ekan. Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ruslarda ham o‘rta asrlarda *ручка* so‘zining o‘zi bo‘lmagan. (Янин В.Л., 1975. 29). Rus olimi I.E.Barenbaum qadimgi Rusda XV asrdan e‘tiboran kotiblar yozuv ishlarida *patqalam* dan foydalanishganini, qalamning bunday turi g‘oz, oqqush, tovuş kabi parrandalarning patlaridan tayyorlanganligini yozadi (Баренбаум И.Е., 1984. 18). To‘g‘ri, qadimgi Rusda yaratilgan injillarga ishlangan miniatyuralarda evangelist (injilchi)lar qo‘llarida qamish qalam tutgan holda tasvirlangan. Bundan go‘yo rus kitobchiligida ham kotiblar qamish qalamlardan foydalanishgan, degan tushuncha paydo bo‘lishi tabiiydir. Tarixiy manbalardan ma‘lumki, qadimgi rus kitobchiligida qamish qalam yozuv ashyosi sifatida ishlatilmagan. Yevangelistlar qo‘llaridagi qalam tasviri, A.P.Kajdanning fikricha, bu qadimgi an‘analarga uyg‘un shaklda ishlangan, xolos. Bu an‘ana Rusga Vizantiyadan o‘tgan bo‘lishi mumkin.

Endi *qalam* so‘zining kelib chiqishi masalasiga kelsak, rus tadqiqotchisi A.P.Kajdan o‘zining “Kniga i pisatel v Vizantii” (Каждан А.П., 1973. 152-с.) nomli kitobida bu borada juda qimmatli ma‘lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, yunonlar qamishni, shuningdek, qamish qalamni *qalamos (qalamos)* deb atashgan. Yunoncha *kalamos* so‘zi arab tiliga *qalam* shaklida ўзлашган.

Adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарори // “Халқ сўзи” газетаси. 2019 йил, 5 октябрь.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи” газетаси. 2019, 22 октябрь.

Алишер Навоий. (1967). Асарлар. Ўн беш жилдли. 14-ж. *Муҳокаматул-луғатайн*. Бадий адабиёт. 272.

Алишер Навоий. (2017). *Муҳокамату-л-луғатайн*. Akademnashr. 89.

Баренбаум И.Е. (1984). *История книги*. Москва. Книга. 248.

Бегматов Э. *Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари*. Тошкент. Фан, 1985. 200.

Воҳидов Э. (2018). *Сўз латофати*. Ўзбекистон. 150.

Жўраев Н. (1998). *Агар огоҳ сен...* Тошкент. Ёзувчи. 218.

Иброҳимов А. (1999). *Бизким, ўзбеклар*. Тошкент. Шарқ. 400.

Каждан А.П. (1973). *Книга и писатель в Византии*. Москва. Наука. 152.

Маҳмуд Кошғарий. (1960). *Девону луғотит турк*. 1-ж. Тошкент. Фан.

Маҳмудов Н. (1999). *Маърифат манзиллари*. Тошкент. Маънавият. 64.

Маҳмудов Н. (2022). Сўзлар қисматида яширинган инсоният сири ёхуд она тилимиз ҳимоясига ҳамиша шай турайлик! // *”Янги Ўзбекистон” газетаси*. 20 октябрь.

Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. (1989). *Общая терминология. Вопросы теории*. Москва, Наука. 246.

Янин В.Л. (1975). *Я послал тебе бересту*. Изд-во МГУ, Москва. 237.

DEYKSIS VA ANAFORA HODISALARI

Muhammadxon Hakimov *

Annotatsiya

Anafora ham deysisga yaqin hodisalardan biridir. Ilmiy adabiyotlar, shuningdek, soha lugʻatlarida “anafora” termini bilan bogʻliq holda “anaforik soʻz” termini qoʻllanadi. Unga “...oldingi soʻz bildirgan shaxs yoki narsaga, oldingi aytilganga ishora qiluvchi soʻz. *Mana, bu, shu, oʻsha* olmoshlari: *Aʼzam bilan Toshkentda koʻrishgan edim, oʻsha gapirib berdi*” tarzida izoh berilgan. Bu oʻrinda

* Filologiya fanlari doktori, professor, Fargʻona davlat universiteti, hakimov@gmail.com.

“anaforik so‘z” terminiga berilgan ta’rif va fikr isboti uchun keltirilgan misol hodisa mohiyatini to‘laonli ochishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ushbu misol o‘zida deyksisga oid tushunchalarni ham qamrab olgan: misolda keltirilgan *o‘sha* olmoshi birinchi gap tarkibidagi atoqli ot *A‘zamjon* so‘ziga ishora qilish funktsiyasini bajarib, bu so‘zning substituti, almashtiruvchisi sifatida qo‘llangan. Shu bois bir qarashda, ta’rifda anaforik jihat emas, balki deyksisga xos belgilar ko‘proq izohlangandek tuyuladi. Shunday bo‘lsa-da, hodisa deyshtik belgilar tushunchasi bilan emas, balki anaforik so‘z termini – takroriylik belgisining izohi sifatida talqin qilinadi. Biroq o‘zbek tilidagi “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da deyksis atamasi bilan bog‘liq hodisalar ta’rifi deyarli uchramaydi.

Kalit so‘zlar: *deyksis, anafora, nutqiy vaziyat, ishora qilish, antetsendent, diskurs, kontekstual element, manba-referent.*

NATIVE LANGUAGE LEAKED FROM ANCIENT SOURCES...

Annotation

Anaphora is also one of the events close to deixis. The term "anaphoric word" is used in connection with the term "anaphora" in scientific literature, as well as in field dictionaries. It is called "...a word that refers to the person or thing that the previous word represents, to what was said before. Here, this, this, those pronouns are explained in the style: "I met Azam in Tashkent, he told me." Here, the definition given to the term "anaphoric word" and the example given to prove the point served to fully reveal the essence of the phenomenon. At the same time, this example includes the concepts of deixis: the pronoun given in the example is used as a substitute for the noun Azamjon in the first sentence. Therefore, at first glance, it seems that the definition is not the anaphoric aspect, but rather the signs typical of deixis. Nevertheless, the phenomenon is interpreted not by the concept of deictic signs, but as an explanation of the anaphoric word term - the sign of repetition. However, in the Uzbek "Annotated Dictionary of Linguistic Terms" there is almost no definition of phenomena related to the term deixis.

Key words: *deixis, anaphora, speech situation, allusion, antecedent, discourse, contextual element, source-referent.*

Anafora ham deyksisga yaqin hodisalardan biridir. Ilmiy adabiyotlar, shuningdek, soha lug‘atlarida “anafora” termini bilan bog‘liq holda “anaforik so‘z” termini qo‘llanadi. Unga “...oldingi so‘z bildirgan shaxs yoki narsaga, oldingi aytilganga ishora qiluvchi so‘z. *Mana, bu, shu, o‘sha* olmoshlari: *A‘zam bilan Toshkentda ko‘rishgan edim, o‘sha gapirib berdi*”. [Хожиев А. 2020. 78-b.] tarzida izoh berilgan. Bu o‘rinda “anaforik so‘z” terminiga berilgan ta’rif va fikr isboti uchun

keltirilgan misol hodisa mohiyatini to'laqonli ochishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ushbu misol o'zida deysisga oid tushunchalarni ham qamrab olgan: misolda keltirilgan o'sha olmoshi birinchi gap tarkibidagi atoqli ot *A'zamjon* so'ziga ishora qilish funktsiyasini bajarib, bu so'zning substituti, almashtiruvchisi sifatida qo'llangan. SHu bois bir qarashda, ta'rifda anaforik jihat emas, balki deysisga xos belgilar ko'proq izohlangandek tuyuladi. Shunday bo'lsa-da, hodisa deyktik belgilar tushunchasi bilan emas, balki anaforik so'z termini – takroriylik belgisining izohi sifatida talqin qilinadi. Biroq o'zbek tilidagi "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da deysis atamasi bilan bog'liq hodisalar ta'rifi deyarli uchramaydi. Buning asosiy sababi pragmalingvistika va bu sohaga dahldor bo'lgan tilning deysis sistemasiga bag'ishlangan tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 90-yillarida endigina shakllana boshlaganligida [Хакимов М.1994, 89 b.] deb baholash mumkin. Xususan, deysis haqidagi tushunchalar o'zbek tilshunosligida ilk marotaba professor Sh.Safarovning 2008 yilda nashr etilgan "Pragmalingvistika" nomli asarida mukammal va to'liq yoritildi. Bu asarda ikki hodisa o'rtasidagi farqli jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, "...deyktik iboralar referent haqida ma'lumot bersa," anaforik olmoshlar ushbu voqelikni qayta takrorlaydilar. Ammo bu ikki hodisa o'rtasidagi farqni ham topmoq lozim: olmosh yoki boshqa ibora matnning ma'lum qismiga ishora qilganida diskurs deysisi mavjud, biroq olmosh va matndagi boshqa bir lisoniy belgi bir xil referent bilan bog'liq bo'lganida, anafora hodisasi namoyon bo'ladi.

"Nutq vaziyati yoki lingvistik kontekstga nisbatan havola, ishora qilish, ularni ko'rsatish xususiyatlari asosida deysis va anaforalar ajratiladi" [Сафаров III 2008, 179-b.]. Bu borada maxsus terminologik lug'atlarga murojaat qilinganida deysis ham anafora ham mutlaqo boshqa-boshqa hodisalar sifatida ta'riflanadi, talqin qilinadi. "Anafora (<.grek. anaphora — yuqoriga chiqarish) parallel tuzilgan nutq parchalari (masalan, misralar) boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura, zid. epifora". Anafora to'g'risidagi xuddi shunday definitsiya lingvoentsklopedik lug'atida ham beriladi. Xususan, unda ham anafora ritmik yoki sintaktik tuzilishga ega bo'lgan o'xshash tovush, so'zlarni she'riy misralar yoki nasriy asardagi gaplar boshida takrorlanishiga asoslangan stilistik figura bo'lib, matnda ifodalilikni kuchaytiruvchi, emotsiya bayon qilishning eng qulay usulidir. Anaforalar publitsistik nutqda ham qo'llanadi, [Жеребило Т.В, 2010, 32-b.], deya izohlanadi. Professor A.Mamajonov ham "Qo'shma gap stilistikasi"nomli kitobida anaforalar haqida fikr yuritadi. Anaforalar takrorning bir ko'rinishi sifatida izohlanadi, stilistik figura sifatida tahlilga tortiladi. Mazkur ishda anaforalar qo'shma gap turlari hamda superfrazali sintaktik butunliklarda qo'llanuvchi leksik-morfologik va sintaktik anaforalar tarzida guruhlarga ajratiladi, misra boshidagi leksik-morfologik va sintaktik takrorlar anafora, o'rtasidagi takrorlar infora va she'riy satr

yakunida takrorlanib keluvchi sintaktik takrorlar epiforalar deb yuritilishi, ularning stilistik usullardan biri [Мамажонов А. 1990, 16-25-б.] ekanligi ta'kidlanadi.

Bu ishlarda "anafora" stilistik figura sifatida izohlanib, ko'proq hodisaning poetik imkoniyatlariga alohida urg'u beriladi. Bizning nazarimizda, bu ta'rifda ham anafora termini va bu hodisaga nisbatan bir tomonlama yondashuv kuzatiladi, anaforalarning takrorga xos stilistik funktsiyasi yoritilib, pragmatikaga oid deyktik xususiyati yoki anaforik deysis e'tibordan chetda qoladi. Anafora hodisasiga bunday bir tomonlama ta'rif aksariyat ishlarda kuzatiladi, bu davrga xos izlanishlar mohiyatiga bog'liq an'anadir, masalan, adabiyotshunoslikka doir ishlarda she'riy misralar boshida aynan takrorlanuvchi so'z poetik figura, stilistik tadqiqotlarda bu hodisaga stilistik figura sifatida, matn tilshunosligiga oid ishlarda esa kogerentlikni ifodalovchi vosita deb qarash, pragmatikavistikaga aloqador izlanishlarda deysis sistemaning elementlari deb izohlash ustuvorlik qiladi va har bir fan bu hodisani o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda izohlaydi. Tadqiqot materiallari ham shunga muvofiq tarzda tanlanadi. Shu o'rinda lisoniy vositalarning ikki va undan ortiq funktsiyalar bajarishi bilan bog'liq deysislarning an'anaviy tiplari sanalgan shifterlar haqidagi ta'rif esga tushadi. Nazarimizda, har qanday fanda mavjud bo'lgan hodisalarga beriladigan ta'riflarda bu sistemaga mansub birlik yoki vositalarning barcha xususiyatlari inobatga olinishi lozim, shu ma'noda anafora hodisasiga O.S.Axmanova lug'atida "...anafora deysisga oid tushuncha bo'lib, u nutqning barcha elementlarida so'zning boshida takrorlanuvchi nutq figurasi" deb ta'rif beriladi va anaforaning fonetik, leksik hamda sintaktik turlari ajratiladi, mazkur izoh boshqa ta'riflarga nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy adabiyotlarda anaforik hodisalar deysis sistemasining turdosh yo'nalishlari sifatida qayd etiladi va bu hodisalarning deyktik xususiyatlari to'g'risida quyidagi fikrlar bildiriladi, xususan, matn yoki nutq tarkibidagi so'zlar, so'z birikmalari o'rtasidagi o'zaro aloqadan iborat bo'lib, kontekstual ifoda lisoniy elementlaridan birining boshqasiga ishora, havola qilishi anaforik munosabat deb yuritiladi. Anaforik munosabat matn tarkibidagi qismlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri sintaktik munosabat bo'lmaganda yuzaga keladi. *Sen hozircha uchib ketishdan qo'rqasan. Sening qanotlaring yaralangan* Bu misolda birinchi qism antetsedent, ikkinchi qism esa anafora deb nomlanadi. Xuddi shunday fikr boshqa lug'atlarda ham beriladi: "*Endi menga yarmini ber, qolganini o'zingga ol*" jumlasida ham anaforik munosabatning birinchi qismi antetsedent, ikkinchi qismi esa anafora deb ta'kidlanadi. Bu asarda ta'kidlanishicha, ifodadagi antetsedentsiz anafora garchi sintaktik jihatdan yakunlangan bo'lsa ham unda fikr to'liq bo'lmaydi. Sh.Safarov antetsedent terminiga deyktik asosda ta'rif beradi: "...olmosh va uning antetsedenti (o'rnini olmosh olayotgan unsur) o'rtasidagi munosabatni semantika doirasida muhokama qilishga o'rganib qolganmiz.., Chomskiy bunday munosabatni "sintaktik"

hodisa deb qaraydi., bu hodisa ongda mavjud bo'lgan munosabat bilan chegaralanadi, olmosh va uning antetsendenti o'rtasidagi munosabatning tafakkur jarayonida, ongda shakllanib, keyin lisoniy ifoda topishi" nutqiy muloqotning mantiqi asosi va deytik mohiyatini belgilaydi. Jumla strukturasining bir qismida antetsendent, ikkinchi qismida anafora hodisasining mavjudligi fikr izchilligini ta'minlaydi. Tilning deytik sistemasida deyksis va anafor hodisalarining mohiyati ularning izchil talqini orqali namoyon bo'ladi. K.L.Byuler kontseptsiyasida anaforik munosabat kataforik hodisaga zidlanib, "*Bir narsa aniq: men ketishim kerak*" misoli orqali isbotlanadi.

Deyksisning har qanday turida "ko'rsatish, ishora qilish ikki jihati bilan farqlanadi: ko'rsatish, havola qilish birida lingvistik kontekst doirasida amalga oshirilsa, ikkinchisida esa bu jarayon nutq vaziyatiga nisbatan qo'llaniladi. Mana shu xususiyatlarga ko'ra deyksis va anafora hodisalari o'zaro farqlanadi. K.Byuler o'zining "Til nazariyasi" kitobida bu ikki hodisani birinchilardan bo'lib farqlash va ular o'rtasidagi farqlarni chegaralashga harakat qiladi. Deyksis hodisasi matn, ifoda mazmunida aks etgan nolisoniy borliqqa nisbatan qo'llaniluvchi kategoriya bo'lib, u ko'rsatish maydoni birliklari orqali amalga oshiriladi. Anafora hodisasida ishora qilish kontekstual ko'rsatish maydoni tushunchasi mavjud bo'lib, u diskursni semantik bog'lanishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, lisoniy birliklar o'zining takror qo'llanishi orqali ishora qilish, ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi, faqat bu funktsiyalar diskursni semantik bog'lanishini ta'minlovchi kontekstual ko'rsatish maydoni orqali amalga oshiriladi". Bunda anafora matnning ichki tuzilishi bilan bog'liq bo'ladi va u anaforik deyksis deb nomlanadi. Anafora hodisasi matn strukturasida yuz berib, so'zlar va so'z birikmalari kabi lisoniy ifodalarning o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi. Bir ifoda tarkibidagi fikr boshqasiga ishora qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, *men, sen, bu yerda, hozir* kabi maxsus so'zlar ham anafora ham deytik elementlar funktsiyasini bajara oladi. Bu ikki hodisa ko'rsatish, ishora qilish, matn komponentlarini bog'lash va matn yaxlitligi, butunligini ta'minlash kabi umumiy xususiyatlari bilan bir paradigmatic qatorga birlashadi. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday so'z matnda takror sifatida kelishi mumkin, ayni vaqtda deyksis sistemasiga mansub olmosh va ayrim so'zlardagi semantik ichi bo'shlik bo'yog'i takrorlarning belgisi sifatida e'tirof etilmaydi. Tilshunoslikda deyksis hodisasi ham paradigmatic ham sintagmatik planda namoyon bo'ladi. Aslida mavjud ilmiy adabiyotlarda bu hodisaga nisbatan ko'proq nutq vaziyati va kontekstual xususiyatlar inobatga olingan holda fikrlar bildiriladi, shuning uchun ham deytik elementlar sistemasiga mansub birliklar diskursiv xarakterga ega bo'lgan hodisa deb tushuniladi. Deytik elementlar ham tilning boshqa lug'aviy birliklari singari paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday elementlar paradigmatic qatoriga mansub birliklarning

o'xshash belgilari asosida umumiy lashishi va xususiy belgilari bilan o'zaro farqlanishi deysisning til va nutqqa xos jihatlarini ko'rsatadi.

E.B.Saveleva, O.A.Artemovalarning ishlari deysis va anafora hodisalari bilan bog'liq tushunchalarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Tilning kognitiv va kommunikativ funktsiyalari bilan namoyon bo'luvchi deysis va anaforalar o'zining modal hamda referentsial kabi ko'rsatish belgilari asosida matn yaxlitligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi tilshunoslikda deysis va anafora xos bir necha funktsiya bajaruvchi lisoniy vositalar bilan bog'liq muammolar yuzasidan uch xil qarash mavjud. Deysis va anaforalar haqidagi birinchi qarash tarafdorlari takror uchun ko'rsatish funktsiyasini asos qilib olgan holda anafora deysis sistemasida shakllangan deb ta'kilaydilar. Bunday qarash tarafdorlaridan biri E.V.Paduchevadir. Agar deysislar uchun shifter haqidagi nazariya asos bo'lib xizmat qilgani nazarda tutilsa, yuqoridagi fikr mantiqan to'g'ridir. Bunday qarashning mohiyati K.Byulerning deytik elementlarning nominativ belgilardan farqlash asosida amalga oshirilgani xususidagi kontseptsiyasidan kelib chiqadi.

Ikkinchi qarash tarafdorlari esa deysis va anaforalarni farqlash shart emas, ular tabiatan bir xil vazifa bajaradi, bu jihatdan ular identifikatsion xususiyatga egadirlar deb hisblaydilar. Bu hodisalarning yagona farqi deysisning sub'ektivligi va anaforaning ob'ektivligidadir, bunday lisoniy birliklarning ayrimlarida an'anaviy tarzda deytik elementlarga aloqadorlik sezilib turadi, ularning asosiy farqi kontekstual qo'llanishida kuzatiladi deb baholaydilar.

Uchinchi qarash tarafdorlari esa deysis va anaforalarni bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, deysislar nutqiy akt elementlarini ko'rsatishga, anaforalar esa kontekstual elementlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi aksariyat tadqiqotchilar deysis va anaforalarni farqlashda lisoniy materiallarning aspektual jihatiga e'tibor qaratadilar. Bunga ko'ra nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchi deytik makonni muntazam ravishda *men, sen, hozir va bu erda* kabi pragmatik elementlar bilan to'ldirib boradi. Anaforik jarayonda esa so'zlovchi matnda avval eslatilgan va nazarda tutilgan elementlarga tinglovchi e'tiborini qaratadi, asosiy urg'u takror orqali amalga oshiriladi. E.M.Volfning ta'kidlashicha, deysis va anaforalarning o'ziga xos umumiy jhati har ikkalasida ham ko'rsatish funktsiyalarining mavjudligidir, bu hodisalarning xususiy belgilari referentsiya nazariyasi asosida yana ham aniqroq ko'rinadi. Bu ob'ektni ko'rsatish va ularni lokallashuvida ko'zga tashlanadi. Deysis hodisasida deytik element va uning ko'rsatish referenti nazarda tutiladi. Anafora hodisasida esa matndagi gap bo'laklariga bog'liq bo'lmagan oldindan ma'lum antedetsent o'rtasidagi anaforik ko'rsatish hisobga olinadi. Bu jarayonda manba-referent, referent-manba munosabati nazarda tutiladi. A.A.Kibrikning ta'kidlashicha, anafora matn tarkibidagi

aktuallashayotgan axborotga ishora qiladi, deyksida esa axborotning aktualligi nazarda tutilmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shu vaqtgacha deyksis va anaforalarga xos xususiyatlar, farqlar qat'iy chegaralanmagan. Anafora jarayonidagi ekplitsit kontekst deyktik ifodalanishdagi bayon qilinmagan yoki tasavvurdagi kontekstga muvofiq keladi. Bundan tashqari aynan bir lisoniy birlik bir vaqtning o'zida ham deyktik funktsiya va anafora vazifasini bajara oladi.

Yuqorida anafora, anaforik so'z va anaforik munosabat masalalariga bag'ishlangan maxsus lug'at hamda adabiyotlarda ularga berilgan ta'riflar mohiyati deyksis birliklarga muvofiq keladi. Deyksis va anafora hodisalari o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni o'rganish, ularning chegaralarini ajratish va ilmiy asoslash deyktik nazariyaning mukammallashuviga yordam beradi. Bu esa pragmatika sistemasiga kiruvchi deyksis maydoni strukturasiga turdosh va yaqin bo'lgan hodisalar paradigmatic qatorining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

Ҳожи́ев А. *Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати*. Тошкент: Ўқитувчи.

Ҳакимов М. (1994). Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. *Фил.фан.номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Автореферати*. Тошкент.

Сафаров Ш. (2008). *Прагматингвистика*. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 179.

Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. (2004). *Основы прагматингвистики*. Москва: Флинта-Наука. 45.

Жеребило Т.В. (2010). *Словарь лингвистических терминов*. Назрань. Пилигрим. 32.

Мамажонов А. (1990). *Қўшма гап стилистикаси*. Фан. 16-25.

Ахманова О.С. (1969). *Словарь лингвистический терминов*. 47.

Падучева Е.В. *Лингвистический энциклопедический словарь*. стр.32

Савельева Е.Б. (2012). *Дейксис и анафора: общее и специфическое*. // Вестник ИГЛУ. 181-188.

Артемова О.А. Дейксис и анафора как указательные средства языка: универсальное и уникальное. // <http://elib.bsu.by/bitstream/-123456789/164664/1/-PDF//>

Апресян Ю.Д. (1986). Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. // *Семиотика и информатика. Языки русской культуры*. Вып. 28. 5–32.

Арутюнова Н.Д.. (1982). Лингвистические проблемы референции // *Новое в зарубежной лингвистике*. Радуга. 5–40.

Бюлер К. (2000). *Теория языка. Репрезентативная функция языка*. Прогресс. 528.

Вольф Е.М. (1974). *Грамматика и семантика местоимений*. Наука. 222.

Кибрик А.А. (1983). Об анафоре, дейксисе, и их соотношении // *Разработка и применение лингвистических процессоров*. Новосибирск: ВЦ СО АН СССР. 107.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MAKON LEKSEMASINING QO'LLANILISHIGA DOIR

Sharifa Iskandarova*

F. Erkaboyeva*

Annotatsiya

Maqolada badiiy matnda makon tushunchasi va uning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganishi, o'ziga xos ifodalanishi va til sistemasidagi ahamiyati

* Filologiya fanlari doktori, professor, Farg'ona davlat universiteti, iskandarovai@mayl.ru

* Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, erkaboyevai@mayl.ru

yoritib berilgan. Yashash semasiga ega makon ifodalovchi leksemalarni j xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: *lokallik, lokal maydon, antik davr tilshunosligi, arxisema, sema.*

ON THE USE OF THE LEXEMA OF SPACE IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF

Abstract

The article describes the concept of space in the artistic text, its study in world and Uzbek linguistics, its unique expression and its importance in the language system. The characteristics of lexemes representing the space with the meaning of living are described.

Key words: *locality, local area, ancient linguistics, archisema, sema.*

Bugungi kunda fan-texnikaning misli koʻrinmas darajada rivojlanishi, kishilar ongi va saviyasi ortishi, har bir millat va har bir xalqning oʻz qadriyatlarini anglab yetishi, dunyo tammaddunida muayyan oʻringa ega boʻlishi bilan bogʻliq qarashlari shakllandi. Bu borada fanlar sistemasining oʻziga xos oʻrni bor. Jahon tilshunosligidagi til birliklariga boʻlgan munosabat va ularni inson omili bilan birgalikda oʻrganish, tildan foydalanuvchi kishilarning xususiyatlari – millati, dini, dunyoqarashi, ijtimoiy hayotga munosabatini anglash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shuning uchun tilda aks etgan voqeliklarning ahamiyati masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Ana shu voqeliklar orasida makon leksemasi alohida oʻrin tutadi.

Lokallik va lokal maydon tushunchasi kirib kelmasdan avval antik davrlardayoq, Arastu bu masalasiga alohida eʼtibor qaratgan, “...makon borliqning umumlashma namoyishi” ekanligini taʼkidlagan va bu taʼrif tilshunoslik nazariyasining nihoyatda toʻgʻriligini koʻrsatib oʻtadi. Abu Nasr Forobiy ham oʻz asarlarida “...mutloq makon tushunchasini bizni qurshab olgan olamdir,” – deb izoh bergan.(Абу Наср Форобий, 1987, 41-b.)

Makon va vaqtning ifodalanishi barcha millatlar, jumladan osiyoliklar hayotida qimmatli ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yapon xalqi mentalitetida dastlab, fazo va vaqt tushunchalari yangi yerlarni ochish jarayonlarida aks etgan.

Makon lingvistikada turlicha ifodalanagan va bu ifoda koʻlami uning mohiyatini belgilashda asosiy oʻrin tutadi. Makon leksemasi mavjudlik va borlik semalarini oʻzida aks ettirishi bilan maqsadga muvofiq. Makon oʻziga xos anglanadigan leksema boʻlib, uni zamon nuqtayi-nazaridan tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Tora Tenbrink makonni quyidagicha izohlaydi: “Makon borliq haqida bilishning asosi. U mohiyatan submintaqalarning koʻrish va bilish jarayonida

vaqt bilan ta'sirlanadi. Muallifning makon haqidagi qarashlari falsafiy makon haqidagi qarashlar bilan qorishiq holatda uchraydi, negaki, bilish vositasida ilg'ash mumkin bo'lgan bilim alohida ahamiyat kasb etadi.

Makon va vaqt davomiyligi bo'yicha M.Y. Lotman, I.R.Galperin, T.V.Bulyagina, J.Shmelov, A.F.Papin, L.G.Babenko, Y.V. Kazarin tadqiqotlarida makon bilan bog'liq inson ruhiyatidagi hodisalar, xronotop parametrlari izohlangan.(Повалко, Москва, 2022, 41-b.)

Makon tushunchasi til o'rganish jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq. G.M. Purichina, M.I. Shigayev hammuallifligidagi "Языковое пространство России: методология анализа" maqolasidazamonaviy rus tilini ijtimoiy, madaniy, til makoni doirasida tadqiq etish masalalari batafsil yoritib berilgan. (Г.М. Пурнычева, М.И. Шигаева, Москва, 2001, 41-b.)

Vaqt va makon haqida so'z borganda, empirik ko'rinishda namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida ko'rsatiladi.

O'zbek tilshunosligida makon kategoriyasi va uning o'ziga xosligi lokallik va lokalizatsiya, topoxronos hodisalari Sh.Iskandarova, M. Abduvaliyev, B.Qurbonova, S.Ikramova, M.Xakimova, M. Ergashova kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. (Икромова С, Фарфона, 2018, 7-b.)

O'zbek tilida lokallikni ifodalovchi leksemalar muayyan guruhlariga ajratiladi:

- umumiy "makon" semali leksemalar;
- "yashash" arxisemali lokal leksemalar;
- landshaft nomlari;
- korxona, muassasa, nomlarini anglatuvchi lokal birliklar;
- "o'simlik" semali lokal leksemalar;
- diniy e'tiqod belgisi bilan farqlanadigan lokal birliklar;

harbiy va sportga oid lokal birliklar.(Qurbonova B, 2010, 35-b.)

Shu bilan bir qatorda milliy mentakitet xususiyatidan kelib chiqqan lokallik ifodalovchi leksemalar ham diqqatga sazovor.

Bu borada lingvopoetikada o'rin semasiga ega leksemalar alohida tadqiq etiladi. Ular yordamida ifodalanayotgan voqea-hodisa batafsil izohlanadi. "Lokal" semali leksemalar til imkoniyatlari kengligini yana bir bor ifoda etadi. Badiiy asarlarning barchasida g'oyaviy ko'lamni ifoda etish uchun makon tushunchasi tasnif etiladi. Olamning lisoniy manzarasida makon borliqqa xos belgilar bilan birgalikda anglashiladi. Tilshunoslikning barcha sathlariga xos makon semasi borliq haqida umumiy mazmunni anglatish uchun xizmat qiladi.

Lingvistik birliklar orasida, jumladan, o'rin ifodalovchi leksemalarda ham umumiylik va xususiylik belgilari kuzatiladi. Bunday birliklarga yer, zamin, osmon, ko'k, fazo, joy, hudud, dargoh, olam, ochun, koinot kabilar kiritiladi. Leksemalarning bunday xususiyatlari asosiy o'rin egallaydi. Leksemalar ifodalagan semalar orqali

muayyan tevarak, atrof kabi tomonlar, dunyo tomonlarini ifodalaydigan shimol, janub Muhammad Yusuf she'riyatida alohida aks etgan. (Qurbonova B, 2010, 35-b.)

Umumiy makon semali leksemalar shoir she'riyatida alohida o'rin egallaydi, ularning har biri haqchil va xalqchil she'riyatning xususiyatlarini aks ettiradi. Umumiy makon semasiga ega birliklar til sistemasida o'ziga xos o'rin egallaydi va ularning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini aks ettiradi. Jumladan, makon semasiga ega leksemalar orasida yer alohida o'rin egallaydi. Yer leksemasi quyoshdan keyingi uchinchi sayyora bo'lib, ba'zi manbalarda "quruqlik qism qoplangan joy" semasini ham anglatadi. Narsalar turgan, organizmlar hayot kechiradigan yuza (Mahkamov N., Ermatov I., 2013, 45-b.)

Yer mazmun mundarijasi asosan insoniyat yashaydigan joy mazmunida namoyon bo'ladi. U ulkan zarradan tortib, yuksak tog'largacha qurshalgan hududdir. Muhammad Yusufning "Izhoril dil" she'rida yer leksemasi borliqdagi narsalar joylashgan joy mazmunida qo'llangan. Jumladan:

Menga yering suyuk,

Osmoning suyuk,

Boqsam, teng

To'rttala

Tomoning suyuk. (Muhammad Yusuf, 2017, 61-b.)

Yuqoridagi satrlarda yer makonning o'ziga xos xususiyatlari bilan ifodalangan. Yer leksemasi sof o'rin-joy semasiga ega bo'lib, u qo'llangan gaplarda ko'pincha mavhum makon (o'rin-joy) ma'nosi anglashiladi. Shu bois bu leksema orqali ifodalangan makon ma'nosiga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Makon subkategoriyasining ifodalanishi yoritilgan. Shoir uchinchi sayyora sifatida olingan yer haqida o'z qarashlarini bayon etgan. "Ot haqida qo'shiq" she'rida quruqlik qism sifatida olingan qobiqning sirtqi qatlami haqida fikrlari ifodalangan:

Yolin o'psam cho'k tushib,

Kaftimdan suv ichardi.

Chuh desam, yer changitib

Bulut bo'lib uchardi.

Tuproq bilan qoplangan yer qatlami haqida fikr ifodalangan. Shoirning "Lolaqizg'aldoq" she'rida esa azaldan kamtarlik, hilm ramzi bo'lgan yerning yumshoqlik xususiyatlari asos sifatida keltirib o'tilgan.

Endi osmon yiroq,

Endi yer yumshoq,

Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq

Shoir lirikasida yer leksemasi ko'p qo'llangan bo'lib, asosan soda, samimiy o'zbek xalqining unga xos bo'lgan xususiyatlarini ifodalagan. Yuqoridagi she'r misralarida turg'un birikma tarkibiga kiruvchi maqolning poetik shakli qo'llangan.

“Osmon uzoq, yer qattiq” maqolining she’riy shakli qo‘llangan. “Bobodehqonim” she’rida yer leksemasining quyosh atrofida aylanish xususiyati asos qilib olingan:

Yer aylanar,
Yer aylanar
Yer yugurib tinmaydi,
Yaktagining yenglaridan
Ter yugurib tinmaydi

Inson tafakkurida azaldan joy olgan leksema asosida yerga xos xususiyatlar singdirilgan.

Muhammad Yusuf she’riyatida vatan leksemasi ham umumiy yashash semasiga ega ekanligi bilan diqqatga sazovor. Vatan leksemasi arab tilidan o‘tgan bo‘lib, “tug‘ilgan makon” mazmunida qo‘llandi, bu so‘zning mazmun doirasi kengayib, inson tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan joy mazmunida ham qo‘llanadi. (Рахматуллаев III., 2000, 90-b.)

Vatan “yashash joyi” semasiga ega bo‘lib, kishilarning, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi. (Mahkamov N., Ermatov I., 2013. 41-b.)

Kishi tug‘ilib o‘sgan, fuqarosi bo‘lgan mamlakat, joy, uy, boshpana. (Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Qurbonov D., 2001, 162-b.)

Vatan leksemasi jamiki insoniyat, barcha xalqlar uchun juda laziz. So‘z mulking sultoni hazrat mir Alisher Navoiy Vatan tushunchasini ona yurt, tug‘ilib o‘sgan joy, maskan, manzil ma’nolari mavjudligini bayon qilib, shu semalar asosida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Badiiyatda, bu leksma ko‘p qo‘llanadi. Shoirning “Vatanim” she’ri misralarida ham lokallik ifodalovchi leksema o‘ziga xos badiiy mazmun kasb etgan:

Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim. (Muhammad Yusuf, 2002. 46-b.)

Kishi uchun aziz va muqaddas bo‘lgan vatanning mohiyati, ulug‘ligi bayon etilgan. Shoirning “Ey aziz Vatan” she’rida ham yurt leksemasi ham vatan leksemasi bilan birgalikda o‘ziga xos guruh tarkibiga kiradi:

Ko‘zim ochgan kunimdan hamdam,
Hamxonasan men uchun, Vatan

Oftob bitta, Oy bitta, sen ham

Yagonasan men uchun, Vatan. (Muhammad Yusuf, 2002. 51-b.)

Yashash arxisemali leksemalar orasida Muhammad Yusuf lirikasida makon va zamon ifodalovchi leksemalar alohida ajralib turadi. Olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi olam haqidagi bilim va tasavvurlarning tildagi aksida til vositalari orqali ifodalangan ong, reallik obrazi, tilda qayta nomlanuvchi tasavvurlar tizimining milliy modeli bo'lib xizmat qiladi. Sababi, olamning lisoniy manzarasida makon munosabatlarining aks etishi o'ziga xos.

Inson va makon tushunchalari doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda, u tilda ham muayyan ifodasini topadi. Ammo turli tillar olam lisoniy manzarasida makonni ifodalashning usul va vositalari har xil bo'lishi mumkin. Makon tushunchasi falsafiy va lingvistik mohiyat kasb etadi.

Qishloq leksemasi. Bu leksema turar joy, yashash joyi semasi orqali o'rin-joy subkategoriyasini hosil qiladi:

Har kimsaning bo'lsin o'zin boshpanasi,

Har kimsa o'z kulbasida davrin sursin.

Odamni-ku aytmay turay, bu dunyoda

Hatto, qushning yot butoqda ini qursin.

-satrlarda boshpana, kulba, in kabi o'rin bildiruvchi leksemalar makon ma'nosini berib, boshpana-yashash uchun har qanday uy, kulba leksemasi esa hashamatdan yiroq muayyan joy va in qushlar yashaydigan joy mazmunini beradi.

Qishloq, shahar, hovli, yer, maktab, saroy, koshona kabi leksemalar o'rin- joy ma'nosi bilan birga ayrim farqli semalarga ega. "Qishloq" qishlaydigan joy semasiga ega bo'lgan leksema bo'lib, dastlab odamlar ko'chmanchi ko'rinishda yashaganda, qish juda sovuq bo'lganligi sababli qishni o'tkazish uchun turarjoyga muhtoj bo'lishgan. Keyinchalik bu so'zning mazmun doirasi kengayib, aholi yashash manzili semasini anglatib boshlagan. Qishloq -Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog'iston, Moldova, Bolgariya, Ruminiya, Bosniya va Gersegovina va Isroilda qishloq aholi punktlari deb ataladigan hudud sifatida izohlanadi. (Этимологический словарь русского языка, 98-b.)

Qadimda dehqonlar posyolkasining turi sifatida qishloq atamasi qo'llangan. Qadimgi slavyan tillarida "qishloq" turar joy semasini anglatganligi bilan diqqatga sazovordir. Rus xalqida esa "dala, dam olish uchun joy" semasida ifodalangan. (Рахматуллаев III., 2000, 65-b.)

Aholisi asosan qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanadigan yashash joyi bo'lib, dastlab faqat yerdan foydalanib, dehqonchilik qiluvchi kishilar uchun yashaydigan joy semasiga ega bo'lgan bu leksema hozirgi vaqtda o'ziga xos ko'rinish kasb etmoqda. Shoirning "Anjelika" she'rida:

Kunbotarga yelib borar parovoz,

*Bir qiz yig'lar: xat yozishib turaylik,
Bir qishloq qiz yig'lar undan ko'z uzmay
Anjelika...hammamizdan chiroylik.*

Yuqoridagi satrlarida qishloq leksemasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va jamiki insonlar mazmunida qo'llanmoqda. (Muhammad Yusuf, 2013, 98-b.)

Maydon leksemasi. Bu leksema til sistemasida — ochiq, me'moriy jihatdan tartibga keltirilgan, atrofi bino, inshootlar yoki daraxtlar bilan to'silgan keng sath semasini anglatadi¹.

Qadimda bu leksema asosan turli tadbirlar o'tkaziladigan, odamlar tomosha uchun yig'iladigan lokallik semasiga ega bo'lgan o'rin ifodalaydigan leksema sanalgan. Bu leksema polisemantik ekanligi bilan diqqatga sazovor. Muhammad Yusufning "Fidoyilar" she'rida maydon leksemasi kenglik, bo'shliq yer semasini ifodalagan.

*Kimga qo'rg'on, ularga keng maydon tegar,
Mard mushkulni yengar, nomard bo'yin egar.
Erk deganga er yigitlar jondan jigar*

Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar. (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 577-b.)

Muhammad Yusuf lirikasida milliy o'ziga xoslik asosida differensiyalanadigan leksemalar mavjud bo'lib, ayvon, shiypon, qo'rg'on, qal'a, kapa, o'tov, mehrob, chimildiq, yaylov, paykal, beshik kabi o'rin semasiga ega leksemalar uchrab turadi. Har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti, turmush sharoiti, yashash tarzi bilan bog'liq holatda namoyon bo'ladigan bunday leksemalar shoir ijodiga o'zgacha tarovat, xalq bilan yaqinlik kabi tuyg'ularni namoyon etadi.

Shoirning "Niyat" she'rida:

*Qurib ketdi, kiyik kezgan yaylovlaring
Kelin bo'lib, oy tunagan o'tovlaring
G'irot kabi ko'kka sapchir bedovlaring
Shuncha g'aming yetmasmidi, Farg'onajon.*

misralarida o'tov leksemasi muayyan hududga oid o'rin-joy semasini ifodalaydi. Bu leksema qadimda qoraqalpoqlarda qora kigiz ustiga bostirilgan aylana shaklidagi uy semasini ham ifodalaydi.

Muhammad Yusuf she'riyatida makon ifodalovchi leksemalar alohida ajralib turadi va ular shoir ijodidagi lingvistik qirralarni namoyon etishda, voqelikni idrok etishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

Абу Наср Форобий. (1987). *Фозил одамлар шахри*.

Повалко. (2022). *Простанство и время как категории художественного текста*

Пурынычева Г.М., Шигаева М.И. (2001). *Языковое пространство России: методология анализа*.

Икромов С. (2018). *Оламнинг лисоний манзарасида макон категорияси ва миллий ўзига хослик*.

Qurbonova B. (2010). *Til sathlarida lokallikning ifodalanishi*.

Mahkamov N., Ermatov I. (2013). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*.

Muhammad Yusuf. (2017). *Elimda alyorim qolur*.

Раҳматуллаев Ш. (2010). *Ўзбек тилининг этимологик лугати*.

Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Qurbonov D. (2001). *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati*.

Muhammad Yusuf. (2002). *Mehr qolur*.

Muhammad Yusuf. (2001). *Tanish teraklar*.

Этимологический словарь русского языка. (2020). Макса Фасмера.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2004).

YANGI ALIFBONI JORIY ETISH: NATIJALAR VA SABOQLAR

Jo'liboy Eltazarov*

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasida 1993-yilgi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunni hayotga joriy etish bo'yicha o'sha yillarning ijtimoiy, siyosiy va geopolitik realliklari ta'sirida bo'lsa kerak, o'tgan daslabki o'n yilliklar ichida jiddiy va azm-qarorli siyosat yuritilmadi. Binobarin, bu yozuvga to'la o'tish butun jamiyatimiz miqyosida, afsuski, amalga oshmadi. Ushbu holat, tabiiyki, aholining ba'zi qatlamlarida xavotirlik tuyg'ularini uyg'ota boshladi,

* Filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti, juliboy2@gmail.com

chunki, jamiyatdagi katta avlod va yosh avlod orasida yozuvdan foydalanish masalasidagi farqliliklar oʻrtaga chiqa boshladi. Ta'lim sifatida tushish yuz berdi. Bu xavotirlik tuygʻularini va ular uygʻotgan tushunchalarni vaqtli matbuot sahifalarida va Internet tizimidagi turli-tuman saytlarda hamda ijtimoiy tarmoqlarda sotsial faol qatlam (ziyolilar va yoshlar) vakillari qizgʻin munozaralarda bildirib boshladilar. Ushbu maqolada ana shu fikr-munozaralar tahlil qilinadi hamda yangi alifboga oʻtish jarayonlarining saboqlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit soʻz: *Lotin yozuvi, kirill yozuvi, "Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida"gi Qonun, Turk Dunyosi, muammolar va yechim.*

RESULTS AND LESSONS OF INTRODUCING THE NEW ALPHABET

Abstract

The implementation of the 1993 Law "On the introduction of the Uzbek alphabet based on the Latin alphabet" in the Republic of Uzbekistan was influenced by the social, political and geopolitical realities of those years. Accordingly, no serious and decisive policy has been carried out in recent decades. Therefore, a complete transition to this script on the scale of our society, unfortunately, has not been realized. This situation, naturally, began to cause a feeling of anxiety among some segments of the population, since differences in the use of writing between the older and younger generations in society began to appear. There was a decline in education. Representatives of the socially active layer (intelligentsia and youth) began to express these feelings of anxiety and the concepts they caused on the pages of the current press, as well as on various websites on the Internet and social networks in heated discussions. This article analyzes these debates and reflects on the lessons of the transition process.

Key words: *Latin, Krill script, Law "On the introduction of the Uzbek alphabet based on the Latin alphabet", Turkic world, problems and solutions.*

1989-yilda Oʻzbekistonda oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi umumxalq harakati muvaffaqiyatli yakunlanib, oʻsha yili 21-oktabrda "Davlat tili toʻgʻrisida qonun" qabul etilgach va ayniqsa, 1991-yil mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, oʻzbek jamoatchiligi orasida 1929-1940-yillardagi lotinlashtirish tajribasidan unumli foydalangan holda yozuvni almashtirish (lotinlashtirish) xususidagi harakatlar paydo boʻldi va matbuotda kiril yozuvining prinsipial jihatdan oʻzbek hamda boshqa turkiy tillar tabiatiga toʻgʻri kelmasligi va amaldagi alfavitdan lotin yozuviga oʻtish gʻoyasi qizgʻin muhokama qilina boshlandi. Matbuotda 1992-yilda va 1993-yilning birinchi yarmida olib borilgan muhokama respublikadagi ijodiy, ilmiy ziyolilar oʻzbek yozuvini lotin grafikasiga oʻtkazish gʻoyasini

yoqlayotganini namoyish etdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qoshida tuzilgan maxsus komissiya yangi o‘zbek lotin alfaviti loyihasini tayyorladi hamda bu loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida va respublika ilmiy jamoatchiligi vakillari yig‘inida atroflicha muhokama etilib, yakuniy loyiha tayyorlandi. O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabrdagi o‘n uchinchi sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Afsuski, bundan 8 yil oldinga qadar jamiyatni to‘lqinlantirgan, tilimiz, butun ta’lim tizimimiz, madaniyatimiz va ma’naviyatimizning yashab qolishi va rivojlanishi bilan to‘g‘ridan aloqador bo‘lgan bu masalaning yechimi o‘sha davr rahbarlari tomonidan dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmadi.

Lotin yozuviga o‘tilgan 1990-yillarning ikkinchi yarmidan e’tiboran bu yozuv maktab, litsey, kollej va OTMlarda faol qo‘llangani, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida esa krill yozuvini faol qo‘llash davom etgani, yangi yozuvga o‘tishning muddatlarini 2000, 2005, 2010-yil 1-sentabrga kechiktirilgani odamlarda – o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, professorlar o‘rtasida pessimistik ruh uyg‘otdi. Lotin yozuvi bilan kollej va OTMlarni bitirgan yoshlar krill yozuvini bilmagani uchun ishga kirishi, ishlab ketishi qiyinlashdi. Lotin yozuvidagi ommaviy axborot vositalarining, jurnal va kitioblar soni juda oz edi, shu sababli o‘quvchi va talabalarning leksikoni, ularning tafakkuridagi dunyoning lisoniy manzarasi maktab yoki OTMdagi bilimlar darajasida qolib ketaverdi. Shaxsning o‘z ustida ishlashi, o‘zini kamol topshirishi uchun u ta’lim olgan yozuvda va ona tilda juda katta axborot resurslari bo‘lishi kerak. Bu kitob, jurnal, gazeta, boshqa axborot manbalari degani. 1990-yillarning oxirida, 2000-yillarning boshida kitob do‘konlari, gazeta va jurnal kiosklari bo‘m-bo‘sh ekanini, bir yilda butun mamlakatda 400-500 nomda kitob nashr etilgani va ularning aksariyati krill yozuvida bo‘lganini hali ko‘pchiligimiz unutmadik...

Bu sohadagi inqiroz asta-sekin ta’limdagi inqirozni keltirib chiqardi. Maktab va OTMlarda ta’lim sifati keskin pasaydi, kishilar o‘zbek tilidagi ta’limga nisbatan jamiyatda ishonchsizlik paydo bo‘ldi, maktablardagi rus sinflariga va rus tilidagi boshqa ta’lim muassalariga o‘z farzandlarini bera boshladilar. Axir, qaysi bir ota-ona o‘z farzandini istiqbolsiz bir ta’lim tili va tizimida o‘qitgisi keladi?

Xullas, O‘zbekiston Respublikasida 1993-yilgi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunni hayotga joriy etish bo‘yicha o‘sha yillarning ijtimoiy, siyosiy va geopolitik realliklari ta’sirida bo‘lsa kerak, o‘tgan daslabki o‘n yilliklar ichida jiddiy va azm-qarorli siyosat yuritilmadi. Bir Shimolga, bir Janubga qarab, ming tashvish-tahlika bilan tashlangan odimlar bu yozuvga o‘tishni ta’minlay olmadi, balki aks natija berdi. Buni o‘rni bilan tahlil qilamiz; qisqasi, bu yozuvga to‘la o‘tish butun jamiyatimiz miqyosida, afsuski, amalga

oshmadi. Ushbu holat, tabiiyki, aholining ba'zi qatlamlarida xavotirlik tuyg'ularini uyg'ota boshladi, chunki, jamiyatdagi katta avlod va yosh avlod orasida yozuvdan foydalanish masalasidagi farqliliklar, umuman olganda, ijobiy hodisa emas. Bu xavotirlik tuyg'ularini va ular uyg'otgan tushunchalarni vaqtli matbuot sahifalarida va Internet tizimidagi turli-tuman saytlarda hamda ijtimoiy tarmoqlarda sotsial faol qatlam (ziyolilar va yoshlar) vakillari qizg'in munozaralarda bildirib boshladilar

Ayniqsa, adabiyotshunos Shahnoza To'raxo'jayevaning "Huquq va burch" gazetasida e'lon qilingan maqolasi bu jihatdan jamoatchilikning fikrini o'ziga jalb qildi. Respublika Internet tarmog'idagi deyarli barcha saytlar bu maqolani ko'chirib e'lon qilgani bu maqoladagi bayon qilingan fikrlar ko'pchilikni o'ylantirib kelayotgan gaplar ekanligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada bayon et'lgan asosiy fikrlarga e'tibor qarataylik. Dastavval maqolada „Hozirgi ahvolimiz qanday?“ sarlavhasi ostida bayon etilgan fikrlarni tahlil qilaylik. Shahnoza To'raxo'jayeva O'zbekiston Respublikasining 1993-yilgi „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida“gi Qonuni qabul qilinganidan keyingi vaqt tilimida amalga oshirilgan ishlar va „eski“ va „yangi“ yozuvlarning jamiyatimiz hayotida parallel qo'llanishi xususida shunday yozadi: „Hozir bizda qo'sh alifbo tizimi: ham kiril, ham lotin alifbosi teng qo'llanib kelmoqda. Biri ikkinchisi bilan raqobat qilmaydi, ziddiyatga bormaydi, ammo hech biri o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib bergisi yo'q. Tinchgina qo'shnilik qilib yashab yurishibdi. Bu yaxshimi? Albatta, yaxshi emas. Bu katta tarixiy xato, aks-sadosi, ta'siri avlodlarga, olis kelajakka yetib boradigan xato. Bunday qarasak, alifbo almashtirish biz uchun yangilik emas. Hatto yuqorida tilga olingan Qonunda ham „...o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib...“ degan joyi bor. Faqat amalda bu tajriba kamlik qildi. 1929–1940-yillarda arab yozuvida savodi bo'lgan aholi va bu yozuvda bitilgan yozma ilmiy-adabiy meros bilan 1993-yilni hech solishtirib bo'lmazligi hisobga olinmagan ekan. Bu safar yo'nalishni o'zgartirish oson kechmayapti. Xuddi tabiiy, yengil avtoullovni to'xtatish bilan katta yuk poezdini to'xtatish bir narsa bo'lmaganidek: katta ulovda inertsiya uzoqroq davom etadi, xavf yuqori, talafot ham ko'p bo'ladi. Unday deymiz-u, kiril alifbosidan voz kechgan boshqa Post Sovet respublikalariga qaraymiz: turkmanlar, ozarbayjonlar bir pasda ulovni jilovlab, bo'ysundirib, o'z yo'llariga solib olishdi-ya. Ularda lotin alifbosi kirilchani siqib chiqarganiga ancha bo'lgan. Unda gap nimada? Gap o'sha ulovda ketayotganlarda, ya'ni bizda“. Avvalo, jurnalistning kiril yozuvida yaratilgan madaniy merosning kattaligi tufayli lotin yozuviga o'tishda sekinlashuv yuz bergani xususidagi fikridan boshqa barcha gaplari mantiqli ekanini qayd etish zarur. Chunki, 1929-yilda yozuv almashtirilganda ortda 1000 yillik madaniy meros mavjud edi, ammo tegishli qonun qabul qilingach, uning ijrosi ham qisqa muddatda (5 yil) ta'minlandi, 1940-yildagi islohot atigi bir yil ichida tugallandi, ya'ni qonun ijrosi

ko'rsatilgan muddatda ta'minlandi. Qolaversa, lotin yozuviga qisqa muddatlarda o'tgan Ozarboyjon va Turkmaniston namunasi ham bor. Demak, Shahnoza To'raxo'jayevaning o'zi to'g'ri ta'kidlaganidek, muammo bizda, o'zimizda.

Maqolaning **“Nega shunday ahvoldamiz?”** sarlavhasi ostida bayon qilingan qismida kiril yozuvining chiqarilgan qonunlarga qaramasdan kundalik hayotdan, matbuotdan va matbaachilikdan sekinlik bilan “chiqib borayotgani”ning sabablari ko'rsatiladi. Jurnalist oldingi qismdagi fikrlarning mantiqiy davomi sifatida quyidagicha yozadi: “Biz istamayapmiz, kiril ketmayapti, bu rost. Ammo nega istamayapmiz? Bu savol jiddiy masalalar ustida bosh qotirishga olib keladi. Men muharrirman, qariyb 18 yildan beri shu sohada faoliyat yuritaman. Hozirda texnik va gumanitar mavzularda kitoblar chiqaradigan nashriyotda bosh muharrir lavozimida ishlayman. Yangi alifboning barcha qulayligu noqulayliklariga har kuni duch kelaman. Shaxsiy tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, lotinlashtirishning muvaffaqiyatsizligiga ikki asosiy sabab bor.

1-sabab. Amaldagi lotin alifbosi ko'p noqulayliklarga ega. Birinchi noqulaylik o' va g' harflari. Bu harflarni klaviaturada alohida tugmachalarga bog'lab qo'yishning imkoni yo'q. Qolaversa, ' belgisi tutuq belgisi ' bilan shaklan o'xshash. Ularni ifodalash uchun biz klaviaturadagi bir necha (birvarakayiga 5 ta!) tugmalar kombinatsiyasidan foydalanamiz yoki matnni terib bo'lgach o' va g' harflarini “avtozamena” funksiyasi orqali umumiy almashtiramiz. Bu masalaning texnik jihati. Amalda esa, masalan, «to'g'ri» so'zida ikki qo'shimcha belgidan biri tushib qolishi ko'p uchraydi (yo «to'g'ri», yo «tog'ri») hatto savodli yozilgan matnlarda ham. Matn terishda bu juda noqulay harflardir. Ikkinchi noqulaylik sh va ch harflariga bog'liq: bu harflar ingliz yoki boshqa tillar uchun balki qulaydir (chunki ularda so'zlar aksari qisqa, *sh*, *ch* harflarining bir so'zda ikki marta ishlatilishi yoki o'zakka shu harflar ishtirokida qo'shimcha qo'shilishi uchramaydi), ammo o'zbek tilida bu harflar noqulaylik keltirib chiqarmoqda. Masalan, *qashshoq*, *cho'chish*, *shishish*, *pashsha*, *ishchi*, *uchrashish* kabi shu undoshlar bir necha marta ishtirok etgan so'zlar yozishga ham, o'qishga ham noqulay, ular cho'zilib ketyapti (lotin alifbosidagi matnlar kirilchaga qaraganda 15 foizgacha kattalashib ketadi), shu sababli amalda bu harflarning w, 6, 4 kabilar bilan almashtirilishi kuzatilmoqda. Qatordan qatorga ko'chirganda esa komputer ikki belgini bir-biridan ajratib yuboradi. Bu qo'sh harflarning alifboga kiritilishi (e'tibor bering, ingliz alfavitida ular yo'q, harf birikmalari sifatida alohida o'rgatiladi) va alifboda yo'q “c” harfi ishtirokida qo'sh harf yasalishi (*ch*) esa mantiqsizlikdir. Uchinchi noqulaylik “u” tovushining hozirgi lotin alifbosida alohida harf bilan berilmaganligi. Biz “u” ni o'rniga qarab “ts” yoki “s” bilan ifodalaymiz. To'g'ri, “u” turkiy tillar uchun yot tovush. Ammo til taraqqiyoti natijasida bu tovush ishtirokidagi internatsional so'zlar, terminlar tilimizga ko'p kirib kelgan. Ko'pchilik “ts”ni hamma o'rinda “s” deb talaffuz etish

va yozishni taklif qilyapti. Lekin shunday atamalar borki, “s” bilan yozilganda omonim bo‘lib qoladi: *цинга* – *singa*, *серий* – *seriy*, *сokolь* – *sokol* va hokazo. Bu aynan shunday matnlarni ko‘p yozadigan mutaxassislar, abituriyentlar va talabalar tomonidan ma’qullanmayapti. To‘rtinchi noqulaylik “e”, “yo”, “yu”, “ya” kabi “yo”lashgan undoshlar (biz ularni o‘zaro shunday ataymiz) imlosi bilan bog‘liq. Shu paytgacha, masalan, qachon “yu” va qachon “u” yozilishi bu harflarning kelgan o‘rni va bajaradigan vazifasiga bog‘liq deb kelingan (Rahmatullaev Sh.,1999, 67-b.). Lekin bu qarash ushbu harf birikmalarining imlosini murakkablashtirib yubordi. Natijada hatto imlo lug‘atlarida ham variativlik ko‘payib ketdi: *sentabr* – *sentyabr*, *budjet* – *byujet*, *rejissor* – *rejissyor*.

2-sabab. Kiril alifbosi cheklanmagan, u hamma joyda lotincha bilan teng ishlatilishi mumkin. Demak, undan voz kechmasa ham bo‘laveradi. Shunday ekan, kim boshini qotirib yangi alifboni o‘rganadi, unda o‘qish va yozishga o‘tadi”. Bu uzundan uzoq matn parchasini bekorga keltirayotganimiz yo‘q: muallif o‘zi yaxshi tanish bo‘lgan sohadagi - nashriyot ishi va muharrirlikdagi qiyinchiliklarni sanab o‘tmoqda, ammo boshlang‘ich maktabda bolalarga harf tanitish, imlo qoidalarini o‘rgatish, millionlab katta yoshdagi kishilarni lotin alfavitidagi savodxonligini ta’minlash masalasidagi qiyinchiliklar bulardan also va also dolzarbligi kam bo‘lmagan masalalardir. Bu kamchiliklarni 23 yillik yangi yozuv va unga ko‘ra ishlab chiqilgan imlo qoidalarini mukammallashtirish (tuzatish) orqali barham berish mumkin edi-ku? Ammo shunday qilinmadi, paysalga solindi. Maqolaning boshida ta’kidlanganidek, **muammoning boshi bizda – til egalarida.**

Maqola muallifi ikkinchi sabab haqida gapirganida esa lotin yozuviga o‘tishning oqsayotganining eng asosiy muammosiga ham “teginib” o‘tadi, ya’ni “kiril alifbosi cheklanmagani, u hamma joyda lotincha bilan teng ishlatilib kelayotgani, shu sababli undan voz kechmasa ham bo‘laverishi” tufayli odamlar boshini qotirib yangi alifboni o‘rganmayapti, unda o‘qish va yozishga o‘tmayapti. Maqolaning oxirida muallif Shekspirona savolni ko‘ndalang qilib qo‘yadi: “Nima qilmoq kerak?” Bu savolga javob variantlari sifatida muallif tomonidan uchta yo‘l taklif qilinadi:

1. Hech narsani o‘zgartirmaslik

2. Lotin alifbosini isloh qilish

3. Kirilchaga qaytish.

Maqolada bu yo‘llarning musbat va manfiy taraflari quyidagisha ta’riflab beriladi: Birinchi yo‘l, ya’ni “hech narsani o‘zgartirmaslik tarafdorlari bir xatoni to‘g‘irlayman deb bir necha xatoga yo‘l qo‘yish mumkinligidan ogohlantiradilar. Kechuvda otni almashtirmaydilar, degan gap bor. Hozir biz alifboni almashtiradigan bo‘lsak, yana qancha hujjatlar, kitoblar, darsligu-qo‘llanmalar – xullas, ancha narsalarni o‘zgartirishimiz kerak. Bu ko‘p xarajat, mehnatni talab qiladi, ayrim chalkashliklarga, hatto talafotlarga olib keladi. Qolaversa, jahon hamjamiyati oldida

beburd bo'lib qolishimiz ham mumkin, axir bu alifbo va imlo borasida so'nggi 100 yil ichida qilingan oltinchi islohot bo'ladi. Bu gaplarda, hadiklarda jon bor. Lekin, hozirgi ahvolimiz yaxshimi? Biz bir botqoqda o'tiribmiz: badbo'y, xunuk bo'lsa-da, o'zimiz ko'nikkan, iliqqina joy. Faqat botqoq baribir botqoq-da. Alifbomizda yozib bo'lmaydi, u kirilchaning o'rnini bosolmaydi, uni siqib chiqara olmaydi. Bugun biz qilmasak, ertaga avlodlar, xullas, kimdir baribir ahvolni o'zgartirishi kerak. **Muammolardan qochib qutulib bo'lmaydi, yagona yo'l – ularni hal qilish.** Ikkinchi yo'l – joriy alifboni isloh qilish. Bu bilan alifbo amalda qulaylashadi, undan foydalanish istagi ortadi. Xo'sh, qaysi jihatlarini isloh qilish kerak? Matn bilan ko'p ishlaydigan odam sifatida bu borada quyidagi takliflarni kiritaman:

1. *O'* va *g'* harflarini bir belgi bilan ifodalash.
2. *Sh* va *ch* uchun alifboda harf birikmasi emas, harf ajratish.
3. *u* tovushini "*s*" harfi bilan ifodalash.
4. "Yolashgan" undoshlar (*yo*, *yu*, *ya*) ni har doim "*yo*", "*yu*", "*ya*" tarzida qo'llash.
5. Yangi imlo qoidalari asosida yagona imlo lug'ati tuzish va faqat shu lug'at asosida ishlash mexanizmini ishlab chiqish.

O'zbek tili va adabiyoti universiteti yagona, ko'p so'zli imlo lug'ati hamda ismlar, joy nomlari lug'atini tuzib nashrga tavsiya etsa, respublikadagi barcha o'quv muassasalari, nashriyotlar, tahririyatlar shu lug'atlar asosida ishlasa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mana shu islohotlar alifboni qulaylashtirishi va ommalashtirishi yo'lida katta qadam bo'ladi. Lekin shuning o'zi bilan ish bitmaydi. Hozirda bolalarga, maktab o'quvchilarga, abituriyentlarga, talabalarga mo'ljallangan kitoblar, darslik va qo'llanmalar lotin alifbosida, keng omma uchun kitoblar esa kiril alifbosida chiqarilyapti. Chunki lotin alifbosi yetarlicha ommalashmagani, kirilda o'qiydiganlar soni ko'pligi sabab kirilcha kitoblarga talab yuqori, bozor shartlariga rioya qilib ishlaydigan nashriyotlar esa kitoblari yaxshi sotilishi uchun xaridor talabiga ko'ra kirilcha kitoblar nashr etishadi. Agar lotin alifbosida chop etiladigan kitoblarga iqtisodiy imtiyozlar yaratilsa va ularning tannar xi arzonlashsa, kirilcha kitoblar esa qimmatlashsa, tabiiyki, ko'pchilik lotin alifbosidagi arzonroq kitobni oladi. Natijada "bir o'q bilan ikki quyon uriladi": nashrlar lotin alifbosida kitob chiqarishga rag'batlantiriladi, aholi o'rtasida esa bu alifboni o'rganish jadallashadi. Bundan tashqari, oldimizga aniq muddat qo'yishimiz kerak. Olaylik 3 yo 5 yildan so'ng kiril alifbosining qo'llanish doirasi cheklansa va bu doira muntazam toraytirib borilsa, albatta, odamlarda lotinni o'rganishga rag'bat paydo bo'ladi. To'g'ri, bu jiddiy va inqilobiy yo'l. Lekin lotinlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan qardosh millatlar tajribasi bu usul samarali ekanini ko'rsatib turibdi.

Nihoyat, maqola so'ngida muallif uchinchi yo'lni ham taklif qilib, bu yo'lning musbat va manfiy taraflarini tahlil qiladi: Kirilga qaytsak-chi? Buni ham ko'rib

chiqish kerak, nazarimda, juda noto‘g‘ri yo‘l emas, deya yozadi muallif. Muvaffaqiyatsiz lotinlashtirish bu ish avval boshdan to‘g‘ri bo‘lganmidi? degan savolni keltirib chiqarishi tabiiy. Xo‘sh, kiril alifbosiga qaytsak, nima bo‘ladi? Shunday qilsak, biz tariximizni, ulkan ilmiy va adabiy merosimizni, xususan, tom-tom kitoblar, arxivlardagi gazetajurnallar, tarixiy hujjatlarga jo bo‘lgan katta ma’lumotlar ummonini saqlab qolamiz. Ularning barini lotinchaga o‘tkazish imkonsiz. Yana lotin alifbosini isloh qilish ketidan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar, xavflar ham yo‘qqa chiqadi. Kirilcha ancha tajribadan o‘tgan, tilimizga moslashgan alifbo. Kompyuter va smartfonlarda ham o‘zbek tili uchun moslashtirilgan kirilcha “raskladka”lar ishlab chiqilgan, ya’ni zamonaviy texnologiyalar kirilcha-o‘zbekchani “taniydi”, “o‘qiydi” va bu alifboda “yoza oladi”. Hatto internet sarhadlarida ham kirilcha-o‘zbekcha o‘z o‘rnini egalladi, avvalgi texnik muammolar ko‘p jihatdan yechimini topdi. Biz komputer texnologiyalariga yaqin bo‘lamiz deb alifbomizni lotinlashtirguncha, texnologiyalarning o‘zi kirilchamizga yaqinlashib oldi. Qolaversa, lotin alifbosini majburan singdirishga urinsak, ko‘pchilik rus tilida yozish va o‘qishga o‘tib ketish xavfi bor, axir, hozir farzandini rus maktablariga berish urfda-ku. Ana shu aks natijani ham nazarda tutishimiz kerak. Bu kirilchaning bizga beradigan imtiyozlari. Faqat bir muammo yuzaga keladi: shu paytgacha lotincha o‘rganib kelgan avlod-chi? U endi savodsizlanib qoladimi? Asosli hadik. Lekin yoshlarni o‘rgatish katta avlodni o‘rgatishdan osonroq ekani ham bor gap. O‘zi nimaga lotinga o‘tgandik? Mustamlakachilarning alifbosida yozishni istamaganimiz uchun. Biroq endi 90-yillarning ehtirosi so‘ndi-ku. Alifboni siyosatdan ajratarmiz, unga bu qadar katta siyosiy ma’no yuklamasmiz balki? Axir, bu yozuv, xolos.

Maqola muallifining “axir, bu yozuv, xolos”, degan va maqoladagi barcha fikrlarini ustidan “qizil chiziq” tortadigan g‘alati gapini hisobga olmasak, boshqa fikrlari ilmiy va ijodiy jamoatchilikni doimo o‘ylantirib kelayotgan muammolardir. Sh.To‘raxo‘jayeva juda o‘rinli ta’kidlaganidek, “muammolardan qochib qutulib bo‘lmaydi, yagona yo‘l – ularni hal qilish... Nima bo‘lganda ham, qo‘shalifbolik holatidan chiqib ketishimiz kerak. Bu masala bugun kun tartibida yanada dolzarb tus oldi...Hozir ahvol shundayki, kimdir mas’uliyatni bo‘yniga olib masalani bir yoqlik qilishi kerak...

Prezident Shavkat Mirziyoevning ko‘rsatmasi asosida O‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida ishchi guruh tuzildi. Bu guruh mavjud ahvolni o‘rganib, lotin alifbosini isloh qilish bo‘yicha takliflarni taqdim etishi kerak. Ayni kunlarda guruh ishi jadal davom etmoqda, ijtimoiy tarmoqlarda bu masala keng muhokamaga qo‘yilgan. Lekin bu bilan ish bitmaydi, muhokamada O‘zbekistonning har bir fuqarosi ishtirok etishi kerak. Shu sababli matbuot, bosma nashrlar ham masalani kengroq yoritishi va aholi fikrini o‘rganish bo‘yicha aniq ishlarni amalga oshirmog‘i

zarur”. Muallifning maqolada urg‘u berib o‘tgan bir fikriga alohida to‘xtalish lozim: „muhokamada O‘zbekistonning har bir fuqarosi ishtirok etishi kerak“, ya’ni alfavit va imloga kiritiladigan o‘zgarishlar keng muhokama qilinishi kerak, hatto plebistsit o‘tkazish haqida ham o‘ylab ko‘rish lozim. Shuningdek, mamlakatdagi ilmiy jamolar bu loyihani jiddiy muhokama qilishlari lozim. 1992-93-yillarda lotin yozuviga o‘tish hamda yangi alfavit va imlo masalalari asosan o‘sha davrdagi siyosiy elita va ijodiy intelligensiya o‘rtasida tug‘ilib, amalga oshirilgan g‘oya edi, xolos. Xalqimizda „Maslahatsiz to‘y tarqamas“, degan naql bor. Bu gal keng xalq ommasini fikrini so‘rash foydadan xolis emas.

2017-yilning boshida ijtimoiy tarmoqlarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning ko‘rsatmasi asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (ToshDO‘TAU) ishchi guruhining lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish borasidagi takliflari loyihasi tayyorlangani haqidagi xabarlar paydo bo‘ldi. Masalan, universitetning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, professor Nizomiddin Mahmudov imzosi bilan „Feysbuk“ (Facebook) tarmog‘ida tarqatilgan o‘sha ishchi guruhning lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish borasidagi takliflari loyihasi quyidagi mazmun va mohiyatdadir:

I. **A l i f b o**. Hozirgi joriy lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi 29 belgi-harfdan iborat bo‘lib, uning tarkibi quyidagicha:

A a	J j	R r	O‘o‘
B b	K k	S s	G‘ g‘
D d	L l	T t	Sh sh
E e	M m	U u	Ch ch
F f	N n	V v	Ng ng
G g	O o	X x	‘-tutuq belgisi
H h	P p	Y y	
I i	Q q	Z z	

ToshDO‘TAU dagi ishchi guruh hozircha mavjud fikr-mulohazalarni o‘rgangan holda mazkur alifbo tizimining dastlabki loyiha sifatida quyidagicha bo‘lishini ma’qul ko‘radi va uning keng muhokama asnosida yanada mukammallashtirishga umid qiladi:

A a (“a”)	Ii (“i”)	Q q (“q”)	Z z (“z”)
B b (“b”)	J j (“j” sirg‘aluvchi)	R r (“r”)	Ō ō (o‘)

D d (“d”)	K k (“k”)	S s (“s”)	Ğ ğ (g’)
C c (“dj”)	L l (“l”)	T t (“t”)	Š š (sh)
E e (“e”)	M m (“m”)	U u (“u”)	Č č (ch)
F f (“f”)	N n (“n”)	V v (“v”)	Ň ň (ng)
G g (“g”)	O o (“o”)	X x (“x”)	
H h (“h”)	P p (“p”)	Y y (“y”)	

Alifbodagi jami harflar soni 30 ta bo‘ladi, ularning faqat 5 tasi qo‘shimcha belgili harflarni tashkil etadi, ammo bir tovushni qo‘sh harf bilan ifodalashdan xalos bo‘linadi. Dunyodagi alifbolarning ko‘pchiligida qo‘shimcha belgili harflar ancha-muncha bor. Ana shunday qo‘shimcha belgili harflar, masalan, portugal tili alifbosida 17 ta, slovak tilida – 16 ta, chex tilida – 15 ta, fransuz tilida – 13 ta, latish tilida – 11 ta, italyan va turk tillarida – 10 tadan va hatto Sudandagi mandingo tilida – 22 ta mavjud. Joriy lotin alifbosida bir qator muammoli jihatlar bor (Ular haqida xilma-xil fikrlar bildirilmoqda). Masalan, undagi “ch” tovushi ifodasi uchun qabul qilingan “ch” qo‘sh harfi savod o‘rgatishda ham qiyinchilik tug‘diradi, chunki uning tarkibidagi “c” alifbo sirasida yo‘q. Shu bois bir harf o‘rgatish uchun ikki barobar kuch sarflanadi, ya’ni oldin “c” o‘rgatiladi, undan keyin bu harfning “h” bilan qo‘shilib, bir tovushni ifodalashi o‘rgatiladi va hokazo. Mazkur takomillashtirishlar natijasida bu kabi nuqsonlar barham topadi.

II. I m l o. ToshDO‘TAU dagi ishchi guruh turli kishilar tomonidan bildirilgan bir qator takliflarni o‘rganib, umumlashtirib, dastlabki loyiha sifatida imlo qoidalariga tahririy tuzatishlar va takomillashtirishlarni kiritish yuzasidan muayyan tavsiyalarni joiz deb biladi hamda mazkur qoidalarining keng muhokamasi asnosida yanada mukammallashtirishga umid qiladi. Ma’lumki, alifbodagi harflarning ma’nosi va qo‘llanishi imlo qoidalariga bilan boshqariladi, tartibga solinadi. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga” (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan) jami 82 moddadan iborat, ularning 32 moddasida unli va undosh tovushlar imlosi, qolgan 50 moddasida esa asos va qo‘shimchalar, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harf bilan yozish, ko‘chirish kabi holatlar qoidalashtirilgan. Ammo ularda alifboni qo‘llashdagi barcha holatlarning fonetik-orfografik qonuniyatlari to‘lasicha o‘z aksini topgan emas. Shuning uchun o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga mukammallashtirishga,

takomillashtirishga muhtoj. Bunda, xususan, quyidagi jihatlarga alohida diqqat qilish maqsadga muvofiq:

1. Joriy imlo qoidalarida ko‘pincha fonetik-orfografik qonuniyat sifatida qoidalashtirilgan holatlar bir-birini istisno etadi. Masalan, sentyabrni sentabr tarzida, aktyorni aktyor shaklida yozish fonetik-orfografik qonuniyatlarning buzilishidir. Hozirga qadar rejissor, dirijor, budjet, sujet, oktabr tarzida yozib kelinayotgan ruscha-baynalmilal so‘zlarni shaklan ma’lum bir qonuniyatga solish maqsadida rejissyor, driyyor, byudjet, syujet, oktyabr kabi yozishni qoidalashtirish joiz, bunday imlo o‘qitish va o‘rgatishni osonlashtirishi tabiiy. Umuman, kiril alifbosidagi, ayniqsa, “э”, “ё”, “ю”, “я”, “у” kabi harflar (faqat rus tili fonetik qurilishi ifodasi uchun xoslangan) ifodalagan tovushlarning o‘zbek lotin alifbosida ifodalanishi bilan bog‘liq holatlar yangicha qoidalashtirilishi lozim. Birgina misol: kirilcha “ю” harfini bir tovush deb tushunish (aslida u, asosan, ikki tovushni ifodalaydi: “y + u”) oqibatida, masalan, “Ю.(Обидов)”ni lotin o‘zbek alifbosida “Y.(Obidov)” emas, balki “Yu.(Obidov)” tarzida yozish kulgilidir.

2. Asos va qo‘shimchalar imlosida ham yanada takomillashtirilishi zarur bo‘lgan qoidalar yo‘q emas. Masalan, bog‘ga tarzida yozish qoidalashtirilgan, boshqa o‘rinlarda esa qanday talaffuz qilinsa, shunday yozish tavsiya qilingan, yagona tamoyil buzilgan. Yoki *parvo*, *avzo* tipidagi so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilgandagi imlosida ham notugal o‘rinlar mavjud.

3. O‘zlashma so‘zlar imlosi bilan bog‘liq muammolar juda ko‘p (masalan, xorijiy tillardan o‘zlashgan muassasa, korxona, tashkilot, firma va mahsulot nomlarini ingliz tilidagi shaklida emas, balki joriy alifbo asosida yozish joiz: *Hyundai* – *Xunday*, *Chevrolet* – *Shevrolet*, *Google* – *Gugl*, *Twitter* – *Twitter*, *Microsoft* – *Maykrosoft*, *Galaxy* – *Geleksi*, *Canon* – *Kenan*, *Reuters* – *Reyters*, *Hi-Tech* – *Haytek* kabi).

4. Qo‘shib yozish qoidalarini ham qayta qarab chiqilishi lozim. Masalan, *Orolbo‘yi*, *Buloqboshi*, *Kavkazorti* kabi tarkibida *bo‘yi*, *boshi*, *orti* so‘zlari ishtirok etgan joy nomlarining yozilishi nazardan chetda qolgan. Hozirgi kunda vaqtli matbuotda turlicha yozib kelinayotgan (veb-sayt, veb-sahifa, veb-dastur – veb sayt, veb sahifa, veb dastur) bir qator so‘zlar qo‘shma so‘zlar bo‘lgani uchun qo‘shib yozilishi lozim.

5. Ajratib yozish qoidalarida ham ayrim bahsli o‘rinlar bor. Masalan, *yildan-yilga*, *ko‘pdan-ko‘p*, *yangidan-yangi* kabi bir so‘zga aylanib ulgurgan birliklarning chiziqchasiz ajratib yozilishi qoidalashtirilgan. Bu kabi qoidalar maqsadga muvofiq emas, albatta.

6. Imlo qoidalarida qisqartma so‘zlarga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Ayrim so‘zlarni qisqartirganda, etiketni saqlash maqsadida so‘zlarning faqat birinchi harflarini olish yo‘li bilan emas, yana boshqa usullarga tayanish kerak (Masalan, ITM

emas, Ilmiy TM). Bu kabi soʻzlarni toʻliq yozishga harakat qilgan maʼqul. Umuman, qisqartmalarni yasashda bosh harf, boʻgʻinlarning tilimiz morfonolik tizimiga mos keladigan tamoyillarini ishlab chiqib, joriy etish lozim. Hozir qisqartmalarda anarxiya mavjud ekanligini tan olish kerak).

Bir soʻz bilan aytganda, oʻzbek jamoatchiligi yozuv va imlo masalasida har tomonlama puxta oʻylangan qarorlarning qabul qilinishi va „qoʻshalifbochilik“ka chek qoʻyishning qizgʻin tarafdori ekanligini koʻrish mumkin .

Bu maqola nashrga tayyorlanayotgan kunlarda Turk Dunyosi matbuotida Bokuda 9-11-sentyabr kunlari Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan tuzilgan Turk dunyosining yagona alifbosi boʻyicha komissiyaning 3-yigʻilishi boʻlib oʻtgani, unda sohada bilim va tajriba almashish, komissiyaning ikki yillik tajribasi asosida **turkiy tillar uchun umumiy alifbo** loyihasi ustida ishlashni yakunlangani haqida xabarlar paydo boʻldi: Boku shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan tuzilgan Turk dunyosi umumiy alifbosi boʻyicha komissiyaning uchinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Uchrashuv natijasida 34 ta harfdan iborat umumiy turkiy alifbo loyihasi kelishib olindi. Uchrashuv Turkiy Akademiya va Turk tili instituti bilan hamkorlikda oʻtkazildi. Unda TDTga aʼzo mamlakatlar vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvdan koʻzlangan asosiy maqsad turkiy tillar uchun yagona alifbo loyihasi ustidagi ishlarni yakunlashdan iborat edi. Komissiya 1991 yildagi dastlabki loyihani koʻrib chiqdi va kerakli oʻzgartirishlar kiritdi. "Ana shunday fidokorona ish natijasida 34 harfdan iborat umumiy turkiy alifbo taklifi boʻyicha kelishuvga erishildi. Taklif etilayotgan alifbodagi har bir harf turkiy tillarda mavjud boʻlgan turli fonemalarni ifodalaydi", — deyiladi rasmiy bayonotda. Turkiy tillar akademiyasi bu voqeaning tarixiy ahamiyatini taʼkidladi. "Umum turkiy alifboni ishlab chiqish turkiy xalqlarning til merosini asrab-avaylash bilan birga oʻzaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi», — deyiladi bayonotda. Endilikda barcha tegishli muassasalar yangi umumiy turkiy alifboni joriy etishni faol qoʻllab-quvvatlashga taklif etiladi. Bu xabardagi voqea oddiygina ishdek koʻrinishi mumkin, lekin aslida judayam katta tarixiy hodisa boʻldi. Prof. Qozoqboy Yoʻldoshevning fikricha, 1926-yilda turk-lotin yozuviga oʻtish gʻoyasi boʻlgan Turk Dunyosida oʻrtoq alifbo masalasi oxirigacha yetkazilmagan edi. Bu safar Bokudagi komissiya tarkibidagi olimlar tomonidan oxirigacha ishlab chiqildi. Lekin bu degani hammasi qabul boʻldi-yu, ertadan boshlab bu joriy qilinadi degani ham emas. Xoʻsh, alifboning joriy etilishi qanday boʻladi, maktablarda oʻqitila boshlanadimi? "Aslida niyat hamma darajada ishlatish. Uni boshlangʻich sinfdan tortib, yaʼni boshlangʻich sinfdan ilmiy ishlargacha, badiiy adabiyotgacha oʻsha yozuvga oʻtish haqida gap ketyapti. Turk Dunyosining yagona alifbosi sifatida qabul qilish bir kunda yoki bir yilda darrov amalga oshadigan hodisa deb aytish qiyin. Buning uchun juda katta tayyorgarlik koʻrilishi kerak. Ayniqsa, haligacha yozuv masalasida bir toʻxtamga kela olmagan oʻzbekka ancha mashaqqat

tugʻdiradi. Biz hali 9 ta unlini, uni qaysi oʻrinlarda ajratish kerakligini oʻrganmaganmiz. 1940-yildan beri oʻzbek alifbosida 6 ta unli bor degan fikr singdirib kelindi. Biz oʻtin bilan oʻtni farqlamaymiz, bitta harf bilan yozishga urinamiz. Biz bularni boshqa-boshqa harf bilan ifodalashimiz kerak. Bu endi tashvish lekin bizning tilimizni boyitadigan va uning tabiatiga xiyonat qilmaydigan tutum”, deydi professor. Yangi oʻrtoq Turkiy alfavitni joriy etish butun turkiy millatlar uchun bir-birini hech qanday vositachisiz tushunish imkonini beradi.

“Mana shu vaqtgacha muammoli boʻlgan 4 ta harfni almashtirolmay keldik-ku. Agar hozir qilmasak, bu ish shundayligicha qolaveradi. Rus alifbosiga 6 oyda oʻtilgan. Avvalo, tilning tabiatiga xiyonat qilinmaydi, oʻt bilan oʻrning farqiga boradigan oʻzbek dunyoga keladi. Masalan, hozir juda koʻpchilik odamlar “oʻng qoʻl”, “ming” degan soʻzlarni ayta olmaydi, “oʻn qoʻl”, “min” deydi. Masalan, yana “koʻngil” soʻzida “ng” harfini ajratib boʻgʻin koʻchiradiganlar bor. Yozuv degani qudratli narsa bu – odamning fonetik xususiyatlarini ham oʻzgartirib yuboradi. Biz tilga nisbatan notoʻgʻri munosabatimizni toʻgʻrilab olishimiz kerak. qachondir baribir toʻgʻrilaymiz. Biz qilmasak, bizdan keyin shu ishni qilishadi. Ularga qoldirmasligimiz kerak, qiynaldikmi, qiynaldik?! 35 yilda shu 4 ta harfni real qilolmadikmi, demak, 36 yilda shuning 9 tasini ham toʻgʻrilashimiz kerak”, deya tushuntirdi Q.Yoʻldoshev bu loyihaning oʻzbek-lotin yozuvini takomillashtirishga oʻtkazuvchi taʼsiri haqida.

Koʻrinadiki, loyiha boʻyicha oldinga qoʻyilgan maqsadlar ancha yuqori. Bu gʻoyani amalga oshirishning oʻziga yarasha qiyinchiliklari bor. Turkiy alifboning Oʻzbekistonda joriy etilishiga nafaqat olimlar, balki hukumat ham, xalq ham harakat qilishi kerak. Xullas, bu loyihaning paydo boʻlishi oʻzbek-lotin alfaviti va imlosidagi yuqorida tilga olingan masalalarni hal etishga ham koʻmaklashadi, albatta.

Xulosa. Oʻzbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tufayli xalqimiz 3 bora yozuv almashtirishga majbur boʻldi. Shoʻrolar davrida arab yozuvidan lotin yozuviga, soʻngra kiril yozuviga oʻtish sof siyosiy sabablarga koʻra amalga oshirildi hamda madaniyat va umuman mahalliy sivilizatsiyaning eng qiymatli yutuqlari bitilgan yozuvlar xalqning istak va xohishlariga zid ravishda goh “sotsializm qurilishini tezlashtirish”, goh “kommunizm qurilishi talablariga koʻra” almashtirilaverdi. Eng yomoni har gal yozuv almashganida eski yozuv(lar) qonundan tashqari deb eʼlon qilindi va bu yozuvdan foydalanish jiddiy cheklanib qoʻyildi. Mustaqillik yillarida joriy etilgan yangi oʻzbek alifbosi mamlakat va xalqning globalizatsiya jarayonlari avj olgan davrdagi ehtiyojlarini qondirish maqsadida qabul qilindi. Qonunning preambulasida haqli taʼkidlanganidek, mazkur qonun, “keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratish” uchun qabul qilindi va u bu maqsadga xizmat

qilmoqda. Muhimi, qonunning ikkinchi bandida qayd etilganidek, “Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini joriy etish bilan birga O‘zbekiston xalqining milliy iftixori bo‘lmish bebaho ma’naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirilitsani o‘rganish ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi”, ya’ni, yangi o‘zbek yozuviga o‘tish bilan an’anaviy yoki eski yozuvlar qonundan tashqari deb e’lon qilinmagan, balki, aksincha, bu yozuvlarni o‘qis-ho‘rganish va foydalanishni garantiyalash ko‘zda tutilgan. Bu qoida ushbu qonunnig jiddiy yutug‘idir.

Bu qonunni hayotga joriy qilishdagi oqsashlarni esa bugungi kunda jamiyatimizda yuz berayotgan ulkan ijobiy o‘zgarishlar fonida yaqin muddatlarda tuzatilishiga umidvormiz. 20-asrda amalga oshirilgan har qaysi yozuv va alfavit islohoti harakatlari amalga oshirilgan davrda tilni yozuvga moslash kabi achinarli holning yuz berganini afsus bilan qayd etib o‘tish kerak.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tuzilgan ishchi guruhining yaqinda qabul qilingan Turk dunyosining yagona alifbosi tajribasidan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqishda jiddiy foydalanishiga hamda bu alifbodan tilimizning yozuv va imlo tizimini takomillashtirishda o‘rinli foydalanishiga umid qilib qolamiz.

Xullas, yozuv va imlo islohotlari qandaydir mafkura yoki siyosiy kuchlarning maqsadlariga emas, xalq va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi lozim, zero yozuv til va madaniyat kabi xalqning har kuni qo‘llaydigan qadriyatidir.

Adabiyotlar

Baldauf I. (1993). *Schriftreform und schriftwechsel bei den muslimischen Russlandund Sowjetürken* (1850-1937). Budapest: Akademiai Kiado.

Выдрин А. (2024). *Языковая политика в Узбекистане*. Фитрат, Поливанов, Сталин и другие > <http://www.ferghana.ru /zvezda.html>

Гиляревский Р.С., Гривнин В.С. (1965). *Определитель языков мира по письменностям*. Наука.

Korkmaz Z. (2005). Harf inkilabi > http://www.dilimiz.gen.tr/-makaleler/-harf_inkilabi.html (October,

Togan, A. Zeki Velidî. (1981). *Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi*. İstanbul.

Turkiy davlatlar vakillari yagona alifboga kelishib oldi. <https://daryo.uz/2024/09/12/turkiy-davlatlar-vakillari-yagona-alifboga-kelishib-oldi-foto>.

To‘raxo‘jayeva Sh. (2017) *Lotin yoki kirill – qay biri ma’qul?* Kun. uz portali > <http://kun.uz/uz/18754060?q=%2F18754060/>

Фазылов Э.И. (1982). *Развитие алфавита орфографии за 60 лет* // Опыт совершенствования алфавитов и орфографий народов СССР.

O'zbek tili jonkuyarlari guruhi > <https://www.facebook.com/groups/-1693547400972545/permalink/1724607697866515/>

Qozoqboy Yo'ldoshev. (2024). *Turkiylar "til biriktirdi"*. <https://www.-qalampir.uz/uz/news/turkiylar-til-biriktirdi-107091/>
<http://kk.convdocs.org/docs/index-15702.html/>

ARXEOLGIK TERMINOLOGIYA SHAKLLANISHIDA LEKSIK- SEMANTIK USUL O'RNI

Murodqosim Abdiyev*
Shahnoza Muxtarova*

Annotatsiya

Mazkur maqolada soha terminologiyasi, jumladan arxeologiya terminlarining yuzaga kelishida leksik-semantik usulning yuzaga kelish omillari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Unda boshqa sohalar qatori arxeologiyada semantik

* Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Samarqand viloyati hududiy bo'linmasi

* Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi, xayrullo@gmail.com

derivatsiyaning vujudga kelish xususida to'xtalib, noto'g'ri tanlangan termin ifodalanayotgan narsaning tushuncha mazmunini to'liq ochib bera olmasligi hamda uning mohiyatini buzib ko'rsatishi mumkin. Leksik-semantik yo'l bilan so'z hosil qilishda umumadabiy tilga xos so'zlarda ma'no torayishi., qisqarishi mumkinligi, soha mutaxassislari o'z nutqlarida ba'zan metaforalar, ekspressivlik va hissiyotning konsentatsiyasi ifodalovchi terminlarni tan olmasligi sabablari keng miqyosda ochib berilgan. Arxeologiya terminologiyasida "sabab-oqibat", "amal - harakat joyi" qolipi soha terminologiyasini hosil qilishda mahsuldorligining sabablari ko'rsatib berilgan. Semantik kalkalash hodisasi barcha tillar arxeologik atamalarini shakllantirishning leksik va semantik usuli hodisasi ancha faolligi fransuz arxeologik terminologiyasi ta'sirida bo'lgan tosh davri arxeologiyasi atamalariga tegishli ekanligi, o'zbek tilida rus tiliga umumiy adabiy tilning mavjud vositalaridan ekvivalentlarini tanlab olinib tarjima qilinganligi xususida faktik materiallar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *terminologiya, soha, terminologiya, deravsiya, leksik –semantik usul, adabiy til, kalka, qolip, mahsuldorlik, shakllanish.*

THE ROLE OF THE LEXICO-SEMANTIC METHOD IN THE FORMATION OF ARCHAEOLOGICAL TERMINOLOGY

Abstract: In this article, opinions are expressed about the factors of emergence of lexical-semantic method in the emergence of field terminology, including archeology terms. It focuses on the emergence of semantic derivation in archeology, among other fields, and a wrongly chosen term may not fully reveal the conceptual content of what is being expressed and may distort its essence. When creating words by lexical-semantic means, the meaning can be narrowed and shortened in the words typical of the general literary language, the reasons why experts in the field sometimes do not recognize metaphors, expressiveness, and the terms expressing the concentration of emotions in their speech have been revealed

on a large scale. given The reasons for the effectiveness of the "cause and effect" and "place of action" pattern in the terminology of archeology in the formation of field terminology are shown. The fact that the phenomenon of semantic copying is a lexical and semantic method of formation of archaeological terms in all languages belongs to the terms of Stone Age archeology, which is very active under the influence of French archaeological terminology given.

Key words: *terminology, field, terminology, derivation, lexical-semantic method, literary language, template, template, productivity, formation.*

Ma'lumki, umumiy adabiy tilning so'z boyligi arxeologik terminologiyani shakllantirish usuli sifatida ikkinchi darajali nominatsiyaga asos bo'lib xizmat qiladi.

Semantik derivatsiya usulining keng qo'llanilishi, ya'ni. "Yangi nomlash funksiyasida tilda allaqachon mavjud bo'lgan nominativ vositalardan foydalanish"(Уфимцева А.А., Азнурова Э.С., Телия В.Н., 1977,129-в.) tilni iqtisodiy qilishga intilishi bilan bog'liq

bo'lib, bu til birliklarining miqdoriy o'sishiga to'sqinlik qiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, uning harakati natijasida yaratilgan atamalar qisqa, aniq, tushunarli, esda qolishi oson (Терпигорев, 1953, 75-в.). lekin uning salbiy tomonlari ham bo'lishi mumkin: bunday atamalar noto'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, ular tushunchalar o'rtasidagi tasnif aloqalarini aks ettira olmaydi yoki buzib ko'rsatadi(Лотте, 1982. 50-51в.). Umumiy adabiy tildan farqli o'laroq, "semantik o'zgarishlar so'zning uzoq evolyusiyasi natijasidir va bu, qoida tariqasida, so'zlarning - xomonimlarning shakllanishi bilan tugaydi", terminologiyada bu jarayon ancha tez. Bu uning maxsus so'z boyligini shakllantirishda keng qo'llanilishiga olib keladi.

Leksik-semantik terminlar shakllanishi umumiy adabiy so'z ma'nosining ma'noni toraytirish va kengaytirish, tushunchalarning o'xshashligi yoki davomiyligiga qarab uzatish kabi har xil semantik siljishlariga asoslanadi.

Arxeologik terminologiyani boyitishning asosiy vositalaridan biri bu ixtisoslashuv, umumiy adabiytilgaga xos so'zlarning ma'nosini konkretlashtirishdir. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, "ma'no torayganda, ikkita tushunchaning barcha asosiy differensial xususiyatlari bir xil bo'ladi, lekin terminologiya tizimidagi maxsus konsepsiya boshqa, asosiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu tushunchaga tegishli va unda umumiy tushuncha yo'q" (Прохорова, 1980. 72-в.). Masalan, "*gulxan*" atamasining "olov qoldiqlari yoki qazish paytida topilgan qadimiy olov izlari" (Евгеньева, 1981-1984. 113-в.) ta'rifi "olov yoqilgan joy" so'zining talqinidan o'ziga xos semantik komponentlarning mavjudligi bilan farq qiladi: ular bu obyektning qadimiyligini ifodalasa, ikkinchisi - kashfiyot shartlarini ko'rsatadi. "Tosh davri odamlari joylashuvi" atamasining ta'rifida, "to'xtash joyi, kimningdir yoki nimaningdir vaqtincha qolishi" (Евгеньева, 1981-1984, 969-в.) umumiy adabiy talqinidan farqli o'laroq, qo'shimcha semantik komponentlar – "*odamlar joylashuvi*", "tosh davri" kabi konkretlashtiruvchilar mavjud.

Odatda, umumiy adabiy so'z ma'nosining torayishi va uning terminga aylanishi turli xil terminologik birikmalarning shakllanishi bilan birga kechadi. SHunday qilib, masalan, umumiy adabiy so'z texnikasi asosida yaratilgan *texnika* atamasi "har qanday ishda ishlatiladigan texnikalar, ko'nikmalar, usullar (Евгеньев, 1981-1984. 413-414-в.) "mehnat tosh asboblari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan *texnikalar to'plami*" atamasi "odatda *urish texnikasi-pardoqlash texnikasc, levalloz texnikasi* kombinatsiyalarida ko'rinadi. Umumiy badiiy kompleks so'z asosida paydo bo'lgan majmua atamasi arxeologik majmuada "majmua, obyektlar, harakatlar, hodisalar, xususiyatlarning kombinatsiyasi"(Евгеньева, 1259-в.) va "bir vaqtning

o'zida erga tushgan narsalar majmuasi" iboralar qismini ifodalaydi. Sanoat atamasi (qarang: umumiy adabiy til doirasida "sanoat", ishlab chiqarish) arxeologiya tilida "qadimiy asboblarni ishlab chiqarish" degan ma'noni anglatadi va u tosh davri sanoati, yuqori paleolit sanoati, neolit sanoati kombinatsiyalarida ishlatiladi.

Ko'pincha bunday terminologik birikmalarga arxeologik so'z kiradi (solishtiring: *arxeologik yodgorlik*, *arxeologik manba*, *arxeologik topilma*); terminologik tabiatning boshqa atributiv komponenti (*paleolit joyi*) yoki mukammal umumiy til mosligi (*qo'shma inventarizatsiya*, *dafn inventarizatsiyasi*) ham umumiy so'z ma'nosining ixtisoslashuviga yordam beradi.

Arxeologik terminologiyada atamalarning 3,4% i so'zning ma'nosini toraytirib yaratiladi. Qoidaga ko'ra, mavhum ma'no (*majmua*, *sanoat*, *mol-mulk ro'yxati*) lug'ati qayta ko'rib chiqilgan, kamdan-kam hollarda - o'ziga xos (*parcha*).

Tugatish usuli sifatida ma'noning kengayishi asl so'zning semantik hajmining oshishini nazarda tutadi. Bu nominatsiya yo'li odatda arxeologiya tili uchun xos emas. U asosan arxeologik madaniyat nomlarining bitta tematik guruhida namoyon bo'ladi va terminologik iboraning semantik kondensatsiyasi jarayoni bilan bog'liq (Шмелов, 1982. 61-b.). Shunday qilib, *Tripollia* termini dastlab *Tripole madaniyati* yoki *Tripollian madaniyati* deb nomlangan arxeologik madaniyat qoldiqlari topilgan aholi punktining nomi edi. Bu atamani ishlatish jarayonida qisqarish, iborani umumlashtirish sodir bo'lgan. Shu munosabat bilan, so'zning asl ma'nosi va uning terminologiyasini kengaytirish, umumlashtirish sodir bo'lgan.

Boshqa arxeologik madaniyatlarning nomlari ham xuddi shunday paydo bo'lgan: *Joytun*, *Kaltaminar*, *Qoban*. Bu ikkinchi darajali nomlanish usuli asosida G'arbiy Evropa madaniyatlari nomlari yotadi: *ashel*, *shell*, *mustier*, *maglemoz*, *tardenoise*, *solutre*, *avignak*, *lingbi*.

Ma'noning torayishi bilan bir qatorda umumiy adabiy so'zlarning metaforizatsiyasi arxeologik terminologiyada keng tarqalgan bo'lib, umumiy differensial yoki konnotativ semaga ega bo'lgan umumiy va maxsus tushunchalar belgilarini o'zlashtirishga asoslangan (Шмелёв, 1982. 60-b.). Arxeologik atamalarning 4% bu tugatish usuli natijasida yaratilgan.

Arxeologik terminologiyada o'xshashlikka asoslangan transfer turlari xilma-xildir. Ism o'xshashlik belgisiga asoslangan bo'lishi mumkin (qarang: *tangacha* - "1 sm gacha kesik" *makaronlar* qadimgi odamlar loy massasi bilan o'ralgan g'or devorlarining qismlariga barmoqlari bilan qo'llagan tekis va to'liqinli parallel chiziqlar), joylashuvning o'xshashligi (solishtiring: *pol* turar joylar "madaniy qatlamning asosi", *suyanchiq*-asbobning orqa yuzasi, oldindan tayyorgarlik yoki noqulaylik sabab olib tashlash imkoniyati, *asbobning qorin bo'shlig'i* "asbobning qorin yuzi, yadrodan bo'linish yuzasi, aniq nuqtada to'liqinli relief va radiusli nurlanish", *dolmen hovlisi* "dolmen kirish eshigi oldidagi platforma").

Terminologik nom bir nechta xususiyatlarning o'xshashligiga asoslanishi mumkin. Shunday qilib, *yostiqliq (tosh)*, "dafn tosh boshi" atamasi joylashuvi va funksiyasining o'xshashligi, *mo'ylov (qo'rg'onga tegishli)* "qo'rg'onning yon tomonlaridagi tosh tizmalar" - shakli va joylashuvi o'xshashligi, *xontaxta* topilmalarni joyida tahlil qilish uchun qazish ishlarida qoldirilgan er monoliti" jadvali- tashqi ko'rinishi, joylashuvi, funksiyasidagi o'xshashliklar asosida yaratilgan.

Arxeologik terminologiyada tasviri allaqachon o'chirilgan va ona tili tomonidan tan olinmagan umumiy lingvistik metaforalar keng qo'llaniladi: *bo'yincha, tomoq, elka, qirra (idishlar), tug'lar (nayzalar, o'qlar,-pero, nayzalar (nayzalar, arqon);* vaqti -vaqti bilan uchraydigan metaforik ismlar: *buta* "qadimiy aholi punktlari" uyasi, *voha* "ma'lum bir hudud uchun kamdan-kam aholi punktlari qoldiqlari", *tugma* "bolta dumida qalinlashgan qismi", *g'orcha* "qurol yuzasidagi qabariq", *kiprik* "munchoqdagi tasvirning ko'rinishi".

Nom berish texnikasi sifatida metaforizatsiya ba'zi tematik guruhlariga xosdir. Shunday qilib, bezak elementlarining nomlari, qoida tariqasida, assimilyatsiya, taniqli narsalar bilan o'xshashligi asosida yaratilgan: *marvarid, arqoncha, o'ramcha, archa, ilon;* yoki majoziy uyushiq bo'laklarga asoslangan; *lichinka, bo'ri tishi, o'rdak kabilar.*

Funksional maqsadini aniqlab bo'lmaydigan obyektlarning nomi, shuningdek, ularning tashqi ko'rinishi ma'lum bo'lgan narsalarga o'xshashligiga asoslanadi: *durbin* (turli xil mahsulotlar orasida durbin deb ataladigan narsalar bor. Bu ikkita bo'shliqli silindrlardan tashkil topgan juda sirli narsalar) *salat kosasi* (... keramik mahsulot ... rejali kvadrat yoki cho'zilgan to'rtburchaklar shakliga ega bo'lgan, salat idishlari deb ataladigan, to'rtburchaklar shaklidagi asl idishlar), *kulcha* (dafn paytida tegishli, eritilgan yashil shisha boncuklar, loy non va temir to'qadan tashqari hech narsa topilmadi). Ba'zida bunday narsalarning nomi tashqi ko'rinishiga qo'shimcha ravishda mo'ljallangan vazifasi bilan bog'liq holda keladi: *qalam* (marganets dioksididan yasalgan "qalamlar") ehtimol rang berish uchun ishlatilgan.

Vazifalarning o'xshashligini metaforik uzatishning bir turi sifatida hisobga olib, biz "tosh asboblari bilan qoplangan "tayanch, *sandon* sifatida ishlayotganda yadro platformasida joylashtirilgan *shox bargi* atamalari shakllanishining asosi deb hisoblaymiz".

Metaforik shakllarni tasvirga asoslangan va tasvirlashlardan chegaralangan bo'lishi kerak. Masalan, *klesh* ("qo'ng'iroq shaklidagi idish") atamasi fransuz tilidan olingan (qarang. fr.*cloche* "qo'ng'iroq", *jonlanish (asboblarda)* kalka atamasi-fransuz tilidan olingan (Клейн, 1978. 58-b).

Metaforik atamalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati umumiy adabiy tilning o'ziga xos so'z boyligi asosida yaratilgan: odamni o'rab turgan turli

narsalarning nomlari (*pol, kichkina hovli, makaron, non*), somatizmlar (*mo'ylov, cho'chqa dumi*), zoomorfizmlar (*lichinka ilon, g'umbak*).

Terminologlarning fikriga ko'ra, metaforalar, ekspressivlik va hissiyotning konsentatsiyasini mutaxassislar tan olmaydi. Biroq, ularning arxeologiyadagi matnlarda ishlashini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu so'z mutlaq emas. Arxeologlar nafaqat yangi yaratilgan atamalar va tasodifiy nomlar, balki terminologik birliklarning (qarang: *orqa, qorin*) tasvirini ham bilishadi, bu ularni sun'iy ravishda yaratilgan atamalar (*dorsal yuz, qorin yuzi*) bilan almashtirishga undaydi.

Arxeologiya tili uchun "so'zning oldingi ma'nosida ko'rsatilgan va yangi belgining belgilari bir-biriga bog'liqligi asosida semantik tarkibni ishlab chiqish usuli" (Уфимцева va b.1977. 190-b)

metonimik transferi unchalik ahamiyatli emas. Arxeologik atamalarning 3,4% metonimiya asosida yaratilgan. Arxeologik atamashunoslik bo'yicha uzatish turlaridan fazoviy tutashishning turi ustunlik qiladi, xususan, "harakat - obyekt, harakat natija" modeli: *bo'lak* "kremniy yoki kremniy yadrosidan inson qo'li bilan yulib olingan parcha", *qayta qazilma* "madaniy qatlamlarning ketma-ket almashinuvi buzilganligini ko'rsatadigan qazilgan tuproq qatlami", *tosh-kamen* dafn joyiga tosh bo'lak qo'yish, *ko'mish* "dafn, teshik, qazish joyini to'ldirish". Bu atamalar guruhi fe'l harakat ma'nosiga ega bo'lgan otlardan yasalgan. Metonimik uzatish natijasida obyektiv ma'noga ega so'zlar paydo bo'ladi. Faqat birlikda ishlatiladigan asl birliklardan farqli o'laroq, ularning yaratmalari ko'plik bo'lishi mumkin (qarang: *qoldiqlar, bo'laklar, toshlar*).

Arxeologiya terminologiyasida ba'zi mahsuldorlik "sabab-oqibat" qolipining o'zgarishiga ega - narsa - narsaning izi: *bog'ich* "keramikada shurning izi", *muhr* "idishdagi shtamp(muhr) izi", *taroq* "shtampning izi - idishda taroq izi" (qarang: taroqli shtamp (taxminan 63%), keyin orqaga chekinuvchi shtamp va naychalar, oddiy va o'ralgan shnur (15%) va bezakning chizilgan, qisilgan va boshqa elementlari yakka holda uchraydi).

"Amal - harakat joyi" qolipiga ko'ra, *qazish* atamasi uchun "qadimiy yodgorliklarni qazib olish ishlari olib borilayotgan joy" yangi ma'nosi paydo bo'ldi (qarang: *qazishmalar* "er yuzida joylashgan qadimiy yodgorliklar qazib olish uchun er qatlamlarini ochish").

Vaqtga bog'liqlik asosida yaratilgan atamalar juda kam uchraydi, masalan, "vaqt - bu vaqtning predmeti" (taqqoslash: *qadimiylik* "qadimiy narsa, arxeologik yodgorlik") yoki "model vaqti" bu modelning foydalanish vaqti (qarang: *bronza* "bronza davri", *temir* "temir davri", *mis* "mis davri"). Shuni ta'kidlash kerakki, oxirgi model bo'yicha atamalarning paydo bo'lishi so'z birikmalarining umumlashtirilishi bilan murakkablashadi (solishtiring: *bronza asri - bronza davri - bronza, temir asr - temir davri - temir*).

Sinekdoxa singari uzluksiz o'tkazishning bu turi faqat qismdan butunga o'tish asosida yaratilgan *o'tkir uch* atamasi bilan ifodalanadi (*uchi* "o'tkir teshuvchi toshli asbob").

Semantik kalkalash hodisasi ba'zan arxeologik atamalarni shakllantirishning leksik va semantik usuli hodisasi ancha faolligi ma'lum bo'ldi. Bu fransuz arxeologik terminologiyasi ta'sirida bo'lgan tosh davri arxeologiyasi atamalariga tegishli. Boshqa tildan olingan tushunchalar rus tiliga umumiy adabiy tilning mavjud vositalaridan ekvivalentlarini tanlab tarjima qilindi. Shu bilan birga, semantik izlanish leksik va semantik so'z hosil qilish hodisasi bilan bir vaqtda sodir bo'ldi, chunki yangi ma'no so'zning semantik tarkibiga organik ravishda kiritilgan. Quyidagi terminlar genetik jihatdan semantik kalka va semantik derivativlar hisoblanadi: *to'qmoq-fr. rercuteur, plastina-fr. palette, qirg'ich-fr. garttoir, teshish-fr. perçoir, tig'-fr. burin, siqqich-fr. comprimeur*. Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, ular faqat ikkinchi darajali nominatsiyaning natijasidir. Bu holda, "izlanish – bu ona tili ma'ruzachilarining semantik uzatish asoslarini qabul qilish va ular tomonidan bajarilgan rus tilining so'z boyligiga asoslangan ijodiy semantik ish" (Ппoxopoba B.H. 1980. 56-b.). Bunday holatlarni ma'lum darajada atamaning turli tillardagi ma'nosining baynalmilallashuvi deb hisoblash mumkin.

So'z hosil qilishning leksik-semantik usuli natijasida yaratilgan atamalardan "kundalik lug'at so'zlari deb ataladigan tushunchalar ta'rifiga mos keladigan" ismlarni ajratish kerak (Ппoxopoba, 1980,56-b). "Biror narsani sayqallashda ishlatiladigan asbob", *pardozlaydigan asbob*. "Biror narsani tekislashda ishlatiladigan asbob" Bu so'zlar bilan ifodalangan qadimiy voqeliklar hozirgi zamonlardan farq qilar edi (taqqoslang: kesaklar-bu qumtoshdan yasalgan, kesma shakli oval yoki to'rtburchaklar, dumg'aza qismi qattiq qisilgan, pichoqning o'ziga xos jilosi. bu ketmonlar ishlov berish uchun ishlatilgan deb taxmin qilish). Biroq, bu erda umumiy adabiy so'z bilan solishtirganda ma'no o'zgarishini ko'rishga asos yo'q.

Arxeologiya tilidagi bir qator bunday nomlarning odatiyligini ta'kidlash lozim, chunki ular o'z vazifalarini insoniyatga ma'lum bo'lgan predmetlar bilan o'xshashligi asosida yaratilgan, bu esa ba'zida mutaxassislar o'rtasida tortishuvlarga sabab bo'ladi (solishtiring: Nima uchun bronza davridagi dashtning bronza "barg shaklidagi pichog'i" - ikki qirrali, orqasi bejiz emasligini bilmaymiz. SHuning uchun biz bahslashamiz: ba'zilari bu topilmalarni "*pichoq*", boshqalari – "*xanjar*", boshqalari – "*nayza uchlari*", to'rtinchisi – "*ustara*").

Semantik strukturaning ochiqligi bilan tavsiflanadigan otlarning polisemantik terminlariga asoslangan atamalar yaratish, shuningdek, so'z yasashining leksik-semantik usulidan, ya'ni, so'z yasash modelini qayta amalga oshirish qobiliyatini farqlay olish kerak (Шмелёв,1982, 112-b.). Demak, *limon shaklidagi qo'l granatasi* "shaklan limonni eslatuvchi munchoq turi" degan umumiy adabiy so'zga mos keladi.

I. Limon shakliga o'xshash nok turi, 2. kenglik. qo'lda yasalgan granata, shakli limonga o'xshaydi, lekin bu atamaning ma'nosi umumiy adabiy so'zning ma'nosidan kelib chiqmaydi va ular bilan faqat bitta ishlab chiqaruvchiga umumiy munosabat bilan bog'lanadi (Шмелёв, 1982. 114-b.) Xuddi shunday ba'zi atamaları yaratilgan: *kultepa*, "kul qatlamlari, ko'pincha qo'rg'onga o'xshash tepalik shaklida, hayvonlarning suyaklari va moddiy madaniyat obyektlarining qoldiqlari bilan to'yingan", *zarbdor* "toshdan yasalgan mehnat qurollarini yaratish uchun asbob", "o'yimakorlik pichog'i" kesish uchun mo'ljallangan tosh asboblar turi

Umumiy adabiy tilning so'zlari asosida yaratilgan so'z boyligini terminologiyali deyish mumkin. O.D.Mitrofanova ta'kidlaganidek, u haqiqiy terminologik lug'atdan umumiy adabiy tildan kamroq darajada ajralib turishi bilan farq qiladi (Митрафанова, 1973. 40-b.). Atamaning asl til birligiga yaqinlik darajasi boshqacha bo'lishi mumkin. Bular umumiy adabiy tilning so'zlari bilan faqat lotin modelining birligi (*kultepa*) bilan birlashtirilgan omonimlar bo'lishi mumkin va aksincha, terminologik ma'noning tez-tez ishlatib kelinishi, bitta so'zni ma'nolardan (*olov, nayza, joy, qobiq*) ko'rib chiqishga imkon beradigan umumiy badiiy so'z ma'nosining belgilangan tushuncha bilan bevosita aloqasi bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytilganda, ko'rib chiqilgan materiallar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, umumiy adabiy tilning so'z boyligi arxeologik terminologiya sohasida nomlarni shakllantirish uchun manba sifatida keng qo'llaniladi. Uning asosida terminlarni yaratish usullari xilma-xil (ma'no torayishi, metaforizatsiya, metonimiya, ma'noning kengayishi, lingvistik tushunchaning logizatsiyasi). Muayyan subyekt ma'nosi va toponimlari bilan atamalar lug'atini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ko'p funksiyali so'z birikmalarining turli guruhleri arxeologiya terminologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa soha terminologiyasi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

А.А.Уфимцева, Э.С. Азнаурова, В.Н.Телия и др. (1977). *Языковая номинация: Виды наименований* / Отв.ред Б.А.Серебrenиков, А.А.Уфимцева. Наука. 190.

Терпигорев А.М. (1978). *Об упорядочении технической терминологии*. Вопросы языкознания, № I, 75.

Лотте Д.С. (1982). *Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов* / Предисл. Т.Л.Канделаки и С.В.Гринева. 50-51.

Прохорова В.Н. (1980). *Прохорова В.Н. Полисемия и лексико-семантический способ словообразования в современном русском языке: Лекции по спецкурсу*. Изд-во Моск. Ун-та, 1980. 72.72.

Евгеньева А.П. (1981-1984). *Словарь русского языка*: В 4-х т.т.2 / Гл.ред. А.П. Евгеньева. – 2-е изд., испр. и доп. Русский язык.

Шмелёв Д.Н. (1982). *Способ номинации в современном русском языке* / Отв.ред. Д.Н.Шмелёв. Наука. 60.

Клейн Л.С. (1978). *Археологические источники*. Изд.-во Ленингр. Ун-та.

Митрафанова О.Д. (1973). *Язык научно-технической литературы*. Изд-во Моск. Ун-та. 40.

BUGUNGI KUN TA'LIMINING DOLZARB VAZIFASI

Jo'rayeva Bibish*

Annotatsiya

Rahbariyat tomonidan davlat tili bo'yicha e'lon qilinayotgan farmon, qonun va qarorlar e'tiborga molik. Bu hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalar ijrosi bo'yicha mutasaddi tashkilotlarning olib borayotgan harakatlari ham tahsinga sazovor. Shu hujjatlarda qayd qilingan kelgusidagi vazifalar ijrosi uchun biz ziyolilar ommasi ham faollik ko'rsatsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki tilimizga bo'lgan salbiy munosabatni o'zgartirish, millat farzandi qalbidagi tilga nisbatan befarqlik va bee'tiborlik qusurini bartaraf etish, uning nufuzi va mavqeyini ko'tarish masalasida hech bir inson chetda turishi mumkin emas. Ona tilimizning go'zalligi bilan

* Filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyat hududiy bo'linmasi

faxrlanish, imkoniyatlarini ko‘z-ko‘z qilish juda yaxshi, ammo mana shu go‘zallik, mana shu imkoniyatlarga ega bo‘lgan ona tilimizning yashab qolishi, taraqqiy etishi, millatlararo muloqot tiliga aylanishi uchun bir qator amaliy ishlarni ham yo‘lga qo‘yish bugungi kunda birinchi galdagi vazifamiz ekanligini anglashimiz yanada yaxshiroq deb o‘ylayman.

Kalit so‘zlar: *til, nutq, ilm, axloq, shaxs kamoloti, milliy til, milliy tafakkur, yangicha dunyoqarash, aqliy rivojlanish, milliy madaniyatli xalq*

THE FUNDAMENTAL MISSION OF TODAY'S EDUCATION

Abstract

The decrees, laws and decisions announced by the leadership in the state language are noteworthy. The actions of the official organizations in the implementation of the tasks provided for in these documents are commendable. It would be expedient if we, the masses of intellectuals, also show activity for the implementation of the future tasks mentioned in these documents. Because no one can stand aside in the matter of changing the negative attitude towards our language, eliminating the defect of indifference and inattention to the language in the hearts of the children of the nation, raising its prestige and status. It is very good to be proud of the beauty of our mother tongue, to show off its possibilities, but in order for this beauty and these possibilities of our mother tongue to survive, develop, and become a language of international communication, there are a number of practical measures. I think it's even better to realize that getting things right is our first priority

Key words: *language, speech, science, ethics, personality development, national language, national thinking, new outlook, intellectual development, national culture*

1. Shaxs kamoloti – jamiyat taraqqiyoti. Mustaqil O‘zbekistonimiz oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy vazifalarni hal etish barcha bosqichlardagi ta’lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim tizimidagi vazifalarga zamonaviy yondashuv davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e’tibor qaratilayotganida, qabul qilinayotgan bir qator muhim hujjatlarda o‘z ifodasini topmoqda. Ta’lim islohotlarini, avvalo, sohadagi real imkoniyatlarni, uning sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va hisobga olish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lishini hayotning o‘zi ko‘rsatib bermoqda. Ta’lim-tarbiya haqidagi bilim inson, uning insoniy fazilati va kamoloti haqidagi ilmdir. Inson unga doimiy ehtiyoj sezadi. Zero, bilimsizlik hayot uchun xavfli bo‘lib, shaxs kamolotini izdan chiqaradi. O‘z navbatida, shaxs kamoloti esa jamiyat taraqqiyotidan dalolatdir. Inson ongini o‘zgartirmasdan, uni o‘z-o‘zini

faollashtirish va anglashga o'rgatmasdan, kamol toptirmasdan, bir so'z bilan aytganda, insoniylashtirmasdan turib, jamiyat taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi.

2. Ulug' ajdodlarga munosib voris bo'lish – burchimiz. E'tirof etish lozimki, xalqimiz ongida yangicha dunyoqarash, tafakkur tarzi va O'zbekistonimiz mustaqilligidan faxrlanish, tarixiy-ma'naviy merosimiz boyliklaridan g'ururlanish hissi tobora mustahkamlanmoqda. Bizning millatimiz o'zining qadimiy, boy va bebaho ma'naviy merosi — tengsiz xazinasiga ega xalqlardan hisoblanadi. “Agar yer yuzida ko'kargan yog'ochlarning barchasi qalam bo'lsa va dengizlar siyoh bo'lsa, barcha odam farzandi bitikchi bo'lsa taqi yuz ming va yuz ming yil uning sifatini bitsa, dengizdan bir qatra va tog'dan bir misqol toshni bitgandan ozroq bo'luvchi” (Абулғозий Баҳодирхон. www.ziyouz.com kutubxonasi. 3-bet) bu yurt jahonda o'zining allomayi zamonlari bilan nom qozongan. Hayotda baxtli bo'lish va baxtli yashash sirlarining falsafiy asosini yaratib, “Baxtliklanish bilimi” (А.Фитрат. 2000, 13-бет) deya insoniyatga taqdim etgan Yusuf Xos Hojib, “she'rlarining har parchasiga hikmat unvoni berilgan” Ahmad Yassaviy, “hikmatda va nujumda tengsiz” (А.Фитрат. 2000, 88-бет) Umar Xayyom, turkiy xalqlarning “shamsul-millat”i Alisher Navoiy kabilar bilan turkiyzabon xalqlar birdek faxrlanadi. Bu allomalar bilan faxrlanish barobarida ularga munosib voris bo'la olish mas'uliyati ham zimmamizdadir, albatta.

3. Ilm – aqliy rivojlanishdir. Mavjud didaktik adabiyotlarda ta'limga ta'rif berilganda uning ijtimoiy hayotning o'ziga xos shakli sifatida insonlarni ma'lumotli qilish, tarbiyalash, aqliy rivojlantirish vazifalarini bajarishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ta'lim uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. Buning boisi inson butun umri davomida bilimga intilishidadir. “Beshikdan qabrgacha ilm izla” hikmati bejizga aytilmagan, albatta. Ta'lim – madaniyatning tarkibiy qismi. Shuning uchun ham ta'limni isloh qilish masalasini hal etishda madaniyatni nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Madaniylik darajasini axloqiy mezonlar belgilaydi. Inson axloqini esa faqat ta'lim, ilm-ma'rifat, tarbiya orqali go'zallashtirish mumkin. Shu o'rinda hadisi sharifda: “Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur” – deya ta'kidlanganligini eslash o'rinli. Mavlono Rumiya esa o'qiymiz: “Ey inson, hech kimning qalbini og'ritma! Agar bilsang so'zdan og'iri yo'q. Inson aslida juda ham og'ir yukni ko'tara oladi. Lekin ko'ngil hamma gapni ham ko'tara olmaydi” (Мавлоно Жалолиддин Румий. 2005. 102-бет).

Xo'sh, bu go'zal axloq emasmi?! Zotan, tilga doir ta'lim islohotlarining mazmun-mohiyatida shu ezgu niyat yotadi. Axloqni katta kuchga aylantirish va uning ahamiyatini anglashga yordam berish aynan insonparvar ta'limning bosh masalasi hisoblanadi. Insonparvar ta'lim shaxsda insoniylikni va ongli faol fuqarolikni shakllantiradi. Insonparvar ta'limning asosiy maqsadi o'z-o'zini boshqara bilish iqtidoriga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. Tabiiyki, o'zini anglagan, o'z-

o'zini boshqara olgan inson boshqalarga ham o'rgata oladi, ularni o'z ortidan ergashtiradi va ular birgalikda jamiyatni o'zgartirishga qodir bo'lishadi. Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat aytganidek: "Komil-u olim insonlar nafslarini shunday tarbiyalaydilarki, natijada afv va madora, muloyimlik odatlariga aylanadi. Shu holatni hilm deydilar. Hilmning naqadar sharaflilik ekanligiga birgina dalil – Allohning ismlaridan biri Halim ekanligidir".

4. Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin. Odatda, ilm olishni igna bilan quduq qazishga mengzashadi. Haqiqatda, yangi bilimni o'zlashtirish nihoyatda qiyin, uning zahmatlari bisyor. Ammo xalqimizning oqilona xulosasicha, odam bo'lish bundan-da qiyin, bundan-da mushkul. Har bir millatning o'ziga xos va o'ziga mos mental xususiyatlari to'la-to'kis mujassam bo'lgan vakiliga shu millatning komili hisoblanadi. Shu ma'noda bog'chada, boshlang'ich sinfda chet tilini birlamchi o'ringa ko'tarish mumkin emas. Chunki bu yoshda bola ruhiyati, fikrlash qobiliyati, o'ylash imkoniyati, ta'bir joiz bo'lsa, qaysi millatga daxldor ekanini belgilovchi ruhiy-hissiy xususiyati kabilarga poydevor qo'yiladi, bu yoshda chet tiliga asosiy e'tiborni qaratish o'zbekona tarbiyaning negizini qirqishdir.

Ilm insonni olimlik darajasiga ko'tarsa; milliy til, uning bag'rida jamuljam bo'lgan milliy xususiyatlar majmuyi til egasini zamonasining allomasi, piri komili, odamiylik martabasiga musharraf etadi. Hech bir jamiyat va davlatda hammaning olim bo'lishi talabi qo'yilgan emas va qo'yilmaydi ham. Ammo har bir jamiyat va yurtida jamiyat vakilining chin inson bo'lishiga doimo kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatida qoraladi.

5. Milliy til milliy tafakkurni yaratadi. Shuni ham unutmaslik lozimki, insonda eng qiyin, eng keyin o'zgaradigan jihat bu uning tafakkuri hisoblanadi. Til tafakkurning mevasi ekan, bolaning dastlab qaysi tilda savod chiqarishi, qaysi tilni o'rganishi uning tarbiyasini, tafakkur tarzini belgilab beradi. Milliy tilda savod chiqargan farzand milliy tafakkur qiladi, milliy muomala madaniyatini o'ziga asta-sekinlik bilan singdira boradi, milliy o'ylaydi, milliy so'zlaydi. Bir so'z bilan aytganda, unda ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz shakllantirgan sof milliy dunyoqarash, milliy o'tirib-turish tarzi, milliy o'zlik naqshlanadi. "Bolalikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh, qarilikda olingan bilim muzga o'yilgan naqsh", degan xulosaga bekorga kelinmagan. Shu ma'noda dastlabki, ya'ni bolalikdagi tafakkur mustahkam, sobit bo'lgani uchun ham uni milliy negizda shakllantirish har bir millat yashashining asosiy shartidir. Tafakkur zohiriy va botiniy olamning inson ongida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi ekan, demak, **MILLIY TIL TA'LIMIGA E'TIBOR** birinchi zaruratdir.

6. Til – millatning borligini ko'rsatib turuvchi, millatni millat sifatida shakllantiruvchi asosiy birlik. Odatda, tilning taqdirini ijtimoiy hayot bilan bog'lashadi, ya'ni jamiyat bo'lsagina u mavjud bo'ladi, chunki til ijtimoiy xarakterga

ega deb talqin qilishadi. Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi jihatdan e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijtimoiy hayot tilning yashashi uchun qanchalik muhim bo'lsa, millatning millat sifatida yashab qolishi uchun til birligi ham shu qadar ahamiyatli. Chunonchi, millatning o'ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so'z bilan aytganda, milliy o'ziga xoslik til bag'rida umrguzaronlik qiladi. Shu bois millat saodati yo'lida jon fido etgan A.Fitrat «Rahbari najot» asarida tilning yosh avlod hayot tarziga ta'siri masalasiga e'tibor qaratib yozgan edi: «*Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar*». Chindan ham ona tili bilan birga bolada o'zbekona milliy ruh, milliy muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o'zlik shakllanadi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo'lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo'lsa so'zlovchining o'z ona tilidir. Xalqlarning o'z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilishi tabiiy hol bo'lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur'atlar bilan gullab-yashnatish mumkin – natijada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro'ga ega bo'ladi.

Adabiyotlar

Абулғозий Баҳодирхон. *Шажарайи тарокима*. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Абдурауф Фитрат (2000). *Танланган асарлар*. Беш жилдлик. Маънавият.

Абдурауф Фитрат (2010). *Танланган асарлар*. Беш жилдлик. Маънавият.

Мавлоно Жалолиддин Румий (2005). *Маснавийи маънавий*.

1929-YIL MAY KONFERENSIYASIDA IMLO MASALASINING HAL QILINISHI

Inomjon Azimov *

Annotatsiya

Ma'lumki, arab yozuvi bir necha asrlar mobaynida o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, turk, ozarbayjon, tatar kabi turkiy xalqlarning asosiy yozuvi sifatida amalda bo'lib kelgan. Bu xalqlarning uzoq yillik tarixi, madaniyati bevosita mazkur yozuv bilan bog'liq. Bu yozuvda qat'iy imlo qoidalarining yo'qligi, xuddi arab tilidagidek, yozuvda qisqa unlilarning ifodalanmasligi, uchta harf bilan o'zbek tilidagi barcha unlilarni ifodalash ko'pgina muammolarni keltirib chiqarar edi.

O'tgan asrning boshlarida Ozarbayjon va Turkiyada jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, bu harakatning boshqa turkiy xalqlarga ham yoyilishi, yangi usuldagi jadid maktablarining ochilishi, o'z-o'zidan, milliy imlo qoidalarini ishlab chiqish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi.

* Filologiya fanlari doktori, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, inomjon66@mail.ru

Turli yig'ilish va anjumanlar hamda matbuotdagi imlo masalasiga doir bahs-munozaralar natijasida 1926-yilda dastlabki imlo qoidalari ishlab chiqiladi. Asosan fe'l va ismlarning yozilishiga asoslangan mazkur imlo qoidasini ilk tajriba deyish mumkin.

1929-yil Samarqandda bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasida o'z davrining taniqli tilshunos olimlari tomonidan bildirilgan fikr va takliflarga asoslangan holda imlo masalasi yuzasidan maxsus qaror qabul qilinadi. Maqolada ana shu qaror loyihasi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *jadid, imlo qoidalari, ism, fe'l, savtiy usul, sarfiy usul, tomir (o'zak), singarmonizm, tovush, harf, qo'shimcha, chet so'zlar.*

RESOLUTION OF THE SPELLING PROBLEM AT THE MAY 1929 CONFERENCE

Abstract

It is known that Arabic script has been used as the main script of Turkic peoples such as Uzbeks, Kazakhs, Kyrgyz, Turkmen, Turks, Azerbaijanis, and Tatars for several centuries. The long history and culture of these peoples are directly related to this writing. The lack of strict spelling rules in this script, the lack of representation of short vowels in the script, as in the Arabic language, and the representation of all vowels in the Uzbek language with three letters caused many problems.

At the beginning of the last century, the emergence of the jadid movement in Azerbaijan and Turkey, the spread of this movement to other Turkic nations, and the opening of new-style jadid schools put the need to develop national spelling rules on the agenda.

In 1926, as a result of debates on the issue of spelling in various meetings, conferences and in the press, the first spelling rules were developed. This spelling rule, based mainly on the writing of verbs and nouns, can be called a preliminary experiment.

At the 1929 language-spelling conference held in Samarkand, a special decision on spelling was made based on the opinions and suggestions of famous linguists of their time. The article talks about this draft decision.

Key words: *Jadid, spelling rules, name, verb, Savti method, Sarfi method, vein (root), synharmonism, sound, letter, suffix, foreign words.*

Kirish. Milliy uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan XX asrning birinchi choragida ma'rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uyg'otishda, milliy ongni o'stirishda tilga g'oyat katta ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanligini anglaganlar, shuning uchun o'z

tillarining rivoji uchun barcha choralarni ishga solib, o'zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqishga kirishganlar. Xalq jonli tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilash 20 – 30-yillar uchun eng dolzarb vazifa edi. Shuning uchun ham jadid ziyolilari oldida turgan eng asosiy vazifa o'zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Chunki “ilmiy axtarishlar bo‘lmag‘uncha bunlarning birtasi ham bo‘lajaq emasdir”(Fitrat, 2006, 141-b).

Qayum Ramazon ham bunday holatga achinadi: “Bashqa fanlarni qo‘yib turaylik, maktablarimizning jan tamiri bo‘lg‘an “Til qaidalari” atig‘a shu kungacha bir asar chiqmadi. “Bitim yo‘llari” bilan “Yazuv yo‘llari” esa imladin bahs etar. Lekin bular ham darslik bo‘lishdan yiraqraq bo‘lsa ham (suv o‘rnig‘a tayammum qabilidan), yarab turar. Buning bilan til qaidalarini o‘rganib bo‘lmaydi. Maktablar uchun “Sarf” va “Nahv” kerak. “Sarf” va “Nahv”! (Q. Ramazan, 1923).

Fitrat 1921-yil Til va imlo qurultoyida so‘zlagan nutqida Toshkentda ochilgan kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko‘p qismi usmonlichaga berilgani, Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursida esa ona tili degan narsa kiritilmagani, 18-yildagi Maorif sho‘rosining bir majlisida ham, o‘tgan yildagi muallimlarning qurultoyida maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o‘qitilsin, undan so‘ng umumiy turk tili (usmonlicha turk tili) o‘qitilsin degan qaror qabul qilingan bo‘lsa-da, mazkur kurslarga o‘zbekcha saboqlar uchun kirgan muallimlarimiz usmonli turklaridan Shayx Vosifiyning arabchadan ko‘tarilgan “Qavoyidi lisoni usmoniy”sidan izofai lamiya, izofayi bayoniya, izofayi tashbehiyadan bahs qilayotgani, bularning hammasi tilimizni tahqir etish, tilimizga hurmatsizlik ekanini aytib o‘tadi (Fitrat, 2006, 134-135-b).

Imlo qoidalarini bo‘yicha dastlabki tajriba 1921-yilda bo‘lib o‘tgan Til va imlo qurultoyida “Chig‘atoy gurungi” tomonidan yaratilgan “Bitim yo‘llari” asarini kiritish mumkin (Bitim yo‘llari, 1919). Keyinchalik nisbatan sodda bo‘lsa ham, imlo qoidalarining ishlab chiqilishi bu yo‘lda uhim qadam bo‘ldi (Jamolxonov, Umarov, 2017, 61-b).

1929-yil Samarqandda bo‘lib o‘tgan Til va imlo konferensiyasida o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini hisobga olgan imlo bo‘yicha 29 banddan iborat qaror qabul qilinadi. Quyida shu xususda to‘xtalinadi.

Mavzu tahlili. Bu konferensiyaning o‘tkazilishi, uning ahamiyati haqida Til, termin davlaat qo‘mitasi shunday fikr bildiradi: “Shu vaqtga qadar imlo anarxiyasidan qutula olmadik. Bir necha martaba til-imlo konferensiyalri chaqirildi. Ular ilimiy asosda til-imlo masalalarin hal qila olmadi. Shu sababli imlomizda anglab bo‘lmasliq keng anarxiya tug‘ildi. Har kim o‘z istagancha yozdi. Albatta, bu kayfiyat bilan qiluv ham mumkin emas edi. Mana shu hollarni nazarga olib, O‘zbekiston Yangi Alifbe Qo‘mitasi yana til-imlo konferensiyasi chaqirdi. Konferensiyada imlo,

termin (istiloh), adabiy til masalalari qaraldi. Bir qancha o'zgarishlar yasaldi. Bu konferensiya o'tgan konferensiyalarga qarag'anda samarali bo'ldi va qo'yilgan masalalarni ilmiy ravishda hal qildi. Endi qiling'an ishlarni turmushga oshiruvg'ina qoldi.

Imlomiz masalasi bizda hozir rasmiy suvratda hal qilindi desak mumkin. O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi til-imlo konferensiyasining qarorlarini butunlay tasdiqlaydi (O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligining 1929-yil 10-avgistda bo'lgan 73-no'mirli kollegiya majlisi), endi jumhuriyat miqyosida bo'lgan kundalik matbuot, nashriyot ishlarimiz, maktab, ilmiy va umumiy mauassasalarimiz shu qo'llanma bo'yuncha ish yurutuvlari kerak (Q.Ramazan, 1931, 3-b).

M.Qurbonova mazkur imlo qoidalariga to'xtalib, ular o'zbek tilining milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganini alohida ta'kidlab o'tadi: "Ushbu qurultoy qarorlarida shunday bandlar borki, ularni alohida ta'kidlab ko'rsatish, albatta, zarur. Masalan: Burundan tilimizga kirib qolg'an, o'zlashib ketgan chet so'zlar o'z imlomiz qoidalarig'a muvofiq yoziladi... 15. Rus va Yevropa so'zlari o'z harflarimiz bilan mumkin qadar o'z imlomizga tobe tutilib asos shakllarining o'zgarmasligiga e'tibor qilinadir... 23. Rus va Yevropa so'zlari o'zimizcha yoziladi: ishka, ustul... 26. Chet so'zlardagi xotinlik alomati qabul qilinmaydi..."

Keltirilgan bandlarda o'zlashgan so'zlarning imlosi to'g'risida gap boradi. Ushbu qarorlarga asosan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining talaffuz qonuniyatlariga, ifoda usuliga moslashtirilyapti. Bundan ko'rinadiki, mazkur qurultoyda imlo qoidalarini o'zbek tilining ichki imkoniyatlariga, milliy tabiatiga asoslanib ishlab chiqilgan. Imlo qoidalarining barchasida singarmonizm qonuniga amal qilingani ham ushbu fikrimizning isbotidir. Ushbu davrda alifbo, imlo muammolari, shuningdek, o'zbek tili masalalari o'zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlagan holda hal etilgan ediki, bu narsa alifbo va imlo muammolari qaytadan bosh ko'targan hozirgi kunda biz uchun o'rnak bo'lishi kerak (Qurbonova, 1993, 66-67-b).

Ushbu qoidalarda ham yuqoridagi loyihadagi kabi sarfiy va savtiy asos bilan tuzilgani 1-band bilan belgilab qo'yiladi: 1. "Imlamiz qaidalari sarfiy ham savtiy asaslardan foydalanib tuzuladir" (Til va imla kanferensiyasi qararlari, 1929, 6-b).

Bu qoidalarda ham boshqa turkiy tillardagi kabi singarmonizm qonuniyati mavjudligi e'tirof etiladi: "2. Yo'g'anliq-ingichkalik o'zbek so'zlarining imlasida tamom saqlanadir". Shu bilan birga, juda ko'plab mutaxassislar tomonidan munozarlarga sabab bo'lgan ba'zi so'zlar singarmonizmga bo'ysunmaydigan istisno so'zlar sifatida qoidalashtiriladi. Masalan, Ashurali Zohiriy *g'ijjak*, *g'altak*, *g'ildirak*, *pildiraq*, *yo'lak* singari o'zlashgan forsiy so'zlari haqida gapirib, bu so'zlarning "yo'lak"dan boshqasi o'zbekcha bilan forsicha o'rtasida o'rtoq so'zlar bo'lib, *yo'lak* va ularning ham oxirlaridagi *-ak*, *-aq* qo'shimchalari tom forsichadir. Bularni singarmonizmga tobe qilmoq *g'ijjaq*, *g'altaq*, *g'ildirak*, *ildirak*", *yo'laq* bo'lib, xalq

anglamaydirgan tusga kirib ketishi ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mustasno qilamiz. Bundoq mustasno qilinuvchilar tilimizda ko'pchilikni tashkil etmaydirlar, deydi (Jamolxonov, Umarov, 2017, 349-b). Shuning uchun bunday so'zlar istisno sifatida qoidalashtiriladi: "Eslatma: *-ək, -aqlan, -ky, -ki* qo'shmachalari o'zakning yo'g'anlik ingichkaligiga tabe tutulmaydir, *qiççək, biləqlan, jazdb-ky* kabi".

Ma'lumki, yuqoridagi loyihada lab ohangi masalasida jadidlar o'rtasida yagona fikr yo'qligi sababli juda ehtiyotkorlik bilan yondashilgan edi. Iloji boricha bu masalani chetlab o'tishga harakat qilingan edi. Lab ohangi masalasida ko'pchilik tomonidan o'zbek tilida bu qonun ikkinchi bo'g'ingacha saqlanishi aytilgan edi. Ayni shu taklif asos qilib olinib, lab ohangi qonuni ikkinchi bo'g'ingacha amal qilinishi (*otun, yutuq, oqu, toqu, buzuq*), hatto ikkinchi bo'g'inda ism, fe'l turlovchi qo'shimchalari lab ohangiga bo'sunmasligi (*kərdim, qojdb, əzim* kabi) belgilab qo'yiladi.

O'zakka qo'shimchalar qo'shilganda, tovush tushishi hodisalari ham qoidalashtiriladi: "4.1. Axiri (*i, ʊ*) bilan bitkan fe'llarga *-yv, -uv, -yci, -ucb* qo'shg'anda *i, ʊ* ni tushib qolishig'a: *taş – taşucb, taşuv*, sanlarg'a *-av, -əv* qo'shg'anda: *altb – altav, ikki – ikəv* kabi".

Otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilishi bilan tovush tushishi: 4.2. *oqlul – oqlum, qarʊn – qarnb*.

Tovush o'zgarishlari hodisasi: "4.3. *q, k* bilan bitkan so'zlar bir bo'g'indan artiq bo'lib, axirig'a II qat ism turlavchi qo'shmachalari qo'shg'anda *q* ning *ql* bo'lishi, *k* ning *g* bo'lishi: *qəşlaq-qəşlaqlb, kyrək-kyrəgi*".

Ma'lumki, qo'lyozma manbalarda so'zning oxiridagi "p" tovushi hamisha "b" bilan yozib kelingan, bunday holat an'ana, qoida tusiga kirib qolgan. Jadidlar bu kamchilikni ham e'tirof etib, uni qoida bilan mustahkamlab qo'yishgan: "5. O'zaklarning axirida *b* tavushi kelmaydir. *P* ni *b* qilib yazishg'a hajat ko'rilmaydir: *Kəp, cap, cəp* kabi".

So'zga qo'shimchalar qo'shilganda, ba'zi singarmonizm qonuniga bo'ysunmagan qo'shimchalar bo'yicha chiziqcha bilan ajratib yozish istisnosi kiritilgandi, bu holat ham imlodagi har xilliklarni keltirib chiqargan edi. Yangi imlo qoidalarida bunday tartibsizlikka barham berildi: "6. Yasavchi va turlavchi qo'shmachalar yo'g'anliq va ingichkalikka tabe tutilishlari bilan birga, qo'shib yaziladirlar".

Shuningdek, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shimchalar qo'shilganda, qo'shimchadagi undoshning o'ziga moslashtirishi (savtiy asos): "7. Yasavchilar eshitilganicha – unsizlar uyushig'a e'tibar qilib yaziladir: *qəşqb, keltir, suruştbr*.

Eshitolishidan qat'i nazar, aslidek yozilishi (sarfiy asos): "8. Xah isim, xah fe'l turlavchilarida tamam sarfiy birlik saqlanadir: *ketdi, tɔlgan, saqlan, taqla* kabi" qoidalashtirilib qo'yildi. Amirof bu qoidaga e'tiroz bildirib, ba'zi o'rinlarda eshitilganча yozish ham maqsadga muvofiqligini, *toyga, uyga* kabi so'zlarning -ga, -gə lari bilan *ayaqqa, ashka* so'zlərinin -qa, -ka lari o'rtasida sarfiy birlik yo'qligini aytadi. Shuning uchun *u ishkə keldi, atqa mindim, eshəkkə yem ber, ayaqqa basti* tarzida, *di* qo'shimchasini ham ba'zan eshitilganча *ti* yozish imloda osonlikka yo'l ochilishini, maktab o'quvchilari ham eshitgani holda yozganda qiyinchilik va xatolar kam bo'lishini ta'kidlaydi (Adabi tl va imla toqrisida maqala, qararlar, 1934, 9-b). Bizningча, sarfiy birlik saqlanib to'g'ri yo'l tutilgan. Agar muallifning e'tirozlari inobatga olinsa, *ketdi, boshga* kabi juda ko'p so'zlarni yozishda har xillik, imloda anarxiya boshlanadi.

Qo'shib yoziladigan yuklamalarga ham alohida e'tibor qaratilgan: "9. Yuklama qo'shmachalardan yalg'iz darak – nisbat ham so'raq qo'shmachalari yo'g'anliq ingichkalikka tabe bo'lishi bilan birga qo'shilib yazilar: *mən-man, miz-məz, sən-san, siz-səz, dir-dər, dirlər-dərlər: oqupman, oqupməz, oqupsan, oqupsəz, oqupdər, oqupdərlər, keldimi?* kabi.

Qo'shma otlarning yozilishi ham qoidalashtirilgan: "10. Ayrim ma'nasini yo'qatg'an, tamam bir so'z bo'lib tasavvir qilinadurg'an qo'shma atlar qo'shib yaziladir: *Taşkənd, belbaqlm* kabi". Shu bilan birga, bu bandda qo'shma otlarga qo'shimchalar qo'shilganda, singarmonizm qonunining amal qilish tartibi ham belgilab qo'yilgan: "Bularg'a qo'shilaturg'an qo'shmachalar so'ngg'i bo'lakning ahangig'a ko'ra yo'g'an-ingichka bo'ladir: *Taşkəndgə, belbaqlar* kabi.

Juft va takroriy so'zlarning yozilishi: "11. Yo'ldash so'zlar va qaytarma hallar va bo'g'uni qaytarilg'an sufatlar arasida chiziq yoziladir: *Tavaq – qaşəq, capa – capa, kəm-kək*".

12-bandda qo'shma fe'l va otlarning imlosi berilgan: "Qo'shma fe'l yaki hazirча ayrim ma'nasini yo'qatmag'an, birinchisi so'ngg'i so'zni aniqlash uchun bo'lg'an qo'shma atlar ayri yoziladir: *kelə aldb, kelə turoqan, qəla başladb, jəqəla jazdb, bilim jurtb, tasdbq etdi* kabi". Misollardagi *kelə aldb, kelə turoqan, qəla başladb, jəqəla jazdb* qo'shma fe'llari (aslida ko'makchi fe'l) e'tiroz tug'dirmasa-da, qo'shma ot sifatida keltirilgan *bilim jurtb* so'z birikmasi (ta'rifda "birinchisi so'ngg'i so'zni aniqlash uchun bo'lg'an" deya so'z birikmasiga ishora qilyapti), *tasdbq etdi* esa qo'shma fe'l (ot+fe'ldan yasalgan) hisoblanadi.

Ayni shu bandda *edi, ekən* kabi to'liqsiz fe'llar xususida to'xtalib, ularni mumkin qadar to'liq yozilishi lozimligi, faqat she'riy asarlarda qisqartirish mumkinligi belgilab qo'yilgan. Qisqartirib yozilganda, yo'g'onlik-ingichkali qonuniga rioya etilib, har doim chiziqча bilan yozilishi qoidalashtirilgan: "*edi, ekən* kabi *e* o'zagidan bo'lg'an so'zlarni mumkun qadar to'la yozishga rioya qilinadir:

barar edi, kelgʻan ekʻan, amma baʻzan, ayniqsa, sheʻriy asarlarda qisqarishi ayrim hususiyat deb bilinadir. Qisqargʻanda, yoʻgʻanliq-ingichkalikka boʻysunadir va har chagʻ chiziq bilan yaziladir: *ketʻar-dim, qacar-mʻs, ucar-kʻan* kabi”.

14. Ming yillardan buyon qoʻllanilib kelgan arab yozuvida, mazkur yozuvning isloh qilinganida ham xuddi arab, fors tillaridagi kabi qisqa unlilarni tushirib qoldirish qoida tusiga kiritilgan edi. Imlo qoidalarining 13-bandida ayni shu muammoga eʼtibor qaratiladi. Unda oʻzbek tili boʻgʻin tuzilishidagi oʻziga xos xususiyati, yaʼni har boʻgʻinda albatta unli tovush boʻlishi, soʻzning oxirida ikki undosh kela olmasligi qoidasi kiritilganini alohida taʼkidlash lozim: “Har bir boʻgʻundagʻi unli tavushlar tushurib qaldirilmaydir. Boʻgʻun axirida ikki unsiz qatar boʻlushi va boʻgʻun boshida ikki unsiz qatar kela almasligʻi tilimizning boʻgʻun tuzulish tabiatidir: *Bildi, tyrk, ast, bilʻan*.

Ammo mazkur imlo qoidalari tasdiqlangandan keyin ham, bu masala yuzasidan munozaralar toʻxtamadi. Jumladan, Amirof ham soʻz boshidagi qisqa unlilarning tushib qolishini quvvatlab, unga qoʻshimcha ravishda *-dir, -ning, -miz* qoʻshimchalarini keltirib, ularda ham unlilarni tushirib qoldirishni, *-dr, -nng, -mz* tarzida yozishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, bu qoʻshimchalar tilimizda koʻp qoʻllaniladi, unlilar tushirib qoldirilganda ham oʻquvchilarning koʻzi tez oʻrganadi va savod chiqarishda muammo boʻlmaydi. Shu bilan birga, ularni tushirib qoʻllash madaniy, iqtisodiy va texnik jihatdan foyda beradi deb hisoblaydi (Adabi tl va imla toʻqrisida maqala, qararlar, 1934, 8-b). Bunday qoida imloni soddalashtirmaydi, aksincha oʻquvchini chalgʻitadi, chunki savod chiqarishda soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib oʻrgatish eng samarali yoʻl hisoblanadi. Yuqorida taʼkidlanganidek, turkiy tillarda, jumladan oʻzbek tilida bir boʻgʻinda bir unli boʻlishi muhim qoida hisoblanadi. *-dr, -nng, -mz* qoʻshimchalarida umuman unli yoʻqligini, boʻgʻin tuzilish qoidasiga qanday toʻgʻri kelishini oʻquvchilarga tushuntirishda oʻqituvchining noqulay ahvolga tushib qolishi aniq.

Chetdan kirib kelgan soʻzlar imlosiga keng toʻxtalingan. Oldindan tilimizga oʻzlashib qolgan arab va fors oʻzlashmalari imlosi oʻz imlomiz qoidalariga muvofiq yozilishi aytib oʻtiladi. Shuningdek, ular singarmonizm milliy qonuniga toʻliq boʻysunishi taʼkidlanadi: “14. Burundan tilimizgʻa kirib qalgʻan, oʻzlashib ketgan chet soʻzlar oʻz imlamiz qaidalarigʻa muvafiq yaziladir: *Qalam, haqʻqat, bʻgʻanʻ, kʻarʻandʻ* kabi. *Kitab, hakim, bala* kabi soʻzlarda yoʻgʻanligʻ-ingichkalik ayrim boʻgʻunda deb tanilar. Qoʻshulgʻan qoʻshmachalar soʻnggʻi boʻgʻun ahanigʻa tabe boʻlar: *kitablar, hakimlar* kabi.

Rus va yevropa soʻzlarining imlosi uchun 8 band ajratilgan:

15. Rus va avrupa soʻzlari oʻz xalqlarimiz mumkin qadar oʻz imlamizga tabe tutilib, asas shakillarining oʻzgarmasligiga eʼtibor qilinadir. Bu qoidada oʻz talaffuzimizga moslab yoziladi deb belgilab qoʻyilishi maqsadga muvofiq boʻlardi,

chunki boshqa tillarda o'zlashma so'zlar o'sha til talaffuz me'yorlariga moslashtiriladi.

16. Avropa so'zlarining so'ngg'i bo'g'unlarida ham *ə-o-e* harflari bilan yaziladilar: *eləktirik, ənket, həgemonijə* kabi.

17. Arabning nuqtali *x* si va o'zimizning *x* tavushlari *x* bilan yazilib, arabning *ح* si *h* bilan yaziladi: *Xalq, şarq haqəqatə* kabi.

18. Rus, avropa *g-k* si o'z *k-g* harflarimiz bilan yazilar: *kəmmunist, givərdiyə* kabi. Chet so'zlar bizda *k-g* bilan kelganda, ingichka bo'lg'udir va ingichka cho'zg'ular bilan yaziladi.

19. Avrupaning *h* si ham *ç* si o'zimizning *h* va *ç* bilan yoziladi: *Hegemoniyə, çek* kabi.

20. Ruslarda *s* bilan aytiladirkani tavushlar *s* bilan, ba'zi ismlarda *tis* bilan ham yaziladi: *Social, kəytiski* kabi. Amirof ayni shu yevropadan kirgan so'zlardagi *-ia* qo'shimchasi haqida gapirib, nafaqat yevropa so'zlarida, balki o'zbek so'zlariga ham mazkur qoidani tatbiq qilishni tavsiya qiladi. Masalan, *madaniyat, siyosat, adabiyat* kabi so'zlar *madaniat, siyosat, adabiyat* shaklida yozilishi lozim deydi (Adabi til va imla toq'risida maqala, qararlar, 1934, 10-b).

21. Ruslarning *u* si *ş* bilan, ba'zan *c* bilan yaziladi: *jəşik, cotkə* kabi.

22. Ruslarning *ya, yo, yu, ye* lari bo'g'un boshida eshtilishiga ko'ra, *ja-jə, ju-jy, je* bilan, bo'g'un o'rtasida *ja*, oxirida *a-ə, u-y, e* bilan yoziladi: *Jaz, jəşik, jybilej, jplinə, gəliyə, mənikiyr, henre*.

23-bandni ham milliylikka qo'yilgan dadil qadam sifatida baholash mumkin. Ayni shu badda o'zlashgan so'zlarning o'z bo'g'in qoidalarimizga muvofiq tarzda yozilishi qayd etiladi: "Rus, avropa so'zlari o'z tilimiz bo'g'un tuzulishiga muvafiq yaziladi. So'z boshida unsiz tavushdan burun yoki ikki unsiz arasida ahang'a muvafiq *u-y, ь* -i arttiriladi: *işkəf, ystyl, pyryletər, kyryzək, bitən* kabi.

Alifboda ifodalangan tutuq (apostrof) belgisi haqida to'xtalinib, uning imlosi xususida mufassal ma'lumot beriladi:

24. Tutuq (apostrof) arabning xuddi *ء, ع* si o'rnig'agina aling'an deb tushunish tog'ri kelmaydir;

1. Arabcha so'zlarda:

a) unli tavushlarg'a yutilip ketganda: *əbdillə, myəllim, əməl* kabi.

b) (ء va ع) bizning tilda yo'qalib ketadigan o'rinlarda: *məsələ* kabi tutuq yazilmaydi.

2. Bo'gun tuzulishi buzulmaq ehtimali bo'lg'anda yoki bo'gun axirida cho'zulupraq aytgandagina yaziladi.

Arabcha "yoyi nisbat"ni ifodalash uchun ikki *ii* - *bb* dan foydalanilgan: "25. Arabcha yayi nisbiy ayrim shakil dep qabul qilinip, ikki unli yaziladi: *ədəbii, ьqtsadbb* kabi. (o'z tilimizdagi *qjma, kijmək* dagi tavushlar bilan aralashtrilmasin).

Shuningdek, o‘zlashma so‘zlardagi ayol jins ma’nosini bildiruvchi so‘zlar qo‘llanmasligi belgilab qo‘yilgan: “Chet so‘zlardagi xatinliq alamati qabul qilinmaydir: *muallimə* emas, *oqutucь* yoki *myəllim*, *kəmsəməlkə* emas, *kəmsəməl* yoki *jaş leninci*”.

Yangi alifbo butun turkiy xalqlar uchun yagona alifbo ekanligi va uning tartibi lotin alifbosi asosida berilgani qayd etiladi: “27. Bizning alifbemiz birlashtirilgan yangi turk alifbesi va tartibi ham latin asosida birlashtirilgan tartibdir:

Aa Bb Cc Çç Dd Yee Əə Ff Gg Q|q Hh Ii Jj

Kk Ll Mm Nn Ññ Oo Əə Pp Qq Rr Ss Şş

Tt Uu Vv Xx Yy Zz Z z .

Mazkur imlo qoidalarining yana bir e’tirof etishga loyiq jihati o‘zbek tili alifbosiga birinchi marta bosh harflar kiritildi, lekin bosh harflar imlosi hali qoidalashtirilmagan edi. Amirof ismlarda bosh harflar masalasiga to‘xtalib, bir necha so‘zlardan iborat yolg‘iz ismlar bu kungacha turlicha yozilib kelgani, ba’zi birovlar bunday ismlarning faqat birinchi so‘zlarinigina bosh harf bilan yozishini, boshqa birovlar necha so‘zdan iborat yolg‘iz ismlarni yozganda ularning har bir so‘zining birinchi harfini katta qilib yozish kerak, chunki bunday yozganda san’at jihatidan chiroyli bo‘lib ko‘rinadi deydi. Masalan, “O‘zbekistan Xalq Komisarlar Shorasi”, “Markazi Ijraiya Qomitasi” kabi. Shuningdek, *telegramma* kabi *mma* bilan tugagan so‘zlar *telegram*, *telegramm* kabi turlicha yozilib kelingani, bunday so‘zlarni o‘zgarishsiz, ya’ni o‘sha tilda qanday yozilgan bo‘lsa, shunday yozish taklifini beradi. Masalan: *stenogramma*, *diagramma*, *telegramma* kabi (Adabi tl va imla toqrisida maqala, qararlar, 1934, 10-11-b).

Xulosa. Turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan singarmonizm qonuni o‘zbek tilida ham asosiy qonun sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, shevalar xilma-xilligi mavjud bo‘lgan tilimizda uning amal qilishi, so‘zlarda yo‘g‘on, ingichka unlilarni qo‘llash bo‘yicha bir qator muammolar mavjud edi. Shuning uchun 29-band bilan bu muammoni hal qilish uchun zudlikda imlo lug‘atlari tuzish lozimligi mutasaddilarga alohida vazifa sifatida beriladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, imlo qoidalarida hali qamrab olinishi mumkin bo‘lgan masalar ko‘pligi, ba’zi o‘rinlari munozaratalab ekanligiga qaramasadan, muvaffaqiyatli ish sifatida baholash mumkin. Faqat galdagi vazifa mazkur qoidalarini amaliyotga tatbiq etish, imlodagi boshboshdoqliklarga barham berish, bu jarayonda barcha ziyoli qatlamning bir maqsad sari birlashishini taqozo etar edi.

Adabiyotlar

Q. Ramazan (1923). *Maktablarimiz va o‘zbekcha darslik*. Turkistan. № 201.

Фитрат А. (2006). *Танланган асарлар, IV жилд*. Маънавият. Тошкент.

Bitim yo‘llari (1919). Toshkent.

- Jamolxonov H., Umarov A. (2017). *O'zbek yozuvining XX asr tarixi. 1-kitob*. O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent.
- Q.Ramazan. (1931). *O'zbek tilining imla qaidalari* Oznashr. Toshkent.
- Qурбонова М (1993). *Фонетический типологический анализ*. Ташкент.
- Til va imla konferensiyasi qararlari* (1929). Alanga. № 5.
- Adabi til va imla to'g'risida maqala, qararlar. *II to'plam, 2-nci seriya (toplavchi Q.Ramazan)* (1934). OZDAVNAŞR. Toshkent.

O'ZBEK TILINING O'G'UZ LAHJASI XUSUSIDA

Muyassar Saparniyazova*

KIRISH

O'g'uz lahjasi turkiy tillar tizimida muhim bo'g'inlardan biri sanaladi. O'g'uz tillari — turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga mansub bir qancha o'lik hamda hozirgi iste'molda bo'lgan jonli tillar. Umuman, O'g'uz tillari 3 ta alohida guruhchalarga bo'linadi: 1) o'g'uz-turkman guruhchasiga X-XI asrlarda mavjud bo'lgan o'lik o'g'uz tili hamda hozirgi turkman tili va truxmen tili (Stavropol turkmanlarining tili) kiradi; 2) o'g'uz-bulg'or guruhchasi qadimiy bijanaklar va ularning tili hamda hozirgi gagauz tili va Bolqondagi bir qancha turkiy urug'lar (surg'uch, gajal, qaramanli, qizilbosh va boshqalar) tilini o'z ichiga oladi; 3) o'g'uz-saljuq guruhchasi esa qadimiy saljuq (XI-XIV asrlar), eski usmonli (XIV-XIX-asrlar) va eski ozarbayjon (XIV-XIX asrlar) singari o'lik tillarni hamda hozirgi ozarbayjon tili va turk tilini, shuningdek, qrim-tatar tilining janubiy lahjasini qamrab oladi.

(https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBuz_tillari)

* Filologiya fanlari doktori, professor, Alfraganus universiteti, m.saparniyazova@afu.uz

O'g'uzlarning turkiy xalqlar tarixidagi o'rni siyosiy, til va madaniy tarix jihatidan muhim ahamiyatga ega, chunki ular Ko'kturklar davridan boshlab, asta-sekin kuchayib borgan, buyuk davlat va imperiyalar muvaffaqiyatli barpo etilgan davrlarni bosib o'tishgan. Bugungi kunda o'g'uz lahjasi keng tarqalish maydoniga ega. Umuman, geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan davlat va jamoalar, ularning yozma tillari, o'g'uz-turkmanlar asosidagi sheva va dialektlari janubi-g'arbiy sheva guruhini tashkil qiladi. Ko'chmanchi o'g'uz turklari Sharq va G'arbga ko'chib yurgan bo'lsa, ularning bir qismi Xorazm hududi tomon yo'nalgan. Boshqalari Kaspiy dengizi atrofida yashab, Chingizxon bosqinidan qochib, Anadoluga ko'chib o'tgan. Ular bugungi Ozarbayjon, Eron va Iroqqa iqlimi va qishloq xo'jaligiga yaroqliligi sababli borishgan. XIII asrdan buyon o'g'uz xalqi tomonidan yaratilgan, ba'zilar g'arbiy turkchaning g'arbiy qismida so'zlagan va yozgan bu sohadagi barcha asarlar umumiy tarzda o'rganilgan.

Turkiy urug'lar va qabilalarning shakllanishi bir necha eposlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, "Alpomish", "O'g'uznoma", «Qo'rqut ota kitobi», "Manas", «Maaday Qora» kabi eposlar shunday xususiyatga ega. Bu dostonlarda turkiylarning donishmand oqsoqoli yoki urug' boshlig'i obrazi yaratilgan bo'lib, ular urug'larni birlashtirish, ahilligini ta'minlash, ruhlantirishdek ulug' maqsad bilan yashaydilar. Qabilalarning shakllanish davrini aks ettirgan eposlar bizning zamonamizda turli millat folklorshunoslari tomonidan tiklangan yoki ular turli xalqlar adabiyotiga nisbat berilishidan qat'iy nazar ular barcha turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblanadi.

Xorazm viloyatida yashovchi o'g'uzlar haqida bir qator tadqiqotlar mavjud, biroq ularning boshqa turkiy tillardagi o'g'uz lahjasi bilan qiyosiy tahlili bo'yicha izlanishlar qilinmagan. Mintaqada o'g'uz-chag'atoy tillari munosabati bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilishi mumkinligini aytish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek shevalarini o'rganish qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'zbek shevalarining ilk tadqiqotchisi sifatida haqli ravishda Mahmud Koshg'ariyni e'tirof qilishimiz mumkin. Olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik jihatdan yashash manzillari va turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini alohida e'tiborga olib, turkiy tillarni ikkita guruhga bo'ladi: 1) turk yoki xoqoniy turkchasi tillari; 2) o'g'uz tillari. Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlar qo'llaydigan so'zlar sifatida pamuq "momiq, paxta" (I.360), tolak "tinch va og'ir kishi" (I.368), sindu "qaychi" (I.395), qarinchuq "chumoli" (I.460), secha "chumchuq" (III.238); Uning "Devonu lug'otit turk" asarida 24 ta o'g'uz qabilalari nomlari keltirilgan bo'lib, ular ichida "Turk"lar va "O'g'uzlar" tili tizimli ravishda qiyoslanib boriladi (Koshg'ariy, 2016).

O'tgan asrda o'zbek o'g'uz lahjasi bir qator olimlar tomonidan o'rgangan. Chunonchi, G'ozi Olim Yunusov, («O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba» 1936),

E.D. Polivanov («Shovot rayon, Qiyot — Qo'ng'iro't qishlog'i shevasi»), A.K. Borovkov, keyinchalik Ahmad Ishayev («O'zbek tili mang'it shevasining fonetik xususiyatlari»), Yusuf Jumanazarov («Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari»), Erka O'rozov («Janubiy Qoraqalpog'iston o'zbek sh yevalari»), Fattoh Abdullayev («O'zbek tilining o'g'uz lahjasi») O.Madrahimov (O'zbek tili o'g'uz lahjasi leksikasi) va boshqalar mazkur lahjani maxsus tadqiq etdilar.

G'ozli Olim Yunusov Xorazm shevalarini 3ta guruhga bo'ladi:

1. Janubiy Xorazm guruhi.
2. O'rta Xorazm guruhi.
3. Shimoliy Xorazm guruhi.

Shulardan birinchi guruh (Xiva, Xonqa, Urganch, Hazorasp, Qo'shko'pir, Yangiariq, To'rtko'l) o'g'uz, ikkinchi - o'rta guruh (Gurlan – Mang'it) qipchoq va uchinchi guruh (Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Qipchoq, Mang'itning ayrim hududlari) esa “qozoqlashgan” qipchoq lahjasiga mansub ekanligini qayd etadi. (G'ozli Olim, 22)

Y. D. Polivanov o'zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Uning ta'kidlashicha, o'zbek tili tarkibidagi o'g'uz lahjasi 2 tipdagi shevalarni o'z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G'azavot, Hazorasp, Yangiariq) shevalari. 2. Shimoliy o'g'uz (Iqon, Qorabuloq) shevalari. (Polivanov, 1934).

A.N.Samoylovich Xorazm shevalarini o'rganish ishi bilan maxsus shug'ullanmagan bo'lsa ham, o'zining “Turk tillarining tasnifiga qo'shimcha” nomli asarida o'zbek tilining boshqa shevalari bilan bir qatorda, Xorazm aholisining tili haqida ham fikr yuritadi va uni turk tillarining “O'rta qipchoq-turkman” guruhiga kiritadi. Uning fikricha, ushbu guruhga kirgan shevalar, ya'ni Xorazm shevalari shimoli-sharq guruhiga emas, balki shimoli-g'arb va janubi-g'arb guruhiga yaqin turadilar. Xiva o'zbek lahjalari, bundan tashqari, janubi-g'arb tillariga xos bo'lgan anchagina xususiyatlarni saqlaydilar, bu esa Xiva sartlarining turkmanlarga qo'shni bo'lishi bilan izohlanadi (Samoylovich, 1922.13).

A.N.Samoylovichning Xorazm o'g'uz shevalari haqidagi “O'rta Osiyo turkiy adabiy til tarixiga oid” maqolasida XIV asrda Xorazm va Oltin O'rda hududida yaratilgan yodgorliklar, xususan, “Muhabbatnoma” va “Xusrav va Shirin” asarlari tilining leksikasiga ancha o'rin beradi (Samoylovich, 1928. 1-23). Mazkur asarlar tili leksikadan keltirilgan 48 so'zdan hozirgi o'g'uz shevalarida 31 so'z mavjud, ularning ko'pchiligi shaklan o'zgarmagan holda, ayrimlarigina fonetik jihatdan ozmi-ko'pmi o'zgarishga uchragan.

Atoqli o'zbek dialektologi S.Ashirboyev o'zbek tili tarkibidagi o'g'uz lahjasining tarqalish jo'g'rofiyasi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Xorazmning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G'azavot, Yangiariq,

Sho‘raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarda, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog‘istonning bir qator tumanlarida o‘g‘uz lahjasining vakillari juda ko‘p. Shimoliy o‘zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o‘g‘uz elementlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog‘don qishlog‘ida) ham uchraydi. (Ashirboyev, 2016. 96.)

Xorazm shevalarining jonkuyar tadqiqotchisi Fattoh Abdullayev o‘zining ilmiy ishlarini o‘zbek adabiy tili tarixi, dialektologiyasi, leksikasi, fonetikasi, grammatikasi masalalariga bag‘ishladi.

O.Madrahimovning ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasi leksikasi doirasida bajarilgan bo‘lib, Xorazm o‘g‘uz lahjasi materiallarini o‘zida jamlaganligi bilan ajralib turadi (Madrahimov, 1973). Y.Jumanazarovning monografiyasida (Jumanazarov, 1976) mazkur hudud shevalari sintaktik jihatdan tahlil qilingan.

Xorazm o‘g‘uz shevalarining turkman tili materiallari bilan qiyosiy tadqiqida esa M.Saparovning tadqiqoti (Saparov, 1983) muhim ahamiyatga ega. H.Narimovning “Xorazm mintaqaviy fitonimlarining lisoniy tahlili” mavzusidagi tadqiqoti (Narimov, 2020) ham Xorazm vohasi shevalaridagi materiallar o‘simliklar nomlari misolida tahlil qilinganligi bilan mavzuga aloqadorlik kasb etadi. Sh. Norboyeva Xorazm shevalari leksikasi onomasiologik jihatlarini tizimli tahlil qilgan (Norboyeva, 2024).

NATIJALAR

O‘g‘uz tillarining barchasi uchun xos bo‘lgan til xususiyatlari, asosan, fonetika sohasida bo‘lib, bunga so‘z boshidagi *t*, *k*, *q* undoshlarining jaranglilashuvi (ko‘z > gōz, til > dil, kelmak > galmak), so‘z boshidagi ba’zi undoshlarning tushib qolishi (bo‘lmoq > olmak, ho‘kiz > okuz), ba’zi affikslar boshidagi *g*, *g‘* undoshlarining tushib qolishi (kelgan > galan, olgan > alan) va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. O‘g‘uz tillari boshqa guruhdagi turkiy tillardan leksika sohasida ham ancha-muncha farqlanadiki, bu xusuda aalohida tadqiqotlarda to‘xtalamiz.

O‘g‘uz tillarining barchasi XX-asrning 30-yillarigacha arab grafikasi asosidagi yozuvdan foydalangan, 1928—29 yillardan lotin grafikasi asosidagi yozuvga o‘tgan; Sobiq Ittifoqda yashovchi ozarbayjon va turkmanlar 1940—92 yillarda rus grafikasidan foydalanib, keyin yana lotin grafikasi asosidagi yozuvni joriy etganlar. Bolqondagi ayrim mayda turkiy tillar yunon alifbosi asosidagi yozuvdan, Eron va Afg‘onistonda yashovchilar esa arab grafikasi asosidagi yozuvdan foydalanadilar. (https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBuz_tillari)

Xorazm shevasi turkiy tillar oilasi sharqiy o‘g‘uz guruhining janubi-g‘arbiy o‘g‘uz guruhiga kiradi. O‘zbek tilining shevasi hisoblanadi. Uning adabiy o‘zbek tilidan fonetik farqlari:

a) soʻz boshida „k“, „t“ tovushlari oʻrniga mos ravishda „g“, „d“ ishlatiladi: *til – dil, tish – dish, kel – gal, kerak – garak*;

b) „q“, „k“ harflari soʻz oxirida tushirib qoldiriladi: *issiq – issi, tirik – diri, xivalik – xivali*;

c) koʻpchilik soʻzlarda „e“dan „a“ga oʻtish hollari uchraydi: *men – man, sen – san, kel – gal, kes – kas, kerak – garak*;

d) soʻzlarning oʻrin-payt kelishigi shakllarida III shaxs shaklida kelishik qoʻshimchasidan oldin „-n-“ tovushi qoʻshiladi: *ichinda* (ichida), *dishinda* (tishida);

e) „ng“ harfi ikki xilda aytiladi: ham til oldi, ham til orqa „ŋ“ shakllarida: *kitapiŋ* (kitobing), *giyimiŋ* (kiyiming), *qoliŋ* (qoʻling).

Maʼlumki, tilshunosligimizda oʻzbek shevalari vokalizmining ayrim jihatlarini, ayniqsa, unli fonemalarning miqdorini belgilashda turlicha munosabatlar mavjud. Fonema va uning ottenkalari, xususan, kontrast juft fonemalar, ularning mutlaq choʻziq va mutlaq qisqa variantlari mavjudligi haqida fikrlar yuritilib, ilmiy adabiyotlarda oʻzbek shevalari vokalizmi 6ta unli fonemadan 18 taga qadar borishi toʻgʻrisida fikr yuritiladi [Ashirboyev 2021, 32]. Jumladan, Xorazm shevasida 10ta unli borligi qayd etiladi (Abdullayev, 1961, 130).

Oʻzbek shevalaridagi fonetik oʻziga xosliklar unlilar tizimida ham, undoshlar tizimida ham mavjud. Bu shevalarda singarmonizm qonuni amal qiladi. Shu sababli unli fonemalar kontrast juftliklarga ega: *i-ï; u-ÿ; o-ö; a-ä*. Quyida ular xususida soʻz yuritamiz.

I i unlisi - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini, singarmonizmli shevalarda yumshoq tovushni ifodalaydi. Masalan:

Ï ï unlisi - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini, singarmonizmli shevalarda qattiq tovushni ifodalaydi. Masalan: *adïqqan* (shuhrat qozongan, dongʻi ketgan, nom chiqargan), *a:jï* (achchiq), *apçïn* (kiyim-kechak), *aqtïq-çavlïq* (nevarachevara).

A a unlisi - orqa qator, quyi keng, lablanmagan unlini ifodalaydi: *aliştïrïq* (tutantiriq), *ala* (ola), *aqrava* (juda shoʻr).

Ä ä unlisi - old qator, quyi keng, lablanmagan unlini ifodalaydi: *ädän* (poygak), *äkizäk* (egizak), *äkkäl* (olib kel).

Ā ā unlisi - orqa qator, quyi keng, qisman lablangan unlini ifodalaydi: *āŋšïрмаq* (anglamoq), *āvlabaš* (qabriston), *ārқayïn* (xotirjam).

U u unlisi - orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifodalaydi. Masalan: *dur* (tur), *duz* (sahro), *ur*.

Ū ū unlisi - old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifodalaydi: *gŭn* (kun), *šŭllik* (zuluk), *ŭzŭm*.

O o unlisi - orqa qator, oʻrta keng, lablangan unli: *oy* (pastlik), *yol*, *yoq*.

Ö ö unlisi - old qator, oʻrta keng, lablangan unli: *ör* (oʻjar), *söl*li (selli, selobli), *gömmä* (taom nomi).

Xorazm shevasida unlilarning birlamchi va ikkilamchi choʻziqlik hodisasi uchraydi. Suni aytish oʻrinliki, adabiyotlarda unli fonemalarning choʻziqligining uch tipi toʻgʻrisida maʼlumot beriladiki, bunda asosiy eʼtibor turkiy tillarga xos boʻlgan birlamchi choʻziqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, shevada birlamchi choʻziq unlilar keng qoʻllanadi.

F.Abdullayev oʻgʻuz guruhi shevalarida oddiy choʻziqlikka ega boʻlgan yuqoridagi unli tovushlarning har biri oʻzining choʻziq variantiga ega boʻlishini taʼkidlaydi. Choʻziq unlilarni ikki toifaga ajratadi: birinchi guruhda ayrim tovushlarning tushishi, ikki unlining qoʻshilishi natijasida hosil boʻlib, uni ikkilamchi choʻziqlik deb atalishi: *dö:lat*, *hö:l*, *qu:n su:q*, *tö:mat*, *me:man* kabi; ikki unlining qoʻshilishidan yuzaga kelgan choʻziqlik: *sa:t*, *mä:m*la, *barsa:m*; *q*, *gʻ*, *k*, *g*, *ng* undoshlarining tushishi natijasidagi choʻziqlik: *ma:*, *yo:*, *barma:n* kabilarni ajratadi (Abdullayev, 1961. 131).

Shuni qayd etish lozimki, birlamchi choʻziq unlilarning tarqalish doirasi ancha kengdir. Masalan: *qo:m*la (qavmlar); *ma:ma* (kampir) va hokazo. Shuningdek, shevada *boli:n*cha (boʻlguncha), *yata:dim* (yotar edim), *otä:kän* (oʻtar ekan) kabi soʻzlarda ikkinchi boʻgʻinda ham choʻziqlik mavjud. Ravishdosh shakllari qisqarib “ap” tarzida talaffuz etilishi tufayli juda koʻp qisqargan soʻz shakllari vujudga keladi. Misol: *appar* < olib bor, *apqal* // *aqqal* < olib qol, *apkepper* < olib kelib ber va hokazo. La:š (losh), la:s (atlas), a:d, i:t, bi:t kabi choʻziqliklar ham uchraydi.

Xorazm oʻgʻuz shevasida *h*, *y* singari undosh tovushlarning tushishi natijasida, shuningdek, ayrim soʻzlarda qator kelgan ikki unlining qoʻshilishi tufayli ikkilamchi choʻziqliklar vujudga keladi: *sä:r* (sahar), *tö:mät* (tuhmat), *me:nät* (mehnat), *mä:milä* (muomala), *qana:t* (qanoat) kabilar (Oʻrozov, 1978. 10).

XULOSA

Jonli shevalar tilning hozirgi holatida uchramaydigan elementlarni saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois ularning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini oʻrganish juda muhim tarixiy va lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon yaratadi.

Til oʻz taraqqiyoti jarayonida doimo rivojlanib, boyib boradi. Tilimizning boyib borishida esa muhim manbalaridan biri xalqning jonli tili – shevalar hisoblanadi. Xalqning bebaho mulki boʻlgan shevalarda adabiy tilda uchramaydigan koʻplab soʻz va iboralar mavjud.

“Xalq tilining hududiy namunalari boʻlmish shevalar benihoya nodir boylik, ular adabiy tilimizning asosiy boyish manbalaridan biridir. Shevalarga oid soʻzlarni toʻplash, chuqur oʻrganish, lisoniy-tarixiy jihatdan tavsiflash til va xalqning murakkab tarixini tadqiq etishda muhim omillardan hisoblanadi” (Mahmudov, 2012.

88). Shu ma'noda, o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi hisoblanmish Xorazm shevalarini yangi paradigmalar asosida, tilning turli sohalari nuqtayi nazaridan tadqiq qilish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar

Кошғарий Махмуд. (2016). *Девону луготи-м-турк. 1-жилд*. Тошкент: Mumtoz so'z.

Самойлович А. Н. *Некоторые дополнения к классификации турецких языков*. Петроград, 1922.

Самойлович А.Н. (1928). К истории литературного среднеазиатского турецкого языка.// *In: Мир – Али-Шир. Сборник к пятистлетию со дня рождения*. Л. 1-23.

Решетов В.В. (1952). Кураминские говоры Ташкентской области: Дисс. ... докт. филол. наук. Ташкент, 1952.

Боровков А.К. (1958). Очерки истории узбекского языка, III. (Лексика среднеазиатского тefsира XII–XIII вв.)// Учение записки института Востоковедения, XVI. М. Л.: Издательство Академии наук СССР. 138.

Абдуллаев Ф. (1961). *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент: Ўз ФАН.

Ashirboyev S. (2016). *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.

Мадрахимов О. (1973). *Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси*. Тошкент.

Мадрахимов О. (1999). *Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий лугати*. Урганч.

Жуманазаров Й. (1976). *Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши*. Тошкент.

Сапаров М. (1983). Лексико-семантические особенности огузского наречия узбекского языка (в сравнении с туркменским языком): *Автореф. дисс. ... канд. филол. наук*. Ташкент. 24; Шу муаллиф. (1988). *Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари*. Тошкент. Фан. 118.

Ўрозов Э. Ю. (1978). *Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари*. Тошкент. 10.

Наримов Х. (2020). Хоразм минтақавий фитонимларининг лисоний таҳлили: *Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси*. Урганч.

Norboyeva Sh. (2024). Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi. *Filologiya fanlari doktori (DSc) diss... avtoref*. Toshkent. 74.

Махмудов Н. “Тилшунос тақдири” / *Тилимизнинг тилла сандиги*. Тошкент. 2012. 88.

O‘ZBEK TILI LUG‘AT TARKIBINI ICHKI IMKONIYATLAR ASOSIDA BOYITISH OMILLARI

Zulxumor Xolmanova *

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilining lug‘at tarkibini ichki manba asosida boyitish omillari tahlil qilingan. O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan leksik birliklardan foydalanish, jumladan o‘zbek tili lug‘at boyligida mavjud turkiy yoki o‘zbekcha leksemalarni qo‘llash, arab va fors-tojik tillaridan o‘zlashgan, shuningdek, mo‘g‘ulcha asosga ega bo‘lgan leksik birliklardan foydalanish, turkiy tillardan, shevalardan so‘z olish omillari keltirilib, misollar orqali asoslangan. Qadim davrdan beri qo‘llanib kelayotgan forscha-tojikcha, arabcha o‘zlashmalarning o‘zbek tili doirasida semantik o‘zgarishlarga uchragani, milliy-madaniy semalarga ega bo‘lgani ko‘rsatib berilgan. Milliy til rivojida o‘z qatlam so‘zlarining taraqqiyotni ta‘minlash xususiyati ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: *til, jamiyat, tillararo munosabat, madaniyatlararo munosabat, milliy til, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, ichki manba, lug‘at tarkibi, lug‘at boyligi, til imkoniyatlari, so‘zni ommalashtirish.*

* Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, zulxumor-uzmu@mail.ru

FACTORS OF ENRICHMENT OF THE VOCABULARY FOUNDATION OF THE UZBEK LANGUAGE BASED ON INTERNAL CAPABILITIES

Abstract

The article analyzes factors for enriching the vocabulary of the Uzbek language based on internal sources. Factors in the use of lexical units actively used in the Uzbek language are given and based on examples, including the use of Turkish or Uzbek lexemes in the vocabulary of the Uzbek language, the use of lexical units the use of lexical units borrowed from Arabic and Persian-Tajik languages, as well as having a Mongolian basis, borrowing words from Turkic languages and dialects.

It is shown that the Persian-Tajik and Arabic adaptations, which were in use since ancient times, underwent semantic changes within the Uzbek language and had national-cultural semantics. The properties of the words of the original layer are emphasized to ensure the development of the national language.

Key words: *language, society, interlingual relations, intercultural relations, national language, original layer, borrowed layer, internal source, vocabulary, vocabulary, language capabilities, popularization of the word.*

Til insoniyat taraqqiyoti mahsuli bo'lib, murakkab ijtimoiy, fiziologik, biologik hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat, madaniyat rivoji bilan bevosita aloqador. Ijtimoiy turmush tarzidagi jarayonlar tilda o'z ifodasini topadi. Til tizimidagi o'zgarishlar aksariyat hollarda jamiyatning to'g'ridan to'g'ri va bevosita ta'sirida emas, balki xususiy kommunikativ funksiyalarning kengayishi yoki torayishi bilan bog'liq holda, bilvosita yuz beradi. Shuningdek, til tizimiga insonning bevosita ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi [Shveyser, Nikolskiy, 1978; 117].

Dunyo tillari taraqqiyotida til siyosatining mazmuni mamlakatning iqtisodiy va milliy-madaniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tillararo munosabat, so'z o'zlashtirish masalasi har bir milliy til taraqqiyotida kuzatiladigan jarayondir. Tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashish siyosiy maqsad hamda vaziyatlarga bog'liq ravishda amalga oshirilgan til siyosatini ifoda etadi. Tillarning o'zaro ta'siri, so'z o'zlashtirish masalasi turkologiyaning muhim masalalaridan bo'lib kelgan. Kishilik jamiyatining keyingi taraqqiyot bosqichlarida Yevropa va Amerikada tillararo va madaniyatlararo muloqot masalasi ijtimoiy-siyosiy tus oldi. Dunyo tilshunosligi tarixida kreol va pinyin tillarining yuzaga kelishi bunga misoldir. Bugungi kunda dunyo tillari taraqqiyot xususiyatlari va iste'mol doirasidan kelib chiqib, kafolatlangan tillar, yo'qolish ehtimoli mavjud tillar, yo'qolish arafasida turgan tillar, yo'qolib borayotgan tillarga ajratiladi.

Dunyo tajribasidan kam aholi soʻzlashayotgan tillarning til sohiblari saʼyi-harakatlari natijasi oʻlaroq yashab kelayotgani maʼlum. Hatto faqat ogʻzaki koʻrinishda muloqot vositasi boʻlib kelayotgan tillar ham qayd etilgan. Turkiy xalqlar orasida ham kam aholi soʻzlashadigan tillar mavjud boʻlib, ularning keyingi taqdiri shu til sohiblarining ona tili muhofazasiga qaratilgan faoliyatlariga bogʻliq, albatta. Yoqut (Saxa) tili (Yoqutiston Respublikasida yashaydigan 400 mingdan koʻp kishi soʻzlashadi), qorachoy tili (Rossiya, Kavkaz hududida yashaydigan 400 ming kishi soʻzlashadi), tuva tili (Tuva Respublikasida, Moʻgʻulistonda yashaydigan 300 mingdan koʻproq kishi muloqotga kirishadi), noʻgʻay tili (Rossiya, Kavkazda 300 ming kishi soʻzlashadi), qumiq tili (Rossiya, Kavkazda 283 ming kishi soʻzlashadi), gagauz tili (Moldaviya, Ruminiya, Bolgariyada 247 ming kishi muloqot qiladi), balqar tili (Rossiya, Kavkazda 200 ming kishi soʻzlashadi), oltoy (uyrot) tili (Rossiya, Oltoy oʻlkasida 180 ming kishi soʻzlashadi), xakas tili (Rossiyaning Xakasiya, Xitoyning Kanzas viloyatlarida 150 ming kishi gaplashadi), xalach tili (Eronda 30 000 ming kishi soʻzlashadi), qaraim tili (Litva, Ukraina, Polsha, Qrimda 10 000 kishi soʻzlashadi) [Boz Erdoʻgan,2011:74] shu millatlarning tilni asrab-avaylash, muhofaza qilish va keyingi avlodga yetkazishga qaratilgan kuchli til siyosati sabab muloqot vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Dunyo tajribasi rivojlangan tillar ham, agar muhofaza qilinmasa va inson omili aralashmasa, yoʻqolib ketishi mumkinligini koʻrsatadi. Maʼlum davrda ilm-fan tili sifatida taraqqiy topgan, duyoning rivojlangan metatillariga asos boʻlgan lotin tilining bugungi kunda oʻlik tilga aylangani buning isbotidir.

Til oʻzlashtirishda maʼlum bir qoida, meʼyorga amal qilish, oʻzlashma soʻzlarni oʻz qatlam soʻzlariga almashtirish masalasi qomusiy olimlarning ham diqqat eʼtiborida boʻlgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy “Saydana” asarida xalqaro dorivor oʻsimlik nomlarining maʼnosini izohlar ekan, ularning oʻz qatlam doirasidagi muqobillarini ham keltirgan. Hatto shevalardagi koʻrinishlarini ham qayd etgan. Bu yondashuv tarixiy bosqichlardan hozirga qadar kichik va katta doiralarda turli koʻrinishlarda namoyon boʻlib kelmoqda. Globallashuv davri, axborot asrida til muhofazasi va lugʻat tarkibini ichki omil asosida boyitish masalalari meʼyoriy-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda. Bunga Koreya Xalq demokratik respublikasidagi til siyosatining “Madaniylashuv davri”ni (1964) misol qilib keltirish mumkin. 1964-yilda Shimoliy Koreyada siyosiy tus olgan til islohoti boshlandi. Koreys tilini yot soʻzlardan tozalash masalasi koʻtarildi. 1964-yilda oʻtkazilgan til qurultoyida mamlakat rahbari Kim Il Sung nutq soʻzladi. U oʻzining nutqida koreys tilidan oʻzlashmalarni siqib chiqarish, ayniqsa, qiyinchilik tugʻdirayotgan xitoy yozuvidagi soʻzlarni xalqqa tushunarli boʻlgan koreyscha muqobillar bilan almashtirish masalasini oʻrtaga tashladi. Muammoni hal qilish uchun quyidagilar taklif qilindi:

- o‘zlashma so‘z tilga singib ketgan bo‘lsa, uni almashtirishga hojat yo‘qligi ko‘rsatib otildi;

- xitoycha so‘z va uning koreyscha sinonimi ma’no farqlariga ega bo‘lsa, unda so‘zlarni o‘z holicha qoldirish kerakligi aytiladi;

- xitoycha so‘z koreyscha sinonimiga ega bo‘lsa, uni almashtirish lozimligi qayd etildi;

- agar xitoycha (yoki boshqa o‘zlashma) so‘zni tushunish qiyin bo‘lsa, shuningdek, u koreyscha sinonimiga ega bo‘lmasa, u holda, yangi so‘z topish lozimligi ta’kidlandi [Xolmanova, 2022:29].

O‘zbek tilining lug‘at tarkibiga qadimgi o‘zlashmalar, forsha-tojikcha, arabcha, rus-baynalmilal so‘zlarning kirib kelishi va o‘zlashishi natijasida ko‘pgina turkiy so‘zlar iste’moldan chiqib boshladi. Har bir taraqqiyot bosqichida o‘zbek tili lug‘at boyligini ichki imkoniyatlar orqali oshirish masalasi dolzarblik kasb etib keldi. Tilning tarixiy taraqqiyotida uning mavjudligini va rivojlanishini ta’minlaydigan, lug‘at boyligini oshiradigan omillardan biri ichki manbadir.

Tez sur‘atlarda rivojlanayotgan voqelikni, narsa-hodisa, jarayonlarni nomlashda xorij tillariga mansub leksik birliklarni o‘zlashtirishdan avval ularga muqobil variantlarni topish va qo‘llash muhimdir.

Ajdodlarimizning tilga munosabati hamda dunyo tajribasidan kelib chiqib, o‘zbek tili lug‘at tarkibini ichki imkoniyatlar asosida boyitishda quyidagi omillarini ajratish mumkin.

1. O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan leksik birliklardan foydalanish:

a) *o‘zbek tili lug‘at boyligida mavjud turkiy yoki o‘zbekcha leksemalarni qo‘llash;*

b) *arab va forsh-tojik tillaridan o‘zlashgan, shuningdek, mo‘g‘ulcha asosga ega bo‘lgan leksik birliklardan foydalanish.*

3. Shevalardan so‘z olish.

4. Turkiy tillardan so‘z olish.

5. So‘z yasash. Turkiy so‘z yasash qolipida yangi leksemalarni shakllantirish:

a) *turkiy so‘zga turkiy qo‘shimchani qo‘shish orqali yangi so‘z yasash;*

b) *forsha-tojikcha, arabcha so‘zga turkiy qo‘shimchani qo‘shish orqali yangi so‘z yasash;*

v) *rus-baynalmilal, ingliz-baynalmilal so‘zlariga turkiy qo‘shimcha qo‘shib so‘z yasash.*

Qayd etilgan omillarning ayrimlari borasida to‘xtalamiz.

O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan arab va forsh-tojik tillaridan o‘zlashgan leksik birliklardan foydalanish qulay va oson. Negaki bu so‘zlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar lisoniy ongida ma’lum bir tushuncha ifodasi uchun xoslangan.

Forscha-tojikcha, arabcha soʻzlar tilimizga oʻzlashib, avvalo, turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili ichki imkoniyatlari asosida fonetik, struktur-grammatik, mazmuniy oʻzgarishlarga uchragan. Bu leksemalarning semantik taraqqiyoti, oʻz va koʻchma maʼno bilan bogʻliq jarayonlar oʻzbek tili doirasida yuz bergan. Oʻzbek tili taraqqiyotidagi konnotatsiyalar oʻzlashma soʻzlar semantikasida milliy-madaniy semalarni yuzaga keltirdi. Umumisteʼmol doirasidagi aksariyat forscha-tojikcha, arabcha leksemalar oʻz lugʻaviy maʼnosidan uzoqlashib, semantik aloqadorlikni saqlagan holda boshqa tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. *Maktab, mehnat, fuqaro* kabi bir qator arabcha leksemalardagi semantik transformatsiyani misol sifatida keltirish mumkin. Shu bois forscha-tojikcha, arabcha leksemalarning uzoq muddatli qoʻllanish jarayonidagi semantik taraqqiyot mazkur leksemalarning til sohibi ongidagi ifodasini turgʻunlashtirdi, natijada bunday soʻzlarga nisbatan oʻz qatlam maqomida manosatda boʻlish holati kuzatiladi. Bu jarayonni birgina *dasturxon* soʻzi misolida koʻrish mumkin.

Aslida forscha-tojikcha soʻz boʻlgan *dasturxon* oʻzbek madaniyatiga xos belgilarini ifodalovchi realiya hisoblanadi. *Dasturxon* – oʻrtaga yozib, ustiga ovqat qoʻyiladigan maxsus mato, roʻzgʻor buyumi. Oʻzbek tilida *dasturxon* soʻzi metonimiyaga asoslangan koʻchma maʼnolarda qoʻllanadi: 1) “taom, noz-neʼmat”: *dasturxonga qaramoq*; 2) “taom, noz-neʼmatlarni tanovul qilish jarayoni”: *dasturxonga oʻtirmoq*. Ushbu maʼnolar leksemaning oʻzbek tilida qoʻllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Dasturxon soʻzi bilan bogʻliq metonimiya asosidagi ayrim koʻchma maʼnolar eskilik boʻyogʻiga ega boʻlib, hozirda qoʻllanmaydi. Masalan, *dasturxon yemoq* “ziyofat qilmoq” maʼnosini ifodalagan: *Jamoamizning barchasi ham hozir boʻlib, dasturxon yer erdik*. A.Qodiriy, “Gʻirvonlik Mallavoy” [OʻTIL, I, 575]. *Dasturxon yemoq* frazemasi jarayonning mohiyatini toʻliq aks ettiradi. Yigʻilishdan maqsad “oziqlanmoq” ekanligi lisoniy birlikda aks etgan. Bu tushuncha hozirgi oʻzbek tilida “gap yemoq” qoʻshma feʼli bilan ifodalanadi. Gap yemoq – ulfatchilik, ziyofatda muntazam ishtirok etmoq. *Qishning uzun kunlari bu yerda ulfatlar gap yeyishadi*. P.Tursun, “Oʻqituvchi” [OʻTIL, I, 485]. *Gap yemoq* frazemasi “yigʻin” tushunchasiga oid ikki semani: *gap* leksemasidagi “muloqot qilish, suhbat orqali koʻngilni yozish” semasini hamda *yemoq* leksemasidagi “oziqlanmoq” semasini ifoda etadi. Hozirgi oʻzbek tilida nutqiy tejamkorlik asosida *yemoq* soʻzi qoʻllanmaydi, jarayon *gap* leksemasi orqali ifodalanadi.

“*Dasturxon* lugʻaviy birligi barqaror birikmalar tarkibida ham uchraydi: *Dasturxonga boqqan doʻst emas* maqolida *dasturxon* zohiran “taom”, “yegulik” tushunchalarini, botinan “boylik”, “mol-dunyo” maʼnolarini ifoda etadi.

Dasturxon realiyasida “yoymoq” semasi asosida ham maʼno koʻchishi kuzatiladi: *dasturxon qilmoq* – biror gapni har qayerlarda va har kimlarga gapirib,

ovoza qilib yurmoq, dastmoya qilib olmoq. *Dasturxon qilmoq* lugʻaviy birligi mehmonga borilganda togʻorani (taomni) “dasturxonga oʻrab borish” tushunchasini bildiradi va yuqoridagi frazema bilan omonimlikni yuzaga keltiradi. Birinchi holatda “yoymoq”, ikkinchi holatda “oʻramoq” semasiga asoslanilgan.

“Oʻzbek tilida *dasturxon* leksemasidan *dasturxonli* lugʻaviy birligi shakllangan boʻlib, toʻy-hashamlarda orzu-havasini namoyon etadigan, dasturxon yozish, togʻora joʻnatish marosimlarini meʼyorida tashkil qiladigan ayollarga nisbatan ishlatiladi. Dasturxonli, odatda, quda-andachilik munosabatlarida qoʻllanadi” [Kasimova, 2023:14]. *Dasturxonsiz* soʻzining shu tushunchaga zid, mehmondoʻstlikni bilmaydigan, saxovatsiz kimsalarga nisbatan ishlatilishi qayd etilgan [OʻTIL, I, 575].

Dasturxon leksemasidan yasalgan *dasturxonchi* soʻzi “toʻy, katta ziyofat va boshqa marosimlarda dasturxon tayyorlash va kelgan-ketganlarni kutish uchun belgilangan ayol yoki erkak kishi”ni bildiradi. *Dasturxonchi* hozirgi kunda gender jihatdan ayollar faoliyatiga xoslanib qolgan boʻlsa-da, tarixda “amir, xon va beklar saroyida saroy ahllariga beriladigan ovqatlarni tayyorlatish va mehmon kutish bilan shugʻullangan lavozimdagi kishi” maʼnosida erkaklarga nisbatan ham qoʻllangan. *Dasturxonchilik* soʻzi “vositachi, dallol” maʼnolarida ham qoʻllanadi [OʻTIL, I, 575].

Dasturxon realiya birligi quyidagi semalarni oʻz ichiga oladi: a) “mato”; b) “taom”; d) “ovqatlanish”; e) “yoyish”; f) “boylik”; g) “qadriyat”.

Dasturxon realiya birligining oʻz va koʻchma maʼnolari nutqda axborot berish va emotsional-ekspressiv funktsiya bajaradi [Kasimova, 2023:20].

Dasturxon oʻzlashmasining semantik taraqqiyoti forschatojikcha, arabcha soʻzlarning oʻzbek tilidagi semantik xususiyatlarini tahlil etishda muhimdir.

Shevalardan soʻz olish, lakunar birliklarni qoʻllash oʻzbek tili lugʻatini oʻz qatlam hisobiga boyitish uchun xizmat qiladi. Masalan, oʻzbek tilida faol qoʻllanadigan *xameleon* soʻzining maʼnosini *ajnimol* (aynimol) leksik birligi bilan almashtirish mumkin: *ajnimol* (aynimol) – feʼl - atvorida turgʻunlik xislatlari boʻlmagan (odam) (Qashqadaryo, Uyshun; N.T) [Xolmanova, Nasriyeva, 2022:15]. Soʻzlashuvda keng qoʻllanayotgan *полдник* tushunchasini *alvon* (alvon) birligi ifoda etadi: *alvon* (alvon)– ikkinchi tushlik, kun uzaygan kezlarda soat 16.00 -17.00 larda ovqatlanib olish (Fargʻona, Oʻzbekiston tumani, Nursuq qishlogʻi; O.N) [Xolmanova, Nasriyeva, 2022:17].

Turkiy tillardan soʻz olish ichki manbaning eng maqsadga muvofiq omillaridan hisoblanadi. Turkiy xalqlarning ona tili muhofazasiga qaratilgan saʼy-harakatlari alohida eʼtirofga loyiq. Turk, ozarbayjon, turkman, qozoq tillarida til rivojining ichki omillar asosidagi taraqqiyoti mazkur tillar lugʻat tarkibida oʻz qatlam soʻzlarining nisbatan koʻp miqdorda boʻlishini taʼminlagan. Bu tillarda oʻzbek tilidagi forschatojikcha, arabcha leksemalarning turkiy yoki ichki imkoniyatlar asosida yasalgan muqobillari mavjud: *hayvanju* “chorvador”; *anaču* “doya”, q-qalp. *tuzšu* “dehqon”,

tat., boshq.*bolma* “xona” [Dadaboyev, Xolmanova,2015]. Turkiy tillarda o‘zbek tilida nomlanmaydigan, lakuna xarakteridagi tushunchalarning nomi ham uchraydi. Masalan, o‘zbek tilida yerga ishlov beradigan, uni ekin sharoitiga moslashtiradigan shaxs forsha-tojikcha *dehqon* shaxs otining bir semasi sifatida qaralishi mumkin. *Dehqon* katta yer egasi, zamindor; qishloq hokimi; asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo‘lgan kishi (O‘TIL,I,603). *Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, mullo bo‘lsang, takror qil* maqolida ham dehqon “yer haydovchi” tushunchasini ifodalagan. Bu tushuncha o‘zbek tilida alohida so‘z bilan nomlanmagan, lakuna hosil qiladi. Gagauz tilida mazkur tushuncha alohida leksema bilan nomlanadi: *čifçi* “yer haydovchi” [Dadaboyev, Xolmanova,2015].

O‘zbek tilida og‘zaki muloqotda hamkor, hamkasb, bir maqsad sari intiladigan, ma’lum bir jamoaga mansub shaxsga nisbatan *kollega* so‘zi qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur leksik birlikning *kollegiya* o‘zakdoshi qayd etilgan: *kollegiya* \lot. *collegium* – shirkat, uyushma <*kollega* – xizmatdosh o‘rtoq. 1.Rahbarlik qiluvchi, maslahat (kengash) beruvchi, boshqaruvchi organni tashkil qiladigan shaxslar guruhi: *vazirlik kollegiyasi*. 2.Ayrim kasb ahllarining ixtiyoriy uyushmasi: *advokatlar kollegiyasi*. 3.map. XVIII asrda Rossiyadagi markaziy boshqaruv muassasalarining nomi. *Tashqi ishlar kollegiyasi* [O‘TIL,II,390]. Ko‘rinadiki, ushbu so‘z, asosan, rasmiy uslubda, ish yuritish hujjatlarida qo‘llanadi. So‘zlashuv uslubida *kollegiya* so‘zi o‘zak shaklida va lug‘aviy ma’nosida ishlatiladi: *kollega* – “xizmatdosh, kasbdosh”.

“Kollegiyaga taalluqli, oid; yakkaboshchilik asosida emas, bir qancha kishi bilan birgalashib, kengashib amalga oshiriladigan” ma’nosidagi *kollegial* (lot. *collegialis* “birlashgan, birgalikdagi”) so‘zi ham rasmiy uslubda, ish yuritish tizimida qo‘llanadi. “Boshqaruvning vakolatli shaxslar guruhi (kollegiya) tomonidan amalga oshiriladigan usuli; kollegial tarzda ish tutish” ma’nosidagi *kollegiallik* [O‘TIL,II,390] o‘zbek tili ichki imkoniyatlari asosida yasalgan. Lekin qo‘llanishiga ko‘ra faol emas. Turk tilida o‘zbek tili so‘zlashuv uslubidagi “*kasbdosh, sohadosh*” ma’nosidagi *kollega* so‘ziga teng keladigan *qoldaş* leksemasi mavjud. *Qoldaş* “qo‘ldosh, qo‘llab-quvvatlovchi” degan ma’noni bildirib, *kollega* so‘zining semantikasini ifoda etadi. O‘zbek tilida bu so‘zning ma’nosi antroponim misolida saqlanib qolgan: *Qoldosh*.

O‘zbek tilidagi rus-baynalmilal so‘zlarini turkiy tillardagi o‘z qatlam birliklari bilan almashtirish mumkin: *shaxtyor*– ozarb. *qazmaçi* “qazuvchi”.

So‘z yasash usuli ham lug‘at tarkibini ichki manba asosida boyitishga xizmat qiladi.

Rus-baynalmilal so‘zlaridan affiksatsiya usulida so‘z yasalishi o‘zbek tilida faoldir. Shu bilan bir qatorda ichki imkoniyatlar asosida so‘z yasashning sintaktik usuli ham kuzatiladi. Masalan, rus tilidagi *манцевать* so‘zi mantiqan o‘zbekcha *raqsga tushmoq* birikmasiga mos keladi. Uning boshqa bir ma’nosi – erkak va

ayolning bel-u qo‘l ushlab davrada aylanishi, bu usulda raqsga tushish o‘zbeklarga xos bo‘lmagani tufayli, o‘zbek tilida o‘z ekvivalentiga ega emas. Bu so‘z o‘zbek tili uchun realiya hosil qiladi. Mazkur so‘zni transliteratsiya usulida talqin etish esa o‘zbek tili lug‘at boyligini kengaytiradi. Hozirgi umumxalq tili lug‘at tarkibidan o‘rin olgan *tansa tushmoq* birikmasi azaldan o‘zbekcha *raqsga tushmoq* birikmasi bilan sinonimik qator hosil qilgani holda, omma tasavvurini “erkak va ayolning birgalikdagi raqsi” degan yangi tushuncha bilan boyitdi [Kasimova,2023:14]. Bunday yondashuv lug‘aviy birlikning o‘zi nomlayotgan tushuncha bilan kirib kelgani bois ham to‘g‘ridir.

Raqs so‘zi arabchada “o‘yin, o‘yinga tushish va unga moslab yozilgan musiqa” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “raqqos(a)ning garmonik harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi, yuz imo-ishoralari va b. orqali obraz yaratishdan iborat san’at turi”; “turli maqomlar bilan bajariladigan ritmik harakat” ma’nolarini bildiradi [O‘TIL,III,360]. So‘zning “oyoq o‘yin va shunday o‘yin uchun yozilgan musiqa” ma’nosi o‘zbek madaniyatida deyarli kuzatilmaydi. “Oyoq o‘yin, tansa kechasi, bazm” [O‘TIL,III, 360] ma’nosi mustaqillikkacha bo‘lgan davr haqidagi rus filmlarida ko‘p uchraydigan o‘yin sahnasini ifoda etadi. Nemischa asosga ega bo‘lgan, rus tili orqali o‘zlashgan *tansa* “tango, vals” ma’nosidagi so‘z [O‘TIL,III, 669].

Til jamiyat rivojiga xizmat qiladi, shuningdek, til taraqqiyotida jamiyatning alohida o‘rni bor. So‘z o‘zlashtirish tabiiy jarayon, ammo milliy til imkoniyatlarini, o‘z qatlam birliklarini saqlab qolish inson omilini talab qiladi.

Ma’lum bir so‘z muayyan tilga o‘zlashganidan keyin, uning mos muqobili bo‘lsa-da, almashtirish qiyin. Negaki o‘zlashma so‘z tushuncha anglatish bilan bir qatorda ko‘p qo‘llanishi sababli til sohibi konseptosferasidan o‘rin oladi. O‘zlashma so‘z ma’lum tushunchaga, tushuncha atrofida ijtimoiy-madaniy, mental belgilarga ishora qiladi. Uning o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llash g‘ayritabiiy va noodatiy tuyuladi. Shuning uchun chet so‘zlar hali o‘zlashmasidan, muqobilini taqdim etish va qo‘llash maqsadga muvofiq.

So‘zni ommalashtirishning psixologik asosi muntazam takrorlash va ko‘p qo‘llashdir. Shu yo‘l bilan turkiy so‘zlarni, ichki imkoniyat asosida yasalgan lug‘aviy birliklarni omalashtirish mumkin. Zotan, milliy tilni oziqlantiruvchi ildiz o‘z qatlam birliklaridir.

Adabiyotlar

Boz Erdoğan, Yaman Ertuğrul (2011). *Üniversiteler için türk dili (yazili va sözlü anlatım)*. Ankara, Savaş yayinevi.

Dadaboyev H., Xolmanova Z.(2015). *Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi*. Toshkent.

Касимова З. (2023). *Ўзбек тилидаги реалияларнинг семантик тадқиқи*. Тошкент.

Xolmanova Z. (2020). *Kompyuter lingvistikasi*. Toshkent: Nodirabegim.

Швейцер А.Д., Никольский Л.Б (1978). *Введение в социолингвистику*. М. Высшая школа.

О‘ТІЛ I – *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I jild* (2006). Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 680 б.

О‘ТІЛ III – *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. III jild* (2008). Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 688 б.

METAFORA TURLARIDA MILLIY TAFAKKURNING AKS ETISHI

Muhayyo Hakimova*

Annotatsiya

Ushbu maqolada metaforaning poetik figura, nom ko‘chish usuli, nutqning jozibadorligini ta’minlash vazifasidan tashqari bilish shakli, milliy tafakkur andozasi, tuyg‘ular hamkorligini ta’minlovchi vosita kabi vazifalari tahlil qilingan. Maqolada o‘zbek tilida metaforaning vazifasi oydinlashtirilgan, tasnifi amalga oshirilgan. Xususan, metaforalarning oddiy, jonlantiruvchi, sinestezik va kognitiv turlari ajratilgan. Ajratilgan har bir metafora turining o‘ziga xosliklari aniqlangan hamda ularda milliy tafakkurning aks etishi original misollar orqali o‘rganilgan. Sinezteziya jarayoni xususida ma’lumot berilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida ilk marta sineztezik metaforaning ko‘rinishlari atroflicha bayon qilingan. Kognitiv metaforalarning mohiyati aniqlanib, unda millat egalari tafakkur tarzining in’ikos etishi tahlil qilingan. Kognitiv metaforalardan, struktur, oriyentatsion (yo‘naltiruvchi) va ontologik metaforalarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Har bir turdagi metaforalarda milliy idrokning belgilovchi vazifasi tahlil qilingan.

* Filologiya fanlari doktori, professor v.b., Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, xakimova197621@gmail.com.

Kalit soʻzlar: *metafora, maʼno taraqqiyoti, sinesteziya, kognitiv tilshunoslik, oddiy metafora, jonlantiruvchi metafora, sinestezik metafora, kognitiv metafora, milliy idrok, antroposentrik tilshunoslik.*

REFLECTION OF NATIONAL THINKING IN TYPES OF METAPHORS

Annotation

This article analyzes the functions of metaphor as a form of cognition, a template of national thinking, a tool that promotes the interaction of feelings, in addition to the function of a poetic figure, a method of transferring names, ensuring the attractiveness of speech. The article explains the function of metaphor in the Uzbek language, a classification is carried out. In particular, simple, poetic, synesthetic and cognitive types of metaphors are distinguished. The peculiarities of each type of metaphor are revealed and the reflection of national thinking in them is studied using original examples. The process of synesthesia is described in detail, and for the first time in Uzbek linguistics, the manifestations of synesthetic metaphor are described in detail. The essence of cognitive metaphors was determined, within the framework of which the perception of the way of thinking of the representatives of the nation was analyzed. Specific features of structural, orientational (referential) and ontological metaphors were identified from the cognitive material. The national perception in each type of metaphor has been studied.

Keywords: *metaphor, progress of meaning, synesthesia, cognitive linguistics, simple metaphor, invigorating metaphor, synesthetic metaphor, cognitive metaphor, national perception, anthropocentric linguistics.*

Metafora juda qadim zamonlardan beri notiq, faylasuf, tilshunos, adabiyotshunoslarning oʻrganish obyekti boʻlib kelgan. Metafora nutqning jozibadorligini taʼminlovchi vosita, maʼnoning shakllanish va taraqqiyoti usuli, nominatsiya vositasi, milliy tafakkur andozasi hamda bilish shakli sifatida oʻrganilgan, oʻrganilmoqda.

Metafora oʻzbek tilida eng koʻp uchraydigan nom koʻchish usuli. Metaforaning asosiy koʻrinishlari sifatida :

Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy oʻxshashlik asosida koʻchiriladi: *tish* (odamning tishi) – *tish* (arraning tishi), koʻz (odamning koʻzi) – koʻz (uzukning koʻzi, quloq (odamning qulogʻi) – quloq (qozonning qulogʻi) kabi.

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga oʻrindagi oʻxshashlik asosida koʻchiriladi: bosh (odamning boshi) - bosh (terakning boshi), etak (koʻylakning etagi – etak (dalaning etagi), lab (odamning labi) – lab (soʻrining labi) kabi.

2. Bir predmetga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi: nordon (nordon olcha) – nordon (nordon gaplar), shirin (shirin choy) – shirin (shirin hid-), *tez-* (*tez yur-*) – *tez-* (*tez odam-*) kabi.

3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi: tozalamoq- (uyni tozalamoq) - tozalamoq (qalbni tozalamoq), uzmoq (ipni uzmoq) – uzmoq (munosabatlarni uzmoq) kabi.

Metaforalar turli nuqtayi nazarlar bilan tasnif qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda metaforaning bir necha xil tasniflari beriladi. Bu haqida Shohista Mamaraimovaning doktorlik ishida ham to'liq ma'lumotlar berib o'tilgan (Mamaraimova Sh, 2018). M.Mirtojiyev "O'zbek tili semasiologiyasi" nomli monografiyasida metaforalarning oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi turlarga ajratadi. Biz ushbu maqolada M.Mirtojiyev tominidan amalga oshirilgan tasnifga kognitiv metaforalarni ham qo'shdik. Quyida metaforaning quyidagi turlari xususida to'xtalib o'tamiz: oddiy metaforalar, jonlantiruvchi metaforalar, sinestezik metaforalar, kognitiv metaforalar.

Oddiy metaforalarda bir referentning nomi ikkinchi referentga nom qilib ko'chirilar ekan, bundagi umumiylik oddiy qiyosga, oddiy o'xshatishga asoslanadi. Bu xususida M.Mirtojiyevning fikrlariga tayanamiz. Masalan, *darvoza* so'zining leksik ma'nosi 'hovliga' 'kirib chiqiladigan' 'qurilish kompleksi'ni ifoda etar edi. 'Futbol o'yinida' 'to'p kiritiladigan' 'qurilish' ham bor bo'lib, bu u qurilishga sirtqi ko'rinishi va vazifasi jihatdan o'xshash. Mana shu o'xshashlikka asoslanib futbolga oid qurilmani ham *darvoza* so'zi bilan atalgan. Natijada, shu *darvoza* so'zi mana shu atash hisobiga hosila ma'no yuzaga keltirgan. Ya'ni: ...*to'p darvozaning yuqori to'siniga tegib, maydonga qaytdi* ("T. Haqiqati"). Bu o'rindagi referentlarning o'xshatilishi belgi va vazifalarning bevosita qiyoslanishiga asoslangan (Mirtojiyev, 2010, 77-bet).

Jonlantiruvchi metaforalarda jonsiz referentlar jonli referentlarga o'xshatiladi. Bunday o'xshatishlar odatda badiiy uslubda ko'p kuzatiladi va nutqiy metaforalarda uchraydi. Masalan, *barglarning shivirlashi, quyoshning kulishi, osmonning yig'lashi*.

Sinestezik metaforalar. Sinesteziya termini grekchadan olingan bo'lib, "birgalikda his qilish" ma'nosini beradi. Sinesteziya muayyan sezgi a'zosining ta'sirlanishi orqali boshqa sezgida ham shunga mos his-tuyg'ularning paydo bo'lishidir. Masalan, tinglash paytida rangni his qilish, ko'rish jarayonida tovushni his qilish. Ayrim kishilarda to'q sariq ranglar iliqlik; ko'k, yashil ranglar esa sovuqlik hissini uyg'otadi. Yoki ovozlar rangli tuyulishi mumkin. Sinesteziyaning makon bilan bog'liq ko'rinishida vaqt makonda turli ko'rinishlarda tasavvur qilinadi: fasllar aylana, umr egri chiziq kabi.

Darhaqiqat, sinesteziya hammada ham uchramaydigan jarayon. Mazkur jarayonni boshidan o'tkazuvchi kishilar sinestetlar deb ataladi. Lekin har bir insonda, u sinestet bo'lmasa ham, tug'ma yoki orttirilgan sinesteziya elementlarini kuzatish mumkin. Masalan, limonni yoki juda ham yoqimli taomlarni ko'rganimizda og'zimizning suv ochishi, shirin taom hidlari ishtahamizni ochib yuborishi, sanalarni maktab kundaligi yoki kalendaridagi kabi ongimizda loyihalashtirimiz bunga misol bo'la oladi.

Sinesteziya inson psixologiyasining murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, ushbu hodisani ruhiy o'zgarish sifatida ham baholaydilar. Lekin uni dunyoni his qilishning o'ziga xosligi, nodir qobiliyat sifatidagi talqinlari ham mavjud. Masalan, Rimskiy-Korsakov, Skryabin kabi bastakorlar tovushni rangli his qilganlar va nodir san'at asarlarini yaratganlar. Sinesteziya termini tilshunoslikda ma'lum bir sezgi a'zosining ta'sirlanishi orqali boshqa sezgi a'zosida ham hosil bo'luvchi his-tuyg'ularning lisoniy akslanishlarini ifodalaydi. Sinesteziyani metaforada, troplarda, o'xshatishlarda ko'rish mumkin.

Sinesteziya xususida jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy ishlar unchalik ko'p emas. Shvetsariyalik tilshunos St. Ulman ... so'z semantik taraqqiyotida tabu, evfemizm, sinesteziya kabi psixik hodisalar ham o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, deb yozadi. K. Baldinger sinesteziyani psixik hodisa emas, fiziologik hodisa deb, ma'no taraqqiyotlaridan biri sifatida qaraydi. Rus tilshunosi V.A.Zveginsev ham so'z semantik taraqqiyotini mantiqiy-semantik hodisalar nuqtayi nazaridan turib tahlil qilishga qarshi bo'lmaydi, balki unga qo'shiladi. Shuningdek, bunga u, xalq tarixi va tilning tarkibiy xususiyati bilan bog'li holda tahlil etishni ilova qilish kerak, deb ko'rsatadi.(Mirtojiyev, 2010, 5-b.).

Sinesteziya haqidagi fikrlar metaforaning bir ko'rinishi sifatida o'zbek tilidagi adabiyotlarda ham uchraydi. M.Mirtojiyev sinesteziyani metaforaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi: «Sinesteziya metaforaning shunday bir ko'rinishiki, unda hosila ma'noning ma'lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o'xshatilgan bo'ladi. Referentlar tamoman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ular xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o'xshatilgan referentlar hech qanday o'xshashlikka ham, hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, *mayin* so'zining genetik ma'nosi tola yoki u bilan bog'li buyumning belgisini ifoda etadi. Bu so'zning hosila ma'nosi ovozning ohista va yoqimli belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining umuman sezgiga ta'sir etish xususiyatlari o'zaro o'xshatilgan va shunga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirilgan, sinesteziya sodir bo'lgan (Mirtojiyev, 2010, 79-b.)».

Xuddi shu kabi har bir xalq egalarida muayyan sezgi natijasida hosil bo'lgan tuyg'ular boshqa bir tuyg'uga o'xshatiladi. Bu o'rinda ikki sezgining qorishliqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o'ziga xosligi xususida gap boradi.

O'zbek tilida *shirin* leksemasi ta'm bilish sezgisi orqali his qilinuvchi tuyg'uni – belgini ifodalaydi va u iste'mol qilinadigan narsalarga nisbatan qo'llanadi. *Shirin* so'zini ovozga, ya'ni eshitish orqali his qilinuvchi narsaga nisbatan qo'llash sinesteziyaga misol bo'ladi: *shirin choy* (maza-ta'm) – *shirin ovoz* (eshitish), *nafis gazlama* (teri orqali) – *nafis hid* (hidlash), *achchiq qalampir* (ta'm) – *achchiq hid* (hidlash), *dag'al* (mato) – *dag'al* (ovoz).

Sinesteziyada ma'lum bir sezgi boshqa bir sezgi qabul qilgan voqelikni boshqasiga o'xshatar ekan, uni o'zbek tilidagi quyidagi ko'rinishlarini aniqlash mumkin bo'ladi:

1. Ovoz belgisi eshitish orqali hosil qilingan belgiga o'xshatiladi: *shirin choy* – *shirin ovoz*. *Sening birlan shirin so'zim, Zahar yutsam shakar bo'lg'ay* (E.Vohidov). Bu o'rinda eshitishdagi yoqimlilik ta'mdagi yoqimlilikka o'xshatilgan.

2. Ko'rish orqali hosil qilingan belgi ta'm belgisiga: *shirin choy* – *shirin bola*. *Hamsuhbatim, Ham ulfatim Jajji shirin go'daklar* (E.Vohidov).

3. Hidlash orqali hosil qilingan belgi ta'm belgisiga: *achchiq qalampir* – *achchiq gaz*. *Achchiq gaz hidi dimog'iga urildi*.

4. Eshitish orqali hosil qilingan belgi teri orqali his qilingan belgiga: *mayin mato* – *mayin ovoz*. *Dil ko'shig'in bastalar pari, Nay sasidek mayin, dilrabo*.

5. Ko'rish orqali hosil qilingan belgi teri orqali his qilinuvchi belgiga: *nozik mato* – *nozik qiz*. *Nozikkina elkangda olam tashvishi*.

6. Hidlash yoki ko'rish orqali his qilinuvchi belgi teri orqali his qilinuvchi belgiga: *o'tkir pichoq* – *o'tkir hid*. *Spirtning o'tkir hidi anqidi*.

7. Ta'm belgisi teri yoki ko'rish orqali his qilinuvchi belgisiga: *o'tkir pichoq* – *o'tkir maza*: *Tuzlamaning mazasi o'tkir edi*.

8. Eshitib his qilinuvchi belgi ko'rish orqali his qilinuvchi belgiga: *chiroyli qiz* – *chiroyli ovoz*. *Qanday nafis, kanday chiroyli ovoz. Omadingni qara, Qilichbek!* (E.Vohidov).

9. Teri orqali his qilinuvchi belgi ta'm belgisiga o'xshatiladi: *Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil, Maskov bo'sag'asi, Achchiq qahraton*. (E.Vohidov).

Sinestezik metaforada umuman o'xshamagan voqeliklar ham bitta nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko'rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo'ladi.

Kognitiv metaforalar. Kognitiv metaforalarga bilishning o'ziga xos usullaridan biri sifatida qaraladi. Metaforalar nafaqat nutqni bezovchi tasvir vositasi, tildagi iqtisod qonuniyatini amalga oshiruvchi nominatsiya usuli, konnotatsiyani voqelantirish imkoniyati, balki fikrlash usuli hamdir. Kognitiv metaforalarda inson

tafakkuri hissiy bilish mumkin bo'lmagan, faqat aqliy bilish orqali anglanuvchi murakkab mohiyatlarni konkret narsalarga o'xshatadi va shu konkret mohiyatning andozasi orqali murakkab mohiyatni bilish oson kechadi. Kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solgan deb e'tirof etilgan J.Lakoff va M.Jonsonlarning "Biz yashayotgan metaforalar" asarida *vaqt - pul* metaforasi keltiriladi. Bu juda mashhur metafora bo'lib, juda ko'plab tadqiqotlarda misol sifatida keltiriladi. Demak, vaqt hissiy bilish mumkin bo'lmagan, moddiylikdan xoli bo'lgan murakkab abstrakt tushuncha. Ma'lumki, bu kabi moddiylikdan holi abstrakt tushunchalarni anglash ong uchun murakkab jarayondir. U konkret pulga o'xshatilar ekan, pulning andozasi, obrazi orqali vaqtni bilish ham oson kechadi.

Bugungi kunda metaforaning inson bilish jarayonini oson qiluvchi turi kognitiv yoki kontseptual metafora termini bilan nomlanadi, bunda bir kontseptual maydon ikkinchi kontseptual maydonga o'xshatiladi va shu asosda nom ko'chadi. Kognitiv metafora yangi fikrni boshqa, ma'lum fikr orqali ifodalash imkonini beruvchi mexanizm, boshqacha aytganda, bu shaxs tomonidan avval o'zlashtirilgan tanish maydon tushunchalari orqali muayyan maydon haqida fikr yuritish usulidir.

Metaforaning bilish quroli sifatidagi mohiyati, ya'ni kontseptual metafora J.Lakoff va M.Jonson tomonidan 1980-yilda nashr qilingan "Biz yashayotgan metaforalar" (Metaphors We Live By) nomli asarida asosli bayon qilingan. Mualliflar metafora hosil bo'lish mexanizmini quyidagicha tushuntiradilar. Ularning fikricha, har bir metaforada manba (donor) va qabul qiluvchi tomonlar mavjud bo'ladi. Masalan, o'lchov birliklari inson tabiati uchun manba bo'lishi mumkin: og'ir yuk va og'ir tabaitli kishi. Bu vaziyatda og'irlik o'lchov birligi inson tabiatini tavsiflash uchun manbaga aylanadi, inson tabiati esa o'z navbatida oluvchi bo'lib qoladi (Lakoff J., Jonson M., 2023). Manba (donor) tomon doim kuzatishda berilgan, inson oson bila oladigan, ko'p murojaat qiladigan, xullas, til egasiga yaqindan tanish bo'ladi. Tana a'zolari, harakatlar, atrof, undagi narsa, harakat va belgilar konseptual metafora uchun manba bo'ladi.

Oluvchi tomon esa inson bilishi murakkab bo'lgan, bevosita kuzatishda berilmagan, abstrakt, psixik holatlar bo'ladi. Inson tafakkuri mana shunday ko'rish, ushlash, ta'm, hid va ovozini seza olmaydigan murakkab yoki abstrakt tushunchalarni anglashi uchun aniq voqeliklar andoza vazifasini bajaradi. Ya'ni ong murakkab tushunchalarni aniq va oson tushunchalarga o'xshatib, ularning andozasi orqali bilishni osonlashtiradi. Masalan, o'zbek tilida oila qo'rg'onga o'xshatiladi. Ma'lumki, qo'rg'on atrofi mustahqam o'rab himoyalangan makon sanaladi. O'zbek tafakkurida oila ham qo'rg'on kabi insonlarni har qanday balo-qazolardan himoyalovchi, sirlari tashqariga chiqmas makon sifatida talqin qilinmoqda. Demak, kognitiv metaforalarda murakkab tushunchalar konkret tushunchalarga o'xshatilar ekan, unda til egalarining milliy idroki aks etadi.

Ushbu fikrimizni vaqt kontsepti misolida ko‘rib chiqamiz. O‘zbek xalqida vaqt daryoga o‘xshatiladi va vaqt oqar daryo, umr oqar daryo degan kontseptual metaforalar mavjud. Vaqtning murakkab jarayon ekanligini unga berilgan eng oddiy ta’rifdan ham bilib olsa bo‘ladi: “vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo‘lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishini, rivojlanishini bildiradi. Har bir narsa o‘z o‘tmishi, hoziri, kelgusiga ega. Narsa-hodisalarning ba’zi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq sodir bo‘ladi. Bular esa vaqt tushunchasini ifodalaydi. Vaqt uch o‘lchovli fazo bilan ajralmas bog‘liq bo‘lsada, u bir o‘lchovlidir. (Tarasov, 1992, 129-b.)”.

Insoniyat umrining cheklanganligini bilgan, undan qo‘rqqan va uzoq yashash xohishi, yengish istagi doimo uni anglashga turtki bergan. Turli davrlarda turli madaniyatlarda vaqtни bilishda xalq tafakkuri mentallikdan kelib chiqib ish ko‘rgan. Masalan, Qadimgi grek mifologiyasida vaqt xudosi Xronos rahmsiz va ayovsiz qilib ta’riflangan, u har safar yangi tug‘ilgan bolalarini yeb qo‘ygan. Xronosga yangi tug‘ilgan o‘g‘li Zevsning o‘rniga toshni yo‘rgaklab beradilar va vaqt xudosi toshga tiqilib qoladi. Zevs omon qoladi, ulg‘aygach otasini yer qa’riga zindonband qiladi. Bu rivoyatda antik davr kishilarining vaqtни yengishga intilishlari, abadiy yashash istaklari namoyon bo‘ladi. Qadimgi rimliklarda vaqt xudosi Saturn bo‘lib, uning yonida ibtido va intiho xudosi Yanus turgan. Yanusning yuzi ikki xil, ya’ni yoshlik va qarilik, baxtiyorlik va qayg‘u alomatlari bilan ifodalangan. Insoniyatning vaqt haqidani eng so‘nggi bilimlarida galaktikadagi gravitatsion kuch qanchalik zaif bo‘lsa, ya’ni markazdan qanchalik uzoq bo‘lsa, vaqt shuncha sekin kechadi. Bunga asoslanib insoniyatning uzoq umr ko‘rish istaklari koinotda amalga oshishi fantastik asarlarda o‘z aksini topmoqda.

Yuqorida bittagina qirrasi ochilgan insoniyatni doim o‘ylantirib kelgan vaqt o‘zbek tafakkurida oqar daryoga, tabibga; inglizlarda esa pul, boylikka; ruslarda qush, shifokor, sudya, oltinga; arablarda qilich, pichoq, kema, tuya, dengiz, oltinga metaforik o‘xshatiladi va u orqali bilish osonlashadi (Shayxulin T., Gazal A., 2019).

Tilshunoslikda kognitiv va konseptual metafora terminlari farqli va sinonimik holatda ishlatiladi. Farqli ishlatishda kognitiv metafora inson miyasidagi neyronlararo munosabatning faollashuviga hizmat qilsa (neyrofiziologik daraja), konseptual metafora esa turli maydondagi tushunchalararo munosabatni (tafakkur darajasi) ifodalaydi. Bugungi kunda til sathida bu ikki termin deyarli farqsiz, sinonim sifatida ham ishlatilmoqda.

J.Lakoff va M.Jonson konseptaul metaforalarning 3 ta turini ajratadi:

- 1. Struktur metaforalar*
- 2. Oriyentatsion (yo‘naltiruvchi) metaforalar*
- 3. Ontologik metaforalar.*

Struktur tarkibli metaforalarda mavhum obyektlarning konseptuallashuvi aniq obyektlar orqali ro'y beradi. Muayyan strukturaga ega bo'lgan aniq bilimlar mavhum tushunchalarni tartibga soladi va bilishni osonlashtiradi. Bularga g'arb stereotiplariga xos bo'lgan vaqt – pul, bahs – urush, umr – sayohat kabi metaforalar misol qilib keltiriladi.

Oriyentatsion metaforada fazodagi yo'nalishlarning andozasi orqali abstrakt tushunchalar anglanadi. Bunda asosan oppozitsiya hosil qiluvchi old-orqa, tepa-past, ichkari-tashqari, quyi-yuqori, o'ng-chap kabi makondagi yo'nalishlarni ifodalovchi tushunchalar mavhum tushunchalarga ko'chiriladi. O'zbek tilida yuqori, tepa, baland, old so'zlari metaforik hosila ma'nolarda, odatda, ijobiy ma'noda; quyi, past, orqa so'zlari esa salbiy ma'nolarda qo'llanadi. Masalan, uning zoti past edi.

3. Ontologik metaforalar. Kognitiv metaforaning bu turida ontologik jihatdan moddiy narsalarning belgilari abstrakt nomoddiy tushunchalar uchun o'xshatish manbai bo'lib xizmat qiladi. Soddaroq aytganda, abstrakt tushunchalarning belgilari konkret tushunchalarning belgilariga o'xshatiladi. Masalan, achchiq qalampirning belgisi, u haqiqatga nisbatan qo'llansa, ontologik kognitiv metafora sanaladi: achchiq haqiqat, shirin orzular, o'tkir fikr kabi.

Tahlil uchun og'ir so'zini olamiz. Og'ir belgisi bu konkret narsa bo'lgan toshning belgisi. Mazkur belgi abstrakt tushunchalarni anglash uchun ham metaforik qo'llanishi mumkin: og'ir hayot, og'ir musibat, og'ir xarakter, og'ir kunlar kabi.

Og'ir so'zi misolida turli tillarda kognitiv metaforalardagi mushtarak holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi og'ir leksemasining bosh ma'nosi abstraktlashib, og'ir mehnat, og'ir hayot kabi kontekstlarda reallashuvchi abstrakt ma'nolar hosil bo'lgan. Rus tilida ham “тяжёлый” so'zining semantik strukturasi “тяжёлая грузь” (og'ir yuk), “тяжёлая работа” (og'ir mehnat), “тяжёлая жизнь” (og'ir hayot) kabi bog'lanishlarda voqelanadigan abstrakt ma'nolar mavjud. Xuddi shu holatni ingliz tilidagi heavy so'zi misolida ko'rish mumkin: heavy luggage (og'ir yuk), heavy work (og'ir mehnat), heavy life (og'ir hayot). Bu kabi holatlar tafakkurning umuminsoniy mushtarak jihatlari, olam lisoniy manzarasining o'xshash tomonlari har doim bo'lganligi va bo'lajakligi haqida darak beradi.

Lekin o'zbek tilida og'ir leksemasining ijobiy ontologik metaforik qo'llanishi mavjud. Bu quyidagi milliy idrok bilan sharhlanadi: Narsa vaznining og'irligi qancha katta bo'lsa, uning harakati shuncha kam bo'ladi. Ya'ni katta vaznli narsaning tortilish kuchi katta bo'ladi va uning harakati shuncha sekin bo'ladi. Soddaroq qilib, aytganda, og'ir toshni siljitish juda ham qiyin. O'zbek tili egalari mazkur belgi asosida “vazmin, bosiq, sipo” abstrakt ma'nosini hosil qilganki, bu insonning yaxshi fazilatlaridan biridir. Vazmin odamda og'ir tosh kabi tili, xatti-harakatlari, “emotsiyalari tezligi” kam bo'ladi. Ushbu fikrimizni quyidagi matndagi og'ir va yengil so'zlarining qo'llanishi bilan isbotlash mumkin:

— *Poytaxtni senga, seni Xalloqi olamga inonib ketyapman, — dedi nihoyat amir.*

Ammo xavotirim bor, — amir shunday deb o'g'liga savol nazari bilan tikildi.

— *Nimadan? — dedi amirzoda ajablanib.*

— ***Yengilsan.** Boshboshdoqlikka moyilsan. Hukmni o'tkazmoqda ojiz bo'lib qolmasmikansan? Hukmni o'tkazmoq uchun qattiqqo'l, **og'ir** bo'lmoq darkor.*

Ko'ngilbo'shlik fuqaroni to'zitib yuboradi (Tohir Malik. Savohil).

*Ba'zi millat vakillari uchun bunday vazminlik balki ijobiy sifat deb baholanmasligi ham mumkin. Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo'lidagi asosiy usullaridan biri bo'lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o'ziga xos birlashtirish olishi tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, konseptual metafora orqali shakllangan ma'no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Masalan, bitta “nozik” so'zi bilan “yuksak mahorat va san'at bilan juda bejirim qilib ishlangan” (nozik san'at buyumi); “ingichka, yupqa” (nozik ip); “bejirim, latif” (nozik qo'llar); “zaif, nimjon” (nozik bola), “muloyim, mayin va yoqimli, nazokatli” (*nozik harakatlar*); “salga sinadigan, uziladigan, yirtiladigan; bo'sh, mo'rt” (nozik idish); “o'ziga xos qiyinchiliklari bo'lgan, alohida mahorat, malaka, bilim talab etadigan” (nozik ish); “o'z ishini mayda ikitir-chikirlarigacha yaxshi biladigan” (nozik gulchi); “alohida ehtiyotkorlik talab etadigan, qaltis” (nozik holat); “alohida e'tibor, mulozamat, takalluf talab etadigan, izzattalab” (nozik mehmon); “injiq” (nozik tabiat) (O'TIL, 2005, 3-jild, 49-50-b.) kabi ma'nolarni nomlaymiz. Mazkur o'n ikkita denotatlar ontologik va gnoseologik nuqtayi nazardan ham farqlanadi. Nozik so'zi anglatayotgan “ingichka” ontologik belgi bo'lsa, “qaltis” va “injiq” gnoseologik belgilardir. Ushbularni bitta so'zda birlashtirish esa xalqimizning cheksiz va sinchkov tafakkuridan, tilimizning beqiyos imkoniyatlaridan darak beradi.*

Kognitiv metaforalarda qiyos qilinayotgan obyektlar bir-biridan ancha uzoq bo'ladi. Metaforaning asl jozibasi ham shunda. Bir-biridan yer-u osmoncha farq qilayotgan mohiyatlar bir so'zda mujassam bo'lsa. *Yengil* so'zini ham paxtaga, ham fikrga nisbatan qo'llaymiz: *yengil paxta* va *yengil fikr*. Nahot paxta bilan fikrning o'lchovlari o'xshasa. Yoki tub so'zini ham chuqurlikka, ham qalbga qo'llaymiz: *ko'lining tubi* va *qalbning tubi*. Bunda ham joziba, ham hikmat bor. Til tilsimlaridan yana biri shundaki, bevosita kuzatishda berilmagan mohiyatlar uchun konkret narsalarning belgi-xususiyatlarini “tirkaganimiz”da, ularni aniqroq tasavvur qilish mumkin bo'lishi bilan birga o'sha xalqning milliy tafakkur tarzi, milliy idroki aks etadi.

Adabiyotlar:

- Лакофф Ж., Жонсон М. (2023). *Метафоры которыми мы живём*. URSS.
- Мамараймова Ш. (2018). *Оламнинг лисоний манзарасида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти*. Дисс. филол. фан. номз. Тошкент. 168.
- Миртожиев М. (2010). *Ўзбек тили семасиологияси*. Mumtoz soʻz. Тошкент. 288.
- Шайхулин Т., Газал А. <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-opredeleniya-kontsepta-vremya-v-russkom-i-arabskom-yazykah>
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати*. (2005). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд.
- Hakimova Muhayyo. (2024). The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(5), 447–450.

FARGʻONA VILOYATI SHEVALARINING YOZMA VA AUDIO MATNLARINI KORPUS BAZASIGA KIRITISH BOSQICHLARI

Nilufar Abduraxmonova *

Azizbek Vosiljonov *

Annotatsiya

Ushbu maqolada Fargʻona viloyati shevasi maʼlumotlarini yigʻish usullari hamda ularning til korpuslari qidiruv tizimida joylashtirilishi va uning amalda qoʻllanish bosqichlari ifoda qilingan.

Kalit soʻzlar: *dialektal korpus, maʼlumotlar ombori, qidiruv interfeysi*

STEPS OF ENTERING THE WRITTEN AND AUDIO TEXTS OF THE DIALECTS OF FERGANA REGION INTO THE CORPUS BASE

* Filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Milliy universiteti.

* Fargʻona davlat universiteti

Abstract

This article describes the methods of collecting information on the dialect of Fergana region, placing them in the search engine of language corpora, and the stages of its practical use.

Key words: *dialectal corpus, database, search interface*

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalari rivojlanishini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin va shu bilan birga lingvistika oldida turgan masalalari yechimida ham asta-sekin kompyuter texnologiyalari yordamida tuzilgan elektron matn korpuslariga murojaat qilish boshlangan. Elektron matnlar korpusi, bu ma'lum bir matnlar yig'ilmasidan iborat bo'lib, ularni maxsus belgilangan me'yorga keltirib, strukturaga soladi va fan nuqtayi nazaridan tilning har xil ijtimoiy-hududiy, vazifaviy va yillar kesimi bo'yicha barcha muqobillarini solishtirish axborot izlash, o'rganishlar uchun ushbu sistemaning o'rni beqiyosdir. Til yoki matnlar korpusi bu - mukammal, kompyuter formatidagi, strukturaviy, razmetkali, lingvistika oldida turgan masalalarni yechimini aks ettirgan bazadir. Zamonaviy korpusning alohida xususiyati shundaki, undagi metalingvistik axborotlar belgilangan formatga ega bo'lib, matn tanlovi taqdimotlanishini amalga oshiradi (Abduraxmonova, 2021, 394-b.). Belgilangan me'yorlar, prinsiplar belgisiga ega qidiruv sistemali matnlar yig'indisi – lingvistik korpusdir.

Til va uning shevalarini informatsion dunyoga olib chiqish, uni elektronlashtirish nafaqat tilshunoslik, balki shevashunos tadqiqotchilar oldida turgan muhim masaladir.

Pandemiya davrida kutubxona, ilmiy-tadqiqot markazlariga va ta'lim muassasalariga kirish bir necha bor cheklangan edi, bu esa tilshunoslarning matn materiallari bilan ishlashning butun tizimini (fayl kabinetlari va lug'atlardan tortib, turli matnlar to'plamlarigacha) o'zgartirishga olib keldi. Tilshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar mavjud elektron ma'lumotlarga murojaat qilishga majbur bo'lishdi. Albatta, ko'plab lug'atlar, kartotekalar, matnlarning izohli to'plamlari hozirda internetda umumiy foydalanishda. Biroq, ko'pchiligi faqat qo'lda yozilgan shaklda mavjud bo'lganligi uchun foydalanish imkoni yetarli emas. Dunyodagi vaziyatning beqarorligini ko'rib, biz doimiy ilmiy faoliyat uchun dialekt materiallarini taqdim etishning yangi formati kerakligini tushundik, bu ko'p odamlarga, ularning joylashuvidan qat'i nazar, dialekt matnlari bilan ishlashga imkon beradi. Ushbu g'oyani amalga oshirishda korpus lingvistikasining tajribasi foydali bo'ladi.

Izlanishlar davomida tilshunoslik, shevashunoslik standartlariga javob bera oladigan holda o'zbek tili korpusi platformasi (<https://uzbekcorpus.uz/>) tarkibida shevalar bazasini yaratishga qaror qildik va ushbu bazaga dastlabki ma'lumotlar

ombori sifatida o‘zbek tilining Farg‘ona viloyati tarkibiga kiruvchi ayrim hududlar shevasini tanladik. Ushbu tadqiqotgacha o‘zbek tili korpusi platformasi (<https://uzbekcorpus.uz/>) tarkibida tadqiqotchi A.Turdialiyev “Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish” (Turdialiyev, 2024) nomli dissertatsiya ishi doirasida Surxondaryo viloyatining Denov hududi shevalari bazasi yaratilgan. Bugungi kunda Andijon, Namangan, Xorazm viloyatlari shevalarining bazalarini yaratish masalalarida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Birinchi vazifa sifatida shevalar bazasi uchun **ma’lumotlar omborini shakllantirishni** rejalashtirildi. Ma’lumotlar bazasining shakllantirilishi quyidagicha amalga oshirildi: birinchi bosqichda diktofon yordamida yozib olingan audiomatnlar, talabalar tomonidan so‘rovnoma o‘tkazish, anketa to‘ldirish usullari orqali to‘plangan **ixtiyoriy (oldindan rejalashtirilgan adabiy tildagi matnni sheva vakili tomonidan ifoda qilish orqali)** va **beixtiyor (oldindan rejalashtirilmagan suhbatni yozib olish orqali)** ma’lumotlar matn holatiga keltirildi hamda transkripsiyada lug‘at tarzida yozib chiqildi.

Ma’lumotlar mavzusini yig‘ish ham turlicha bo‘lishi kerakligiga alohida e’tibor berilgan. Ularni quyidagicha tasniflaymiz:

1. *Sheva vakili yashaydigan hudud tarixi to‘g‘risida*
2. *Mazkur hududning nomining kelib chiqishi va ma’nolarini imkoniyat doirasida izohlash;*
3. *Qishloq vakillarining o‘ziga xos urf-odatlar;*
4. *O‘zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko‘rsatish;*
5. *Sheva vakillariga xos bolalar o‘yinlarini yozib, qanday borishini izohlash;*
6. *Sheva vakillariga xos o‘yinlarning nomi va ularning boshlanishi, tugashini talqin etish;*
7. *Sheva vakillarining kasb-hunarlar, mehnat faoliyatlari to‘g‘risida so‘rash;*
8. *Jamiyat holatiga sheva vakillarining munosabatini qayd etish;*
9. *U yoki bu hudud aholisi biladigan xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq qo‘shiqlari, ertak, doston va termalarni sheva vakili tilidan yozib olish;*
10. *Dehqonchilik va chorvachilik muammolarini yozib olish;*
11. *Qishloq vakillari shug‘ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma’lumotlar yig‘ish;*
12. *Ushbu hududda yashovchilarning milliy qadriyatlarini sanab, izohlash;*
13. *Ushbu hududdagi to‘y-tomoshalar va ularning o‘tkazilishini izohlash;*
14. *Kunning muhim voqealariga sheva vakillarining munosabatini bilib olish;*
15. *Sheva vakilining tarjimai holini hamda kasbini so‘rash.*

Lug‘atdan o‘rin olgan har bir so‘z uchun maxsus kompyuter dasturlari o‘qishi uchun mo‘ljallangan yagona yunikod tizimiga ega bo‘lgan UTF-8 (txt) faylda matnlar

tayyorlandi hamda shevalar ma'lumotlar omborini shakllantirishning quyidagi lingvistik ma'lumotlari kiritildi:

1. So'zlarning umumiy bazasi – *ushbu kategoriyada o'zbek tilining izohli lug'ati tarkibiga kirgan so'zlardan foydalaniladi;*

2. Shevaga oid birliklar – *Farg'ona viloyatiga kiruvchi ma'lum hududga oid birliklar: so'zlar, so'z birikmalari, iboralardan foydalaniladi;*

3. Transkripsiya – *lotin yozuviga asoslangan xalqaro transkripsiyadan foydalaniladi*

4. Lahjasi

5. Sheva vakili yashaydigan hudud

6. Sheva vakilining yoshi hamda jinsi

7. Sheva vakilining ma'lumoti hamda kas

8. sheva vakiliga oid ma'lumotlar – *yosh, hududga tegishliligi, jinsi, kasbi va boshqalar.*

9. Matn – *asosan, kundalik nutqdan olingan misollar (dialog) keltiriladi (1-rasm).*

(1-rasm)

t/r	Adabiy tilda	shevada (talaffuzi)	transkripsiyasi	lahjasi	Meta ma'lumot			fayl(txt)
					hudud	Yoshi va jinsi	ma'lumoti va kasbi	
1	Ana bu	Anovi/Anov/Anu	Änöv/Änöv/ÄnÜ	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	82 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
2	Ana bu yoq	Ag'/Anag'/Anaq	Äg'/Änäg'/Änäq	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	83 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
3	Ana shu	Ashi/Anashi	Äši/Änäši	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	84 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
4	Ana shu yoq	Ashag'/Anashag'/Anashaq	Äšäg'/Änäšäg'/Änäšäq	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	85 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
5	Bu yer	Bat/Bet	Bät/Bet	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	86 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
6	Mana bu	Manu/Mnov	Mänü/Mnov	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	87 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
7	Mana bu yoq	Mayaq/Mayag'/Manaq	Mäjäq/Mäjag'/Mänäq	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	88 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
8	Mana shu	Mashi/Manashi	Mäši/Mänäši	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	89 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
9	Mana shu yer	Mashet/Manashet	Mäšet/Mänäšet	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	90 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1
10	Shu yer	Shag'/Shat/Shet	Šäg'/Šät/Šet	qarluq	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani	91 yosh ayol	o'rta, kolhozchi	1

Tayyorlangan jadval asosida O'zbek tili korpusi platformasi (<https://uzbekcorpus.uz/>) tarkibiga dastlab shevalarning adabiy tildagi ko'rinishi, keyin sheva varianti hamda transkripsiyasi kiritildi hamda shevaning qaysi lahjaga mansubligi belgilab olindi (2-rasm).

2-rasm

Keyingi bosqichda sheva vakilining ismi hamda familiyasi, qaysi viloyatga va qaysi hududga mansubligi, istiqomad qilayotgan qishlog‘i/mahallasi, sheva vakilining jinsi, yoshi, ma‘lumoti (oliy, o‘rta, boshqa), kasbi (dehqon, kosib, shifokor, o‘qituvchi, traktorchi, sotuvchi va h.k), sheva vakilining urug‘ nomi kiritildi (3-rasm).

3-rasm

Jadvalda berilgan so‘zlar qidiruv interfeysida yozilgan so‘zning adabiy tildagi muqobili, oldindan bazaga biriktirilgan transkripsiyada yozilgan so‘z qatnashgan matn qidiruv oynasida aks ettiriladi.

Shevalar bazadagi ma‘lumotlar bazasida so‘zlar qidiruvining umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

- shevalarning adabiy tildagi muqobili asosida;
- shevaga oid birliklarni qidirish asosida;
- shevaga oid birliklarning transkripsion shaklini qidirish asosida;
- shevaga oid birliklarning matndagi ko‘rinishi asosida.

O‘zbek tili korpusi platformasi (<https://uzbekcorpus.uz/>) tarkibiga kiruvchi Farg‘ona viloyatining onlayn shevalar bazasini shakllantirish bir necha bosqichli prinsip asosida tashkil etiladi va ketma-ket, tadrijiylik asosida amalga oshiriladi. Ba‘zaviy ma‘lumotlarning qidiruv tizimi esa foydalanuvchiga hudud shevalarini oson o‘rganishda, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun ta‘limiy maqsadlarda foydalanishda, o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun muhim lingvistik imkoniyat sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Abdurahmonova N. (2021). *Kompyuter lingvistikasi*. Toshkent: Nodirabegim.

394

Turdialiyev A. (2024). Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish: *Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoref*. Toshkent.

Abdurakhmonova, N., & Urdishev, K. (2019). Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL)*, 6(1-2019), 131-7.

Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In *of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)* (pp).

Azizbek, V. (2024). JAHON KORPUS LINGVISTIKASIDA DIALEKTAL KORPUSLAR. «*CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS*», 2(22.04), 71-74.

<https://uzbekcorpus.uz/>

LUG‘AT – IJTIMOIIY ZARURAT TUFAYLI YUZAGA KELGAN ILK LINGVISTIK JANR SIFATIDA

Bashorat Bahriddinova *

Annotatsiya

Maqolada ilk lingvistik manbalar – lug‘atlarning sof amaliy ehtiyojlar, ijtimoiy zarurat tufayli yuzaga kelgan ta’limiy vosita ekani, “lug‘at”, “lug‘atchilik” terminlarining ilmiy muomalaga kiritilishi, antik maktablarda o‘quv qo‘llanma, darslik vazifasini o‘tagan ilk lug‘at-grammatikalarning o‘quv lug‘atlarining dastlabki ko‘rinishlari ekanligi Mark Fabiy Kvintilianning “Notiq uchun yo‘riqnoma” (Institutio oratoria), Polidevk Polluksning “Polluks onomastikoni” (“Rollucis onomasticon”) nomi bilan mashhur bo‘lgan ideografik lug‘ati, Amarasingxning “Amarakosha” lug‘ati misolida yoritiladi. Shuningdek, jahon tilshunosligida o‘quv lug‘atchiligi tarixini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: *lug‘at, o‘quv lug‘ati, o‘quv lug‘atchiligi, maktab lug‘ati, antropotsentrik lug‘at, filologik lug‘at, ensiklopedik lug‘at, universal lug‘at, kompleks lug‘at*

* Filologiya fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti, baxriddinova74@mail.ru

DICTIONARY – AS THE FIRST LINGUISTIC GENRE THAT CAME UP DUE TO SOCIAL NEED

Annotation

The article shows that the first linguistic sources - dictionaries are an educational tool created due to purely practical needs, social necessity, the introduction of the terms "dictionary", "dictionary" into scientific circulation, the function of a study guide, a textbook in ancient schools. It is known that the first dictionaries-grammars are the first versions of educational dictionaries, such as Marcus Fabius Quintilian's "Institutio oratoria" and Polydeuces Pollux's "Rollucis onomasticon". ideographic dictionary, Amarasingh's dictionary "Amarakosha" is illustrated as an example. Also, the works carried out on the study of the history of educational vocabulary in world linguistics are analyzed.

Key words. *dictionary, educational dictionary, educational lexicography, school dictionary, anthropocentric dictionary, philological dictionary, encyclopedic dictionary, universal dictionary, comprehensive dictionary*

Lugʻatlargacha boʻlgan davrga mansub leksikografik ishlar Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Yunoniston kabi ilk sivilizatsiya oʻchoqlarida miloddan avvalgi ikki minginchi yilliklarda, asosan, qadimgi qoʻlyozmalardagi maʼnosi tushunarsiz soʻzlarni sharhlash yoki tarjima qilish maqsadida yaratilgan glossariylar, vokabulyariylar (darslik yoki uning har bir boʻlimi boʻyicha tuziladigan qisqacha lugʻat) va onomastikonlardan boshlanib, milodning XV asrigacha yaratilgan manbalarni qamrab oladi. Ularning aksariyati aynan lugʻat degan tushuncha bilan emas, balki darslik, oʻquv qoʻllanma maqsadida yaratilgan. Foydalanishga qulay boʻlishi uchun eng zaruriy tushunchalar, maʼnosi tushunarsiz soʻzlarnigina qamrab olishi va ularga qisqacha izoh, sharh berilishi bilan mazkur oʻqitish vositalari hozirgi lugʻatlar uslubini eslatgan. XV asrga kelib lugʻat darslikdan ajralib chiqqan va alohida leksikografik janr nomi sifatida manbalarda uchray boshlagan. Shu sababli V.G.Gak mazkur ishlar mansub davrni “lugʻatlargacha boʻlgan davr” deb nomlaydi.

(1)

Oʻquv maqsadi birlashtirgani, grammatik mashqlar, savol va topshiriqlar ilova qilingani mazkur manbalarni “darslik” deb nomlashga, eng asosiy tushunchalarni koʻpincha alifbo tartibida yoki mavzuviy toʻdalarga birlashtirib qisqacha izoh berishi “lugʻat” deb nomlashga asos boʻladi.

Avvalo, davr manbalarida qoʻllangan “lugʻat”, “lugʻatchilik”, “oʻquv lugʻati” va “oʻquv lugʻatchiligi” terminlariga oldingi bobdagi metodologik fikrlar asosida toʻxtalib oʻtamiz.

“Lugʻat” leksemasining har bir tilda oʻz tarixiy atamasi mavjud, u inglizlarda “dictionaru”, fransuzlarda “dictionnaire” (ЛЮТ. “dictionary” – tushuntirish,

izohlash, ko'rsatish), forslarda "farhang" (qadimgi pahlaviy tilida "far" – oliy, "xang" – so'z, "oliy so'z", "madaniyat"), ruslarda "словарь", arablarda "لغت", sanskrit tilida "kosha" ("amarakosha" – xazina) va "nigxantu" (vedalarga izohlar) va boshqa ko'rinishlarda uchraydi.

Termin "lug'at" ma'nosida Yevropada ilk marta ingliz tilida Jon Garland asarlarida *dictionary* shaklida uchraydi. Hozirgi lug'at tipidagi birinchi kitob sifatida T.Eliotning 1538-yilda nashr etilgan lotincha-inglizcha lug'ati qayd etiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ilmiy leksikografiya ingliz tilida S.Jonsonning 1755-yilda yaratilgan "Ingliz tili lug'ati" ("A Dictionary of the English Language"), fransuz tilida D.Didroning 1766-yilda yaratilgan "Ensiklopediya"si (To'liq nomi: "Encyclopedic ou dictionnaire raisonne des sciences, des arts et des metiers") va P.Larussning XIX asrga tegishli "Katta universal lug'ati" ("Grand Dictionnaire universel du XIX-e siècle"), nemis tilida aka-uka Grimmlarning 1852-yilda yaratilgan "Nemis tili lug'ati" ("Deutsches Wörterbuch") bilan, arab ilmiy leksikografiyasi XVII asrda islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on" matnini tushunish maqsadida yuzaga kelgan lug'atlar bilan, Amerika lug'atchilik an'analari boshlanishi XIX asrda N.Vebster lug'atlari bilan boshlanganligini qayd etadilar. 1759-1760-yillarda yaratilgan mashhur leksikolog va leksikograf Mirzo Mahdixonning sharq leksikografiyasida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan "Sangloh" lug'atida sharqiy tillarga xos lingvistik terminlarga ham izoh beriladi. Jumladan, "lug'at" termini quyidagicha izohlanadi:

"LUG'AT" – لغت (arab.) a) til, nutq. Lug'ati fors (fors tili), lug'ati arab (arab tili), lug'ati turkiy (turkiy til); b) so'z, kalima, nutq vositasi. Lug'ati mo'g'uliy (mo'g'ul so'zlari), lug'ati mushkala (qiyin so'zlar); v) lug'at kitobi, leksikografiya asari. Lug'oti navisiy (leksikografiya, lug'at); g) "lug'at" – lug'atlar.

Ko'rinib turibdiki, dunyoning barcha tillarida "lug'at" so'z va uning ma'nosiga ishora qiladi. So'z va uning izohi esa eng qadimgi maktab qo'llanmalari – glossariy, vokabulyariy, azbukovnik, onomastikonlarning ham asosini tashkil qilgan. Shu sababli, jahon leksikografiyasi tarixi "lug'at" so'zi uchragan davr – XV-XVI asrdan boshlanadi.

V.V.Dubichinskiy "leksikografiya" termini yunoncha λεξικός (*lexico*) – "so'z" va γραφω (*grapho*) – "yozmoq" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lsa-da, qadimgi yunon tiliga mansub termin emasligini aytib o'tadi. Uningcha, ushbu termin birinchi marta *Etymologicum Magnum*da (4) *lexikographos* – "so'zlar to'plami" shaklida uchraydi. Shuningdek, mazkur terminning 1578-yilda fransuzlarda Henri Etyenning lug'atchilikka bag'ishlangan mashhur "Deux dialogues du nouveaux language François, italianisé" asarida *lexicographie*, 1680-yilda yaratilgan ingliz tilining Oksford lug'atlarida *lexicography*, 1698-yildan nemis tilida *lexikographie*,

fransuzlarning yuqorida tilga olingan dunyoga mashhur “Ensiklopediya” sida *lexicographie* shaklida uchrashini qayd etadi.

Xuddi shuningdek, P.N.Denisov ham “Lug‘atlar har qancha qadimiy bo‘lmasin, “leksikografiya” terminining tarixi uzoqqa borib taqalmaydi: ingliz tilshunosligida 1680-yildan, rus tilshunosligida 1845-yildan, polyaklarda 1861-yildan kuzatiladi. Yevropa mamlakatlarida leksikografiyaning paydo bo‘lishi mamlakatning intellektual taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda ikki-uch asrga farqlanadi. Ilmiy muomalaga terminning kechikib kirib kelishiga mazkur so‘zlarning asosi qadimgi yunon va lotin tillariga mansub bo‘lsa-da, termin sifatida xalqaro ilmiy lug‘atlar fondida uchramagan”ligi sabab bo‘lganini ta’kidlaydi.

Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligining paydo bo‘lishi XX asr boshlariga to‘g‘ri kelib, dastlab ingliz, keyinchalik, Yevropa (fransuz, ispan, nemis, rus va bq.) tilshunosliklarida kuzatiladi. V.G.Gak o‘quv lug‘atchiligi va umumiy lug‘atchilikning tarixiy aspektlari yoritilgan maqolasini shunday xulosalaydi: “Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, aslida o‘quv lug‘atlari umumiy lug‘atlar negizida emas, balki umumiy lug‘atlar o‘quv lug‘atlari evolyutsiyasi natijasida yuzaga kelgan. Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligi masalalarini yoritayotgan nazariyotchilar o‘quv lug‘atlarini yaratishda umumiy leksikografik an‘analarga muvofiqlashtirish zarurati xususidagi gapiradilar. Holbuki, pedagogika fan sifatida eng barqaror manbalarga asoslanadi: uning predmetini tez taraqqiy etib borayotgan texnika yoki insonning olam borasidagi bilimlari emas, balki ta’lim oluvchining sekinlik bilan o‘zgarib boruvchi psixofiziologik xususiyatlari tashkil etadi. Shuning uchun, zamonaviy o‘quv leksikografiyasining nazariy va amaliy taraqqiyotida asosiy e’tiborni o‘quv xarakteridagi ilk lug‘atlar tahliliga qaratish maqsadga muvofiq”.

P.N.Denisov “Об универсальной структуре словарной статьи” maqolasida o‘quv lug‘atchiligi tarixiga munosabat bildirib, quyidagilarga e’tiborini qaratadi: “Antik lug‘atlarning dastlabki ko‘rinishlari ma’nosi tushunarsiz so‘zlar ro‘yxati – glossariylar shaklida bo‘lgan. Keyinchalik Gomer va boshqa antik yozuvchilarning asarlari asosida glossariylar to‘plami yuzaga kela boshlagan. Vizantiyalik Aristofan (er.av. III – II asrlar) o‘z asarlari leksikasi lug‘atini tuzgan, bunda so‘zlikning katta qismini antik yozuvchilar asarlaridan olingan parchalarda uchragan so‘zlar tashkil qilgan. Shuningdek, Dionisiy Frakiyskiyning (II asr) lug‘at xarakteridagi maktab grammatikasi ham o‘ziga xos qiymatga ega bo‘lgan”.

O‘zbek tilshunosligida bajarilgan ishlarda ham lug‘atchilikning “turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, lahjaviy, maxsus yoki chet tiliga mansub) so‘zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan”ligi ta’kidlanadi.

Ma’lumki, Mesopotamiya qadimiy va boy madaniyatga ega bo‘lgan sivilizatsiya o‘chog‘i bo‘lib, ko‘pgina fanlarning ibtidosi shu yerga borib taqaladi.

Mesopotamiya halqlari erishgan yutuqlardan yana biri yozuvning ham shu zaminda ixtiro etilishi edi. Dastlabki yozuv miloddan avvalgi I ming yillikda Shumerda kashf etilgan va shumer yozuvi ham deb yuritilgan. Bu yozuv suratli (iyeroglif) bo'lib, aytilmoqchi bo'lgan so'z va iboralar rasmlar, belgilar orqali ifoda etilgan. Masalan, qush so'zi qushning tasviri, suv so'zi uch qator to'lqinsimon chiziq, yulduz esa yulduz tasvirlari bilan ifoda etilgan.

Ushbu mamlakatda bir necha – akkad, shumer, elam, aramey, amoriy va boshqa millat vakillari aralash holda turmush kechirib, ularning o'zaro muloqot qilishi uchun til o'rganishga ehtiyoj katta bo'lgan. Bu ehtiyoj til o'rgatish uchun xizmat qiluvchi o'quv qo'llanmalar – antik lug'at namunalarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa Mesopotamiya ilk lug'atlarning vatani sifatida ham tarixga kirgan. Mashhur tarixchi olim V.I.Avdievning "Qadimgi Sharq tarixi" nomli kitobida keltirilishicha, Qadimgi Mesopotamiyadagi ikki qabila – shumer va Akkad semitlari tamoman boshqa-boshqa tillarda gaplashgan va turmushda bir-biri bilan nihoyatda tutashib ketgan. Bu esa har ikki tilni o'rganish uchun xizmat qiladigan maktab darsliklariga ehtiyojni yuzaga keltirgan. Shu maqsadda shumer va akkad tillarida muloqot qilishga yordam beradigan turli tushunchalarni ifodalaydigan mantiqiy belgilar ro'yxati tuzilgan. Tog' va davlatlar, xudolar va ibodatxonalar, tosh va o'simliklar, yog'och va teridan yasalgan narsa-buyum, asbob-uskuna nomlari va boshqa tushunchalarning ko'psonli ro'yxatidan tashkil topgan bu qo'llanmalar shumer va akkad tillarini o'rganish uchun amaliy jihatdan muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi Mesopotamiyada maktab va maorif ishlariga alohida e'tibor berilgan. Maktablarning aksariyati ibodatxona va saroylar qoshida bo'lgan, ularni ruhoniylar boshqarganlar. Boshlang'ich sinflarda, yozuv, til, adabiyot va grammatik bilimlar o'rgatilgan. Qadimgi shumerlarning Nippur shahri harobalaridan 3000 yillik tarixga ega ibodatxona xarobasi topilgan bo'lib, uning madaniy qatlamlarida 60000dan ortiq sopol tablichkasi bo'lgan kutubxona aniqlangan. Nippurdagi ushbu ibodatxona kutubxonasidan sof ma'lumotnoma qo'llanma ko'rinishidagi maktab grammatikalari ham topilgan. P.N.Denisov yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, "antik lug'at namunalari diniy asarlardagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash va begona tillarni o'rganish, umuman, ta'limiy maqsadda yaratilgan maktab qo'llanmalari bo'lgan" degan qat'iy xulosaga keladi va u o'z fikriga "Eramizdan avvalgi XXV asrlarga tegishli shumer glossariylari, uch tilli shumer-akkad-xett ma'lumotnomalari (er. av. XIV – XIII) til o'rgatish vositasining qurilmasi o'qituvchi tomonidan beriladigan savollar, o'quvchining javobi, yodlashga qaratilgan yozma va og'zaki topshiriqlar, tarjima qilish kabi jarayonlardan iborat tizimdan tashkil topishiga guvohlik beradi", deya asos keltiradi. O'quv lug'atlarining P.N.Denisov tomonidan ilgari surilgan

ushbu belgisi bugungi zamonaviy o'quv lug'atlarining ham tavsifiy belgisiligicha qolmoqda.

P.N.Denisov rimliklarga o'quv lug'atlari tuzishga yunonlar ishtiyoq uyg'otganini ta'kidlaydi. Uning aytishicha, 12 dan 16 yoshgacha bo'lgan rimlik o'spirinlar, odatda, maktabga qatnashgan va ular uchun asosiy mashg'ulot adabiyot, notiqlik hamda grammatika bo'lgan. P.N.Denisov Kvintilianning "Notiqlik san'ati haqida" asarida keltirilgan til o'rganish, tarjima jarayonlari, xususan, yunon tilidan lotinchaga tarjima haqida qarashlarni keltiradi va Kvintilian ularni "kundalik o'quv mashqlari" deb nomlaganiga e'tiborni qaratadi. Bu bilan olim o'z davrida Rimda notiqlik, grammatika, leksikografiya qorishiq holda maktab mashg'ulotlarining asosini tashkil qilgani, ushbu leksikografik va grammatik an'analar Rimdan to G'arbiy Yevropa, Vizantiyadan Janubiy va Sharqiy Yevropa – Fransiya, Italiya, Angliya, Bolgariya, Rossiya va boshqa Yevropa davlatlariga yoyilganini ta'kidlaydi.

Fransuz leksikografi G.Matore "Xuddi yunonlar kabi rimliklarning ham lug'atshunosligi o'quv maqsadini ko'zlagan va u hamma yerda maktab uchun xizmat qilgan"ini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, yunonlar va rimliklarning ilk lug'atlarini o'quv maqsadi birlashtiradi, biroq ularda ma'lum darajada farqlar ham kuzatiladi. Yunonlarda lug'atlar o'zga tilni o'rganish, diniy tushunchalarni sharhlash xarakterida bo'lsa, rimliklarda esa nutq o'stirish, notiqlik san'atini o'zlashtirish ishida o'quv vositasi rolini o'tagan. Bunga Kvintilianning notiqlikka oid lug'at qo'llanmalarini misol sifatida keltirish mumkin.

Mark Fabiy Kvintilian (Marcus Fabius Quintilianus, taxminan milodning 35-96 yy.da yashab o'tgan) Qadigi Rim notig'i, pedagog, notiqlik san'ati va lotin tili muammolari tadqiqotchisi sifatida tanilgan. Uning nutq madaniyatiga doir antik o'quv qo'llanmalari, xususan, "Notiq uchun yo'riqnoma" (Institutio oratoria) asari antik davrlardan to hozirga qadar notiqlik san'ati asoslarini o'qitishda noyob qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Kvintilian Rimda shaxsiy notiqlik maktabini ochadi va 20 yil davomida rimlik aslzoda, yuqori tabaqa vakillarining farzandlariga notiqlik san'atidan dars beradi. Uning "Notiq uchun yo'riqnoma" asari notiqlik san'ati o'qitiladigan antik maktablarda Sitseron qo'llanmalari bilan yonma-yon ishlatilgan va zamondoshlari Kvintilianga "Ikkinchi Sitseron" maqomini berishgan.

Kvintilian nutq madaniyatini egallashda, avvalo, bolaning so'z boyligini oshirishga diqqatni qaratadi. 12 ta kitobdan iborat mashhur "Notiq uchun yo'riqnoma" asarining dastlabki ikki kitobi umumiy pedagogik masalalarga qaratilgan bo'lsa, keyingi kitoblarning asosida so'z boyligini oshirish, so'z ma'nosini anglash va o'rnida qo'llash, tarjima masalalari qamrab olinadi.

O'quv lug'atlarining, umuman, lug'atchilikning tarixiy ildizlari xususida gap ketar ekan, bu borada Y.Polluks "Onomastikon"ining o'rni nihoyatda muhim ekanini e'tirof etish o'rinli.

Polidevk Polluks Yuliy II asrning oxiri III asr boshlarida yashagan yunon faylasufi, leksikografi va notig'i. U Navkratisda (Misr) tug'ilgan. Afina shahrida grammatika va ritorika o'qituvchisi sifatida tanilgan. Manbalarda uning notqlikka bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratgani, ammo bizga qadar yagona "Onomastikon"i (u ham bo'lsa, original variantda emas, bir necha marta qayta ishlangan, qisqargan shaklda) yetib kelgani xususida ma'lumotlar uchraydi.

Leksikografiya tarixida "Polluks onomastikoni" ("Rollucis onomasticon") nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur lug'at Polluksga ritorikaga ishtiyoq uyg'otgan Imperator Kommodga bag'ishlangan bo'lib, 10 jild – ensiklopediya-kitobdan tashkil topgan. Har bir kitob Kommodni olqishlash, maqtash bilan boshlanadi. Lug'at o'z nomidan ko'rinib turibdiki, u muallif yashagan davrda yunon tilida mavjud bo'lgan atoqli otlar ma'nosini izohlashga bag'ishlangan.

"Onomastikon" ideografik xarakterdagi lug'at, har bir kitob ma'lum bir mavzu, yo'nalishga oid atamalarni qamrab oladi. Polluks lug'at maqolalarni quyidagicha mavzular asosida kitoblarga joylashtiradi:

1. Xudolar. Ibodatxonalar, qurbongohlar va ma'budlar. Yaratilish va yo'q bo'lish (kelish va ketish). Ruhoniylar. Ruhoniylar va dinsizlar. Monarxlar, savdogarlar, hunarmandlar. Uy, kema. Ob-havo. Qo'shin. Otlar va harbiy san'at. Uy hayvonlari. Qishloq xo'jaligi, plug, transport vositalari, asalarilar va bq.

2. Odamlar. Yosh bilan bog'liq farqlar. Insonning dunyoga kelishi. Tana a'zolari.

3. Jins. Qarindoshlik. Nikoh. Bolalar. Do'stlar. Xo'jayin va qullar. Qurilish ishlari. Geografik joylashuv. Sayohat. Xursandchilik va qayg'u.

4. Ta'lim: grammatika va ritorika. Filosoflar va sofistlar. Shoir va muzikantlar. Musiqiy asboblari. Raqs, teatr. Astronomiya. Tibbiyot va kasalliklar.

5. Ov. Itlar. Ovlanadigan hayvonlar. Ayollarning zargarlik buyumlari. Jasorat va qo'rquv. Dori-darmon. E'tiqod, ibodat. Shon-sharaf.

6. Mehmonlar. Sharob va mahsulotlar. Ovqat. Davra suhbatlari.

7. Bozor. Savdo-sotiq. Savdogarlar. Mahsulotlar. Pul.

8. Sud. Sudya. Jarayonlar. Jazolar. Sotqin.

9. Ma'muriy bo'linma. Shahar. Davlat binolari. Bolalar va kattalar o'yinlari.

10. Idishlar.

Polluks lug'atni yaratishda o'zigacha yashab o'tgan mashhur leksikograflar, faylasuflar Gorgiy, Vizantiyalik Aristofan, Eratosfen, Pamfilla va boshqalarning tajribasiga tayangan, o'rni bilan misol tariqasida antik yozuvchilar ijodidan sitatalar keltirgan. Lug'at antik teatr, muzika, balet, arxitektura, dekoratsiyalar, Afinadagi sud

tizimi, mansabdorlar xususida ma'lumotlar jamlangan bebaho xazina – tezaurus (ideografik lug'at) bo'lish bilan birga antiq o'quv lug'atlarining asl namunasi ham hisoblanadi.

“Onomastikon”ning birinchi bosma nashri 1502-yilda Venetsiyada Manusiy Ald tomonidan lotincha tarjimada chop etiladi. Polluks “Onomastikon” o'ziga xos uslubga egaligi bilan diqqatga sazovor. U lug'atdan ko'ra ko'proq ritorika darsligini eslatadi. So'zlar, asosan, alfavit tartibida, ba'zan mavzuga ko'ra ham beriladi; so'zlikni joylashtirishda qat'iy tartibga asoslanmaydi. Masalan, lug'at tarkibida hukmdorni olqishlashga bag'ishlangan 52 ta maqtov va soliq yig'uvchilarning kirdikorini ochishga qaratilgan 33 ta tanqidiy matn ham uchraydi.

Polluks lug'atini tom ma'noda o'quv maqsadida yaratilgan lug'at deb atash mumkin. Muallif umrining oxirgi davrlarida Afinada yashab, ritorikadan dars bergan. Uning uchun o'quv qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj katta edi. Shu bois lug'at asosida muallif ritorika, notiqlik sirlari, nutq o'stirishga doir qarashlarini jamlagan va undan amaliyotda qo'llanma sifatida foydalangan. Umuman, “Onomastikon” bir necha asrlar davomida notiqlik nihoyatda qadrlangan va san'at darajasiga ko'tarilgan Yunonistonda nutq o'stirish mashg'ulotlari uchun lug'at-darslik vazifasini bajarib kelgan.

Ideografik lug'atning bosh maqsadi – ma'lum bir fikrni ifoda etish uchun zarur bo'lgan so'zni tanlashda amaliy yordam berish. Polluks “Onomastikon”i bilan deyarli bir davrda Qadimgi Hindistonda Amarasingxning mashhur “Amarakosha” lug'ati dunyoga keladi. Garchand Yevropa olimlari tomonidan Mark Piter Rojening 1852-yilda yaratilgan “Tezaurus”i (to'liq nomi: Thesaurus of English Words and Phrases — “Inglizcha so'zlar va iboralar tezaurusi”) ilk ideografik lug'at sifatida e'tirof etilsa-da, yuqorida tilga olingan “Onomastikon” va “Amarakosha” ham o'tmishning eng ahamiyatga molik ideografik lug'atlari sifatida qayd etiladi.

“Амаракоса” (санскр. – Amarakośa, “Amara lug'ati”) – buddizm vakili, donishmand Amara Sinx qalamiga mansub sanskrit tilida bitilgan birinchi va eng mashhur sinonimlar lug'ati. Lug'at so'zligi mavzuviiy prinsipga asoslanganligi sababli ideografik lug'at deb yuritiladi. Amara – muallifning nomi bo'lib “o'lmas”, “kosha” – “lug'at”, “xazina”, “to'plam” ma'nolarini anglatadi. Ikkinchi nomi – **“Namalinganushasana”** (санскр. – Nāmalingānuśāsanam “nama-linga-anu-shasana”, ot va grammatikaga oid qo'llanma). Lug'at 10 ming so'zni qamrab olgan. Lug'at qurilmasi uning nafaqat tilning leksik birliklarini qamrab olishi, balki o'zida “olaning lisoniy manzarasi”ni aks ettirganidan ham dalolat beradi. Lug'at matni uchta kitobga (kaṇḍa) bo'linadi, ularning har biri o'z navbatida ma'lum bir mavzudagi so'zlarni birlashtirgan leksik-semantik guruhlarini ifodalovchi boblarga (varga) ajratilgan.

Lugʻatda tushunchalar muhimlik darajasiga qarab qatʻiy ketma-ketlikda joylashtirilgan. Masalan, dastlab jannat va xudolarni anglatuvchi sinonimlar roʻyxati keltiriladi, keyin ikkinchi darajali tushunchalarni bildiruvchi leksik va semantik guruhlar maʼlum tartibda berilgan. Keyingi oʻrinlarda samoviy jismlar nomlari, sayyoralar va yulduz turkumlari, tabiat hodisalari (yomgʻir, momaqaldiraq, bulutlar, qor va boshqalar), dunyo tomonlari, vaqt, masofani anglatuvchi birliklar, oylar, fasl nomlari va boshqalar izohi keltiriladi. Lugʻatning ikkinchi kitobi insonga bagʻishlangan, unda muayyan tartibda insonga xos tushunchalar – uy, qalʼalar va mulklar, turli xil hunarmandchilik buyumlari, uy-roʻzgʻor buyumlari, yovvoyi va uy hayvonlarining nomlari keltiriladi.

Birinchi kitobning oltinchi bobi “Abda-varga” (abda – soʻz, til) insonning nutqiy qobiliyatiga bagʻishlangan. Unda insonning atrofdagilar, xususan, xudolar bilan muloqot qilish qobiliyati xususida maʼlumotlar keltiriladi. Inson nutqiga xos maqtov, olqishlardan tortib haqorat va laʼnatgacha boʻlgan turli koʻrinishlar qamrab olinadi. Izohlarda nutqning olloh tomonidan inʼom qilingan, inson tomonidan oʻzlashtiriladigan va madaniyat darajasini koʻrsatib beradigan tuhfa ekanligi oʻz aksini topadi. Muallif lugʻatda birgina *hymk* soʻzining 13 ta sinonimini keltirib, oʻz qurshovida anglatgan maʼnolarini izohlab beradi.

Boshqa antik lugʻat-qoʻllanmalar kabi, koʻrib oʻtilganidek, Amara Sinxning “Amarakosha” lugʻati ham oʻz davrining muhim ilohiy tushunchalari, kundalik turmushda uchradigan maʼnosi tushunarsiz soʻzlar izohiga bagʻishlangan.

Sharq leksikografiyasi taraqqiyotida Qadimgi xitoyliklarning ham oʻziga xos oʻrni bor. Sharq mamlakatlari ichida Xitoy qadimiy, koʻp qirrali madaniyati bilan ajralib turadi. Xitoyliklar, xususan, koʻhna Misr va Mesopotamiya singari oʻz qadimiy yozuvi va adabiyotiga ega boʻlib, bundan 3,5-4 ming yil oldin oʻzlarining misrliklarniki kabi rasm-belgilar — iyerogliflardan iborat yozuvlarini yaratganlar. Har bir iyeroglif butun bir soʻzni ifoda etgan. Bir kichik shohcha belgisi “daraxt”, ikkitasi “oʻrmon”, uchitasi esa “chakalakzor” kabi maʼnolarni bildirgan. Xitoyda dastlabki yozuv m. av. II ming yillikda kashf etilgan. Bu Shan-In davlati davriga toʻgʻri kelgan. Oʻshanda yozuvlar soni 2000 ga yaqin boʻlgan. Xan davrida esa iyerogliflarning soni oʻn sakkiz mingga yetgan. Xitoy yozuvlari asrlar mobaynida ayrim oʻzgarishlarga duch kelgan. Ammo u oʻzining asosiy belgilarini zamonamizgacha saqlab qolgan. Xitoyliklar xatni dastlab suyak, yogʻoch, choʻp, teri va bambuk tanasidan tayyorlangan maxsus taxtachalarga yozganlar. M. av. IV – III asrdan boshlab esa ipakdan tayyorlangan shoyi parchasiga yozganlar. M. av. I asrda va milodiy I chegarasida xitoyliklar qogʻozni kashf etishgach, yozuvlar ana shu qogʻozlarga yozilgan. Matnlar oʻngdan chapga tomon ustunlar tariqasida yuqoridan pastga qarab yozilgan.

Milodning II asrida yashagan Chjan Xenning astronomiya va matematikaga oid asarida esa 124 yulduz turkumi, 2500 yulduzlarning nomi eslatib o‘tilgan.

Yuqorida keltirilgan asoslarga tayanib o‘quv lug‘atlarining ilk tarixiy ildizi, V.G.Gak tasnifi bo‘yicha lug‘atlarga bo‘lgan davr ichki taraqqiyotini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Boshqa millat tilini o‘rganish maqsadida yaratilgan antik maktab darsliklari – lug‘at-qo‘llanmalar (shumer glossariylari (er.av. XXV asr), uch tilli shumer-akkad-xett ma‘lumotnomalari (er. av. XIV – XIII);

2. Asosida muqaddas kitoblardagi diniy tushunchalarni izohlash maqsadi yotgan maktab qo‘llanmalari (Nippurdagi ibodatxona kutubxonasidan topilgan er. av. X – VIII asrlarga oid ma‘lumotnoma qo‘llanma ko‘rinishidagi maktab grammatikalari);

3. Maktablarda antik adabiyot namunalari, xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni o‘qitish maqsadida yaratilgan glossariylar (Gomer va boshqa antik yozuvchilarning asarlari asosida yaratilgan glossariylar, Vizantiyalik Aristofan (er.av. III – II asrlar), Dionisiy Frakiyskiylarning (II asr) lug‘at xarakteridagi maktab grammatikalari);

4. Asosida nutq o‘stirish, notiqlikka o‘rgatish yotgan lug‘at-qo‘llanmalar. (Kvintilianning nutq madaniyatiga doir antik o‘quv qo‘llanmalari (milodning I asrlari), Polluksning “Onomastikon”i (II asrning oxiri III asr boshlari).

Ko‘rib o‘tilganidek, antik lug‘atlar dastlab ibodatxonalar qoshidagi maktablar uchun yaratilgan, asosida diniy ilm berish, muqaddas kitoblardagi ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlash maqsadi yotgan. Keyinchalik lug‘atlar davrning mashhur ijodkorlari asarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari uchraydigan ayrim tushunchalar, xalq turmush tarzi bilan aloqador so‘zlar ma‘nosini izohlash vazifasini bajara borgan. Shu tariqa birin-ketin asosida boshqa tilni o‘qitish maqsadi yotgan darslik vazifasini o‘tovchi ilk lug‘atlar dunyoga kela boshlagan. Mazkur lug‘atlarning barchasini bitta umumiylik – o‘quv maqsadi birlashtirgan. Ularning asosida ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlash va yosh avlodning til madaniyati bilan bog‘liq ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi yotgan.

Adabiyotlar

Гак В.Г. (1977). О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) / В.Г. Гак // *Актуальные проблемы учебной лексикографии*.

Дубичинский В.В. (1998). Теоретическая и практическая лексикография // *Wiener slawistischer almanach. Sonderband 45*. Вена; Харьков.

Мирза Махдихон. “Санглох”. (1759-1760) (1960). Лондон; Умаров Э.А. “Эски ўзбек луғатлари”.

Etymologicum Magnum. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/-Etymologicum_Magnum.

Дубичинский В.В. (2008). *Лексикография русского языка: учеб. Пособие*. Наука. Флинта.

Денисов П.Н.. (1977). Об универсальной структуре словарной статьи. В.кн.: *Актуальные проблемы учебной лексикографии*. Сост. В.А.Редкин. Русский язык.

Madvaliyev A. (2017). *O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari*. To'plam. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Васильев Л.С. (1998). *История Востока. Том 1*. Высшая школа.

Авдиев В.И. (1970). *История древнего Востока*. Высшая школа.

Волошина О.А. *Речь божественная и человеческая в словаре-тезаурусе* Амаракоса. URL: <http://saraswati.pro/wiki/Amarakosha>.

O'ZBEK TILIGA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH – DAVR TALABI

Baxodir Suyunov*

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tilimizga kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish va bunda tezaurus, ya'ni hozirgi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi semantik aloqalarni ko'rsatuvchi umumiy yoki maxsus lug'at, shunday lug'atlarning maxsus turi va uning ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Bu borada muallif o'zbek va rus tilidagi ilmiy manbalar hamda turli xildagi lug'atlar va ilmiy tadqiqot ishlaridan maqsadli foydalanib, o'rni bilan mazkur tushuncha va hodisalarni o'zaro farqlovchi misollar va dalillarga murojaat qilgan, mavzu yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqargan.

Ayniqsa, maqolada lug'at va tezaurus tushunchalarining o'zaro farqi, har ikkisinin so'z va uning ma'nolarini bilish uchun xizmat qilishi, biroq ularning so'z

*Filologiya fanlari doktori, dotsent, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, bahodirsuyunov427@gmail.com.

ma'nolari haqida ma'lumot berish usullari har xil ekanligi kabi masalalar yetarli asoslar bilan dalillangan.

Masalan, kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lgan tezauruslar leksemalarning o'z va ko'chma ma'nolari, kommunikatsiya xususiyatlari, emotsional-ekspressiv vazifalari haqida keng ma'lumot berishi bilan izohlanadi. Maqolada ayni masalalar o'zining yaqqol ilmiy-amaliy ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: *kompyuter, tezaurus, kommunikatsiya, terminologiya, lug'at, leksema, sema, termin, adekvat, fond, parametr, struktura, ekvivalent, model.*

APPLICATION OF COMPUTER TECHNOLOGIES TO THE UZBEKI LANGUAGE IS THE NEED OF THE TIME

Abstract

This article discusses the application of computer technologies to our native language and the use of thesaurus, that is, a general or special dictionary that shows the semantic relations between lexical units in modern linguistics, a special type of such dictionaries and its importance. Author purposefully used scientific sources in Uzbek and Russian, as well as various dictionaries and scientific research works, turned to examples and evidences that differentiate these concepts and phenomena, and made appropriate scientific conclusions on the topic.

In particular, in the article, issues such as the difference between the concepts of dictionary and thesaurus, that both of them serve to know words and their meanings, but their methods of providing information about the meanings of words are different.

For example, thesauruses, which are part of computer linguistics, are explained by the fact that they provide extensive information about lexemes' own and figurative meanings, communication features, and emotional-expressive functions.

In the article, these issues have found their clear scientific and practical expression.

Key words: *computer, thesaurus, communication, terminology, dictionary, lexeme, sema, term, adequate, fund, parameter, structure, equivalent, model.*

Mavzuning dolzarbligi. Tezaurus – hozirgi kundagi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi semantik aloqalar – omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni ko'rsatadigan umumiy yoki maxsus lug'at, shunday lug'atlarning maxsus turi hisoblanadi. Bu lug'at boshqa lug'atlardan farqli o'laroq, biror bir ilm-fan sohasiga oid lug'aviy birliklar yoki biror mavzu tarkibida joylashtirilgan ana shunday birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'atdir. Unda kerakli so'zlar tushunchaga qarab qidiriladi.

Nazariy jihatdan tezaurus leksik-semantik tizimning ehtimoliy modellaridan biridir. Amalda undan individual lugʻatni boyitish va tezkor qidiruv vositasi sifatida foydalaniladi. Shu maʼnoda tezaurus lugʻatning aksi hisoblandi.

Odatda, biror-bir soʻzning maʼnolarini emas, balki soʻzning oʻzini qidirilganda, tezauruslarga murojaat qilinadi. Yaʼni bu yerda tushuncha maʼlum boʻlsa-da, biroq shu tushuncha ostidagi soʻzlar guruhi yoki soʻz shakllari haqida maʼlumotlar olinadi. Bu tizim ichida turgan boʻlishi mumkin-u, ammo soʻzning oʻzi nimaligini bilmasligimiz mumkin. Shu bois, manbalarda taʼkidlanganidek, tezaurus – bu lugʻat boʻlib, soʻzlar uchun omborxona vazifasini oʻtaydi.

Tezaurus umumiy maʼnoda – maxsus terminologiya, yaʼni lugʻat, maʼlumotlar yigʻindisi, korpus yoki jamlanma, maʼlum sohadagi bilimlar yoki faoliyat sohasidagi tushunchalar, taʼriflar va terminlarni toʻliq oʻz ichiga oladi.

Tezaurus – yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, *“xazina”*, *“boylik”*, *“zaxira”* demakdir. Mazkur tushuncha maxsus bilimlar sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, taʼriflari va atamalarini matnlarda ishlatish misollari bilan toʻliq qamrab oluvchi maʼlumotlar toʻplami hisoblanadi (Suyunov, 2022, 23-b.).

Tezaurus muayyan tilda barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan lugʻat. Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksik birliklarni yoppasiga terib olishga asoslangan (masalan, yunon, lotin tillarida tuzilgan) lugʻatlar shunday lugʻatlardan hisoblanadi. Soʻz tanlash tamoyillariga koʻra yozuvchilar yoki ularning ijodiga mansub biror asar tili boʻyicha tuzilgan lugʻatlar ham tezaurus hisoblanadi.

U leksik-semantik, korporativ kommunikatsiya (bir fan yoki kasb orqali oʻzaro bogʻliq boʻlgan shaxslarning muloqotda bir-birlarini tushunishlari) uchun xizmat qiladi. Tezauruslar maʼlum bir fanni talqin qilishda muhim vositalardan biridir. Tezaurus tushunchasini yuqoridagi sifatlari bilan birgalikda, lugʻatning bir turi deb olsak, unda quyidagicha qiyosiy fikr yuritishimiz mumkin:

Lugʻat va tezaurus tushunchalarining har ikkisi soʻz va uning maʼnolarini bilish uchun xizmat qilsa-da, biroq ularning soʻz maʼnolari haqida maʼlumot berish usullari har xil, yaʼni oʻzaro farqlanadi.

Lugʻat va tezaurus soʻzlari lugʻaviy maʼnosiga koʻra, ot hisoblanadi. Lugʻat koʻproq til oʻrganuvchilar tomonidan soʻzlarning maʼnolari, talaffuzi va orfografiyasini aniqlash uchun ishlatilsa, tezaurus tadqiqotchilar tomonidan soʻzning sinonim, antonim, omonim va boshqa maʼno shakllarini topish uchun ishlatiladi.

Tezaurus – soʻz yoki terminning tegishli tushunchalar guruhidagi roʻyxati. U murojaat qilinayotgan soʻz bilan bir xil boʻlgan boshqa soʻzlar toʻgʻrisida ham keng qamrovli maʼlumotlar beradi.

Aksariyat tadqiqotchilar sinonim, antonim, paronim va boshqa shu kabilarni bilish uchun tezaurusdan foydalanishadi (Rasulov, Suyunov, Moʻydinov, 2010, 74-b.)

Odatda, tezaurus tilda soʻzlarning kelib chiqishiga unchalik bogʻliq boʻlmaydi, xususan, soʻzlarning etimologiyasi haqida qoʻshimcha maʼlumotlar bermaydi. Ammo, tezaurus soʻzlarning boshqa shakllari, masalan, nominal shakllari, sifatlar va adverbial shakllar haqida juda koʻplab maʼlumotlar beradi.

Lugʻat – bu tildagi soʻzlarni (odatda alifbo tartibida) roʻyxatga oladigan va ularning maʼnosini izohlab beradigan yoki shunday soʻzlarni boshqa tilda beradigan, koʻpincha, toʻgʻri talaffuz haqida maʼlumot beradigan kitob yoki elektron manba hisoblanadi. Boshqacha qilib ifodalasak, lugʻat tildagi soʻzlar haqida bilim beradigan etimologik va grammatik vositadir.

Lugʻatda soʻzning jinsi va nutqda ishlatilishi haqida qoʻshimcha maʼlumotlar mavjud. U tildagi birorta soʻz bilan bir qatorda, unga qoʻshimcha ravishda maʼlumotlar ham berishi mumkin. Lugʻat bir nechta aniq tillarda tuzilishi mumkin, masalan, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarda. Bir tilda tuzilgan lugʻatda boshqa tillardagi shu soʻzning ekvivalent maʼnolari ham beriladi. Odatda, bu sifatlar tezaurusga tegishli emas.

Birinchi zamonaviy ingliz tezaurusi Piter Mark Roger tomonidan 1805-yilda yaratilgan. Mazkur tezaurus 1852-yilda Angliyada nashr etilgan, taxminan 15 mingta tushunchani oʻz ichiga oladi va shu vaqtdan beri foydalanib kelinadi. Bunday lugʻatlarning asosiy maqsadi matn yozishda tegishli soʻzlarni tanlashga yordam berish, mavzu doirasida atama yoki termin oʻrtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi maʼlumotlarni qidirib topishdan iborat. Bunday lugʻatlar maʼlum bir soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan va mavzu doirasidagi maʼlumotni qidirib topish uchun moʻljallangan.

1870-yillarda tezauruslardan maʼlumot izlash ishlarida faol foydalanila boshlandi. Shunday lugʻatlardan yana biri Vikilugʻat deb ataladi. U koʻp tilli bepul yangilanadigan lugʻat va tezaurus boʻlib, “Vikimediya” fondi loyihasi doirasida yaratilgan va 2004-yildan hozirgi kungacha ishlatilib kelinadi. Unda 250 mingta tushuncha va 67 mingta semantik munosabatlar oʻz aksini topgan.

Rus tilidagi xuddi shunday tezauruslardan biri “RuTez” deb nomlangan. Bu lugʻat 1997-yilda Axborot tadqiqotlar markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya vositasi sifatida yaratilgan. U hozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan 45 mingta tushuncha, 107 mingta soʻz va iboralar, 177 mingta semantik munosabatlarni qamrab oladi.

Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasida tezaurus terminiga quyidagicha izoh berilgan: “Tezaurus (yun. thesaurus – “xazina”, “boylik”) – 1) muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan lugʻat” (Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004, 329-b.).

Tezaurus – bu lug‘atlar tushunchasi va uning birliklari o‘rtasidagi sobit semantik aloqalar bo‘lib, har ikkala mustaqil xususiyat ham tushunchani aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tezaurus termini, avvalambor tilning lug‘at fondini maksimal darajada to‘liqlik bilan ifodalaydigan xazina sifatida talqin etiladi. Matnlarning adekvat talqini va ma‘lumotlari uning sistem ma‘nolarini o‘zida mujassam etgan va soha vakillari tomonidan e‘tirof etilgan tezaurusda aniqlanadi” (Валитова, 2012, 19-b.).

Hozirgi vaqtda ushbu tushunchaga kompyuter texnologiyalarida so‘zlarni qidirishda axborot texnologiyalarining tarqalishi, Internet va mashinalarning tarjimasi bilan bog‘liq lug‘atlar kiradi. Psixologiyada shaxsning tezaurusi ma‘lumotni idrok etish va tushunish bilan xarakterlanadi. Bunda aloqa nazariyasi va uning elementlari o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan murakkab tizimning umumiy tushuncha-tezislari ko‘rib chiqiladi.

Kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo‘lgan tezauruslar leksemalarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsional-ekspressiv vazifalari haqida keng ma‘lumot berishi bilan qimmatlidir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma‘lumotlar XX asrning qirqinchi yillarida yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan (Kutuzov, 314-b.). O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o‘rganila boshladi.

Xususan, Sh.M.Hamroyevaning “O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari” nomli dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida birinchi marta korpus, uning o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, til korpusining lingvistik hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan (Hamroyeva, 2018, 15-b.) Shuningdek, korpus lingvistikasining shakllanish tarixi, taraqqiyot yo‘li, o‘ziga xos xususiyatlari va bugungi holati masalalari atroflicha talqin qilingan.

O‘zbek tilini jahon tillari qatorida rivojlantirish, uni dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o‘rganish hamda o‘rgatishda kompyuter lingvistikasi fani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma‘lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining mashina yordamida qisqa muddatlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biridir. “Amaliy lingvistika” termini esa ko‘p ma’noli termin bo‘lib, bu termin umumtilshunoslikda har xil talqin qilinadi. G‘arb tilshunosligida *applied linguistics*, *angewandte linguistik* termini, birinchi navbatda, o‘qitish metodikasi, grammatik xususiyatlarni qamrab olgan holda, ona tili va chet tillarini o‘qitish amaliyoti bilan bog‘lanadi.

Aslida mazkur tushunchalar kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishlash tizimi (boshqaruvning avtomatlashgan tizimi, informatsion

qidiruv tizimi, matnni qayta ishlashning avtomatik tizimi) shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Ayrim rus tilidagi adabiyotlarda, ko'p hollarda, "kompyuter lingvistikasi" ("computational linguistics"), "hisoblash lingvistikasi", "avtomatik lingvistika", "injener lingvistikasi" tarzida qo'llaniladi (Баранов, 2001, 5-b.). Amaliy lingvistikaning mazkur nomlar bilan yuritilishi uning faoliyati xarakterini belgilaydi. Ushbu terminlarda amaliy lingvistikaning integratsiyaga asoslanishi, avtomatlashish xususiyati o'z ifodasini topgan.

Xulosa

1. Tezaurus – bu umumiy ma'noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta'riflari, atama yoki terminlarini to'liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, obyektiv lug'at, ma'lumotlar to'plami, korpus yoki kod, demakdir.

2. Tilda tezauruslar elektron formatda, alohida fan sohalarini tavsiflashning samarali vositalaridan biri bo'lib, kommunikatsiyaning eng qulay va keng qamrovli elektron shaklidir.

3. Biror fan yoki kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar va shu munosabatlardagi tushunchalarni innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi. U nafaqat so'z ma'nolari, balki intellektual tizimlarning ilmiy asoslarini to'ldirishda ishlatilishi mumkin bo'lgan so'zlarni boshqa tushunchalar va ularning guruhlar bilan o'zaro bog'liqlikda ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Amaliy tavsiyalar. Lingvistik masalalarni tezkor hal etishda, kompyuter texnologiyalari va informatikaning o'rni beqiyosdir. Ularning milliy tilshunoslikka tatbiq etilishi axborotlarning tezkorlik bilan o'zlashtirilishini, shuningdek bajariladigan amallarning aniqligini ta'minlaydi. Tilshunoslik muammolarining kompyuter yordamida hal qilinishi, ayni paytda, tilning qo'llanish doirasi kengayishi, ichki imkoniyatlarning ortishiga xizmat qiladi.

Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o'ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo'ygandagina lingvistik taraqqiyot omili bo'la oladi.

Shuningdek, turli xil lug'atlar va tezauruslarga ham innovatsion kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kundagi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

Баранов А. (2001). *Введение в прикладную лингвистику*.

Валитова Н.Р. (2012). *Формирование профессионального тезауруса и студентов физкультурного вуза. Автореф. На соискание учёной степени канд. пед. наук.*

Kutuzov A.B. Kurs “*Korpusnaya lingvistika*”. Litsenziya Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - // lab314.brsu.by/kmp-lite/ kmp-video/ CL/ CorporeLingva.pdf

Mahkamov N. (2011). Terminologik tamoyillar va xalqaro terminelementlar. // *Xorijiy soʻz va terminlardan foydalanishda meʼyor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari*.

Mirahmedova Z. (2010). *Oʻzbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari*. Fan.

Rasulov R., Suyunov B., Moʻydinov Q. (2010). *Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati*.

Suyunov B.T. (2022). *Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi*. Monografiya.

Eshmoʻminov. A. (2019). Oʻzbek tili milliy korpusining sinonim soʻzlar bazasi. *Filol. f. boʻyicha f.d.(PhD) diss. avtoref.*

Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2004).

Oʻzbek tilining izohli lugʻati. (2006). Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi.

Hamroyeva Sh.M. (2018). Oʻzbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. *Filol. f. boʻyicha f.d.(PhD) diss. avtoref.*

TERMINLAR TIZIMIDA GIPONIMIYA VA EKVONIMIYA HODISALARI

Ixtiyor Ermatov*

Annotatsiya

Soʻz tilning asosiy birligidir. Tilni nutq tovushlarisiz, grammatik shakllarsiz va kommunikatsiya jarayonidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Nutq tovushlari tizimi, morfologik shakllar majmuasi va kommunikatsiya uchun xizmat qiluvchi qurilmalar – hammasi birgalikda tilni, uning bir butun organizmini tashkil etadi. Shularning barchasi soʻz yordamida shakllanadi. Soʻzning funktsional-semantik koʻrinishlaridan biri termindir. Soʻz va terminlar tilning mazmun jabhasiga “qisman oʻxshashligi” shundaki, soʻzlarning mazmun jabhasi, yuqorida ham aytilganidek, umumxalq xotirasida mushtarak rasmiylashgan maʼnolarni oʻz ichiga olsa, terminlarning mazmun jabhasi muayyan fan-texnika va kasb-hunarga

* Filologiya fanlari doktori, dotsent, Guliston davlat universiteti, ermatov.ixtiyor@mail.ru

ixtisoslashgan ayrim guruh shaxslar xotirasida mushtarak rasmiylashgan *tushunchalarni* o'z ichiga oladi. Tushuncha va ma'no, garchand tilning mazmun jabhasiga tegishli mushtarak hodisalar sanalsa-da, ular o'zaro farq qiladi: tushunchaning "amal hajmi" ma'noning "amal hajmi"dan kengdir, chunki ma'no tushuncha doirasiga kiruvchi ideal birlik hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek intralingvistik (immanent) tilshunosligi terminologik tizimining mazmun plani bilan bog'liq funktsional-semantik xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, u sintaksisning zamonaviy yo'nalishlarining terminologik tizimlari masalalariga bag'ishlanadi. Tilshunoslikning sintaksis bo'limining terminlari maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *so'z, termin, sintaksis, so'z birikmasi, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, matn, giponim, giperonim, ekvonim va b.*

PHENOMENA OF HYPONYMY AND EQUONYMY IN THE SYSTEM OF TERMS

Abstract

Word is the basic unit of language. It is impossible to imagine language without speech sounds, grammatical forms and outside the process of communication. A system of speech sounds, a set of morphological forms and devices serving for communication - all together make up the language, its whole organism. All this is formed with the help of words. One of the functional-semantic forms of a word is a term. The "partial similarity" of words and terms to the content aspect of the language is that, as mentioned above, the content aspect of the words includes the meanings formalized in the common memory of the people, while the content aspect of the terms is related to certain science, technology and professions. includes the concepts formalized in the memory of some specialized group of individuals. Concept and meaning, although they are common phenomena related to the content aspect of language, they differ from each other: the "scope of action" of the concept is wider than the "scope of action" of the meaning, because the meaning is an ideal unit included in the scope of the concept. In this article, the functional-semantic features of the terminological system of Uzbek intralinguistic (immanent) linguistics related to the content plan are studied, and the issues of the terminological systems of modern directions of syntax are discussed in it. The terms of the syntax department of linguistics serve as illustrative material of the article.

Key words: *word, term, syntax, phrase, equal conjunction, subordinating conjunction, text, hyponym, hyperonym, equonym, etc.*

Turkiy tillar sintaktik qurilishining normativ va empirik maqomda tadqiq etilishida N.K.Dmitriyev, A.I.Kononov, E.I.Syevortyan, N.A.Baskakov, A.G'.G'ulomov, M.B.Balkayev, N.Z.Gadjiyeva, G'.A.Abdurahmonov, M.Asqarova, Y.M.Saidov, M.Z.Zakiyev, A.A.Yuldashyev, U.A.Aliyev, A.J.Japarovlarning xizmatlari kattadir. XX asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek tili sintaktik qurilishini sistem tadbillar asosida ilmiy bosqichda o'rganishga kirishgan H.Ne'matov, I.Qo'chqortoyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Berdialiyev, R.Sayfullayevalarning munosib hissalar bor.

Sintaksis, bir tomondan, so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar ro'yobga chiqadigan bir butunlikni – gapni o'rganadi. Anglashiladiki, morfologik birlik bo'lgan so'zning shakli ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Lekin faqat so'zning boshqa shakllari bilan aloqasi va sintaktik birlik ichida uning bir qismi sifatida bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridagina sintaktik qimmatga ega bo'ladi (Mahmudov, Nurmonov, 1995: 4-b.) Ushbu predmetlarni o'rganadigan bo'limda shu predmetlar bilan bog'liq terminlar ham mavjud. Ular jins-tur va tur-tur munosabatiga kiradi hamda gipero-giponimik, ekvonimik aloqadorlikni namoyish qiladi. Dastlab, bunday xususiyatni *sintaksis* termini misolida ko'rib o'tamiz.

Biz terminlar tizmida giponimiya va ekvonimiya hodisalarini izohlashda quyidagi ilmiy adabiyotlardagi *sintaksisga* oid terminlarga etibor qaratdik (Berdialiyev, 1989, 108-b.) Grammatikaning *sintaksis* (yun. *suntaxis* – tuzish) bo'limida o'zaro bog'lanishli nutq qurilishi o'rganiladi. Bu bo'lim ikki asosiy qismdan *so'z birikmasi sintaksisi* va *gap sintaksisidan* iborat. *Sintaksis* termini gipreonim bo'lsa *so'z birikmasi sintaksisi*, *gap sintaksisi* terminlari uning giponimlarini tashkil etadi.

Sintaksis termini o'rganish obyektidan kelib chiqib, *so'z birikmasi sintaksisi*, *gap sintaksisi*, *matn sintaksisi* terminlari bilan jins-tur munosabatiga kiradi va bu terminlarning giperonimi bo'ladi. Tur maqomidagi terminlar shu giperonimning ichiga kirishi, oidligi belgisiga ko'ra giponimlariga aylanadi. Mazkur terminlar bir-biri bilan gorizontaal aloqaga kirishadi va tur-tur munosabatida bo'ladi. Bunday munosabatda ular differentsial xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Xususan, *so'z birikmasi*, *gap* va *matnning* bog'lanish xususiyatlari o'rganilishiga ko'ra ekvonimik munosabatga kirishib, o'zaro munosabatlarida ekvonimiya hodisasini namoyon qiladi. Ekvonimik munosabatdagi *so'z birikmasi sintaksisi*, *gap sintaksisi*, *matn sintaksisi* terminlari o'zaro ekvonimlarga aylanadi. *Sintaksis* terminining *so'z birikmasi sintaksisi*, *gap sintaksisi*, *matn sintaksisi* terminlarining jins-tur munosabati bilan *so'z birikmasi sintaksisi*, *gap sintaksisi*, *matn sintaksisi* terminlarining tur-tur munosabati o'rtasida giponimiya va ekvonimiya hodisalar kesishadi.

O‘z navbatida, *gap sintaksisi* termini giperonim bo‘lishi mumkin. Xususan, jins maqomida keladi, uning tur maqomidagi terminlari *sodda gap sintaksisi*, *qo‘shma gap sintaksisi* terminlari bo‘ladi. *Sodda gap sintaksisi* termini ostida bir grammatik asosdan iborat birliklar, *qo‘shma gap sintaksisi* termini ostida ikki grammatik asosdan iborat birliklar o‘rganilishi bilan tur-tur munosabati farqlanadi va ular ekvonimlarga aylanadi. Giponim va ekvonimlarning tutashishiga shu tur-tur munosabati xizmat qiladi.

So‘z va gaplarning orasidagi bog‘lanish *sintaktik aloqa* deyiladi. U ikki turli bo‘ladi: *teng bog‘lanish*, yoki *teng aloqa*; *tobe bog‘lanish*, yoki *tobe aloqa*. *Teng bog‘lanish* sintaktik jihatdan teng huquqli bo‘lgan, biri ikkinchisiga bo‘ysunmagan so‘zlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi so‘zlar yoki gaplar o‘zaro *teng bog‘lovchilar*, *teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar*, *sanash ohangi (ohang)* yordamida munosabatga kirishadi. Teng bog‘lanish (teng aloqa) va tobe bog‘lanish (tobe aloqa) *sintaktik aloqa* giperonimining giponimlari maqomida keladi. Shu munosabatdoshlikda (*teng bog‘lanish*, *tobe bog‘lanish*; *teng aloqa*, *tobe aloqa*) ekvonimiya hodisasi yuz beradi.

So‘zlar orasidagi *tobe bog‘lanish* ikki xil bo‘ladi: *predikativ tobe bog‘lanish* va *nopredikativ tobe bog‘lanish*. Ega va kesimning bog‘lanishi *predikativ tobe bog‘lanish* hisoblanadi va bunday bog‘lanishdan gap hosil bo‘ladi. Tobe (ergash) bog‘lanishning qolgan ko‘rinishlari (aniqlovchi/aniqlanmish, to‘ldiruvchi/to‘ldirilmish, hol/hollanmish) *nopredikativ tobe bog‘lanish* bo‘lib, bunday bog‘lanishdan so‘z *birikmasi* yuzaga keladi.

Ega va *kesim* munosabatida ham, *aniqlovchi aniqlanmish*, *to‘ldiruvchi to‘ldirilmish*, *hol hollanmish* munosabatida ham bog‘lanish mavjud. Lekin anglashilganidek *ega* va *kesim* bog‘lanishidan gap hosil bo‘lsa, bog‘lanishning qolgan ko‘rinishlarida esa so‘z *birikmasi* hosil bo‘lmoqda. Mana shu kabi munosabatdoshlikda *predikativ tobe bog‘lanish*, *nopredikativ tobe bog‘lanish tobe bog‘lanish* giperonimining giponimlari va ayni vaqtda ekvonimiya hodisasini yuzaga keltirgan. Shu o‘rinda giponimlar ekvonimlar bilan birga sinkretlashgan.

Odatda, nutqda, gapda so‘zlar ma’lum qonun-qoidalar asosida o‘zaro ma’no va grammatik jihatdan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, *qiziqarli kitob*, *toqqa chiqmoq*, *tez o‘qimoq* kabi. Bunday juftlik bir butunlik hosil qilib, yaxlit, lekin o‘z ichida qismlarga bo‘linadigan bir butun tushunchani bildiradi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘z va so‘z shakllarning *nopredikativ tobe aloqasi* asosida birikishidan hosil bo‘lgan bog‘lama so‘z *birikmasi* deyiladi. So‘zlarning *nopredikativ tobe bog‘lanishi (tobe aloqa)* uch xil bo‘ladi: *boshqaruv aloqasi*, *bitishuv aloqasi*, *moslashuv aloqasi*.

Tobe so‘zning hokim so‘z talab etgan shaklda kelishi *boshqaruv aloqasi* deyiladi. Bunda boshqariluvchi so‘z bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa

kelishik shaklini yoki ko'makchini olib keladi. Qaysi kelishik yoki ko'makchi bilan shakllanish boshqaruvchi so'zning ma'nosi, semantikasi bilan belgilanadi. Masalan: *kitobni o'qimoq, qariyalarga g'amxo'rlik qilmoq, universitetda o'qimoq, ishdan qaytmoq, o'quvchilar bilan suhbatlashmoq* va boshqalar. Boshqaruv ikki xil bo'ladi: *kelishikli boshqaruv aloqasi* va *ko'makchili boshqaruv aloqasi*.

Kelishikli boshqaruv aloqasida boshqariluvchi so'z ma'lum kelishik shaklida qo'llanadi: *kattalarni hurmat qilmoq, toqqa chiqmoq* kabi. *Ko'makchili boshqaruv aloqasida* boshqariluvchi so'z ko'makchi orqali shakllanadi: *ukasi bilan kelmoq, telefon orqali gaplashmoq* kabi. Boshqaruv usuli bilan bog'lanish to'ldiruvchi-to'ldirilmish, hol-hollanmish munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Tobe so'z hokim so'zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bog'lanadigan sintaktik aloqa *bitishuv aloqasi* deyiladi. Masalan, *tinch hayot, yaxshi o'quvchi, tez yurmoq* kabi.

Moslashuv aloqasida tobe so'z o'z shaklini hokim so'zga moslaydi, shu tipda hokim so'zga bog'lanadi, hokim so'z o'zgarsa, tobe so'z ham shunga mos holda shaklini o'zgartiradi. O'zbek tilida moslashuv asosan ega-kesim va qaratuvchi-qaralmish aloqasida bo'ladi: *men aytyapman, sen aytyapsan, u aytyapti; mening iltimosim, sening iltimosing* kabi.

Boshqaruv aloqasi, bitishuv aloqasi, moslashuv aloqasi tobe aloqa giperonimining giponimlaridir. Boshqaruv aloqasi, bitishuv aloqasi, moslashuv aloqasi ma'nolaridagi farqlanish ekvonimik munosabatlarni yuzaga chiqargan.

Kelishikli boshqaruv aloqasi, ko'makchili boshqaruv aloqasi boshqaruv aloqasi giperonimining giponimlari maqomida ekvonimik munosabatlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Bog'li aloqa tushunchasi bilan bog'langan jins-tur, tur-tur munosabati *boshqaruv* terminida yana davom etadi. Xususan, boshqaruvning kelishikli yoki ko'makchili bo'lishi mumkinligi bu uch terminni yangi gipero-giponimik va ekvonimik munosabatga tortadi. *Boshqaruv, kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv* terminlari o'rtasida bo'lgan jins-tur munosabatida *boshqaruv* termini giperonim, *kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv* terminlari uning giponimlari bo'ladi. Keyingi ikki terminning lingvistik mohiyat-mundariyasi kelishikli bo'ladimi, ko'makchili bo'ladimi, baribir, boshqaruv aloqasiga mansubligi nuqtai nazaridan bir giperonim – boshqaruv asosida birlashadi. O'z navbatida, ta'kidlash kerakki, *kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv* terminlari bir-biridan kelishik va ko'makchi vositasida boshqarilishi bilan farq qiladi, bu differentsial xususiyatlar terminlarning o'zaro ekvonimik munosabatga kirishishini ta'minlaydi.

So'z birikmalari hokim qismning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: *otli birikma, fe'lli birikma, sifatli birikma, ravishli birikma, modal so'zli birikma*. So'z birikmasi giperonim bo'lsa, *otli birikma, fe'lli*

birikma, sifatli birikma, ravishli birikma, modal soʻzli birikma terminlari uning giponimlaridir.

Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra ham ikki xil boʻladi: *oddiy soʻz birikmasi* va *murakkab soʻz birikmasi*. Soʻzshakl bilan soʻz (leksema)ning yoki ikki soʻzshaklning bogʻlanmasi *oddiy soʻz birikmasi* hisoblanadi: *keng dala, tekisroq yoʻl, tinchlikka daʼvat qilmoq, davlatlarning hamdoʻstligi, maktab hovlisi. Murakkab soʻz birikmasida* birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi soʻz birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, *mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh boʻlgan kishi* kabi soʻz birikmalarining tobe qismi (“mehnat qilishni sevadigan”, “odamlarga xayrixoh boʻlgan”) soʻz birikmasi shaklida qoʻllanib, hokim soʻzga bitishuv yoʻli bilan bogʻlangan. Bu oʻrinda *soʻz birikmasi* giperonim, *oddiy soʻz birikmasi, murakkab soʻz birikmasi* soʻz birikmasining giponimlari boʻlib kelgan.

Sintaxisning asosiy mazmuni sintaktik aloqada aks etadi. Til birliklarining asosiy amali ham sintaktik aloqa bilan boʻladi. Sintaktik aloqa yoʻnalishiga koʻra ikkiga boʻlinadi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinatsiya), b) bir tomonlama aloqa (subordinatsiya) (Mahmudov, Nurmonov, 1995, 21-b.). Anglashildiki, jins-tur munosabatida *sintaktik aloqa* termini giperonim boʻladi, uning giponimlariga *ikki tomonlama aloqa* (koordinativ aloqa), *bir tomonlama aloqa* (subordinativ aloqa) terminlari aylanadi. Giperonim termin bu yerda ikki giponim uchun umumiy xarakterli, giponimlar giperonimga mansub, uning ichki turlari. *Bir tomonlama aloqa* va *ikki tomonlama aloqa* terminlari tobelanib bogʻlanishning yoʻnalishiga asoslanib, bir-biridan farqlanadi. Shu farqlanish terminlarning ekvonimligi amalini taʼminlaydi, oʻzaro ekvonimiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Maʼlumki, tobe qismning qanday shaklda kelishi hokim qismga bogʻliq boʻlgan aloqa *bogʻli aloqa* deyiladi. Masalan, *kitobni oʻqi* birikmasida tobe qism oʻtimli feʼldan ifodalangan hokim qism talabiga muvofiq tushum kelishigida keladi. Bogʻli aloqa uch turga boʻlinadi: a) moslashuv; b) boshqaruv; v) bitishuv (Mahmudov, Nurmonov, 1995, 22-b.). Mazkur iqtibos bizga giperonim va giponimlarni koʻrsatib bermoqda. Giperonim – *bogʻli aloqa* termini; giponimlar – *moslashuv, boshqaruv, bitishuv* terminlari. Ushbu terminlar tobe va hokim qismlarning oʻzaro bir-biriga bogʻliqligiga koʻra integral belgini namoyon qiladi. Shu xususiyat ularni jins-tur munosabatiga kiritgan, oʻz giperonimiga boʻysundirgan. Giponimik terminlar oʻzaro tur-tur munosabatiga tortilganda integral belgi rol oʻynamaydi, balki differentsial belgi sintaktik aloqaning asosini tashkil qiladi, terminlar bir-biri bilan ekvonimik munosabatdorlikda boʻladi.

Sintaksisda oʻrganiladigan asosiy sintaktik birlik *gap* hisoblanadi. Gap – kishilar nutqining eng kichik birligi boʻlib, u grammatik jihatdan tashkil qilingan, mazmun va ohang jihatdan nisbiy tugallikka ega boʻlgan soʻzlar bogʻlamasi yoki yakka soʻzdir. Aloqa birligi boʻlmish *gap* fikrni ifodalash va shakllantirish birligi

hamdir. Shunga ko‘ra gap kommunikativ (aloqa qilish) va kognitiv (fikir ifodalash) vazifalarni bajaradigan nutq birligi sanaladi. Gapning mazkur xususiyatlari uni so‘zdan va so‘z birikmasidan farqlaydi. O‘zbek tilida gaplar turli nuqtai nazardan tasnif qilinadi: *Ifoda maqsadiga ko‘ra. Emotsionalikka ko‘ra. Tuzilishiga ko‘ra.* Ifoda maqsadiga ko‘ra va bu maqsad bilan bog‘liq bo‘lgan ohangga ko‘ra gaplar *darak, so‘roq, buyruq* gaplarga ajratiladi. Tuzilishiga ko‘ra gaplar *sodda va qo‘shma* bo‘ladi. Gaplarning bunday bo‘linishi ularning tarkibidagi predikativlik birliklarning soniga, miqdoriga asoslanadi.

So‘roq gaplar so‘roqning xususiyatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: *sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, so‘roq buyruq gaplar.* *Sof so‘roq gaplar* tinglovchidan so‘roqqa javobni talab qiladi. Masalan: Kechagi maqola nima bo‘ldi, Rahim aka? (F.Musajonov). Qishloq xo‘jalik bo‘limi shumi? (F.Musajonov). *Ritorik so‘roq gaplarda* so‘roq ichida uning javobi ham anglashilib turadi. Masalan: Dunyoda sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko‘radigan kishining yuziga oyoq bosishdan og‘ir jinoyat bormi? (A.Muhiddin). *So‘roq-buyruq gaplar* so‘roq orqali buyruq jilvasini o‘z ichiga oladi. Masalan: Aka, nega indamaysiz? (P.Qodirov). Uka, Murtazobekning o‘zi qayerdaligini aytib berolmaysizmi? (O‘.Usmonov).

Sintaksis terminlari ichida *gap* termini har xil jins-tur, tur-tur munosabatlarini o‘zida namoyish qiladi. Gapning sintaktik xususiyatlari, semantik o‘ziga xosliklariga ko‘ra turlari har xil bo‘ladi. *Sof so‘roq gap* va *ritorik so‘roq gap* terminlari bir-biri bilan javob talab qilish va javob talab qilmasligi asosida differensiatsiyalashadi va differensial xususiyatiga ko‘ra ekvonimga aylanadi. Giponimiya va ekvonimiya hodisalari tur-tur munosabatida tutashmoqda.

Gaplar emotsionallikka ko‘ra ikki xil bo‘ladi: *his-hayajonsiz gaplar* va *his-hayajon* yoki *undov gaplar*. Yuqorida keltirilgan xususiyatlariga ko‘ra *gap* giperonimi dastlab quyidagi giponimlarni o‘z ichiga oladi: *sodda gap, qo‘shma gap* (tuzilishiga ko‘ra); *darak gap, so‘roq gap, buyruq gap* (ifoda maqsadiga ko‘ra); *his-hayajonli gap, his-hayajonsiz gap* (emotsionallikka ko‘ra). Bu giponimlar o‘zaro farqlanib ekvonimlikni hosil qiladi. Xuddi shu holat *so‘roq gap* giperonimining *sof so‘roq gap, ritorik so‘roq gap, so‘roq buyruq gap* kabi giponimlarida ham ko‘rish mumkin.

Gapda biror so‘roqqa javob bo‘lgan va o‘zaro tobe bog‘langan so‘z yoki so‘z birikmasi *gap bo‘lagi* deyiladi. Gap bo‘laklari ikki turga ajratiladi: *bosh bo‘laklar* va *ikkinchi darajali bo‘laklar*. Gapning *bosh bo‘laklari* ega va kesim bo‘lsa, *ikkinchi darajali bo‘laklarni* aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol tashkil etadi.

Sintaksisda *gap bo‘laklari* masalasi alohida qimmatga ega. Gapning *bosh bo‘lagi bo‘lgan kesim* ifoda materialiga ko‘ra (qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra) ikki turga ajratiladi: *fe‘l kesim* va *ot kesim*.

Kesim tuzilishiga ko‘ra ham ikki xil bo‘ladi: *sodda kesim* va *tarkibli kesim*.

1) *sodda kesim* yakka bir asosli fe'llar bilan ifodalangan kesimlar hamda bog'lamasiz kelgan ot kesimlardir. Sodda kesim ifoda materialiga ko'ra ikki xil: *sodda fe'l kesim*, *sodda ot kesim*.

a) *sodda fe'l kesim* tuslangan fe'l, ravishdosh, sifatdosh bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: Ot yiqilayotganda, Humoyun oyoqlarini uzangidan chiqarib egardan qumga sakradi. (P.Qodirov). Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi. (Ch.Aytmatov).

b) *sodda ot kesim* fe'ldan boshqa so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov so'z, modal so'z, shuningdek, fe'lning harakat nomi bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: Yolg'onchi kishi har kim qoshida beobro'dir. ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur") Keng-keng ko'chalari boru, lekin markazi tiqilinch. (P.Qodirov). Soyda tosh ko'p, terib chiqaraverasan. (P.Qodirov).

2) *tarkibli kesim* ikki va undan ortiq so'z shakllarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan kesimdir. U doim yetakchi va yordamchi qismlardan tashkil topib, yetakchi qism asosiy ma'noni, yordamchi qism qo'shimcha ma'noni ifodalaydi. Ifodalanishiga ko'ra tarkibli kesim ham ikki xil: *tarkibli fe'l kesim*, *tarkibli ot kesim* bo'ladi.

a) *tarkibli fe'l kesim* fe'lning analitik shakli bilan ifodalanadi. Bunda o'zining leksik ma'nosini saqlagan fe'l yetakchi fe'l, qolganlari esa ko'makchi fe'l yoki to'liqsiz bo'lib, yetakchi fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Yetakchi fe'l asosan ravishdosh shaklida bo'ladi. Masalan: Bu yumshoq, mulohazali odamga yotoqdoshlarning mehri oshib qolgan edi. (A.Muxtor). O'rmon ichidan qushlarning sayrashi... eshitilib turadi. (P.Qodirov).

b) *tarkibli ot kesim* fe'ldan boshqa so'z turkumlarining bog'lama bilan birikishidan yuzaga keladi. Bunda tarkibli ot kesimning ot qismini ot, sifat, son, olmosh, ravish yetakchi qismini tashkil qiladi, yordamchi qismini esa bog'lama vazifasidagi "bo'lmoq", "sanalmoq", "hisoblanmoq", "tuyulmoq" kabi fe'llar, shuningdek, "edi", "ekan", "emish" to'liqsiz fe'li tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan munosabatdoshlikdan *gap bo'lagi* giperonimining giponimlarini *bosh bo'laklar* va *ikkinchi darajali bo'laklar*; *bosh bo'laklar* giperonimining giponimlarini *ega, kesim*; *ikkinchi darajali bo'laklar* giperonimining giponimlarini *aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol*; *kesim* giperonimining giponimlarini (ifoda materialiga ko'ra) *fe'l kesim, ot kesim*; *kesim* giperonimining giponimlarini (tuzilishiga ko'ra) *sodda kesim, tarkibli kesim*; *sodda kesim* giperonimining giponimlarini *sodda fe'l kesim, sodda ot kesim*; *tarkibli kesim* giperonimining giponimlarini *tarkibli fe'l kesim, tarkibli ot kesim* tashkil etmoqda. Keltirilgan gipero-giponimik munosabatlaridan ekvonimik hodisalar yuzaga chiqmoqda. Shu bilan birga ekvonimik paradigma ham hosil bo'lgan. *Gap bo'laklari* tizimida bu jarayon yana boshqa gipero-giponimik munosabatlarni hosil qilib, taggruhlarga bo'linib ketaveradi.

O'zbek tilshunosligida eng ko'p muhokama qilingan gap bo'lagi *kesim* hisoblanadi. Mustaqillik davrida o'zbek tilshunoslari kesimni gapning markaziy bo'lagi sifatida tan oldilar. Kesimning gapni shakllantiruvchilik rolini aniq ko'rsatib berdilar. Bizningcha, kesim termini bilan bog'liq holatda gipero-giponimik hamda ekvonimik munosabatlar reallashadi. Jins-tur munosabatida *kesim* giperonim vazifasida kelganda unga *ot kesim* va *fe'l kesim* terminlari giponim bo'ladi. Teskari yo'nalishda talqin qilinganda ham *ot kesimmi*, *fe'l kesimmi*, baribir, *kesim* umumiy nomi ostida birlashadi. Biroq giponimlarning giperonimga munosabatida farqlanish sezilmasa-da, giponimlarning gorizontal yo'nalishdagi tur-tur munosabatida kesim vazifasidagi so'zning qanday turkumda ekanligi giponim maqomidagi terminlarni ekvonimga aylantiradi, mazkur terminlar tur-tur munosabatidagi farqli xususiyatlarida giponimlar bo'lib qola olmaydi. Giponimiya hodisasi o'rnida ekvonimiya hodisasi shakllanadi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: *to'ldiruvchi* (vositali to'ldiruvchi va vositasiz to'ldiruvchi), *aniqlovchi* (sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi aniqlovchi), *hol* (o'rin holi, payt holi, ravish holi, maqsad holi, sabab holi...); *gapning ajratilgan bo'laklari* qaysi gap bo'lagiga oid ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: *ajratilgan to'ldiruvchilar*, *ajratilgan aniqlovchilar*, *ajratilgan izohlovchilar*, *ajratilgan hollar*; *ajratilgan aniqlovchilar* yana ikkiga bo'linadi: *ajratilgan sifatlovchi*, *ajratilgan qaratuvchi* kabi (Abdurahmonov, 1958, 327-b.).

Shuni alohida ta'kidlashni istardikki, gipero-giponimik munosabatda giperonim va giponimlar o'rtasida hokim – tobelik aloqasi ko'zga tashlanadi. Undan farqli ravishda tur-tur munosabatida ekvonimlar o'rtasida hokim – tobelik aloqasi o'rnida teng munosabat amal qiladi (Abdualiyeva, 2015, 24-b.). Ana shunday teng va tobe munosabatdagi *to'ldiruvchi*, *aniqlovchi*, *hol* terminlari tizimida ham giponimiya va ekvonimiya hodisalari tutashadi. Masalan, *to'ldiruvchi* giperonimining giponimlari bo'lgan *vositali to'ldiruvchi* va *vositasiz to'ldiruvchi* terminlari tur-tur munosabatida giponimligini yo'qotib, ekvonimga aylanadi. *Aniqlovchi* termini doirasida *sifatlovchi aniqlovchi* va *qaratqich aniqlovchi* terminlari o'zaro differensiatsiyaga kirishib, ekvonimiya hodisasini namoyon qiladi.

Yuqorida ham ta'kidlaganimiz kabi gaplar tuzilish jihatdan ikki guruhga bo'linadi *sodda gap* va *qo'shma gap*. *Sodda gap* bir predikativ birlikdan iborat bo'lib, uning tarkibi ayrim gaplarga bo'linmaydi. *Qo'shma gap* mazmun va grammatik jihatdan birikkan ikki va undan ortiq predikativ birliklardan tuzilib, uning tarkibi ikki va undan ortiq gaplarga bo'linadi. Sodda gaplar grammatik asosining tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: *ikki bosh bo'lakli gaplar* va *bir bosh bo'lakli gaplar*

Grammatik asosi ikki bosh bo'lakdan ega va kesimdan iborat bo'lgan gaplar *ikki bosh bo'lakli gaplar*, bir bosh bo'lakdan iborat bo'lsa bir bosh bo'lakli gaplar

deyiladi. *Bir bosh bo‘lakli gaplarga* shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gaplar, atov (yoki nominativ) gaplar, infinitiv va vokativ gaplar kiradi.

Sodda gaplar bo‘laklarga ajralish-ajralmasligiga ko‘ra ham turlarga ajratiladi. Bu jihatdan ular ikkiga bo‘linadi: *bo‘laklarga ajraladigan gaplar* va *bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar*.

Sodda gap (grammatik asosining tarkibiga ko‘ra) giperonimining giponimlarini *ikki bosh bo‘lakli gaplar*, *bir bosh bo‘lakli gaplar* hosil qiladi. *Ikki bosh bo‘lakli gaplar* giperonimining giponimlari *ega*, *kesim*. *Bir bosh bo‘lakli gaplar* giperonimining giponimlari *shaxsi aniq gap*, *shaxsi noaniq gap*, *shaxsi umumlashgan gaplar*, *atov (yoki nominativ) gaplar*, *infinitiv va vokativ gaplar* tashkil etadi.

Hozirgi kunda mavjud adabiyotlarda *qo‘shma gaplar* quyidagi turlarga ajratilganligini ko‘rish mumkin:

1. Ikki komponentli qo‘shma gaplar.
2. Ko‘p komponentli qo‘shma gaplar.
3. Murakkab qo‘shma gaplar.
4. Bog‘lovchili qo‘shma gaplar.
5. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.
6. Bog‘langan qo‘shma gaplar.
7. Ergash gapli qo‘shma gaplar.
8. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar (Hamroyev, 2007, 431-b.).

Yuqorida keltirilgan qo‘shma gap turlari quyidagicha paradigma hosil qiladi. *Qo‘shma gap* giperonimining giponimlarini (1-2-3-tur qo‘shma gaplarning tuzilishi, material belgisiga ko‘ra) *ikki komponentli qo‘shma gaplar*, *ko‘p komponentli qo‘shma gaplar*, *murakkab qo‘shma gaplar* tashkil etadi.

Qo‘shma gap giperonimining giponimlarini (4-5-turda qo‘shma gap qismlarini bog‘lashda bog‘lovchilarning ishtiroki yoki ishtirok etmasligiga ko‘ra) *bog‘lovchili qo‘shma gaplar*, *bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar* tashkil etadi.

Qo‘shma gap giperonimining giponimlarini (6-7-8-turda esa komponentlarning ma‘lum mazmun munosabatlari, bog‘lanishi, grammatik belgilari, tuzilishi va ohangiga ko‘ra) *bog‘langan qo‘shma gaplar*, *ergash gapli qo‘shma gaplar*, *bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar* tashkil etadi.

Bu yerda qo‘shma gaplar uch nuqtai nazardan, uch xil mezon asosida tasnif qilingan. Ana shunga ko‘ra *qo‘shma gap* giperonimi uchta paradigma hosil qilgan.

Qo‘shma gaplarning tasnifi bu bilan yakun topmaydi. Aloqa munosabatiga ko‘ra *qo‘shma gaplarni* yana uch turga bo‘lish mumkin:

1. Teng tarkibli (aloqali) qo‘shma gaplar.
2. Tobe tarkibli (aloqali) qo‘shma gaplar.
3. Aralash tarkibli (aloqali) qo‘shma gaplar.

Qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmun-munosabati, strukturasi va birikish yo'llari xilma xildir. Shularni hisobga olganda, qo'shma gaplar uch turga bo'lib o'rganiladi: *bog'langan qo'shma gap*, *ergashgan qo'shma gap*, *bog'lovchisiz qo'shma gap*. Bog'lanish yo'llari va mazmun munosabatiga ko'ra qo'shma gap:

a) *bog'langan qo'shma gap* – teng aloqada bo'ladi hamda biriktiruvchi, zidlov, ayiruv, qiyoslash va izohlash, sabab-natija, payt munosabatlarini ifodalaydi;

b) *ergashgan qo'shma gap* – bosh gapga nisbatan ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, ravish, o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor, shart, to'siqsizlik, o'xshatish, chog'ishtirish, natija munosabatlarini ifodalaydi;

v) *bog'lovchisiz qo'shma gap* – (faqat ohang orqali bog'langan) biriktiruv, zidlov, payt, shart, to'siqsizlik, natija, sabab, o'xshatish, izohlash munosabatlarini ifodalaydi (Sayfullayeva, 1993: 46-b.) Keltirilgan munosabatdoshlikdan *qo'shma gap* giperonim, *bog'langan qo'shma gap*, *ergashgan qo'shma gap*, *bog'lovchisiz qo'shma gap* uning giponimlariga aylangan. Mana shu nuqtada giponim va ekvonimlar tutashib, sinkretlik hosil qilmoqda. Yuqorida keltirilgan qo'shma gaplarning uch xil mezon asosidagi tasnifida ham, aloqa munosabatidagi tasnifida ham gipero-giponimik va ekvonimik munosabatlarning sinkretlashuvini kuzatish mumkin. Xuddi shu munosabatlarni *murakkab qo'shma gap*ning bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda kuzatish mumkin.

Qo'shma gap termini giperonim sifatida amal qilganda *bog'langan qo'shma gap*, *bog'lanmagan qo'shma gap*, *ergashgan qo'shma gap* terminlarini giponimlar bo'ladi. Jins-tur munosabati giponim bo'lgan terminlar o'zaro tur-tur munosabatiga kirishganda bir-biridan tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalariga ko'ra farqliliklarga ega bo'ladi. Mana shunday farqlanishlar asosida terminlar ekvonimlarga aylanadi. Demak, giponimiyaning tugashi va ekvonimiyaning boshlanishida har ikki hodisa bir-biri bilan tutashadi.

“Sintaksis” terminologiyasida “*o'zga gapli qurilmalar*” (Berdialiyev, 2019, 88-b.) o'z tizimiga ega. O'zga shaxsning muallif bayoniga kiritilgan gapi *o'zga gapi* deyiladi. Leksik-sintaktik vositalari va berilish usullariga ko'ra *o'zga gapi* ikki turga bo'linadi: *ko'chirma gap* va *o'zlashtirma gap*. Mazmuni sahlangan holda shakli o'zgartirilib berilgan o'zganing gapi *o'zlashtirma gap*, ko'chirma gapli tuzilmalarda muallifning o'zi aytgan gap *muallif gapi* deyiladi. *O'zga gapi*, *muallif gapi*, *o'zlashtirma gap* giponimlarining giperonimi *o'zga gapli qurilmalar* bo'lib, ular o'zaro ekvonimik munosabatlarga kirishgan.

Matn sintaksisi tilshunoslikning yaqin vaqtlarda muomalaga kirgan lisoniy kategoriyalardan biridir. Matn gapdan katta sintaktik birliklarni aniqlash jarayonida kashf qilingan hodisadir. Unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: mazmun tugalligi, tuzilish, bog'lanish vositalari, ohang va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega

bo'lgan nutq parchasi *matn* deyiladi. Matn ikki turli bo'ladi: *makromatn* va *mikromatn*.

Makromatn matnshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi. Yozilgan yoki bosilgan, aytilgan nutq, kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarning rasm, jadval, bezaklardan boshqa qismi, rasmiy hujjatlarning sharh va izohlardan boshqa qismi, musiqa asarlariga asos bo'lgan so'zlar, she'rlar makromatnning ko'rinishlaridir.

Mikromatn tilshunoslikning o'rganish obyekti, yuqori darajadagi sintaktik birlikdir. Mikromatn tilshunoslik nuqtai nazaridan yuqorida zikr etilganidek yuqori darajadagi sintaktik birlik, *murakkab sintaktik butunlik*, *supersintaktik butunlik* sifatida qaraladi. *Supersintaktik birlik* terminida gapdan katta, yana ham aniqrog'i, eng katta sintaktik butunlik ma'nosi aniqroq ifodalangan.

Supersintaktik butunlik qismlarini bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra ikki xil: *supersintaktik butunlik* qismlarini chapga (oldingi qismga qarab) bog'lovchi vositalar, *supersintaktik butunlik* qismlarini o'ngga qarab (keyingi qismga qarab) bog'lovchi vositalar. Bularning birinchisi *anaforik*, ikkinchisi *kataforik vositalar* deb ham yuritiladi. *Anaforik vositalar* to'rtga bo'linadi: *almashish*, *takror*, *tushish*, *muvofiglashish*, *almashish* barcha til sathlariga oid birliklarni o'z ichiga oladi.

Matn giperonimining giponimlari *makromatn*, *mikromatn* va shu o'rinda ular o'zaro ekvonim hamdir. *Supersintaktik butunlik* giperonimining giponimlari *kataforik vositalar*, *anaforik vositalar*dir. *Anaforik vositalar* giperonimining giponimlari *almashish*, *takror*, *tushish*, *muvofiglashish*, *almashish*dan iborat.

Matn doirasidagi terminlarda ham giponimiya va ekvonimiya hodisalari tutashadi. Masalan, *matn* termini keng tushunchali termin hisoblanadi va *makromatn* hamda *mikromatn* terminlari uning ichki turlari hisoblanadi. *Mikromatn* va *makromatn* terminlari o'zlarining struktur va semantik o'ziga xosliklari asosida ekvonimik munosabatni hosil qiladi. Ekvonimik munosabatni tashkil qilgan ikki termin o'rtasida farqlanishning yuzaga kelishi ekvonimiya hodisasini paydo qiladi.

“Sintaksis” soha nomi sifatida lug'aviy mazmuniy guruhni nomlovchi *giper-giperonim* termindir. Uning giponimlik va giperonimlik maqomi qorishiq quyidagi turlari mavjud: a) sinxron sintaksis; b) diaxron sintaksis; v) dialektal sintaksis; g) kontrastiv (qiyosiy) sintaksis. Bularning har biri o'ziga xos giponim terminlar paradigmasini o'z ichiga olgan *giperonim* terminlardir. Sintaksis sohasining terminologik tizimi “nominativ xarakterdagi sintaktik butunliklar”, “kommunikativ xarakterdagi sintaktik butunliklar” terminlari bilan farqlanadigan sathlarga bo'linadi. Bular ham oraliq giperonim terminlar sifatida o'z giponim terminlari paradigmasiga ega.

Xullas, grammatika tizimi terminlari morfologiya va sintaksis terminlari vositasida giponimiya va ekvonimiya hodisalarini o'zlarida birlashtira oladi. Mazkur sohalar terminlarida ham jins-tur hamda tur-tur munosabatlari kesishuvi ro'y beradi.

Bu vaqtda giponimiya tugab, ekvonimiya boshlanadi. Giponimiyaning tugashi va ekvonimiya boshlanishida ularning sinkretlashuvi sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar

Абдуалиева З. (2015). *Гипонимо-эквиномические отношения в системе зоонимов*. Saarbrücken: Lambert Academic Publishing.

Абдурахмонов Ғ. (1958). *Қўшма гап синтаксиси асослари*. Фан.

Бердиалиев А. (1989). *Эргаи гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика*. Фан.

Бердиалиев А. (1993). *Ўзбек тили эргаи гапли қўшма гапларида синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар*. Университет.

Бердиалиев А. (2019). *Ўзбек тилида таркиби синтагматик номутаносиб сўз бирикмалари*. Меърож.

Маҳмудов Н., Нурмонов А. (1995). *Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис)*. Ўқитувчи.

Сайфуллаева Р. (1993). *Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий талқини: Филол. фан. докт. дисс. ... автореф.*

Hamroyev M. , Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldoshyeva Sh. (2007). *Ona tili*.

INTERFERENSIYA HODISALARI VA TILLARARO MUNOSABATLARNING ZAMONAVIY TAHLILI

Muxtorali Zokirov *

Annotatsiya

Mazkur maqolada tillararo kontaktlar jarayonida yuzaga keladigan interferensiya hodisalarini chuqur o‘rganish masalalari atroflicha o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi tillararo interferensiya hodisasining lingvistik va sotsiolingvistik jihatlarini tahlil qilish, uning til o‘rganish jarayonidagi ta’sirini aniqlashdan iborat. Mazkur mavzuning dolzarbligi xalqaro munosabatlar intensivlashuvi va tillarning bir-biriga ta’siri kuchayib borishi bilan bog‘liq. Tadqiqotda interferensiya va o‘zlashma jarayonlari, ularning psixologik va lingvistik ko‘rinishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda sotsiolingvistik tahlil, tilshunoslik nazariyasi

* Filologiya fanlari nomzodi, professor, Farg‘ona davlat universiteti, muxtorali@mayl.ru

va interferensiya hodisalariga oid ilmiy adabiyotlar tahlili metodlari qo'llanildi. Natijalar interferensiya hodisasining zamonaviy lingvistik jarayonlarda muhim o'rin tutishini, uning salbiy va ijobiy ta'sirlarini ko'rsatdi. Xulosa qilinishicha, tillarning o'zaro ta'sirini chuqurroq o'rganish interferensiya hodisasining mohiyatini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *interferensiya, til kontaktlari, o'zlashma, bilingvizm, polilingvizm, konvergensiya, xalqaro til, lingvistik ta'sir, tillararo munosabat, sotsiolingvistika.*

INTERFERENCE PHENOMENA AND MODERN ANALYSIS OF INTERLINGUAL RELATIONS

Abstract

This article thoroughly examines the issues of studying interference phenomena that arise during the process of interlingual contacts. The aim of the research is to analyze the linguistic and sociolinguistic aspects of the phenomenon of interlingual interference and to determine its impact on the language learning process. The relevance of this topic is associated with the intensification of international relations and the increasing influence of languages on each other. The study analyzes interference and borrowing processes, as well as their psychological and linguistic manifestations. The research employed methods such as sociolinguistic analysis, linguistic theory, and the analysis of scientific literature related to interference phenomena. The results demonstrate the significant role of interference in modern linguistic processes, highlighting both its negative and positive effects. It is concluded that a deeper study of the mutual influence of languages is a key factor in determining the essence of interference.

Key words: *interference, language contact, borrowing, bilingualism, multilingualism, convergence, international language, linguistic influence, interlingual relations, sociolinguistics.*

Til aloqalarining jadallashuvi zamonaviy lingvistika uchun muhim masala hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarning kengayishi natijasida tillararo munosabatlar tobora intensivlashmoqda, bu esa turli interferensiya hodisalarini keltirib chiqarmoqda. Interferensiya — bu ikki tilning o'zaro aloqasi jarayonida sodir bo'ladigan til hodisasi bo'lib, u ko'pincha til o'rganuvchilarning nutqida ko'rinadi. Mazkur maqolada interferensiya hodisasining lingvistik, psixologik va sotsiolingvistik jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, turli olimlarning yondashuvlari misolida mazkur hodisaning o'ziga xos tomonlari yoritiladi.

Xalqaro munosabatlarning intensivlashuvi til aloqalarining yanada jadallashuviga olib kelishi tabiiy hol. Mazkur jarayon to'xtovsiz sodir bo'lib boradi, hech qanday chegara, cheklashlarni tan olmaydi, chunki u jamiyat ehtiyojlari rivojlanishining ob'yektiv qonunlariga asoslanadi. Yuqoridagi faktorlar turli tillarda har xil shakl va darajada sodir bo'ladi. Til kontaktlarining qamrov doirasi jamiyatning rivojlanish va muloqot sur'atiga bog'liqdir.

Zamonaviy dunyoda turli madaniyatlar hamda tillarning o'zaro ta'siri va aralashinuvi jarayonlari sezilarli darajada faollashdi, bu til aloqalari masalalarini o'rganish va mazkur jarayon davomida paydo bo'ladigan interferensiya hodisasiga alohida ahamiyat va dolzarblik kasb etadi. Interferensiya muammosi til aloqalari jarayonlaridagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. L. I. Barannikova ta'kidlaganidek, interferensiyani o'rganmas tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini va tamoyillarini o'rganishning imkoni yo'q.

“Interferensiya”, “bilingvizm” va “polilingvizm” terminlari orqali ifodalangan tushunchalar til kontaktlari nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur hodisalar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar Boduen de Kurtene [5], N.S.Trubetskoy [23], L.V.Shcherba [27], E.Xaugen [25], Y.D.Polivanov [19], U.Vaynrayx [6], A.E.Karlinskiy [14], Y.M.Vereshchagin [8], V.Y.Rozentsveyg [21], V.A.Bogoroditskiy [4], S.I.Bernshteyn [3], A.A.Reformatskiy [20], V.A.Avrarin [1], Y.D.Desheriev [10], V.V.Vinogradov [9], M.K.Isayev [12], G.N.Lebedeva [16], N.A.Lyubimova [17], A.A.Metlyuk [18], M.T.Zokirov [11], Sh.I.Asqarova [2] kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda qator xorijiy tadqiqotchilar «interferensiya» atamasini qo'llashdan qochishmoqda, chunki, ularning fikricha, bu atamaning aniq ta'rifi yo'q va ingliz tilida «interferensiya» so'zining «maqsadlilik» ma'nosiga ega konnotatsiyasi mavjud. Shu bilan birga, turli muqobil atamalar taklif qilishmoqdaki, ular ham aniq mazmunga ega emas va terminologiyada yanada katta ixtilof keltirib chiqarmoqda.

Masalan, D. Vinford «interferensiya» atamasi o'rniga «kontakt ta'siridagi o'zgarishlar» (contact induced change) va «tillararo ta'sir» (crosslinguistic influence, CLI) atamalarini umumiy tushunchalar sifatida qo'llaydi, bu esa «bir tilning boshqa tilga turli ta'sir shakllarini» o'z ichiga olishga imkon beradi. So'nggi yillarda bu atamalar xorijiy tilshunoslar tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Bir qator olimlar interferensiya hodisasini «konvergensiya»ning namoyon bo'lishi sifatida ko'rib chiqadilar. Ular mazkur terminni turlicha tushunadilar va qo'llaydilar. Masalan, A. Aysenvald konvergensiyaning juda keng tushunib, aloqada bo'lgan tillar asta-sekin bir-biriga ko'proq o'xshab boradi deb hisoblaydi. K. Mayers-Skotton esa bu atamani torroq ma'noda tushunib, turli mamlakatlar va turli til egalarining ijtimoiy-siyosiy munosabatlaridagi assimetriyalikni ta'kidlaydi. U

konvergensiyani o‘zaro aloqaga kirishgan tillardan birining o‘zgarishi, tilning yo‘qolishi va kreol tillarining shakllanishi jarayonlari orqali sodir bo‘ladigan bosqichma-bosqich hodisa sifatida ko‘radi, buning natijasida bir tildan morfemalar, ikkinchi tildan esa ularga muvofiq keladigan abstrakt leksikaga asoslangan lingvistik o‘zgarish yuzaga keladi.

Xorijiy tilshunoslar orasida yagona fikr mavjud bo‘lmaganligi sababli, ular tillarning o‘zaro ta‘sirini turli terminlar va turli nazariy asoslarga tayanib o‘rganadilar. Olimlar tomonidan «interferensiya» terminining o‘rnini bosuvchi ko‘plab terminlar faqat tillarning o‘zaro ta‘sir qilish jarayonining muayyan jihatlarinigina aks ettirishi haqida taassurot uyg‘otadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tillarning o‘zaro ta‘sirini belgilash uchun «interferensiya» terminini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lib, ammo ushbu terminning mazmunini belgilash zarur.

Tadqiqotchilar «interferensiya» terminni turlicha tushunadilar va izohlaydilar, shu bilan birga bu tushunchaga nisbatan ko‘plab fikrlar mavjud. Ushbu terminni talqin qilishga bo‘lgan turli yondashuvlarning ko‘pligi, bir tomondan, uning dolzarbligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan esa ushbu masalaning metodik jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ta‘kidlaydi [Bagana, Xapilina, 2016. 67-b.]. Tilshunoslar orasida «interferensiya» tushunchasini tushunish va qo‘llash bo‘yicha bir necha yondashuvlarni ajratish mumkin va ular interferensiya hamda o‘zlashma (qarz olish) o‘rtasidagi munosabatni turlicha tushunadilar. Shunga qaramay, lingvistlar orasida o‘zlashma va interferensiyaning nimadan iborat deb hisoblash borasida aniq konsensus yo‘qligini tan olish lozim. Bir guruh olimlar «interferensiya» tushunchasini kengroq talqin qilib, interferensiyaning o‘zlashma bilan birlashtiradilar.

O‘zga tilni o‘rganayotgan shaxs odat tusiga kirgan ona tilining qoida, sistemasidan chiqib keta olmaydi, uni tark qilolmaydi. U o‘z fikrini birinchi navbatda ona tilida shakllantirib, so‘ngra ona tiliga teng keladigan vositalarni o‘zga tildan topishga harakat qiladi. Demak, bunda bilish jarayoni ona tili asosida sodir bo‘ladi, kommunikativ jarayon esa ikkinchi tilda amalga oshiriladi. Ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida til bilan tafakkurning ajralish hodisasi yuz beradi. Natijada so‘zlovchi ona tili sistemasi, normasidan qutula olmaydi, ikkinchi tilda nutq shakllantirish jarayoniga ona tili xususiyati monelik qila boshlaydi. Oqibatda ikkinchi tilda so‘zlovchi shaxs ona tili qoidalarini ixtiyorsiz ravishda o‘rganayotgan tilga olib o‘tishga majbur bo‘ladi. L.V.Shcherba ikkinchi tilni o‘rganishda ona tili normasi, sistemasini hisobga olish, interferensial xatoga yo‘l qo‘ymaslikning oldini olish niyatida: «Ona tili xususiyatlarini darsliklardan chiqarib tashlashning imkoniyati bor, ammo uni til o‘rganuvchining ongidan chiqarib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zga tilni o‘rganishdan oldin, albatta, ona tili xususiyatlarini ongli bilib olish zarur,» - deb bekorga ta‘kidlamaydi.

Lingvistik interferensiya, bilingvizm, til kontaktlari tilshunoslikning asosiy psixologik, sosiolingvistik masalalaridan biridir.

Bilish jarayonida borliq haqida tasavvurlar shakllanadi. Soʻzlar narsalar va hodisalarni nomlaydi, tushunchalarni ifodalaydi. Taffakkur asosida mantiqiy hamda psixologik qonunlar yotadi. Til yigʻilgan tajriba, maʼlumotlarni oʻziga xos ravishda ifodalaydi. Obʼyektiv borliqning inʼikosi boʻlgan tillar bir-biridan turli darajada farqlanadi.

Praga lingvistik toʻgaragi olimlari tillardagi ana shu xususiyatlarga alohida eʼtibor berib, ularni maxsus oʻrganganlar, oʻzga tilni osonlik bilan oʻrganishga toʻsqinlik qiladigan har xil hodisalarni aniqlaganlar. Ulardan biri interferensiya hodisasidir. Interferensiya aslida lotincha soʻz boʻlib, inter- ora, ferens- kiruvchi degan maʼnoni bildiradi. Ushbu termin dastavval fizika fanida qoʻllangan boʻlib, toʻlqinlarning toʻqnashuvi natijasida ularning tebranish amplitudasining kuchayishi yoki susayishi maʼnosini bildiradi. Keyinchalik mazkur soʻzning psixologiya fanida ham qoʻllanishi odat tusiga kirgan. Interferensiyaning psixologik jihatidan iboratki, avvalgi faoliyat uzluksiz bir maromda qaytarilaverib, avtomatlashuvi natijasida xotiradan mustahkam joy oladi. Mabodo, keyingi faoliyat avvalgi faoliyatdan turli hajmda farq qiladigan boʻlsa, avvalgi faoliyat keyingi faoliyatga monelik qila boshlaydi. Natijada interferensiya hodisasi yuz beradi. Psixologik nuqtai nazardan interferensiyaning retroaktiv, proaktiv, verbal, motor-akustik, koʻrish, selektiv kabi turlari mavjudligi qayd qilingan.

Interferensiya terminini tilshunoslikda birinchi boʻlib Praga tilshunoslari qoʻllagan boʻlishlariga qaramay, mazkur termin U.Vaynrayxning «Til aloqalari» nomli kitobi nashrdan chiqqanidan soʻng keng qoʻllanila boshlandi.

Interferensiya – bu ikki tilni mukammal bilmaydigan bilingv nutqida normadan chekinishdir. Bunday psixologik jarayonda aloqaga kirishgan tillar qoidalari oʻrtasidagi mutanosiblik, adekvatlik buziladi. Interferensiya jarayonining mohiyati shundan iboratki, oʻzga tilni oʻrganayotgan shaxs ixtiyorsiz ravishda ona tilida mustahkamlangan nutqiy muomala qoidalari sistemasi normasini oʻrganilayotgan tilga koʻchiradi.

Lingvistik interferensiyaning paydo boʻlish sharti til kontaktidir. Til kontakti tushunchasi ostida ikki til jamoasi orasidagi nutqiy muloqot yoki oʻquv vaziyati tushuniladi.

Mazkur atamani keng maʼnoda talqin qilish tarafdorlari til interferensiyasi ostida barcha oʻzgarishlarni tushunadilar, ular tillararo aloqalar va til kontakti tufayli yuzaga keladi, bunda oʻzlashma ham kiritiladi. U. Vaynrayx til interferensiyasining ikki turi borligini taʼkidlaydi:

- 1) bir til elementlarini boshqa tilga olib oʻtish yoki koʻchirish;

2) ikki til elementlarini o‘zaro tenglashtirish va bir tilning elementlarini boshqa tilning elementlari ta’siri ostida o‘zgartirish.

Y.A. Jluktenko ham «interferensiya» atamasini kengroq talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, interferensiya til kontakti natijasida yuzaga kelgan barcha til tuzilmalari o‘zgarishlari, til birliklarining ma’nolari, xususiyatlari va tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi [Jluktenko, 1974]. O‘zlashma uning nazarida leksik interferensiyaning bir turi hisoblanadi.

Shu bilan birga, A. Ayxenvald L. Traskning izidan borib, o‘zlashmani tillar o‘rtasidagi kontakt natijasida har qanday xususiyatlarning bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirilishi sifatida ta’riflaydi. Har ikki lingvist interferensiyani birinchi tildan ikkinchi tilga lingvistik xususiyatlarning majburiy bo‘lmagan holda ko‘chirilishini deb hisoblaydi, va bu jarayon ko‘proq ikkinchi tilni o‘rganishga tegishliligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, ular interferensiyani o‘zlashmaning bir turi sifatida qarashadi.

J.Bagana U.Vaynrayxdan keyin til interferensiyasini til tuzilmasidagi barcha kontakt o‘zgarishlari sifatida qabul qiladilar va bunda leksik o‘zlashmalarni ham kiritadilar. Shu bilan birga, J. Bagana interferensiya jarayoni o‘zlashma jarayonidan farq qilishini ta’kidlaydi. Zaimstvovaniyalar okkazonal, ya’ni yakka holatda bo‘lishi mumkin, interferensiya esa intensiv kontaktlar va ommaviy o‘zlashmalarni nazarda tutadi. O‘zlashma jarayoni uchun til kontakti zarur, ammo bilingvizm shart bo‘lmaydi. O‘zlashma ijtimoiy darajada yuz beradi, shaxsiy darajada emas.

S. Tomason va T. Kaufman interferensiya deb tillar o‘rtasidagi barcha o‘zgarishlarni tushunib, ikki turdagi interferensiyaning ajratadilar: o‘zlashma va til o‘zgarishi (substrat interferensiya). Ular shu tariqa, interferensiya amal qiladigan ikki vaziyatni ko‘rib chiqadilar: o‘zlashma bilan tilga interferensiya ta’siri ostida bo‘lgan tilni saqlab qolish, va til o‘zgarishi vaziyati.

U.Vaynrayxning fikricha, inson nutqida o‘zaro aloqaga kirishgan ikki til sistemasidan biri keyinroq o‘rganilgan yoki o‘rganilayotgan, ikkinchisiga nisbatan birlamchi bo‘ladi. Birlamchi sistema interferensiya manbai sifatida qaraladi.

Bilingvizmning shakllanishida analogiya qonunining roli katta, chunki bunda o‘zga tilda lisoniy birliklarni yaratish va belgilash usullari intuitiv ravishda ona tiliniki bilan bir xil deb taxmin qilinadi va so‘zlovchi ongsiz ravishda ularni qo‘llashga harakat qiladi. Masalan, hozirgi zamon tojik tili fe’l yasash sistemasida kardan-qilmoq ko‘makchi fe’li yordamida qo‘shma fe’llar yasash yetakchilik qiladi. Shuning uchun tojiklarning o‘zbek tilidagi nutqlarida tojik tili andozalariga muvofiq qilmoq ko‘makchi fe’li yordamida yasalgan qo‘shma fe’llar ko‘p uchraydi: tayyorlamoq – tayyor qilmoq, randalamoq – randa qilmoq, oqlamiq – oq qilmoq. Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki ayrim ko‘shma fe’llar o‘zbek tili semantikasi nuqtai nazaridan nafaqat g‘aliz tuyuladi, balki umuman boshqa ma’no

kasb etishi mumkin. Masalan, randa qilmoq – randa yasamoq ma’nosini bersa, oq qilmok – la’natlamoq ma’nosida keladi.

Mazkur jihatlariga asoslanib zamonaviy tilshunoslikka oid adabiyotlarda interferensiya hodisalarini salbiy (an’anaviy qarash) hamda ijobiy (yangi qarash) deb farqlashga intilish kuzatilmoqda. Tilshunoslikka oid asarlarda mazkur terminologik qarama-qarshilik turlicha - vositali va vositasiz, ochiq va yashirin interferensiya deb ham yuritiladi. Shunga qaramay, tilshunoslar e’tibori, asosan, salbiy interferensiya hodisasiga, uni oldindan aytib berish, o’rganish hamda oldini olishga qaratilgan, chunki bilingv nutqidagi salbiy til materialli muloqot jarayonida ma’lum bir to’siqlar yaratishi mumkin.

So’zlovchi til birliklarini, ularning shakliy o’xshashligiga, asoslanib ikkinchi til birliklariga tenglashtirsa, tillararo aynan o’xshatish yuz beradi. Aloqaga kirishgan tillarning to’liq simmetriyasi holatida birinchi til sistemasi yaratgan birikmalar beixtiyor ikkinchi til qoidalariga muvofiq keladi. Bunda ijobiy ko’chirish, ya’ni ikki til qoidalarining bir-biriga to’g’ri kelishi deb nomlanuvchi hodisa yuz beradi.

Interferensiya darajasi va hajmi turlichadir. Ular sub’yektiv va ob’yektiv omillarga bog’liqdir. Sub’yektiv omillar so’zlovchining shaxsiy til qobiliyati, uning tildan xabardor bo’lish darajasi bilan belgilanadi. Ob’yektiv omillarga esa aloqaga kirishgan tillarning genetik o’xshashligi, o’rganilayotgan tilning o’ziga xosligini belgilovchi uning sistem-struktur xususiyatlari kiradi.

Tildagi har qanday o’zgarish kabi interferensiya ham dastavval nutqiy norma sathida namoyon bo’ladi. Interferensiya bilingvning o’zga til bilan shaxsiy tanishuvi natijasi sifatida uning nutqida paydo bo’ladi. Bilingvlar nutqida doimiy takrorlar natijasida mustahkamlanib, odatiy holga aylangan interferensiya hodisalari tilda o’z aksini topadi. Ularning keyingi qo’llanishi endi bilingvizmga bog’liq bo’lmaydi.

Tillararo munosabatlar jarayonida interferensiya hodisalari muhim o’rin tutadi. Bu hodisani o’rganish orqali tillarning o’zaro ta’sirini chuqurroq tushunish va lingvistik jarayonlarni to’g’ri tahlil qilish mumkin. Maqolada keltirilgan yondashuvlar interferensiya va o’zlashmaning bir-biriga bog’liqligini ko’rsatadi. Xususan, interferensiya o’zga tilni o’rganish jarayonida muhim omil hisoblanadi va bilingvizm sharoitida sodir bo’ladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar interferensiyaning salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlashga qaratilgan bo’lib, bu jarayonning til rivojlanishidagi ahamiyati kelajakda ham dolzarb bo’lib qoladi.

Adabiyotlar:

Аврорин В.А. (1969). Двухязычие и школа / В.А.Аврорин. // Тезисы Научной конференции, посвященной проблемам двухязычия и многоязычия / АН СССР. Отд-ние литературы и яз.науч. совет "Закономерности развития нац.

яз. в связи с развитием соц. наций". *Ин-т языкознания. Ин-т яз.и литературы им. Махтумкули АН ТССР.* 4-5.

Бернштейн, С.И. (1975). Вопросы обучения произношению / С.И. Бернштейн // *Вопросы фонетики и обучения произношению*: [сб. ст.] / под ред.: А. А. Леонтьева и Н.И. Самуйловой. 17-27.

Бодуэн де Куртенэ, И.А. (1963). Избранные труды по общему языкознанию: / сост.: В. П. Григорьев, А. А. Леонтьев; Акад. наук СССР. Отделение литературы и языка. Изд-во Акад. наук СССР.

Вайнрайх У. (1972). *Одноязычие и многоязычие // Новое в лингвистике.* Вып. VI. Языковые контакты. 25-60.

Вайнрайх У. (1979). *Языковые контакты.* Киев.

Верещагин Е.М. (1969). *Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма)* / Е. М. Верещагин. Изд-во Моск.

Виноградов, В.А. (1973). О фонологическом механизме иностранного акцента / В.А. Виноградов // *Проблемы теоретической и прикладной фонетики и обучения произношению.* Высшая школа.

Дешериев Ю.Д. (1976). Введение. В кн: *Развитие национально- русского двуязычия.* Наука.

Зокиров М.Т. (2007). Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек – тожик билингвизмида намоён бўлиши. *Дисс... фил. фан. номз.* Тошкент.

Игнатъев Е.И. ва бошқалар (1970). *Психология.* Ўқитувчи. Тошкент.

Карлинский А.Е. (1972). Типология речевой интерференции. В кн.: *Зарубежное языкознание и литература,* вып. 2. Алма-Ата.

Краткий психологический словарь. (1885).

ANDROSENTRIZM VA FEMINISTIK LINGVISTIKA GENEZISI

Muhammadxon Hakimov*

Dilrabo Ismoilova*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy sohalaridan biri bo'lgan lingvogenderologiya masalalari haqida so'z yuritilib, tilning androsentriklik tabiati, feministik harakatlarning vujudga kelish tarixi, ayollar tilining kamsitilishi holatlari yuzasidan ayrim mulohazalar bayon etilgan. Yangi ayollar harakatining vujuga kelishi, gender va jins tushunchalari xususida ham to'xtalib o'tilgan. Ayol va erkak

* Filologiya fanlari doktori, professor, Farg'ona davlat universiteti

* Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, dilrabo2898.com@gmail.com

tafakkur tarzidagi farqli jihatlar yuzasidan ilmiy nazariy manbalar asosida fikrlar dalillangan bo'lib, aynan fikrlash jarayoni hamda kognitsiyaga aloqador ayol va erkaklarga xos fikrlash hamda tafakkur tarzining olamning lisoniy manzarasining o'ziga xos umumiy va farqli belgilarini o'rganuvchi lingvogenderologiya sohasining kognitiv lingvistika bilan ham bog'lanishi ta'kidlangan. Muayyan xalq va ularga tegishli individlar tafakkuri o'zi mansub bo'lgan xalq madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari va tarixini o'zida to'liq aks ettirishi lisoniy dalillar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *lingvogenderologiya, jins, gender, feminizm, feministik lingvistika, feministik sotsiolingvistika, androsentrizm, ayollar tili, erkaklar tili, tilning androsentriklik tabiati.*

ANDROCENTRISM AND THE GENESIS OF FEMINIST LINGUISTICS

Annotation

This article discusses the issues of linguo-genderology, which is one of the modern fields of linguistics, and some comments on the androcentric nature of the language, the history of the emergence of feminist movements, and the discrimination of women's language. The emergence of the new women's movement, the concepts of gender and sex are also discussed. On the basis of scientific theoretical sources, opinions on the different aspects of the way of thinking of women and men are proved, and it is the cognitive linguistics of the field of linguo-genderology, which studies the specific common and different features of the linguistic landscape of the world of female and male thinking and thinking related to the thinking process and cognition. It is also noted that it is connected with It is analyzed on the basis of linguistic evidence that the thinking of a certain nation and its individuals fully reflects the culture, customs, customs and history of the nation to which it belongs.

Key words: *linguogenderology, sex, gender, feminism, feminist linguistics, feminist sociolinguistics, androcentrism, women's language, men's language, androcentric nature of language.*

Tilshunoslikda genderga oid tadqiqotlar tarixi haqida so'z borganida, albatta, feministik lingvistika masalalariga alohida to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Sababi, gender lingvistikasi muammolarining o'rganilganlik darajasi qismida gender lingvistika genezisiga oid fikrlar dastlab tadqiqotlar tarixi, gender tadqiqotlar metodologiyasi va uning yo'nalishlari, feministik adabiyotlarning lisoniy o'ziga xosligi haqidagi tushunchalardan boshlanadi. "Feminizm" termini lotincha femina so'zidan olingan bo'lib, u ayol ma'nosini anglatadi. Bu so'z birinchi bo'lib, Ellis Rossi tomonidan 1895-yilda qo'llangan. Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda

feminizm termini ifodalangan tushunchalar haqida ko'plab fikrlar bildiriladi, feminizm maxsus lingvistik termin sifatida terminologik lug'atlarda o'ziga xos ta'riflar bilan izohlanadi. Hatto tilshunoslikda "feministik lingvistika" yoki "tilning feministik tanqidi"(Потапов В.В. 2002, с. 103-134) degan birikmali termin qo'llanilishini kuzatish mumkin. Feminizm, feministik lingvistika kabi terminlarning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinganligi uchun ham bu atamalar ifodalagan tushunchalar mazmuni to'g'risida gapirish lingvogenderologiya yo'nalishining yanada mukammal bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Feminizm so'zi, yuqorida ta'kidlanganidek, ayol tushunchasini ifodalaydi, bu so'zning tilda paydo bo'lishi esa ayollarning ozod bo'lishi bilan bog'liq turlicha harakatlar alluziyasi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham feminizm atamasi har qanday til egasi tasavvurida o'z haq-huquqlarini himoya qiluvchi ayollar harakati bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Bunday harakatlarining mohiyati esa jinslar tengligi huquqini ta'minlash uchun kurashish tushunchalarini eslatadi. Shunday bo'lsa-da, u keng ma'noda ayollar huquqini himoya qilish bilan bog'liq harakatlar bilan izohlanadi hamda jinslar tengligi nazariyasining asosi sifatida anglanadi. Feminizmning birinchi va ikkinchi to'liqini o'zaro farqlanadi (Словарь гендерных терминов 2002, с.256). Feminizm haqidagi dastlabki tushunchalar XX asrning 60-70-yillaridagi ayollar harakati bilan bog'lanadi. "AQSh va Germaniyada o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshlarida yangi ayollar harakatining paydo bo'lishi bilan genderga oid tadqiqotlar ham rivojlana boshladi. Jamiyatning demokratlashishi, yangi ijtimoiy g'oyalarning paydo bo'lishi, 1968-yildagi studentlar inqilobi feminizm g'oyalarining faollashuviga olib keldi. Bunday siyosiy harakat va kurashlar natijasida gender konsepsiyasi shakllandi"(Полевая И.В. 2014, с.14).

Umuman olganda, gender lingvistikasining asoslari feministik lingvistika bilan bog'lanadi. "Yangi ayollar harakati" davri feministik lingvistika tushunchalarini ifodalaydi. Ushbu harakat gender tadqiqotlar taraqqiyoti uchun muhim turtki bo'ldi. Bu davr lingvistikasining mohiyati tilning tanqidiy asoslari mazmuniga nisbatan belgilanadi, unga ko'ra bu davr tilshunosligining mazmuni yaxlit holda androsentrik jamiyatga xos tillar tadqiqiga xoslanganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu davr tilini ayollar diskriminatsiyasi bilan aybladilar. Tilshunoslikda gender kategoriyasi boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarga nisbatan kechroq qo'llanila boshladi. A.V.Kirilina gender va tilni "ongning nolisoniy mohiyatini ifodalovchi vosita" sifatida o'rganadi. Aslida gender termini va u ifodalagan tushuncha lisoniy kategoriyalarga mansub bo'lmaydi, lisoniy kategoriya bo'lishi uchun u tilda lisoniy ifoda vositalari bilan namoyon bo'lishi kerak. Masalan, rus tilidagi uch rodga tegishli jins kategoriyasi sof lisoniy kategoriya hisoblanadi. Gender so'zi va gender tushunchasining o'zini lisoniy kategoriya emas, "lisoniy reprezentatsiyalanish jarayoni deb hisoblash kerak, tilning turlicha struktur tahlili bu tushuncha mazmuniy

darajasini ochib beradi”(Зиновьева Е.С. 2018, с.77). Gender lingvistika yoki lingvogenderologiya terminlari shu soha bo'yicha tadqiqot olib borgan Y.I.Goroshko va A.V.Kirilinalarga tegishli bo'lib, ular genderning lisoniy vositalar bilan ifodalanishiga oid tilshunoslikning maxsus yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Tilshunoslikning bu yo'nalishi tilning feministik tanqidi davridan keyin paydo bo'ldi. U o'tgan asrning 60-70-yillarida AQSh va Yevropada “Yangi ayollar harakati”ning natijasida lingvistikada yangi yo'nalish sifatida yuzaga keldi.

Lingvogenderologiyaning mohiyati “...psixolingvistika, kvantitativ sotsiolingvistika, pragmatika, kommunikatsiya nazariyasi” (Зиновьева У.С. 2016, с. 43), lingvokulturologiya hamda kognitologiya kabi lingvistika yo'nalishlari bazasida shakllandi. Ushbu fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, borliq voqealari, jamiyatda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar tilda o'z ifodasini topadi, ana shu tilda muloqot qiluvchi til egalarining ijtimoiy faoliyati, ruhiyati, muloqoti, konseptual olamining lisoniy ifodalanishi kabi hodisalar esa yuqorida qayd etilgan ayol va erkaklar ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi va shu sohani o'rganuvchi sotsiolingvistikada, inson ruhiyatining lisoniy ifodasini tadqiq etuvchi psixolingvistikada, inson tafakkurida shakllangan fikr va g'oyalar ifodasini ta'minlashga xizmat qiluvchi lisoniy vositalar kombinatsiyasiga asoslangan tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi pragmatikada, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro axborot ifodalash bilan bog'liq jarayonlar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi kommunikatsiya nazariyasi kabi tilshunoslikning maxsus yo'nalishlari tarkibida lingvistik genderologiya sohasi vujudga keldi. Lingvistik genderologiya haqidagi nazariyaning paydo bo'lishi shaxslarning, xususan, turli jinsga mansub individlarning “biosotsial” (bu termin Y.S.Zinovvaga tegishli) parametrlarining tilda har jihatdan o'rganilishi natijasida yuzaga keldi. Shuningdek, lingvistika haqidagi ilmning mohiyati mentalingvistika hamda kognitologiya yo'nalishlariga asoslangan fikrlar jarayoni bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun ham kognitologiya asosida yuz beradigan fikrlar va ularning lisoniy ifodalanishini o'rganuvchi jarayon kognitiv lingvistika deb yuritiladi.

Aynan fikrlash jarayoni hamda kognitsiyaga aloqador ayol va erkaklarga xos fikrlash hamda tafakkur tarzining olamning lisoniy manzarasining o'ziga xos umumiy va farqli belgilarini o'rganuvchi lingvogenderologiya sohasi kognitiv lingvistika bilan ham bog'lanadi. Muayyan xalq va ularga tegishli individlar tafakkuri o'zi mansub bo'lgan xalq madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari va tarixini o'zida to'liq aks ettiradi. Ana shu xalq turmush tarziga oid madaniyatga tegisli bo'lgan olamning konseptual manzarasi hamda uning lisoniy ifodasi lingvokulturologiya sohasiga oid yo'nalish hisoblanadi. Bunday olamning lisoniy manzarasida ayol va erkaklarga xos madaniyatning lisoniy birliklar bilan ifodalanishiga oid tadqiqotlar lingvogenderologiyada ham mavjuddir. Shu asosda lingvogenderologiya genezisi

yuqorida sanalgan antropotsentrik paradigma yo‘nalishlari negizida paydo bo‘lganligini ta’kidlash ham amaliy ham nazariy jihatdan to‘g‘ridir.

Lingvogenderologiya yo‘nalishi uchun tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiluvchi ayollar tili, uning konseptual asosi hisoblangan ayollar tafakkuri hamda fikrlash jarayoni natijasida hosil bo‘lgan ayollar olamining lisoniy manzarasi tahlili va tadqiqida yuqorida qayd etilgan lingvistika yo‘nalishlari antroposentrik tilshunoslikning o‘zaro yaxlit bir sistemasi sifatida xizmat qiladi. Buning sababi sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, tadqiqot predmeti va obyektiga nisbatan o‘zaro bog‘lanuvchi antropotsentrik ilmiy paradigma yo‘nalishlari mohiyati fanda yuz bergan strukturalizmdan pragmatikaga o‘tish davri bilan belgilangan. Ana shunday pragmalingvistik ilmiy paradigmaga tomon yurish orqali ijtimoiy fanlarga oid tadqiqotlar tarkibida lingvogenderologiya haqidagi nazariyalar shakllana boshladi.

Ilmiy adabiyotlarda feminizm termini quyidagicha izohlanadi, xotin-qizlarni ijtimoiy, siyosiy va madaniy kamsitishdan himoya qilish harakati. Maqsad-gender tenghuquqlilikni ta’minlash. Feminizm lingvistik tadqiqotlarga ham taalluqlidir (Сафаров III. 2023, 54 6).

Feministik tilshunoslikning konseptual asosi V. fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorflar qarashlari bilan bog‘lanadi. Buni V. fon Gumboldtning falsafiy tilshunoslikka asoslangan antinomiylarida ham ko‘rish mumkin. Til va tafakkur antinomiyasi ana shu tizimga oid g‘oyalardan biridir. Bu konseptual asosga ko‘ra, tashqi dunyo va inson tafakkuri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-biridan ozuqa oladi. Har ikkisi ham muayyan lisoniy vositalar bilan ifodalanadi. Ana shu lisoniy vositalarning ma’lum bir qismi ayollar tilini tashkil qiladi yoki ayollarga xos ifoda shakli sifatida har qanday fikr, tushuncha va qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Feministik lingvistika erkaklar tili ustuvorligiga nisbatan shakllangan ayollarni tilini o‘rganuvchi tilshunoslikning o‘ziga xos yo‘nalishidir. Shu o‘rinda lisoniy mansublilik tushunchasiga qadar ham ayol va erkaklarga xos tafakkur, ayol va erkaklarga xos faoliyat turi hamda ularning lisoniy moddiylashishi kabi tushunchalarning mavjudligi hamda uning bir qismi feministik lingvistika yo‘nalishini tashkil qilishini aytish mumkin. Feministik lingvistikani bu tarzda tushuntirish va izohlash, bizning nazarimizda g‘ayritabiiydek tuyuladi. Chunki tilning feministik tanqidi uchun asos sifatida ularga zid jinslar tilining dominantligi ijtimoiy-madaniy muhit uchun asos qilib olinadi, shu nuqtayi nazardan qaralganda, feministik lingvistika genezisi tilda androsentrik belgilarga nisbatan paydo bo‘lgan.

Androtsentrizm termini ikki qismdan iborat bo‘lib, “andro” grekcha anyor (andros) erkak, (Словарь иностранных слов 1988, с. 99)“sentrum” lotincha markaz (Xudoyberganova D.2022, 20.) degan ma’noni anglatadi. Bu termin ilmiy hayotga “androtsentrizm darajasi” nomi bilan kirib keldi. Unga ko‘ra, “...shubhasiz, insoniyat tarixiy taraqqiyotiga xos androtsentriklik belgilari ularning tilida ham aks etadi. Biroq

uning intensivligi va ifodalanish darajasi shu xalqning madaniyati va tiliga bog'liq bo'ladi, madaniyatning o'zgarishi unga muvofiq tarzda tilda ham shunday o'zgarishlar bo'lishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, ayol jinsiga xos diskriminatsiyalanish jarayoni uning tildagi ifodasi sanalgan androtsentriklik bilan bog'lanadi". (Зиновьева, Е.С. 2016, с. 43)

Olamning lisoniy manzarasida borliqda yuz berayotgan har bir narsa va hodisalar o'z ifodasini topadi, har qanday iker-chikir tilda bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Til shunday murakkab strukturadan iboratki, u borliqdagi har bir insonning ichki va tashqi dunyosini o'zida to'la-to'kis aks ettiradi. Bu haqida A.A.Denisova tahriri ostida nashr qilingan "Gender terminlari lug'ati"da ham quyidagi fikrlar bildiriladi: "Til androtsentrizmning ifodalanishida muhim o'rin tutadi, boshqacha qilib aytilganida, olamning lisoniy manzarasida erkaklar nuqtayi nazari, erkaklar olami qayd etiladi.

Feministik lingvistika doirasida (feministik lingvistika nuqtayi nazaridan ta'kid bizniki) androtsentrizmning quyidagi uch belgisi ajratiladi: 1) ayrim tillarda erkak va inson tushunchalari aynan bir so'z sifatida anglanadi va ular o'xshashdir. 2) androtsentrizm termini ifodalagan tushuncha mohiyatiga ko'ra, u gender jihatidan neytral lisoniy norma hisoblanmaydi, u baholash kategoriyasiga ega bo'lib, ierarxik sistemadan tashkil topadi hamda lisoniy norma sifatida qo'llaniluvchi erkaklarga xos lisoniy formadir, bu forma olamning lisoniy manzarasida ayollar tomonidan inkor qilinadi. 3) real ijtimoiy gender assimetriyasiga asosan ayol va erkak tillariga xos normativ bo'linishlar mavjuddir, ular lisoniy muloqot jarayoni orqali yuz beradi va lisoniy genderologik normativlar mustahkamlanadi.(Словарь гендерных терминов 2002, с 4.)

Bu o'rinda androtsentrizmning birinchi belgisi sifatida berilayotgan erkak va inson tushunchalari haqidagi denotatga asoslangan ma'no ingliz tiliga nisbatan belgilanganligini esdan chiqarmaslik kerak, shuning uchun ham androtsentrizm izohi uchun berilgan bu ta'rifga *man*, *man* so'zlari ingliz tilida inson hamda erkak tushunchasini ifoda etish uchun qo'llaniladigan polinimiya ekanligini ta'kidlash zarur (izoh bizniki).

Androtsentrizmga xos bo'lgan bu uch belgi R.Lakofning 1975-yilda nashr qilingan "Til va unda ayollarning o'rni" asarida feministik lingvistikaning shakllanishi bilan bog'liq asoslar orqali ko'rsatib o'tiladi, aynan shu asarda olam manzarasida ayollar obrazining negativ jihatlari va tilning androtsentriklik xususiyatlarining ifodasi to'g'risida so'z boradi. Shu bilan birga, muallif ayollar nutqiga xos bo'lgan ifodalarda mayinlik, gippperkorrektlik, yumshoqlik kabi kategoriyalarning mavjudligini ta'kidlash orqali muloqot jarayonida ayollar ikkinchi planga o'tganligiga urg'u beradi. Natijada Yevropa tillarida ayollarga boshqacha ko'z bilan qarash tendensiyasi shakllanganligi, nutqiy muloqot jarayonida ayollarga past

nazar bilan qarash hamda kamsitish holatlari yuzaga kelganligi, suhbatdoshlar muloqotida erkaklar bilan teng ko'rilmaganligini qayd etadi.

Muallif o'zining bu qarashlarini jamiyatdagi ayollar nutqiga xos "ko'ngilchanlik", "bo'ysunuvchanlik", "qulluq qilish", "itoatgo'ylik", "muloyimlik", "mayinlik" kabi stereotiplar (Lakoff R. 1975, 115 p.)ning tilda mavjudligi bilan dalillaydi. Yuqoridagi fikrlar asosida feministik lingvistikaning shu tarzda shakllanganligini ta'kidlash muhim. Feministik lingvistika o'z nomi bilan ayollar tilini o'rganuvchi til haqidagi ilmdir. Feministik lingvistika haqidagi nazariya dastlab jamiyatda yuz bergan turli jinsga mansub til egalarining, xususan, erkaklar nutqiy faoliyatidagi dominantlik yoki ustuvorlik, ayollarga nisbatan hokimlik pozitsiyasining tildagi ifodasi tufayli va buning ayollar kamsitilishi deb baholanishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ayollar tili yoki feministik lingvistikaning o'ziga xos yangi yo'nalishlari sifatida har qanday tilda erkak yoki ayollar tiliga xos differensiatsiyanlash jarayoni ham yuz berdiki, ana shu masalalarning ayol va erkaklar tili dalillari asosida tahlil va tadqiq etilishi bugungi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Feministik lingvistika tanqidi ijtimoiy va madaniy turmush tarzida erkaklarga xos madaniy lisoniy konstruksiyalar ustuvorlik qilishini oshkor qiladi. Bundan tashqari feministik sotsiolingvistika termini ham mavjud bo'lib, asosiy maqsadi erkaklar ijtimoiy-madaniy ustunligining tilda aks topishini tadqiq qilish bo'lgan yo'nalish.

"Gender assimetriyasi" tushunchasidan foydalangan R.Lakoff olam lisoniy manzarasida xotin qizlarga kam joy ajratilishini tahlil qilgan edi. Erkak va ayollar nutqini qiyoslab o'rganayotgan tilshunoslar til qurilishiga bo'lgan munosabatni o'zgartirish izmida bo'lishadi.

Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, tilda gender nomutanosibligi yoki asimmetriyasi olamning lisoniy manzarasi erkaklar nuqtayi nazaridan shakllantirilishi bois turli jinsga oid shakllar nomlanishi bir tekis emas. Masalan, qator tillarda odam va erkak tushunchalari bir xil nomga ega (ing. man, o'zb. odam; qoraqalpoq. adam), ayollar esa inkor qilinadi.

AQShda o'tgan asrning 60-yillarida bo'lib o'tgan feministik namoyishlar oqibatida ingliz tilidagi *chairman*, *mailman* so'zlari o'rniga *chairperson*, *mailcarrier* kabi betaraf atamalar qo'llanila boshlandi. Shuningdek, *doctors and their wives* ("doktorlar va ularning xotinlari") o'rniga *doctors and their spouses* (doktorlarlar va ularning rafiqalari) birikmasi afzal ko'rilmogda.(Caфapov III. 2023, 61-6.)

Demak, androtsentrizm tushunchasi mohiyatan erkaklarga xos dominantlik belgilar bilan ustuvorlik qilish degan ma'noni anglatadi. Antropotsentrik tilshunoslikda asosiy e'tibor va tahlillar inson omilini hisobga olgan holda belgilansa, feministik lingvistikaning shakllanishi tilda androtsentrik g'oyalarga qarshi turish natijasida yuzaga keldi. Erkakning feministik lingvistikada ustuvorlik qilishi, ya'ni

androsentrik belgi olamning lisoniy manzarasida ayolning ikkinchi planda tasvirlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbeklarda islomiy va shariat qoidalariga ko'ra, feministik dunyoqarash va qoidalar ustuvorligi ham kuzatiladi. Bundan tashqari, *"Islomda oila rahbarligi, mas'uliyat sifatida aynan erkakka yuklatilgan. Bu, albatta, Alloh taoloning amri ila bo'lgan. Alloh taolo Niso surasida shunday deb marhamat qiladi: "Alloh ba'zilarini ba'zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun, erkaklar ayollarga rahbardirlar" (Niso surasi 34-oyat) ("Baxtiyor oila")*

Aynan shunday tushunchalar sifatida o'zbeklar uchun odat tusiga kirgan lisoniy hodisalarning mavjudligidir. Xususan, mahr tushunchasi o'zaro nikohlanuvchilar o'rtasida ayolga beriluvchi moliyaviy-moddiy birlik sanaladi. U nikohlanuvchi erkak tomonidan ayolga in'om qilinuvchi pul yoki qimmatbaho buyumdur. Buni feministik lingvistika uchun lisoniy asos deb baholash niyatida emasmiz, balki aynan mahr qaysi jins tomonidan berilishi va ikki jinsdan kim buni olishga haqli degan tushuncha nuqtayi nazaridan fikr aytmoqchimiz. Ayni paytda islomiy dunyoning lisoniy manzarasida nikoh degan tushuncha mavjud bo'lib, uning mohiyati erkak va ayol jinsi o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi islomiy qoidalardan iboratdir. Shu bilan birga nikohning buzilishiga nisbatlangan so'z aytish huquqi yoki maqomining erkaklarga xosligi islom diniga e'tiqod qiluvchilar uchun norma deb qabul qilinadi hamda bu so'z genderologik jihatdan androsentrik termin ifodalagan tushuncha mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Adabiyotlar

Зиновьева У.С. (2016). Феминистская лингвистика в контексте постмодернистской философии. // *Верхневолжский филологический вестник*.

Зиновьева Е.С. (2018). Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевого журналов (на материале английского и русского языков): дисс. ... канд. филол. наук. Ярославль.

Lakoff R. (1975). *Language and Women's place*. New York: Harpen and Row.

Полевая И.В. (2014). Речевые гендерные стереотипы и их реализация в российском аналитическом телевизионном дискурсе (на материале ток-шоу «диалог» и «в фокусе» телеканала РБК-ТВ): дисс. ... канд. филол. наук.

Потапов В.В. (2002). *Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии*. // Вопросы языкознания.

Сафаров Ш. (2023). *Социолингвистика: инглизча-русча-ўзбекча лугат*. Қарши. Intellekt.

Словарь гендерных терминов. (2002). Информация XXI век. // Словарь гендерных терминов (doc (studylib.ru)) (murojaat sanasi: 10.04.2024)

Словарь иностранных слов. (1988). Русский язык.

Xudoyberganova D. (2022). *Antroptsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. Toshkent: Turbo nashr.

“YANA” YUKLAMASINING PRESUPPOZITSIYASI

Usmonjon Rahimov *

Annotatsiya

Ushbu maqolada “yana” so‘zining yuklamalik xususiyati, gapning semantik tuzilishida bitta gapga teng bo‘lgan hukm ifodalab, presuppozitsiya anglatishi va gapning semantik tuzilishini murakkablashtirish o‘rinlari haqida ilmiy qarashlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Propozitsiya, presuppozitsiya, eksplitsit hukm, implitsit hukm, predikat, konstuent.*

PRESUPPOSITION OF LOADING AGAIN

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Andijon davlat universiteti

Abstract

In this article, scientific views are given on the presuppositional nature of the word "again", the meaning of presupposition in the semantic structure of the sentence, and the places of complicating the semantic structure of the sentence.

Key words: *proposition, presupposition, explicit sentence, implicit sentence, predicate, constant.*

Hozirgi davrgacha bo'lgan tilshunoslikda **yana** so'zining qanday so'z turkumiga kiritilishi haqida turlicha fikrlar bor. Ba'zi adabiyotlarda biriktiruv bog'lovchilari qatorida talqin etilsa[1.123.], ba'zilarida fe'l-ravishlar qatorida izohlanadi[2.187.]. Ayrim adabiyotlarda daraja-miqdor ravishiga kiruvchi, harakat va belgining ortiqligini ko'rsatuvchi so'z[3.230.] yoki kuchaytiruv ravishi tarkibida izohlanadi[4.539.]. Ba'zi adabiyotlarda **yana** so'zi haqida gapirilmay, shu so'zning sinonimii bo'lgan *tag'in* so'zi haqida fikr aytiladi. *Tag'in* so'zi yuklama deb atalganligi uchun biz «**yana**»ni ham yuklama deb tushundik[5.220.]. Ko'rinadiki, yana yuklamasi xususidagi fikrlar bir xil emas. Agar birgina adabiyotda yuklama deb ataganligini hisobga olmasak, yuklama bo'lib kelish o'rinlari haqida deyarli birorta manba yo'q.

V.I.Koduxovning fikricha, birorta so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlash uchun shu so'zning semantik, morfologik va sintaktik belgilarini birgalikda olib tekshirish kerak[6.232.]. Bu fikrga sistemalilik nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsagina bir so'zni bir butunlik sifatida olib, butunlikka xos bo'lgan elementlarni – semantik, morfologik va sintaktik belgilarni shu butunlikni xarakterlovchi sistema sifatida izohlash mumkin bo'ladi. Agar shu sistema elementlarining birortasi xarakterlovchi belgilikdan mahrum bo'lsa, u holda sistemada o'ziga xos parchalanish yuzaga keladi va sistemaning sifati ham o'zgaradi. O'zidan kattaroq bo'lgan sistemaga elementlik funktsiyasi va sifati ham yangilik kasb etadi. CHunki so'zlar o'zidan kattaroq bo'lgan so'z birikmasi va gapning elementi hisoblanadi va o'zaro bir-biri oppozitsiyada o'ziga xos funktsiyani bajaradi. So'zlarning oppozitsiyasi kontekstda reallashadi. Kontekstda so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub ekanligi aniq bilinadi. Ayniqsa, leksik ma'nosi aniq bo'lmagan so'zlarni kontekstsiz izohlash mumkin emas. CHunki leksik ma'nosiga aniq chegara qo'yilmagan so'zlarni belgilashda grammatik ma'no va sintaktik bog'lanish asosiy mezon hisoblanadi. SHu jihatdan **yana** yuklamasining kontekst ichida kelish o'rinlari kuzatilganda, juda ko'p hollarda yuklama bo'lib kelishi ko'zga tashlanadi. M.: *Mahkam chiroqni o'chirib, yana uyquga ketdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 251-bet) gapida **yana** so'zi kesimga bog'lanib, holatning takrorlanganligini ta'kidlab kelmoqda va kesim bilan bitta so'roqqa javob bo'lmoqda. Agar bu so'zni mustaqil so'z turkumi deb qaraydigan

bo'lsak, o'zi mustaqil so'roqqa javob bo'lishi kerak edi. Kesimga bog'lanib, ish-harakat va holatning takroriylikini bildirganligi uchun ravish deb atasak, u holda ravishning so'roqlaridan biriga javob bo'lishi kerak edi. Lekin **yana** so'ziga ravishning birorta ham so'rog'ini berib bo'lmaydi. Agar daraja-miqdor ravishlaridan kuchaytiruv ravishi deb ataladigan bo'linsa, u holda bu so'z kuchaytirish funktsiyasini bajarishi kerak edi. Bizningcha, bu so'zda kuchaytiruv funktsiyasi yo'q. Bunday holni kuchaytiruv ravishlari bilan taqqoslanganda aniqlash mumkin. Kuchaytiruv ravishlari eng, juda, nihoyatda kabilarda haqiqatan kuchaytirish ma'nosi bor. M.: *Karimaning ko'ngli nihoyatda bo'sh edi* («SHarq yulduzi») gapida kuchaytirayapti. Ammo o'zi alohida savolga javob bo'lmasa ham kuchaytirish ma'nosi bor. SHuning uchun **yana** so'zini kuchaytiruv ravishi deyishimizga asos qolmaydi. SHuningdek, *nihoyat, g'oyat, tag'in, naq, o'ta, lang, qoq, hech, sira, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda* kabi so'zlarda ham mustaqillik aniq ko'rinmaydi. Bu so'zlar juda ko'p o'rinlarda yuklamalarga xos vazifani bajarmoqda.

Agar yuklamalarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib izohlaydigan bo'lsak, yuqorida ko'rib o'tilgan so'zlar ma'lum bir so'zga ma'no jilosini beradi. Lekin o'zi yakka holda mustaqil ma'no anglatmaydi va mustaqil holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'lmaydi. SHuning uchun «sifatlardagi orttirma darajani yasovchi turli kuchaytiruv ma'nosini beruvchi so'zlar»ni va «tasdiq, hamda inkor yo'li bilan hosil qilingan kuchaytiruv ravishlari»ni, bizningcha, yuklamalar qatorida talqin etish kerak bo'ladi. CHunki bu so'zlarda mustaqillik ma'nosi yo'qolgan va yordamchiga aylangan. Yordamchi so'zlar ichida yuklamalar ayrim so'zlarga va gaplarga ma'no jilosini Bera oladi. SHuning uchun yuqoridagi so'zlarni yuklama deyishimiz, bizningcha, to'g'ri bo'ladi. **Yana** so'zida esa kuchaytiruv ma'nosidan ko'ra, ta'kid ma'nosi ko'proq anglashiladi. To'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, **yana** yuklamasi juda ko'p o'rinlarda ta'kid ma'nosini anglatib kelar ekan. SHunga ko'ra **yana** so'zini ta'kid yuklamasi deb atadik va ta'kid ma'nosini tahlil qilishda shu so'zning qanday so'zlar bilan kelgani hamda qo'llanish o'rinlarini asos qilib oldik.

Yana yuklamasi *ham, faqat, emas* yuklamalari singari so'zga va gapga ma'no jilosi berish bilan birga, o'zi qatnashgan gapning semantik strukturasiga ham ta'sir etadi va presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. SHuning uchun qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, yana yuklamasining qanday so'zlar bilan kelish o'rinlarini tahlil qilishda ko'proq presuppozitsiya anglatib kelishiga to'xtalindi.

Yana so'zi faqat ish-harakatni bildirgan so'zlar bilan birga kelib qolmay, balki boshqa so'z turkumlari bilan ham birga qo'llana oladi va unda turli xil ma'no jilolari berib kelish xususiyati ham bor. M.: *Yana Akbarov hayolida gavdalandi va yana uning «naryog'idan» degani qulog'iga eshitilib ketdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 6-bet) gapida ta'kid ma'nosini ifodalab kelayapti va bu gapda belgining belgisini, ish-harakatning belgisini yoki kuchaytirish ma'nolarini ifodalash xususiyati sezilmaydi.

Yana soʻzi barcha gap boʻlaklari bilan birga kela oladi. SHuning uchun bu soʻzning turli oʻrinlarida kelishini alohida tahlil etish yangi-yangi qirralarni ochib beradi. Yana soʻzining gapda kelish oʻrni erkin. Gapning boshida ham, oxirida ham kela oladi va turli maʼnodagi presuppozitsiya anglatish vositasi boʻla oladi. Gapning semantik strukturasini murakkablashtiradi va birdan ortiq propozitsiyani anglatib keladi. SHuning uchun biz **yana** yuklamasining gap ichida qaysi gap boʻlagi bilan birga kelib, qanday maʼnodagi presuppozitsiya anglatib kelish oʻrinlariga koʻproq toʻxtalamiz.

Yana yuklamasi ega bilan birga kelib, agar ega vazifasidagi soʻz ish-harakatni bajaruvchi shaxs boʻlsa, ish-harakat shu shaxs tomonidan takroriy bajarilganligini taʼkidlab koʻrsatadi va ish-harakatning shu shaxs tomonidan avval ham bajarilganligi toʻgʻrisidagi implitsit hukmga ishora qilib, takroriylik maʼnosidagi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. M.: 1. *Zum oʻtmay Yana Rashid abzi garmonini choʻzib qoldi.* (Oʻ.Xoshimov. Ikki eshik orasi, 75-bet) gapida ish-harakatni bajargan shaxs taʼkidlanayapti va «Oldin ham Rashid abzi garmonini choʻzgan» degan presuppozitsiyani anglatayapti. Yoki *Yana hamma uning soʻziga jim turib quloq soldi* (A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari. 69-bet) gapida ham quloq solgan kishilar taʼkidlanayapti va «Avval ham quloq solgan, avval ham qandaydir maʼruza boʻlgan» degan presuppozitsiya anglashilayapti. Agar **yana** yuklamasini tushirib qoldiradigan boʻlsak, u holda taʼkid maʼnosi va presuppozitsiya anglashilmay qoladi. Solishtiring: *Zum oʻtmay Rashid abzi garmonini choʻzib qoldi. Zum oʻtmay yana Rashid abzi garmonini choʻzib qoldi.* Koʻrinadiki, birinchi gapda taʼkid maʼnosi hamda ish-harakatni oldin ham aynan Rashid abzi bajarganligiga ishora qilinmayapti va presuppozitsiya anglashilmayapti. Keyingi gapda esa taʼkid maʼnosi bor va gapning semantik strukturasida ham ikki propozitsiya anglashilgan. Birinchi propozitsiya gap konstuentlari orqali eksplitsit ifodalangan boʻlsa, ikkinchi propozitsiya **yana** yuklamasining presuppozitsiyasi orqali implitsit anglashilmoqda. Demak, yuqoridagi gaplarda **yana** soʻzi taʼkid yuklamasi boʻlib kelgan va *ham, faqat, emas* yuklamalari singari gapning semantik strukturasini murakkablashtirib, presuppozitsiya anglatish vositasi boʻlib kelmoqda.

Presuppozitsiyaning turli maʼnolarda boʻlishi **yana** yuklamasining qaysi boʻlakka bogʻlanib kelishiga bogʻliq. SHuning uchun bu yuklama ishtirok etgan gaplarda hamisha ikki hukm mavjud boʻladi. Gapning semantik strukturasida anglashilgan hukmlarning xarakteri bir-biriga mos boʻladi. Agar eksplitsit anglashilgan hukm tasdiq xarakterda boʻlsa, implitsit anglashilgan hukm ham tasdiq xarakterda boʻladi yoki aksincha. Bunday mutanosiblikni quyidagi model orqali koʻrsatish mumkin:

1. Yana ega . . . kesim boʻlishli (gap)

Propozitsiya : S – R tasdiq xarakterda. S₁ tasdiq

Presuppozitsiya: S – R tasdiq xarakterda. S₂ tasdiq.

2. Yana ega . . . kesim bo'lishsiz (gap)

Propozitsiya : S – R inkor xarakterda. S₁ inkor

Presuppozitsiya: S – R inkor xarakterda. S₂ inkor

Demak, **yana** yuklamasi gapda qaysi bo'lakka bog'lanishidan qat'iy nazar gap predikatining formasi gapda anglashilgan hukmlarning xarakteriga ta'sir etar ekan. Agar gap predikati bo'lishli formada bo'lsa, gapdan anglashilgan hukmlar tasdiq xarakterda bo'ladi yoki aksincha. Hukmning har qanday xarakterda bo'lishi **yana** yuklamasiga bog'liq emas. **Yana** yuklamasi sub'ekt va predikat orqali shu sub'ekt predikat xarakteriga bog'liq holda tushuniladigan implitsit hukmga ishora qiladi hamda presuppozitsiyani yuzaga keltiradi.

Yana yuklamasi gapda egaga birikib kelganda, ish-harakat aynan o'zi bog'lanib kelgan ega orqali (boshqasi emas) bajarilganligini, ya'ni ish-harakat bajaruvchisini ta'kidlab ko'rsatadi va shu asosda presuppozitsiyani yuzaga keltiradi.

Yana yuklamasi kesimga bog'lanib kelganda esa yuqorida ko'rib o'tilgandan boshqacharoq holat ko'zga tashlanadi. M.: *Ertasi kuni Obid Yo'ldoshevich uni yana chaqirdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 303-bet) gapida Yana yuklamasi kesimga bog'lanib, aynan bir ish-harakatning takror yuzaga kelganligini ta'kidlab ko'rsatayapti. Agar **yana** yuklamasi tushirib qoldirilsa, chaqirish – ish-harakatning takrorlanganligini ta'kidlash anglashilmay qoladi. SHuning uchun bu gapda aynan, «chaqirish»ning takroriyiligini ta'kidlashga va «u avval ham chaqirilgan» degan presuppozitsiyani yuzaga kelishida **yana** yuklamasi vosita bo'lmoqda.

Yuzaki qaraganda, **yana** yuklamasi gapning egasiga birikib kelgandagi holat kesimga birikib kelgandagi holatga o'xshab ketadi. Lekin chuqurroq tahlil etilganda, alohidaligi aniq bilinadi. CHunki egaga birikib kelganda ish-harakatning bajaruvchisi ta'kidlansa, kesimga birikib kelganda esa ish-harakatning o'zi ta'kidlanadi. Birinchisida yuzaga kelgan ish-harakat nutq so'zlangan paytdan avval ham aynan **yana** yuklamasi ta'kidlab ko'rsatayotgan ega tomonidan bajarilgan ekanligi anglashilsa, ikkinchisida **yana** yuklamasi ta'kidlab ko'rsatayotgan ish-harakat avval ham bajarilganligi anglashiladi. Birinchisida presuppozitsiya egaga nisbatan belgilansa, ikkinchisida kesimga nisbatan belgilanadi. SHuning uchun **yana** yuklamasining ega bilan va kesim bilan birga qo'llanilishini alohida-alohida tahlil etish zarur.

Ba'zi adabiyotlarda **yana** yuklamasi kesimga bog'lanib, ish-harakatning takror bajarilganligini bildirganligi uchun ravish so'z turkumiga kiritiladi[3.230.]. Lekin hozirgi davrda leksik ma'nosi yo'qolib, mustaqil holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'la olmaganligi bu so'zni ravish deb qarashga tamomila ziddir. CHunki mustaqil so'zlar o'zi yakka holda leksik ma'no anglatishi va mustaqil holda gapning bo'lagi bo'lib kela olishi bilan alohidalik kasb etadi. SHuning uchun yana so'zini kesimga

bogʻlanib kelish hollarida ham bu soʻzning mustaqil soʻz turkumi ekanligi sezilmaydi. Yoki ravish soʻz turkumi deb talqin etilgan adabiyotlarda yana soʻzining ravishligini koʻrsatish uchun berilgan misollarda ham mustaqil soʻz ekanligini anglab olish qiyin. M.: *Ota yana soʻzini davom etdi* (R.Fayziy)[4.533] gapida yana soʻzining mustaqilligini qanday qilib izohlash mumkin? Agar mustaqil soʻz turkumi deb qaralsa, u holda leksik maʼnosi boʻlishi kerak edi, lekin maʼnosi yoʻq. Mustaqil holda maʼlum bir soʻroqqa javob boʻlishi kerak edi, lekin qanday soʻroqqa javob boʻlishi aniq emas. Agar savol beriladigan boʻlinsa, Ota nima qildi? – deb beriladi va yana soʻzida davom etdi – deb javob beriladi. Demak, yana soʻzi ish-harakat bildirgan soʻzlar bilan birgalikda qoʻllanganda ham yuklamalilik xususiyati saqlanadi va gapning semantik strukturasini murakkablashtiradi. M.: *Oldimizda turgan appa-aniiq vazifani siz yana tumanlashtirayapsiz* (A.Muxtor. Tugʻilish, 206-bet) gapida ham yana yuklamasi kesimga bogʻlanib kelib, tumanlashtirish avval ham boʻlganligini koʻrsatayapti va «vazifa oldin ham tumanlashtirilgan» degan presuppozitsiyani yuzaga keltirayapti. SHunig uchun ham bu gapning semantik strukturasida ikki hukm mavjud. Bu gapda birinchi hukm gap konstuentlari orqali eksplitsit anglashilgan boʻlsa, ikkinchi hukm ham tasdiq xarakterda. CHunki gapning predikati tasdiq formada boʻlganligi uchun yuqoridagicha holat yuzaga kelayapti. Agar predikat inkor formada boʻlganda edi gapdan anglashilgan hukmlarning xarakteri ham inkor tarzda boʻlar edi. Demak, yuqorida taʼkidlanganidek, hukmlarning xarakteri gap predikatining qanday formada kelganligiga bogʻliq ekan. M.: *Eshikka yetganimda yer yana silkindi* (Oʻ.Xoshimov. Ikki eshik orasi, 546-bet) gapida ham **yana** yuklamasi kesimga bogʻlanib kelgan va «silkinish»ning takrorlanganligini taʼkidlab koʻrsatayapti hamda «Eshikka yetmasdan oldin ham yer silkingan» degan presuppozitsiyani yuzaga keltirayapti. Presuppozitsiya kesimga asosan belgilanmoqda. Bu gapning strukturasida ham ikki hukm mavjud. Ikala hukm ham tasdiq xarakterda.

Yana yuklamasining kesimga bogʻlanib kelishi holatini quyidagi modelda koʻrsatish mumkin:

Sintaktik struktura

Semantik struktura

E – yana – kesim boʻlishli

S – R tasdiq propozitsiya

S – R tasdiq presuppozitsiya

2. E – yana – kesim boʻlishsiz

S – R inkor propozitsiya

S – R inkor presuppozitsiya

Yana yuklamasi juda koʻp hollarda oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzdan oldin keladi.

Yana yuklamasining oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzdan keyin kelish hollari faqat kesimga

bog‘langandagina yuz beradi. Boshqa gap bo‘laklariga bog‘lanib kelganda bunday holat ko‘zga tashlanmaydi. Lekin stilistik nuqtai nazardan ayrim poetik asarlarda inversiyaga ko‘ra o‘zi bog‘langan so‘zdan keyin kelishi mumkin. Anna shunday holatlarda ham turli ma‘nodagi presuppozitsiyalarni yuzaga keltira oladi. M.: *Miyasiga ming xil fikrlar kelib chuvalasha boshladi yana* (J.Abdullaxonov. Borsa kelmas. 127-bet) gapida kesimdan keyin kelayapti. Gapda «uning miyasi avval ham chuvalashgan degan» presuppozitsiyaga vosita bo‘lmoqda. Yoki: *Sochini savdosi tushti boshima boshdin yana* (Bobur. Tanlangan asarlar. T., 1983. 6-bet) gapida inversiyaga ko‘ra o‘zi bog‘lanib kelgan bo‘lakdan keyin kelayapti va «sochining savdosi avval ham tushgan» presuppozitsiyasini yuzaga keltirayapti. Ko‘rinadiki, **yana** yuklamasining o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zdan oldin yoki keyin kelish holatlari presuppozitsiya anglatib kelishiga ta’sir etmaydi.

Yana yuklamasi aniqlovchi bilan ham birgalikda kelib, presuppozitsiya anglatadi. M.: *Lekin yana Akbarovning ovozi e’tiborini tortdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 72-bet) gapida **yana** yuklamasi qaratqich aniqlovchiga bog‘lanib kelib, ovoz egasini ta’kidlab ko‘rsatayapti va «Avval ham Akbarovning ovozi e’tiborini tortgan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti. Yoki *Mahkam «tarix» so‘zini alohida talaffuz etib, shu bilan yana tarixning ustunligini ta’kidladi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 50-bet) gapida ham qaratqich aniqlovchiga bog‘lanib, tarixning (boshqa narsaning emas) so‘zini ta’kidlab ko‘rsatayapti va «Mahkam «tarix» so‘zini alohida talaffuz etganda ham tarixning ustunligini ta’kidlagan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti.

Yana yuklamasi belgisiz qaratqich aniqlovchilari bilan birga qo‘llanganda ham presuppozitsiya anglatadi. M.: Kozimov yana uchastka boshlig‘i (A.Muxtor. Tug‘ilish, 243-bet) gapida «Kozimov avval ham uchastka boshlig‘i bo‘lgan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti.

Yana yuklamasi turli so‘z turkumlari bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilar bilan birgalikda qo‘llanib ham presuppozitsiya anglatadi. M.: 1. *Lekin kechasi to‘shakda yana o‘sha o‘ylar hujumga o‘tdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 57-bet) . 2. *Nariroqda yana bitta arava kelayotgan ekan* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 107-bet). 3. *Har holda Toshkent ustiga yana qonli bulutlar chiqdi* (A.Qodiriy. O‘tgan kunlar, 37-bet) . 4. ... *U yana tubsiz o‘ylar kirdobida qoldi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 57-bet). Birinchi gapda olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi-anqiqlovchini ta’kidlab ko‘rsatayapti va «O‘sha (boshqasi emas) o‘ylar avvallari ham hujumga o‘tgan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti. Ikkinchi gapda son bilan ifodalangan sifatlovchi-anqiqlovchini ta’kidlab ko‘rsatayapti va «beriroqda ham bitta arava kelayapti» degan presuppozitsiyani yuzaga keltirayapti. **Yana** yuklamasi, son so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘laklarni ta’kidlab kelganda, o‘zi ta’kidlab kelayotgan bo‘lakning «qo‘shimcha» ekanligini bildiradi va shu asnoda presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. M.: *Ertasiga yana ikkita ariza tushdi* (A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. 58-bet)

gapida ham son bilan ifodalangan aniqllovchini ta'kidlab ko'rsatayapti va «Avval ham arizalar tushgan» presuppozitsiyasiga ishora qilayapti.

Uchinchi gapda sifat bilan ifodalangan sifatlovchi-aniqllovchini ta'kidlab ko'rsatayapti va «Toshkent ustiga avval ham qonli bulutlar chiqqan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti. To'rtinchi gapda ham sifat bilan ifodalangan aniqllovchiga bog'lanib, «Uni tubsiz o'ylar avval ham girdobiga olgan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti.

Ko'rinadiki, **yana** yuklamasi aniqllovchilar bilan birgalikda qo'llanganda, aniqllovchi va aniqlanmish asosida presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiya **yana** yuklamasi va aniqllovchi hamda aniqlanmishga qarab belgilanadi. Gapning semantik strukturasida yuqorida ko'rib o'tilgandek, ikki propozitsiya mavjud bo'ladi. Propozitsiyalarning biri eksplitsit ifodalangan bo'lsa, Ikkinchisi **yana** yuklamasining presuppozitsiyasi orqali implitsit anglashiladi. Propozitsiyalar orqali anglashilgan hukmlarning xarakteri ham yuqorida ko'rib o'tilgandek bir xilda bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan gaplarning semantik va sintaktik strukturasini ushbu modelda quyidagicha ifodalash mumkin:

Sintaktik struktura

1. E – yana – A qaratqich an. - K bo'lishli
2. E – yana – A qaratqich an. – K bo'lishsiz
3. E – yana – A sifatl. aniq. – K bo'lishli
4. E – yana – A sifatl. aniq. – K bo'lishsiz

Semantik struktura

Propozitsiya

Presuppozitsiya

S – R tasdiq - S₁ tasdiq

S – R tasdiq - S₂ tasdiq

2. S – R inkor - S₁ inkor

S – R inkor - S₂ inkor

3. S – R tasdiq - S₁ tasdiq

S – R tasdiq - S₂ tasdiq

5. S – R inkor - S₁ inkor

6. S – R inkor - S₂ inkor

Yana yuklamasi to'ldiruvchilar bilan kelib ham turli presuppozitsiyalarni anglatadi. M.: *Keyin yana ro'yxatga hayoli ketdi* (P.Qodirov. Uch ildiz, 40-bet) gapida vositali to'ldiruvchiga bog'lanib, «Avval ham hayoli ro'yxatga ketgan» degan

presuppozitsiyaga ishora qilayapti. Presuppozitsiya **yana** yuklamasi va “ro‘yxatga” to‘ldiruvchisi asosida belgilanmoqda. **Yana** yuklamasi hayolning aynan ro‘yxatga ketganligini ta’kidlab ko‘rsatayapti. Presuppozitsiya hayolning aynan ro‘yxatga ketganligi avval ham bo‘lganligi asosida belgilanmoqda.

Yoki: Bir nima esiga tushdi shekilli, yana qo‘lini paxsa qildi (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 9-bet) gapida vositasiz to‘ldiruvchini ta’kidlab kelayapti va «Oldin ham qo‘lini paxsa qilgan» degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti.

Yana yuklamasi to‘ldiruvchilar bilan kelib, presuppozitsiya anglatgan gaplarning semantik strukturasi ham boshqa bo‘laklar bilan kelgan o‘rinlardagi singari murakkab bo‘ladi. Bu gaplarda ham bitta propozitsiya eksplitsit ifodalansa, ikkinchisi implitsit ifodalanadi. Propozitsiyalar orqali anglashilgan hukmlarning xarakteri ham yuqorida ko‘rib o‘tilgan gaplardagi singari bir xil bo‘ladi. Bunday holatni modelda quyidagicha ifodalash mumkin:

Sintaktik struktura

1. E – yana – T vositali – K bo‘lishli
2. E – yana – T vositasiz – K bo‘lishli
3. E – yana – T vositali – K bo‘lishsiz
4. E – yana – T vositasiz – K bo‘lishsiz

Semantik struktura

Propozitsiya

Presuppozitsiya

1. S – R tasdiq - S1 tasdiq
S – R tasdiq - S2 tasdiq
2. S – R tasdiq - S1 inkor
S – R inkor – S2 inkor
3. S – R inkor – S1 inkor
S – R inkor – S2 inkor
4. S – R inkor – S1 inkor
S – R inkor – S2 inkor

To‘ldiruvchilarning belgili va belgisiz, ko‘makchilar vositasida shakllanishi **yana** yuklamasining presuppozitsiya anglatib kelishiga ta’sir qilmaydi. SHuning uchun modelda yana yuklamasining belgili va belgisiz, ko‘makchi konstruktiviyali to‘ldiruvchilar bilan kelgan gaplarning sintaktik va semantik strukturalarini ko‘rsatishga hojat yo‘qligini hisobga olib ko‘rsatilmadi.

Yana yuklamasi hollar bilan birgalikda kelib ham presuppozitsiya anglatadi. Lekin **yana** yuklamasi hollar bilan kelganda, boshqa bo‘laklar bilan birga kelgandagi holatdan o‘zgacharoq ma’nolarni ifodalashi mumkin.

M.: *Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 47-bet) gapda ishora qilinish aniqlanmay qolayapti. CHunki davomiylik ta'kidlanishi yuzaga kelmayapti. Agar "Pakana kishi yana xezlandi va nari ketdi" tarzda bo'lganda edi, "Pakana kishi avval ham xezlangan" degan presuppozitsiyani yuzaga keltirgan bo'lar edi. Lekin "birpas" so'ziga bog'langanligi uchun presuppozitsiya ochiq anglashilmay qolgan. Yoki: *Yana bir necha vaqt jim qoldilar* (A.Qodiriy. O'tgan kunlar, 13-bet) gapida ham yuqoridagicha holat ko'zga tashlanadi. Bu gapda ham holatning davomiyligi ta'kidlanib ko'rsatilgan, lekin presuppozitsiya ochiq anglashilgani yo'q. SHuning uchun **yana** yuklamasining payt bildiruvchi so'zlarga bog'lanib kelish o'rinlarini alohida tahlil etish kerak. Ayrim o'rinlarda payt holiga bog'lanib kelganda ham presuppozitsiya anglatib kelishi mumkin. M.: ... *Yana uch kun "Qora ammamning ichidagi "odamchalar" chalayotgan "xushtak"ni eshitib yotishga majbur bo'ldim* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 112-bet) gapida ish-harakatning davomiyligi ta'kidlanayapti va "Avval ham ... hushtakni eshitib yotgan" presuppozitsiyasiga ishora qilinayapti. Bu gapda ham holatning davomiyligi bor, lekin davomiylik aniq payt bilan chegaralanmaganligi uchun presuppozitsiya shu asosda yuzaga kelayapti. Agar davomiylik aniq payt bilan chegaralanmaganda edi presuppozitsiya ochiq ifodalanmay qolar edi.

Agar hol vazifasidagi so'z aniq o'rinni anglatib kelsa, presuppozitsiya shu o'ringa nisbatan va yana yuklamasining takroriyligi asosida ifodalanadi. M.: *Kechqurun bo'lsa dadam meni ko'tarib, yana choyxonaga olib chiqdi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 19-bet) gapida hol vazifasidagi so'z aniq o'rinni bildirgani uchun shu o'ringa qayta chiqish asosida presuppozitsiya belgilanmoqda va "Dadasi uni avval ham choyxonaga olib chiqqan" degan presuppozitsiya anglashilyapti. Yoki: *Urush g'arbda, rota frontdan uch-uch yarim ming kilometr berida, ya'ni SHarqqa qarab ketayotibdi* (A.Qahhor. Asarlar, 3-t., 4-bet) gapida ham hol vazifasidagi so'z aniq o'rinni bildirayapti, yana yuklamasi shu o'rinni ta'kidlab ko'rsatib, "Rota avval ham SHarqqa qarab yurgan" degan presuppozitsiyaga ishora qilayapti.

Yana yuklamasi hollar bilan birikib kelganda, ish-harakat va holatning yuzaga kelish tarzi, payti, o'rni, sababi, maqsadi va darajasining takroriyligini ta'kidlab ko'rsatadi va shu asosda presuppozitsiyaga ishora qiladi. Bu yuklamaning hollar bilan birikib kelishi boshqa bo'laklarga birikib kelishiga nisbatan ko'proq uchraydi. SHuning uchun bu yuklamani ravish so'z turkumiga kiritib talqin etganlar. Lekin yuqorida ko'rib o'tilganidek, ravish so'z turkumiga yaqin ma'no anglatlsa ham mustaqilligi aniq bilinmaydi.

Yana yuklamasi ham yuklamasi bilan qo'shaloq holda kelib, kuchaytiruv-ta'kid ma'nosi ifodalab keladi va shu asosda presuppozitsiyaga ishora qiladi. M.: *Karim buva tepaga chiqib yana ham qattiqroq baqirdi* ("SHarq yulduzi") gapida

kuchaytirish ma'nosi ifodalangan va "Karim buva avval ham baqirgan" presuppozitsiyasi anglashiladi. Lekin avval sekinroq baqirgan.

Yana yuklamasi o'zi alohida so'z gap bo'lib ham keladi. Bunday holatlarda turli yuklama affikslarni olib kelishi ham mumkin. O'zi yakka holda kelganda ham, turli yuklama affikslarni olib kelganda ham avvalgi kontekstdagi mazmunga, holatga, harakatga va shu kabi hodisalarga ishora qiladi. Lekin bundan mustaqil so'z ekan degan xulosa kelib chiqmaydi. CHunki o'zi yakka holda kelganda ham leksik ma'no anglatmaydi, balki avvalgi kontekstdagi mazmunga ishora qiladi xolos. Agar avvalgi kontekst bo'lmasa o'zi yakka holda hech qanday mazmunni anglatmaydi. M.: - *Ochil bugun ham konspektsiz kelibdi. – Yana-ya?* (P.Qodirov. Uch ildiz, 131-bet).

Gaplaridan birinchisi tushirib qoldirilsa, biror ma'no ilg'ab olish qiyin. Lekin birgalikda olinganda ikkalasi ham alohida-alohida mazmun anglatadi. – Yana-ya? gapining mazmuni presuppozitsiya asosida tushuniladi. CHunki presuppozitsiyasiz so'z gaplarning, to'liqsiz gaplarning, atov gaplarning mazmunini belgilab bo'lmaydi. SHuning uchun **yana** yuklamasining o'zi alohida kelib, mazmun anglati olishini mustaqil so'z turkumi ekanligidan emas, balki presuppozitsiyaga ishora qila oladigan yuklama ekanligidan deb qarash kerak bo'ladi. **Yana** yuklamasi turli yuklama affikslarni olib kelishi mumkin. M.: *Yanami? Yana-ya? Yana ham, yanachi?* qolgan affiks yuklamalarni faqat gap ichida, boshqa bo'laklar bilan bog'lanib kelgandagina oladi.

Yana yuklamasi o'rnida **tag'in** yuklamasi ishlatilishi mumkin. Bu yuklamalar sinonim yuklamalar hisoblanadi. SHuning uchun bu yuklamalarni bir-biridan ajratib izohlashni lozim topmadik. CHunki **tag'in** yuklamasi ham huddi **yana** yuklamasi singari gapning barcha bo'laklari bilan birga kela oladi va yana yuklamasi anglatgan presuppozitsiyalarga ishora qila oladi. Faqat tag'in yuklamasi hozirgi tilimizda keng iste'moldagi yuklama emas. **Tag'in** yuklamasining o'rniga **yana** yuklamasi ko'proq ishlatiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak yana yuklamasi izohlangan adabiyotlarda **tag'in** yuklamasi xususida birorta ham fikr bildirmagan. Faqat A.Hojiev (bu xususda avvalgi betlarda yozilgan) yuklama deyish kerak deb aytadi xolos. Bizningcha tag'in yuklamasi yana yuklamasiga sinonim sifatida bimalol qo'llash mumkin. CHunki yana yuklamasi beradigan ma'no jilolarni tag'in yuklamasi ham bera oladi. M.: *Karim tag'in keldi // Karim yana keldi.* Ko'rinadiki, bu gaplarda hech qanday ikki xillik yo'q. Faqat takroriylik sinonim yuklamalar orqali ifodalanmoqda xolos.

Demak, **yana** va **tag'in** so'zlari yuklama hisoblanadi. Bu yuklamalar kuchaytiruv va ta'kid yuklamalariga kiritilishi kerak. Bu yuklamalar ham boshqa yuklamalar singari presuppozitsiyaning ishora vositasi bo'la oladi va gapning barcha bo'laklari bilan birikib keladi. Bu yuklamalar ishtirok etgan gaplarning ham semantik strukturasi murakkablashadi va gapdan ikkita propositsiya anglashiladi. Propozitsiyani biri gap konstituentlari orqali eksplitsit ifodalansa, ikkinchisi **yana** va

tag'in yuklamalarining presuppozitsiyasi orqali implitsit anglashiladi. Bu yuklamalar ishtirok etgan gaplarda ham ikki hukm mavjud bo'ladi. Hukmlarning biri eksplitsit anglashilsa, ikkinchisi implitsit anglashiladi. Hukmlarning xarakteri gap predikatining formasiga bog'liq bo'ladi va ikkala hukm ham bir xil xarakterda bo'ladi.

Bu yuklamalar ishtirok etgan gaplarning sintaktik va semantik strukturalarini quyidagi umumiy jadvalda ko'rsatish mumkin:

№	Gapning sintaktik strukturalari	Gapning semantik strukturalari	
		Propozitsiya	Presuppozitsiya
1	Yana – E-K bo'lishli	S-R tasdiq -S ₁ tas	S-R tas-S ₂ tas
2	Yana – E-K bo'lishsiz	S-R inkor -S ₁ in	S-R in-S ₂ in
3	E-Yana – -K bo'lishli	S-R tasdiq -S ₁ tas	S-R tas-S ₂ tas
4	E-Yana –K bo'lishsiz	S-R inkor -S ₁ in	S-R inkor-S ₂ in
5	E-yana-a qar.a-K b-li sif.a	S-R tasdiq-S ₁ tas.	S-R tas.-S ₂ tas
6	E-yana-A sif.a.-K b-li qar.a	S-R inkor-S ₁ ink.	S-R in.-S ₂ in
7	E-yana-T v-li K b-li v-siz	S-R tasdiq-S ₁ tas	S-R tas-S ₂ tas
8	E-yana T v-li K b-siz	S-R inkor S ₁ in	S-R in.-S ₂ in
9	E-yana – X-K bo'lishli	S-R tasdiq S ₁ tas	S-R tas. –S ₂ tas
10	E-yana – X-K bo'lishsiz	S-R inkor S ₁ in	S-R ink.–S ₂ ink

E – ega; S – sub'ekt; K – kesim (bo'lishli, bo'lishsiz); R – predikat (inkor, tasdiq); A-aniqllovchi, (sifat-aniqllovchi, qaratqich-aniqllovchi); T-to'ldiruvchi (vositali, vositasiz); H-hol (holning barcha turlari); S_{1,2} – hukm (inkor, tasdiq); tas-tasdiq, in-inkor.

Bu yuklamalarning presuppozitsiyasi tahlili shu yuklamalar ishtirok etgan sodda gaplarning mazmuniy murakkabligini ko'rsatadi. O'zlari birikib kelgan bo'lak bilan sodda gapga teng bo'lgan mazmun bildiradi. Bu tekst lingvistikasi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Adabiotlar

Mutalibov S.M. (1959). *Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk.*

Tursunov U., Muxtarov J., Rahmatullaev SH. (1975). *Hozirgi o'zbek adabiy tili.*

O'zbek tili grammatikasi. (1975).

Hojiev A. (1988). *Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti.*

“SIRG‘ALI” ETNOTOPONIMINING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA

Hamid Yodgorov*

Annotatsiya

Etnonim va etnotoponimlarni hududlar kesimida to‘plash va tadqiq etish o‘zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma’lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, urf-odatlari, turmush tarzi, o‘lkamiz geografiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma’naviyatimiz ildizlari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borish imkoniyatini beradi. Etnotoponim materiallarini alohida olingan hududlar bo‘yicha to‘plash va o‘rganish esa, ushbu masalaning

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, hamid.yodgorov@mail.ru

mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borish hamda mintaqaviy-lisoniy hodisalar tizimining o'ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini ochishga ko'maklashadi.

Mazkur maqola "Sirg'ali" etnotoponimining kelib chiqishini aniqlashga bag'ishlangan. Maqolada "Sirg'ali" etnotoponimining nomlanish motivi, etimoni, yasaliş modeli va morfologik tuzilishi, bundagi mushtarak hamda mintaqaviy xususiyatlar ilmiy yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *toponim, etnotoponim, etimon, etnik nomlar, urug', qabila, tamg'a, totem, konversiya, morfologik tuzilish, yasaliş usuli.*

ABOUT ETNOTOPONIM OF "SIRGALI"

Abstract

Collecting and researching ethnonyms and ethnotoponyms across regions not only provides valuable information about the stages of formation of the system of proper names in the Uzbek language, but also provides comprehensive research on the history, customs, lifestyle, geography and archeology of our country, as well as the roots of our spirituality. gives the opportunity to go. The collection and study of ethnotoponymic materials for separate regions will help to go deeper into the essence of this issue and reveal the specific laws and features of the system of regional-linguistic phenomena.

This article is dedicated to determining the origin of the ethnotoponym "Sirgali". In the article, the naming motif, etymology, formation model and morphological structure of the ethnotoponym "Sirgali", as well as common and regional features are scientifically explained.

Key words: *toponym, ethnotoponym, etymology, ethnic names, clan, tribe, brand, totem, conversion, morphological structure, method of formation.*

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir (Nurmonov, 2002, 62-63-b.). Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi.

Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining "qat'iy ilmiy terminologiya"ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda "qat'iy ilmiy terminologiya" tushunchasini biror bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan

terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi (Danilenko, 1977, 157-b.).

Ma'lumki, o'zbek tilining lug'at tarkibi shu tilning so'z boyligi, leksik-semantik sistemasi sifatida shakllangan, yaxlit hodisa sanaladi. Lekin shuni ham inobatga olish lozimki, tilimizning lug'aviy tarkibi juda murakkab rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirgan.

Har qanday til leksikasining tarixiy rivojlanish va shakllanish xususiyatlarini bilish uchun o'sha til lug'at tarkibidagi so'zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan chuqur o'rganish, ularning etimologik jihatdan kelib chiqish manbasini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday izlanishlar o'z navbatida o'zbek tilining o'tmishda qaysi qardosh tillar va qardosh bo'lmagan tillar bilan o'zaro munosabatda bo'lganligini aniqlash imkonini beradi, tilning lug'at tarkibi, grammatik qurilishida sodir bo'lgan tarixiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tushunishga zamin hozirlaydi. Bu fikrlar bevosita bizning tadqiq ob'ektimiz bo'lgan etnotoponimlarning shakllanish bosqichlarini aniqlashga ham aloqadordir.

O'zbekiston toponimlari va etnonimlarining paydo bo'lish tarixi, qanday ma'no anglatishi, ajdodlarimiz tarixining qaysi davrida, qachon va qay tarzda yaratilganligi haqidagi faktik ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Hofiz Abro', Muhammad Haydar, Hoqiz Tanish Buxoriy, Rashiddin, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon kabi olim, tarixchi va adiblarning asarlarida mavjuddir.

Etnonim va etnotoponimlarni to'plab tadqiq etish o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, urf-odatlari, turmush tarzi, o'lkamiz geografiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma'naviyatimiz sarchashmalari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borishga asos bo'la oladi. Etnotoponim materiallarini alohida olingan hududlar bo'yicha to'plash va o'rganish esa, ushbu masalaning mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borish hamda mintaqaviy-lisoniy hodisalar tizimining o'ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini ochishga ko'maklashadi (Otajonova, 1997, 4-b.).

Etnonim va etnotoponimlarning tadqiqi nafaqat tilshunoslik uchun, shu bilan birga, tarix, arxeologiya, etnografiya, geografiya, madaniyat va din tarixi uchun ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishgach, o'z qadriyatlarimiz va tariximizga qayta nazar solish zaruriyati tug'ilgan hozirgi davrda yana ham yuksakroq ahamiyat kasb etadi. Shu bois xalqimiz o'zligini namoyon etuvchi barcha tarixiy an'analarning tiklanish jarayoni davom etmoqda. Bu jarayonlar toponimika sohasida ham faol kechmoqda. Sobiq Sho'rolar mafkurasiga xizmat qilgan sun'iy nomlar o'rniga joylarning azaliy nomlari qayta tiklanmoqda. Mushtarak aytganda,

mustakil O'zbekistonda istiqlool o'lkasining o'ziga xos, ya'ni milliy an'analar zamirida shakllangan toponimik siyosati yuzaga keldi.

Xo'sh, etnotoponim o'zi nima? Etnotoponim (yunoncha etnos — xalq, topos — joy, onoma — nom) — qabila, urug'-aymoq nomiga qo'yilgan toponimlar: Qo'ng'iroq, Nukus, Mitan va hokazo.

Tadqiqotning asosiy ob'ekti yurtimiz hududlaridagi, jumladan, Zomin vohasidagi "Sirg'ali" etnotoponimi va uning lug'aviy asosidir. Ishda o'rni bilan, mavzu talabiga ko'ra, bir qator tarixiy yozma yodgorliklarda, maxsus lug'atlar va ilmiy manbalarda uchraydigan onomastik materiallarga murojaat qilindi.

Etnonimlar va etnotoponimlar, bir tomondan, zamonaviy (sinxron) material hisoblansa, ikkinisi tomondan, ular o'ta qadimiy, ya'ni ko'hna nomlardir. Shu sababli ularni tadqiq qilish faqatgina bir usul yordamida amalga oshishi mumkin emas. Shunga ko'ra, maqolada nomlarni tahlil qilishning tavsifiy, tarixiy-qiyosiy hamda tarixiy-etimologik usullaridan foydalanildi.

Etnik nomlar tildagi eng qadimiy so'zlar hisoblanadi, ular xalq o'tmishi va til tarixini o'rganishning muhim manbalaridan biridir. Etnik guruhlarini nomlash mezonlari rang-barang bo'lgan. Zomin vohasida yashovchi aholining etnik nomlari va ular zamirida hosil bo'lgan etnotoponimlar hozirga qadar lingvistik tomondan chuqur tadqiq qilingan emas. Biz quyida Zomin vohasidagi "Sirg'ali" etnotoponimining etimologiyasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Toponimlarning etimologik tahlilida bir necha faraz (taxmin) berilishi odatdagi hol. Shu o'rinda qaysi bir taxmin boshqalariga nisbatan to'g'ri, degan savol hammani o'ylantiradi. Bizningcha, bu paytda haqiqatga yaqinlik (aniqrog'i, ehtimollik) muammosiga oydinlik kiritish kerak. Haqiqatga yaqinlik atamasi ehtimollik bilan o'zaro sinonimdir. Bu terminni ikkinchi nomi bilan aniqlik muammosi deb ham atash mumkin. Shu o'rinda toponimlar geografiya, tilshunoslik, tarix va geologiya fanlarining o'rganish ob'ekti hisoblanishini e'tiborga olish kerak. Demak, toponimlarning etimologik tadqiqida aniqlik muammosi termini o'rnida haqiqatga yaqinlik muammosi terminini ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Biror obyekt o'rganilayotganda uni atroflicha tadqiq etish hamisha ham mumkin bo'lavermaydi. Buning sababi shundaki, masalani bir necha jihatdan o'rganishning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Shu bois ham tabiiy fanlar tarkibida "Ehtimollik nazariyasi" nomli maxsus fan mavjud va ilmiy ishlarda haqiqatga yaqinlik o'rnida taxminan, taqriban kabi atamalarning qo'llanishi odatdagi holdir. Toponimlarning etimologik tahlili jarayonida ham haqiqatga yaqinlik muammosining o'z o'rnini bor. Bu o'rinda haqiqatga yaqinlik muammosini aniqroq anglatish uchun taxmin va faraz so'zlarining qo'llanishini ma'qul deb bilamiz. Toponimlarning etimologik tahlilida so'nggi farazda haqiqatga yaqinlik oldingi taxminlarga nisbatan olganda o'z ifodasini aniqroq topgan.

Tilshunoslik sohasida ham lingvistik haqiqatga yaqinlik to'g'risida fikr yuritish mumkin. Bu haqda A.T.Kaydarov "Общее языкознание. Методы лингвистических исследований" nomli kitobida qisqagina to'xtab o'tgan (Kaydarov, 1990, 25-b.).

U birgina qozoq // qazaq// kazak so'zining kelib chiqishi haqida yuzlab farazlar borligini qayd etib, ularni uchta guruhga bo'lgan. Bu esa toponimlar va ular apellyativlarining etimologik tahlilida haqiqatga yaqinlik muammosi ancha bahsli ekanligini anglatib turibdi.

Joy nomlari nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etiladi, balki tarix, geografiya kabi fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Bu esa, o'z- o'zidan, joy nomlarining etimologik tahlilnomasiga mana shu fanlarga oid dalillar bilan ham aniqlik kiritilishi lozimligidan dalolat beradi. Ko'pchilik toponimlarning, shu jumladan, so'zlarning etimologik tahlilida eng to'g'ri fikrni qayd etish talab qilinadi.

Afsuski, eng to'g'ri fikrni aytilish qiyin masala, ammo haqiqatga yaqinlik nuqtai nazaridan toponim to'g'risida fikr bildirish mumkin. Demak, toponimlarning etimologik tahlilida haqiqatga yaqinlik muammosiga quyidagicha munosabat bildirish mumkin:

1. Toponimning etimologik tahlili jarayonida unga mos bo'lgan apellyativning ma'nosini e'tiborga olish ham haqiqatga yaqinlik muammosida hisobga olinadi.

2. Toponimlar til, tarix, geografiya fanlariga oid bo'lgan dalillarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi vositasida shakllanadi. Ushbu fanlar dalillari asosida toponimning haqiqatga yaqinligi muammosi aniqlanadi. Shu o'rinda "Sirg'ali" etnotoponimining etimologik tahliliga nazar tashlaylik.

Mazkur etnotoponimning kelib chiqishi haqida tilshunos S. Qoraev "Toponimika" nomli kitobida shunday yozadi:

"Sergeli, sergali, sirgali, sirgeli qabilalar uyushmasi asosan qozoqlar tarkibida uchraydi; o'zbeklarning yuz, qipchoq qabilalari tarkibida ham sirgali (sergali) urug'i qayd qilingan. Sergeli qozoqlar Toshkent vohasida, Kalas, Chirchiq, Oqsoqota daryolari bo'ylarida yashaganlar. Quyi Chirchiq, Qibray, Zangiota, Oqqo'rg'on tumanlarida Sergeli, Oqoltin, Zarbdor, Zomin tumanlarida Sirgali oykonimlari uchraydi. Zomin tumanidagi bu ikki qishloqda o'zbeklar yashaydi. Toshkent shahridagi Sergeli urbonimini Sirg'ali deb yozish to'g'ri emas" (Qorayev, 2006, 217-b.).

Shu o'rinda o'zimizning ayrim fikr-mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz:

Birinchidan, masalaning "sergeli", sergali, sirgali, sirgeli- qabilalar uyushmasi asosan qozoqlar tarkibida uchraydi" tarzida qo'yilishi (berilishi) noto'g'ri. Mazkur termini necha xil shaklda atamaylik, u baribir, bitta etnonim.

Ikkinchidan, qozoq etnonimi tarixiy manbalarda XVI asrdan boshlab uchraydi. Jumladan, 1990 yilda nashr etilgan 2-tomlik "Ensiklopedik lug'at"da: "XV

asr oxirida Qozoq xonligi tuzilib, o'z navbatida juzlarga bo'lingan. XVI asr boshiga kelib qozoq elati shakllandi ...”(Ensiklopedik lugat,1990, 491-b.).

Yana shu o'rinda A.Muxtorov, U.Sanaqulovlar tomonidan 1995 yilda nashr etilgan “O'zbek adabiy tili tarixi” nomli qo'llanmada shunday deyilgan: “XV asr oxiri, XVI asr boshlarida O'rta Osiyo Dashti Qipchoqdan bostirib kirgan Shayboniyxon boshliq turk-mo'g'ul qabilalar-etnogenezi turlicha bo'lgan ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan bosib olinadi, ular Movarounnahr xalqlari tarkibiga aralashib ketadi. Bu qabilalar o'zbek elati etnik tarkibining so'nggisi, muhim bo'laklaridan biri bo'lib qo'shildi, o'zbek xalqining etnik rivojida katta rol o'ynadi. Bularning umumiy nomi –“o'zbek” atamasi esa Movarounnahrda ilgaridan yashab kelgan turkiy- o'zbek elatining umumiy etnik siyosiy nomiga aylanib qoldi. Dashti Qipchoqda qolgan ko'chmanchi turk –mo'g'ul qabilalari esa sal keyinroq “qozoq” nomi bilan alohida elatga birlashdi” (Muxtorov, Sanaqulov,1995, 98-b.).

Uchinchidan, izohdagi “o'zbeklarning yuz, qipchoq qabilalari tarkibida ham *sirg'ali* urug'i qayd qilingan” jumlasini o'zini oqlamaydi, vaholanki, bu urug' o'zbek xalqining bir urug'i sifatida odamlar urug'- qabila bo'lib yashagan davrlardayoq paydo bo'lgan.

To'rtinchidan, “sirg'ali” atamasining “sergeli” tarzida berilishi rus tilining ta'siri, bu isbot talab qilinmaydigan haqiqat.

Beshinchidan, rus tili lug'at boyligida “**sergeli**” so'zi turkiy tillardan o'zlashmagunga qadar bo'lgan emas.

Oltinchidan, qozoqlar ham, o'zbeklar ham turkiy xalq hisoblanadi. Tamg'a va belgi asosida yuzaga kelgan etnonimlar har ikki xalqqa xos xususiyat.

Yettinchidan, “Zomin tumanidagi bu ikki qishloqda o'zbeklar yashaydi” jumlasini noilmiy.

Sakkizinchidan, fanda ma'lumki, ko'plab etnonimlar urug' yoki aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan.

Yana mazkur kitobning shu sahifasiga yuzlanamiz va ko'zimiz quyidagi jumlagacha tushadi: “Sergeli (Sirg'ali) — Toshkent viloyati tumanlaridan biri. Sergeli qozoqlarning qabilalar ittifoqi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida sergeliliklarning ko'pchiligi Janubiy Qozog'iston hududida, qisman Toshkent vohasida yashagan. Sirg'ali urug'i o'zbeklar tarkibida ham bo'lgan”. Xuddi shunday mazmunli gapni muallifning 1991-yilda chop etilgan “Toshkent toponimlari” nomli kitobida ham ko'rish mumkin.

Birinchidan, “sirg'ali” etnonimi faqat qozoq xalqiga tegishli etnonim emas, u barcha turkiy xalqlarning mulki hisoblanadi.

Ikkinchidan, “...sirg'ali urug'i o'zbeklar tarkibida ham bo'lgan” jumlasini ajablanarli. Shunday etnonim o'zbeklar tarkibida qadimdan bor bo'lgan va hozir ham mavjud.

Uchinchidan, muallif ko'p bor ta'kidlaganiday, mazkur urug' vakillari mamlakatning turli hududlarida istiqomat qiladi. Mazkur fikrni Xorazm etnotoponimlari bo'yicha monografik tadqiqotlar olib borgan A.Otajonovanning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Xorazmda uchraydigan quyidagi etnonimlar tamg'a belgisini anglatuvchi nom asosida paydo bo'lgan: baymaqlı, sirg'ali, chag'anaqli, postinli, balg'ali va boshqalar" (Otajonova, 1997, 37-b.).

To'rtinchidan, *sergeli* aynan *sirg'ali* ekanligini muallifning o'zi qavs ichida aynan ko'rsatib quymoqda.

Beshinchidan, kitobning 85-sahifasida muallif shunday yozadi: "Quyida O'zbekiston xaritasida hozirgacha qishloqlarning nomlari shaklida uchraydigan etnooykonimlarning qisqacha ro'yxatini keltiramiz: Abdal, Abiz, Avgbn, Avg'onbog', Avg'onon, Aday, Adayko'l, Aliovul, Ayronchi, Aleli, Alelicha, Andi, Arab, Sayot, Sirgali, Sulduz, Suyunduk...". Ko'rinib turganiday, bu o'rinda "sirgali" shaklida qayd etilgan.

Mazkur kitobni ko'zdan kechirishda davom etar ekanmiz, quyidagi jumlar e'tiborimizni tortadi: "...Respublikamizda qabila nomi bilan atalgan Sirgali, Sergeli degan qishloq, ovul, mahallalar uchraydi. Toshkent shahridagi Sergeli mahallasining Sirg'ali deb atalishi noo'rin". Mazkur jumlagi javob tariqasida muallifning aynan o'z fikrlarini keltiramiz: "Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. *Bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli, qirg'ili* kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or asboblariga o'xshash bo'lgan".

"Sirg'ali" etnotoponimi haqida gap ketar ekan, shuni aytish kerakki, Zomin vohasida ham -li topoformantli etnotoponimlar anchagina. Xususan, Bolg'ali, Achamayli, Baymoqli, So'loqli, Qo'shtamg'ali kabilar shular jumlasidandir. Aytib o'tish joizki, Zomin etnotoponimlarining yasalishi tekshirib ko'rilganda, ularning turli usullarda hosil bo'lganligining guvohi bo'ldik. Kompozitsiya, onomastik konversiya yoki leksik- grammatik usullar shular jumlasidandir.

Ba'zi tadqiqotlarda leksik-grammatik xarakterda yasalgan etnotoponimlarni farqlashda ayrim noaniqliklar uchraydi. Masalan, tilshunos olim Z.Do'simovning yozishicha, Qoraqalpog'iston toponimlarini tekshirgan Q.Abdimuratov -li/-li qo'shimchasi orqali yasalgan nomlar sifatida Ashamayli Balg'ali, Cho'michli, Qazayaqli kabilarni, turkmanistonlik toponimist S.Ataniyazov esa Yilanli, Sayatli toponimlarini misol qilib keltiradilar. Ko'rinib turibdiki, etnik nom toponimga aylangan. Z.Do'simov ham bu yerda so'z ilon urug'i haqida emas, balki *ilonli*, ya'ni urug' tamg'asida ilon belgisi bo'lgan etnik guruh haqida borayotganligini ta'kidlaydi (Do'simov, 1985, 44-47 b.).

Tilshunoslik fanida e'tirof etilishicha, tarkibida har xil grammatik elementlarni saqlagan etnotoponimlar formantli nomlar deyiladi. –chi, -lar, -li tipidagi qo'shimchalar ayrim hollarda toponim yasovchilarga yaqin tursa ham ular ko'pgina xususiyatlari bilan yasovchilardan farq qiladi. Bu xildagi qo'shimchalar yasagan so'zlar o'zlarining jamlik ifodalashi, inson faoliyati, hunarini ko'rsatish, kishilar guruhini bildirishi kabi qator ma'nolari bilan toponimlarga yaqin turadi. Ular toponimik modellarga mos keladi. Shuning uchun ham bu tipdagi qo'shimchalarni toponimik formant (yoki topoformant) deb atash to'g'riroqdir (Dusimov, 1989, 316-b.). Shunday ekan, yuqorida keltirilgan etnotoponimlar –li qo'shimchasi orqali yasalgan emas, balki bolg'ali, sirg'ali, so'loqli, achamayli, baymoqli toponimga ko'chishi natijasida vujudga kelgan.

Mavjud tadqiqotlarga tayanib aytish mumkinki, etnotoponimlarni hosil qilishning asosiy vositasi onomastik konversiya va qisman kompozitsion usul ekanligi ma'lum bo'ldi. Affiksatsiya usulida nom yasash esa faqat etnonimlarga xos bo'lib, etnotoponimlarning yasaliishida deyarli uchramaydi.

Demak, yuqoridagi nomlar affiksatsiya usulida emas, balki toponim yasaliishining boshqa bir usulida yasalgan. Toponim yasaliishining leksik-grammatik xarakterdagi bu usulini A.V.Superanskaya onomastik konversiya deb atagan edi (Superanskaya, 1969, 92-93-c.). Chunki nom tarkibidagi affiks bu so'z toponimga aylanmasdan ilgariyoq uning tarkibida mavjud edi. Yuqorida qayd etilgan etnotoponimlar onomastik konversiya yo'li bilan vujudga kelgan nol ko'rsatkichli nomlardir.

Aytish mumkinki, ko'pgina etnonimlar urug' yoki aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Har bir urug' yoki qabilaning o'z maxsus tamg'asi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy 22 o'g'uz qabilasi xususida to'xtalib, shunday degan edi: "... ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordir, urug'larni shu tamg'alarga qarab ayiradilar" (Koshg'ariy, 1960, 89-b.). Ajdodlarimiz mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. Keyinchalik ana shu tamg'a belgilari ko'p hollarda mazkur etnik guruh uchun nom bo'lib qolavergan. Ba'zan etnonim asosida yotgan hayvon va qush nomlarining qanday asoslarga ko'ra etnonimga aylanganini –u tamg'ami yoki totemmi ekanini aniq belgilash qiyin masaladir. Chunki davrlar o'tishi bilan etnonimning asl ma'nosi, nomlanish asosi unutiladi, xiralashadi.

Xulosa qilib aytganda, Zomin vohasida uchraydigan baymoqli, sirg'ali, bolg'ali, so'loqli kabi etnonimlar ham tamg'a belgisi asosida paydo bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan mazkur etnonimlar joy nomlari-toponimlarga aylangan.

Adabiyotlar

Nurmonov A. (2002). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Sharq.

- Даниленко В.П. (1977). *Русская терминология: Опыт лингвистического описания*. Наука.
- Отajanova A. (1997). *Xorazm etnotoponimlari*. Fan.
- Кайдаров А. (1990). Тюркская этимология: проблемы и задачи // *Проблемы этимологии тюркских языков*. ГЫЛЫМ.
- Qoraev S. (2006). *Toponimika*. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.
- Энциклопедик лугат*. 2 томлик. (1990).
- Muxtorov A., Sanaqulov U. (1995). *O‘zbek adabiy tili tarixi*.
- Дўсимов З. (1980). Топонимларнинг ясаши масаласига доир // *Ўзбек тили ва адабиёти*. №2.
- Дусимов З. (1989). Историколлингвистический анализ топонимии Хорезма: Дис. ...док. филол. наук.
- Суперанская А.В. (1969). *Структура имени собственного. Фонология и морфология*.
- Кошғарий М. (1960). *Девону луготит турк*. 1-том.

TASHKILIY HUJJATLARNING TAVSIFI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Farxad Babadjanov *

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilida tashkiliy hujjatlarning tavsiflanishi, ularning o‘ziga xos lingvistik belgilari, lokal normativ hujjatlarning huquqiy va lingvistik belgilari, tashkiliy hujjatlarning asosiy turlari, ularning ta’rifi, matn qoliplari va

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi, farxod.7272@gmail.com

lingvistik xususiyatlari xususida soʻz yuritiladi. Ustav, Ichki mehnat tartiboti qoidalari, Yoʻriqnoma hujjat turlari va ularning oʻziga xos jihatlari alohida koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: tashkiliy hujjatlar, lokal normativ hujjat, lingvistik xususiyatlar, texnik jihatdan rasmiylashtirilish, ustav, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yoʻriqnoma.

DESCRIPTION AND LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF ORGANIZATIONAL DOCUMENTS

Abstract

This article discusses the description of organizational documents in the Uzbek language, their specific linguistic signs, legal and linguistic signs of local regulatory documents, the main types of organizational documents, their definition, text patterns and linguistic features. The articles of association, rules of internal labor procedure, types of instructional documents and their specific aspects are considered separately.

Key words: *organizational documents, local regulatory document, linguistic features, technical formalization, Charter, Internal labor regulations, Guidelines.*

Tashkiliy hujjatlar ishlab chiqarish korxonasi, xizmat koʻrsatish muassasasi, shuningdek, davlat boshqaruvi tashkilotlari, umuman olganda, har qanday davlat yoki xoʻjalik birlashmalarining ***faoliyatini tashkil etish, ularning maqomi, huquq va vazifalarini belgilash, ish jarayonini tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish va baholashga xizmat qiladi.*** Ustav-nizom, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yoʻriqnoma, shartnoma, mehnat bitimi, shtat jadvali, taʼtillar grafigi, guvohnoma, dastur, yoʻl xaritasi, sertifikatlar, litsenziyalar kabi hujjatlar tashkiliy hujjatlar sirasiga kiradi. Ular deyarli hamma joyda bir xil mazmun-mohiyat kasb etadi.

Tashkiliy hujjatlarga xos umumiy belgi ular *faoliyatini tashkil etish, yuritish va nazorat qilishga* qaratilgan boʻladi. Ular tashkiliy tuzilmaning huquqiy maqomini belgilashi, ish beruvchi va xodimlar orasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishi, ish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va baholab borish kabi masalalarni qamrab olishi bilan normativ-huquqiy hujjatlarga oʻxshab ketadi. Tashkiliy hujjatlarning matn tuzilishi, shakl va mazmuni, rasmiylashtirish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarga juda yaqin. Shu bois mazkur guruhga kiruvchi hujjatlarning aksariyati tashkiliy tuzilmaning huquqshunoslari tomonidan tayyorlanadigan lokal normativ hujjatlardir.

Lokal normativ hujjat. Ustav, nizom, yoʻriqnoma, ichki mehnat tartiboti qoidalari, jamoat shartnomasi kabi hujjatlar xoʻjalik yurituvchi subyektning jamoaviy faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur hujjatlar **lokal normativ hujjat** hisoblanadi. Lokal normativ hujjatlarning normativ-huquqiy hujjatlardan farqi ular faqat muayyan tashkilot doirasida amal qiladi va korxona, tashkilot, muassasa

ichida amal qilinadigan huquqiy normalarni belgilaydi. Lokal normativ hujjatlar mazmun-mohiyati, bajaradigan vazifasi va maqomiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarga o'xshab ketadi, aniqrog'i, ular obrazli qilib aytganda "bir tashkilot doirasida amal qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar"dir. Lokal normativ hujjatlarning matn mazmuni va matn tuzilishi, hujjatning rasmiylashtirilishi normativ-huquqiy hujjatlar bilan deyarli bir xil. Lokal normativ hujjatlarning matn mazmuni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozim. Ya'ni lokal normativ hujjatlarda normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarning tashkilot (korxona, muassasa) kesimida amal qilishi bo'yicha aniq me'yorlar belgilanadi.

Lokal normativ hujjatlarning umumiy va xususiy jihatlarini qiyoslanganda bir-biriga o'xshashliklar va farqliliklar ko'zga tashlanadi.

Tashkiliy hujjatlarning umumiy lingvistik xususiyatlari. Tashkiliy hujjatlar o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan boshqa hujjat toifalaridan farq qiladi. Ularga xos **umumiy lingvistik jihatlar** quyidagilardan iborat:

matn hajmi boshqa hujjat toifalaridan farqli ravishda kengroq bo'ladi. Ikki-uch varaqdan ber necha o'n varaqqacha kengayishi mumkin;

huquqiy atamalardan, shuningdek, umumiste'moldagi neytral so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi, zarur hollarda, matnda qo'llanilgan ayrim tushuncha va atamalar izohlab beriladi;

hujjat matni mazmuniga ko'ra *rim raqami bilan (I., II., III., IV.) bo'limlarga (yoki boblarga), arab raqami bilan (1., 2., 3., 4.) bandlarga, qavsli harflar bilan (a), b), d), e)) qismlariga va xatboshilar bilan bo'laklarga* ajratiladi;

matndagi jumlar asosan *uchinchi shaxs majhul nisbatdagi o'tgan zamon davom fe'li* bilan shakllangan kesim orqali tuziladi: *tartibga soladi; ...yagona xizmat ko'rsatuvchi hisoblanadi; ... faoliyat ko'rsatadi; ... yo'l qo'yilmaydi;*

ba'zan jumlar *ot-kesim* bilan shakllanadi: *... ehtiyojni qondirishdir; ... o'z muhriga ega;*

bandlarning qismlarini umumiy izohlovchi fe'l – o'tgan zamon davom fe'li bo'lib, qismlarning tugallanmasi *harakat nomining (i)sh qo'shimchasi* bilan shakllanishi mumkin: *xodimning vazifasiga quyidagilar kiradi: a) ishga o'z vaqtida kelish; b) ...bajarish; v) ... ta'minlash kabi;*

shartnomalarning kelishuv predmeti ko'rsatilgan kirish qismi *birinchi shaxs ko'plikdagi fe'lining o'tgan zamon ko'rinishida* shakllanadi: *tomonlar shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.*

Tashkiliy hujjatlar texnik jihatdan rasmiylashtirilishida ham umumiy jihatlar mavjud. Ularning aksariyati (*ustav, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yo'riqnoma, jamoat shartnomasi*) rahbar yoki yuqori organ tomonidan imzo va muhr bilan tasdiqlanadi hamda tasdiqlash *ustxatiga* ega bo'ladi, ba'zan shartnomalarda ham tasdiqlash *ustxati* bo'lishi mumkin.

Lokal normativ hujjat maqomidagi tashkiliy hujjatlarning barchasi umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlanadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlanmagan yoki hujjat muhokamasiga umumjamoa vakillari sihtirok etmagan lokal normativ hujjatlar "haqiqiy emas" deb topilishi mumkin.

Tashkiliy hujjatlar guruhiga mansub ayrim hujjatlar tahliliga to'xtalib, ularning mazmun-mohiyati, matn qoliplari, grammatik qurilishi haqida qisqacha to'xtalib, izohlaymiz.

Ustav (Nizom). *Korxona, tashkilot, muassasa va boshqa yirikroq xo'jalik birlashmalarining huquqiy maqomi, tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi, tarmoq bo'linishi, xodimlarning huquq va majburiyatlari, faoliyat turi, faoliyatni tugatish asoslari to'liq aks ettirilgan hujjat ustav (yoki nizom) hisoblanadi.* Ustav tashkiliy tuzilma mavjudligining huquqiy asosidir.

Ustav matni normativ-huquqiy hujjatlar kabi uchinchi shaxs majhul nisbatdagi o'tgan zamon davom fe'li bilan shakllanadi. Ustav matni umumiy qoidalar bo'limi bilan boshlanib, yakuniy qoidalar bo'limi bilan tugallanadi. Uning boshqa bo'limlari tashkilotning faoliyatidan kelib chiqib, tashkilotning maqsadi va vazifalari, faoliyat turlari, tashkilot tuzilmasi, uning boshqaruv tizimi va boshqa masalalarga bag'ishlanishi mumkin. Ustav bo'limlarida tegishli norma va tartibotlar belgilanadi.

Ichki mehnat tartiboti qoidalari. Har bir tashkiliy tuzilma (korxona, tashkilot, muassasa, xo'jalik birlashmasi yoki boshqa yuridik shaxslar) uchun *ish jarayonini tartibga solish, xodimlarning huquq va vazifalarini hamda majburiyatlarini belgilash, yurish-turish va o'zaro munosabatlarda axloqiy normalarga amal qilishni me'yorlashtirish maqsadida ichki mehnat tartiboti qoidalari ishlab chiqadi.* Qoidalar, odatda, normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda huquq-maslahatchi – tashkilot yuristi tomonidan tuziladi, o'rnatilgan tartibda jamoaning kasaba uyushmasi yig'ilishida muhokama qilinib, kelishiladi va rahbar tomonidan buyruq asosida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etiladi. Ichki mehnat tartiboti qoidalari tuzilishiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlar kabi boblar, bo'limlar, bandlar va xatboshilarga bo'linadi. Jumlar uchinchi shaxs majhul nisbatda shakllanadi.

Ichki mehnat tartibi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi(<https://lex.uz/ru/docs/-6257288>) ga, mehnat to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlariga va sohaga oid qonunlarga muvofiq ishlab chiqiladi. **Ichki mehnat tartibi qoidalari** kompaniyaning tashkiliy-huquqiy shakli va xodimlar sonidan qat'i nazar, uning majburiy lokal hujjati hisoblanadi (<https://www.norma.uz/oz/bizning-sharhlar/korhonaning-lokal-hujjatlari-tugri-rasmiylashtiramiz>).

Yo'riqnoma. Yo'riqnoma nomi bilan yuritiladigan ko'rsatma va ish qog'ozlari ko'pchilikni tashkil etadi. Texnika vositalaridan, dori-darmonlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ham yo'riqnoma deb yuritiladi.

Biz hujjat shakli sifatida qo'llaniladigan yo'riqnomalarni tahlil qilib o'tamiz.

Qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish, shuningdek, xodimlarning lavozim vazifalarini belgilash maqsadida chiqariladigan hujjat yo'riqnoma deyiladi. Yo'riqnoma hujjat nomini texnik va iste'mol mahsulotlarining foydalanish yo'riqnomasini (texnik yo'riqnoma) bilan adashtirmaslik kerak.

"Yo'riqnoma" atamasi hujjat nomi sifatida o'zi anglatadigan hujjat mazmuniga va vazifasiga to'la mos keladi. Mazkur so'zning o'zagi bo'lgan "yo'riq" so'zi "yo'l-yo'riq", "to'g'ri ko'rsatma" kabi ma'nolarini ifodalaydi.

Yo'riqnoma hujjatining ikki xil ko'rinishi muhim ahamiyatga ega:

1. Qonun va me'yoriy hujjatlarni izohlovchi yo'riqnoma;
2. Lavozim vazifalarini belgilovchi yo'riqnoma.

Qonun va me'yoriy hujjatlarni izohlovchi yo'riqnomalar qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarni izohlash, amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini tushuntirish maqsadida tayyorlanadi. Ularda izohlanayotgan normativ-huquqiy hujjatdagi nazarda tutilgan holatlarning amaliyotga joriy qilish mexanizmlari ko'rsatib beriladi. Bu turdagi yo'riqnomalarni qonunchilik hujjatlari qatorida talqin qilish to'g'riroq bo'ladi.

Lavozim vazifalarini belgilovchi yo'riqnomalarda xodimlarning umumkasbiy va lavozim vazifalari, bajaradigan ishlari mazmuni aks etadi. Lavozim yo'riqnomasini – korxonaning lokal hujjati bo'lib, unda asosiy vazifalar, muayyan lavozimda ishlash uchun talab etiladigan ko'nikma va vakolatlar qisqacha bayon etiladi. Xodimlarning mehnat majburiyatlari boshqa lokal hujjatlarda (IMTQ, ustavlar, intizom to'g'risidagi nizomlar yoki b.) yoki mehnat shartnomalarida batafsil yoritilmagan bo'lsa, u kerak bo'ladi. Mazkur turdagi yo'riqnomalar umumiy yo'riqnoma asosida, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlardan chetlashmagan holda bo'lim boshliqlari tomonidan ishlab chiqilib, rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

Adabiyotlar

Aminov M. va boshqalar. (2021). *Davlat tilida ish yuritish*. O'zbekiston.

Кўчимов Ш.Н. (1995). Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили: *Филол. фан. номз... дисс. ва автореф.*

Кўчимов Ш.Н. (2004). *Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф.*

<https://lex.uz/ru/docs/-863120>.

<https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/korxonaning_lokal_hujjatlari_tugri_rasmiylashtiramiz.

https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/lavozim_yuriqnomasini.

NUTQNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALARGA DOIR

Ismoil Hojaliyev*

Annotatsiya

Ma'lumki, struktur tilshunoslikda asosiy e'tibor til birliklari va ularni o'rganishga qaratilgan. Til tadqiqida til egasi e'tibordan chetda qolgan, ya'ni nutq subyektlari – so'zlovchi va tinglovchinining nutqni shakllantirish vazifasi e'tiborga olinmagan. Nutqda shaxsning izi faqat verbal vositalarda emas, balki intonatsiya, mimika, imo-ishora kabi noverbal vositalarda ham namoyon bo'ladi. Ular o'z navbatida nutqning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu noverbal vositalar verbal

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Farg'ona davlat universiteti, ismoilhojaliyev@gmail.com.

vositalar kabi muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali so'zlovchi shaxsining individual xususiyatlari namoyon bo'ladi. Chunki nutq bir jihatdan til sistemasining reallashuvi bo'lsa, u o'z elementlari bilan alohida sistemani tashkil etadi. Nutqiy jarayonda til va nutq sistemalari o'zaro munosabatga kirishadi. Bu jarayonda verbal va noverbal vositalarning uyg'unlashuvi kuzatiladi.

Kalit so'zlar: *struktur tilshunoslik, so'zlovchi, tinglovchi, nutqiy faoliyat, nutqiy jarayon, muloqot maydoni, psixofiziologik jarayon, til sistemasi, nutq sistemasi, verbal vositalar, noverbal vositalar, ekstralingvistika, motiv, intonatsiya, mimika, imo-ishora, prosodika, kinesika, takesika.*

ON THE MEANS OF SPEECH FORMATION

Annotation

It is known that structural linguistics pays special attention to language units and their study. When studying language, the owner of the language was neglected, that is, the task of speech formation of the subjects of speech - the speaker and the listener - was not taken into account. In speech, the imprint of personality is manifested not only in verbal means, but also in non-verbal ones, such as intonation, facial expressions, gestures. They, in turn, play an important role in the formation of speech. These non-verbal means are as important in the process of communication as verbal means, with the help of which the individual characteristics of the speaker are revealed. Since speech in one respect is the implementation of the language system, it forms a separate system with its own elements. Language and speech systems interact in the speech process. In this process, a combination of verbal and non-verbal means is observed.

Key words: *structural linguistics, speaker, listener, speech activity, speech process, communication field, psychophysiological process, language system, speech system, verbal means, non-verbal means, extralinguistics, motive, intonation, facial expressions, gesture, prosody, kinesics, teysics.*

Struktur tilshunoslik tilni transsendent hodisalardan holi ravishda immanent o'rganishga asosiy e'tiborni qaratdi. Buning natijasida nutqiy faoliyatning subyektlari bo'lgan so'zlovchi va tinglovchi shaxs tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi. So'zlovchi va tinglovchisiz nutqiy faoliyat haqida bahs yuritildi. Vaholanki, hech bir tilni "til egasi"dan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganish mumkin emas. Chunki har bir nutqiy aktda so'zlovchi shaxsining izi sezilib turadi (Nurmonova, 2009, 104-b.).

So'zlovchi shaxsining izi faqat uning nutqidagina emas, balki intonatsiyasi, mimikasi, imo-ishoralari va shu kabi noverbal vositalarda ham ko'zga tashlanadi.

Noverbal vositalar verbal vositalar kabi soʻzlovchi shaxsini, uning fikrini, munosabatini ifodalash imkoniyatiga ega boʻlib, muloqot jarayonida alohida oʻrin tutadi. N.I.Farmonovskayaning fikrlariga qaraganda, odamlar suhbat jarayonida oʻzlari aytmoqchi boʻlgan fikrning 7% inigina soʻz orqali, qolgan 38% ni ohang va 55% ni imo-ishora orqali bayon etar ekanlar (Farmonovskaya, 1982, 37-b.). Chunki “har safar «obyekt» elementi paydo boʻlishi bilan, ongda darhol “subyekt” elementi ham vujudga keladi, yoki, aksincha, “subyekt” elementi paydo boʻlishi bilan – “obyekt” elementi ham paydo boʻladi, va, bu bilan bir vaqtda, obyektivga subyektiv ishlov berish mexanizmi ham qoʻshiladi (Sibagatov, 1984, 184-b.).

Nutqiy jarayon esa toʻla maʼnoda subyektiv hodisa boʻlib, u birinchi galda noverbal vositalar orqali koʻzga tashlanadi. Chunki psixofiziologik jarayon, nutq yuzga kelmay turib, nutqiy jarayongacha boʻlgan muddatda oʻzini namoyon qiladi.

Nutqning yaralishida motiv asosiy rol oʻynaydi. Motiv boʻlmasa, nutq shakllanmaydi. Soʻzlovchining axborot uzatish yoki biror narsa haqida maʼlumot olish, oʻz munosabatini bildirish, ichki hissiyotini namoyon qilish istagi nutqning shakllanishiga turtki beradi. Bularning bari nutqning shakllanish jarayoniga turtki beruvchi noverbal vositalar boʻlib, bevosita nutq mexanizmining bir qismini tashkil etadi va verbal vositalar bilan ifodalangan nutqda oʻz izini qoldiradi.

Motiv – odamni muayan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab (Turgʻunov, 1975, 94-b.). soʻzlovchining muloqot qilish istagi tom maʼnoda psixologik (ruhiy) hodisa boʻlganligi sababli u, ayni vaqtda, individual subyektiv hodisa hamdir. Shuning uchun soʻzlovchi (subyekt) shaxsi, uning nutq mazmuniga munosabati, birinchi galda, noverbal vositalarda koʻzga tashlanadi va bu belgilar verbal vositalar orqali oʻz tasdigʻini topadi.

Umumiy muloqot maydonida soʻzlovchi va tinglovchi turli kommunikativ vazifa bajaradi va nutqda soʻzlovchi shaxsining izi (Nurmonova, 2009, 140-b.) lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Nutqiy jarayonda esa til birliklari vositasida ifodalangan bunday belgilarni toʻldirish uchun nolingvistik vositalar ham qoʻllanadi. Biroq nolingvistik vositalar fakultativ xarakterda boʻlib, ular lingvistik vositalar yordamidagina oʻz vazifasini toʻliq bajaradi, mustaqil qoʻllanganda esa informativ xarakteri xiralashadi yoki uni butunlay yoʻqotadi. Ayni vaqtda, nolingvistik vositalarsiz nutqiy jarayon ham oʻz vazifasini toʻla bajara olmaydi. Chunki “ongning paydo boʻlishi nutqning vujudga kelishi bilan bevosita bogʻliqdir. Nutq faoliyat boʻlib, u til yordami bilan, aloqa vositalarining muayan sistemasi bilan roʻyobga chiqadi. Ong bilan nutq chambarchas bogʻlangan. Ong voqelikni aks ettiradi, nutq esa ana shu ongda aks etgan voqelikni bildiradi” (Nurmonov, Mahmudov, Ahmedov, Solixojayeva, 1992, 34–35-b.).

Nutq bir jihatdan til sistemasining reallashuvi boʻlsa, ikkinchi tomondan, u oʻz elementlari bilan alohida sistemani tashkil etadi. Nutqiy jarayonda til va nutq

sistemalari o‘zoro munosabatga kirishadi. Biroq bu o‘rinda “insoniyatning nutqni shakllantirish tajribasini (so‘zlash va tushunish) aynan olingan individning nutq tuzish jarayoni bilan shunchaki tenglashtirib bo‘lmaydi. Har bir shaxs bu tajribani o‘zicha qayta ishlaydi. Insonning nutq tuzish tajribasi faqat fiziologik, to‘g‘rirog‘i, psixofiziologik jarayon hisoblanadi” (Sherba, 1974, 25-b.).

Tabiiy savol tug‘iladi: nutqning yuzaga keltiruvchi psixofiziologik jarayon mazkur tildan foydalanuvchiga va til sistemasiga qanday aloqasi bor? Qizig‘i shundaki, u individual holatda namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan olganda, u nutqning yuzaga keltiruvchi psixofiziologik jarayonga mos bo‘lishi zarur edi. Ammo amalda har bir individda bu jarayon o‘ziga hos ko‘rinishga ega bo‘lib, biri ikkinchisidan farq qiladi (Sherba, 1974, 25-b.). Bunday farqlanish, eng avvalo, nutq (matn) da namoyon bo‘ladi (chunki nolingvistik vositalar nutqqa nisbatan umumiydir). Uni namoyon qiluvchilar esa lingvistik vositalar hisoblanadi. Buni so‘zlovchi shaxsini ifodalovchi lingvistik vositalar deb yuritilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday vositalarni til sathlar tizimida fonetik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarga ajratish mumkin.

Shu ma’noda har bir shaxs nutqi individual hodisa sifatida shaxsga xos bo‘lgan belgilarni o‘zida tashiydi. Shuningdek, nolingvistik vositalar ham individual bo‘lib, shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydi. Shunday ekan, noverbal omilning o‘zi nima, degan savol tug‘iladi.

Noverbal omil tushunchasiing ma’nosi juda keng bo‘lib, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi “ifodali xatti-harakatlar” degan tushuncha anglatadi. Noverbal omillarga axborot uzatishga xizmat qiluvchi insonlarning xatti-harakatlari: qo‘l, oyoq, bosh, yuz, gavda harakatlari, imo-ishoralar, mimikalari kiradi.

Rus psixologi V.A.Labunskaya kommunikativ aktda kishilar tomonidan ijro etiladigan vositalarni turkum, tur, komponent va elementlarga ajratadi. Unga ko‘ra noverbal vositalar dastlab ekstralingvistika, prossodika, kinesika, takesika kabi turkumlarga ajratiladi. Turkumlar o‘z navbatida turlarga, bo‘linadi:

- 1.ekstralingvistika: pauza, yo‘talish, xo‘rsinish, kulish va yig‘lash;
- 2.Prossodika: talaffuz, ovoz, temp, tembr;
- 3.kinesika: ekspressiya, averbal xarakatlar, ko‘z qarash, lab, yuz, peshona ifodasi, qo‘l
- 4.harakatlari, yuz ifodasi, gavda harakati;
- 5.takesika: statik va dinamik to‘qnashuvlar kabi turlarga bo‘linadi (Labunskaya, 1986. 5-b.).

Noverbal omil aloqa-aralashuvda, axborot uzatishda fikrni to‘liq ifodalab berishga xizmat qiladi. Masalan, futbol maydonida hakam ikkala qo‘lini ko‘tarib, aylantirishi va ikkala qo‘lini pastga tushirib, ko‘tarishi o‘yinchi (futbolist)ni almashtirish va shifokor yordami kerakligini bildiradi. Bu harakat maydondagi va boshqalarga to‘liq tushunarli bo‘ladi.

Noverbal omil insonning tildan tashqari ifodalaydigan barcha xatti-harakatlari, imo-ishoralarini qamrab oladi. Noverbal omillar ham nutqqa ma'lum darajada aralashib, qo'shilib, ham o'zi butun bir fikrni ifodalab kelishi mumkin. Noverbal omillar yozuvda so'z, so'z birikmasi, ibora va gaplar bilan ifodalanadi.

Demak, nutqning shakllantiruvchi vositalar ikkiga bo'linadi: bularning birinchisi, nutqning shakllanishigacha bo'lgan jarayonda yuzaga keluvchi psixofiziologik hodisa bo'lib, u nutqning shakllanishiga turtki beruvchi noverbal omillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi esa, nutqning yuzaga kelishi bilan bog'liq verbal omillar sanaladi. Bularning bari nutqning yaralish jarayonini boshqaradi va uning individualligini ta'minlaydi hamda ular vositasida nutqda (matn)da so'zlovchi shaxsi ifodalanadi.

Adabiyotlar

Нурмонов А. (2009). Имманентликдан когнитивликка // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 6-сон. 104.

Фармоновская Н.И. (1982). *Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспект*. Рус. Яз. 37.

Сибгатов Р.Г. (1984). *Теория предикативности*. Саратов ГУ. 184–185.

Турғунов Қ. (1975). *Психологизм терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати*. Ўқитувчи. 94.

Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. (1992). *Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси*. Фан. 34–35.

Щерба Л.В. (1974). *Языковая система и речевая деятельность*. Наука.

Лабунская В.А. (1986). *Невербальное поведение (социально-перцептивный подход)*. Ростов: Изд-во Ростов, ун-та. 5-35.

TURIZM TERMINOLOGIYASIDA MA'NODOSHLIK VA VARIANTDOSHLIK HODISALARI

Husniddin Suyunov *

Elyor Boymanov *

Annotatsiya

Maqolada turizm terminologiyasida so'z/terminlar o'rtasida ma'nodoshlik va variantdoshlik hodisasiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Albatta, maqoladagi ma'lumotlar tilshunos olimlarning mavzuga oid fikrlari bilan dalillangan. Shuningdek, maqolada sohada faol qo'llanuvchi ayrim terminlar ma'nodoshligi va

* Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Navoiy viloyati hududiy bo'linmasi, suyunov@mail.ru

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Navoiy davlat pedagogika instituti

variantdoshligiga misollar keltirilgan hamda soʻz/terminlar izohi keltirilgan. Oʻz oʻrnida, maqola muallifi tomonidan keltirilgan fikrlarga munosabat bildirilgan.

Kalit soʻzlar: *soʻz/termin, turizm, maʼnodoshlik, sayyoh, otel, bronlamoq, soʻzlashuv nutqi, maʼnodoshlik, variantdoshlik, lisoniy fond.*

THE PHENOMENA OF MEANING AND VARIANTITY IN TOURISM TERMINOLOGY

Abstract

The article presents information on the phenomenon of semantic similarity and variant similarity between words/terms in tourism terminology. Of course, the information in the article is supported by the opinions of linguists on the subject. Also, the article provides examples of synonyms and variants of some terms that are actively used in the field, as well as an explanation of words/terms. In its place, the opinion presented by the author of the article was expressed.

Key words: *word/term, tourism, semantics, tourist, hotel, booking, colloquial speech, meaning, variant, linguistic fund.*

Oʻzbek tili tarixidan maʼlumki, uzoq davrlardan boshlab maʼnodosh soʻzlar, variantdoshlik hodisalari va ulardan foydalanishga eʼtibor qaratilib kelinadi. Jumladan, Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida maʼnodosh soʻzlarning nutqni boyitishdagi ahamiyatini misollar vositasida chuqur tahlil qilib berganligini keltirish mumkin. Oʻzbek tilshunosligida maʼnodoshlik hodisasini atroflicha tadqiq qilish XX asrning 60-yillaridan boshlandi. U.Tursunov, S.Usmonov, I.Qoʻchqortoyev, A.Hojiyev, Y.Tojiyev singari olimlar bu hodisani oʻrganishga jiddiy kirishdilar. Akademik A.Hojiyev tilshunoslikda keng tarqalgan bir qator qarashlarni oʻrganib chiqqan holda maʼnodoshlik hodisasiga oʻziga xos taʼrif berdi. Tilshunos olim, professor Y.Tojiyev XX asrning 70-yillaridan soʻng rus va Yevropa tilshunosligida paydo boʻlgan taʼriflar, talqinlarga suyanagan holda, faqat lugʻaviy maʼnodoshliklarnigina nazarda tutmasdan, umuman, bu hodisaga nisbatan boshqa bir taʼrif berishga harakat qildi.

Oʻzbek tili lugʻat fondiga turli tillardan soʻz/terminlarning oʻzlashishi natijasida terminlar oʻrtasida maʼnodoshlik ham ortib bordi. Taʼkidlanishicha, “Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, yaʼni ular yangi bilimlarni ochishga ham koʻmaklashadi”. [Mahmudov, 2017, 122-b.]

Professor Nizomiddin Mahmudov lingvistik adabiyotlarda barcha fanlardagi terminlarga qoʻyiladigan talablar, terminlarning zaruriy belgilari koʻrsatib oʻtilishini taʼkidlaydilar. Tilshunoslar ularni quyidagicha umumlashtirgan: “1) termin bir

ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega; 2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi; 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir; 4) termin stilistik jihatdan neytraldir; 5) terminologik leksika alohida sistemadir; 6) termin funksiyadir... Termin bilan oddiy so'z o'rtasidagi munosabat ana shu 6 ta belgiga ko'ra farq qilishi lingvistik adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etiladi. Terminlarning ixcham, aniq, bir ma'noli, bir shaklda bo'lishi lozimligi haqidagi talablarning muhimligi bugungi kun tadqiqotchilari tomonidan ham muntazam ta'kidlanadi. Aksar tadqiqotchilarning fikricha, fan tili hamisha belgi (termin) va ma'no o'rtasidagi nisbatan qat'iy aloqaning barqarorligiga intiladi". [Mahmudov, 2017, 129-130-b.] Turizm terminlari uchun ham yuqoridagi talablar amal qiladi. Terminologiyadagi doimiy masalalardan biri terminlar sinonimiyasi, omonimiyasi, ko'p ma'noligi va antonimligidir. Professor Sh. Rahmatullayev "Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihati o'zaro farqli leksemalar leksik sinonimlar deyiladi", – [Rahmatullayev, 2006, 73-b.] degan fikrni ilgari suradi.

O'zbek tili turizm terminologiyasida ma'nodoshlik yoki variantdoshlik hodisalarida ham so'z/terminlarning juflashishi kuzatiladi. Aslida an'anaviy qarashga ko'ra, terminosistemada ma'nodosh so'z/terminlarning mavjud bo'lishi terminologik sistemaning kamchiligi deb baholanadi. Ammo terminologiyaga yangi so'z/terminlarning qo'shilishi natijasida bu qoida o'z kuchini yo'qotadi, deyish mumkin. Chunki turizmga doir og'zaki va yozma matnlarda bir ma'no ifodalovchi bir nechta so'z/terminlarning qo'llanilishi tabiiy hol.

Professor Nizomiddin Mahmudov keyingi paytlarda terminologik ma'nodoshlikni ijobiy hodisa sifatida baholaydigan nuqtayi nazar ham terminshunoslikda turg'unlashayotgani haqida yozadi: "Terminosistemada sinonimiyaning yuzaga kelishi asosli ravishda mavjud ilmiy bilimlarning chuqurlashuvi, yangi paradigmalarning shakllanishi va fanning jiddiy rivoji natijasi tarzida izohlanmoqda, "professional-kommunikativ vazifalarni bajarishda maxsus tilning imkoniyatlarini kengaytiradigan" hodisa sifatida "terminosistemaning uzviy xususiyati" o'laroq talqin etilmoqda". [Mahmudov, 2017, 134-b.] Demak, tilshunoslik boshqa tillar bilan aloqada rivojlanar ekan, terminologiyada, xususan, turizm terminologiyasida ma'nodoshlik hodisasi kuzatilishi tabiiy hol, albatta. Jumladan, o'zbek tili turizm terminologiyasida "hotel" – "mehmonxona", "nomer" – "xona", "marshrut" – "yo'nalish", "administratsiya" – "ma'muriyat", "turist" – "sayyoh", "turizm" – "sayohat", "agentlik" – "tashkilot", "rekreatsion" – "ko'ngilochar", "piknik" – "sayr", "ikkinchi klass – ekonom klass", "bronlamoq – bandlash", "gid" – "sayr tarjimoni" kabi ma'nodoshlik va variantdoshliklar kuzatiladi. Bu juftliklardagi birinchi birliklar xalqaro terminelementlardan tashkil

topganligi uchun umumiylik kasb etsa, ikkinchilari o'z qatlamga mansubligi uchun ularda milliy-madaniy unsur yorqinroq ifodalanadi.

“Otel” – “mehmonxona” variantdoshligida “otel” termini, asosan, turizmga oid darsliklarda va soha mutaxassislari og'zaki va yozma nutqida ko'p uchraydi. So'zlashuv nutqida “mehmonxona” va uning ruscha “гостиница” shakli faol qo'llanadi. Shuningdek, ushbu terminning inglizcha “hotel” varianti ham ko'p uchraydi. Mehmonxonalardagi xonalar raqamlanganligi uchun ularga nisbatan “nomer” termini faol ishlatiladi. Xalqaro turizm terminologiyasini kuzatar ekanmiz, unda ham xuddi shu holat mavjudligini ko'ramiz: accommodation – room. Har ikki termin ham xona birligi ifodalagan ma'noni bildiradi.

“Sayyoh” – “turist”, “sayohat” – “turizm” kabilarga variantdosh terminlar deb qaralsa-da, soha doirasida ma'lum bir farqli jihatlariga ega. “Sayohatlardan hayot faoliyatining alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl – turizm ajralib chiqib, u o'ziga xos xususiyatlar va xislatlar bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir”. [Mirzayev, 2011, 66-b.]

Sayyoh termini ham turist birligiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Turizmga doir adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: “Sayyoh – bu birinchi navbatda, agar ta'bir joiz bo'lsa, kasb bo'lib, odamlarning kun ko'rish manbai yoki sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarziga aylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi bo'lib, turizm maqsadlaridan farq qiladi”. [Mirzayev, 2011, 66-b.] Demak, turist bo'sh vaqt va mablag'ga ega shaxs sifatida turli hududlarga tashrif buyuradi. Uning asosiy maqsadi sayyohdan farqli ravishda vaqtni ko'ngilli va mazmunli o'tkazish, yangi joylar bilan tanishishdir.

Yuqoridagi terminlar variantdosh terminlar deb hisoblansa-da, semantik nuqtayi nazardan farqli jihatlariga ega. Turizm sohasidagi mutaxassis esa bu farqlarni yaxshi bilishi maqsadga muvofiqdir. Aytilganlarni hisobga olgan holda o'zbek tili turizm terminologiyasida sistema nuqtayi nazaridan asosiy ilmiy termin sifatida kelajakda terminlarning milliy shaklini iste'molda qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adminstratsiya birligiga o'zbekcha *ma'muriyat* birligi muvofiq kelsa-da, bugungi kunga kelib uning o'zlashma shakli faol ekanligi kuzatiladi. Bundan tashqari, bu terminlarning inglizcha “reception” shakli ma'lum tovush o'zgarishiga uchragan holda (“reception”) so'zlashuv nutqida keng iste'moldagi birlikka aylanib bormoqda. Shu o'rinda, mehmonxonalarda kelib-ketuvchilarni ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi bo'limni anglatgan ma'muriyat termini bir vaqtning o'zida ikkita sinonimga (“adminstratsiya”, “reception”) ega bo'ldi. Bu holatni ijobiy deb hisoblamaymiz. Retsipiyent tilning fonetik xususiyatlarini hisobga olish, tilning sofligini saqlash nuqtai nazaridan reception shakli o'zbek tili qonuniyatlariga

muvofig kelmaydi. “Adminstratsiya” shakli esa so‘zlashuv uslubida mustahkam o‘ringa egaligi va faol iste’molda ekanligini inobatga olsak, sinonim termin sifatida ishlatilishini salbiy holat deb hisoblamaymiz.

Bronlamoq termini baynalmilal xarakterga ega bo‘lib, u *bandlash* shakli bilan ma’nodoshdir. Turizmga doir darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida har ikki shakl ham ifodalanishi kuzatiladi: “Bron (bandlash) varaqasi turoperatorga turistik mahsulotni tashkillashtirish uchun yoki turistlar guruhining vakili bo‘lgan kishining aniq buyurtmasidir”. [Madvaliyev, 2017, 216-b.] So‘zlashuv nutqida esa uning *bronlash* varianti faol iste’mol qilinadi. Terminlar ma’nodoshligi doimo terminologiyaning muammolaridan biri sifatida qayd etib kelinadi. Yangi tushunchaga berilgan nom o‘sha tilga singib, lisoniy fondan mustahkam joy olgunga qadar uning o‘zlashma varianti ma’lum muddat iste’molda faol qo‘llanishi bir qator tilshunoslar tomonidan qayd etiladi. Aytish mumkinki, terminlarning milliyligini saqlagan holda iste’molga kiritish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, “O‘zbek tili turizm terminlarining izohli lug‘ati”ni yaratish, ensiklopedik lug‘atlar so‘zligini turizm terminlari bilan boyitish, soha terminlari tizimini leksik-semantik, derevatsion jihatdan tartibga solish o‘zbek terminologiyasidagi dolzarb masalalardan sanaladi. Ma’nodoshlik va variantdoshlik hodisasi haqida esa hali ko‘plab izlanishlar olib borilishi tilshunoslikda tadqiqotlar ko‘lami kengligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

Mahmudov N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi*. Mumtoz so‘z. Toshkent.

Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o‘zbek tili*. Universitet. Toshkent.

Mirzayev M., Aliyeva M. (2011). *Turizm asoslari*. Toshkent.

YANGI AVLOD DARSЛИKLARI MATNI USTIDA ISHLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Muhabbat Saidova *

Annotatsiya

Maqolada yangi avlod darsliklari matni ustida ishlashning muhim jihatlari, matn ustidid ishlashda yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, yangi avlod darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimlari, o‘quv jarayonida uning yutuqlaridan unumli foydalanib, kamchiliklarini to‘ldirishi, darsliklarni takomillashtirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar bera olishi, darslikning yetakchi komponent bo‘lgan matn haqida, o‘quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o‘rgatishi xususida atroflicha fikr yuritilgan. Ma’lumki, darslik o‘qituvchi

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti, muhabbatxonsaidova@mail.ru

uchun emas, avvalo, o'quvchi uchun yoziladi. U o'quvchining dars va uy vazifasini bajarishda foydalanadigan asosiy o'quv kitobidir. Lekin o'quvchining asosiy o'quv quroli va vositasi, bilimlarning asosiy manbai sifatida darslikning roli va ahamiyati hozirgi globallashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda uning ta'siri bir muncha pasayganligi, bu holat tendensiya tarzida bundan buyon yanada davom etib borishi ehtimolini darslik mualliflari ham, uni o'qitayotgan o'qituvchilar ham hisobga olishlari zarur.

Darslikning yetakchi komponenti matn hisoblanadi. Maqolada darslik matni axborotlarni shunchaki bayon qilish emas, balki o'quv materialining mazmunini dasturga mos holda tushuntirib berishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *darslik, yangi avlod darsliklari darslik matni, o'quv jarayoni, darslik, o'quv jarayoni, yangi ta'lim texnologiyalari, didaktik yechimlar, didaktik yechimlar.*

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES WHEN WORKING ON THE TEXT OF NEW GENERATION TEXTBOOKS

Abstract

The article discusses important aspects of working on the text of new generation textbooks, the use of new educational technologies in the work of a text teacher, didactic solutions for the effective use of new generation textbooks, the effective use of its achievements in the educational process and making up for deficiencies, proposals for improving textbooks. The leading component of the textbook is considered to be a text that is carefully thought out from the point of view of the ability to give recommendations about the text, which is the leading component of the textbook and is designed to teach students to quickly find the necessary place in the text of the textbook. The article emphasizes that the text of the textbook should not only describe the information, but also explain the content of the educational material in accordance with the program.

Key words: *textbook, new generation textbooks, textbook text, educational process, textbook, educational process, new educational technologies, didactic solutions, didactic solutions.*

Bizni qo'rshab turgan dunyo va hayotimiz dinamik tarzda tez o'zgarib borayotgani va ular turli axborot kengliklarida sodir bo'layotgani haqida k'op aytilgan. Mashhur olim D.I.Feldshteyn takidlaganidek, bolalikning makoni va xususiyatlari o'zgarib bormoqda. Maktabgacha yoshidan boshlab bola o'zining 20 yil oldingi tengdoshiga qaraganda butunlay boshqacha makonga tushib qolyapti. Bu shunchaki boshqa dunyo emas, balki uning bu dunyoni boshqacha idrok etishidir.

Internet va televideniye tufayli keng ochilgan maydon bolaga bir vaqtning o'zida bir nechta vaqtinchalik makonlarda: tarixiy, geografik, etnomadaniy va boshqa joylarda bo'lish imkoniyatini ochib beryapti..."

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ta'lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ta'lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish» vazifasi qo'yildi. Yaratilayotgan yangi darsliklar millat fikri, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks ettirishi kerak. Darslik o'quvchilarning tafakkuri va tasavvurini shakllantirishi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, fan asoslarini hayot bilan bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonning asosiy muammolarini tushunishida ko'maklashishi kerak. Darslik o'quv fani mazmuninigina emas, balki bilimlarni o'zlashtirish darajasini va tushuntirish metodlarini ham aks ettirishi lozim. Keyingi paytlarda nafaqat texnik sohasi, balki gumanitar fanlar sohasida ham zamonaviy innovatsiyalar hamda ta'limdagi yondashuvlarning roli va ahamiyati, yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish va undan foydalanishni darslik asosida mukammal yo'lga qo'yish borasida olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 1997, 3-14-b.)

Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tegishli ravishda Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi yoki Maktabgacha ta'lim vazirliklari tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi.

Maktab darsliklari bilan ishlashning dastlabki bosqichida o'quvchilar bob, paragraf va undagi bo'limlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi farqlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin. (Jo'rayev, 1990, 25-b.)

Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri - o'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda va uning xarakterini belgilashda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini e'tiborga olishi, beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish

uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalaridan hisoblanadi. (Hamroyev, 1975, 67-70 b.)

O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarini ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi hamda uzoq o'tilgan mavzular va yaqin o'tilgan mavzular bo'yicha tez-tez savol-javoblarning tashkil qilib turilishi jarayonning samaradorligini oshiradi. (Safarova, 2010, 134-b.)

Tajribalarimiz hamda kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, o'quvchilarga ona tili va adabiyot darsliklaridagi ma'lumotlarni kichik guruhlariga bo'lib muhokama qildirish, bahs-munozalar uyushtirish ularning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirdi. Bu o'rinda uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda, og'zaki yoki test javoblaridagi xatolarni, noaniq o'rinlarni to'g'rilash uchun darslik matniga murojaat qilinadi.

Ma'lumki, darslik o'qituvchi uchun emas, avvalo, o'quvchi uchun yoziladi. U o'quvchining dars va uy vazifasini bajarishda foydalanadigan asosiy o'quv kitobidir. Lekin o'quvchining asosiy o'quv quroli va vositasi, bilimlarning asosiy manbai sifatida darslikning roli va ahamiyati hozirgi globallashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda uning ta'siri bir muncha pasayganligi, bu holat tendensiya tarzida bundan buyon yanada davom etib borishi ehtimolini darslik mualliflari ham, uni o'qitayotgan o'qituvchilar ham hisobga olishlari zarur.

Darslikning yetakchi komponenti matn hisoblanadi. Matnlar asosiy, qo'shimcha va izohlovchi turlarga bo'linadi. Darslik matni axborotlarni shunchaki bayon qilish emas, balki o'quv materialining mazmunini dasturga mos holda tushuntirib berishi lozim. Darslik matni ustida ishlash o'quvchilarda fanning funktsional ta'limiy vazifalari – bilimlarni o'rganish, o'z fikr va nuqtai nazarlarini og'zaki yoki yozma tarzda tuzish, mustaqil ishlash jarayonida o'zining o'qish va bilish qobiliyatini rivojlantirish, xotirada eslab qolish, ma'lumotni qayta ishlash, bayon qilish, tahlil va tanqid qilish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, matnni o'zgartirish yoki to'ldirish kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Darslarda o'quvchi mavzu mazmunini tushunib olishi, voqea-hodisani tasavvur qilishida matn tanlash, uni bayon qilish, tushuntirish, tasvirlash uslubi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, bayon qilinayotgan ma'lumotlar tushunarli bo'lish bilan birga jozibali hamda emotsional ta'sirchan bo'lishi kerak. Yuqori sinflar darsligida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish maqsadida analiz va sintez qilish, qiyoslash va umumlashtirish, mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va baho berishga undovchi materiallar, savol va topshiriqlar berilishi kerak. Darslikdagi qo'shimcha matnlar

asosiy matnda berilgan bilimlarni tezroq va osonroq o'zlashtirish, mustahkamlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Qo'shimcha matnlar xuddi asosiy matn kabi nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ular ta'lim oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, fanning dasturiy maqsadlari, o'quvchilarning ijodiy va o'quv-biluv qiziqishlari hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. (Saidova, 2022, 184-b.)

O'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatish - darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun topshirilgan vazifaning mazmuni va uni bajarish yo'llarini yaxshi anglab olishlari lozim. Har bir dars yakunida uyga vazifa sifatida mustaqil o'qish uchun mavzuga mos tarzda kitob tavsiya qilish zarur. Xolbuki, dars ham, darslik ham yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. 8-9-sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari va yosh darajasini hisobga olgan holda ona tili mashg'ulotlarida ularning davlat tiliga oid hujjatlar bilan birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan ta'lim oluvchining hayoti davomida tez-tez murojaat qiladigan ish yuritish hujjatlari matni kiritiladi. Yangi avlod darsliklari yorqin, rangli, ilustratsiyalarga boy va har bir bo'limi o'ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta'minlangan. (Sobirova, 2023, 576-b.)

O'quvchilarni darslik ilustratsiyalari bilan ishlashga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalansa ham bo'ladi. "Ona tili" fani o'qituvchisi milliy urf-odat va marosimlar haqidagi masalalarini tushuntirganda "Kichik guruhlarda ishlash" interfaol metodidan foydalansa, yaxshi samara beradi. Bunda sinf o'quvchilar soniga qarab, to'rt yoki besh guruhga ixtiyoriy tarzda bo'linadi. Har bir guruhga urf-odat va marosimlarning qaysidir turini topish va uning ahamiyatini izohlash topshiriladi. Bunda birinchi guruhga yoshlarni Vatanga, o'z xalqiga muhabbat ruhida tarbiyalashni shakllantirishga qaratilgan urf-odat va marosimlar tizimini aniqlash topshiriladi. Ikkinchi guruhga - yoshlarda fuqarolik burchi, tanlagan kasbiga mas'uliyat hissini shakllantiruvchi urf-odat va marosimlarni aytish topshirig'i beriladi. Uchinchi guruhga yoshlarning axloqiy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan urf-odat va marosimlarni izohlash aytiladi. To'rtinchi guruhga kelgusida urf-odat va marosimga aylanishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar tizimini bayon qilishini topshirish mumkin. (Saidova, 2022, 184-b.)

Barcha guruhlar o'z taqdimotlarini qilib bo'lgandan so'ng o'qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi va to'ldiradi. O'quvchilarga taqdimot davrida o'zlariga berilgan topshiriqlarga boshqa guruh a'zolarining munosabat bildirishi, hayotiy misollar keltirishiga, tanqidiy tahlilga ruxsat beriladi. Guruhlarda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi jarayonni hushyorlik va o'ta

sergaklik bilan kuzatib, boshqarib boradi, guruhlarning javoblari o'qituvchi tomonidan rag'batlantirib turiladi. Ushbu innovatsion ta'lim texnologiyasini qo'llash jarayonida o'quvchilarni hayotda mavjud urf-odat va marsimlar, ularning barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati bilan birgalikda to'rtinchi guruhning javoblari ham qiziqtiradi. Dars mashg'ulotining barcha bosqichlarida darslik matniga qayta-qayta murojaat qilish uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yaratilgan zamonaviy darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida — o'tilgan mavzularni so'rash, yangi mavzu bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash kabi materialni o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi. Darslik matni ustida olib boriladigan ishlar o'qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq hamda puxta o'zlashtirib olishlariga yordam beradi. Darslik o'qituvchi uchun emas, avvalo, o'quvchi uchun yoziladi. U o'quvchining dars va uy vazifasini bajarishda foydalanadigan asosiy o'quv kitobidir. Darslikning roli va ahamiyati hozirgi axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda uning ta'siri bir muncha pasayganligi, bu holat tendensiya tarzida bundan buyon yanada davom etib borishi ehtimolini darslik mualliflari ham, uni o'qitayotgan o'qituvchilar ham hisobga olishlari zarur.

Adabiyotlar

Barkamol avlod orzusi. (1999). / Tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov Sh., Axliddinov R. Sharq. Toshkent. 14.

Djurayev R.X., Ne'matov Sh.X. (2010). *Darsliklarning tarixiy taraqqiyot yo'li va bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni.* Sano-Standart. Toshkent. 25-36.

Hamroyev A.R. (2018). *Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish.* Monografiya. Durdona. Toshkent. 187.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 5-bo'lim. (1997) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 9-son.

Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. (2005). *O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari.* Fan. Toshkent. 89.

Saidova. M. Sh. (2023). Yangi avlod darsliklari ta'lim jarayoninig muhim bo'g'ini sifatida. // *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.* Buxoro. 187.

Saidova. M. Sh. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(5), 714–717. <https://doi.org/10.5281/zenodo.795617>SSN: 2750-3402

Sobirova M.Y. (2023). Ona tili ta'limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: *Diss... ped. fan. dokt.* Namangan. 256.

Tursunov Q., Normamatova N. (2015). Darslik tuzilishiga qo'yiladigan zamonaviy metodik talablar. // *Xalq ta'limi*, 2-son. 83.

HUJJATCHILIK TARIXI

Sayyora Xolmirzayeva*

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat rivojlanib borgan sari, har bir davrning talabi va ehtiyojidan kelib chiqib, hujjat turlari yuzaga kelganligi haqida to'xtalib o'tilgan. Hujjatchilikning uzoq va murakkab tarixga ega ekanligi aniq davrlar misolida keltirilgan. Hujjatchilik tarixiga jaddidchilik harakati yetakchisi, ma'rifatchi, tilshunos, o'z davrining ziyolisi Mahmudxo'ja Behbudiyning qo'shgan hissasi haqida ham fikr bildirilgan. Muallif tomonidan yaratilgan "Kitobat ul-atfol" qo'llanmasida yozilgan ish faoliyatida qo'llaniladigan xatlarni yozish qoidalari, ularda tinish belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi, so'zlarning o'rinli ishlatilishi haqida fikr

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat agrar universiteti, kakhramonazizov6@gmail.com.

yuritilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat ul-atfol” uslubiy qo‘llanmasida hujjatchilik tili, turlari va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ham ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: hujjatchilik, rasmiy uslub, hujjat turlari, imlo qoidalar, til tarixi, shaxsiy xatlar, xat turlari, rasmiy xatlar, uslubiy qo‘llanma, jaddidchilik, qadimiy yozuv, yorliq hujjati, turkiy hujjatchilik, muhr, Temuriylar davri, vasiqa.

HISTORY OF DOCUMENTATION

Annotation

In this article, as the society develops, based on the demands and needs of each period, the types of documents were created. The fact that documentation has a long and complicated history is illustrated by specific periods. The contribution of Mahmudkhoja Behbudi, the leader of the Jaddid movement, educator, linguist, intellectual of his time, to the history of documentation is also discussed. The rules of writing letters used in work activities, the use of punctuation marks in their place, and the appropriate use of words are discussed in the "Kitabat ul-atfol" manual created by the author. The article reveals that Mahmudhoja Behbudi's views on the language, types and basic requirements of documentation in the methodological manual "Kitabat ul-atfol" have not lost their importance even today.

Key words: documentation, formal style, types of documents, spelling rules, language history, personal letters, types of letters, official letters, stylistic guide, writing, ancient writing, label document, turkish documentation, seal, Timurid era.

Kishilik jamiyati bor ekan, uning faoliyatini tartibga solib, boshqarib turadigan, jamiyat a‘zolarining o‘zaro munosabatlaridagi ma‘lum bir holatlarni qayd etib borish zaruratidan ilk hujjatlar yuzaga kelgan. Rasmiy hujjatlar yuz yilliklar osha davlat ijtimoiy-siyosiy boshqaruvi, xalqaro diplomatiya, kishilar o‘rtasidagi oldi-berdi munosabatlarining huquqiyligini, ishonchliligini kafolatlovchi, uning bajarilishini ta‘minlovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Hozirgi kunda oromiy, o‘rxun-enasoy, eski uyg‘ur, so‘g‘d, kushon, arab kabi yozuvlarda bitilgan yozma manbalar, shu jumladan hujjatlar bitilgani haqida ma‘lumotlar mavjud.

Turkiy yozma hujjatchilikning tarixiy ildizlari ilk o‘rta asrlarga, qadimgi turk xoqonliklari davriga borib taqaladi. Turkiy yozma hujjatchiligining ilk bosqichlarida yurt egasining xalqqa qaratilgan chaqirig‘i, yorlig‘i, hatto davlatning bosh qonuni, tuzuklari epigrafik shaklda bayon etilgan. Buni birinchi turk xoqonligi chog‘ida tiklangan bug‘ut yodgorliklari, Ikkinchi turk xoqonligi davrida tiklangan Kul tigin (732-y.) va Bilga xoqon yodgorliklarida ko‘rish mumkin. Bilga xoqon unvoni o‘z

davrininggina emas, o'rta asrlarning barcha rasmiy yorliqlari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Turkiy hujjatchilik tarixida Sharqiy uyg'ur va Turfon uyg'ur davlatlarida (IX yuzyillikning ikkinchi yarmi-XIII yuzyillik boshlarida) bitilgan rasmiy yozmalar ham muhim o'rin tutadi. Bu davrning rasmiy tili, hujjat tuzish amaliyoti turli madaniyatlar va diniy qarashlar ta'sirida shakllangan. X yuzyillikdan Turfonga islom ham kirib kela boshlagan. O'sha chog'lardan xon va beklarning ko'k turk hamda eski uyg'ur xatida bitilgan yorliqlari, ko'plab vasiqalar saqlanib qolgan. Kishilar orasidagi ijtimoiy masalalardan tortib yer-mulk egaligi, oldi-berdi, savdo-sotiq kabi ishlarning hammasi davlat qonunlari doirasida ishlagan va qoidaga ko'ra rasmiylashtirib qo'yilgan.

Oromiy yozuv qadimiy som yozuvi asosida paydo bo'lgan konsonant (undosh) deb ataluvchi yozuv bo'lib, savdo-sotiq va ma'muriy-xo'jalik ishlarida keng qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan. Oromiy yozuvi bitilgan eng qadimgi bitiklar miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga oiddir. Miloddan avvalgi II-I asrlardan milodiy VIII asr o'rtalarigacha Xorazmiy tilida oromiy alifbosi asosidagi yozuvdan foydalanilgan.

So'g'd yozuvi oromiy asosida shakllangan harf-tovush yozuvdir. Bu yozuv ming yil davomida hozirgi O'zbekiston va qisman Tojikiston yerlarida joylashgan qadimiy Sug'diyonada qo'llanilgan. Hujjatlarning ko'p qismi charm, qog'oz, tosh, taxtacha va boshqa buyumlarga so'g'd yozuvida, turkiy tilda yozilgan. Bularga shaxsiy maktublar, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar, turli mavzulardagi matnlar bitilgan. O'rxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng qadimiy harf-tovush yozuvidir. O'rxun-enasoy asosan 35 ta harfdan iborat bo'lib, 8 ta unli ifodasi uchun 4 ta harf ishlatilgan. Ayrim harflar bir tovushni emas, balki birdan ortiq tovushlar yig'indisini ifodalagan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari, har bir davrning talabi, sharoiti va ehtiyojidan kelib chiqib, hujjatlarning turlari yuzaga kelgan. Hujjatchilikning uzoq va murakkab tarixga ega ekanligini miloddan avvalgi 1792-1750 -yillarda Bobilda podshohlik qilgan Hammurapi, miloddan avvalgi 2112-2094 -yillarda hukmronlik qilgan Ur-Nammularning "Qonunlar majmui" manbalaridan ko'rishimiz mumkin. Xondamirning "Qonuni Humoyun", Ro'zbexonning "Suluk al-muluk" kabi tarixiy manbalari ham turkiy xalqlar o'rtasida hujjatchilik an'analari juda qadimgi davrlarda boshlanganini anglatadi. Davlatni idora qilish tartib-qoidalari, soliq olish va uni to'lash tartibi, qo'zg'olonlarni bostirish va harbiy yurishlarni o'tkazish qoidalari, shohliklar, xonliklar tomonidan chiqarilgan farmonlar, bitimlar, shu bilan birga qarznoma, arznoma, yorliq kabi ko'plab hujjatlarni rivojlanish davrining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqannini aytib o'tish mumkin.

Turkiy hujjatchilikning takomillashgan, yuksak bosqichga ko'tarilgan pallasi Temuriylar davriga to'g'ri keladi. Temuriylar saltanatida o'zidan avvalgi davrlar hujjatchilik an'analarini saqlagan holda, rasmiy yozmalarning mazmuni, matn tuzish uslubi boyidi, hujjatlarning yangi-yangi turlari yuzaga keldi. Temuriy sultonlarining yorliqlari va rasmiy bitiklari o'z davri hujjatchiligining yuksak namunalaridir. Ular o'rta asrlar diplomatikasining talablari asosida yaratilgan: tuzilish puxta, matn mantiqan bog'langan, terminlar tizimi mukammal, uslubiy takomil. Temuriylar davri hujjatchiligi an'analari butun bir turkiy dunyoga yoyilib, uning ta'sirini Oltin O'rda, Usmonliylar saltanati va boshqa o'lkalarda yaratilgan hujjatlar tili va uslubida ko'rish mumkin.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida vazir va qo'shin boshliqlarini tayinlash, soliq va boj to'lashning qoidalari, mamlakatni boshqarish tartibi, qo'shin boshliqlari hamda davlat arboblarning burch va vazifalari, mansabdor shaxslarning ko'rsatgan xizmatlarini qay shaklda taqdirlash tartibi, toj-u taxt egalari majburiyatlari va vazifalari kabi boshqa shunday muhim qoidalar o'z aksini topgan. Shuningdek, qozilar tomonidan tasdiqlangan meros mulkni taqsimlash, bolalarni hunar o'rganish uchun shogirdlikka berish, savdo do'konlari, uy-joy, korxonalar, yer-suv, mol-mulkni sotish, sotib olish yoki ijaraga berish, qullar mehnatidan foydalanish yoki ularni ozod etish, oila, taloq, sulh kabi huquqiy munosabatlar aksini topgan vasiqalar to'plamlari ham fikrimizni asoslaydi. O'tmishda keng tarqalgan, eng qadimiy hujjat turlaridan biri vasiqa bo'lib, o'xshash birliklar ko'p qo'llanilgani uchun "qolipli-hujjat"ga yaqin turadi. Shunday qilib, vasiqalar qulga erkinlik berish, qulni yoki yerni sotish, bola asrab olish, don-dun, kunjit singari narsalarni qarzga olish, ekin maydonini ijaraga olish, qarzga pul yoki oltin-kumush olish bilan bog'liq o'ndan ortiq holatlarda tuzilgan. Vasiqalar hujjat tuzilgan sanani yozish bilan boshlangan. Ularda qarz olayotgan, qarz berayotgan kimsalar, qarzning qaytarilishini kafolatga olayotgan kishi, shuningdek oldi-berdini kuzatib turgan guvohlar hamda hujjatni bituvchining ismi yozilgan. Nasiyaga olinayotgan narsa-buyumning o'lchovi, uning qachon va necha hissa qilib qaytarilishi aniq ko'rsatilgan. Vaqtida to'lanmay qolsa, yurt qoidasiga ko'ra qo'shimcha to'lovga tortilishi ham ta'kidlab ko'rsatilgan. Mabodo, biror kor-hol bo'lib, qarz oluvchi to'lolmay qolsa, uning yaqinlari albatta to'lashi zarurligi yozib qo'yilgan va tamg'a bilan tasdiqlangan. Huquqiy munosabatlar vasiqa tuzilgan kundan boshlab kuchga kirgan.

Sharqda X-XIX asrlarda vasiqa, arznoma, tilxat, noma, bitimlar, yorliq, qarznoma kabi hujjatlar keng qo'llanilgan.

Maktublar ham hujjatning bir turi sifatida yuzaga kelgan. Xonlar o'rtasidagi rasmiy-diplomatik xatlar va yozishmalarda ham badiiylik elementlari aralashgan. Qo'shni mamlakat egalari yo'llangan xatlarda diplomatik talablardan kelib chiqqan holda, murojaat qilinayotgan insonga hurmat bilan munosabatda bo'lingan. Alisher

Navoiy o'z maktublarini to'plab, "Munshaot" asarini yozdi va bu janrni yuqori bosqichga ko'tardi.

Yorliq hujjati, ayniqsa, ko'p ishlatilgan, u mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan: farmoyish, tasdiqlash, xabar, bildirish, tavsif, ishonch. Ma'lum bir qolipga ega bo'lib, yozilgan sana va joy aniq ko'rsatilgan. Misol sifatida 1469-yilda Umarshayx Mirzoning marg'ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga bergan yorlig'ini, 1797-yilda Toshkent hokimi Yunusxo'janing Rossiya podshosiga o'z elchisi orqali yuborgan yorlig'ini misol tariqasida keltirish mumkin. Yorliq hujjati eng qadimiy hujjat turi bo'lish bilan birga "diplomatik yozishmalar" nomi bilan yangidan qo'llanib kelinayotgan hujjat turidir.

XIX asrda Qo'qonda keng tarqalgan, turkiy hujjatchilikda uzoq tarixiy tajriba va takomil natijasi bo'lgan hujjat turi "patta"dir. Pattada ma'lum bir kishiga pul, mahsulot, urug' yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqidagi ma'lumot aks etsa, mazmuni jihatidan hozirgi kunda qo'llaniladigan tilxat hujjatiga ko'p jihatdan mos keladi. Tilxat narsa olinganini yoki aksincha, berish lozimligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjatdir.

Muhr hozirgi kunda ham hujjatlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Muhrning yaralish tarixi davlatchilik, xalqaro diplomatiya hamda huquqiy munosabatlarning shakllanishi va takomili bilan bog'liq. Muhrlar yozuv paydo bo'lmagan chog'larda ham ishlatilgan. Ularning tamg'asi ramziy-simvolik belgilarga asoslangan bo'lib, davlatning ramziy belgilari, hayvonlar, qushlarning rasmlari muhrlarga ham tushirilgan. O'rta asrlarda bitilgan xon maktublari, yorliqlar, guvohnomalar va boshqa rasmiy hujjatlarga davlat muhri bosilgan. Xon va amaldorlar o'z ismi-sharifini, diniy kalimalar, shiorlarini muhrlarga ham yoza boshlaganlar. Muhrlar teng yonli to'rtburchak, dumaloq shakllarda bo'lgan. Hujjatning katta-kichikligiga qarab bir yoki bir nechta joyga muhr bosilgan. Ayrim hujjatlarda yorliq beruvchi hukmdor muhridan tashqari davlat idoralarining muhri, turli qaydlar ham uchraydi.

Hujjatchilik atamalari til va jamiyatning uzoq asrlik taraqqiyoti mahsulidir. Turkiy hujjatchilik atamalarining eng qadimiylaridan biri "so'z"dir. Rasmiy muloqotda "so'z" hukmdorning buyrug'i, "elga qarata aytgan so'zi"ni anglatgan. Yozuv yuzaga kelmasdan ancha burun, o'zaro rasmiy muomaladan boshlab yurt egasining elga murojaati ham, jamoa orasidagi o'zaro kelishuv munosabatlari ham "so'z"dan boshlangan. Hukmdor o'zining qo'l ostidagi kishilarga, elga o'z so'zini, buyrug'ini aytgan. Yozma hujjatchilik yuzaga kelgandan keyin ham "so'z" kalimasi rasmiy bitiklarda ayni shu vazifada ishlatila boshlangan. Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan yorliqlarning unvonlarida "so'zim" kalimasi qo'llanilgan. U "bu mening farmonim, yorlig'im" degan ma'noni anglatgan. Kishilar o'rtasidagi og'zaki so'zlashuv ham "so'z" deyilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakati yetakchilaridan biri, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan dramaturg, o‘z davrining ziyolisi, ma’rifatchi, publitsist, noshir, jurnalist, teatrshunos, tilshunos bo‘lishi bilan bir qatorda Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan tanilgan yangi maktablarni o‘z hisobidan ochgan, yoshlarning kelajagini, yurtning ravnaqini, ma’naviy o‘suvini o‘ylagan yirik pedagog ham edi. Adib bu maktablar uchun bir nechta darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar chop ettirdi. Shulardan biri “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar uchun yozuv” kitobi) bo‘lib, bunda XX asr boshlaridagi hujjatchilik va til tarixi haqida yozilganki, bu qo‘llanma hozirgi kunga qadar ham o‘z ahamiyati-qimmatini yo‘qotmagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat ul-atfol” asari hujjatchilikni o‘rganish bo‘yicha muhim manba sifatida ham tarixiy o‘ringa ega.

Asar 1908-yilda Samarqand shahrida chop etilgan, 1914-yilda esa qayta nashr ettirilgan. U o‘zbek va fors tillarida yozilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu qo‘llanmani jadid maktablarining oxirgi bosqich o‘quvchilari uchun mo‘ljallab yozgan edi. Muallifning ta’kidlashicha, jadid maktabini tamomlagan o‘quvchi barcha zarur bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘lkadagi tijorat, savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanishi, mirzo sifatida faoliyat yuritishi, idoralarda ishlashi mumkin edi. Chunki bu qo‘llanmada asosan o‘quvchilarga turli idora va bo‘limlarda ish yuritish qoidalarini o‘rgatish nazarda tutilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zi 18 yoshda qozixonada mirzolik qilgani ham bir tajriba bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. “Kitobat ul-atfol” qo‘llanmasida quyidagi hujjat turlari haqida to‘xtalib, har birining yozilish qoidalari, ularga qo‘yiladigan talablar haqida aytib o‘tilgan:

- 1) ish yuritish faoliyatida yoziladigan xatlarning yozilish qoidasi va tartibi;
 - 2) hujjat turlariga namunalar yozayotganda tinish belgilarining qoidalariga rioya qilish, ya’ni, so‘roq belgisi, undov, tire, vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta, nuqta kabi tinish belgilarining o‘z o‘rnida, to‘g‘ri qo‘yilishi;
 - 3) xat yozishda so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, yozma nutq odobi va madaniyatiga amal qilinishi;
 - 4) xatlar ikki turga: biri xususiy xatlar, ikkinchisi — umumiy xatlarga bo‘lib, tahlil qilingan. Xususiy xatlar ikki kishi o‘rtasida yoziladigan munosabat xatlari bo‘lsa, umumiy xatlar — ish yuzasidan tashkilotlarga yoziladigan xatlardir. Turli joylarga va shaxslarga (shaxsiy xat, idoralarga xat, ota-onaga xat, farzandga xat, do‘stga xat, qarindoshga xat) yoziladigan xatlarning o‘z tartibi, so‘z boyligidan o‘rinli foydalanilishi haqida tavsiyalarining berilishi;
 - 5) ariza, ishonchnoma, ma’lumotnoma kabi hujjatlarning yozilish qoidalari;
 - 6) tasdiqnoma, tilxat, shahodatnoma kabi hujjatlarning yozilish sharti va tartibi.
- Qo‘llanmaning “Xat yozmoq shartlarida” qismida 18 ta qoidasi keltirilgan bo‘lib, ularning har biri hozirgi kunda amalda qo‘llanilayotgan, yozib kelinayotgan

xizmat yozishmalar, turli rasmiy xatlarga qo'yilayotgan mezonlar bilan deyarli bir xildir.

Ularning ayrimlari ustida qisqacha to'xtalib o'tsak:

1. Har so'zni o'z o'rnida, imlo qoidalariga amal qilgan holda qo'llash zarur (yozma nutqning to'g'riligiga amal qilish nazarda tutilgan). Ish yurituvchi tomonidan ma'lum bir masala yuzasidan xat yozish zarurati tug'lsa, u avvalo, o'sha masalani o'zi chuqur bilgan, yaxshi tushungan bo'lishi hamda matnda o'ziga noaniq, noma'lum bo'lgan so'zlarni ishlatmasligi kerak (yozma nutqning aniqligi nazarda tutilgan).

2. Xatni turidan qat'iy nazar, u shaxsiy xat bo'ladimi, rasmiy xat bo'ladimi, mulohaza qilib, o'ylab, uning ta'sirchanligiga ahamiyat berish lozim (yozma nutqning ta'sirchanligi nazarda tutilgan). Maktublarda shaxsning yomon xislatlarini keltirib yoki uning aybini yuziga solib yozish, xat mazmunida o'zi tushungani bilan boshqalar tushunmaydigan so'zlar, jargon so'zlar, ko'chada qo'llaniladigan boshqa atamalar (ya'ni hozirgi til bilan aytganda, so'zlashuv uslubiga xos so'zlar), qo'pol so'zlar, ta'na, hazil, noo'rin iboralar, har xil laqablar bilan yozilishi ta'qiq sifatida qaraladi. Til masalasiga o'ta jiddiy qaragan ulug' adimiz yozishmalarida o'z tilida yozilishi mumkin bo'lgan so'zlar o'rniga ruscha yoki boshqa xorijiy tillarda qo'llaniladigan so'zlarning ishlatilishiga, xalq orasida unutilib ketgan, kundalik faoliyatda qo'llanilmaydigan eski so'zlarni noto'g'ri kiritilisha qarshi bo'lgan (yozma nutqning sofliqiga amal qilinishi nazarda tutilgan). Qo'llanma qoidalarida idoraga yoziladigan xatlar qisqa, mazmundor bo'lishi, ularda ko'rsatilgan joy nomlari aniq, to'g'ri yozilishi kerakligi ta'kidlanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni hozirgi kunda rasmiy ish qog'ozlar uslubiga, hujjatchilikka, yozma nutqqa qo'yiladigan talablar sifatida darsliklarda yangi talqinda o'qishimiz mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning o'rtalaridayoq o'z asarlarida bular haqida yozib qoldirgani shuni ko'rsatadiki, biz jadid bobolarimizning ijodini, ularning qoldirgan ma'naviy merosini yana-da chuqurroq o'rganishimiz zarurdir.

"Hujjatlarni tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jihatiga ko'ra, hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: qoralama, asl nusxa, nusxa". "Davlat tilida ish yuritish" nomli amaliy qo'llanmadan ushbu iqtibosni keltirishda sabab, M.Behbudiy "Kitobat ul-atfol" qo'llanmasida ham shunga yaqin fikrlar aytib o'tilgan. M.Behbudiy yozilgan, ya'ni yuborilayotgan xatlarni, maqolalarni mutaxassislarga, o'z muallimiga yoki ahli do'stiga ko'rsatib, kamchiliklarini bilish o'rinli ekanligini bildiradi. Bu esa hujjatlarni tayyorlashdagi qoralama variantiga to'g'ri keladi. Demak, qo'l bilan yoziladigan hujjat turlarini (jumladan xatlarni) qoralama yozish, so'ng esa ko'chirish, zaruriy qismlarini tekshirish, ularni tahlil va

tahrir qilish, jumalarning g'alizligini to'g'rilash, uslubiy hamda imloviy jihatdan to'g'ri yozilishini ta'minlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" qo'llanmasida hujjatchilik tili, turlari va ularga qo'yiladigan asosiy mezonlar haqidagi ma'lumotlari va qarashlari hozirgi kunda ham xizmat qilishi shubhasizdir.

Hujjatchiligimiz qadimiy va keng tarixiy takomiliga, tajribasiga ega bo'la turib, sobiq sovet davrida deyarli rus tilida olib borilgan. Rasmiy uslubda qo'llaniladigan barcha hujjatlarning nomidan tortib matnigacha rus tilida yozilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, uning nufuzi va mavqeini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangani bir davrda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar to'liq yaratildi.

Adabiyotlar

Boltayev M. (2020). *Hujjatlar avvalo davlat tilida yozilishi kerak*. Zarnews.uz. Toshkent.

Avazov N. (2021). "Hujjat qanday yuritiladi?" Yoxud Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" asarini o'qiganmisiz?". *"Hurriyat" gazetasi, 31-dekabr*. Toshkent.

Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Yo. (2020). *Davlat tilida ish yuritish*. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent.

Sodiqov Q. (2014). *Turkiy hujjatchilik tarixidan*. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. Toshkent.

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA ORIENTATSION METAFORANING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Hamida Juraqobilova*

Annotatsiya

Mazkur maqolada J.Lakoff va M.Jonsonlar tomonidan taklif qilingan konseptual metafora nazariyasi va ularning tipologik turlari muhokama qilindi. Oriyentatsion metaforaning konseptual metaforaning boshqa tipologik turlaridan farqli jihatlari aniqlandi va ular inson tanasi hamda uning fazodagi jismoniy harakatlari bilan bog'liq xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, fazoviy yo'nalishlarga asoslangan oriyentatsion metaforaning madaniy kontekstga, madaniy me'yor va milliy madaniyatlarga, hayotiy tajribalarga bog'liq lingvokognitiv xususiyatlari misollar orqali tahlil qilib berildi.

* San'at fanlari nomzodi, dotsent, Turon universiteti, xamidajuraqobilova@gmail.com.

Kalit soʻzlar: *konsept, kognitalogiya, konseptual metafora, strukturaviy metafora, oriyentatsion metafora, ontologik metafora, kognitiv metafora, fazoviy yoʻnalish, universal xarakter.*

Abstract

The article examines the theory of conceptual metaphors proposed by J. Lakoff and M. Johnson and their typological types. The aspects of orientation metaphor that differ from other typological types of conceptual metaphor are identified and their characteristics associated with the human body and its physical movements in space are analyzed. Linguacognitive features of orientation metaphor based on spatial directions associated with cultural context, norms, national cultures and life experience are analyzed using examples.

Keywords: *concept, cognitology, conceptual metaphor, structural metaphor, orientation metaphor, ontological metaphor, cognitive metaphor, spatial orientation, universal character.*

Jahon tilshunosligida kontseptual metafora masalasining koʻtarilishi insonning tafakkur jarayonlari bilan bogʻliq tadqiqotlarning yaratilishiga turtki berdi. Bu birinchi navbatda, metaforani dunyo haqida fikr yuritish usulining nutqqa oʻtgan shakli, degan xulosaga kelishga yordam berdi. Bu masala bilan 70-80-yillarning tilshunoslari A.Ortoni, R.Xarris, R.Reynolds A.Xili va boshqa koʻplab olimlar shugʻullandilar.

Kontseptual metafora “qisqartirilgan oʻxshatish” ham, nutqni bezash usullaridan biri ham, hatto soʻz va umuman tilning xususiyati ham emas. Zamonaviy kognitiv fan nuqtai nazaridan metafora asosiy mental operatsiyalardan biri boʻlib, u atrofimizdagi dunyoni bilish, tizimlashtirish va tushuntirish usulidir.

Bu esa, til va psixik hodisalarning oʻzaro taʼsiridagi tadqiqotlarning, xususan metaforani lingvistikaning bugungi kundagi dolzarb tadqiqotlaridan biriga aylantirdi. Rus tilshunos olimlarining taʼbiri bilan aytganda lingvistik hodisa sifatida metaforaga yangidan hayot berdi”.

Konseptual metafora asoschilari J.Lakoff va M.Jonsonlar “Metaphors We Live By” asarida birinchi marta konseptual metaforaning tipologiyasini ishlab chiqdi va uning uchta asosiy turini ajratib koʻrsatdi: orientatsion metafora, ontologik metafora va strukturaviy metaforalar.

Oriyentatsion metaforalar alohida tushunchalarning emas, balki insonlarning fikr mulohazalaridagi tasviriy ifodalar bir-biriga maʼlum bir fazoviy qarama-qarshilikda boʻlgan butun tushunchalar tizimining oʻzaro taʼsiri natijasi sifatida qaraladi va “baland-past”, “ichki-tashqi”, “orqa-oldin”, “oʻng-chap”, “yuqori-quyi”, “chuqur-yuzaki”, “markaz-chet” kabi fazoviy parametrlarni konseptuallashtiradi.

J.Lakoff va M.Jonson opiyentatsion konseptual metaforalarda tushunchaning qaysidir tomon yoki yo‘nalish xususiyatini olishi shunchaki tasodif emas, aynan insonlarning moddiy va madaniy tajribalari asosida hosil bo‘lishini ta’kidlaydi. Rus olimi N.A.Mishankinaning fikricha, orientatsion metaforalar metaforaning boshqa tipologik turlariga qaraganda ko‘proq universal xarakterga ega bo‘lib, ular avvalo, inson tanasi va uning fazoviy makondagi yo‘nalishlari bilan bog‘liq. Bunday hollarda jismoniy me‘yor tushunchasi dolzarb hisoblanib, inson tanasining oddiy va g‘ayrioddiy holati hamda harakatlari konseptuallashtiriladi.

Bu esa til va dunyoni idrok etish bizning hayotiy tajribamiz va bevosita milliy madaniyatimiz bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mutaxassislar ta’kidlaganidek: “Bizning konseptual tizimimiz hayotiy tajribalarimiz asosida quriladi”.

Fazoviy ifodalar ko‘rinishidagi fundamental tuzilishga ega bo‘lgan orientatsion metaforalar inson bilishini, ya’ni tevarak-atrofdagi olamni idrok etishga xizmat qiluvchi va unga hamroh bo‘ladigan aqliy mushohadalarni tahlil qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ushbu turdagi metafora individual tushunchalarni emas, balki inson fikrlaydigan va yashaydigan ko‘plab konseptual sohalarni qamrab oladi.

Ayrim mutaxassislarning tadqiqot natijalariga ko‘ra orientatsion metaforalar oddiy va unchalik murakkab bo‘lmagan tajribalarga asoslangani bois ularda ma’no ko‘chichi hodisasi osonroq kechadi. Lekin ma’lum bir nomning boshqa tur nomiga ko‘chirilishi jarayonida uzoq yillik tajriba, mantiqiy bog‘liqlik va eng asosiysi, aniq ko‘zlangan maqsad yotadi.

I.Keromn J.Lakoff va M.Jonsonlarning fazoviy yo‘nalishlarga asoslangan metaforalar madaniy kontekstga, madaniy me‘yorlar va odatlarga bog‘liqligi xususidagi fikrlariga qo‘shilgan holda, J.Lakoff va M.Jonsonlar tomonidan “Metaphors We Live By” asarida o‘rganilgan va tahlil qilingan konseptual metaforalarning fransuz va nemis tillaridagi tarjimai bilan shug‘ullangan va bir nechta madaniyatlarda ham bir xil konseptual metaforalarning mavjud bo‘lishi mumkinligini kuzatgan. Y ingliz madaniyatidagi kabi fransuz va nemis tillarida so‘zlashuvchi har bir inson uchun ham, *baxt va qayg‘u, hayot va o‘lim, sog‘liq va kasallik va ijtimoiy mavqe* (shuningdek, ongli va ongsizlik, yaxshi va yomon, ratsional va hissiy) umumiy tushunchalardir ekanligini quyidagi misollar orqali izohlaydi:

My spirits rose. (ingliz tilida) - Kayfiyatim ko‘tarildi.

Meine Stimmung stieg. (nemis tilida) - Kayfiyatim ko‘tarildi.

Il ne faut pas te laisser abattre (fransuz tilida) – Kayfiyatingni ko‘tar. (Umidsizlikka tushma)

Fazoviy qaramq-qarshiliklarga asoslangan orientatsion metaforalar madaniy me‘yorlar va odatlarga qarab turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Ba'zi madaniyatlarda "yuqori" kuch va muvaffaqiyat bilan bog'liq bo'lsa, boshqalarida esa butunlay teskari ma'noga ega bo'lishi mumkin. "Oldinga-orqaga" orientatsion metaforasi ham asrlar davomida turli madaniyatlarda odamlar ongida vaqtga aynan yo'nalishga ega tushuncha sifatida qarash hissini shakllantirgan. Ko'pgina boshqa madaniyatlardagi kabi o'zbek madaniyatida ham kelajak oldin, o'tmish esa orqada tasvirlangan. Ayrim madaniyatlarda tilda kelajak "oldinda", o'tmish esa "orqada" tushunchasi konseptuallashtirilgan bo'lsa-da, til sohiblarining diqqat, e'tibori o'tmish, keksa avlodga, asrlar davomida shakllangan milliy an'analarga qaratilgani bois buning aksini ko'rish mumkin. Morokko, Xitoy xalqlari tafakkurida, aksincha, kelajak-orqada, o'tmish-oldinda konseptual xaritasi shakllanganining guvohi bo'lish mumkin. Bu esa til va dunyoni idrok etish bizning hayotiy tajribamiz va bevosita milliy madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Mutaxassislar ta'kidlaganidek "Bizning konseptual tizimimiz hayotiy tajribalarimiz asosida quriladi".

J.Lakoff va M.Jonson bunday fazoviy makondagi munosabatlar insonning moddiy olam bilan o'zaro ta'sirida, birinchi navbatda inson tanasining harakatlari va uning fazoda joylashishi bilan izohlanadi, deya ta'kidlaydilar. Olimlar aynan fazoviy qarama-qarshiliklarni ifodalovchi **UP – DOWN** (yuqoriga-pastga) leksemalari orqali insondagi ayrim tuyg'ular, xursandchilik, baxt, quvochni "HAPPY" (baxt), tushkunlik, qayg'u, baxtsizlikni "SAD" (qayg'u) konseptlari misolida HAPPY IS UP (BAXT–YUQORIGA) - SAD IS DOWN (QAYG'U–PASTGA) modelida tahlil qilib berdi. Shu o'rinda bu oriyentatsion metaforalar aynan joyni emas, balki yo'nalishni ifodalovchi nomlar orqali insonlarning konseptual dunyosi qanday ifodalanishini ko'rsatib bergan. YUQORIGA-PASTGA tipidagi orientatsion metaforalar baxt tuyg'usini yuqoriga intilish, uchish, baxtsizlik tuyg'usini esa yerga tushish, kayfiyat tushishi tuyg'ulari bilan solishtirishga asoslanadi.

Uch tomonlama o'lchovga ega bo'lgan fazo "yuqori-past", "o'ng-chap", "old-orqa" orientatsion metaforalarida uchta asosiy fazoviy parametrlar orqali konseptuallashtiriladi.

"Yuqoriga" va "pastga" fazoviy pozitsiyalar haqida gapirganda, olimlar J. Lakoff va M. Jonson ularga o'ziga xos jismoniy va ijtimoiy sabablarga ega bo'lgan quyidagi tushunchalarni bog'laydilar.

1. HAPPY IS UP (baxt–yuqoriga)

I'm feeling up today. Bugun men o'zimni yaxshi his qilyapman.

I'm feeling up. Men o'zimni baxtning cho'qqisida his qilyapman.

That boosted my spirits. Bu mening kayfiyatimni ko'tardi.

My spirits rose. Ko'nglim ko'tarildi.

You're in high spirits. Siz ko'tarinki kayfiyatdasiz.

Thinking about her always gives me a lift.

U haqida o‘ylash menga har doim *ko‘tarinkilik* bag‘ishlaydi.

SAD IS DOWN (qayg‘u–pastga)

I'm feeling *down*. Men tushkunlikka *tushyapman*.

I'm *depressed*. Men tushkunlikka *tushdim*.

He's really *low* these days. U hozir juda xafa, *tushkun* holatda.

I *fell* into a depression. Men ruhiy tushkun holatdaman.

My spirits *sank*. Ko‘nglim o‘ksidi.

O‘zbek madaniyatida ham ingliz va boshqa xalqlar madaniyatidagi singari “baxt” va “qaygu” konsepti insonlarning jismoniy harakatlaridagi “yuqori–past” fazoviy munosabatlari orqali uchraydigan ko‘plab konseptual metaforalarni uchratish mumkin. Biz quyida o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari va uning fransuz tiliga tarjimasini misolida tilning ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi oriyentatsion metaforalarni madaniy mentallikni ifodalash vositasi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Asar fransuz tiliga Stephane A.Dudoignon tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan. Tarjimon asarning nomini tarjima tilida “Nuit” (“Kecha”) deb atagan. Asar nomining bu tarzda nomlanishining o‘zidayoq biz metaforaga duch kelamiz. Bunday nomlanish kitobxonda asar voqealarining, qahramonlarning fojiali taqdiri, o‘sha davr ijtimoiy hayoti va muhitidan darak beradi hamda inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki metaforalar yordamida fikrlaydi, ular vositasida o‘z dunyosini qurishidan dalolat beradi.

Biz asar tahlilida shodlik, qayg‘u, sog‘inch, iztirob kabi konseptlarning matn orqali ifodalanishida tasvirning to‘laonli bo‘lishini ta’minlagan “KO‘NGIL” konsepti va uning fransuz tiliga tarjimasini misolida ko‘rib chiqamiz.

Har yil kelgan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanalariga iliq qon yugurdi. (Cho‘lpon, 2019:6)

Tarjima tilida:

*La joie des premiers jours du printemps commençait de **chatouiller les cœurs**. Un sang chaud de nouveau coulait dans le corps transi de la nature.* (Stephane A.Dudoignon, 2009:9)

Tarjimon “*ko‘ngillarni qitiqlay boshladi*”, metaforasini fransuz tiliga “*commençait de chatouiller les cœurs*”, ya’ni “*yuraklarni qitiqlay boshladi*” tarzida tarjima qilgan.

Xolmatga sal og‘ir keladigan bir ish bo‘lsa, unga yetkazmasdan, o‘zi bir ish qilib bitiradi; joyi kelganda, muloyim gapirib, joyi kelganda, po‘pisa qilib, qizi yoki kelinining ko‘nglida ko‘tarilgan havas olovlariga suv sepadi, u olovlarni avj olmasdan turib so‘ndiradi. Ularning talablari juda o‘rinli bo‘lsa, o‘zi ilojini qilib, qondiradi. Ularning ko‘nglini oladi, Xolmatni ortiqcha tashvishlardan qutqazadi. (Cho‘lpon, 2019:33)

Tarjima tilida:

S'il s'agissait de quelque chose qui aurait pu vexer Holmat, elle s'en débrouillait seule, sans lui en rapporter: tantôt par de douces paroles, tantôt par l'admonestation, elle **refroidissait le feu qui couvait dans le cœur** de sa fille ou de sa bru, l'empêchant de prendre l'ampleur d'un incendie ravageur. Et si ce désir paraissait acceptable, elle trouvait par elle-même le moyen de le satisfaire. Tout en leur complaisant ainsi, elle libérait Holmat de tracasseries inutiles.

(Stephane A.Dudoignon, 2009:44)

Yuqoridagi jumlada adib mahorat bilan tasvirlagan “..... ko‘nglida ko‘tarilgan havas olovlariga suv sepadi, u olovlarni avj olmasdan turib so‘ndiradi” jumlasini tarjima tiliga “refroidissait le feu qui couvait dans le cœur l'empêchant de prendre l'ampleur d'un incendie ravageur”, сўзма-сўз “yuragidagi xavf to‘g‘diradigan olov o‘t olmasdan uni sovutadi” tarzida tarjima qilingan. Asl tilidagi “suv sepmoq”, so‘zi o‘rniga tarjima tilida “refroidir” (sovutmoq) so‘zi qo‘llanilgan. Bu esa har bir madaniyatda ma’lum bir holatni ifodalashda til sohiblari uchun tushunarli bo‘lgan ko‘chimdardan foydalanish imkonini beradi.

Faqat narigi - kichik kundosh, mingboshining kumush kamarida eng a’lo naqsh bo‘lib yonib turganda, bu zararsiz kundoshing haqligini iqrar qilib va uning **siniq ko‘nglini ovlash**, shu bilan uni qo‘lga olmoq, hozir ikkala xotin uchun baravar kundosh bo‘lgan kichik xotinga qarshi o‘t ochmoq lozim edi. (Cho‘lpon, 2019:48)

Tarjima tilida:

Toutefois, pour **gagner le cœur brisé** de Khadidja Khan et faire d'elle une alliée sûre, avant d'ouvrir le feu sur celle qui était devenue leur égale, ne suffisait-il pas à Pochcha Khan de démontrer son bon droit d'épouse, flouée à son tour par cette jeune épousée, devenue le plus bel ornement sur la ceinture d'argent du ming bochi? (Stephane A.Dudoignon, 2009:68)

Yuqoridagi jumlada **ko‘ngil** konsepti, “singan, parchalangan, biror yeri uchgan yoki darz ketgan, yorilgan” ma’nolariga ega bo‘lgan **siniq** so‘zi bilan metafora hosil qilgan. Adib ayolning o‘ksigan, iztirob chekkan yuragini “siniq ko‘ngil” metaforasi orqali mahorat bilan tasvirlashi asar qahramonlarining ko‘ngil iztiroblarini kitobxon qalbiga yetib borishini ta’minlagan. Tarjimon uni “**le cœur brisé**” (singan, parchalangan yurak) tarzida tarjima qilishi, har ikkala madaniyatda ham insonning ko‘ngil iztiroblarini ifodalovchi “siniq ko‘ngil” konseptual metaforasi mavjudligini anglatadi. Muallif shu o‘rinda “ko‘nglini ovlash” oriyentatsion metaforasini “birovni xursand qilishga, kayfini chog‘ qilishga harakat qilmoq” ma’nolarida juda go‘zal ifodalan bo‘lsa, tarjima tilida esa “gagner le cœur”(yuragini zabt etmoq) metaforasi orqali juda tushunarli ifodalagan. Asar qahramonlari nutqida uchraydigan metaforalarda ularning hayotga bo‘lgan munosobati, ko‘ngil iztiroblari, his-tuyg‘ulari ifoda topgan.

Oriyentatsion metaforalar insonning jismoniy va ma'naviy tajribalarini o'zida ifodalagan holda, uning hayotiy yo'nalishlari va harakatlarini tasvirlashda qo'llaniladi. Ushbu metaforalar konseptual manzarani shakllantirishga yordam beradi, chunki ular insonning jismoniy tajribalariga asoslangan holda ma'nolarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili fazoviy qarama-qarshiliklarni ifodalovchi "yuqoriga-pastga" leksemalari orqali ifodalangan BAXT-YUQORIGA – QAYG'U–PASTGA oriyentatsion metaforasi o'zbek madaniyatida ham insonlarning konseptual dunyosini ifodalaydi. Insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari manbai bo'lgan "ko'ngil" konsepti o'zbek madaniyatida baxt, xursandchilik, ham baxtsizlik, qayg'u kabi his tuyg'ularni ifodalashi mumkin. Shuning uchun, oriyentatsion metaforalarni tadqiq qilish, insonning o'z-o'zini anglashi va dunyoni idrok qilish uchun muhimdir. Ular bilim, his-tuyg'u va to'g'ri yo'nalishlarni belgilashda xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Aldulhamid Cho'lpon. (2019). Kecha va kunduz. Ilm-ziyo-zakovat.

De la Fuente J, Santiago J, Román A, Dumitrache C, Casasanto D. (2014) When you think about it, your past is in front of you: how culture shapes spatial conceptions of time. Psychol Sci.

Егорова О. А., Калашникова В. В. (2016). Теория концептуальной метафоры в когнитивной лингвистике. *Электронный научный журнал.* 190-195.

Лакофф Джордж, Джонсон Марк. (2004) *Метафоры, которыми мы живем.* Едиториал УРСС.

Мишанкина Н.А. *Метафора в науке: парадокс или норма?* (2010). Изд-во Томского университета.

Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. (2021, 423 с.) *Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор.* Мир науки, культуры, образования. № 4

Ortony, A. (Ed.). (1993). *Metaphor and thought (2nd ed.).* Cambridge University Press.

Ortony, A., Reynolds, R.E., Arter, J.A. (1978). Metaphor: Theoretical and empirical research. *Psychological Bulletin*, 85(5). 919–943.

Рофиева Г.Ю. Ўзбек тилидан француз тилига концептуал метафоралар таржимасининг ўзига хос хусусиятлари (Эркин Аъзам асарлари асосида). *Фил.фан.фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.* Тошкент. 2020.

Richrd J.Harris. *Comprehension of metaphors: A test of the two-stage processing model.* *Bulletin of the Psychonomic Society.* 1976. Vol. 8 (4).

Yvon Keromnes. Les métaphores – et leur traduction – dans la vie quotidienne.
Université de Lorraine, ATILF, UMR 7118, Metz. <https://www.google.com>.
<https://izoh.uz/word/ko%E2%80%98ngil>

ETNOTOPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sobir Ahmedov*

Annotatsiya

Turli xalq, urug‘aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar, etnotoponimlardir. Etnooykonimlar etnonimlardan shakllangan shahar va qishloq nomlaridir. Etnooykonimlar viloyat hududida turlicha, xilma-xil. Viloyat hududini ikkiga, ya’ni tog‘li (janubiy) va tekislik (shimoliy) qismlarga bo‘lish mumkin. Viloyatning janubiy qismida, ya’ni tog‘li hududlarida joylashgan Baxmal, G‘allaorol, Zomin va Forish tumanlari toponimiyasida etnooykonimlarning salmog‘i katta.

Kalit so‘zlar: *millat, xalq, elat, qabila va urug‘, bosh omil , qoraqursoq, baymoq, quyon, suloqli, ilon, lug‘aviy birliklar, metonimiya, qabila-urug‘, etnonimlar, motivatsion asos.*

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malakasini oshirish markazi Jizzax viloyati hududiy bo‘linmasi, sobir79as@gmail.com

SEMANTIC FEATURES OF ETHNOTOPONYMS

Abstract

They are toponyms and ethnotoponyms named after different nations and clans. Ethnotoponyms are city and village names formed from ethnonyms. Ethnotoponyms are different and diverse in the territory of the region. The territory of the province can be divided into two parts, i.e. mountainous (southern) and plain (northern) parts. In the toponymy of Baxmal, Gallaorol, Zomin and Forish districts located in the southern part of the region, i.e. in the mountainous regions, there is a large weight of ethnonyms.

Key words: *nation, nation, people, tribe and tribe, main factor, blackbird, baymock, rabbit, sled, snake, lexical units, metonymy, tribe-seed, ethnonyms, motivational basis.*

O'zbekiston toponimiyasining harakterli xususiyatlaridan yana biri unda etnotoponimlarning, ya'ni turli millat, xalq, elat, qabila va urug' nomi bilan atalgan toponimlarning keng tarqalganligidir. O'zbekiston, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi boshqa turkiy xalqlarda geografik obyektlarni urug'-aymoq nomlari bilan atash keng rasm bo'lgan.

Jizzax viloyati hududida o'zbek urug'lari bilan birgalikda qirg'iz, qozoq kabi turkiy xalqlar hamda tojik xalqiga mansub etnik guruhlar yashab keladi va bu toponimlarda ham o'z ifodasini topgan: *Qozoqovul* (Paxtakor t.), *Tojikqishloq* (Baxmal t.), *Tojikmahalla* (Zomin t.) kabi.

Turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar, etnotoponimlardir. Etnooykonimlar etnonimlardan shakllangan shahar va qishloq nomlaridir. Etnooykonimlar viloyat hududida turlicha, xilma-xil. Viloyat hududini ikkiga, ya'ni tog'li (janubiy) va tekislik (shimoliy) qismlarga bo'lish mumkin. Viloyatning janubiy qismida, ya'ni tog'li hududlarida joylashgan Baxmal, G'allaorol, Zomin va Forish tumanlari toponimiyasida etnooykonimlarning salmog'i katta.

Baxmal tumanida: *O'ray, Saroy, Kaltatoy, Barlos, Mirzaesagi, Uyas, Sartyuzi, Qaropchi, Qirqqishloq, Balxi, Sarmish, Yumaloqbosh, Kaltatoy, Qoraqishloq, O'damali, Qoraqursoq, Boyqo'ng'ir, Chubor, Duvlat, Uyluqma, Lattaband, Paytavabosh, Mo'g'ol, Solin* kabi;

Zomin tumanida: *Boymoqli, Sirg'ali, Quyonquloq, Tig'iriy, Usmoni, Qutchi, Beshbegi, Turkman, Jaloyir, Chaparashli, Beshkuvi, Juvonsiyroq, Axtaxona, Baxmatchoyi, Nebo'sa, Qoraqursoq, Nayman, Parchayuz, Beshyuz, Tog'ayto'pi, Uvol, Uyas, Qurqozon, Qo'shtamg'ali* kabi;

Forish tumanida: *Bag‘anali, Qorabag‘anali, Qoraabdali, Qoraxoni, Bolg‘ali, Ilonli, Ingichka, Eshbo‘ldi, Mexoyam, Bekjig‘ali, Oytamg‘ali, Oqdantuqqan, Sayyod, Ko‘sa, Olaqop, Beshbola, Kalsari, Tuvmajon, Sog‘ishmon* kabi;

G‘allaorol tumanida: *Ramazon, Beshkal, Cho‘michli, Anoyi, Beshbola, Uyas, Mingqishloq, Turk, Qarapchi, Chayonli, Chuvulloq, Xitoyyuzi, Olmasuvon, Boylarovul, Sherqang‘li, Bolg‘ali, Nayman, Saroy, Moltop, Mulkush, Abiz, Uymovut, Sug‘unboy, Qang‘li, Qoraqo‘yli, Yettiurug‘* kabi.

Jizzax cho‘lining o‘zlashtirilishi munosabati bilan tashkil etilgan Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l, Arnasoy, Zafarobod tumanlari toponimiyasida etnoykonimlar deyarli uchramaydi. Buni etnik nomlarning unutilishi, cho‘lni o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan aholi manzillariga nomlarning davr talabi asosida qo‘yilgani bilan izohlash mumkin.

Mutaxassislarni fikricha, eng qadimgi turkiy toponimlarni *Bolg‘ali, Qirq, Ming, O‘roqli, Kaltatoy, Kerayt, Qang‘li* kabi etnonimlar tashkil etadi. Etnonimlarning *-li* qo‘shimchali turi yuzaga kelishida tamg‘alar bosh omil bo‘lgan.

Tamg‘a sifatida *qoraqursoq, baymoq, quyon, suloqli, ilon* kabi hayvon tasvir-laridan foydalanilgan. Bu tamg‘alarni ifodalovchi lug‘aviy birliklar metonimiya asosidagi ma‘no ko‘chishi orqali qabila-urug‘ nomiga aylangan. Quydagi toponimlarga tamg‘a asosida nomlangan etnonimlar lug‘aviy va motivatsion asos bo‘lgan:

Qoraqursoq – Baxmal tumani Tuyatortar kanali bo‘yidagi qishloqlardan birining nomi. Yuz qabilasining marqa bolasi bo‘lagi tarkibidagi xitoyizi urug‘i 12 mayda guruhga bo‘lingan, shulardan biri qoraqursoq deb nomlangan. Qo‘ng‘irot qabilasi tamg‘ali urug‘ining bir shoxobchasi qoraqursoq deb yuritiladi. Zomin tumanida ham shu nomdagi qishloq mavjud.

T.Nafasovning yozishicha, qarsaq – “*mo‘ynali hayvon*”, “*cho‘l tulkisi*”. Qarsaq – etnik guruh vakillari uchun totem, muqaddas hayvon. Etnonimga shu hayvon nomi asos bo‘lgan.

Demak, *Qoraqursoq qoraqursoq urug‘i vakillari yashash joyi* toponimik ma‘nosiga ega.

Boymoqli – G‘allaorol, Zomin tumanlaridagi qishloq nomi. O‘zbeklarning qo‘ng‘irot, yuz qabilalarining bir urug‘i boymoqli deb atalgan. Bu urug‘ qoraqalpoqlar, qozoqlar tarkibida ham (baybaqti shaklida) bo‘lgan. Baybaq (baymoq) – sug‘ur (kemiruvchi hayvon)ning bir turini bildirgan.

Narsa-buyum shakllari tamg‘a vazifasini o‘tagan. Bunda xalqning kundalik hayotida faol qo‘llanuvchi narsa-buyumlar, turmush tarzida uchraydigan ashyolar, uy-ro‘zg‘or jihozlari shaklidan belgi sifatida foydalanilgan.

Cho‘michli – aslida urug‘ning to‘liq nomi ba‘zi manbalarda *cho‘mich-tamg‘ali*. O‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qo‘ng‘irot qabilasining *vaxtamg‘ali* bo‘limida

cho'michli urug'i qayd qilingan. Etnosning tamg'asi *cho'mich* shaklida bo'lganligi sababli shu nomni olgan. Qozoqlarning *tobin* qabilasi va qorqalpoqlarning *bolg'ali* qabilasi tarkibida *shomishli* (*cho'michli*) urug'i bor. *Cho'michli* shu etnik guruh vakillari yashaydigan qishloq demakdir. Etnonim transonimizatsiya asosida toponimga o'tgan.

Suloqli – Baxmal, Jizzax, Zomin tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Suloqli* urug'i Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida va Tojikistonning qo'shni tumanlarida qayd qilingan.

Suloq so'zining bir necha ma'nosi bor: 1) qora jigar, taloq; 2) qo'y-echki qulog'ining biron joyini kesib en solish, tamg'alash usullaridan biri. Quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, *oldingi suloq*, keyingi tomoni o'yib kesilsa, *keyingi suloq* deyilgan; 3) arava o'qi uchiga kiydiriladigan temir ham *suloq* deyilgan (*sulog'i* o'ynab ketdi – “*shaloq bo'lib qoldi*” demakdir). Urug' nomi tamg'alash usulini bildiruvchi *suloqli* so'zidan hosil bo'lgan. Qishloq aholisining etnik mansubligi motivi asosida shunday nomlangan. *Suloqli* etnonimi oykonimga lug'aviy asos bo'lgan.

Qo'shtamg'ali – Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Qo'shtamg'ali* oykonimining kelib chiqishi Shayboniylar davriga borib taqaladi. Ikki xalq imtiyoziga ega bo'lgan etnosga shunday nom berilgan. *Qo'shtamg'alilar* Shayboniixon davrida o'zbek va qozoqlarning aralashib yashashi natijasida yuzaga kelgan.

Sarjuzi – Baxmal tumanidagi qishloq nomi. *Sarjuzi* qishlog'ida yashovchilarning ma'lumotlariga qaraganda, *sar* so'zi – *bosh*, *juz* – *yuz*, ma'nosida bo'lib, ya'ni “*yuz urug'ining bosh bo'g'ini*”ni anglatadi. Oykonim “*yuz urug'ining bosh bo'g'ini vakillari yashaydigan maskan*” toponimik ma'nosiga ega.

Parchayuz – Zomin tumanidagi qishloq. Parcha “*turli ypyg' va qabilalar bo'laklaridan tarkib topgan urug'*”, “*o'tmishdagi yirik qabila yoki qabilalar ittifoqining kichik bir qismi, bo'lagi*” degan ma'nolarni bildiradi. *Parchaburkut*, *parchamitan*, *parchaqoramang'it*, *loqayparcha*, *parchaqipchoq* kabi urug'-kabilalar ana shunday etnonimlardir. *Parchayuz* – yuz urug'ining ayrim bo'laklaridan tarkib topgan urug'. Demak, *Parchayuz* oykonimi “*parchayuz urug'i yashaydigan maskan*” degan toponimik ma'noga ega.

Xitaiz – G'allaorol tumanidagi qishloq. Oykonimga xitoyyuzi etnonimi lug'aviy asos bo'lgan. Oykonim aslida *xitoy yuzi* shaklida bo'lishi kerak. B.O'rinboyev “Yuz qabilasi marqa, xitoy yuzi, qarapchi kabi urug'larga bo'linadi. Xitoy yuzi urug'ining nomi talaffuzga moslashib, Xitaiz bo'lib qolgan” deb ma'lumot beradi. [Ўринбоев Б. Жиззах топонимларининг таъбири. – Самарқанд, 2007. – Б.58.]

Beshkubi – Zomin tumanidagi qishloq nomi. Oykonimning lugʻaviy asosini *sutdan sariyogʻ oladigan uskunani* ifodalovchi “*beshta kuv*” deb izohlashadi.

Solin – Gʻallaorol umanidagi qishloq nomi. Oykonim shu nomdagi oʻzbek urugʻlaridan biri nomidan shakllangan. Mahalliy aholi fikricha, solinlar yuz qabilasining tarkibiga kiradilar. Solinlar, asosan, Zarafshon daryosining oʻrta qismida yashaganlar. Hozirda solin nomi bilan yuritiluvchi urugʻ vakillari respublikamizning turli viloyatlarida yashaydilar. Jizzax, Baxmal, Zomin, Gʻallaorol, Bulungʻur tumanlarida shu nom bilan ataluvchi qishloqlar bor. Solinliklarning bir qismi boshqa urugʻlar tarkibida ham uchraydi. Masalan, solin urugʻi togʻaytubi, jobuvchisolin, iyudmontubi, kavratsolin, davlatsolin, uyazsolin, qirsadoqsolin degan tarmoqlarga boʻlingan.

Qirq – Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Oykonim yirik oʻzbek qabilalaridan biri nomidan shakllangan. Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari tumanlarida, Oʻratepa atrofida yashaydi. Qirqlar yashaydigan maskanlar *Qirqovul*, *Qirqqishloq* nomi bilan yuritiladi.

Qirq – viloyat hududida yuzdan keyin keng tarqalgan qabila. Aslida ming, yuz, qirq qabilalarini siyosiy uyushmalar natijasida yuzaga kelgan etnik birlashmalar, deb atash haqiqatga mos.

Qoraqoʻyli – etnotoponim. Gʻallaorol tumanidagi qishloq Oykonimga lugʻaviy asos boʻlgan qoraqoʻyli – oʻrta asrlarda oʻgʻuz-turkmanlar tarkibidagi qabila nomi. XI asrda qabilaning katta qismi gʻarbga – Xuroson, Kichik Osiyoga koʻchib oʻtgan. Qoraqoʻylilarning maʼlum qismi Dashti Qipchoqda qolib, keyinchalik hozirgi Oʻzbekiston hududiga kelib oʻrnashgan. Vaqt oʻtishi bilan qoraqoʻylilar mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Hozirda qirq qabilasi tarkibida uchraydigan qoraqoʻyli etnonimi ana shu etnos bilan bogʻliqdir. Qoraqoʻyli etnik guruhining juda oz qismi Zarafshon vohasida yashovchi qirq, Surxondaryo vohasida yashovchi qoʻngʻirot qabilalari tarkibida oʻz etnik nomlarini saqlab qolganlar.

Oʻdamali – etnooykonim. Baxmal tumanidagi qishloq Oʻzbek xalqi tarkibiga singib ketgan qirq qabilasining bir urugʻi *oʻdamali* deb ataladi. Rus olimi M.M.Virskiy qirq qabilasi vakillari yashaydigan joylar haqida gapirib, qirqlarning qoraqoʻyli urugʻi tarkibida oʻdamali shoxobchasi mavjudligini qayd qilgan. Oʻdamali aholisining asosiy qismini shu etnik guruh vakillari tashkil etadi. Etnonim transonimizatsiya asosida oykonimga oʻtgan.

Abiz // Abuz – etnooykonim, Gʻallaorol tumanidagi qishloq. S.Qorayev bu toponimni quyidagicha izohlagan: “Qoʻngʻirot va yuz qabilalarining bir urugʻi – abiz // aviz. Qozoqlarning jetiruv, qoraqalpoqlarning ashmayli qabilalarining bir urugʻi ham *abiz* (uyshun qabilasi urugʻi esa *abis*) deb atalgan”. Demak, *Abiz // Abuz* shu etnik guruh vakillari yashaydigan qishloq demakdir.

Chuvulloq – Zomin, G‘allaorol tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Chuvulloq* etnonimi bir necha urug‘lar tarkibida, chunonchi, parcha, sari(q), qipchoq urug‘lari tarmoqlari orasida, Zarafshon vodiysidagi naymanlar tarkibida, qo‘ng‘irot qabilasining shoxobchalari orasida qayd qilingan. Toponomist olimlar fikricha, *chuvulloq* (*chuvuldoq*) so‘zi ovozga taqliddan yuzaga kelgan. T.Nafasovning fikricha, *chuvulloq* aslida nayman qabilasiga mansub bo‘lgan. Demak, *Chuvulloq* – shu nomdagi urug‘ vakillari yashaydigan aholi maskani.

Jaloyir – Zomin tumanida oykonim sifatida qayd etilgan qabila nomi. Mahmud Koshg‘ariy jaloyirlarni mo‘g‘ul tilida so‘zlashgan, deb yozgan va bu fikrga V.V.Bartold ham qo‘shilgan. Jaloyir turk va mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida paydo bo‘lgan degan, fikr ham mavjud. Aslida turkiy qabila bo‘lib, keyinchalik mo‘g‘ullar birlashmasiga qo‘shilgach, uni mo‘g‘ullar deb atay boshlaganlar. Jaloyirlar hozirgi Zomin tumani hududiga XIV asr oxirlarida kelib muqim yashab qolgan.

Toponim *Jalobir* fonetik variantida ham uchraydi. Jalobirlar Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida yashaydilar.

Achchi – Zomin tumanidagi qishloq. Qishloq suvi sho‘r bo‘lganidan shunday nom olgan, deyishadi. Shevalarda *achchiq* so‘zining *achchi* fonetik varianti ishlatiladi.

Qishloq nomi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida (XVI asr) *Achchi* shaklida uchraydi. *Achchi* degan joylar ko‘p; bunday nomlar etimologiyasi ikki xil talqin qilinadi: 1) suvi taxir – sho‘r (*achchi*) bo‘lgan joy; 2) upyg‘ nomi – qadimiy turklarda *achchi* qabilasi bo‘lgan; o‘zbeklarda *ochchi*, qirg‘izlarda *achi* urug‘i qayd qilingan. Bizningcha, toponimning etnonim asosida shakllangani haqidagi qarash asosli.

Saroy – Baxmal tumanidagi qishloq va urug‘ nomi. O‘zbek urug‘laridan birining nomidan kelib chiqib qo‘yilgan, shu qabilaga tegishli kishilar yashaydigan joy. Aslida saroy so‘zi “*qal’a*” ma’nosida ishlatiladi. *Sar* “bosh”, *oy* “joy”, ya’ni “*bosh qal’a*” demakdir. *Saroy* nomi bilan bir qancha urug‘ va qabilalar Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Andijon viloyatlarida yashaydi va ular *az-saroy*, *qipchoqsaroy*, *qirg‘izsaroy*, *qo‘ng‘irotsaroy* nomlari bilan yuritiladi.

Saroy – o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketgan va o‘z navbatida bir necha tarmoqlarga bo‘linadigan qabila nomi. Jizzaxning Baxmal va G‘allaorol tumanlaridagi *Saroy* va Xonimqo‘rg‘on qishloqlarida hamda Jizzax shahrining *Saroylik* mahallasida shu etnik guruh vakillari yashaydi.

Sherqang‘li – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan saroy, tog‘chi va qangli qabilalari tarkibida *sher*, *sherbachcha*, *sherdan tuqqan* degan etnik shoxobchalar bo‘lgan. *Sherqang‘li* – shulardan biri. Etnonim qishloq nomiga asos bo‘lgan.

Boyqo'ng'ir – Baxmal va Zomin tumanidagi qishloq nomi. Etnonim tarkibidagi *boy* so'zining ma'nolari “*qudratli*”, “*ulug'*”, “*ulkan*”, “*yuksak*” demakdir. Turkiy xalqlardagi *Boyqo'ng'ir*, *Qo'ng'irboy* kabi kishi ismlari ham urug' nomi bilan bog'liq. *Qo'ng'ir* so'zi barcha turkiy tillarda geografik termin sifatida obyekt va rang (qora – sariq rangli, to'q malla, to'q kulrang) turini bildirgan. Zomin tumanidagi *Boyqo'ng'ir* oykonimiga ham shu so'z lug'aviy asos bo'lgan. Qozog'istondagi *Boyqo'ng'ir* kosmodromi ham shu urug' nomidan olingan. *Boyqo'ng'ir* shaxs ismi sifatida ham uchraydi.

Quljomon – Zomin tumanidagi qishloq nomi. O'zbeklar tarkibiga kirgan oq qipchoq jag'altay urug'ining bir tarmog'i *quljomon* deb atalgan. Oykonimga ana shu etnonim lug'aviy asos bo'lgan.

Guralas – Zomin, Baxmal tumanlaridagi dovon, soy nomi. Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi ilgarilari *Fypcias* (*Guralash*) deb atalgan. Zomin, Baxmal tumanlarida *Fypalac* so'zi “*sero'rmon*, *sero'tin go'sha*” tushunchasini ifodalagan; dov-daraxt, o'tin kam yerlarni sifatlash uchun “Bu yer senga Buralas emas” deyishadi.

Buralas degan etnonim ham bor. X.Doniyorov *guralas* urug'ini tilga olgan. *Fypcias* // *kuralas* // *kuralash* – bir urug' nomining fonetik variantlari. Mazkur etnonim Rashiduddinning “Jome at-tavorix” asarida, “Tavorixi guzida – Nusratnoma” asarida *kuralas* mo'g'ul qabilalari qatorida tilga olingan. Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu at-tavorix” (XVI asr) asarida, “Tuhfat at-tavori xoni” qo'lyozmasida (XVII asr), shuningdek, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibida, 92 bovli o'zbek qavmlari orasida *guralash* yoki *kuralas* (*kurlas*) shaklida qayd qilingan. Demak, *kuralas* turklashgan mo'g'ul qabilasidir, *kuralas* bilan *guralas* bir etnonimdir.

Toponim *G'oralas* shaklida ham qayd etilgan. G'oralassupaning o'ng tomonidagi tog' cho'qqisi nomi. Cho'qqi yonbag'ri sharshara tufayli yuzaga kelgan go'zal manzarali archazordan iborat. Bizningcha, bu linvistik jihatdan ancha asosiz. Nomga etnonim lug'aviy asos bo'lgani haqidagi talqinlar ancha asoslidir. *Guralas* oronimi “*guralas urumi dovoni*” toponimik ma'noga ega. Keyinchalik oronimga nisbat berib, soy ham shunday atalgan, ya'ni transonimizatsiya asosida oronim gidronimga o'tgan: *guralas* (etnonim) > *Guralas* (dovon nomi – oronim) > *Guralas* (soy nomi – gidronim).

Beshbola – Forish tumanidagi qishloq nomi, etnooykonim. S.Qorayevning yozishicha: “O'zbeklarning qovchin, kenagas, qo'ng'irot, yuz qabilalari tarkibiga kirgan urug' nomidan yuzaga kelgan. Bulung'ur, Pastdarg'om, Farg'ona tumanlarida *Beshbola* degan qishloqlar bor».

Beshkal – etnooykonim. Mahalliy xalq qishloq nomini *Yangiobod* deb o'zgartirgan. B.O'rinboev joy nomini quyidagicha izohlagan: “Mang'it va yuz urug'ining bir bo'limi *beshkal* deyiladi. O'zbek tilida so'zlashuvchi arablarning

rabotak urug‘i qorason, zambilto‘da, shamil va beshkal shoxob-chalariga bo‘linadi. Etnonimdan qishloq nomi yaratilgan”. Ammo mahalliy xalq o‘zlarini qo‘ng‘irot qabilasidan, deb bilishadi.

Qishloq ziyolilarining aytishicha, asli avlod-ajdodlari Surxondaryo-da yashagan, boshida yara bo‘lgan beshta aka-uka kasallikdan qutulish maqsadida turli tomonlarga tarqalgan. Beshkal qishlog‘ining hozirgi aholisi, uchinchi o‘g‘ilning oltinchi-yettinchi avlodlari hisoblanadi. Hozirgacha aka-uka avlodlari orasida aloqa mavjud. Zomin va Urgut tumanlarida ham shu nom bilan ataladigan qishloqlar bor. Bizningcha, bu xalqona talqin.

Jizzax viloyati hududidagi bir qancha geografik nomlar *qipchoq* etnonimi asosida shakllangan. Qipchoq – o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va boshqa bir qator turkiy xalqlarning shakllanishida ishtirok etgan qadimiy qabila nomi, tarqalish areali juda keng.

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarida “Muning otasi bizning oldimizda o‘ldi. G‘amxo‘ri yo‘q”, teb, o‘g‘ul o‘kundi, otini qipchoq qo‘ydi. Qadim turk tilinda ichi bo‘sh yog‘ochni *qipchoq* derlar ekandur. Aning uchun ul o‘g‘lon yog‘och ichinda tug‘ildi, teb otin Qipchoq qo‘ydilar”, degan ma‘lumot beriladi.

Yettiurug‘ – qishloq nomi. Mahalliy aholi ba‘zan Jetiuruv deb ham talaffuz qiladi. Bu atamadagi *jeti* aniq miqdorni emas, etnolingvistik termin sifatida “*ko‘plik, ortiqlik*” ma‘nolarini bildiradi.

Yettiurug‘ – o‘zbek-qipchoqlar tarkibidagi yirik urug‘lar guruhi. Yettiurug‘ qozoq va qirg‘izlar tarkibida ham bor. Yettiurug‘ – oytamg‘ali, qo‘shamg‘ali, sirg‘ali, qamchili, juvonli, samanotli, cho‘michli urug‘laridan iborat. Yettiurug‘ tarkibidagi bu urug‘ nomlari o‘zbeklarning boshqa yirik qabilalari tarkibida ham uchraydi. Yettiurug‘ hozirda o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketgan.

Demak, oykonim *yettiurug‘ vakillari yashaydigan manzil* ma‘nosiga ega.

Begto‘pi – Baxmal va Zomin tumanidagi qishloq nomi. Bu joyda yashovchilar o‘zlarini turk urug‘ining bosh bo‘g‘ini sanaydilar. Oykonim tarkibidagi *To‘p* so‘zi ot bo‘lib, qadimgi turkiy tilda *asos, ildiz* ma‘nosini anglatadi. Sh.Rahmatullayev fikricha, so‘zning hozirgi ma‘nosi “ildiz” ma‘nosidan o‘sib chiqqan.

Ular to‘pining bunday nom bilan atalishiga sabab ota-bobolari Amir Temur davrida ham, undan keyingi davrlarda ham bek o‘tgan. Shundan buyon ularning avlodlari beklar, yashaydigan joy “*beklar to‘pi*” deb atalgan.

O‘roy – Baxmal tumaniga, ya‘ni O‘smat kentiga kirib borishdagi qishloq nomi. *O‘r* – yuqori, balandlik, do‘nglik, chiqish ancha qiyin joy; oy-ay qo‘shimcha: *o‘r-oy*, ya‘ni “*balanddagi qishloq ma‘nosida*”dir. Hozirda bu qishloq aholisi *o‘rayliklar* deb yuritiladi. Ularning ko‘pchiligi shu etnik guruh vakillaridir. Manbalarda qipchoq qabilasining sariqipchoq urug‘i tarkibida o‘ray etnik guruhi qayd qilingan. Hozirda

o'rayliklar, saroyliklar, tuyoqlilar bilan aralash yashaydilar. O'ray etnik guruhi vakillari yashaydigan qishloq urug' nomi bilan bog'liq.

Mo'g'ol – Baxmal va Zomin tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Toponimning asl shakli *mo'g'ul* bo'lib, qadimiy turkiy urug'lardan birining nomini bildirgan. *Mo'g'ul* so'zining ma'nosi borasida Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi turk" kitobida shunday degan: "Asl lafz *mo'g'ul* mung'ul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora *mo'g'ul* dedilar. Mung'ulning ma'nosin barcha turk bilurlar; qang'u ma'nosina turur. Ularning ma'nosi soda dil, ya'ni "qang'uli soda" demak bulur". Bu etnik guruhning *mo'g'ul* xalqiga aloqasi yo'q. *Mo'g'ullar* istilosi davrida o'troqlashib qolgan turkiy qabilalar alohida etnik birlik sifatida *mo'g'ul* deb atalgan (Karmisheva, 1976. 45-b.). Zomin va Yangiobod tumanlarida ham shu nomdagi qishloqlar mavjud.

Bo'ston – Baxmal va G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. *Bo'ston* so'zi tarixiy-etimologik jihatdan forscha bo'lib, "*bog', rangli, yashnagan, gullagan joy*" ma'nolarini ifodalaydi. Bundan tashqari, qirg'izlarda *bo'ston*, *bo'stonli* urug'i ham bor. Bizningcha, oykonimga etnonim lug'aviy asos bo'lgan.

Keyingi yillarda qishloq, mahallalarning obod bo'lishi istagi motivi natijasida bir qator mahalla va qishloqlarni "Bo'ston" deb atash ham kuzatilmoqda.

Ayrim etnotoponimlarning fonetik o'zgarishga uchragan shakli ma'nosi mahalliy aholi qadriyatlariga mos kelmagani bois boshqa toponimga almashtirilgan. Masalan, *Zartepa* qishlog'ining qadimiy nomi *Tentak* bo'lgan. Qishloq aholisining etnik tarkibi – qirg'izlar. Qirg'izlarning teyit qabilasi, chopon urug'i tarkibida *tentak* etnik guruhi bo'lgan. Etnonim ajdodlarning laqabidan kelib chiqqan. O'zbeklarning qo'ng'irot, barlos, laqay qabilalari tarkibida ham *tentak* urug'i mavjud.

Mahalliy aholi qishloq nomida kamsitish alomatlari bor, deb o'z qishlog'iga *Zartepa* nomini bergan. Fors-tojik tilida, *zar* – qimmatbaho metall, oltin, tilla; *tepa* – geografik termin, gumbaz shaklidagi, yonbag'irlari bo'lgan do'ng, baland joy.

Aslida *Tentak* toponimining hozirgi "*telba*", "*jinni*" ma'nosidagi so'zga aloqasi yo'q, chunki toponimga motiv bo'lgan urug' nomining bu tarzda nomlanishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bu so'z *tirgak*, *to'mtoq* yoki shunga o'xshash so'zning fonetik varianti bo'lishi mumkin.

Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, Jizzax viloyati toponimiyasida oykonimlar, oronimlar va gidronimlar sirasida etnotoponimlar 30-35 foizini tashkil etadi. Ba'zan etnotoponimlarni oddiy apellyativlardan semantik jihatdan farqlash qiyin. Masalan, viloyatda *Ilonli* degan toponimlar bir nechta. *Ilonli (jilonli)* yoki *jilontamg'ali* etnonim bor. Bu oykonimlarning gazanda yoki urug' nomi bilan atalganini ajratish qiyin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, etnotoponimlar etnonimlar asosida yuzaga kelgan. Toponimikaning asosiy yo'nalishlaridan biri etnotoponimika orqali qadimgi

xalqlarning yashagan hududlarini aniqlash mumkin. Etnonimlarni yaxshilab o'rganmay turib, etnotoponimikani o'rgana olmaymiz.

Adabiyotlar

Ҳакимов Қ. (2010). Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида): *География фан. ном. ... дис. автореф.* Тошкент.

Закиров А. (1991). Топонимия Джизакской области Узбекской ССР: *Автореф. дис. ... канд. филол. наук.*

Нафасов Т. (2009). *Қашқадарё қишлоқномаси.* Тошкент. Муҳаррир.

Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. (2012). *Зоминнинг тил қомуси.* Академнашр.

KO'CHIM – LEKSIKOLOGIYANING OBYEKTI SIFATIDA

**Nizomiddin Quldashev *,
Fotima Mahmudova *,
Zulayho Mahmudova ***

Annotatsiya

Ma'lumki, tilshunoslikda uchraydigan har bir lingvistik vositalar badiiy nutqda yoki badiiy matnda asosiy vazifa bajarish bilan bir qatorda stilistik vosita sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Nutqiy vositalar hisoblangan poetik figuralar matnda

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Farg'ona viloyati hududiy bo'linmasi, goldashevnikomiddin@gmail.com.

* Farg'ona davlat universiteti magistranti, zulayhozuhaxon@gmail.com.

* Farg'ona davlat universiteti magistranti, zulayhozuhaxon@gmail.com.

ma'lum bir uslubiyligini vazifani va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Poetik figuralarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish orqali badiiy matnni uzoq esda qolarli bo'lishida badiiy tasvir vositalari, ya'ni troplar asosiy vazifani bajaradi. So'zning ma'nosini ko'chirishda narsa va hodisalar o'rtasida ichki yoki tashqi, mazmun o'xshashligi yoki aloqadorligi saqlanib qolgan bo'lishi kerak. Bu jihatidan stilistik troplarni adabiyotshunoslikdagi tashbehga yaqin tutish mumkin, lekin ko'chimlar tashbeh (o'xshatish) emas, ular o'rtasida farq katta. Ko'chimda so'zning ikkinchi qismidagi ma'no birinchi qismga ko'chiriladi va tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni tinglovchiga ta'sirli yetib borishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *sarkazm, perifriza, mubog'ala va litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa, stilistik troplar, ekspressivlik, badiiy tasvir vositalari, majoz, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, ironiya, antifriza.*

MOVEMENT AS AN OBJECT OF LEXICOLOGY

Abstract

It is known that every linguistic tool found in linguistics can be interpreted as a stylistic tool as well as performing the main task in artistic speech or artistic text. Poetic figures, which are considered speech tools, serve to realize a certain methodological task and purpose in the text. Through the linguistic research of poetic figures, artistic image tools, i.e., tropes, play a key role in making the literary text memorable. When transferring the meaning of a word, internal or external similarity or connection between things and events must be preserved. In this respect, stylistic tropes can be considered close to allusions in literary studies, but metaphors are not allusions (similes), there is a big difference between them. In translation, the meaning of the second part of the word is transferred to the first part and serves to effectively convey the described events to the listener.

Key words: *sarcasm, periphrasis, exaggeration and litota, allegory, symbol, revitalization, apostrophe, stylistic tropes, expressiveness, artistic imagery, simile, metaphor, metonymy, synecdoche, simile, epithet, irony, antiphrase.*

Ko'chimlar "adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilish", nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o'rganilgan. Ma'lumki, tilshunoslikda so'zlovchi tomonidan ma'lum bir fikrni ifodalash

hamda izohlash uchun soʻzning oʻz maʼnosi yoniga qarshi yoki yondosh tarzda uning koʻchma maʼnosidan ham foydalaniladi. Yaʼni “tildagi koʻpgina soʻzlar oʻz maʼnosidan boshqa maʼnolarni, hatto baʼzan oʻz maʼnosiga qarama-qarshi boʻlgan maʼnolarni ifodalash uchun qoʻllaniladi. Bir predmet belgisi boshqa bir predmetga koʻchiriladi, oʻxshatiladi” [Shomaqsudov A., Qoʻngʻurov R. va boshqalar, 1983, 236-b.] Soʻzning maʼnosini koʻchirish hamda oʻxshatish tilshunoslikda oʻz navbatida alohida oʻrganilib, tadqiq qilinmoqda. Soʻnggi yillar davomida olib borilayotgan tadqiqotlar natijasidan koʻrinadiki, bu kabi koʻchim turlarining maydoni kengayib bormoqda. Badiiy tasviriy vositalar boʻyicha koʻplab tilshunos va adabiyotshunos olimlar oʻzlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar: B.Toʻxliyev, R.Qoʻngʻurov, A.Y.Boboniyozov, E.Qilichev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, N.Arutyunova, M.Blek, J.Lakoff, E.Kassirer, Y.Gogonenkova [Toʻraxonova X. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida badiiy tasviriy vositalarning qoʻllanilishi.// FarDU ilmiy xabarlar. 2023] va boshqa koʻplab olimlarning ilmiy ishlarida tasviriy vositalarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini ochib berilganligini koʻrishimiz mumkin. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga koʻchirish yoki soʻzlarning umuman koʻchma maʼnoda ishlatilishi trop [Boboyev T., 2001, 260-b.] deb yuritiladi. Shuni taʼkidlash joizki, tilshunosligimizda koʻchma maʼnoda qoʻllaniladigan soʻzlar koʻchimlar, gʻarb tilshunosligida esa troplar deb yuritiladi va ular badiiy matn yaratilishining negizini tashkil etadi. Troplar soʻzlovchi tomonidan tinglovchiga muayyan bir axborotni yoki fikrni yanada taʼsirli yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Biror bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga koʻchirish yoki nutqda soʻz va iboralarning koʻchma maʼnoda ishlatilishi tropning [Sultonsaidova S., Sharipova Oʻ. 2009. 60-b.] asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tinglovchining tasavvur olamini kengaytirishga, fikrlashga hamda mushohada qilishga undovchi tasvirning badiiy vositalarini bir nom ostida birlashtirib koʻchim, deb ayta olish mumkin, lekin koʻchimlar turli adabiyotlarda turlicha nomlash holatlari kuzatiladi. “Poetik koʻchimlar umumtaʼlim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida “badiiy tasvir vositalari”, mumtoz adabiyotimiz tarixida esa “majozlar”, xalqaro atamashunoslikda esa “troplar” deb yuritiladi” [Boboyev T., 2001, 260-b.]. Poetik koʻchim hisoblangan mazkur troplar, oʻz navbatida, alohida guruhlariga boʻlib talqin qilinadi. “Badiiy uslublardan allegoriya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, oʻxshatish, perefraza, ironiya va onomatopiya kabi tasvir vositalari, faqatgina badiiy tasvir vositalarigina emas stilistik troplar ham hisoblanadi.” [Rajapova M., 2011, 70-b.] Tilshunoslikka oid boʻlgan turli darsliklar hamda oʻquv qoʻllanmalarida troplar turlicha guruhlariga boʻlib oʻrganilgan. Jumladan, A.Shomaqsudov, R.Qoʻngʻurov hamda boshqalar bilan birgalikda nashr etilgan “Oʻzbek tili stilistikasi” oʻquv

qo'llanmasida troplar, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraz, mubog'ala va litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa [Shomaqsudov A., Qo'ng'urov R. va boshqalar, 1983, 236-b.] kabi turlarga bo'linadi. Tasvirning asosiy vositasi hisoblangan troplar berilgan fikrni yoki matnni ta'sirli, tasviri hamda aniq tarzda adresatga yetkazib berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari troplar matn ma'nosini yana konkretlashtirishga yordam beradi. Ma'lumki, "ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish tropga asos qilib olinadi. Ya'ni biror narsa yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi." [Shomaqsudov A., Qo'ng'urov R. va boshqalar, 1983, 236-b.]. Bunda so'zning o'z ma'nosi yoniga uning ko'chma ma'nosi keltiriladi va so'zlovchi o'z fikrini tinglovchiga aniq yetkazib berishda troplardan foydalanadi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, tilshunoslik uchraydigan har bir lingvistik vositalar badiiy nutqda yoki badiiy matnda asosiy vazifa bajarish bilan bir qatorda stilistik vosita sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Nutqiy vositalar hisoblangan poetik figuralar matnda ma'lum bir uslubiy vazifani va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Poetik figuralarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish orqali badiiy matnni uzoq esda qolarli bo'lishida badiiy tasvir vositalari, ya'ni troplar asosiy vazifani bajaradi. So'zning ma'nosini ko'chirishda narsa va hodisalar o'rtasida ichki yoki tashki, mazmun o'xshashligi yoki aloqadorligi saqlanib qolgan bo'lishi kerak. Bu jihatidan stilistik troplarni adabiyotshunoslikdagi tashbehga yaqin tutish mumkin, lekin ko'chimlar tashbeh (o'xshatish) emas, ular o'rtasida farq katta. Ko'chimda so'zning ikkinchi qismidagi ma'no birinchi qismga ko'chiriladi va tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni tinglovchiga ta'sirli yetib borishiga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslikda troplar badiiy matnga ekspressivlik beradi. Zamonaviy tilshunoslikda bugungi kunga qadar troplar, stilistik troplarning turlari hamda ularga nisbatan berilgan ta'riflarda biroz farqli jihatlarni uchratishimiz mumkin. Ilmiy izlanishlar orqali bu kabi farqlarga ochiqlik kiritilishi lozim. Leksikologiyaning asosiy obyekti hisoblangan ko'chim va uning turlari matnning ma'no-mazmunini tinglovchiga yanada ta'sirchan qilib yetkazilishiga xizmat qiladi. Shuni inobatga olib, ko'chim va uning stilistikasi, vazifasi va leksikologiyadagi o'rni yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish lozim, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

Шомақсудов А., Қўнғуров Р. ва бошқалар. (1983). *Ўзбек тили стилистикаси*. Ўқитувчи Тошкент.

То'раxonova X. (2023). Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviri vositalarning qo'llanilishi. // *FarDU ilmiy xabarlari*.

Sultonsaidova S., Sharipova O'. (2009). *O'zbek tili stilistikasi*. Toshkent.

Бобоев Т. (2001). *Адабиётишунослик асослари*. Ўқитувчи. Тошкент.

Rajapova M. Allegoriya, stilistik troplar haqida dastlabki tushunchalar. // *Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi*. ISSN:2181-1776.

“BOSH EGMOQ” PARALINGVIZMINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Muxiba Barotova *

Annotatsiya

Bugungi tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda tilning nutqiy bosqichiga oid masalalarni tahlil qilish yetakchi o'rinni egallaydi. Ayniqsa, nutqning lisoniy va nolisoniy vositalari, ularning o'zaro munosabati va so'zlovchi maqsadini ochiqlashdagi ahamiyati xususida izlanishlar olib borish til imkoniyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratmoqda. Nutq jarayonida verbal ifodalardan tashqari turli tana harakatlari, mimikalar va jestlar ishlatilishi tabiiy hol. Bu esa tilshunoslikda paralingvizmlar nomi ostida o'rganiladi. Paralingvizmlar jonli muloqot jarayonining

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti, barotovamuxiba1992@gmail.com

ajralmas qismi sifatida adresat-adresant kommunikatsiyasini to'ldirish, ishora qilish, ma'no yuklash kabi vazifalarni bajaradi. Fanda bosh, qo'l, yelka, ko'z va boshqa tana a'zolari asosida qo'llaniladigan bir qator paralingvizmlar, ularning qo'llanish holatlari va semantik xususiyatlari haqidagi ilmiy mushohadalar uchraydi. Ushbu maqolada "bosh egmoq" paralingvizmi badiiy asarlardan olingan matnlar orqali leksik-semantik tahlil qilingan. Shu asosda, o'zbekona paralingvizmlarning xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *verbal muloqot, nonverbal muloqot, paralingvizmlar, kinetik paralingvizmlar, adresat, adresant, leksik ma'no, sema, milliylik, o'zbekona madaniyat.*

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PARALINGUISTIC "BOSH EGMOQ"

Abstract

It is known that in today's research in the field of linguistics, the analysis of issues related to the speech stage of the language occupies a leading place. In particular, conducting research on the linguistic and non-linguistic means of speech, their interaction and their significance in revealing the speaker's purpose allows for a deeper analysis of language possibilities. In addition to verbal expressions, it is natural to use different body movements, facial expressions and gestures in the speech process. This is studied in linguistics under the name of paralinguistics. As an integral part of the process of live communication, paralinguistics perform tasks such as filling in the addressee-listener communication, indicating, loading meaning. In science, there are a number of paralinguistics used on the basis of head, hand, shoulder, eye and other body parts, scientific observations about their usage and semantic features. In this article, the paralinguism "bow" is analyzed lexically-semantically through texts taken from literary works. On this basis, opinions were expressed about the characteristics of Uzbek paralinguistics.

Key words: *verbal communication, non-verbal communication, paralinguistics, kinetic paralinguistics, addressee, addressee, lexical meaning, sema, nationality, Uzbek culture.*

Verbal aloqaga bog'liq bo'lmagan barcha birliklar so'zlashuv jarayonining yordamchi vositalari sanaladi. Nutqiy muloqotni shu ikki omil: verbal va nonverbal vositalarning mujassamlashuvi asosida vujudga keladigan yaxlitlik sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Paralingvistika – nonverbal birliklar, ya'ni ohang, mimika, imo-ishora, tana harakatlarining xususiyatlarini o'rganuvchi soha. Uning o'rganish obyekti paralingvistik vositalar bo'lib, nutq egasining maqsadini ochib berish, nutqni tejash, bo'yoqdorligini oshirish kabi vazifalarni bajarishga xoslangan. Muayyan bir til

o'sha tilda muloqot qiluvchilar uchun erkin, tayyor va tushunarli so'zlashuv vositasi ekanligi barchaga ayon, ammo paralingvistik vositalar haqida bunday fikr yuritish to'la asosli bo'la olmasligi ham mumkin. Chunki bajariladigan imo-ishoralar ma'lum jamiyat kishilari aloqa-munosabatining samarasidir, u ijtimoiy guruh, davr va sharoitni taqozo qiladi. Chunonchi, suhbatdoshlar orasidagi masofa uzoq bo'lsa yoki atrofda kishilar ko'p bo'lsa, bu vaziyatda muloqot ishtirokchilari uchun paralingvizmlar asosiy muloqot shakli hisoblanadi. Shuningdek, paralingvistik vositalar davr nuqtayi nazaridan ham farqlanishi amaliyotda kuzatilgan. Masalan, qadimgi Rimda gladiatorlar janglari uyushtirilgan bo'lib, mag'lub qulning taqdiri birgina bosh marmoq orqali hal qilingan, ya'ni bosh barmoqning yuqoriga ko'tarilishi – yashab qolishi hamda pastga qaratilishi – o'limga mahkumligini anglatgan. Bugungi kunda esa bu paralingvizm butunlay boshqacha semani anglatishi barchaga ayon: bosh barmoqning ko'tarilishi “hammasi joyida”, “zo'r”, “ajoyib” semalarida namoyon bo'lsa, uning aksi bo'lgan harakat “yaxshi emas”, “yomon” semalarini bildiradi. Ko'rinadiki, paralingvistik vositalarni tahlil qilishda davr va ijtimoiy muhitni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashga, fikrning emotsionalligi va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan noverbal vositalardan foydalanadi. “O'zbekona aloqa-aralashuvda, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo'l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho'ziq, to'xtatib talaffuz qilish orqali ham ma'lum ma'no ifoda etiladi. Shuni ta'kidlash joizki, noverbal vositalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari turlichadir (Jurayeva, 2023, 657-b). Ular qo'l, yelka, lab, ko'z, qosh, gavda, bosh harakatlari orqali ifodalanadi. So'zlovchi ham, tinglovchi ham o'z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar - turli xil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi.

Hozirga qadar o'zbekona paralingvistik vositalar va ularning semantik xususiyatlari o'zining to'la ilmiy yechimini topmagan. Xususan, kinetik – tana a'zolari ishtirokidagi noverbal harakatlarning ham turlari va anglatadigan ma'nolari atroflicha o'rganilmagan. O'zbek olimlarining tadqiqotlariga e'tibor berilsa, asosan, M.Saidxonov, A.Nurmonov, M.Kurbanov izlanishlarida tana a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan paralingvistik vositalar muayyan guruhlariga ajratilgan holda tadqiq qilinganini ko'rish mumkin.

Noverbal vositalarning turlari, ularning kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyatini tilshunos olim Abdulhamid Nurmonov tahlilga tortadi va o'z ishida yoritib berishga intiladi. Tilshunos olim I.B.Glub nutq ta'sirchanligini shakllantirishda paralingvistik vositalarning o'rnini tilining tasvir vositalari bilan bir qatarga qo'yadi. Glubning fikricha, paralingvistika fikr (tushuncha)ning drijyoridir. (Jurayeva, 2023, 658-b.)

M.Qurbanov “O‘zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi” deb ataluvchi dissertatsiyasida tana a‘zolari asosida shakllanadigan paralingvistik vositalarni uch guruhga ajratgan holda tahlil qiladi: 1) bosh va undagi uzvlar asosida shakllanadigan noverbal birliklar; 2) gavda va uning uzvlari asosida shakllanadigan noverbal birliklar; 3) qo‘l va oyoq asosida shakllanadigan noverbal birliklar (Kurbanov, 2021, 118-b.). B.Axmedov tadqiqotida esa tana a‘zolari ishtirokida hosil bo‘ladigan paralingvistik vositalar guruhlariga ajratilmay, umumiy xususiyatlarini ta’riflash asosida tahlil qilingan (Axmedov, 2021, 58-b.).

Tana a‘zolari ishtirokidagi paralingvistik birliklarning aynan qaysi biri ko‘p qo‘llanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, shubhasizki, muloqot jarayonida qo‘l va bosh harakatlarisiz so‘zlashuv jonli va mazmunli bo‘lmaydi. Shuningdek, bosh uzvlari ham muloqot komponentini to‘ldiruvchi, hissiy bo‘yoq qo‘shuvchi vosita sanalishi kunday ravshan. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, bosh va uning uzvlari bilan bog‘liq paralingvizmlar nutqiy muloqot jarayonidagi eng faol va ko‘p qo‘llanadigan vositalar bo‘lib, birgina bosh harakati bilan aloqador yigirmadan ortiq paralingvistik vositalar qo‘llanilishi kuzatiladi. Birgina bosh egmoq paralingvizmi kontekstda xilma-xil ma’nolarni bildirib kelishi ochiqqlangan. Lug‘atlarda “bosh egmoq” birligiga quyidagicha izoh berilganini ko‘rishimiz mumkin: “**Bosh egmoq** (Boshini xam qilmoq, boshini u yoq-bu yoqqa egmoq) – **boshni to‘g‘ri**, tik holatidan biror tomonga tortmoq; qayirmoq, bukmoq” (Hojiyev, 2001, 36-b.).

Tahlillar natijasida mazkur paralingvizm o‘zbekona nutqda o‘nga yaqin semalarni anglatishi ayon bo‘ldi. Quyida har bir semaning izohini badiiy matnlar orqali tahlil qilib chiqamiz:

1. Xafa bo‘lmoq:

Kecha eshak bozorida dallollik qilgan “zamonaviy broker” bugun uch qavatli dachasini “yuvsu-yu”, chalasavod “hofiz” bir soat “hangragani” uchun boshidan dasta-dasta “ko‘ki”dan sochsalar... Davraning bir burchida o‘tirgan shoir yurak qoni bilan yozgan g‘azallari tuproqqa qorishganidan ko‘ngli o‘ksib izdihomdan bosh egib chiqib ketsa, hayratlanmay ilojim yo‘q (Hoshimov, 2018, 11-b.)

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidan olingan ushbu matndagi bosh egish paralingvizmining aynan xafa bo‘lish senasini bildirib kelishi uchun lisoniy vositalar ham muayyan vazifa bajargan, ya’ni matndagi “ko‘ngli o‘ksib” verbal tasviri harakatning ichki semasini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

1. Kamtarlik:

Majnuntolning bosh egib sukut saqlashi donoligi va chayirigidan. Qamishning g‘oz turib shovullashi nodonligi va mo‘rtligidan... qiziq, ikkalasi ko‘pincha yonma-yon o‘sadi... (Hoshimov, 2018, 18-b.)

Matndan anglashilib turibdiki, donolik va chayirlik ifodalari bosh egish harakatining ijobiy bo'yog 'ini – kamtarlik xususiyatini ifodalagan.

2. Andisha qilmoq:

Nimaga chaqirtirganimni bilasanmi? – dedi Hosilboyvachcha.

– Bilmayman.

– Men seni sotdim, a? Qilich javob bermay, *boshini egdi*.

– Sotdim. Nega to'g'ri gapdan qo'rqasan? Nima uchun sotdiykin, deb o'ylamadingmi?

– O'yladim.

– Xo'sh, nimaga sotdim?

– Ming o'ylasam ham sababini bilmadim (Malik, 2008. 13-b).

Paralingvistik vositalarning yozma nutqdagi ma'nolarini to'la anglash va izohlashda verbal vositalarning xizmati kattaligini ta'kidlab o'tgan edik. Chunki bu vositalar matnni o'quvchi kishi ko'z oldida jonli muloqot muhitini shakllantirish va tasavvur qilish imkonini beradi. Yuqorida berilgan badiiy parchada ham "javob bermay", "nega to'g'ri gapdan qo'rqasan?" ifodalari orqali bosh egish harakatini bajargan obrazning suhbatdoshi oldida andisha qilganligini anglab olish qiyin emas.

3. Itoat qilmoq:

– Adasi, doni qolsa ham, suvini iching, – dedi Manzura, yalinish ohangida.

Asadbek xotinining ko'ngli uchun yana bir qoshiq ichdi-da: – Zo'rlama, – dedi. – Ko'nglim g'ash. Ishtaham yo'q.

Manzura kosani olib xontaxta chetiga qo'ydi-da, *boshini egib* indamay o'tirdi. Ertalabdan beri Asadbekning nazarida uy huvillab, egasiz bo'lib qolganday tuyulayotgan edi (Malik, 2008, 106-b.)

Ushbu badiiy matnda "bosh egmoq" paralingvistik vositasining genderologik xoslanganligi ko'zga tashlanadi. Ayni paytda, matn milliy mentalitetimizga xos bo'lgan oila boshini hurmat qilish, itoat qilish, g'amxo'rlik qilish kabi bir qator o'zbekona axloq qoidalarini ham o'zida mujassam etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, o'zbek ayollarining eriga itoat qilib, har bir so'zini qonunday qabul qilishi madaniyat belgisiga aylangan. Keltirilgan matnda birgina "boshini egib indamay o'tirdi" ifodasining o'zi yuqorida sanalgan barcha milliylik belgilarini namoyon qila olgan.

4. Xijolat bo'lmoq:

– O'zingiz nima uchun o'tirgansiz?

Asadbek achchiqlanib, Jalilga qovoq uyub qaradi. Chuvrindi xijolatlik bilan *boshini egdi*. Qariyaga esa bu savol malol kelmadi:

– Har narsa mavridi bilan, bo'tam. Bu yerda hasrat daftari o'qish joiz emas (Malik, 2007, 164-b.)

Matndan anglashilib turibdiki, berilgan paralingvizmning “xijolat bo‘lish” semasini ko‘rsatish maqsadida “xijolatlik bilan bosh egdi” birligi berilgan.

5. Mulozamat bildirmoq:

– Vatanga faqat muhabbat kerak...Bizning qalbimiz Vatan sog‘inchi ila tepar. Umrimiz xalos bo‘lgach, ustimizga Vatan hajri kafanini yopajaklar, – u shunday deb soatiga qarab olgach, o‘rnidan turdi-da, *boshini kiborlarcha egib* ta‘zim qildi. – Cho‘x tashakkur, azizlarim. Oqshomingiz xayrli o‘lsun. Asadbek kuzatmoqchi edi, u unamadi. Odati yevropacha, gaplari o‘zbekcha-turkcha aralash bo‘lgan bu odam Asadbekda yaxshi taassurot qoldirdi. (T.Malik, 2007, 187-b.)

6. Mulzam bo‘lmoq:

– Endi, oka, biz bir joyning odamimiz, ot tepkisi otga o‘tmaydi. – Rahmat, ukam, – dadam yana *boshini xam qildi*. – Siz bizlarni siylasangiz, sizni Xudo siylasin. – Men-ku shu yerning odamiman, – Dalavoy ovozi pasaytirdi. – Ammo o‘rtoq Toshevning oldida, shu ish shundoq bo‘lgani chatoq bo‘ldi (Hoshimov, 1996, 48-b.)

Shuni ta’kidlash joizki, bir paralingvizmning lisoniy ifodasini matnda aks ettirishda aynan bir xil so‘zlardan emas, balki sinonimik qatorlardan ham foydalanish mumkin. Yuqorida keltirilgan badiiy parchada ham “bosh egmoq” harakati “boshini xam qilmoq” ifodasi bilan berilgan.

Ma’lumki, *bosh egmoq* harakati o‘zbekona o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi vositalardan sanalib, xalq orasida, asosan, xafa bo‘lish yoki mulzam bo‘lishni bildirishda keng qo‘llanadi. Tahlil qilingan matnlar orqali esa birgina boshni pastga egish harakati vaziyat va bajaruvchining holatiga ko‘ra o‘nga yaqin semalarni namoyon qilishi ma’lum bo‘ldi.

Badiiy adabiyotlarda “bosh egmoq” paralingvizmining varianti sifatida “boshini u yoq-bu yoqqa egmoq” shakli ham uchrashiga guvoh bo‘lish mumkin. Ushbu paralingvistik vosita boshni o‘ng yoki chapga egish orqali bajarilishi bilan xarakterlanadi. Xususan:

7. O‘ziga oro bermoq:

– Bolani ehtiyot qil, – oyim ayvon burchagida o‘tirib, to‘nkarilgan piyoladan o‘sma botirib qoshiga tortayotgan opamga tayinladi.

– Xavotir olmang. – Opam *boshini u yoq-bu yoqqa egib*, bir cheti siniq ko‘zguga qiyo-qiyo qararkan, jilmaydi. – O‘zim qarab turaman. (Hoshimov, 1996, 48-b.)

“Bosh egmoq” harakatining har doim ham qo‘llanilavermaydigan bir qator semalari mavjudligi tahlilga tortilgan matnlar orqali namoyon bo‘ldi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, jonli muloqot muhitida bu semalar yanada kengayishi mumkin. Chunki muloqotning to‘laqonli bo‘lishida, suhbat maqsadining yuzaga

chiqishida suhbat amalga oshirilayotgan makon, davr, suhbatdoshlarning jinsi va psixologik holatlari ahamiyatga egadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bir paralingvistik vosita faqat bir yoki ikki xil semantik ma'noni bildirib kela oladi, deyish biryoqlama qarash bo'lishi mumkin. Sababi, suhbat jarayonining o'zi yaxlit bir sistema sifatida muloqot joyi, vaqti-zamoni, suhbatdoshlar holati, Yoshi, jinsi, ijtimoiy va shaxsiy holati kabi birliklarning majmuidir. Shunday ekan, paralingvizmlarning leksik-semantik ma'nolarini aniq izohlash uchun butun suhbat jarayoniga yaxlit bir butunlik sifatida yondashib baholash lozim bo'ladi.

Tabiiyki, inson muloqot jarayonida o'zini qurshab turgan olam haqida axborot beribgina qolmay, balki predmetning tinglovchiga yoki o'zining xabar qilinayotgan predmetga bo'lgan munosabatini ifodalashga moyillik ham bildiradi. Shunday ekan, paralingvistik vositalar nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida inobatga olinishi, chuqur o'rganilishi zarur.

Adabiyotlar

Ахмедов Б.Р. (2021). Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: *Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.*

Ноjiyev A. va boshqalar. (2001). *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati*. Toshkent.

Hoshimov O'. (1996). *Dunyoning ishlari*. Toshkent.

Hoshimov O'. (2012). *Ikki eshik orasi*. Toshkent.

Ҳошимов Ў. (2018). *Дафтар ҳошиясидаги битиклар*. Янги аср авлоди. Toshkent.

Jurayeva Sh.A. Paralingvistik vositalarning verbal tasviri / "Science and Education" Scientific Journal.

Курбанов М.А. (2021). Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: *Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.*

Нурмонов А. (1980). *Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари*. Андижон.

O‘XSHATISHLARDA MILLIY MADANIY KONNOTATSIYANING IFODALANISHI (T.Malik qissalarida qo‘llangan o‘xshatishlar misolida)

Dilmurod Ashurov *

Umida Turakulova *

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘xshatishlarda aks etadigan milliy-madaniy konnotatsiya haqida so‘z boradi. O‘xshatishlarda konnotatsiyaning qay darajada ifodalanishi, turli xalqlar madaniyatini aks ettiruvchi o‘xshatishlar, ular tarkibidagi etalonlar haqida yoritilgan. Undan tashqari, milliy o‘lchov, baho munosabati, ekspressivlik, bo‘yoqdorlik, muayyan xalqqa tegishli bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi yuzasidan tahlilga tortilgan o‘xshatishlarga sharh berilgan. Milliylikni ifodalovchi etalonlar o‘zga tildagi semalari bilan qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada T.Malikning qissalarida

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), University of Business and Science, dilmurodxoji@gmail.com

* Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, standoffabu202@gmail.com

ko'p uchrovchi *it* bilan bog'liq o'xshatishlar tahlil qilingan. O'zbek xalqining *it* bilan bog'liq qarashlari, itga bo'lgan munosabati haqida fikrlar keltirilgan. Milliy-madaniy konnotatsiyaning yopiq tizim ekanligi misollar bilan dalillangan. Har bir tahlilga olingan o'xshatish haqidagi o'zbek xalqining tasavvuri va u bilan bog'liq odatlari haqida ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: *konnotatsiya, milliy me'yor, o'xshatishlar, etalon, baho munosabati, ekspressivlik, bo'yoqdorlik, xalq madaniyati*

EXPRESSION OF NATIONAL CULTURAL CONNOTATION IN SIMILES (Based on examples of similes used in T. Malik's stories)

Annotation

This article discusses the national-cultural connotation reflected in similes. It explores the extent to which connotation is expressed in similes, similes that reflect the cultures of different peoples, and the standards within them. Additionally, it provides commentary on similes analyzed in terms of national measurement, evaluative attitude, expressiveness, vividness, and the linguistic worldview specific to a particular people. Standards expressing nationality are comparatively studied with their semantic equivalents in other languages. The article analyzes similes related to dogs that frequently appear in T. Malik's stories. It presents ideas about the Uzbek people's views on dogs and their attitude towards them. The closed system nature of national-cultural connotation is substantiated with examples. The article also extensively covers the Uzbek people's perceptions of each analyzed simile and the customs associated with it.

Keywords: *connotation, national standard, similes, standard, evaluative attitude, expressiveness, vividness, folk culture*

Ma'lumki, o'xshatishlar inson ongi taraqqiyotida muhim o'ringa egadir. O'xshatishlar nafaqat badiiy adabiyotda balki, ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xalaqlarning madaniyati, urf-odatlari, qarashlarini o'zida aks ettirishda ham o'xshatishlarning xizmati katta. Ular orqali yangi bilimlarni esda saqlash, oson anglash va anglatish, axborotni o'zlashtirish mumkin. Inson uchun olamni anglashda o'xshatishlarning xizmati beqiyosdir. Har bir shaxsning bilish zaxirasi bitta xalqa deb tasavvur qilinsa, yangi axborotni qabul qilish uchun shu axborot shaklidagi bitta bilish xalqasiga bog'lanadi. Shu tariqa insonning bilish nazariyasi kengayib, rivolanib boradi. S.Kamolova, N.Ravshanovalarning "O'zbek va fransuz tillaridagi o'xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli maqolasida "...ma'lum davrda yashagan ajdodlar kechinmalari, tasavvurlari, milliy va madaniy an'analari muhrlangan bo'ladi" (Kamolova, Ravshanova, 2023, 64-b.),

deya fikr yuritiladi. “O‘xshatishlar semantikasidagi baho munosabatlarini aniqlash milliy-madaniy konnotatsiyaga oydinlik kiritadi” (Xursandova, 2023, 816-b.). Konnotatsiya ma’lum bir xalqqa mansub bo‘lgan birlik bo‘lib, uni faqat o‘sha xalq vakillarigina anglay oladi.

O‘xshatishlarda aks etgan milliy-madaniy konnotatsiya turli xalqlar madaniyatidan so‘zlaydi. Sababi bir xalqning urf-odatlar, qarashlari, mifologiyasi, tarixi, adabiyoti boshqa bir xalqnikiga umuman o‘xshamasligi mumkin. Konnotatsiyaga olamning qadriyat rivojlanishining shakli sifatida qarash mumkin. Nemis tilshunosi M.Birvish konnotatsiyani kiyimga qiyoslaydi: “Kiyimning o‘ziga xos shakily belgilari uni kiygan odam haqida muayyan axborot beradi. Xuddi lisoniy farqlar kabi kiyimning turli tiplari va stillari ijtimoiy munosabatlardagi farqlarni ko‘rsatadi” (Sternin, 1976, 68-b.)

Bugungi kunda tilshunoslikda konnotatsiyaga nisbatan turli xil ta’riflar keltirilgan. Masalan, Y.P.Solodub ”...konnotatsiya ko‘p darajali tuzilma bo‘lib, ekspressivlik, hissiyotlilik yoki baholovchanlik uning asosiy komponenti bo‘lishi mumkin”(Solodub, Albrext, 2003, 264-b.), deya ta’kidlaydi. Konnotatsiya emotsional, ekspressiv hamda baholovchi kabi komponentlardan tashkil topar ekan, R.Bart konnotatsiyaga nisbatan “...baholovchi ma’noning stimulyatori yoki tuyg‘uga bog‘liq obraz”(Bart, 2001, 67-b.), deb ta’riflaydi. P.Mirsagatova esa o‘zining bir maqolasida konnotatsiya haqida shunday fikr bildiradi: “Baholovchanlikni konnotatsiyaning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, subyektiv va obyektiv omillarni hisobga olish kerak. So‘zlovchining nutq predmetiga munosabati milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan madaniy bilimlar vositasida amalga oshiriladi. Baholash nominatsiya obyekti ijobiy, neytral yoki salbiy munosabatni ifodalashni o‘z ichiga oladi. Bunday holda obyekt keng ma’noda shaxs, predmet, harakat va vaziyat sifatida tushuniladi. Baholash – bu turli obyekt va hodisalarning qiymatini aniqlashga olib keladigan aqliy jarayonlarning aksidir. Obyektiv baholash subyektivni tushunish uchun doimo muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun baholashda ijtimoiy va individual dialektik birlashadi” (Mirsagatova, 2020, 173-173-b.).

Konnotatsiya haqida so‘z borar ekan, uning yopiq tizim ekanligi, ya’ni bir xalq uchungina tanish bo‘lgan predmet, shaxs, voqea-hodisalarni ifodalashga xizmat qilishi, muayyan til egalarining milliy-madaniy tasavvur va qarashlarini tasvirlashga xizmat qilishi ma’lum bo‘ladi. Inson his-tuyg‘ulari ifodalangan nutq ta’sirchan bo‘ladi. Bunday hollarda konnotatsiya emotsiya bilan birga namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning aks etishini T.Malik asarlarida ham ko‘plab kuzatish mumkin. *Hozirgi xabarni eshitib, o‘zining o‘g‘li boshiga humo qushi qo‘nganday quvondi* (T.Malik. Imtihon. 8-b.). Keltirilgan badiiy parchada qo‘llangan *humo qushi qo‘nganday* o‘xshatishida milliy-madaniy konnotatsiya aks

etgan. Manbalarda aytilishicha, humo soʻzi semurgʻ qushining yana bir nomi boʻlib (semurgʻ qushining oʻnga yaqin nomlari bor), u sharq xalqlari, jumladan, oʻzbek xalq ertaklari va afsonalarida ham baxt keltiruvchi, yaxshilik keltiruvchi, murodi maqsadga yetkazuvchi afsonaviy qush sifatida gavdalanadi ([https://uz.wikipedia.org/wiki/ Semurgʻ](https://uz.wikipedia.org/wiki/Semurg)). Har bir xalqning lingvomadaniyati oʻsha xalqning yashash sharoiti, iqlimi, hududi oʻzida mavjud boʻlgan hayvonot va oʻsimlik olamini ham ifoda etadi. Sababi, avval ham aytganimizdek shaxs uchun bilingan, tanilgan har qanday hodisa uning uchun bilim hisoblanadi. Sh.Usmonova buni oʻzbeklarda sochni tunga qiyoslanishi, shotland xalqida esa qargʻaga qiyoslanishi, chunki Shotlandiyada yilning hamma faslida ham qargʻaning boʻlishi bunga asos boʻlganligini, tabiiy sharoitida qor yogʻishi kuzatilmaydigan lingvomadaniyatlarda *“qorday oppoq soch”* oʻxshatishi uchramasligini buning sababi esa ular qorning nimaligini koʻz oldiga keltirolmasligini, bu holat biror-bir oq narsa ularning yodiga qorni solmasligini taʼkidlaydi (Usmanova, 2019, 108-b.).

Professor N.Mahmudov konnotatsiya haqida fikr yuritib shunday deydi: “Leksemadagi konnotativ maʼno yorqinlashgani sari undagi denotativ maʼno pasayib boradi. Chunki, konnotatsiya leksema mazmunidan oʻrin olib, soʻzlovchining subyektiv munosabati bilan bogʻliq holda shakllanib boradi” (Mahmudov, 2017, 20-b.). Buni sodda tilda tushuntiradigan boʻlsak, masalan, musichaday beozor oʻxshatishi eshitgan odam musicha haqida oʻylamaydi, suhbat mavzusi boʻlgan shaxs haqida oʻylay boshlaydi. Chunki, oʻzbek xalqining milliy nigohida musichaning beozorlik timsoli ekanligi turgʻunlashib, quyma shakl darajasiga kelgan.

Oʻxshatish va baholovchanlik tushunchalari bir butunlikni tashkil etadi. Ularni bir-biridan ayro tasavvur etib boʻlmaydi. Chunki, inson atrofdagi barcha predmat (shaxs, voqea-hodisa, tushuncha, holat, zamon, makon kabi)larni oʻxshatish yoʻli bilan baholaydi, baholash yoʻli bilan oʻxshatadi. Shuning uchun ham muayyan til egali orasida turgʻun yoki erkin oʻxshatish tez va oson tushuniladi. Bu oʻrinda milliy-madaniy konnotatsiyaning oʻrni alohida sezilib turadi. Bir tilga mansub har qanday soʻz ham milliy-madaniy konnotatsiyani hosil qilavermaydi. Chunki “soʻz maʼnosining madaniy komponenti har bir soʻzda turlicha boʻlishi mumkin. Bu holat soʻzning qanday milliy madaniy mohiyatga ega narsa-predmet, voqea-hodisa kabilarni nomlab kelayotgani bilan aloqador” (Mirzaaliyev, 2010, 91-b.). Misol uchun, *uloq* soʻzi kontekstdan tashqarida hech qanday emotsional-ekspressiv va hissiy bahoni ifadalamaydi. Shunchaki, oʻyin nomini ifodalaydi. Shuning uchun bu soʻz madaniy konnotatsiyani hosil qilmaydi. *Kun yoyilay deganda rabotga Gʻulomqodir kirib keldi. Otga oʻngargan odamni xuddi uloq tashlaganday Mirza Qandilxon oyogʻi ostiga tashladi* (Tohir Malik. Savohil. 97-b.) Misoldan koʻrinadiki, *uloq* soʻzi boshqa soʻzlar bilan birga emotsional-ekspressivlikni, baho kategoriyasini ifodalamoqda. Chunki uloq oʻzbek millatining milliy sport oʻyinlaridan biri boʻlib,

boshqa xalq vakillari uchun bu o'yin mavhum bir holatni anglatishi mumkin. Yozuvchi o'zbek xalqining farzandi bo'lgani uchun bu o'yindan to'la xabardor va bu xabardorlik o'zbek kitobxoniga ham hech qanday izoh va sharhlarsiz tushunarli holatni yuzaga keltirgan.

Har xil lingvomadaniyatlar uchun har xil o'xshatish me'yoriy o'lchov bo'lishi, bir xalqning mental an'analarini boshqa bir xalq rad etishi mumkinligi ko'p tilshunoslar tomonidan ta'kidlangan (Mahmudov, Usmonova). Masalan, o'zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavgali ayollarga *at gibi* o'xshatishi qo'llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug'vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi (Usmonova, 2019, 106-b.). Bunga o'xshash misollar juda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Turli millat xalqlarining mental an'analari kesishgan holatlar ham bo'lib, bunda bir o'xshatish etaloni boshqa bir xalqda ham xuddi shu semali etalon vazifasini bajarishiga ham misolar keltirish mumkin. Bu haqda N.Mahmudov oy etalonini o'zbek, koreys, xitoy tilida ifodalaydigan ma'nosini sharhlash bilan (Mahmudov, 2017, 174-b.), Sh.Usmanova esa o'zbek tilida mavjud bo'lgan *toshbaqadek imillamoq* o'xshatishidagi etaloning xuddi shu semani ifodalaydigan "*toshbaqa minmoq*" iborasining koreys madaniyatida ham borligini muqoyasa qilgan (Usmonova, 2019, 106-b.).

Milliy-madaniy konnotatsiya haqida gap ketar ekan, Ikromjon Mirzaaliyev o'zining "O'zbek tilida milliy madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Madaniy konnotatsiyalarda milliy ong, milliy tafakkur va dunyoqarash o'z ifodasini topadi. Bunday birliklar til egalarining milliy-madaniy qarashlarini, voqelikka munosabatni ham aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida madaniy konnotatsiya hisoblangan *do'ppisini osmonga otmoq* iborasi konnotativ ma'no ifodalash bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlar (o'zbek xalqining do'ppi kiyish madaniyati, xursandchiligi vaqtida do'ppisini olib osmonga otishi kabilar) bilan aloqador birlik hisoblanadi. Yoki "Yetti o'lchab, bir kes" maqoli madaniy konnotatsiya sifatida millatga xos aql bilan ish tutish, bir ish qilishdan avval mushoxada qilish, ish yuritishda shoshqaloqlik qilmaslik kabi xislatlarni aks ettirish bilan birga, fikrni ta'sirchan, hissiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi" (Mirzayev, 2020, 90-b.).

Tahlil obyekti bo'lgan asarlarda qator o'xshatishlar va ularda aks etgan konnotatsiyalarni kuzatdik. Jumladan, *it* etaloni bilan bog'liq o'xshatishlar Tohir Malikning "Shaytanat" qissasining o'zida yigirmaga yaqin o'rinlarda qo'llangan bo'lib, shundan o'n martasida bir-birini takrorlamay yangi semani ochib berishga xizmat qilgan. Asardagi ayni o'xshatishlarni tahlil qilganimizda ularning barchasi salbiy holatni aks ettirish uchun qo'llanganiga guvoh bo'lindi. O'ylab qaralsa, o'zbek millati mentalitetida *it* bilan bog'liq qarashlar ikki ko'rinishda aks etadi. Anglaganingizdek, *it*ga nisbatan ham salbiy, ham ijobiy munosabat shakllangan.

Ammo o'zbek mentalitetida ijobiy tasavvurga qaraganda salbiy tasavvurning o'zni kengroq. Ijobiy munosabatni ifodalashda itdagi sadoqat, do'stlik, qo'riqlash kabi tomonlar nazarda tutiladi. Salbiy munosabatni ifodalaganda esa, undagi daydilik, ifloslik, ko'p hurish, qopish, qaramlik, horlik kabi holatlar nazarda tutiladi. O'zbek millati mentalitetida it, ot kabi hayvonlar bilan do'st tutinish, ular bilan insondek gaplashish badiiy asarlarda, jumladan, Said Ahmadning "Qorako'z majnun" asarida it bilan va Shukur Xolmirzayevning "Ot ergasi" asarida esa insonning ot bilan do'stdek munosabatda bo'lishi aks ettirilgan. Bundan tashqari o'zbek xalq maqollarida ham it bilan bog'liq bir qator o'rinlar bor: "Yaxshi it o'ligini ko'rsatmas", "Toyni ot qilguncha, Egasi it bo'lar", "Hurag'on it egasiga qo'noq keltirar", "So'z bilmagan kishidan hura bilgan it yaxshi" (Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005, 36-b.) bunday maqollarni ko'plab keltirish mumkin. Ulada aks etgan semalar esa, salbiy va ijobiylikni ifodalab kelmoqda, ammo shuni ham aytib o'tish joizki, o'rganilgan o'xshatishlarning hammasida *it* salbiy bo'yoqni aks ettirish uchun xizmat qilmoqda. Quyida ana shunday o'xshatishlar tahlili bilan tanishtiriladi: *Bundan tashqari xonasiga kiruvchini it kabi qopadigan rahbar-u rahbarchalarga azaldan tob-u toqati yo'q* (Tohir Malik. Shaytanat. 2013, 90-b.). Ushbu parchada *it kabi qopadigan* o'xshatishidan foydalanilgan bo'lib, insonga xos bo'lgan eng qo'pol muomalani tasvirlash uchun qo'llangan. Sababi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *qopmoq* so'ziga tishlab olmoq, tishlamoq kabi izohlar berilgan (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, 355-b.). Ayni o'xshatish shaxsning nutqiy holatini ochib berish uchun qo'llangan. Bu o'rinda o'xshatish jerkib, urushib gapirmoq, dag'al gap bilan dilini og'ritmoq kabi semalarni o'zida jamlayapti. Qopish it va tuyaga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, tuyaga qaraganda itning qopishi hamma uchun ayon holat. Tuyaga nisbatan itni yaxshi tanish bu o'xshatishning tuyadek emas, itdek qopmoq holida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qopag'on itning qopishi uchun unga teginish shart emas, o'xshatishda ayni shu xususiyati bilan ba'zi rahbar shaxslarning o'z hodimiga qiladigan muomalasiga ishora bor. O'xshatishlar uchun qaysi predmet yoki shaxs, voqea, umuman nima bo'lishidan qat'iy nazar, undagi eng ustun xususiyatga e'tibor qaratiladi. Ana shu ustunlik etalon vazifasini bajarishga xizmat qiladi. O'zbek xalqi mentaliteti uchun it bilan bog'liq etalonlarning tanlanishiga, eng avvalo, undagi qopish, hurish va horlik xususiyati turtki bo'lgan.

Ha, mayli, qo'yavering. Ular itga o'xshab huraverishadi, — dedi. — Nima bo'lsa bo'ldi! Kunimiz shunday to'ng'alarga qolganidan keyin nima qilardik (T.Malik, Shaytanat, 2013, 237-b.). Bu matnda ham yuqoridagi misolga o'xshash ma'no ifodalanmoqda, o'xshatish tarkibidagi hurishda inson nutqiga ishora bor. *Huraverish* leksemasida esa *besamar, mazmunsiz, bir gapni ko'p takrorlash* kabi semalar aks etadi. Mazkur o'xshatish sanalgan semalar bilan birga suhbatdoshining gapini nazarga ilmaslik, e'tibor bermaslik kabi ma'nolarni ham tashimoqda.

Sal qoldi urilib ketishimga. Bitta yulduzni, — Nozir pogoniga ishora qildi, — o'shanda kamaytirishdi. Bu qiztaloqlar pichanga bog'lab qo'yilgan itga o'xshashadi. O'zlari ham yeyishmaydi, birovga ham bergilari kelmaydi (T.Malik, Shaytanat, 2013, 166-b.). Mana bu parchada qo'llangan o'xshatish erkin o'xshatish bo'lib, etalonga sifatlovchi bo'lib kelayotgan qism o'xshatishning mazmunini yuqori darajaga ko'tarib berishga xizmat qilgan. Chunki hammaga ma'lumki, it go'shtxo'rlar sirasiga kiradigan hayvon. Shuning uchun unga o'txo'rlarning ozuqasini berish mumkin emas. O'xshatishda ifodalangan *pichanga bog'langan it* ba'zi shaxslardagi qizg'anchilik, baxillik kabi xarakter nuqsonlarini ochib berish uchun qo'llangan. Itdagi xususiyat: oldidagi yemishini begona it bilan yemaydi, ammo yemishdan boshqa narsa bo'lsa ham, uni qattiq qo'riqlaydi. Mazkur o'xshatishda qo'riqlash semasi bor deyishdan yiroqmiz. Unda aks etgan *boshqa bir shaxsga to'sqinlik, qarshilik qilish* semalarini anglash mumkin.

It bilan bog'liq o'rinlarda konnotatsiyaning namoyon bo'lishi, asosan, salbiy bo'yoqni ifodalashda ko'zga tashlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga murojaat qilganimizda buni yaqqol ko'rish mumkin. It. 1. Uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan uy hayvoni. 2. Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi: it emgan, itvachcha, itdan tarqagan. 3. Ko'chma ma'noda. Birovning manfaatlarini himoya qilib boshqalarga zulm o'tkazuvchi odam. Boshiga it kunini solmoq, it azobi, it tekkan, it boqmaydi (varianti: it ham qaramaydi. nazardan qolgan ma'nosida), itdan suyak qarz (hammadan qarzi bor hatto itdan ham ma'nosida), itning keyingi oyog'i, ichini it tatalamoq, Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, 241-b.).

Yuqorida aytib o'tilganidek, milliy-madaniy konnotatsiya xalq tafakkurining aksi, dunyoqarashining ifodachisi sifatida xizmat qilar ekan, o'zga millat vakillarining qarashlari va milliy nigohi bilan zidlikni hosil qilishi mumkin. Shu o'rinda boshqa millatlarning it bilan bog'liq tasavvurini o'zbek millati munosabatlari bilan taqqoslash muhim hisoblanadi. Demak, o'zbek xalqida itga bo'lgan munosabat salbiy hamda ijobiy, rus va ingliz millati mentalitadida itga nisbatan, asosan, ijobiy munosabat aks etishi hammaga ma'lum. Buni quyidagi rus xalq maqollardan ham bilsa bo'ladi: "It insonning birinchi do'sti", "It insonning o'zgarmas do'sti", "It ozuqaga arziydi". Xalqimizda insonlar yashaydigan, ovqatlanadigan joyga hayvonning kirishi tasavvur qilib bo'lmaydigan holdir. Shuning uchun ham xonadonida uy hayvonlarini boqadigan insonlar ularning yashash joylarini o'zlarinikidan ancha uzoqqa, ovqatlanganda ko'zi tushmaydigan joyga qurishadi. Qolaversa, Islom dinida uyning ichida it boqish xarom qilingan. Bu bilan o'zbek xalqining hayvonlarga bo'lgan munosabati salbiy demoqchimasiz, ammo xalqimiz mentalitetida inson va hayvonlarning yashash joyi alohida bo'lishiga qattiq e'tibor beriladi. Shu bilan birga qadrdon do'st bo'lsa ham, inson bilan hayvonning bir tom

ostida yashashi mumkin emas. Bu fikrlarga dalil sifatida D.Ashurovning dissertatsiyasida keltirilgan quyidagi o'xshatishni keltirish mumkin: "*Majlisli kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, poyga betda yotar edi* (F.Y.: 46). Bu o'rinda Yartiboyning ijtimoiy mavqeyi haqida tavsif ketar ekan, «joy tegmay», «choy tegmay», «kovushga joy bermay», «kovush bilan aralashib», «it yiqilish bo'lib» birikmalari bir paradigma holatida «pastlik», «bezzatlik», «obro'sizlik» ma'nosini bildiradi. Bizningcha, «it yiqilish» deganda ostonadan o'tishda itning poygakda dasturxonga tikilib yotishi va odatda odamlardan tepki eyishi yoki olishuv natijasida tuproqqa belanishi nazarda tutilgan.» (Ashurov, 2021, 67-b.).

Ko'p xalqlarda it oila a'zosi sifatida qabul qilinadi, pasport beriladi, uni bemalol bag'riga bosish, u bilan bir dasturxon atrofida o'tirish, birga ovqatlanish hatto uyning ichki qismidan yotoq tayyorlab berish oddiy holat hisoblanadi. Buni shu xalq filmlaridan ham bilsa bo'ladi. Masalan, it Yaponiya madaniyati va an'analarida sadoqat va sodiqlik ramzlaridan biri hisoblanadi. Bu ramz ko'plab yapon maqollarida aks etgan. Masalan, "It yurganda tayoqqa uriladi" maqoli harakat qilish orqali duch kelgan qiyinchilikni yengish mumkinligi ifodalangan, bu esa sadoqat va matonatni bildiradi. "Itning yaxshiligini yomonlik bilan qaytarma" maqoli insonlarni mehribon va sadoqatli bo'lishga undaydi. Yapon xalq maqollaridan ko'rinadiki, bu xalq uchun itning sadoqat va ishonch timsoli ekanligi sezilib turibdi. Yapon xalqi itga nisbatan judayam mehrli xalq hisoblanadi. Ular itni farzand qatorida ko'rishadi. Hatto Yaponiyada itlar bog'chasi mavjud. Undan tashqari, yaponlarda farzandlar qari ota-ona holidan xabar olish, ularga g'amxo'rlik qilish kabi ulug' xizmatdan mosuvo xalq bo'lib, qari ota-onalar ermak uchun, albatta, it sotib olib boqishadi. Itga darhol pasport olinadi. Itning qadri shu darajada balandki, uni urib yuborgan xaydovchi bir necha yillab qamoq hukmiga mahkum qilinishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, it bilan bog'liq o'rinlar barcha xalqlar madaniyatida ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishda o'z ifodasini topmoqda. E'tiborlisi shundaki, o'zga xalq madaniyatlarida it bilan bog'liq ijobiy qarashlar ustunlik qilmoqda. O'zbek mentalitetida esa salbiy tasvirlar uchun qo'llanishi ustunlik qilmoqda. Buning sababi muqaddas Islom dinimizga aloqador bo'lgan hadislardir. D.Toshevaning "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida ham it komponentli maqollarga alohida to'xtalib, it qatnashgan maqollarda aks etgan qator kontseptlarni tahlilga oladi. Ularda sadoqat, pastlik, vazitay, no'noqlik, nasl, odat, makon, nasl, fe'l-atvor, orqa qilish, oriyat, ozodalik, birlik, yo'lini toppish, ziqnalik, yosh, harakat, ojizlik, mashaqqat, me'yordan oshish, no'noqlik kabi yigirmadan ortiq kontseptlarda namoyon bo'lishi haqida ta'kidlaydi. Sanalganlar orasida sadoqat, odat, zamon, harakat, oriyat, ozodalik, birlik, yosh kabi

kontseptlarda it bilan bog‘liq ijobiy kontseptlarni uchratish mumkin (Tosheva, 2017, 75-b.).

Milliy-madaniylik tushunchasi o‘zaro mentallik va mentalitet tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, u haqida N.F.Aliferenko “Kinguocultural nature of mentality” maqolasida quyidagicha fikr bildiradi: “Mentallik – dunyoni anglash jarayonida vujudga kelsa, mentalitet – muayyan xalq tomonidan yaratilgan dunyo manzarasi sanaladi. Shunday ekan, xalqning mental xususiyatlari tilda o‘z aksini topadi. Demak muayyan millat madaniyati va mental xususiyatlarini o‘rganish uchun uning tilini tadqiq etish maqsadga muvofiq” (Alefirenko, 2011, 16-b.).

O‘zbek xalqi uchun sigir, qo‘y, ot va shunga o‘xshash uy hayvonlari qay darajada qadrli bo‘lsa, rus va ingliz xalqlari uchun it va mushuk shunday qadrlidir. Uy hayvonlaridan birining kasallanishi uning egasi uchun og‘ir holat, ya’ni u tuzalguniga qadar veterenar maslahatlariga ko‘ra tuzalishiga yordam beradi. Ammo itda shunday hol kuzatilsa, aksincha, o‘z holiga tashlab qo‘yiladi. Mentalitetimizdagi itga bo‘lgan ba’zi o‘rinlardagi bee’tiborlik quyidagi o‘xshatishda ham o‘z aksini topgan:

O‘lim-ku kelar, ammo qay holda jon beradi? Hayotda omadsiz edi, o‘limda ham shunday bo‘ladi shekilli? Itday xor bo‘lib o‘ladi, murdasini itning o‘ligiday olib chiqib tashlashadi (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob, 206-b.). Matnda qo‘llangan *itdek xor bo‘lmoq* o‘xshatishi chorasiz qolish va qiyinchiliklarga chidash ma’nosini ifodalamoqda. Bu gapda keltirilgan *itdek xor bo‘lmoq* va *itning o‘ligidek olib chiqib tashlamoq* o‘xshatishlarida yuqorida keltirilgan fikrlar o‘z aksini topgan.

Itday xor qilib haydab kelishgan (T.Malik. Shaytanat, 1-kitob, 346-b.). Yozuvchi tomonidan qo‘llangan *itday xor bo‘lmoq* o‘xshatishi insonning qiyin ahvolini tasvirlash uchun qo‘llangan. Ayni o‘xshatishga etalon sifatida it olingani e’tiborimizni tortdi. Xorlikni ifodalash uchun boshqa hayvonning nomini keltirib bo‘lmaydi. Chunki boshqa uy hayvonlarida ham, yovvoyi hayvonlarda ham horlik kuzatilmaydi. It faqatgina qo‘riqlash maqsadida kerak bo‘lgani uchun qariganda uni haydab yoki biror ovloq joyga tashlab kelinishini bilamiz. Boshqa uy hayvonlari qarisa, so‘yish yoki sotib yuborish mumkin, shuning uchun ularga nisbatan bunday holat kuzatilmaydi. Ammo itdek sadoqatli hayvon topilmaydi. Boshqa hayvonlar ketsa, qaytib kelmaydi, it esa har qanday holatda ham qaytib keladi. It egasi bergan ovqatnigina yeydi, agar egasi ovqat bermasa hovli, xonadon yoki oshxonaga kirib o‘z xohishi bilan hech narsa yeya olmaydi. Bu uning sodiqligidan dalolat. Sigir, qo‘y, tovuq va shunga o‘xshash uy hayvonlariga esa tez-tez yemish beriladi. Ammo bu uy hayvonlari qozig‘idan, katagidan qo‘yib yuborilsa, darrov o‘z xohishiga ko‘ra yemak yeyishni boshlashadi. Yovvoyi hayvonlar esa uchragan narsani yeyaverishadi. Ko‘rinib turibdiki, itda ovqatlanish imkoniyati cheklangan. Undan tashqari itdagi xorlikni uning haydalishida ham ko‘rish mumkin, sababi boshqa hayvonlarni o‘ziga

xos soʻzlar bilan ketishga undaymiz, masalan, qushlarga kish-kish, mushukka pisht, tuyoqli hayvonlarga chu, itga esa, tur, tur yoʻqol, tur ket kabi qoʻpol soʻzlarni qoʻllaymiz. *Itday xor boʻlish* oʻxshatishi turgʻun oʻxshatish boʻlib, uning semasida yuqoridagi fikrlar jamlangan. Shu bilan birga keltirilgan matnda yana bir oʻxshatish qoʻllangan. U ham it bilan bogʻliq, *itning oʻligiday olib chiqib tashlashadi* oʻxshatishi boʻlib, yuqorida aytilgan fikrlarni oʻzida ifodalagan.

Yuqorida qator oʻxshatishlar anglatayotgan semalar tahlilga olindi. Aytish joizki, oʻzbek millati mentalitetida it bilan bogʻliq koʻplab oʻrinlarda insonlarga nisbatan eng salbiy holatning **eng oxirgi nuqtasini ochib berish**da keng foydalanish yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu hol, ayniqsa, paremiologik birliklarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Misol sifatida “It dan suyak qarzi bor” hammadan qarz, hatto it dan ham qarzi bor maʼnosida, “It boqmaydigan” nazardan qolgan, hatto it ham boqmaydi maʼnosida. “Itning keyingi oyogʻi” hammadan oxirida maʼnosida. Bunday iboralarning semalarini tahlil qilinganda kuchaytiruv-taʼkid yuklamasining qoʻllanishi fikrimiz isboti uchun xizmat qiladi. Iboralarni “It dan suyak qarzi bor”, “It boqmaydi” holida kuchaytiruv-taʼkid yuklamalarisiz qabul qiladigan boʻlsak, iboralardagi mazmun pasayadi, chunki it oʻzbek mentalitetida shaxsga nisbatan qoʻllanadigan salbiy bahoning eng quyi qismi hisoblanadi.

“Milliy nigoh madaniyatning pardasi orqali qaralgan olam, dunyoqarash emas, dunyoni koʻrishdir. Shuning uchun ham til olamning boricha, “sodda” manzarasinigina emas, uning uzvlariga qadriyatli munosabatni ham aks etiradi. Til kelgusi avlodga millatning ana shu milliy-madaniy bilimlarini turgʻun birliklar, ayniqsa, oʻxshatishlar vositasida yetkazadi. Shuning uchun ham konnotatsiya tushunchasini madaniyat prizmasi orqali tahlil etish biz uchun muhim.” (Usmanov, 2021, 51-b.). Milliy-madaniy konnotatsiyani nafaqat turgʻun oʻxshatishlar doirsida balki, xususiy muallif oʻxshatishlari doirasida ham kuzatish mumkin. Bugungi kunda rivojlanish barcha sohalarida koʻzga tashlangani kabi tilda ham oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmaydi. Bugungi xususiy muallif oʻxshatishlari kelajakda turgʻun oʻxshatishlar safiga oʻtishi, tabiiy. Konnotatsiyada jamlangan milliy-madaniy axborot esa til egalari uchun qaysi zamonda boʻlsa ham hamisha tushunarli boʻlib qolaveradi.

Bilim va tasavvur bir-biri bilan chambarchas bogʻliq xodisalardir. Yangilik yaratish uchun tasavvur, tasavvur qilib koʻrish uchun esa, bilim shart. Masalan, labni gilosga oʻxshatishdan avval, labning shakli nimani eslatayotganligiga eʼtibor beriladi, shaxsning tasavvuri va bilimi labning gilosga oʻxshashidan darak beradi, gilosning qizil rangi, undagi yumaloq shakldan bexabar boʻlingan holatda u oʻxshatish etaloni boʻla olmaydi. Shuning uchun har qanday yangilik uchun ham tasavvur kerak, tasavvur qilish uchun esa bilim kerak. Oʻxshatish qismlari orasida etalonning oʻrni va ustunligi alohida. Faqat etalongina muayyan xalqning qarashlarini oʻzida ifodalay oladi. “Bu oʻrinda shuni ham alohida taʼkidlamoq joizki, turgʻun oʻxshatishlar

tarkibida o'xshatish obrazi, ya'ni o'xshatish etaloni alohida ahamiyatga molik. Bu unsur o'xshatishning markazini, mag'zini tashkil etadi, boshqa unsurlar (o'xshatish subyekti, o'xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana olgani holda o'xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog'i shart, ya'ni o'xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo'lmasa, o'xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni ko'rishi va anglashidagi o'ziga xoslik, ya'ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma'lumot bevosita ayni shu o'xshatish etalonida o'z tajassumini topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg'unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi." (Mahmudov, 2019, 6-b.). Etalon o'zida juda ko'p hodisalarni ifodalashi mumkin, masalan, bir qarashda, etalonga olingan predmetning tashqi ko'rinishi nazarda tutilganga o'xshaydi, ammo ko'p hollarda o'sha predmetning ham tashqi ko'rinishi, ham salbiy yoki ijobiy ustunligi ham nazarda tutiladi. Bu holni N.Mahmudov o'zining "O'xshatishlarda milliylik jozibasi" nomli maqolasida "baqaday qotib qolmoq" o'xshatishi misolida tahlil qilgan (Mahmudov, 2019, 6-b).

Bilamizki, madaniyat tushunchalar sistemasi, ma'lum bir xalqning milliy xarakter, hayot obrazi, milliy mentalitet, odatlari sifatida keng etnografik mazmun ifoda etadi. N. S. Trubetskiyning ta'kidlashicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart." (Trubetskiy, 1996, 196-b.). Har qanday tilda uchrovchi o'xshatishlar o'z iste'molchilari kabi qadimiydir. O'xshatishlar bir necha asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy va milliy-madaniy qarashlar natijasida paydo bo'lgan.

"Til xalqlar ruhining zohiriy namoyon bo'lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardan bir biriga aynan mos boshqa biror narsani tasavvur qilib bo'lmaydi" (Gumboldt, 1984, 47-b.). Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bir etalon qator millatlar mentalitetida o'z ifodasini topmoqda. E'tiborlisi, etalonga olinayotgan predmetning hammaga ayon bo'lgan ustunligi etalon sifatida qo'llanishiga sharoit yaratmoqda. Bunday etalonlar, ayniqsa, hayvonlar bilan bog'liq o'rinlarda o'z aksini topayotganligini bir qator tilshunoslar misollar yordamida sharhlaganliklari ma'lum.

Biror predmet yoki xodisalarning o'ziga xos jihatlari boshqa predmetlar bilan taqqoslanganda aniqlashib borar ekan, leksik ma'noning milliy-madaniy o'ziga xosligini aniqlash uchun ham til birliklarini o'zga til birliklari bilan qiyoslash kerak bo'ladi (Sabitova, 2013, 118-b.). Ma'lumki, biror predmetning, masalan, shirin ta'mini baholash uchun etalonga olinuvchi qator predmetlar orasidan shu ta'm ustunligiga ega bo'lganlarini tanlash joiz. Shakar, asal, qand kabi, ammo shirin ta'mga ega bo'lsa ham olma yoki boshqa mevani etalon sifatida qabul qilib bo'lmaydi. *Olmadek shirin* o'xshatishi me'yoriy holat emas. Shu sababli F.Usmanov

dissertatsiyasida o'zbek tilidagi birliklarning milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rsatish maqsadida ularning boshqa tildagi ekvivalentlari bilan qiyoslash kerakligi haqida aytib o'tadi va rus, o'zbek tilidagi mehnatkashlikni ifoda etgan o'xshatish etalonlarini jadval asosida yoritishga harakat qilgan. Jadvalda mehnatkashlikni ifoda etgan etalonli turg'un o'xshatishlar ko'rsatilgan bo'lib, o'zbek tilida chumoli, ari, eshak, it kabi etalonlar sanalgan bo'lsa, rus tilida qo'llanuvchi ot, qirchang'i, olmaxon, o'rgimchak, xachir kabi bir qator etalonlar ro'yxatini keltirilgan (Usmonov, 2020, 50-b.). Ko'rinib turibdiki, rus va o'zbek millatlari bir urug'ga mansub bo'lmasa-da, hududiy va iqlim jihatidan ham keskin farq qilsa-da, mehnatkashlikni ifodalovchi etalonlarning deyarli bir xilligiga tanlangan predmetlarning o'ziga xos xususiyati bo'lgan mehnatga moyilligi ularning aynan shu semali etalon sifatida olinishiga sabab bo'lgan. Demak, yer yuzida tarqalgan o'simlik va hayvonot olami to'laligicha bir xil bo'lmasa-da, bir mintaqada mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonlar boshqa mintaqalarda ham tarqalgan bo'lib, ulardagi xarakter xususiyatlaridan eng ustun jihati barcha uchun tanish holatni keltirib chiqaradi va bunday ustun jihat etalon vazifasini o'tash uchun asosiy sabab bo'la oladi.

Tilshunos N.V.Dmitriyeva ko'p tillarda uchraydigan o'xshatishlarni parallel o'xshatishlar deb ataydi, shu bilan birga, ularning yuzaga kelish sababini umummadaniy tajriba, umumiy bilimlar foni, bir madaniyat ta'siri ostida shakllangan qarashlar, adabiyot manbalari, mifologiyada deb hisoblaydi (Dimitriyeva, 2000, 75-b.). Professor Y.Odilov o'zining "Til va mentalitet" maqolasida til va mentalitetning doimiy ta'sir etishi, mentalitetning til orqali voqelanishi jarayonlariga nisbatan o'z fikrlarini bayon qiladi: "Mentalitet va til doimiy ta'sirlashuvda bo'ladi. Bu ta'sirlashuv ko'proq "mentalitetdan tilga" tarzida kechadi va bunda til mentalitetning voqelantiruvchisi maqomida turadi. Tilning fonetik, leksik, frazeologik hamda grammatik birliklari bu ta'sirlashuv jarayonlarida ishtirok etadi" (Odilov, 2021, 43-b.). S.Babanazarova ham o'zining "O'xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashuvi" mavzusidagi dissertatsiyasida milliy-madaniylikni ifodalovchi o'xshatishlar haqida to'xtalib, ingliz, rus va o'zbek xalqlariga mansub o'xshatishlarni turli xil voqeliklarning nomlari; mamlakatda muomalada bo'lgan pul birliklarining nomlari; ma'lum bir mamlakat uchun xos bo'lgan va boshqa mamlakatda kamroq tarqalgan tovar nomlari kabilar misolida sharhlagan (Babanazarova, 2023, 113-b.). Bu xil o'xshatishlar eshitilgan zahoti o'zi mansub bo'lgan millatning nomini yodga soladi. Masalan, o'zbek xalqi so'zlashuv uslubida "*Besh yuz so'mlik pulday ko'rinmay ketdingiz*" degan o'xshatish bor, so'm O'zbekiston Respublikasining pul birligi ekanligi o'zbek xalqi uchun xos bo'lgan o'xshatishni ifodalaydi, "*as chesp as chips*" (chipsday arzon) (Babanazarova, 2023, 113-b.) ingliz xalqi madaniyatidan xabar beradi, chunki chips inglizlarning eng sevimli yeguligi hisoblanadi. O'zbek mentalitetida suvdek tekin o'xshatishi mavjud. Ammo bu o'xshatish vaqtlar o'tishi

bilan iste'moldan chiqib ketishi mumkin, bunga bugungi kundagi suv tanqisligi muammosini sabab qilib keltirish mumkin. Rivojlanish hech bir sohani chetda qoldirmagani kabi, tilda ham o'z ta'sirini sezdiradi. Individual o'xshatishlar turg'un o'xshatishlar qatoriga o'tsa, ba'zi turg'un o'xshatishlarning iste'moli biroz susayishi mumkin. F.Usmanov nutqda "bo'zchining mokisidek qatnamoq" o'xshatishidan foydalanish uchun bo'zchi, moki kabilar haqida bilimga ega bo'lish kerak deya ta'kidlagan edi (Usmonov, 2020, 56-b.). *Bo'zchining mokisidek qatnamoq* o'xshatishi ham vaqtlar o'tishi bilan katta avlod vakillari nutqida saqlanib qolishi mumkin. Sababi avvallari bo'z uyda bo'zchilar tomonidan to'qilgan bo'lib, uning qanday to'qilishi, moki kabilar ko'pchilikning ko'z o'ngida voqe bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Toshkentda Bo'zchilar mahallasi ham bo'lgan. Ammo bugungi kunga kelib, odam bajaradigan bunday ishlarni texnika bajarmoqda, shu bilan birga, u maxsus ssexlarda to'qiladi. Shunday ekan, bo'zchining mokisini ham o'sha yerda ishlaydigan ishchilar biladi xolos. "...inson intellekti yetishmayotgan bo'sh o'rinlarni tayyor steriotipik matnlarga tayangan assotsiatsiyalar hisobiga to'ldiradi. Darhaqiqat, ayrim intellektual masalalar, jumladan, obrazlarni tanish, matnni to'laqonli tushunish uchun ma'lum bilimlar zahirasi zarur bo'ladi. Bunday lingvomadaniy bilimlar zahirasi shaxsda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantiradi, madaniyatlararo muloqotni yengillashtiradi" (Usmanov, 2020, 57-b.).

Har bir millar o'z tilida o'zining mentaliteti va milliy-madaniy qarashlarini, individual xususiyatlarini, o'ziga xosligini aks ettira olishi kerak. Milliylikning barcha unsurlari umumiy va bir-biriga uyg'unlashgan shaklda tilda ifodalanishi zarur. "O'xshatishlarni lingvomadaniy tahlil qilish o'xshatishlar semantik strukturasiga joylangan madaniy axborotni aniqlash o'xshatish etalonlarining milliy-madaniy konnotatsiyaga oydinlik kiritish demakdir. Ular millatning obrazli tafakkur maxsuli, shu madaniyatda qabul qilingan me'yorlarning aks ettiruvchisidir" (Usmanov, 2020, 50-b.). Har qanday shaxs o'z dunyosini turli belgilar bilan to'ldirib, rivojlantirib boradi. Buning asosiy sababi yangilikni ixcham ko'rinishda yetkazish, tejamlilikka intilishda deb qarash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'xshatishlarda namoyon bo'luvchi milliy-madaniy konnotatsiya xalq qarashlarining ko'zgusidir. Duch kelgan o'xshatishni milliy-madaniy konnotatsiya deb bo'lmaydi. O'xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning yuzaga chiqishi biror predmet, shaxs, yoki voqea-hodisaning muayyan til vakillariga ayon bo'lgan xususiyati bilan bog'liq. Bunda o'xshatish etaloni muhim o'rin tutadi. Milliy-madaniy konnotatsiyani aks ettirishda tilda reallashgan baho munosabati asosiy vazifani bajaradi. Konnotatsiyalar yordamida milliy-madaniy steriotiplar jamlanadi, madaniy steriotiplar bilan yangi avlodlarga yetkaziladi.

Soʻzdagi denotativ maʼno muayyan tushunchani aks etiradi, konnotativ maʼno esa soʻzlovchi yoki biror til vakillarining subyektiv munosabatini ifodalaydi. Bundan tashqari, milliy-madaniy konnotatsiyani yopiq tizimga qiyoslash mumkin. Sababi milliy-madaniylik tushunchasi faqat bir xalq uchungina xos boʻlib, boshqa xalqlar uchun tushunarsizligicha qolaveradi.

Adabiyotlar

Kamolova S., Ravshanova N. (2023). Oʻzbek va fransuz tillaridagi oʻxshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari. Педагогика и психология в современном мире: теоритические и практикические исследований, 64.

Xursandova K. (2023). Individua-muallif oʻxshatishlari va konnotatsiya.. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 816.

Стернин И.А. (2003). Проблеми анализа структуры значения слова.

Солодуб Й.П., Албрехт Ф.Б. (2014). *Современный русский язык*. Лексика и фразеология современного русского литературного языка.

Барт Р. (2001). *Балзаковский текст: опыт прочтения*.

Mirsagatova P. (2014). Frazеologik birliklar semantikasida konnotatsiyaning oʻrni. International scientific-practical conference on the theme, Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations III, 173-174.

Mahmudov N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi*.

Mirzaaliyev I. (2020) oʻzbek tilida milliy-madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi. *Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali*.

Usmonova Sh. (2019). *Lingvokulturologiya*

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006). Ўзбекистон миллий энциклопедияси

Ашуров Д.А. (2021). “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари. *Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.*

Tosheva D. (2017). *Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari*.

Alefirenko N.F. (2011). Kinguocultural nature of mentality // *Язык. Словесность. Культура*.

N.Mahmudov. (2019). Oʻxshatishladar milliy mentallik jozibasi. *Til va adabiyot taʼlimi*.

Трубеский Н.С. (1984). *Поведения и мышления к языку*.

В. фон. Гумбольдт (1984). *О различии человечества*. Прогресс.

Усмонов Ф.Ф. (2020). Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: *Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс.*

Дмитриева Н.В. (2000). Роль признака в выборе эталона сравнения (на материале адъективных сравнений английского и русского языков): *Дисс. ... канд. филол. наук.* 75.

Одилов Ү. *Тил ва менталитет* (2021). Ўзбек тили ва адабиёти.

IBRATNING “LUG‘ATI SITTA ALSINA” VA “JOME’UL-XUTUT” ASARLARI XUSUSIDA

Ozodaxon Boltabayeva *

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ibratning tilshunos olim sifatida yaratgan “Lug‘ati sitta alsina” hamda “Jome’ul-xutut” asarlari haqida ma’lumot berilgan. O‘zbek tilshunosligi tarixi, lug‘atshunoslik, yozuv madaniyatini o‘rganishda muhim manba sanalgan ushbu asarlar haqida tilshunos olimlar fikri bayon etilgan. Tilshunos olim Ibratning ilmiy faoliyati o‘zbek tili taraqqiyoti rivojida alohida o‘rin tutgani misollar asosida izohlangan.

Ibratning “Lug‘ati sitta alsina” asari keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallab tuzilgan ommabop lingvistik lug‘at hisoblanib, u mingdan ortiq faol

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, University of Business and Science.

soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Ibratning ushbu lugʻati oʻz davrida katta ahamiyat kasb etgan. “Lugʻati sitta alsina” asari rus tili asosiy oʻquv predmetlaridan biri sifatida oʻqitishga ruxsat olingan jadid maktablarida ham foydalanilgan. Isʼhoqxon toʻra Ibratning “Jomeʼ ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) asarida yozuvlarning eng ibtidosi-piktografik yozuvlardan to eng soʻnggi davrning mukammal yozuvlari taraqqiyot tarixi yoritilgan. Asarda qadimgi piktografik bitiklardan ibroniy, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uygʻur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: *tilshunos, lugʻatshunos, arab xati, suls, tavqiʼ, rayhoniy, zulf, turra, husnixat sanʼati, koʻfiy va nasx yozuvlari, taʼliq, nastaʼliq, Xoʻja Mir Ali Tabriziy, antroponimlar, toponimlar.*

ABOUT IBRAT’S “DICTIONARY SITTA ALSINA” AND “JOME’UL-KHUTUT” WORKS

Abstract

This article provides information about Ibrat's works "Lugʻati sitta alsina" and "Jome'ul-khutut" created as a linguist. The opinions of linguists are expressed about these works, which are considered an important source for studying the history of Uzbek linguistics, lexicology, and writing culture. It is explained on the basis of examples that the scientific activity of the linguist scientist Ibrat had a special place in the development of the Uzbek language.

Ibrat's "Lugʻati sitta alsina" is a popular linguistic dictionary designed for a wide readership, and it contains more than a thousand active words. This dictionary of Ibrat gained great importance in its time. The work "Lugʻati sitta alsina" was also used in modern schools where the Russian language was allowed to be taught as one of the main subjects. Ishaq Khan Tora Ibrat's work "Jome' ul-Khutut" (Complex of Inscriptions) covers the history of the development of the most primitive writings - pictographic writings to the most recent perfect writings. The work provides information on a total of 41 different writing systems of the peoples of the world, from ancient pictographic inscriptions to Hebrew and Syriac scripts, from Sanskrit, ancient Phoenician scripts to Greek, Latin scripts, from Indian, Armenian, Georgian scripts to Arabic, Uyghur scripts.

Key words: *linguist, lexicographer, arabic letter, suls, tawqiʼ, rayhani, zulf, turra, husnikhat art, kufi and naskh writings, taʼliq, nastaʼliq, Khoja Mir Ali Tabrizi, antroponyms, toponyms.*

Ibrat tilshunos olim sifatida “Lug‘ati sitta alsina” hamda “Jome‘ul-xutut” asarlarini yaratdi. Uning ushbu asarlari dastlab Ulug‘bek Dolimov, Nurboy Jabborovlar tomonidan ilmiy tahlil etilgan (Ibrat, 2005, 200-b.). O‘zbek lug‘atshunosligi va yozuvlar tarixini o‘rganishda muhim manba sanalgan ushbu asarlar tilshunos olimlar A.Madvaliyev, N.Uluqov, S.Normamatovlar tomonidan ham o‘rganildi.

Ibrat o‘zining 1926-yilda yaratgan “Tarixi madaniyat” asarida keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo‘lmish “Devoni Ibrat” she‘rlar to‘plami yaratganligi haqidagi ma‘lumotni yozib qoldirgan.

Qariyb o‘n yil davom etgan sayohat uning til o‘rganishga bo‘lgan munosabatini mustahkamladi, yangi kuch-g‘ayrat va e‘tiqod bilan ma‘rifatparvarlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Sayohat davomida to‘plagan katta materiallari asosida olti – arabcha, forsha, hindcha, turkcha, o‘zbekcha, ruscha tillarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asarini yaratdi.

Is‘hoqxon Ibratning “Lug‘ati sitta alsina” asari 1901-yil oxirida Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Ma‘lumki, Is‘hoqxonga qadar o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, Vladimir Nalivkin va Mariya Nalivkinalarning “Russko-sartovskiy slovar”, “Sartovsko-russkiy slovar” (Nalivkin V., Nalivkina M. Russko-sartovskiy slovar, 1-chast, Sartovsko-russkiy slovar, 2-chast. – Kazan, 1884. – Toshkent, 1911.) lug‘atlari shular jumlasidandir. Biroq bu kitoblar kirill grafikasida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilini o‘rganuvchi ruslar uchun mo‘ljallangani tufayli o‘zbeklar uchun til o‘rganishga noqulay edi. Ibratning ushbu lug‘atni arab alifbosida tayyorlashiga ham xuddi shu muammo turtki bo‘ladi. Ibrat o‘zbek ma‘rifatparvar pedagoglari orasida birinchi bo‘lib o‘zbek millatiga mansub yoshlarga chet tilini o‘rgatish uchun ko‘p tilli lug‘at tayyorlashga qo‘l urdi va zamondoshlarining talabini qondirishga muvaffaq bo‘ldi. Ibratning “Lug‘ati sitta alsina” asarining titul varag‘iga quyidagilar yozilgan: “Словар на сартовском языке с объяснением русских, арабских, персидских, тюркских, индийских и сартовских слов в мусульманской транскрипции. Составитель казий Наманганского уезда кишлака Тюря-Курган Исхак-Хан-Тюря Ходжа Джунайдулла-Ишанов. Дозволено цензурою. Ташкент 23-сентябр 1901 года. Типо-Литография В.И.Илина в Ташкенте” (Ibrat, 1901, 1-b). Ibrat ushbu lug‘atni yaratish uchun ancha vaqt ilmiy ish olib bordi, chet ellarda katta material to‘pladi. U bu haqda asar muqaddimasida quyidagilarni yozadi: “Sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida bir lison safar ahlini yuz oltun barobarinda ishladiki, biza mushohida bo‘lub, bu lisonlar tahsiliga ko‘shish edub va ham dahr ahlini bir nishon qoldurmak fikri-la necha muddati madid va ahdi baid (uzoq vaqt ichida) bu kitob tadvinina justijo‘ edub, bo‘yla bir kitob suratinda

xalqqa namunador etdim va ham olti lisondan murakkab o'ldug'i uchun "Lug'ati sitta alsina" tasmiya edub, ikki jild (qism) ila tartib etdum" (Ibrat, 1901, 3-b).

Ibratning "Lug'ati sitta alsina" asari keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallab tuzilgan ommabop lingvistik lug'at hisoblanib, u mingdan ortiq faol so'zlarni o'z ichiga oladi. Ibratning ushbu lug'ati o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan. "Lug'ati sitta alsina" asari rus tili asosiy o'quv predmetlaridan biri sifatida o'qitishga ruxsat olingan jadid maktablarida ham foydalanilgan.

Asarni nashrga tayyorlab, kitobxonlarimizga taqdim etish bugungi ilm ahlining oldidagi dolzarb vazifalardan biri edi. Professor Nurboy Jabborov tashabbusi bilan ushbu lug'at eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga o'girildi va nashrga tayyorlandi: "Zamondoshlarining e'tiroficha, Is'hoqxon to'ra Ibrat o'zi qaysi bir fazilatga erishgan bo'lsa, ayni fazilatlarni boshqa odamlarda ham mukammal suratda ko'rmoq istagan. Ana shunday xayrli istak "Lug'ati sitta alsina" ("Olti tilli lug'at") asarining yaratilishiga sabab bo'lgan. Nainki o'tgan XX asr, hatto bugungi XXI yuzyillikda ham uch-to'rt tilli lug'atlar tuzilgani ma'lum, biroq olti tilli lug'at yaratilgan emas. "Lug'ati sitta alsina" – jahon lug'atshunosligi tarixidagi noyob hodisa. Lug'atni yaratar ekan, muallif mazkur tillardagi o'sha zamon uchun eng faol so'zlarni tanlagan. Natijada bu lug'at millat yoshlarining mazkur olti tilda og'zaki muloqot uchun eng zarur so'zlarni o'rganishlariga keng imkoniyat yaratgan. O'zbek leksikografiyasining bugungi kundagi rivoji uchun bu tajribadan ijodiy foydalanish katta samara bergan bo'lar edi" (Jabborov, 2018, 37-b).

Ibratning "Lug'ati sitta alsina" asari 53 sahifadan iborat. Lug'atda o'zbekcha so'zlarning qarshisida arabcha, forsha, turkcha, hindcha va ruscha so'zlarning tarjimalari berilgan. Ushbu lug'at muqaddima bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asarni yaratish uchun bir necha yil material to'plagani, keyingi avlodlarga meros qoldirish maqsadida kitob holiga keltirgani, asarning tuzilishi, tarkibi haqida ma'lumot beradi. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qism alifbo tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik bobchalar ajratilgan. Ushbu qismda 156 ta fe'lning masdar (infinitiv) hamda hozirgi-kelasi zamon shakllari, 12 ta fe'lning o'tgan zamon va buyruq mayli shakllari hamda 5 ta olmosh – jami 341 ta so'z 6 ta ustunga bo'linib, forsha-arabcha-turkcha-sartcha-hindcha-ruscha lug'at shaklida arab alifbosi tartibida berilgan. Bu qismda fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval forsha, keyin arabcha, turkcha, o'zbekcha, hindcha va ruscha tarjimalari bilan berilgan. Asarda jonli tilda ko'p qo'llanadigan eng faol so'zlarning tarjimalarini berish nazarda tutilgan. Unda iste'moldan chiqib ketayotgan arxaik so'zlar deyarli uchramaydi.

Asarning ikkinchi qismi 37 bobdan iborat bo'lib, fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, hasharotlar va parrandalar, oziq-ovqat va boshqa narsa-predmetlarning nomlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qism jami 694 ta ismni (ot, sifat, va son turkumidagi) qamrab olgan bo'lib,

ular 37 ta mavzu guruhiga ajratilib, arabcha-forscha-turkcha-hindcha-sartcha-ruscha lugʻat shaklida olti ustun qilib berilgan (Madvaliyev, 2017, 53-b). Masalan, birinchi mavzu “Aʼzoyi hayvonot” (“Jonzotlarning aʼzolari”) deb nomlanib, unda 61 ta aʼzo nomi keltirilgan. Ikkinchi mavzuda 8 ta nom, toʻqqizinchi mavzu kasb egalari nomlarini (40 ta), oʻn sakkizinchi mavzu uy-joy, qurilishga oid atamalarni (47 ta), yigirma oltinchi mavzu kasallik nomlarini (15 ta), yigirma sakkizinchi va yigirma toʻqqizinchi mavzular sanoq va tartib sonlar nomlarini (40 ta), oʻttiz birinchi mavzu ranglarning nomlarini (8 ta), oʻttiz toʻrtinchi mavzu kun, oy, vaqtni ifodalovchi nomlarni (26 ta), oʻttiz oltinchi va oʻttiz yettinchi mavzular yaxshi axloq va goʻzallikni (9 ta) hamda yomon xulq va xunuklikni (14 ta) ifodalovchi ot va sifatlarni oʻz ichiga oladi. Umuman olganda, ushbu lugʻat feʼl, ot, sifat, son va olmosh turkumlariga oid 1035 ta soʻzning olti tildagi ifodasini qamrab olganligi bilan oʻzbek leksikografiyasi tarixida alohida oʻrin tutadi.

Ushbu lugʻatni tuzishda muallif leksikografiyadagi eng ilgʻor va samarali ideografik usulni tanlagan. Bu usulning afzalliklari shundaki, kerakli soʻzni izlagan oʻquvchi mavzular boʻyicha osonlik bilan topa oladi. Ibratning lugʻatshunoslik sohasidagi eʼtirofga loyiq xizmati shundaki, oʻzbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, yaʼni turli til oilalariga mansub oltita til materiallarini qamrab olgan va ulardagi soʻzlarning oʻzaro qiyosiy tarjimalari berilgan lugʻat tuzilgan emas. Lugʻat tuzishda XX asr boshlariga oid neologizmlardan ham foydalanish Ibratning oʻzbek tili lugʻat boyligini rivojlantirishga maʼlum darajada qoʻshgan hissasi boʻldi.

Isʼhoqxon Ibrat «Lugʻati sitta alsina» asarini yaratishda yangicha yoʻnalishdagi gʻarb lugʻatchiligi tamoyillari bilan birga, anʼanaviy sharq lugʻatchiligi prinsiplariga ham tayanadi. Lugʻatda feʼllarni masdar (*tutmak, tikmak, kiymak*), hozirgi-kelasi zamon (*oʻynar, yogʻar, xohlar*), oʻtgan zamon (*yotgan, turgan*) hamda buyruq mayllarida (*kyelma, oʻrganma*) berilishi; ismlarning esa 37 ta tematik guruhga ajratilib, ularning tarjimalari bilan berilishi jadid davrigacha boʻlgan sharq lugʻatchiligi, xususan, arab lugʻatchiligi anʼanasi taʼsiri borligidan dalolat beradi. Shuningdek, lugʻat mavzular boʻyicha “*Moziy va amr*” (*Oʻtgan zamon va buyruq mayli*), “*Almutakallim*” (*Olmoshlar*), “*Aʼzoyi hayvonot*” (*Jonzotlarning aʼzolari*), “*Asmou ahli qarobat*” (*Qarindoshlik nomlari*), “*Asmoi aqsomi taom*” (*Taom nomlari*), “*Asmoi nagʻamot*” (*Musiqa asboblari nomlari*), “*Aqsomi rang*” (*Rang nomlari*) kabi bir necha boʻlimlarga boʻlingan va nomlangan. Lugʻatdagi oʻzbekcha soʻzlar struktasi haqida maʼlumot beradigan boʻlsak, unda tub va yasama soʻzlar qatorida *koʻfiki daryo, bangi devona, xishti puxta, toshi faysa, ahli hikmat* kabi bir qancha arabcha, forsha izofali birikmalar ham mavjudligi kuzatiladi. Lugʻatda *-gar, -paz, -kor, -poʻsh, -shunos, -xona* kabi arab va forsha soʻz yasovchi affiksalar morfemalar yordamida hosil qilingan leksemalardan ham koʻp foydalanilgan:

yog'furush, g'allafurush, zinpo'sh, miroxur, arqongar, dorishunos, kavobpaz, qog'azgar, kamongar kabi. Shuningdek, fe'llar izohi berilgan bo'limda tub fe'llar bilan birga *xafa bo'lgan, g'alva qilmak, hosil qilmoq, zikr qilmoq, sulh qilmoq, ma'qul qilmak, qaror qilmak, gumon qilmoq, sabr qilur, zohir bo'lur* kabi 72 ta qo'shma fe'lning olti tildagi tarjimasi berilgan.

Is'hoqxon to'ra Ibratning tilshunoslikka oid asarlaridan yana biri **“Jome' ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi)** bo'lib, bu asar yozuvlar tarixiga bag'ishlangan. Asar arab yozuvi tarixi va dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv sistemasi haqidagi ma'lumotlari bilan e'tiborga molikdir. Shuningdek, asar husnixat san'atiga oid ilmlar bilan boyitilgan. Is'hoqxon to'ra Ibratning “Jome' ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) asarida yozuvlarning eng ibtidosi- piktografik yozuvlardan to eng so'nggi davrning mukammal yozuvlari taraqqiyot tarixi yoritilgan. Asarda qadimgi piktografik bitiklardan ibroniy, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uyg'ur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida ma'lumot berilgan. O'sha davrda Turkistonda amalda bo'lgan arab xatining suls, tavqi', rayhoni, zulf, humoyun, turra kabi shakllari to'g'risida, husnixat san'ati xususida fikrlar bildirilgan. Muallif arab xati haqida so'z yuritib, dastlab ko'fiy va nasx yozuvlari joriy bo'lib, ulardan suls xati yaratilganini, sulsdan ta'liq, bu ikkisidan nasta'liq xati yuzaga kelganini aniqlaydi. Nasta'liq 900-hijriyda eronlik Xo'ja Mir Ali Tabriziy tomonidan ixtiro qilingani, bu xat Arabistonda joriy bo'lmagani, undan, asosan, Hindiston, Turkiston va Koshg'ar taraflarda istifoda etilgani haqida yozadi. Asar 132 sahifadan iborat bo'lib, 1912-yilda “Matbaayi Is'hoqiya”da nashr qilingan. Is'hoqxon Ibrat ushbu asarning yaratilish tarixi va undan ko'zlagan maqsadini asarda quyidagicha bayon etadi: “Bul xatlarni boqiy va tariq qarori muddao bo'lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujubi: mazmunicha botadvin aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazlu kamollarga manzur qilib, millatga nishon qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqini naf' olmoqqa muddao bo'lib, adabiyi milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim. Millatimiz forsiylariga ikkinchi tab'ada forsiy qilinur va jami xatlarga jome' uchun “Jome' ul- xutut” tasmiya edub, o'z xatimiz va o'z tilimiz va o'z Matbaayimizda tab' qilmoq maqsad bo'lib, tab'i sharif, ahli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim”. (Ibrat. 1912. 6-b). 1912-yilda “Matbaayi Is'hoqiya”da nashr qilingan Is'hoqxon Ibratning ushbu asari bugungi kunda O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi va Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi arxivida saqlanadi. 2005-yil Toshkentda “O'zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyida chop etilgan Is'hoqxon to'ra Ibratning “Tanlangan asarlar”ida taniqli olimlarimiz Ulug'bek Dolimov va Nurboy Jabborovlar tomonidan “Jome' ul-xutut”da keltirilgan sanskrit, qadimiy finikiy, yunon, qadimiy kufiy, qadimiy yahudiy

va slavyan yozuvlarining foto namunalari ilova etilgan. Shuningdek, Ibratning «Lug‘ati sittati alsina» asari va uning o‘ziga xos ilmiy xususiyati yoritilgan. (Ibrat, 2005, 17-b.)

Is‘hoqxon to‘ra Ibratning bu ikki asari matni ustida ilmiy izlanish olib borish va ularni nashrga tayyorlab, kitobxonlarimizga taqdim etish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

Boltaboyeva O. (2019). XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an‘analari, yangilanishi: *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.*

Vohidova K. (2002). Is‘hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi: *Tar. fan. nomz. ... diss.*

Vohidova K. (2008). *Is‘hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi.* Toshkent. Fan.

Dolimov U. (1994). *Is‘hoqxon Ibrat.* Toshkent. Sharq.

Dolimov U. (2018). *Jahon e‘tirof etgan ma‘rifatparvar / Namangan – mutafakkirlar maskani.*

Jabborov N. (2018). *Is‘hoqxon Ibrat va zamonamiz / Namangan – mutafakkirlar maskani.* –

Ibrat I. *Tanlangan asarlar.* Toshkent.

Ibrat I. (2012). *Fiqhi Kaydoniy nazmi / Nashrga tayyorlovchi: N.Nasrullayev.* Movarounnahr. Toshkent.

Ibrat I. (2019). *Hikmatli so‘zlar / Nashrga tayyorlovchi: Uluqov N. Navro‘z.* Toshkent.

Is‘hoqxon Ibrat. (1901). *Lug‘ati sittati alsina.* Toshkent.

Karşılaştırmalı türk lehşeleri sozlüğü (o‘n tilli qiyosiy lug‘at).

Madvaliyev A. (2017). Is‘hoqxon Ibratning olti tilli lug‘ati // *O‘zbek tili va adabiyoti. 4-son.*

Madvaliyev A. (2018). *Is‘hoqxon Ibratning olti tilli lug‘ati / Namangan – mutafakkirlar maskani.* Namangan.

Muhammad Yoqub Chingiy (2003) // *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild.* Toshkent.

Uluqov N., Normamatov S. (2018). *Is‘hoqxon Ibratning tilshunoslik faoliyati / Namangan – mutafakkirlar maskani.*

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivi. 1009-fond, 15-del.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA METAFORARIZATSIYA

Maftuna Sharipova *

Annotatsiya

Asrlar davomida har bir xalq kundalik nutqida ibora, matal, maqol kabi birliklarni qo‘llaganki, ular etnik guruhlar hayotini obrazli tarzda aks ettirish bilan alohida ajralib turadi. Maqollar avlodlar tarixi va ijtimoiy hayot tajribasini umumlashtiruvchi qisqa, aniq, lo‘nda birliklar sifatida inson hayoti faoliyatining turli qirralari, atrofdagi olam hodisalarini yorqin va chuqur ifodalashi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu asosda mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollari tarkibida uchraydigan metafora hodisasi o‘rganilgan. Ushbu hodisani tadqiq etgan antik davr notiqi Mark Fabiy Kvintialian, tadqiqotchi D.Lakoff va M.Jonsonlar, Charlz Balli, A.N.Baranov

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti, behruz.lux.stal93@mail.ru.

kabi olimlarning fikri hamda o'zbek xalq maqollarida uchraydigan metafora mavzuviy guruhlariga bo'lingan.

Kalit so'zlar: *metaforizatsiya, sema, guruh, maqol, leksema, lingvokulturologiya, ijobiylik, salbiylik, ko'chma ma'no, milliylik.*

METAPHORARIZATION IN UZBEK PROVERBS

Annotation

For centuries, every nation has used expressions, sayings, and proverbs in their daily speech, which are distinguished by their figurative representation of the life of ethnic groups. Proverbs, as short, clear, concise units summarizing the history of generations and the experience of social life, are unique in that they vividly and deeply express the various aspects of human life, the events of the surrounding world. On this basis, this article studies the phenomenon of metaphor found in Uzbek folk proverbs. The opinion of scholars such as Mark Fabius Quintilian, researcher D. Lakoff and M. Johnson, Charles Bally, A. N. Baranov, who studied this phenomenon, and the phenomenon of metaphor in folk proverbs formed on the basis of "sheep" LMG was studied by dividing into thematic groups.

Key words: *metaphorization, sema, group, proverb, lexeme, linguistic culture, positivity, negativity, figurative meaning, nationality.*

Ma'lumki, ko'chma ma'no faqat nutqda voqelanadi. Shuning uchun ular nutqiy ko'chma ma'nolar deb yuritiladi. Semema tarkibidagi semalar asosida nutqda ko'chma ma'no hosil qilish, odatda, terminlardan boshqa deyarli barcha birliklar uchun xos. Lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida maydonga kelgan ilmiy qarashlar metaforani ma'lum bir xalqning milliy, o'ziga xos, spetsifik dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim vositalardan biri tarzida o'rganishning dolzarbligini ko'rsatdi.

Antik davr notiqi Mark Fabiy Kvintialian metaforani guruhlariga ajratgan holda tadqiq etgan: 1) mubolag'ali metaforalar; 2) maqomni pasaytiruvchi metaforalar; 3) beo'xshov metaforalar; 4) metaforalarning haddan tashqari ko'p keltirilishi; 5) juda uzoq o'xshatish asosida yasalgan "og'ir metaforalar"; 6) faqat nazm uchun mo'ljallangan metaforalarning nasrda qo'llanishi; 7) quyi metaforalar; 8) noo'rin metaforalar; 9) jirkanch metaforalar (Прокончук, 2009, 75–78-b.)

Tadqiqotchi D.Lakoff va M.Jonsonlar metaforani insonning butun kundalik hayotiga kirib boruvchi va nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatlarida namoyon bo'luvchi birlik sifatida e'tirof etishadi. Metafora biror-bir holat yoki hodisaning mohiyatini, g'oyasini darhol anglab olishga imkon berishini ta'kidlaydi.

Charlz Ballining izlanish natijalariga ko'ra metafora turli darajadagi tasvirlarda namoyon bo'ladi, xususan: 1) aniq tasvir; 2) zaiflashgan (hissiy) tasvir 3) o'lik tasvir.

A.N.Baranov metaforani “ikki ma’naviy birlikning o‘zaro birlashib yaxlit mazmun orqali ta’sir qiluvchi murakkab birlik” sifatida baholaydi. Bundan tashqari, olim o‘zining kognitiv metafora nazariyasida “o‘chirilgan” hozirda mavjud emas, (“o‘lik”) va hozirda mavjud, yashayotgan (“tirik”) metaforalar haqida alohida ma’lumot beradi. “O‘lik” metaforalar – metaforik xususiyati unutilgan va tilda ko‘p qo‘llangani sababli o‘z jozibadorligini ham yo‘qotgan birliklardir. O‘chgan metaforada tinglovchi metaforaning asl va majoziy ma’nosi o‘rtasidagi yashirin ziddiyatni ilg‘amaydi. “Tirik” metaforalarda, aksincha, to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya’ni ko‘chma ma’no o‘rtasidagi qarama-qarshilik aniq seziladi, natijada adresat ma’lumotni paydo bo‘lgan tasvir asosida oson qabul qiladi.

Jonli metaforalarda metaforik modelning asosiy emas, balki kam tarqalgan turlari qo‘shimcha belgilar vositasida qo‘llanadi, ular yordamida kognitiv metaforik model faollashtiriladi. Ko‘pincha, o‘chgan metafora o‘zgartirilib, kengaytirilib yoki to‘ldirilgandan so‘ng jonli metaforalarga aylanadi.

Nutqda voqelanadigan barqaror birliklar tarkibida qo‘llangan zoonimlarning aksariyatida metafora hodisasi kuzatiladi. Ular insonning ichki va tashqi olamdagi faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan, shakllangan. Shu sababli ham bunday birliklar ifodalagan ma’nolar zahirida inson, uning xatti-harakati, fe’l-atvori, yashash tarzi, fikrlari yotadi. Jumladan, maqol –millatning ma’naviy dunyoqarashini ochib beruvchi lingvistik vosita, yuksak tafakkur tarzi namunasi. Maqollarning muhim xususiyati xalq hayoti, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, orzu-niyatlari, ma’naviy olamining tajribalarga tayangan holda axloq-odob berish ruhida ifoda etilishidir. Har bir xalq maqolida shu xalqning axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari o‘z ifodasini topadi. Maqollar mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, olimlar ularni mavzusiga, tashiydigan ma’nosiga va boshqa jihatlariga ko‘ra tadqiq etgan va kitob holida nashr ettirgan.

Metaforik maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish orqali ularning qay tarzda xalq tiliga ko‘chganligi, paydo bo‘lish tarixi, konseptual sistemasi, xalqning hayot tarzi kabi masalalar hisobga olinadi. Bu jarayonda doimo inson omili yetakchilik qiladi. Hayvonlar haqidagi deyarli barcha maqollar bevosita insonga daxldor. Binobarin, tadqiqotda tanlangan maqollarning ko‘pchiligi antroposentrik mohiyatga ega. Bu maqollarda insonning tashqi, individual, axloqiy, jismoniy, hissiy, psixologik va mental xususiyatlariga, uning ijtimoiy holatiga, qadriyatlar tizimiga, faoliyatiga va xatti-harakat xususiyatlariga alohida e’tibor berildi. Maqol semantik jihatdan ritorik ifodaga, poetik jihatdan so‘zlarning ko‘chma ma’nolar tizimiga tayanar ekan, semantik tahlil jarayoni maqollarni turli parametrlarga ajratilishi mumkinligini ko‘rsatdi. “Qo‘y” LMGiga oid birliklar ishtirok etgan maqollarni metaforalashuvi jihatidan mavzuviy turlarga ajratish mumkin. Jumladan,

Insonning ko‘rinishini ifodalovchi maqollar



Shaxsni tavsiflashda tadqiqotchilar, odatda, insonning tashqi ko‘rinishi, yoshi, jismoniy va ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi, mehnat faoliyati, xulq-atvori, axloqiy munosabat va qadriyatlariga e’tibor qaratishadi. Kishilar bilan munosabatga kirishish jarayonida insonning ichki va tashqi, ijobiy hamda salbiy xususiyatlari bilan bir qatorda uning ko‘rinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kundalik turmushda to‘planadigan bilim, kuzatish, mulohazalar ma’lum holatga nisbatan qarorga kelish zamiriga quriladi. *“Qo‘yni sarasi uzoqdan bilinar”* maqolida, odatda, insonning tashqi holatiga, ko‘rinishiga qarab baho berilishi nazarda tutilgan. Kishi uchun notanish insonning tashqi jihati ham u haqida ma’lum darajada tasavvur uyg‘otishga asos bo‘la oladi. Ushbu fikrni *“Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, Og‘a bo‘lar yigitning peshonasi keng bo‘lur”* maqoli orqali ham davom ettirish mumkin. Og‘a so‘zi *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”*da keltirilishicha, 5 turdagi ma’no-mazmunni ifodalaydi. 1. Ayn. aka. 2. Tug‘ishgan akaday yaqin, qadrdon kishi. 3. Yurtning, elning kattasi, hokimi. 4. Turli lavozim va unvon nomlari tarkibiga kiradi: haram og‘asi, eshik og‘asi. 5. O‘zidan kattallarga nisbatan murojaat shakli. Maqolning har ikkila qismida ham gradatsiya kuzatiladi, ammo ular darajalanish asosiga ko‘ra farqlanadi. Chunonchi, *qo‘chqor – qo‘zi* so‘zlari o‘zaro yoshga nisbatan, *og‘a – yigit* so‘zlari mavqega nisbatan darajalanishni yuzaga keltirgan. *Qo‘chqor* zoomorfi *og‘a* leksemasiga ishora qilib, rahbar, boshliq, yetakchi semasida reallashganini kuzatish mumkin. Maqolning varianti: *Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lar, odam bo‘lar bolaning etak-yengi keng bo‘lar*. Gulxaniyning *“Zarbulmasal”* asarida keltirilgan *...Anda Yapaloqqush aydi: Ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurkim: “Yaxshi nafas – yarim mol”, bolamning asbobi kulonkirligi minkori bilan changaligidin ma’lum va ravshan emasdurmu? Anda Ko‘rqush aydi: “Rost aytursan: “Qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, og‘o bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur”* parchasi ham fikrimizni dalillaydi.

Insonning yuqori darajadagi qadr-qimmatini ifodalovchi maqollar

Insonning turli xarakter-xususiyatini ifodalashda hayvonning jonli mavjudot sifatidagi jihatlarini atovchi leksemalar keng qo‘llaniladi va bunda metaforik modellar ishga tushadi. *Eshakning boshi bo‘lguncha, Qo‘yning oyog‘i bo‘l*. Qadimiy diniy tasavvurlarga ko‘ra, *“Qo‘y”* insonni muhofaza etuvchi jonivor hisoblanib, bu uning e‘zozlanishi sabablaridan bo‘lgan. *“Qo‘y”*ning ins-u jinslarga va yomon ko‘zlarga nisbatan himoyachi hisoblanganligidan ularga boshqa jonivorlarkabi tumor taqilmagan. Bundan tashqari, chorvachilik xo‘jaligidagi ayrim anjomlarga (*cho‘pon tayog‘i, no‘xta, tizgin, yugan* (jugan), *qo‘riq* (otlarni ilintiruvchi vosita) va boshqalarga muqaddas buyumlar sifatida qaralgan. Cho‘ponlarning asosiy ishquroli bo‘lgan tayog‘i ham o‘ziga xos magik (afsungarlik) xususiyatiga ega, deb hisoblangan. Eshak hayvonlar ichida qimmat va qiymat jihatdan past sanaladigan jonivorlardandir (*“It izzatni bilmaydi, eshak – tarbiyani”*; Eshakning piri – shayton).

Shu tufayli baraka timsoli bo'lgan qo'yga nisbatan zid qo'llanishi tabiiy. Qo'y halollik ramzi, eshak esa aksincha. Turli xalq paremlarida ham eshak qadrsiz hayvon sifatida ifodalanishini kuzatish mumkin. (*"Fikrlar – taxtda, eshak – loyda"* qalmiq xalq maqoli). *Maqolda eshak – qo'y zoonimlari; bosh – oyoq leksemalari kontekstual antonimiya hodisasini yuzaga keltirishga xizmat qilgan.* Katta mansab, martabaga erishmoqchi bo'lgan kishidan ko'ra halol, mehnatkash, kichik martabasidan baraka topgan, insonlarga foydasi tegadigan kishi afzal degan ma'noda qo'llanadi. Mazkur maqolning variant va ma'nodoshlari: "Eshakning boshi bo'lguncha, qo'yning quyrug'i bo'l", "Filning dumi bo'lishdan ko'ra, tuyaning boshi bo'lish yaxshidir" (qalmiq xalq maqoli). *Echkining boshi bo'lguncha, Qo'yning quyrug'i bo'l.* Echkining boshi bo'lishdan, qo'yning quyrug'i (ayn. dum ma'nosida bu quyruqning o'z ma'nosi, ko'chma ma'noda esa *doim birovga ergashib yuradigan, uning xizmatiga tayyor turadigan shaxs haqida, dum.* Soli sovuq o'z quyrug'iga buyurdi. – Jumanboy, pastdan palos olib boring, choping (M.Ismoiliy. Farg'ona t.o.). Shuningdek, *Topgan qo'y keltirar, Topmagan jo'jaro'z* maqolida "Qo'y" LMGi orqali boy, o'ziga to'q kishilar qadrli, yuksak e'zoz-e'tiborga loyiq kishilarga o'z himmatini "qo'y" berish orqali namoyon etishi, jo'jaro'z (yosh, urushqoq xo'roz (*Ўзбек тилининг изоҳли луғати*, 59) leksemasi orqali esa, aksincha, "qo'li kalta" insonlar imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda ish ko'rishi ifodalangan. Mazkur maqolda "Qo'y" LMGi hurmat, yuksak e'tibor, qadr-qimmat ma'nolarini ifodalab kelgan. Ijtimoiy hayotda inson turmush tarzi, yashash sharoiti, moddiy ta'minoti bir maromda kechmagani sabali to'y, marosim, tadbirlarda in'om sifatida etiladigan uy hayvonlari ham turli xil bo'lgan. Masalan, kim uchundir toy eng qimmatbaho tortiq, sovg'a hisoblansa, boshqa birov uchun xuddi shu vazifani qo'y bajargan.

Toy qo'y jo'jaro'z



Insonning ojiz holatini ifodalovchi maqollar

Hayvonning xususiyatlari va xatti-harakatlarini ifodalashda mental dunyoqarashdagi muhim o'xshatish va qiyoslashlardan unumli foydalaniladi. *Yo'lbars yo'lbarsdir, Hech qachon qo'zichoq bo'lmas* – o'zbek xalqi mental dunyoqarashida yo'lbars, ko'pincha, kuchli, bahodir, ulug'vor erkak kishi (40, 103) ga, qo'zichoq – ruhan va jismonan zaif, qat'iyatsiz insonlarga qiyoslanadi. Hayotda yo'lbars kuch-quvvatga to'lgan, qudrat manbayi sifatida namoyon bo'lsa, qo'zichoq unga zid ravishda yosh, himoyasiz, qo'rqqoq kimsalar obrazini ifodalashda keng qo'llanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida *qo'zi, qo'zichoq* ma'nosini shu mikrosistemaga kiruvchi *shirboz* – "to'q, semiz uch-to'rt oylik qo'zi; *shishak* – bir yoshli qo'y, to'qli – bir yarim yoshga yetmagan, qochirilmagan urg'ochi qo'zi leksemalari ham ifodalaydi.

Yolg‘iz qo‘yning terisi po‘stin bo‘lmas – yolg‘iz inson ulkan ishlar qarshisida chorasiz kishiga aylanishi, aksincha, o‘zaro birlashganlar ulkan ishlarga qodir bo‘lishi ifodalangan. O‘zbek milliy-madaniy hayotini o‘zida aks etturuvchi ushbu maqol orqali xalqimizdagi hamjihatlik fazilati ulug‘lanib, yolg‘izlik qoralangan. Maqolning varianti: *Yolg‘iz qo‘yni bo‘ri yer*; sinonimi: *Ayрилganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer*.


“Qo‘y” LMGining “ojizlik” semasi faollashgan *Bo‘ri bor bo‘lsin desang, Qo‘y but bo‘lmas* maqolida *bo‘ri* – dovyurak, yovqur, mard (*Ўзбек тилининг изоҳли луғати*, 19-б.) yoxud bir-biriga shafqatsizlik bilan haqsiz ravishda yomonlik qiladigan va shunga urinadigan insonlarga qiyoslanadi. Bo‘riga rahm qilgan cho‘pon o‘z qo‘ylaridan ajrab qolishi nazarda tutilgan. Majoziy ma’noda zolim kimsalarni omon saqlash evaziga rahmdil, sofdil insonlar boy berilishi mumkinligi ta’kidlangan.

Variantlari:

- 1) “Bo‘riga rahm qilsang, qo‘yning sho‘ri quriydi”;
- 2) “Bo‘ri bor ekan, qo‘yga hech qachon omonlik yo‘q”;
- 3) “Bir bo‘ri o‘lgani bilan qo‘ylar omon yasholmas”.

Sinonimlari:

- 1) “Tulkiga rahm qilsang, tovug‘ingdan ajraysan”;
- 2) “Erkiga qo‘ysang xo‘jani, yotib ichar go‘jani”;
- 3) “G‘aribni ko‘rsang – ber, xo‘jani ko‘rsang – ur!”;
- 4) “Ursang, boyga ham kaltak o‘tadi, yulqisang, yoqasi ham yirtiladi (*O‘zbek xalq maqollari*, 75-б.)”.



1-rasm. “Qo‘y” LMGi ishtirok etgan maqollarni metaforalashuvi jihatidan mavzuviy guruhlariga bo‘linishi

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy-madaniy xususiyatlarni o‘rganish va saqlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib borayotgan hozirgi davrda og‘zaki ijod namunalarini lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim masala sifatida maydonga chiqadi. Og‘zaki ijodning sermahsul turi maqol bo‘lib, u millat va uning tili bilan birga tug‘iladi, yashaydi; uning zamirida xalqning kechinmalari, dunyoviy tajribasi, falsafasi ifodalangan bo‘ladi.

Har bir soha vakili maqolni turli jihatlariga ko‘ra tahlil qiladi: tarixchilar ulardan xalq qadimiy odatlari va antik davr voqealari aks-sadosini topsa; etnograflar unutilgan yoki unutilayotgan urf-odatlar va ularning tabiati haqida tasavvurga ega bo‘lsa; tilshunoslar xalq tafakkurining bebaho durdonalaridan kelib chiquvchi xulosalarni lingvistik nuqtayi nazardan konseptlar shaklida tadqiq etadi. Asrlar davomida har bir xalq kundalik nutqida ibora, matal, maqol kabi birliklarni qo‘llaganki, ular etnik guruhlar hayotini obrazli tarzda aks ettirish bilan alohida ajralib turadi. Maqollar avlodlar tarixi va ijtimoiy hayot tajribasini umumlashtiruvchi qisqa, aniq, lo‘nda birliklar sifatida inson hayoti faoliyatining turli qirralari, atrofdagi olam hodisalarini yorqin va chuqur ifodalashi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Maqollar ma‘lum etnik qatlamning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, ma‘naviy salohiyatini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu madaniyatlararo o‘xshash hamda farqli jihatlarni o‘rganish imkonini beradi. Jahon tilshunosligida zoonimlar, zoonim komponentli birliklarning o‘rganilishida, asosan, qiyosiy tahlil yetakchilik qilganligi; turkiy tilshunoslikda, odatda, lingvokulturologik tahlil asoslariga e‘tibor qaratilganligi ko‘zga tashlanadi.

Xalqning tilda aks etgan madaniy o‘ziga xosligi ijtimoiy-maishiy, tarixiy, geografik, psixologik kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lib; ular xalq moddiy va ma‘naviy hayotining umuminsoniy emas, balki o‘ziga xos milliy-mental xususiyatlarini ifodalashga xoslangan bo‘ladi. Chorva nomlari tarkibiga kiruvchi “Qo‘y” LMGi ishtirok etgan maqollardagi metafora hodisasi insonning *ko‘rinishi yoki holati, kuch-qudrati, ojizligi, qadr-qimmatini* (insonning qadr-qimmatini nisbatlab ifodalovchi, insonning yuqori darajadagi qadr-qimmatini ifodalovchi), *salbiy xususiyatlari, ijobiy xislatlarini* ifodalovchi ma‘naviy guruhlarda namoyon bo‘lishi ayonlashdi hamda ushbu guruhga kiruvchi xalq maqollari tahlilga tortildi. Tahlillar maqollarda ushbu leksemalar ko‘proq *insonning ojiz* hamda *salbiy holatlarini* ifodalashga xoslanganligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar

Прокопчук О.Г. (2009). Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции. (Аристотель и Квинтилиан). Весник Беларускаго Дзяржаўнага ўніверсітэта. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагагіка.

Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (1990), Hikmatnoma. Toshkent.

O'zbek xalq maqollari. (1987). 1-jild. A-O. Toshkent. Fan.

Ўзбек тилининг изоҳли лугати. (1981) Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Рус тили.

O'zbek tilining izohli lug'ati. (1981). Ikki jildlik. 1-jild. A-R. Rus tili. Toshkent.

O'zbek tilining izohli lug'ati. (1981). Ikki jildlik. 2-jild. Moskva. Rus tili. Toshkent.

Ўзбек халқ мақоллари. (1989). Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.

Холманова З. Тошева Д. (2016). Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли лугати. Turon zamin ziyo. Toshkent.

O'zbek xalq maqollari. (1988). 2-jild. P-H. Fan. Toshkent.

SAMARQAND VILOYATI O'ZBEK SHEVALARINING O'RGANILISHI XUSUSIDA

Zilola Tillabayeva *

Annotatsiya

Shevalarning lug'aviy tarkibi, qo'llanish hududi, chegaralarini belgilash orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularni o'rganish bo'yicha xorij va o'zbek tilshunosligida bir qancha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qayd etish lozimki, dialektlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asta-sekinlik bilan rivojlanib, uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu ishlarda olimlar mavzu mohiyatini yoritishda tadqiq uchun tanlangan hududning joylashuvi, turli millatlar yashashi, o'zaro muloqotda qaysi tillarning ko'p qo'llanishiga ko'ra tillar orasida aloqalarning mavjudligi natijasida kelib chiquvchi bilingvizm nuqtai nazaridan

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi tillabayeva87@bk.

yondashganlar. O'zbek tilshunosligida turkiy xalqlar shevalarini o'rganish bo'yicha M.Koshg'ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy kabi adiblar ham kuzatishlar olib borganligi ma'lum. Keyinchalik, ko'plab olimlarimiz tomonidan hudud shevalarini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Maqolada ana shunday tadqiqotlarning ayrimlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *dialektologiya, lingvistika, sheva, qarluq, aralash sheva, qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz, lahja.*

ON THE STUDY OF UZBEK DIALECTS OF SAMARKAND REGION

Abstract

The history of studying dialects by defining their lexical composition, area of use, and their boundaries goes back to a long time ago. A number of significant studies have been carried out in foreign and uzbek linguistics to study them. It should be noted that the study of the specific features of dialects developed gradually, and researches related to the development of its scientific and theoretical foundations appeared. In these studies, scientists have approached the topic from the point of view of the location of the area chosen for research, the presence of different nationalities, the existence of connections between languages, which languages are used in mutual communication. It is known that writers such as M. Koshgari, M. Zamakshari, A. Navoi made observations in Uzbek linguistics on the study of dialects of turkic peoples. Later, many of our scientists carried out significant work on the study of regional dialects. We touched on some of these works in the article.

Key words: *dialectology, linguistics, dialect, karluk, mixed dialect, karluk-chigil-uyghur, kipchak, oghuz, dialect.*

Ma'lumki, XX asrning 20- va 30-yillarini o'zbek shevalarining chuqur va atroflicha o'rganilish davri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Ulug' Tursunov, G'ozi Olim Yunusov, Y.D.Polivanov, Hodi Zarifov, V.Reshetov kabi olimlarning olib borgan ishlari tahsinga sazovor. Jumladan, "Samarqand shahar shevasining unlilari" (1928), "Samarqand o'zbeklari tilining namunasi" (1935), "O'zbek lahjalari tasnifida bir tajriba" (1935), "Lug'at hamda termin to'plovchilarga qo'llanma" (1934) kabi shevashunoslik tadqiqotlar shular jumlasidan. 1930-yillardan boshlab, aynan Samarqand viloyati shevalarini o'rganishga bag'ishlangan ekspeditsiyalar tashkil etilib, Samarqand shahri, Urgut tumani, boshqa tumanlar o'zbek shevalari bo'yicha boy material yig'ib borilgan. Bunday mashaqqatli ishlarning tashkil qilinishida olim Ulug' Tursunovning xizmatlari beqiyos (Ражабов, 1996, 34-35-b.).

50-yillar va undan keyingi yillar o'zbek dialektologiyasining rivojlanishi uchun yana bir bosqich sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, o'zbek xalq shevalari keng

ko‘lamda o‘rganila boshlandi. 1950-yillar o‘rtalarida Samarqand viloyati shevalarining o‘rganilishi kengayib ketdi. “Natijada Qarnob, Kattaqo‘rg‘on, Payshanba, Yangiqo‘rg‘ondagi qarluq-chigil-uyg‘ur shevalari; Narpay, Kattaqo‘rg‘on, Xatirchi, Ishtixon, Nurota, Urgut, Pastdarg‘om va Samarqand tumanlaridagi turli xil shevalar bo‘yicha boy materiallar yig‘ildi. Samarqand shevalari bo‘yicha to‘plangan materiallar asosida ko‘plab ilmiy ishlar nashr etildi. Bu ishlar “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Sovet maktabi”, “SamDU ilmiy asarlari”, “ToshDU ilmiy asarlari” kabi turli jurnal va to‘plamlarda bosilib chiqdi. Ushbu mavzuga bevosita aloqador bo‘lgan “O‘zbek dialektologiyasi kursidan materiallar” (1962), “O‘zbek dialektologiyasidan ocherklar” (1971), “O‘zbek tilining g‘arbiy Samarqand shevalari” (1977), “O‘zbek xalq shevalarida fe‘lning morfologik tuzilishi” (1990) kabi ocherklar, monografiyalar va qator qo‘llanmalar nashr etildi (Ражабов, 1996, 35-b.).

V.Reshetov tomonidan o‘zbek dialektologiyasi fanining dolzarb nazariy hamda amaliy masalalari monografik yo‘lda tadqiq qilindi. U o‘zbek dialektologiyasi uchun nihoyatda muhim ishlarni yo‘lga qo‘ydi. Jumladan, o‘zbek shevalarini o‘zbek xalqining etnogenezi bilan bog‘lab, tarixiy-lingvistik usulda tadqiq qildi. O‘zbek adabiy tilining dialektal asosini, o‘zbek shevalarining hududiy aralash va turk bo‘lmagan tillar bilan o‘zaro aloqasini aniqlashga harakat qildi. Qolaversa, asarlarida turli sitemadagi tillarning o‘zaro aloqasi, bir-biriga ta’siri, ijtimoiy bilingvizmning kelib chiqish masalalarini tahlil qilgan. O‘zbek va tojik tillar munosabatiga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, ba’zi sheva hamda lahjalarni lingvistik geografiya usuli yordamida tavsif etishdan tashqari, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek dialektologiyasini o‘qitish ishlarini yo‘lga qo‘yishga katta ahamiyat berdi (Решетов, 1941).

U.Tursunov o‘zining ilmiy faoliyati davrida o‘zbek tilshunosligining ko‘plab sohalariga bag‘ishlab 90dan ortiq ishlar e’lon qildi. Xususan, o‘zbek xalq shevalariga doir ilmiy izlanishlar ham olib bordi (Турсунов, 1960). O‘zbek shevalari o‘zbek adabiy tilini oziqlantirib turuvchi manba bo‘lish barobarida o‘zbek shevalari uchun xos bo‘lgan umumiy leksik qatlamga ega. Shuni ham qayd etish kerakki, ma’lum bir me’yorga solingan umumxalq o‘zbek tili lug‘at tarkibi barcha o‘zbek shevalarining ham asosini tashkil qiladi. Shunisi borki, ma’lum shevada uchraydigan ayrim o‘ziga xosliklar, ma’lum bir hududda qo‘llaniladigan til birliklari umumxalq lug‘at fondiga zid bo‘lmay, o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi hisoblanadi. U.Tursunovning “Shevalar leksikasi tadqiqi” asarida bu masalalar atroflicha tahlil etilgan. Asarda bildirilgan fikrlar bizning o‘rganish obyektimiz bo‘lgan Samarqand shahar leksikasi bo‘yicha ham qimmatli ma’lumotlar beradi.

Xullas, professor U.Tursunov dialektologiyaga doir tadqiqotlarida olib borgan tadqiq usullari bu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun yo‘l ochdi. Olim o‘zbek xalq shevalarini o‘rganish dasturini tuzgan va shu dastur asosida tadqiqotlar olib

borilgan. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, olim shevalar leksikasini o'rganishda o'zbek xalq og'zaki ijodiga alohida ahamiyat bergan va undagi materiallarga tayanib ish ko'rgan. U. Tursunov o'z kuzatishlari va to'plagan materiallari asosida Samarqand viloyati shevalarini tasnif qilgan. U. Tursunov rahbarligida amalga oshirilgan o'tgan asr o'rtalarida bajarilgan V. Egamovning "Samarqand viloyatining G'allaorol shevasi" mavzusidagi, M. Ahmedovning "O'zbek tilining Jo'sh shevasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari viloyatning ma'lum tumanlari hududidagi shevalarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, N. R. Rajabovning "O'zbek tilining Qarnob shevasi", M. Valiyevning "O'zbek tilining nayman shevasi", X. Jo'rayevning "O'zbek tilining turk-kaltatoy shevasi" kabi dissertatsiyalari ma'lum urug'larning shevasini tadqiq etishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

X. Doniyorovning shevashunoslik fanida alohida o'rni bor. U "O'zbek tilining qipchoq shevalari" bo'yicha juda chuqur va atroflicha tadqiqot ishlarini olib bordi (Дониёров, 1979). Olimning "Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari" nomli monografiyasida qipchoq shevalarining eski o'zbek adabiy tiliga munosabatini, tarixiy yozma manbalarda aynan qipchoq shevasining unsurlari borligini misollar yordamida ochib bergan. Bu borada X. Doniyorovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "... yana bir umumiy xulosa shundan iboratki, eski o'zbek adabiy tilida, ya'ni Alisher Navoiy va uning zamondoshlarining tilida qarluq-chigil-uyg'ur va o'g'uz elementlari bilan bir qatorda, qipchoq elementlarining ko'p uchrashi tarixiy nuqtai nazardan ham, ijtimoiy-siyosiy hayot nuqtai nazaridan ham, lingvistik nuqtai nazardan ham tabiiydir. Sirasini aytganda, bu faktlar qipchoq shevalarining ishtiroki eski o'zbek adabiy tilida qarluq-chigil-uyg'ur shevalaridan keyin ikkinchi o'rinda turishini ko'rsatadi" (Дониёров, 1979, 122-b.). Olim, asosan, Sirdaryo, Samarqand va qisman Toshkent viloyati, ya'ni Bekobod tumanidagi qipchoq shevalarini atroflicha o'rgandi.

Samarqandda dialektologiya bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil etar ekan, tilshunos B. To'ychiboyev X. Doniyorov faoliyatini quyidagicha baholaydi: Xudoyberdi Doniyorovni adabiy tilning boyligi – bu tilni asosiy manbadan aloqasini uzib bo'lmaslik g'oyasi yo'lida kurashish uchun Xudoning o'zi berdi. Domla ilmiy faoliyatining dastalbki davridan boshlab to umrining oxirigacha shu jabhada kurash olib bordi. Bunday deyishimizga sabab, olimning bu sohadagi izlanishlari jo'n, silliq kechmadi. Uzoq payt juda ko'pchilik bilan kurashishga to'g'ri keldi, negaki, lahjalar, xususan, qipchoq lahjasining adabiy tildagi o'rni masalasi tamoman chetga surib qo'yilgan edi. Millatparvar olimni (bu millatparvarlik bir paytlar "millatchi" degan tamg'a bilan domlaning qaddini bukishga harakatlar bo'lganligini iztirob-la eslashni taqozo etadi). "O'zbek tilining baxmal shevasi" (nomzodlik dissertatsiyasi) "Samarqand oblastidagi qipchoq shevalarining vokalizmi", "O'zbek adabiy tili rivojlanishida qipchoq ("j"lashgan) shevalarining roli" va boshqa juda ko'p aynan

shu yoʻnalishda ilmiy ish olib borishga majbur etdi. Darhaqiqat, olim oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotiga qipchoq lahjasi tovush, atama, soʻz, maqol, matal, grammatik nuqtai nazaridan muhim oʻrin tutishini rad etib boʻlmaydigan darajada isbotladi.

Professor Xudoyberdi Doniyorov oʻz ilmiy faoliyatining asosiy qismini “til baxti”ni taʼminlovchi, adabiy tilni oziqlantirib turuvchi manba – xalq tilini oʻrganishga bagʻishladi. Lahjalar ichida eng katta guruhni tashkil etuvchi qipchoq lahjasini har jihatdan sinchiklab oʻrgandi. Uning adabiy til taraqqiyotida tutgan oʻrnini belgilashga harakat qildi. Qipchoq lahjasini fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhlashtirdi. Oʻzining “Sharqiy qipchoq (“J”lovchi) shevalari va ularning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi ishtiroki” (1977) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Domla bu soha boʻyicha juda katta meros qoldirdi. Jumladan, “Oʻzbek xalqining shajara va shevalari” (1976), ““J”-lovchi qipchoq dialektlarini oʻzbek adabiy tili bilan qiyoslab oʻrganish tajribasi” (1975, rus tilida), “Qipchoq dialektlarining leksikasi” (1979) kitoblari asosida Sirdaryo tilshunosligi maktabida “Oʻzbek tili turk-barlos shevasi” (B.Hasanov), “Turk-barlos shevasi fonetikasi” (B.Hasanov), “Poyariq shevasi” (Oʻ.Saidov), “Turkiston qarluq tip shevalarida toʻy marosimi nomlari” (2001, Sh.Nurillayeva) mavzusidagi ishlar yuzaga keldi. Shuningdek, mazkur maktab aʼzolari tomonidan “Tuganmas boyliklar bulogʻi” (T., 1991, B.Toʻychiboev, S.Shirinov, Q.Qashqirli), “Xalq tili va oʻquvchi nutqi” (T. 1994, B.Toʻychiboyev, Q.Qashqirli) nomli oʻquv qoʻllanmalari va “Oʻzbek dialektologiyasi” (T., 2004, B.Toʻychiboev, B.Hasanov) darsligi yaratildi.

K.Yudaxin oʻzbek shevalarini tasniflashda dastlab ularni ikki guruhga boʻlib koʻrsatdi. Shunda oʻzbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga koʻra 4 guruhga ajratib koʻrsatadi. Xususan, oʻzbek va tojik tillarida soʻzlashadigan Samarqand va Buxoro shahri shevalarini alohida guruh sifatida ajratib koʻrsatgan (Юдахин, 1927).

Gʻozi Olim Yunusov koʻplab dialektologik olimlar bilan hamkorlikda Oʻzbekistonning shahar va qishloqlariga borib, juda qimmatli materiallar yigʻishga muvassar boʻldi. Shu tajribalar natijasida “Oʻzbek urugʻlaridan qatagʻanlar va ularning tili” (1930), “Oʻzbek lahjalari tasnifida bir tajriba” (1936) kabi ilmiy asarlari yaratildi.

Bolta Joʻrayev “Oʻzbek tilining Shahrisabz shevasi”, “Yuqori Qashqadaryo oʻzbek shevalari” kabi monografiyalarni eʼlon qilgan (Жўраев, 1959). Olimning maʼlumot berishicha, Yuqori Qashqadaryo shahar shevalari lugʻat tarkibida arab va fors-tojik elementlarining nihoyatda koʻpligi Samarqand, Buxoro shahar oʻzbek shevalariga yaqin turishini taʼkidlaydi. Biroq shunday holat ham mavjudki, Kitob va Shahrisabz aholisi nutqida qoʻllanayotgan ayrim oʻzlashma soʻzlar Samarqand, Buxoro aholisining oʻzbekcha nutqida esa bu soʻzlar mutlaqo boshqa maʼno

anglatishini aniqlagan. Jumladan, mazkur shevada zammür soʻzi Samarqand, Buxoro shevalarida ari maʼnosini bildirsa, rovännä soʻzi axlat mazmunida, surxäk soʻzi xälili tarzida qoʻllanadi.

H.Gʻulomov “Oʻzbek tilining Jizzax shevasi” mavzusidagi ilmiy ishida Samarqand, Buxoro shevalari boʻyicha ham qimmatli maʼlumotlar keltirilgan. Xususan, tojik tilida uchraydigan marosim maʼnosini anglatuvchi chillagurezän soʻzi yuqoridagi ikki tilli aholi nutqida adabiy tildagidek talaffuz qilinadi, biroq ayrim mahalliy oʻzbek shevalarida talaffuzi oʻzgarib çilläguzarañ, çillagiräzän koʻrinishida uchrashi aytiladi. Shuningdek, chikalita soʻzi Samarqand va Buxoro shevalaridagina qoʻllanilib, asl maʼnosi qirq kalitdir. Koʻchma maʼnosi esa koʻp teshikli misdan ishlangan idish tushunchasini berishi aytiladi. Idishda koʻp teshik boʻlib, qandaydir diniy oyatlar yozilganligi maʼlum. Mazkur soʻz hozirda shevalarda uchramaydi (Фуломов, 1966, 298, 310-b.).

N.Rajabov 1962-yilda oliy oʻquv yurti talabalari uchun “Oʻzbek dialektologiyasi kursidan materiallar” nomli kitobida dialektologiya fanining predmeti, fan sifatida shakllanish jarayonlari, tarixiy taraqqiyot yoʻllari, boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi, oʻzbek xalq shevalarining tasnifi, sheva, dialekt, lahja atamalarining farqlari kabi muhim hamda dolzarb masalalar yuzasidan muhim gʻoyalarini ilgari surgan, qimmatli maʼlumotlar keltirib, fikrlarini isbotlagan. 1996-yilda nashr qilingan “Oʻzbek shevashunosligi” kitobida esa oʻzbek shevashunosligidagi transkripsiya va tasnif, shevalarni fonetik, morfologik, leksik jihatdan oʻzaro tarixiy-qiyosiy usulda tahlil qilib berganki, bu asarning oʻzbek dialektologiya fani rivoji uchun ahamiyati beqiyos.

S.Rahimov esa Surxondaryo oʻzbek shevalarini ikkita guruhga boʻlgan: 1. J-lovchi shevalar (qipchoq lahjasiga xos shevalar). 2.Y-lovchi shevalar (qarluq lahjasiga xos shevalar). Ularda V.V.Reshetov tomonidan talqin etilgan qipchoq va qarluq lahjalariga oid xususiyatlar uchraydi. Mazkur dissertatsiyada, shuningdek, Surxondaryo oʻzbek shevalarining Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent shevalari bilan aloqasi va taʼsiri yoritilgan (Раҳимов, 1985, 61-65-b.).

Mustaqillik yillarida oʻzbek shevalarini monografik yoʻsinda oʻrganishga eʼtibor kuchaydi. Buning natijasida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalar yoqlandi. Mazkur tadqiqotlarda shevalar fonetik, leksik-semantik, morfologik jihatdan tahlil qilindi, shevalar areal, lingvogeografik yoʻnalishda tadqiq etilib, ayrim hududlar xaritalashtirildi. Quyida shu ishlarga qisqacha toʻxtalib oʻtishni lozim deb topdik.

N.Murodova oʻz ilmiy faoliyati davomida asosan Navoiy viloyati oʻzbek shevalari boʻyicha qimmatli materiallar toʻplagan. Buning mahsuli sifatida koʻplab maqolalar eʼlon qilgan. “Oʻzbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvo-areal talqini” mavzusidagi doktorlik ishida Navoiy viloyati oʻzbek xalq shevalarining oʻzbek adabiy tili va tarixi, boshqa oʻzbek shevalari, ayniqsa, hududiy jihatdan

yondosh bo‘lgan Buxoro va Samarqand shevalari, shuningdek, qardosh turkiy tillar shevalariga munosabati, o‘zaro ta’siri kabi masalalariga alohida to‘xtalgan. Qolaversa, mazkur hudud shevalarini xaritalashtirib, o‘sha yerda yashovchi urug‘larni aniqlab, to‘plangan so‘zlarni lisoniy-jug‘rofiy yo‘nalishda tahlil qilgan (Муродова, 2006).

М.Абдиев Самарқанд viloyat shevalari kasb-hunar leksikasining kashtachilik, gilamchilik, do‘ppichilik singari sohalar leksikasini o‘rgangan. Shu bilan birga ilk marotaba kasb-hunarga oid terminlarni sistem tahlil qilib, mavzuviy guruhlariga bo‘lib tahlil qilgan (Абдиев, 2005).

2023-yilda Tillabayeva Zilola “Samarqand shahri o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida)” nomli dissertatsiyasida Samarqand shahri qarluq lahjasi leksikasi bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar asosida lug‘aviy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini qiyoslab, ularning boshqa o‘zbek shevalari, yozma yodgorliklar tili matniga munosabatini ochib bergan. Shuningdek, mazkur hudud qarluq lahjasi leksik birliklarining shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari (omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar)ning o‘zbek adabiy tilidan *qars*, *olus*, *ho‘qqi*, *do‘qqi* kabi so‘zlarning farqli ma’nolari borligi ochib berilib, o‘zbek adabiy tilining rivojida Samarqand shahri qarluq lahjasiga doir to‘plangan faktik materiallar borligi dalillangan. So‘zlashuv nutqiga xos o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi bilingvizm hodisasi yoritilgan va shevaning leksik qatlamlari aniqlanib, o‘zbek adabiy tiliga qiyoslanib, iboralar, qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalarining yasaliishiga xizmat qilishi kabi xususiyatlari ochib berilgan. Qolaversa, Samarqand shahri qarluq lahjasining Qashqadaryo, Jizzax, Buxoro qarluq lahjasidagi so‘zlardan shakl va ma’no jihatidan farqlanishi ko‘rsatilib, shevadagi lug‘aviy birliklar o‘n to‘rtta mikroguruhlariga bo‘linganligi isbotlangan (Tillabayeva, 2023).

Adabiyotlar

Ражабов Н. (1995). *Ўзбек шевашунослиги*. Ўқитувчи.

Решетов В. (1941). *Маргеланский говор узбекского языка*. Известия УзФАН СССР.

Турсунов У. (1960). *Самарқанд область ўзбек халқ шевалари таснифининг материаллари*. Филология масалалари, тўплам.

Турсунов У. (1963). *О состоянии узбекских говоров Самаркандской области*. Научные труды ТашГУ.

Дониёров Х. (1979). *Қипчоқ диалектларининг лексикаси*. Фан.

Дониёров Х. (1979). *Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари*.

Юдахин К. (1927). *Некоторые особенности карабулакского говора*. Сб. “В. В. Бартольд”.

Жўраев Б. (1959). *Шаҳрисабз шевасининг айрим фонетик хусусиятлари*. ТрудыУзГУ, Новая серия, 91.

Ғуломов Ҳ. (1966). “Чил” сўзининг қўлланиши ва маънолари // *Ўзбек шевалари лексикаси*.

Раҳимов С. (1985). *Сурхондарёдаги ўзбек шеваларининг таснифи масаласи* // ЎТА.Т.,1985.

Муродова Н. (2006). Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини. *Филология фанлари доктори дисс.*

Абдиев М. (2005). Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-ҳунарлари материаллари асосида). *Филология фанлари доктори диссертацияси*.

Tillabayeva Zilola. (2023). Samarqand shahri o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida). *Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*.

“OILA” KONSEPTINING AYRIM LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ozoda Anorqulova*

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Oila” terminining turli lug‘atlardagi izohi, o‘zbek tilining milliy-madaniy bosqichida anglatadigan ma’nolari, tutgan o‘rni, shuningdek, turli xalqlar madaniyatida oila bilan bog‘liq aksiologik qarashlar, oilaviy munosabatlar haqida so‘z boradi. Ma’lumki, oila jamiyatning ajralmas qismi sifatida mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Oila deganda insonning ko‘z o‘ngida ota-onasi, yaqin qarindoshlari, ish faoliyatidagi jamoasi va kabilar gavdalanadi. O‘zbek tilida “oila” konsepti o‘z atrofida mehr, quvonch, taskin, sevimli makon, hamjihatlik, mehr-oqibat, birdamlik, sevgi kabi tamoyillarni birlashtiradi, bu esa har bir kishining ongida oila ijobiy talqinga ega ekanligidan dalolat beradi. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, bu borada madaniyatlararo o‘ziga xoslik ham ahamiyatli, ya’ni o‘zbeklar

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Anorqulova@list.ru.

uchun oila yaqin qarindoshlar bo'lsa, ayrim millat vakillari uchun sevimli uy hayvoni, o'yinchoqlari ham bo'lishi mumkin.

Tayanch so'zlar: *"Oila" konsepti, lug'atlardagi talqin, so'z etimologiyasi, qiyoslash, qondoshlik, oilaviy munosabatlar.*

SOME LINGUISTIC FEATURES OF THE "FAMILY" CONCEPT

Annotation

This article will talk about the interpretation of the term "family" in various dictionaries, the meanings of the Uzbek language that it means at the national-cultural stage, its role, as well as axiological views related to family in the culture of different peoples, family relations. It is known that the family, as an integral part of society, plays an important role in the development of the country. Family refers to a person's parents, close relatives, team in work activities, etc. In Uzbek, the concept of "family" combines around itself such principles as kindness, joy, comfort, favorite space, harmony, kindness, solidarity, love, which indicates that in the minds of each person the family has a positive interpretation. However, it should be remembered that in this regard, intercultural originality is also significant, that is, for Uzbeks, the family is close relatives, while for some nationalities it can also be a favorite pet, toys.

Key words: *the concept of "family", interpretation in Dictionaries, word etymology, analogy, consanguinity, family relations.*

"Oila" tushunchasi lingvokulturologiya, ijtimoiy psixologiya, sotsiolingvistika hamda pedagogika fan sohalarida asosiy o'rganish obyekti sanaladi. "Oila" konsepti borliqda bir qancha ma'nolarni anglatadi, dastlab uning asosiy ma'nosiga, uning tilshunoslikda qanday ma'nolarni anglatishi to'grisida to'xtalib o'tamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida oila so'zining besh xil ma'nosi izohlangan: 1) Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon; 2) Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar; 3) O'simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshash, kelib chiqish jihatidan ham o'zaro yaqin bir necha urug'ni o'z ichiga olgan guruh; 4) Qardosh tillar guruhi; 5) Rafiq, xotin. (O'TIL, 3-jild, 2008-yil, 90-b.).

O'zbek tilining izohli lug'atida oila atamasining kelib chiqishi shunday keltirilgan: Oila. Bu arabcha so'z 'āilat (un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq fathali ayn tovushini â tovushiga, kasrali hamzani i tovushiga almashtirib, so'z oxiridagi t tovushini tahslab qabul qilingan: 'āilat – āila (oila); qaramog'idagi kishilarni boqdi ma'nosini anglatuvchi 'āla fe'lining 'āil (un) I bob aniq nisbat sifatdoshidan -at(un)

qo'shimchasi bilan yasalgan ot bo'lib, ota-ona, farzandlar birgalikda yashovchi ijtimoiy guruh ma'nosini anglatadi (Sh.Rahmatullayev, 2003, 338-b.).

Lingvistik jihatdan "oila" atamasi borliqda anglatadigan ma'nolari mujassamlashgan holda konsept sifatida shakllanadi. Dastavval, oila bilan bog'liq tushunchalar insonning milliy ongi bilan bog'lanishi sababli uni "madaniy tushuncha" ekanligi haqida mulohaza yuritish o'rinli bo'ladi. Oilaning bir qancha mezonlari uning madaniy tushuncha sifatida shakllanishiga olib keladi:

birinchidan, "oila" kishi ongida o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan yagona narsa hamda voqelikka xos bo'lgan belgilar takrori;

ikkinchidan, "oila" tilning maxsus universal foydalanuvchisini tavsiflovchi kognitiv qarashlar jamlanmasi;

uchinchidan, madaniy hodisa sifatida prototip asosni o'z ichiga oladi, ya'ni uni tashkil etuvchi har bir a'zoga tegishli bo'lgan qadriyat va sinflarning pog'onaviy to'plamini o'zida namoyon etadi;

to'rtinchidan, "oila" konsepti mazmuniy xususiyatlarining tilda namoyon bo'lishi usuliga xoslangan;

beshinchidan, "oila" konsepti xalq madaniyatini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu ekanligi xalq og'zaki ijodi materiallari, xususan, xalq maqollari orqali yuzga chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilaning madaniy tushuncha ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Oila haqidagi qarashlar jamiyatda bo'layotgan hodisalar evaziga o'zgarib boradi, negaki u xalqning, mamlakatning o'ziga xos madaniy shakllari bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, "oila" konsepti doirasida dunyo bo'yicha qarashlarni kuzatadigan bo'lsak, aksiologik nuqtai nazardan bir-biriga o'xshashlik va farqli jihatlarni ko'rish mumkin bo'ladi. O'zbek xonadonida oila deganda uni tashkil qiluvchi har bir subyekt va ularning o'zaro aloqa-almashinuv jarayoni tushunilsa, g'arbda oddiy uy hayvoni yoki shunga o'xshash jismlar ham oila a'zosi sifatida qaralishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, borliqda oila tushunchasining atrofida o'zaro birdamlik, hamjihatlik, mehr-muruvvat kabi insonparvarlik tamoyillari jamlansa, jamiyat hayotida har doim ham ularning amaldagi tatbiqi kuzatilmaydi. Ya'ni jamiyatda barcha oila ham to'la-to'kis emas, ayrim oilalarda ota-ona o'z vazifalarini bajarmaydi, farzandlariga g'amxo'rlik qilmaydi, biror muammoni hamjihatlikda hal qilinmaydi. Buning natijasida esa farzandlar doimo o'zlarini yolg'iz, ojiz va kuchsiz his qilishadi, ota-onalarining turmushlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi, bu esa kelajakda ularning oila qurishga bo'lgan ishonchini, xohishini so'ndiradi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalar orasida o'zaro mehr-muhabbat, g'amxo'rlik darajasi past bo'lishi tabiiy. Shu sababdan, bola oiladan tashqari obyektlardan mehr kutishga odatlanib qoladi.

Ingliz tadqiqotchilarining fikricha, mana shunday holatlarda qondoshlik masalasi muhim hisoblanmay, oila chegarasidan chiqqan holda do'stlardan tashkil topgan butunlikka intilish lozim bo'ladi. [The Family Concept and Its Definition | Free Essay Example (studycorgi.com).] ya'ni agar inson qondoshligidan qat'iy nazar begona kishilarga kelib o'z tashvishlari-yu, muammolarini bemalol ayta olsa, demak, uni ham oila hisoblashi mumkin bo'ladi. O'zbek mentaliteti esa har doim ham buni oqlayvermaydi. Xalqimizning azaliy qadriyatlariga xos tarzda qanchalik chigal va og'ir vaziyat bo'lmasin, oila bu - insonning eng ishongan, suyanadigan, eng qimmatli maslahatni oladigan insonlar guruhi. Biz doim unga talpinamiz, uning an'alariga sodiq qolamiz.

Biroq g'arbliklarning milliy-madaniy qarashlariga ko'ra do'stlarni ham (jinsidan, yoshidan qat'iy nazar) oila tarkibiga kiritish mumkin bo'ladi. Sababi, ular orasida qondoshlik bo'lmasa-da, fikrlashi, qarashlari bir-biriga mos kelsa, bir-birining yonida o'zlarini erkin his etsa, ishonch kuchli bo'lsa, ular umri davomida birga bo'lishlari mumkin. Hatto oilalaridan ham kechib, do'stlarini tanlab ketuvchilar ham yo'q emas. Bu narsani ular quyidagicha izohlaganligining guvohi bo'lish mumkin: inson qaerda, qanday odamlar orasida tug'ilishni tanlamaydi, lekin kimlar bilan yaqinroq yashashni, iliq munosabatlar o'rnatishni tanlay olishadi. An'anaviy g'arb oilalarida qarashlari bir-biriga mos insonlarni topish shaxsiy ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun yordam berishi mumkin, chunki, bunday insonlar kishini ruhlantiradi, ilhomlantiradi. An'anaviy oilaning har bir a'zosi bilan qadriyatlarni, maqsadlarni o'rtoqlashish shart emas, negaki, avlodlar orasida ziddiyatlar kelib chiqishi ehtimoli bor. O'zbek milliy-madaniy qarashlarida esa buning aksi, har bir oldimizga qoyilgan maqsadlarimiz, g'oyalarimizni ota-ona va oila a'zolarimiz bilan maslahatlashgan holda, ularning roziliklari, duolari bilan amalga oshirishga kirishamiz

Bir insonning ikkinchi inson bilan tumush qurishi natijasida oila sig'imi kengayib boradi. Buning natijasida nikohdan oldingi va nikohdan keyingi oila hosil bo'ladi. Endi insonning oila a'zolari qatoriga turmush o'rtoq, qaynona, qaynota, qayniopa, qayniuka, qayniaka, qaynisingil, farzandlar qo'shiladi. O'zbekona qadriyatlarga ko'ra, asosan, kelin o'z uyini tashlab turmush o'rtog'ining uyiga kelganligi sabab yuqoridagi kengayish faqatgina genderologik jihatdan ayollarga xosdek tuyuladi. Negaki, o'zbek erkaklari tumush o'rtog'ining oilasini, ko'pincha, o'z oilasi sifatida qabul qilishga qiynaladi. Shunday bo'lsa-da, har ikkala tomon uchun ham nikoh ortidan kengaygan oila tegishlilik darajasiga ega bo'ladi.

Ushbu konsept har qanday til madaniyatining konseptual sohadagi eng muhim tushunchalaridan biridir. U murakkab semantik maydon tuzilishiga ega bo'lib, uning asosi insonlarning ijtimoiy munosabatlari orqali hamjamiyatning universal qarashlarini ifodalaydi. Insonlarning bunday qarashlari esa olamning lisoniy

manzarasi asosida tashkil topadi. Aytib o‘tilganidek, oila eng muhim lingvomadaniy tushuncha ekan, turli til madaniyatlarida ushbu konseptni tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlar ham talaygina.

Tilshunos olim Bondorenkoning tavsiyasiga ko‘ra “oilal” konseptining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: a) oilaning mazmunini ochib beradigan va qarindoshlik munosabatlarining turlarini belgilaydigan rol qiymati; b) turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar; v) ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar. Oila instituti va shunga mos ravishda bu tushuncha turkiyzabon xalqlar orasida oilaning barcha avlodlar uchun Yevropa xalqlariga qaraganda ko‘proq rol o‘ynashi, ko‘p bolali oilalarga bo‘lgan moyillikning u yoki bu darajada saqlanib qolishi, ijtimoiy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, “oilal” konsepti murakkab tuzilishga ega. Shu kungacha mazkur masala yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning ko‘pida “oilal” konseptining modelini yaratishga urinishlarni, bu boradagi fikrlarni uchratish mumkin. Biroq “oilal” konseptining yagona, izchil modeli hanuzgacha tuzilmagan. O‘zbek xalqining mental xususiyatlaridan kelib chiqqan holda makur modelni quyidagicha shakllantirishga urinib ko‘ramiz:

- 1) ota-ona – oilani barpo qiluvchilar;
- 2) farzandlar (aka-uka, opa-singillar) – oilaning tarkibiy tuzilishi;
- 3) qarindoshlik (kelin, kuyov, nabiralar);
- 4) boshqalar (birga yashovchilar) – doimiy yoki vaqtinchalik oila a‘zolari;
- 5) jigarlar – bayramlarda, marosimlarda xonadonga tashrif buyuruvchi ota va ona tomondan keladigan qavm-qarindoshlar (to‘ga, xola, amma, bo‘la, amaki, amakivachcha, yanga va b.)
- 6) turli yo‘nalishlarda shaxslararo munosabatlar natijasida aloqa o‘rnatilgan kishilar jamlanmasi (hamkasblar, do‘stlar, jamoalar).

Mana shunday modellarni turli tillar kesimida o‘rganib chiqish, yo‘q bo‘lsa tuzish tilshunoslikda yana bir muhim sanalgan konseptning mohiyati, jamiyatdagi ahamiyati yanada ochiqqlangan bo‘ladi. Modelni tuzishda har bir tilning, etnik, madaniy, ijtimoiy qarashlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu masalaga diniy nuqtayi nazardan qaralsa, xristian dini vakillari mazkur modelni qarindosh bo‘lmagan qarindoshlik (cho‘qintirgan ota, cho‘qintirgan o‘gil, cho‘qintirgan qiz) tarzda boyitishlari mumkin bo‘ladi. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi ko‘plab malakatlarda oila qurishga bo‘lgan qiziqish, mas‘uliyat so‘nib borayotganligi sir emas. Ular oila a‘zosi sifatida bir uy hayvonlarini, moddiy jismlar yoki qo‘g‘irchoqlarni hisoblashayotganliklari esa azaliy qardiyatlarga putur yetayotganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

Ўзбек тилининг изоҳли лугати. (2008) Беш жилдли, 3-жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент.

Rahmatullayev Sh. (2003) *O'zbek tilining etimologik lug'ati.* 2-jild. Universitet. Toshkent.

POLIFUNKSIONAL SO‘ZLAR SEMANTIK KENGAYTMASINI ISHLAB CHIQISH MUAMMOLARI

Dildora Axmedova *

Annotatsiya

Polifunksional so‘zlar o‘zbek tilida alohida xususiyatga ega so‘zlardir hamda polifunksionallik hodisasi turli tillarda atroflicha o‘rganilgan. Lug‘atlarda ayrim so‘zlarning leksik ma’nosi ikkinchi turkum vazifasini ham olib, qayd etilishi o‘sha so‘zning polifunksional holda berilishidan kelib chiqadi. *Yaxshi bola yaxshi o‘qiydi* gapida *yaxshi* sifati birinchi qo‘llanishda (*yaxshi bola*) sifat vazifasida kelgan, ikkinchi qo‘llanishda (*yaxshi o‘qiydi*) ravish vazifasini olgan, natijada

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, daxmedova77@gmail.com

polifunksionallik yuzaga kelgan. Polifunksional soʻzlar oʻzbek tilida oʻziga xos semantik tizimga ega: ularning bir necha semasi boʻlishi, har bir sema boshqa turkum va boshqa semantik maydonga mansub boʻlishi mumkin. Bizning eʼtiborimizni tortadigan jihat bunday soʻzlarning bir necha semantik maydonga mansub boʻlishidir, chunki semantik teglarning bir qismi, asosan, semantik maydon va semantik guruhga koʻra belgilanadi. Demak, ularning lugʻatlarda izohlanishi yoki til korpuslaridagi semantik izohlari – semantik kengaytmasi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit soʻzlar: *polifunksionallik, semantik kengaytma, teglash, konversiya, birlamchi va ikkilamchi vazifalar, oʻz va koʻchma maʼno, izohli lugʻat, til korpuslari, leksema, polisemiya.*

PROBLEMS OF DEVELOPING THE SEMANTIC EXTENSION OF POLYFUNCTIONAL WORDS

Annotation

Polyfunctional words are words with special characteristics in the Uzbek language, and the phenomenon of polyfunctionality has been thoroughly studied in various languages. The fact that the lexical meaning of some words is recorded in the dictionaries as a second category is due to the polyfunctionality of that word. In the sentence "a good boy reads well", the quality "good" was used as an adjective in the first use (a good boy), and as an adverb in the second use (he reads well), resulting in polyfunctionality. Polyfunctional words have a unique semantic system in the Uzbek language: they can have several semas, each sema can belong to a different category and a different semantic field. The point that attracts our attention is that such words belong to several semantic fields, because some of the semantic tags are defined mainly according to the semantic field and the semantic group. Therefore, their interpretation in dictionaries or semantic interpretation in language corpora - semantic extension is distinguished by special features.

Key words: *polyfunctionality, semantic extension, tagging, conversion, primary and secondary functions, native and figurative meaning, annotated dictionary, language corpora, lexeme, polysemy.*

Rus tilshunosligida M.V.Plyaskina, A.A.Leonenko, Y.A.Starodumova, A.I.Zaitseva, S.G.Bolotova, N.N.Skripnikova, Y.V.Sergeyeva, A.V.Kravchenko, A.S.Krilovalarning leksik birliklarning polifunksionalligiga bagʻishlangan tadqiqotlarida mazkur hodisa batafsil izohlangan. O.S.Axmanova esa toʻliq maʼnoli va toʻliqsiz soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni agar «soʻz oʻxshashligi» buzilmasa, polifunksionallik sifatida tushuntiradi, shu jumladan: *как?* (qanday?) (ravish va bogʻlovchi), *когда?* (qachon?) (ravish va bogʻlovchi), *ладно* (ahil, durust) (ravish va

yuklama) va hokazo (Ахманова, 1957, 79-b.). Bu hodisa boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham shunga o'xshash tarzda baholanadi.

Sh.Gulyamova polifunksional so'zlarni avtomatik semantik tahlil qilish haqida yozar ekan, bu hodisani shunday ta'riflaydi: «Polifunksionallik – (yunonchadan poly *ko'p* va lot. *funstio ishlash, amalga oshirish, faoliyat*) bir ohangdoshlikda turli funksiyalarning kombinatsiyasi. Polifunksionallik turli darajadagi birliklarning xususiyati sifatida ajralib turadi». Shuningdek, tadqiqotchi polisemiya ma'lum bir so'zning bir necha leksik ma'noga ega bo'lishi deb hisoblasa, polifunksionallikning yuzaga kelishini konversiya bilan bog'laydi. Konversiya ma'lum bir so'zning hech qanday affiks olmagan holda boshqa so'z turkumi vazifasida kelish hodisasidir (Реформатский, 1967, 64-б.). Sh.Gulyamovaga ko'ra, fe'llarning ko'makchi ma'nosi ham polisemantik so'z tarkibini tashkil qilmaydi. Aksincha, u grammatik vazifa bajaradi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, u ham polifunksionallik uchun vosita bo'ladi (Гулямова, 2022, 134-б.).

A.Botirova polifunksional so'zlarni shunday ta'riflaydi: «So'z turkumlari funksional imkoniyatlarining kengayishi, bu jarayonda birlamchi va ikkilamchi vazifalarning farqlanishi hamda uning nazariy asoslarini yaratish masalasi tilshunos Y.Kurilovich tomonidan o'tgan asrning o'rtalarida kun tartibiga qo'yilgan edi. Y.Kurilovich so'zlarning gap tarkibidagi vazifasiga «ma'nodan vazifaga» tamoyili asosida yondashib, har bir so'z turkumi aslida ma'lum bir xos ma'nolar majmuiga mos ravishdagi sintaktik vazifalarni bajarishini, bu vazifalar uning uchun birlamchi vazifalar ekanligini ta'kidlaydi. So'zning bosh ma'nosiga birlamchi funksiya, hosila holatiga ikkilamchi funksiya muvofiq keladi. Y.Kurilovich so'zlarning birlamchi funksiyalarini asosiy vazifa, funksiya sifatida qaraydiki, bu, albatta, nisbiy mazmunda tushunilishi lozim (Курилович, 1962, 58-59-б.). Chunki birlamchi vazifa deganda genetik va diaxronik jihatdan birinchi, bosh vazifa tushuniladi. Holbuki, tilning ma'lum bir sinxronik holatida so'zning birlamchi vazifasi asosiy bo'lmasligi mumkin. Boshqacha aytganda, sifat turkumiga mansub so'zning ushbu turkumdagi bosh vazifasi birlamchi, keyinchalik u butunlay ot turkumiga o'tib ketgan bo'lsa va ushbu turkumdagi vazifasi ustuvorlashib, faollashib, asosiy o'ringa chiqqan bo'lishi mumkin» (Ботирова, 2018, 14-б.).

A.Botirova dalil sifatida o'zbek tilidagi *quralay, charos* so'zlarini shu nuqtayi nazardan tahlilga tortadi:

QURALAY 1 Kiyik yoki ohularning yosh bolasi.

2 ayn. quralay ko'z. Mehribon ko'zlari jigarga moyil, quralay. «Yoshlik».

Quralay ko'z Quralayning ko'ziga o'xshash ko'zli. Quralay ko'z, bodomqovoq, sarv qomat. S.Siyoyev, Avaz.

CHAROS 1 *O'rtapishar, yumaloq qora uzum. Ichkari hovli keng, gulzor, baland so'riga ko'tarilgan toklar. Charos, husayni uzumlar g'arq pishib, boshlari osilib turibdi.* Y. Shamsharov, Toshqin.

Charos ko'z Go'zal, qop-qora ko'z. *Yulduzxon charos ko'zlarini ohista ochdi. Gazetadan.*

2 Ayollar ismi.

A.Botirova so'zlar birinchi ma'nosi bilan bugungi kunda kam iste'molli, asosan ikkinchi – ko'chma ma'nosi bilan ko'proq qo'llanishini, kishining ko'ziga nisbatan belgi bildiruvchi sifatida qo'llanishini ta'kidlaydi. Bugungi kunda birinchi – otga xos semantik-sintaktik xususiyat birlamchi bo'lib, lekin ikkinchi – sifatga xos semantik-sintaktik vazifasi ustuvor va asosiy o'ringa chiqqan. Juda ko'p shaxs otlari va atoqli otlarda bunday holatni kuzatishimiz mumkin: *dilbar, dilorom, dilso'z, dilrabo, dildor, mo'min, musulmon, betavfiq, betamiz* kabi (Ботирова, 2018, 22-б.).

A.Botirova polifunksionallikda birlamchi va ikkilamchi ma'no vazifalarini ajratadi: «Birlamchi va ikkilamchi ma'no va vazifalar haqida so'z borar ekan, kontekstda ularni farqlovchi omillar, farqlanishning barqaror yoki o'tkinchiligi, ikkilamchi funksiyada qo'llanishning bir xil qurshovlar bilan belgilangan/belgilanmaganligi, mazkur ma'nolarni farqlovchi omillarning turi, xususiyatlari, ma'no va vazifalarni farqlash va voqelantirishda ishtirokchi omillarning hamkorligi asosiy muammo sifatida kun tartibiga qo'yilishi zarur. Shu bilan birga, ikkilamchi ma'no va vazifaning so'z ilk mohiyatiga aloqadorligi, undan uzoqlashish darajasi kabi masalalar ham so'zlarning lisoniy mohiyatiga daxldor xulosalarga asos bo'ladi» (Ботирова, 2018, 15-б.).

Shunga ko'ra shaxs nomi (atoqli ot) va turdosh ot, turdosh ot, sifat va atoqli ot, son va atoqli ot kabi turli vazifalarda keladigan so'zlarning semantik izohlanishi, bunday so'zlarning semantik kengaytmasi tarkibi turlicha bo'ladi.

Shaxs nomi (atoqli ot) va turdosh ot ma'noli polifunksional so'zlar. O'zbek tilining izohli lug'atida ko'plab so'zlarning lug'at maqolasida alohida sema sifatida «erkaklar ismi», «ayollar ismi» kabi izohlar uchraydi. Bu so'zlar, tabiiyki, so'zning birinchi ma'nosi emas, uning birinchi ma'nosi ot, sifat, hatto, son so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ism bo'lgan holda, tabiiyki, ot turkumiga mansub bo'ladi. Quyida shunday so'zlar izohlangan lug'at maqolasi tarkibini ko'rib chiqamiz.

RAMZ [*a.* – belgi, imo, ishora; laqab, taxallus] 1 Biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora. *Do'stlik ramzi. Kabutar – tinchlik ramzi. Ona o'lkam mening ramzi sadoqat, Durlar shodasida durdona go'yo.* E.Vohidov, Muhabbat. *San'atkor Bernora, moviy ko'l farzandi, sadoqat ramzi – Oqqushga aylanib, ravon suzib chiqadi sahnaga. «Saodat». Yodgorliklar muqaddas nodir meros sifatida Vatanga sadoqat ramzi bo'lib, avloddan avlodga o'tib boradi.* N.Safarov, Olovli izlar. *Biz, ozod O'zbekiston*

fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat gerbi, Davlat madhiyasi azizdir. Gazetadan.

2 Qochiriq yoki ishora bilan aytilgan gap; imo-ishora, shama. *Ramz bilan gapirmoq. Latifa, askiya, ramz-u kinoya O'tar ulfatlar ichra benihoya. Habibiy. Saidiy, garchi keyinchalik Yoqubjonning ramziga tushungan bo'lsa ham, bu gapni haqoratga qarshi haqorat tarzida aytdi. A.Qahhor, Sarob. Hasrat to'la so'zingdan ozor topar nigorim, Ramzi ishora birlan qilgin uni ifoda. E.Vohidov, Yoshlik devoni.*

3 Ramz (erkaklar ismi) (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд).

Lugʻat maqolasidan koʻrinib turganidek, *ramz* leksemasi 1-2-maʼnolari turdosh ot; 3-maʼnosi esa atoqli ot sifatida koʻrsatilgan. Bu esa mazkur leksemaning polisemantik, shu bilan birga, polifunksional soʻz ekanligini koʻrsatadi. Til korpusida bu soʻzning uchrashini tekshirib koʻramiz. Korpus qidiruvida 712 ta ushbu soʻzshakl uchragan kontekst topildi. Ular orasida *ramz* soʻzi turdosh va atoqli ot boʻlib kelish holati qorishiq uchragan:

Yerni ekin ekishga tayyorlashda lazerli tekislash qurilmasidan foydalanyapmiz, – deydi MChJ rahbari Ramzbek Raimov (<https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search/Details/11870956?q=ramz>).

Fotoreportaj: «Ramz Boʻzatov bogʻi»ning oʻzlashtirilgan yerlari ekin ekish uchun hozirlanmoqda (<https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search/Details/11870955?q=-ramz>).

Dunyoning boshqa hech bir davlat bayroqlari bir-biriga shunchalik mos kelmaydi. Bu davlat ramzlarining dizayni va oʻlchamlari deyarli bir xil va faqat diqqat bilan qaralsa, koʻk, sariq va qizil vertikal tasmalardagi ranglar tusida tafovut seziladi (<https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search/Details/12217545?q=ramz>).

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 2031-moddasida davlat ramzlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlik nazarda tutilgan.

712 ta misoldan 9 tasida atoqli ot, qolgan hollarda turdosh ot vazifasini bajargan. Koʻrinib turibdiki, oʻzbek tili korpusini semantik teglashda mazkur polifunksional soʻzlar aniq semantik teglanmasa, atoqli va turdosh ot qidiruvida hozirgi kabi aralash natijalar chiqaveradi. Hozir mazkur korpus teglanmagan, shu sababli faqat atoqli ot sifatida kelgan yoki faqat turdosh ot sifatida kelgan ramz soʻzini ajratib olishning imkoni yoʻq. Agar korpusning har bir soʻzi semantik jihatdan toʻgʻri teglansa, qidiruv natijasi aniqligi oshadi.

Xuddi shunday soʻzlar **nazar**, **nasim**, **neʼmat** kabi soʻzlarda ham uchraydi. Quyida ularning izohli lugʻat lugʻat maqolasida berilgan izohini keltiramiz:

NAZAR [*a.* – koʻrish qobiliyati, koʻrish; nigoh] 1 Koʻz qarashi; nigoh.

Nazar solmoq. Nazar tashlamoq. Yigitning sovuq nazari Madaminxo 'jani shoshirib qo'ydi. M.Ismoil, Farg'ona t. o. Yo'lovchi yoshlarni birma-bir nazaridan o'tkazarkan, atrofga alanglab so'radi: – Idoralarigiz qayerda, yigitlar? P.Tursun, O'qituvchi. Bizning ishimizga ham bir nazar solsangiz-chi. P.Tursun, O'qituvchi. Sidiqjon qip-qizarib ketdi va Zunnunxo 'jaga «gapirsangiz-chi!» degan mazmunda nazar tashladi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. O'qituvchi leksiyaning yarmiga kelganda... Yo'ldoshga egilib turgan Hasanga nazari tushdi. Iboxon, Ulug' kun.

Nazar(i)ga (yoki **nazari**) **ilmaydi** Mensimaydi, pisand qilmaydi. *Menday bir mushtipar kampirni nazaringizga ilib kelibsiz, rahmat. S.Anorboyev, Oqsoy. Nazarga olmoq yoki nazarda tutmoq* E'tiborga olmoq, hisobga olmoq. *O'sha vaqtdagi turmush, o'sha sharoitdagi bolalikni nazarga olganda, uni «kichik mehnatkash» deyish mumkin edi. A.Qahhor, Oltin yulduz. Nazardan qolmoq* E'tibori yo'qolmoq, xayrixohlik, yaxshi munosabatdan ayrilmoq.

2 (faqat egalik qo'shimchasi bilan) Voqea, hodisa, kimsa, narsa va sh. k. haqidagi subyektiv fikr, ularga bo'lgan qarash. *Nazarimda, siz yanglishyapsiz. Xo'jayinlar nazarida xizmatkor – yarim odam. Oybek, Tanlangan asarlar. Ishlar Elmurodning nazarida ko'ngildagidek davom etayotganga o'xshar edi. P.Tursun, O'qituvchi.*

Nazari past yoki past nazar q. past nuqtayi nazar 1) qarashlar sistemasi, voqea va hodisalarni anglash usuli; konsepsiya. *Masalaga moddiy manfaatdorlik nuqtayi nazaridan yondashmoq;* 2) jihat, tomon. *Iqlim nuqtayi nazaridan O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari bor. -dan qat'i nazar* Biror narsaga bog'liq bo'lmagan holda.

3 Nazar (erkaklar ismi).

Nazar leksemasi polisemantik ekanligi uning arab raqami bilan raqamlanishidan ma'lum. Ammo uning polifunksional ekanligini ko'rsatuvchi pometa O'TILda ham mavjud emas.

NASIM [*a. – mayin shabada, sabo*] kt. 1 *Yengil, yoqimli shamol; shabada, sabo. Ariq bo'ylari, tolzorlar oralab uchgan shabadalar, Samarqand nasimiday, qaynoq tanlarga qanot urib, erkalab, orom berib o'tadi. Mirmuhsin, Umid. Kolonnalar to'lib-toshadi, bayroqlar bahor nasimi bilan o'ynashadi. Mirtemir. Tanlangan asarlar.*

2 Nasim (erkaklar ismi) (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд).

Nasim leksemasi O'TILda polisemantik leksema sifatida ko'rsatilgan: 2 ta ma'nosi arab raqamida belgilangan, xolos. Uning atoqli ot ekaniga ishora mavjud.

Demak, ayrim so'zlarning atoqli ot vazifasida kelishi, ayrimining turdosh ot vazifasida kelishida ustunlik kuzatiladi. Bu so'zlarning qo'llanish chastotasining past emasligi, ularning tilda faol qo'llanishini ko'rsatadi. Demak, bunday so'zlar til korpuslarida farqli semantik teglar bilan ajratib belgilangan bo'lishi kerak. Shu

sababli bu turdagi polifunksionallikka ega leksemalarning semantik kengaytmasini quyidagi teglar bilan mukammallashtirish talab etiladi.

Daslab bu soʻzning polifunksionalligini koʻrsatuvchi teg biriktiriladi: Polifunksional soʻz – PfW. Agar mazkur soʻz ham polifunksional, ham polisemantik soʻz boʻlsa, PfW+PsW tarzidagi qoʻshma teglardan foydalanish mumkin. Ikkinchi bosqich teglashda esa soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansubligi (N), qaysi maʼnosi qanday vazifada kelishini koʻrsatuvchi teg talab etiladi: atoqli otga (Per), turdosh otga (Pr) tegini biriktirish tavsiya etiladi. Bunday soʻzlarni matnda avtomatik farqlashning yagona yoʻli bu ularning farqli usulda yozilishidir: atoqli ot boʻlganda bosh harf bilan, turdosh ot boʻlganda kichik harf bilan yoziladi. Shu asosda avtomatik ravishda tanib olinadi va maʼlum bir kontekstda qaysi vazifasi yuzaga chiqayotganligi aniqlanadi, semantik kengaytmada oʻsha teg koʻrinadi. Masalan, **nasim** soʻzini quyidagicha teglash mumkin:

	Leksema/soʻzshakl	Semantik teglar toʻplami
	nasim	<PfW+PsW>; <N>; <Pr>
	Nasim	<PfW+PsW>; <N>; <Per>

Bu soʻz polisemantik va polifunksional boʻlganligi sababli shunday teglanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oʻzbek tilida polifunksionallik masalasi atroflicha oʻrganilgan. Mazkur birliklarni teglashda shu tadqiqotlarning natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Rus tili mutaxassislari esa matndagi polifunksionallikni modellashtirish yoʻli bilan aniqlashni taklif etishadi.

Adabiyotlar

Ахманова О.С. (1957). Очерки по общей и русской лексикологии. Москва: Издательство «Советская Энциклопедия». Редакция русских словарей, 1974). 42-48.

Гулямова Ш.К. (2022). Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси.

Гулямова Ш. (2020). Полисемия лингвистик ходиса сифатида // “Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар” конф. материаллари, 26-28.

Реформатский А.А. (1967). Введение в языковедение. Просвещение.

Курилович Е. (1962). Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. Издательство иностранной литературы, 153-155.

Ботирова А. (2018). Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифасининг функционал-синтактик таҳлили: филол. фан. фалс. докт. (PhD) диссер. автореф, 56.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. (2000-2006). “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти.

AHOLI VAKILLARINI O‘ZBEK ADABIY TILINING YOZMA NUTQI ME’YOR VA QOIDALARIGA O‘QITISH MASALASI

O‘rinboy Boboyorov*

Annotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada mahallalarda band bo‘lmagan keng aholi qatlami vakillarini o‘zbek adabiy tilining yozma nutqi me’yorlari va qoidalariga o‘qitish, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosini o‘rgatish masalalari borasida, shuningdek, davlat tilida hujjatlar yuritish, unga amal qilish borasidagi ba’zi bir mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: *Davlat tili, lotin yozuvi, hujjat, ish qog‘ozi, ma’lumot, uslub, mahalla, aholi, til birligi, so‘z, an’ana, qolip, me’yor, matn, ariza, tilxat, qoida, nutq.*

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi

THE PROBLEM OF TRAINING THE REPRESENTATIVES OF THE POPULATION ON THE STANDARDS AND RULES OF WRITTEN SPEECH OF THE UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abstract

Today, in our country, the issue of complete transition to the Uzbek alphabet based on the Latin script remains urgent. In this article, some considerations are expressed regarding the issues of teaching the representatives of the unemployed population in the neighborhoods to the norms and rules of the written Uzbek literary language, teaching the Uzbek alphabet and spelling based on the Latin script, as well as keeping documents in the state language and following it. found

Keywords: *State language, Latin script, document, working paper, information, style, neighborhood, population, language unit, word, tradition, pattern, standard, text, application, receipt, rule, speech.*

Dunyo xalqlari va millatlarining madaniy o'zagi va asosiy muloqot manbayi bu ularning milliy tili hisoblanadi. Shunday ekan, har bir tilning saqlanishi hamda yosh avlodga yetkazilishi, xalq taraqqiyoti va uning kelajagini belgilaydi. Har qanday jamiyatda til taraqqiyotini yozuv taraqqiyoti, uning mukammalligi bilan ham o'lchash mumkin. Til ko'plab xalqlarni o'zaro birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'ana va madaniyatini saqlaydi, uni avloddan avlodga o'tishini ta'minlaydi. Ana shu ko'prik vazifasini ma'lum ma'noda yozuv amalga oshiradi. Yozuv o'z o'rnida millatning tarixi, boy urf-odatlari, ilmiy, ijodiy manbalarini uning buguni, kelajagi bilan bog'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5850-son Farmonining e'lon qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-sonli qarori asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish malaka oshirish markazining hamda uning viloyatlardagi hududiy bo'linmalarining tashkil qilinishi ona tilimiz – o'zbek tiliga hurmat va e'tiborning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Mazkur qarorda Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalarida bandligi ta'minlanmagan, yoki vaqtincha ishsiz keng aholi qatlami vakillarini yozma va og'zaki savodxonligini oshirish, o'zbek adabiy tili me'yorlari, o'zbek tilining tuzilishi bo'yicha amaliy bilimlari, ko'nikma va mahoratini tizimli asosda oshirib borish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari, zaririy ish yuritish hujjatlari va ularni yozish bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarini

shakllantirish masalalari belgilab qo'yilgan. Shuningdek, o'qitish kurslari aholi uchun bepul amalga oshirilishi, barcha xarajatlar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, band bo'lmagan keng aholi qatlami a'zolarini ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi, xususan, yozuv bilan bog'liq islohotlardan doimiy xabardor qilish, ularni o'qitishdan iborat. Shu ma'noda Markaz va uning hududiy bo'linmalarida tashkil etilayotgan o'quv kurslarining vazifasi quyidagicha belgilangan:

- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini kirill alifbosi bilan qiyoslab o'rgatish;
- o'zbek adabiy tili me'yorlari, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari, tinish belgilariga oid bilimlar berish;
- nutqiy vaziyatlarni yozma va og'zaki ifodalash, nutqning uslubiy shakllari, matn yaratish texnikasi va matn ustida ishlashga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- kurs tinglovchilarining nutq madaniyatiga rioya qilgan holda fikrni yozma hamda og'zaki ifodalash ko'nikmasini shakllantirish;
- aholi uchun zaruriy ish hujjatlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar, ish yuritish tili va uslubi, hujjat turlari bilan tanishtirish.

Bir so'z bilan aytganda, o'quv kursi keng aholi qatlami vakillarini o'zbek adabiy tilining yozma nutq me'yorlariga o'rgatish, nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, savodxonlik darajalarini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunga qadar Markaz va uning hududiy bo'linmalarida **2000 ga** yaqin aholi vakillari kursni muvaffaqiyatli yakunlab, davlat namunasidagi sertifikatlarga ega bo'ldilar.

Ta'kidlash lozimki, kursning 144 soatga mo'ljallangan ishchi o'quv dasturi nisbatan sodda, mavzularni o'zlashtirish oson qilib ishlab chiqilgan bo'lib, kirill alifbosida savod chiqargan, yoki ishlagan aholi vakillariga juda qulaylik tug'diradi. Dasturning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi deb nomlangan 1-modulida, O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining joriy etilishi masalalari ko'rib chiqiladi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi kirill alifbosiga taqqoslab o'rgatiladi. Lotin alifbosidagi unli va undosh harflarning bosma, yozma ko'rinishlari tinglovchilar tomonidan maxsus ish daftarlari orqali amaliy mashg'ulotlarda bajariladi. Shu bilan birga birikmali harflar, tutuq (**Ў**) belgisining ishlatilishi, yonma-yon kelgan undoshlar imlosi va kirill alifbosidagi **Е, Ё Ю, Я, И** harflarining o'zbek-lotin alifbosida yozilishi atroflicha o'rgatiladi, ish daftaridagi amaliy mashqlar bajariladi. Masalan, **Sh, Ch, ng** qatnashgan so'zlar yordamida berilgan jadvallarni to'ldirish, test topshiriqlari asosida birikmali harflar ishtirok etgan javoblarni aniqlash kabi. Shu o'rinda keng aholi uchun o'zlashtirishga qulaylik tug'diradigan ba'zi bir test va amaliy mashqlarni ko'rib chiqsak:

1. Berilgan qaysi soʻzlarda “ng” harfiy birikmasi ishtirok etgan?

1) yangi; 2) tongi; 3) koʻngil; 4) senga; 5) dengiz; 6) ingliz; 7) singil.

A) 1,2,3,4,5,6 B) 1,2,3,4,5,6 C) 1, 2,3,5,7 D) 1,2,3,4,5,6,7

2. “ng” bir tovushni ifodalagan soʻzlarni belgilang?

A) tungi, unga B) tongi, shtanga C) tonggi, dengiz D) yongan, singil

3. Berilgan soʻzlarni lotin alifbosida yozing. (шoup, кашф, чанг, аччиқ, масҳ)

4. Kirill alifbosida berilgan quyidagi maqol va hikmatli soʻzlarni lotin alifbosida yozing.

Маҳалла — маънавият бешиги.

Топ ер дўстлар билан майдон бўлур, кенг ер душман билан зиндон бўлур.

Истиқлол — Ўзбекистоннинг шонли тарихида ҳамиша энг ёрқин, ўчмас саҳифа.

5. Berilgan soʻzlarni lotin alifbosida yozing.

Маърифат, маъно, масъулият, маъкул, маъруза, мўъжиза, мўъжаз, мўътабар, мўътадил, таъмир, қатъий, қалъа, қатъият, шаън.

6. Ushbu soʻzlarda tutuq belgisi yozilmasa qanday maʼno bildirishiga eʼtibor bering.

Aʼyon-ayon, daʼvo-davo, sanʼat-sanat, saʼva-sava, surʼat-surat, taʼna-tana, talʼat-talat, taʼqib-taqib, taʼrif-tarif, qalʼa-qala, sheʼr-sheer.

7. Tushirib qoldirilgan yonma-yon unlilarni yozing. Yonma-yon kelgan unlilarning talaffuziga eʼtibor bering.

Agrob...logiya, ...roport, akkord...n, akvar...m, at...zm, ...ditoriya, av...tsiya, b...obroʻ, b...graf, bad...y, vak...m, m...mmo, matb...t, tab...y, r...ya, sh...ra.

8. Kirill alifbosidagi Ц- ishtirok etgan quyidagi soʻzlarni lotin alifbosida yozing.

Акция, акцент, акционер, абзац, концерт, милиция, механизация, операция, коллекция, офицер, дециметр, квитанция, центнер, Франция, Греция, цивилизация, цирк, цемент, кварц, сценарий, антициклон, Цицерон, ацетон.

Bu kabi mashqlar bajarilgach, gap va kichik-kichik matnlarni oʻqish va yozish topshiriqlari orqali alifbo mustahkamlanishi mumkin.

Oʻzbek adabiy tili meʼyorlari modulida asosan keng aholi qatlami vakillarini oʻzbek adabiy tilining yozma nutqi meʼyor va qoidalariga oʻqitish, nutqiy vaziyatlarda ogʻzaki fikrini erkin ifodalash masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi. Mazkur masalalar ham asosan test savollari, amaliy mashqlar, topshiriqlar asosida shakllantiriladi. Misollar koʻrib chiqsak:

1. Quyidagi soʻzlarni talaffuzda i ortishi yoki ortmasligiga qarab ikki ustunga ajrating.

Asr, mehr, poʻst, bahs, ilm, kort, urf-odat, hazm, sabr, ufq, neft, mashq, jahd, ganch, dafn, zehn, shavq, zavq, husn, fasl, vahm, qirq, burch, qunt, ont, rasm, elektr, silindr, barg, zulf, kasb, aql.

2. Berilgan rasmlardan foydalanib fikringizni ogʻzaki bayon qiling.

3. *Kundalik hayotiy ehtiyojlaringiz asosida nutqiy vaziyatlar yarating hamda vaziyatlarni mos ravishda nomlang.*

4. *Nuqtalar o‘rniga o‘ yoki u harflarini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chirib yozing.*

...rik, ...sma, ...zum, ...rtoq, d...kon, k...p, q...l, s...m, k...k, n...xot,
x...roz, ...zbek, k...ch...k, uz...n, t...n, ...rdak, ...lim.

5. *Nuqtalar o‘rniga x yoki h harflarini qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring.*

...ola, ...ayot, ba...t, ...isob, tari..., tu...um, ...ato, be...i, mash...ur, ...unuk,
...okim, mi..., ...itoy, ...indiston, ...irot, ...imolay, ...ech kim, ...avo,...amma,
...ozir, ...iyobon.

6. *Qo‘shimchalarga mos keladigan so‘zlarni imlo qoidalariga asosan yozing.*

	-gach	-kach	-qach
1.	yo z gach		

7. Jadvalli topshiriqlar.

Nuqtalar o‘rniga qo‘yish lozim bo‘lgan so‘zni belgilang. Har kim ekkanini ...	o‘radi	teradi	aytadi	dedi
Nuqtalar o‘rniga qo‘yish lozim bo‘lgan so‘zni belgilang. So‘z boshi – ..., Ish boshi – intizom	yutuq	boshlash	salom	mayli
Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying bo‘lmas	yomon	somon	shodmon	xursand
Istiqlol mash‘ali tinchlik posboni, Davom ettiring	Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod	Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon	Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni	Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot
Oyog‘ini qo‘liga olib yugurmoq. Ushbu ibora qanday ma‘noda qo‘llanadi?	Uddaburon	Kulmoq	Xursand bo‘lmoq	Shoshilmoq
Bahor. Mahalla jim-jit, hamma paxta terimiga chiqqan. Ushbu gapda noo‘rin qo‘llangan so‘zni toping.	Bahor	Mahalla	Paxta	Jim-jit
Tasviri y ifodaning ma‘nosini toping? Sahro kemasi - ...	Qum	Tuya	Yantoq	Yuk
Tasviri y ifodaning ma‘nosini toping? Dala malikasi - ...	Makka-jo‘xori	Majnuntol	Bug‘doy	Paxta

Gapga mos keladigan soʻzni tanlang. Biz ... avlodlarga nimani meros qoldiramiz?	hozirgi	keyingi	kelgusi	navbatdagi
--	---------	---------	---------	------------

Oʻquv dasturidagi mavzular doirasidagi yuqorida koʻrsatilgan amaliy mashqlar aholi vakillarini tez, oson va qulay tarzda oʻzlashtirishlariga yordam beradi. Xuddi shu kabi asos va qoʻshimchalarning yozilishiga doir masalalar, qoʻshma soʻzlarning yozilishi bilan bogʻliq imlo qoidalari, bosh harflarning hamda tinish belgilarining imlosi bilan bogʻliq qoidalar ham sodda koʻrinishdagi mashqlar orqali oʻrgatiladi.

Shuningdek, oxirgi yillarda barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari davlat tilida, lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosida rasmiylashtirilmoqda. Bu kabi masalalar band boʻlmagan, yoki vaqtincha ish bilan taʼminlanmagan aholi qatlami vakillarini ham ish hujjatlari bilan yaqindan boxabar boʻlishga undaydi. Sir emaski, barchamiz maktabda oʻquvchi paytligimizdanoq maʼlumot-axborot hujjatlarining eng sodda turlari(ariza, tarjimai hol, tushuntirish xati, maʼlumotnoma, eʼlon va boshqalar)ni yozishga, kimgadir taqdim etishga ehtiyojimiz ortib boradi. Aholi uchun moʻljallangan oʻquv dasturida ham maʼlumot-axborot hujjatlarini davlat tilida imlo va shakl nuqtayi nazardan ham toʻgʻri, ham aniq yurita olish masalalariga eʼtibor qaratilgan. Maʼlumot-axborot hujjatlarining eng zarur, nisbatan koʻp qoʻllaniladigan turlari, ularning oʻziga xosliklari, hujjat tuzish tartibi va qoidalari, eʼtibor berish lozim boʻlgan jihatlar aniq misollar yordamida ochiqqlangan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bugun tilimizning davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish, tashkilotlarda, aholi oʻrtasida ish yuritish tizimini davlat tili nuqtayi nazaridan ham lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini toʻlaqonli joriy etish borasida ham oldinga siljish yaqqol koʻzga tashlanayotganligini taʼkidlab oʻtish maqsadga muvofiqdir. Oxirgi yillarda tilimiz va yagona yozuv borasida bir qadam boʻlsa-da, oldinga odim tashlangani quvonarli hol, albatta. Faqatgina har birimiz qonun usuvorligi bilan cheklanmasdan, millat yakdilligi, tilimiz ravnaqi, sofligi yoʻlida harakatni susaytirmasligimiz lozim.

Adabiyotlar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “*Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida*” 5850-son Farmoni

Aminov M. Madvaliyev A. Mahkamov N. Mahmudov N. Odilov Y. (2021). *Davlat tilida ish yuritish*. Oʻzbekiston. Toshkent.

Boboyorov Oʻ. Xolsaidov F. (2021). *Oʻzbek adabiy tilining yozma nutq meʼyorlari*. Toshkent.

Mahmudov N. Rafiyev A. Yoʻldoshev I.(2013). *Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish*. Fan.Toshkent.

O‘ZBEK KOMEDIYALARIDA KULGI YARATUVCHI VOSITALAR TASNIFI

Shoira Bayxanova *

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek komediyalarida kulgi yaratuvchi vositalar tasnifi va ularning badiiy obraz xarakterini yoritishdagi o‘rni tahlil etilgan. Kulgi yaratuvchi vositalarning til xususiyatlari yoritilgan. Til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy berilishi ta’kidlab o‘tilgan. Millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir. Ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ma’naviyat va ma’rifatning hal qiluvchi omilidir. Shuning uchun milliy g‘oya targ‘ibida millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Bugun O‘zbekistonda Yurtboshimiz rahnamoligida benihoya xolis va odil til siyosati shakllangan, bu siyosatni hayotga joriy qilish borasida ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar muntazam amalga oshirilmoqda. Qisqa vaqt ichida o‘zbek tilini ilmiy tadqiq qilish va o‘qitish ishlari mustaqillik davri talablariga javob beradigan darajaga keltirildi. Endilikda mana shu tarixiy o‘zgarishlarni, bu boradagi yutuq va tajribalarni

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Namangan hududiy bo‘limasi rahbari

umumlashtirmoq hamda galdagi ustuvor vazifalarni bajarmoqqa jadal harakat qilmoq lozimdir. Mazkur maqolada o'zbek komediyalarining ayrim lisoniy xususiyatlari, o'zbek tilining komediya janrini yaratishdagi o'z ichki imkoniyatlari, yozuvchi mahorati misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *ohang, komik munosabat, o'zbek komediyalari, antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko'p ma'noli so'z va iboralar, okkozional frazemalar, mubolag'a, personaj nutqi, antonomatsiya, grotesk, paralingvistika.*

CLASSIFICATION OF MEANS CREATING LAUGHTER IN UZBEK COMEDIES

Abstract

This article analyzes the classification of means of laughter in Uzbek comedies and their role in illuminating the character of the artistic image. Linguistic features of means of laughter are highlighted. It was emphasized that language is the cornerstone of the unity of the nation, and if it is lost, the nation will also be lost. The main symbol of the existence and unity of the nation is the language. Regular love for the mother tongue, stable respect for the state language is a decisive factor of spirituality and enlightenment. Therefore, in the promotion of the national idea, the education of love for the mother tongue, which is the immortal soul of the nation, has an important place. Today, under the leadership of our President, a fair and impartial language policy has been formed in Uzbekistan, and specific measures designed to implement this policy are being implemented regularly. In a short time, scientific research and teaching of the Uzbek language was brought to a level that meets the requirements of the independence period. Now it is necessary to summarize these historical changes, achievements and experiences in this regard, and to make urgent efforts to fulfill the current priority tasks. This article analyzes some linguistic features of Uzbek comedies, the internal capabilities of the Uzbek language in creating the comedy genre, and the writer's skills based on examples.

Key words: *tone, comic attitude, Uzbek comedies, antroponyms, nicknames, toponyms, ambiguous words and phrases, occasional phrases, exaggeration, character speech, antonomatization, grotesque, paralinguistics.*

Yozuvchi uchun so'z va iboralar ham qurol, ham bo'yoq, ham soz, ham tovush, ham mo'yqalam vazifasini bajaradi, ya'ni so'z va iboralar mohir yozuvchilar qo'lida obrazli fikrlash, go'zal poetik manzaralar chizish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek komediyalarining tili va yozuvchining individual uslubi masalalari bilan shug'ullanish barcha filolog olimlarning diqqatini jalb etib kelayotgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Badiiy asar funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan, insonni ruhan to'ldirish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan badiiy muloqot vositasidir. Badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarini turli janrlarda o'ziga xos shakllarda uchratish mumkin. Xususan, o'zbek komediyalarida ham xarakter ruhiyati asarning janr xususiyati va yozuvchi mahorati orqali sayqal topadi.

Komediyaning asosida yotuvchi ijobiy kuch – kulgi, u jamiyat hayotida, kishilar fe'l-atvorida mavjud kamchiliklar, idealga nomuvofiq jihatlarga qaratilgan bo'ladi. Komediyaning markazida komik xarakterlar turadi. Odatda, komik xarakter deganda, o'zida idealga tamoman zid illatlarni jamlovchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi personajlar nazarda tutiladi. Bu o'rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik personaj o'zining mavjud holatini idrok etmaydi, o'ziga real baho berishga ojiz. Aksincha, u o'zini bor holiga nisbatan tamoman teskari baholashga moyil: g'irt tentak bo'lgani holda o'zini aqlli sanaydi, ma'nan tuban bo'lgani holda o'zini pokdomon biladi. O'zini o'zgalarga shunday sifatlarda taqdim etishga chiranadi. Masalan, *Uyg'unning "Parvona"*sidagi *O'tkuriy* ma'nan tuban, axloqan buzuq, oddiy mahmadana-yu firibgar bo'lgani holda o'zini aqlli, so'zamol, uddaburon, yashashni biladigan kabi fazilatlar egasi deb hisoblaydi, shunday ko'rinishga urinadi. Xuddi shu narsa- xarakterning mohiyati bilan mavjudligi orasidagi nomutanosiblik komiklikni, xarakter komikligini yuzaga chiqaradi. Komediya holat komikligi asosiga ham quriladi. Masalan, *Said Ahmadning "Kelinlar qo'zgoni"*, *"Kuyov"* asarlarida holat komikligi ustuvor mavqega ega. Aslida, bu xil farqlashda shartlilik bor, chunki komediyada xarakter komikligi bilan holat komikligi uyg'unlashib keladi, ular bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini namoyon etadi. Komediya satirik yoki yumoristik ruhda bo'lishi mumkin, har ikki holda ham u g'oyaviy-hissiy inkor qiladi: satirik ruhdagi komediya qalamga olingan xarakter yoki holatni to'la inkor qilsa, yumoristik ruhdagi komediya xarakter yoki holatdagi ayrim jihatlarni qisman inkor qilladi. Masalan, *Hamzaning "Tuhmatchilar jazosi"*, *"Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi"*, *A.Qahhorning "So'nggi nusxalar"*(*Tobutdan tovush*), *"Og'riq tishlar"*, komediyalari, *Shuhratning "Besh kunlik kuyov"* va *Abduqahhor Ibrohimovning "Arra"*, *"Meni aytdi demang"*, *"Sochqi"*, *"Mayli-mayli"*, *"Zo'ldir"* kabi komediyalari satirik ruhdagi asarlar sanalsa, *Abdulla Qahhorning "Ayajonlarim"*, *"Yangi yer"*(*Shohi so'zana*) komediyalari hamda *Hamid G'ulomning "Farg'ona hikoyasi"*, *"Toshbolta oshiq"*, *"O'g'il uylantirish"*, *"Ajab savdolar"* kabi komediyalari, *G'afur G'ulomning "Qayda baxt"* *Erkin Vohidovning "Oltin devor"*, *Said Ahmadning "Kelinlar*

qo'zg'oloni” kabi komediyalarida *yumoristik* ruh ustivorlik qiladi. Ma'lumki, badiiy asarlarda yumor hayotning mukammal, insondagi fazilatlarning yanada go'zalroq bo'lishi uchun, yaxshilik uchun kurashadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu asarlarda oliyjanoblik, ezgulik tuyg'ulariga ega bo'lgan kulgi hosil qiluvchi vositalar yumorning turli qirralarini ochib berishga bo'ysundirilgan. Shu sababli kulgi vositalari o'zining bor jilolari, bo'yoqlari bilan jilvalanib turadi. Shunisi e'tiborliki, yuqoridagi asarlarda insonning inson ustidan quruq kulgisi emas, balki insonga bo'lgan muhabbatdan tug'iladigan o'ziga xos, betakror kulgi vositalaridan o'rinli foydalanilgan. Shu sababli bu asarlar yumorga, yumoristik unsurlarga boyligi, xarakterlar tabiatiga yumor mantiqan singdirib yuborilganligi bilan ajralib turadi. Badiiy asarda ijodkor idealiga zid xarakter va hodisalarning kulgi yo'li bilan inkor etilishi komiklik deyiladi. Komiklik obyekt va subyekt birligida namoyon bo'ladi: uni yuzaga kelishi uchun obyektidagi nomuvofiqlikni ko'ra oladigan va ideal nuqtayi nazaridan baholay oladigan subyektning bo'lishi shart. Komiklikning turli ko'rinishlarida komiklikni yuzaga chiqish yo'sini bir xil bo'lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko'proq obyektidagi ziddiyatni bo'rttirib ko'rsatish orqali namoyon bo'lsa, *kinoya* va *sarkazmda* obyektidagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi. Shuning uchun ham sarkazm va kinoya obyektida nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanmaydi, ular ko'p jihatdan kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Komik munosabat obyektini o'zida idealga tamoman zid illatlarni yoki ulardan ayrimlarini namoyon etadiki, shu jihatdan satira va yumor ko'rinishlari farqlanadi. Satira obyektida idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtayi nazaridan to'la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektidagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko'zda tutiladi. Yumorda badiiy asardagi kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do'stona, beg'araz kulish ko'ngilxushlik maqsadida emas, qisman bo'lsa-da, idealga muvofiq jihatlarni ko'rish, uni mukammallashtirish, nuqsonlarini bartaraf qilish, undagi umuminsoniy tuyg'ularni yuzaga chiqarish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham yumorda nuqsonlar ustidan kulish bilan birga xayrixohlik, achinish ham mavjud.

Kulgi asar tilini yumor tiliga aylantirib, lirizm bilan omuxta bir ohang, o'ziga xoslik bag'ishlaydi. O'zbek komediyalarida antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko'p ma'noli so'z va iboralar, okkozional frazemalar, mubolag'alardan foydalanish, personajlar nutqida har xil qo'pol so'zlarni ishlatish, asardagi narsa-buyum otlariga boshqacha nom berish, boshqa tildan so'z olish va chet so'zlarni o'zbek tiliga moslashtirish kabilar kulgi uyg'otish vositasiga aylangan. Shuning uchun ham o'zbek komediyalaridagi yumor yaratuvchi vositalarni tasnifiy belgilar asosida guruhlarga ajratib tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1. Ko'p ma'noli so'z va iboralar hamda okkazonal frazemalar vositasida kulgi hosil qilish usuli:

O'zbek komediyalarida muvaqqat ma'no, ya'ni so'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan okkozional ma'noga ega bo'lgan so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar va iboralar kulgi hosil qilishda eng asosiy usul hisoblanadi. Masalan, Hamid G'ulomning "Toshbolta oshiq" komediyasida Risolatning kuyida yurgan Toshbolta nutqida quyidagicha ma'no nozikliklari uchraydi :

*Toshbolta. Bir ko'rdim-u, **tinchim yovvoyi kabutarday uchdi-ketdi...** Qumridan keyin uylanmaslikka ahd qilganimda bunaqa **nozanin** yo'liqadi deb o'ylamovdim...(eshikdan mo'ralaydi, xoxolab kuladi). Ayni payti... Hovli ro'yasida tanho yuribdilar... Voy-vo'y, baqbaqalaringdan akang aylansin!...*

(qiytonglaydi, xirgoyi qiladi)

*Quralay ko'z quralay,
Tuynugingdan mo'ralay.
Sen yallo aytganingda,
Ohangiga yo'rg'alay...*

Teshavoy. Men shundog' aylanib...

Toshbolta. Men ham shundog' aylanib...(yana o'shqiradi). Qani jo'na!..

*Teshavoy (o'smoqchilab). Bu **uyning ohanrabosi** bormi deyman-a, dada?*

*Toshbolta. Ha, **ohanrabosi** bor! Qani, **tuyog'ingni shiqillatib qol!** (Hamid G'ulom. Toshbolta oshiq, 1988, 51-b).*

Adib ushbu matnda qahramonlarining o'ziga xos komik xarakterlarini yoritish maqsadida "**tinchim yovvoyi kabutarday uchdi-ketdi**", "**Ohangiga yo'rg'alay**", "**uyning ohanrabosi**", "**nozanin**" kabi ko'chma ma'noli so'zlar va okkozional frazemalardan hamda "**tuyog'ini shiqillatib qolmoq!**" kabi iboradan o'rinli foydalib, asardagi hissiy ta'sirchanlikni oshirishga erisha olgan.

Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasida Mo'min va Abdusalom nutqida ma'no ko'chishning kinoyaviy usuli kuzatiladi:

Mo'min. Ha, endi, do'stim, hol-ahvolim o'zingga ma'lum. Nima qilasan meni qiynab? Men axir Saidmalik zargar emasmanki, bunaqa narsalarga kuchim yetsa. Behuda zo'rlik umurtqani sindiradi degan gap bor.

*Abdusalom. Ha, umurtqangni ehtiyot qil, kerak bo'ladi. **Bu dunyoda orttirgan narsalaringni narigi dunyoga orqalab ketasan.***

Matndagi kinoya "bu dunyoda orttirgan narsani narigi dunyoga orqalab ketib bo'lmaydi" degan tushunchani berish maqsadida yaratilgan va samimiy, sof kulgi hosil qilingan.

2. Har xil qo'pol so'zlarni ishlatish orqali kulgi hosil qilish usuli:

Yozuvchi Said Ahmad ba'zan qahramonlar nutqi tarkibida shunday so'zlarni qo'llaydiki, ular qo'pol va adabiy tilda unchalik qo'llanilmasa-da, badiiy matnda

doimo yumoristik ohangni, yumoristik muvozanatni saqlab turish uchun xizmat qiladi. Masalan, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida:

Bo‘ston. Shu desangiz...

Farmon. Shu desangiz demay gapir!

Bo‘ston. Xo‘p bo‘ladi, oyijon. Shu desangiz... Ishxonamiz yonidagi do‘konga yaponcha jemper kelibdi. Shundan bittagina olsam. Shu desangiz ... Iltimos, o‘shandan bittasini olib bering. Jon oyijon, iltimos.

*Farmon. Tavba, yaponchasini kiygilari kepti, o‘zimizniki **teshib chiqadimi?** Bozorda **ivirsib** yurgan qayoqdagi **qalang‘i-qasang‘i** xotinlarning egnida yaponcha jemper. Ularning tengi bo‘ldingmi? Odamlarga hayronman, xo‘rozqandni ham chet elniki bo‘lsa yalayman, deydi. Jempering hali yap-yangi, Sotti, sen mashinadan benzin quyib, jemperini yuvib ber. Besh-o‘n kun hidi kelsa ham **o‘lgur** top-toza bo‘ladi. (Said Ahmad. *Kelinlar qo‘zg‘oloni*, 1998, 13-b)*

Yuqoridagi matnda Farmonbibi aytgan **“teshib chiqadimi?”**, **“ivirsib”**, **“qalang‘i-qasang‘i”**, **“o‘lgur”** kabi qo‘pol jumlar yengil kulgi hosil qilishda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda Said Ahmad mahoratiga xos bir xususiyatni ta’kidlash kerak bo‘ladiki, adib asarlarida kulgi hosil qiluvchi so‘z va iboralarning ikki-uch xilidan bir yo‘la bir matnning o‘zida foydalana oladi. Masalan yuqoridagi matnda kulgi hosil qilish uchun **“xo‘rozqandni ham chet elniki bo‘lsa yalayman”** jumlasini orqali asarga betakror, o‘ziga xos joziba baxsh etilgan va matndagi kulgining haqiqiy ta’sir kuchi ortgan.

3. Antroponimlar (nomlar va laqablar) orqali kulgi hosil qilish usuli:

Yozuvchi Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida kishi ismlari (antroponimlar)dan, kishi laqablaridan jozibadorlik, milliy harorat, o‘zgacha ma’no hosil qilish, obraz tabiatini ochish maqsadida ustalik bilan foydalanadi. Asar qahramonlariga ism tanlashda, uning asarda tutgan o‘rniga e’tibor beradi. Masalan, Farmonbibi o‘z uyida o‘zi qonun chiqarib, o‘zi ijrosini tekshirib oladigan qaynana. Yetti o‘g‘il, yetti kelin, qirq bitta nevara, o‘zi bilan jami ellik olti kishi yashaydigan xonadonni “General”i ham o‘zi ekanligini bilgan kishi bu ayolning ismi jismiga monandligiga qoyil qoladi. Sotti-bu har jabhada Farmonbibining o‘n qo‘li bo‘lgani va shpionlik mahorati borligi bois, shunday nomlangan. Erkin Vohidobning “Oltin devor” komediyasida Mo‘min juda mo‘min kishi etib tasvirlanadi. Abdulla Qahhorning “Og‘riq tishlar” asarida Oqila, Xumor nomli asar qahramonlari o‘ziga xos xarakterga ega. Haqiqatan ham Oqila aqlli, dono ayol bo‘lib, asarning boshidan oxirigacha shu holatda ishtirok etadi. Xumor esa “xumor” so‘zining lug‘atlardagi “bosh og‘rig‘i” degan ma’nosiga monand xarakterga ega. U asar davomida Zargarovning *bosh og‘rig‘i* bo‘lib qoladi. O‘zbek komediyalarida ism bilan bog‘liq qaraslarni yana chuqur tahlil qilish mumkin. Tilshunoslikda atoqli otlarning badiiy matnda alohida maqsadlar bilan qo‘llanishi- **antonomatsiya** deb yuritiladi.

4. Toponimlar orqali kulgi hosil qilish usuli:

O'zbek komediyalarida joy nomlari (toponimlar) ham kulgi uyg'otishga moyillik xususiyatiga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qahhorning "Yangi yer" komediyasida Mirzacho'lga kelgan Dehqonboy bu yerdagi ancha sho'x, quvroq usta Qo'ziyevdan **Siyqa tanga** qishlog'i nomi bilan bog'liq ajoyib ma'lumot eshitadi. Eshitadi-yu, o'zini kulgidan to'xtata olmaydi:

Qo'ziyev. Boshqa tomondan ekansiz-da. Mirzacho'lga qayerdan keldingiz?

Dehqonboy. Anjan oblastidan.

*Qo'ziyev. Men Samarqand oblasti O'zgarish qishlog'idan. Qishlog'imizning eski oti **Siyqa tanga** edi. Eshitgandirsiz?*

Dehqonboy. Siyqa tanga? (kulib) Ilgari ho'p g'alati otlar qo'yishar ekan-da. Siyqa tanga-ya!..

5. Boshqa tildan so'z olish, chet so'zlarni o'z tiliga moslashtirish orqali kulgi hosil qilish usuli:

O'zbek komediyalarida boshqa tildagi so'zni to'g'ridan-to'g'ri keltirish bilan ham kulgi hosil qilishga erishiladi. Kulgi hosil qilish va nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida yozuvchi ovsinlarning o'zaro suhbatida chetdan kirgan so'zlarni o'zbekcha so'zlarga aralashtirib qo'llaydi:

6. Turli kasb egalari nutqiga oid so'zlarni keltirish bilan kulgi hosil qilish usuli:

Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" komediyasida chalasavod tish doktori Marasul va rayijroko'm raisining o'rinbosari Zargarovlar nutqidagi turli kasb egalari ishlatadigan so'zlar kulgi hosil qilishda o'ziga xos o'rin tutadi:

*Zargarov. Ha, Rizamat? Tish og'rib qoldimi? Bunaqa araq ichishga tish emas, **otning taqasi** ham chidamaydi!*

Rizamat. Ichmay qo'yganman, xo'jayin!

*Zargarov. Shunaqami...(Kokragini ko'rsatib) O'ho', taqmaganing **choynakning qopqog'i** qolipti xoloc-a!*

Asarda "**Otning taqasi**", "**zanglagan taqa**", "**choynakning qopqog'i**" kabi so'zlar bilan birga xo'jalik mudiri Rizamat timsolida ordenbozlikning bir ko'rinishi ham aks ettirilib kulgi hosil qilingan.

7. Asardagi narsa-buyum nomlarini boshqacha ta'tiflash bilan kulgi hosil qilish usuli:

Nutqda shunday so'zlar borki, ular o'z nomi bilan atalsa hech qanday yslubiy ma'no aks ettirmaydi. Agar ularni biror qo'shimcha nom bilan atalsa, shu nom tufayli bu so'z kulgi hosil qiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" komediyasi qahramoni rais o'rinbosari Zargarovning bir ajoyib xaltasi bor. Sekretar qiz bu

xaltadagi albomga qayerda dokladbop narsa ko'rsa qirqib yopishtirib boradi. Shu xaltaning nomini **doklad-xalta** deb atashadi

8. Mubolag'adan foydalanish orqali kulgi hosil qilish:

O'zbek komediyalarida personajlarning tashqi ko'rinishi yoki xarakter xususiyatlari tasvirlanar ekan ba'zan mubolag'a yordamida ham kulgi hosil qilinadi. Tilshunoslikda bu hodisani **grotesk** deb ataladi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib, vahimali hamda kulgili tarzda bo'rtirib tasvirlashdir. Masalan, Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida Azimsher haqida yozuvchi quyidagi mubolag'alardan foydalanib, betakror lavha yaratadi:

Farmon. Otang rahmatlik erkaklikni o'rniga qo'yardi. Rahmatlikni hamma Azimsher deb atardi. Yursa, yer titrardi. Yo'talsa, daraxtdagi qushlar pir etib uchib ketardi. Aksa ursa, osmonda mamaqaldiriq bo'lib, chaqmoq chagardi. Rahmatlik xotin kishini gapini gap demasdi. (Ko'ziga yosh olib) Shundog' odam tuprog'da yotibdi. (Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni, 1998, 6-b)

Said Ahmad yumorni g'ayri tabiiy shaklda yana-da ta'sirliroq ifodalagan. Uning kulgisi shaxsning jismoniy kamchiliklari ustidan masxaraomuz, ta'na aralash kuluvchi satiralardan o'zining samimiy ruhi, benish yumori bilan ajralib turadi, shuning uchun, samimiyat o'rtadagi iliq munosabatlarga unchalik rahna solmaydi.

O'zbek komediyalarining ayrim lisoniy xususiyatlarini o'rganish jarayonida o'zbek tilining kulgi va yumorga boyligi, o'zbek adiblarimiz haqiqatan ham betakror so'z ustasi ekanligining guvohi bo'ldik. Komediyalarda yuzaga kelgan kulgi muayyan tarixiy sharoitda jamiyat taraqqiyotining mavjud holati, ideallarga nomuvofiq bo'lib qolgan ijtimoiy faktlar (urf-odatlar, insonlarning xatti-harakatlari, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi) ustidan kulish sifatida voqe bo'ladi.

Kulgi hosil qiluvchi lisoniy bo'lmagan vositalar borki, ular nutqni bevosita kuzatib boruvchi asoslar hisoblanadi. Ular til tuzilishiga kirmaydi, ammo hutqning ta'sirchanligini, mazmunan murakkabligini ta'minlaydi. Ana shunday vositalar ichida "imo-ishoralar", "mimiikalar" alohida o'rin tutadi. Ular tilshunoslikda paralingvistik vositalar nomi ostida o'rganiladi. Paralingvistik vositalar nutqning ta'sirchanligini, ixchamligini ta'minlaydi. Shu bilan birga kulgi qo'zg'atish uchun asos bo'ladi. Nutqda ifodalash mumkin bo'lmagan holatlarni imo-ishoralar va mimikalar orqali ifodalash mumkin bo'ladi. Mimikalar, imo-ishoralar xilma-xil bo'lib, turlicha ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Kulgi hosil qiluvchi vositalarga ovoz toni ohangni ham kiritish mumkin. Ovozni pasaytirish, ko'tarish, ohangini o'zgartirish orqali ham kulgi ifodalash mumkin. (Nurmonov, 2000, 18-b)

O'zbek komediyalarida so'z va frazemalar xilma-xil usullarda qo'llanilib, yumoristik kulgi yaratish uchun xizmat qilgan. Komedik asarlarda kulgi hosil qilish uchun lisoniy asoslar bor bo'lib, ular tildagi xilma-xil hodisalar tufayli yuzaga chiqadi. O'zbek komediyalarida antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko'p ma'noli

soʻz va iboralar, okkozional frazemalar, mubolagʻalardan foydalanish, personajlar nutqida har xil qoʻpol soʻzlarni ishlatish, asardagi detallarga boshqacha nom berish, boshqa tildan soʻz olish va chet soʻzlarni oʻzbek tiliga moslashtirish kabilar kulgi uygʻotish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Hamid Gʻulom. (1988). *Toshbolta oshiq*. Toshkent. Sharq.

Nurmonov A. (2000). *Oʻzbek tilining paralingvistik vositalari haqida*. Toshkent.

Nurmonov A. (2002). *Oʻzbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent. Fan.

Said Ahmad. (1998). *Kelinlar qoʻzgʻoloni*. Toshkent. Sharq.

MAHMUD KOSHGʻARIY – BUYUK TILSHUNOS

Shokir Sattorov*

Annotatsiya

Maqolada, XI asrning mashhur qomusiy olimi Mahmud Koshgʻariyning tugʻilgan yashab ijod etgan adabiy muhiti va uning mashhur “Devoni lugʻatitturk” asari haqida hikoya qiladi. Shuningdek, ushbu asarni ilk qoʻlyozmasini topilishi hususida dalillar keltiriladi. “Devon” 1914-yilga kelib, Turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli topilib, lingvistika tarixida yangilik boʻlganligi, bu asar tilshunoslikning juda koʻp sohalarini qamrab olganligi aytiladi.. Garchi qoʻlyozma 1914-yilda topilgan boʻlsada, Koshgʻariy va uning “Devoni lugʻatit turk” asari boʻlganligini XX asrdan ancha ilgari ham olimlar tilga olib oʻtganlar. Jumladan, sharqshunos olim V.V.Bartoldning “Qirgʻizlar” nomli asarida Mahmud Koshgʻariy toʻgʻrisida: “Bu shunday yagona adibki, u Oʻrta Osiyo toʻgʻrisida arab tilida yozgan boshqa barcha mualliflardan farq qiladi: Mahmud turli kitoblardan koʻchirib yozmagan, balki oʻz koʻzi bilan koʻrib bilib yozgan”

* Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi shokirsattorov@gmail.com

[B.B.Бартольд, 1943, стр.30.], deydi. 1967-yilda hassos olimlar G'.Abduraxmonov, S.Mutallibovlar tahriri ostida "Devon"ning bir tomlik indeks lug'ati ham bosmadan chiqadi. Mahmud Koshg'ariy mansub bo'lgan qabila o'zbek xalqining shakllanishida ham uzviy bir qavm bo'lib xizmat qilgan. Maqolada, Koshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asaridan tashqari, turkiy tillar sintaksisiga doir «Javohirun nahv fi lug'atit turk» («Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari») asarini ham yozganligi, afsuski, bunday nodir asar bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmaganligi haqida ham ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, "Devonu lug'atit turk"ning qo'lyozmasi ayni vaqtda Istambulda saqlanayotganligi, uni ko'chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma'lumotiga ko'ra, Qo'lyozmani Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgani aytishi o'rinli.

Tayanch so'zlar: *Devoni lug'atit-turk, Haft iqlim, Tarixi munajimboshi, mashhur olimlar Vatanidir, oqqa ko'chirilib, xomaki material, Tojulaodat va unvon-ulidrok, Ixbil juman ori tarixi ahli zamon, Turk qavmlari qissasi, Kitob savdosi, "Javohirun nahv fi lug'atit turk" (Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari) avuch-havuch, o'l-ho'l, o'kuz-ho'kuz, ulkar-hulkar va boshqalar.*

MAHMUD KOSHGARI IS A GREAT LINGUIST

Abstract

The article tells about the literary environment in which Mahmud Koshghari, a famous encyclopedist of the 11th century, was born and created, and his famous work "Devoni Lugatit-Turk". Also, evidence is presented regarding the discovery of the first manuscript of this work. By 1914, "Devon" was discovered by accident by Ali Amiri, a resident of Diyarbakır, Turkey, and it is said to be a novelty in the history of linguistics, and this work covers many areas of linguistics. However, scholars mentioned that Koshghari and his work "Devoni Lugatit Turk" was a work long before the 20th century. For example, in the work of orientalist V. V. Bartold entitled "Kyrgyz" about Mahmud Koshgari: "This is such a unique writer that he differs from all other authors who wrote about Central Asia in Arabic: Mahmud "He did not write by copying from books, but by seeing and knowing with his own eyes," he says. In 1967, a one-volume index dictionary of "Devon" was published under the editorship of distinguished scientists G. Abdurakhmonov and S. Mutallibov. The tribe to which Mahmud Koshghari belonged served as an integral people in the formation of the Uzbek nation. In the article, in addition to the work "Devonu lug'atit turk", Koshgari also wrote a work on the syntax of Turkic languages "Javahirun nahv fi lug'atit turk"

("Jewels of nahv (syntax) of Turkish languages"), unfortunately, such a rare work has reached us. it is also reported that it has not arrived or has not yet been found. In addition, the manuscript of "Devonu Lugatit Turk" is kept in Istanbul at the same time, according to the information of the scribe Muhammad bin Abu Bakr Damashqi, who copied it, the manuscript was written by Koshghari's own hand. it is appropriate to say that it was copied from a copy.

Key words: *Devoni dictionary-Turkish, Haft climate, Tarikhi astrologer, Homeland of famous scientists, copied, outline material, Taj-ul-saodat va unvon-ul-idrok, Ikhhbil Juman ori history of the people of the time, Turk the story of their peoples, book sale, "Javahirun nahv fi lug'atit turk" (jewels of nahv (syntax) of Turkish languages) avuch-havuch, ol-hol, okuz-khokuz, ulkar-hulkar, etc.*

XI asrda o'zining jahonshumul asari "Devoni lug'atitturk" bilan Mahmud Koshg'ariy sharqda mashhur edi. Koshg'ariyning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad bo'lib, uning bobosi Muhammad va otasi Husayn hozirgi Qirg'izistonning Issiqko'l bo'yidagi Barsg'on shahridan bo'lganlar. Keyinchalik, otasi Husayn Qashqarga ko'chib borib, o'sha yerda turg'un yashab qolgan. Mahmud ana shu shaharda 1008-yilda dunyoga keladi va yoshligidan o'qib tarbiya topadi. Uning sevimli ustozlari Husayn Xalifa bo'lganligi ma'lum. Bu ustoz to'g'risida shunday ma'lumotlar bor: "Qashqarda atoqli olim Abu Abdulloh ibn Husayn Koshg'ariy yashagan, u fozil, zohid bir shayx edi. Ko'p asarlar yozgan. Uning o'g'li ham mo'tabar olimlardan edi" [Сайид Самовий, 472-б.]. Bundan ko'rinadiki, Mahmud o'z ona shahri Koshg'ardayoq atoqli olimlar qo'lida ta'lim olgan va shuhrat qozongan.

X asr oxiri XI asr o'rtalarida O'rta Osiyoda arablar hukmronligi yemirilib, hokimiyat tepkasiga avvalo Sosoniylar, so'ngra G'aznaviylar sulolasi keladi. Mana shu davrda Sharqiy Turkiston va Yettisuvda Qoraxoniylar davlati tuziladi. X asr oxirlarida Qoraxoniylar davlatining chegarasi Amudaryoga qadar yetib keladi. U sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib, sharqda markaz Bolasog'un Arslonxon Qora Xoqon hukmronlik qilsa, g'arbda, Qashqarda Bug'ro Qora hukmronlik qiladi.

Qoraxoniylar hukmronligi XIII asr boshlariga qadar davom etgan bo'lib, bu davrda feodal munosabatlar ancha rivoj topadi hamda yangi ilmfan va madaniyat markazlari vujudga keladi. Qashqar (Urdukent), Bolasog'un, Taraz, Ispijat kabi shaharlar ilm va ma'rifat markazlariga aylanadi. Masalan, Amin Ahmad Roziy o'zining "Haft iqlim" asarida Qashqarga yuksak baho bergan bo'lsa, "Tarixi munajimboshi"da "Qashqar-Turonning poytaxt shahri, mashhur olimlar Vatanidir", deyilgan. Bolasog'unlik hukmdor Abu Shaja Arslonxon "...olim odamlarni hurmat qilar va sharaflar edi, shunga ko'ra olimlar bu yer bamisoli parvona kapalaklar yonib turgan sham chiroqqa har tarafdin uchib kelganlari singari barcha mamlakat va

davlatlardan kelar edilar” deb ta’kidlanadi, manbalarda. Mahmud Koshg’ariy ana shunday olimlari ulug’lanadigan va e’zozlanadigan mamlakatda tug’iladi, o’sadi va ulg’ayadi.

Keyinchalik. Mahmud o’z bilimini yanada takomillashtirish maqsadida Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur shaharlarida ham bo’ladi. Keyinchalik, Bag’dodga kelib, bir qancha vaqt istiqomat qiladi. Bu yerda u arab tili hamda adabiyotini chuqur va mukammal o’rganadi. Bag’dod o’sha davrlarda ilmfan va madaniyatning eng rivojlangan markazlaridan biri bo’lgan. Mahmud Koshg’ariyning Bag’dodga kelib qolish sabablaridan biri o’z bilimini oshirish bo’lsa, ikkinchidan, O’rta Osiyolik o’nlab mashhur olimlar, faylasuflar bilan o’rtoqlashib qolib, turli fanlar sohasida ish olib borganligi bo’ladi. Masalan, IX asrlarda samarqandlik Abu Ya’qub, Is’hoq ibn Hasan ibn Ko’hiy alHuraymiy (VIII asr oxiri IX asr boshida yashagan, asli sug’dturk aralash yozuvchisi), farg’onalik shoir Xalif alAhmad, Toshkent shimolida joylashgan Forob shahridan mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiy, tilshunos Abu Nasr Ismoilij alJavhariy, astronom Ahmad ibn Muhammad Farg’oniy, mashhur matematik va geograf, algebra fanining asoschisi Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, marvlik Ahmad ibn Abdulla Marvaziy, balxlik Abu Mash’ar va boshqalar Bag’dodga borib ijod etganlar jumlasidan edilar.

Usha davrda Buxoro, Samarqand, Bag’dod, Marv, Nishopur kabi fan va madaniyat markazlarida bo’lish va yashash Mahmud Koshg’ariy uchun katta maktab bo’lgan. Usha yurtlarda u ko’pgina fanlarni, ayniqsa, filologiya, geografiya, tarix, folklor kabi fan va sohalarni chuqur va atroflicha o’rganadi. O’z ona tili turkiy tillar haqida ulkan hajmdagi ilmiy asar yozish maqsadida, yana Qashqarga qaytadi va o’z asari uchun ma’lumotlar to’plashga kirishadi. Bu haqda Mahmudning o’zi quyidagilarni yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o’g’uzlar, chigillar, yag’molar, qirg’izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko’p yillar kezib chiqdim, lug’atlarni to’pladim, turli xil so’z xususiyatlarini o’rganib, aniqlab chiqdim....Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”- deb e’tirof etadi. (Devon, 44-b.).

Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asaridan tashqari “Javohirun nahvi fi lug’atit turk” (Turk tillarining sintaksisdagi qoidalari) nomli asar yozgani ma’lum va uning boshqa ilmiy ishlari ham mavjud bo’lishi mumkin. Balki, uning Devondan boshqa asarlari yo’qolib ketgan yoki hozirgacha ma’lum emas.

Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asari ko’pgina sharqshunoslarning fikricha, ikki yil ichida, ya’ni 1072-yilning yanvaridan 1074-yilning fevraligacha Bag’dod shahrida yozilgan va Devonning oxirgi sahifasida ham mana shu yillar qayd qilingan – degan ikrlar keltiriladi. Bizningcha, mana shu ikki yilda “Devon” oqqa ko’chirilib, kitob holiga keltirilgan bo’lishi mumkin. Tilshunos olim, H.Hasanovning fikricha, “ Bunday katta hajmdagi va chuqur mazmunli ilmiy asarning ikki yil ichida yozilishi va Bag’dodda yaratilishi mantiqan to’g’ri emas” deyiladi. [X.Хасанов,

1963, 8-6.]. Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i kamida 1015- yillar mobaynida tayyorlanib yozila boshlagan bo'lishi kerak. XI asr sharoitida 20 tacha turkiy tillarga oid "xomaki material"larni to'plash olimdan bir necha o'n yillar davomida chidam va sabot bilan ishlashni, uzoq muddatli ligvistik va geografik safarlarda bo'lishni talab qiladi, albatta. Shuning uchun u bir necha yillar mobaynida "Rumdan Mochingacha", Qora dengiz bo'ylaridan to Xitoygacha turli qabilalar, o'lkalar, tog'-u cho'l, shahar-u qishloqlarni kezgan va yetarlicha ma'lumotlar to'plagan.

Mahmud chinakam ilmga ixlos bilan juda ko'p qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishga astoydil kirishadi, deyish mumkin. Uzoq yillar davomida ko'plab shaharlar, qishloqlar va yaylovlarni kezib chiqqanligi, bu ish ustiga, so'zlarni o'z o'rniga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar davomida mashaqqat tortganligini Koshg'ariyning o'zi ham qayd qiladi.

Tilshunosligimiz tarixida Mahmud Koshg'ariy salmoqli o'rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha, jumladan qiyosiytarixiy tilshunoslikning otasi, fonetistfonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi. S.Mutallibov ta'kidlaganidek, Mahmud Koshg'ariy yaratgan "Devonu lug'atit turk" asari faqat o'sha davr uchungina katta voqea bo'lib qolmay balki, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi. Afsuski, ana shunday buyuk tilshunosning ilmiy merosidan jamoatchiligimiz asrimiz boshlariga qadar bebahra bo'lib keldilar, chunki bu davrgacha Mahmud Koshg'ariyning hayoti va uning "Devoni lug'atit turk" asari haqida ma'lumot yo'q edi. Arab fani shuhratini yoyishga sabab bo'lgan, bibliografik va biografik asarlarda ham Xoja Xalfa lug'atidan boshqa birortasida bu olim haqida ma'lumot yo'q edi. Faqat 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli Mahmud Koshg'ariyning "Devoni" topilib, lingvistika tarixida yangilik, mo'jiza ro'y beradi. Mo'jizaligi, asarning qimmati shunda ediki, bu asar tilshunoslikning juda ko'p sohalarini qamrab olganligi bilan qomusiy bir asar edi. Asarning topilish haqida professor H.Hasanov shunday yozadi: Mahmud Koshg'ariy "Devoni"ning topilish tarixi juda qiziq, 1914-yili Turkiyaning Diyorbakir shahridagi kitobfurush do'koniga bir beva xotin pulga muhtoj bo'lib, eski qo'lyozmani olib keladi va "Marhum erim, agar qiynalib qolsanggina shu kitobni sotgin, lekin 30 liradan kam bo'lmasin deb aytgandilar" deydi. Ammo, kitobfurush qo'lyozmani bunchalik qimmatga olgisi kelmaydi va xotinga: "Kitob do'konda tura tursin, xaridor chiqsa, pulini olarsiz", deb javob qildi va kunlar o'tib, haridorlar keladi, lekin birontasi shu "eski qog'ozlar"ni 30 liraga olgisi kelmaydi. Nihoyat, diyorbakirlik kekxa kitob muxlislaridan Ali Amiriy do'konga kirib, bu ko'rimsiz

qo'lyozmani ko'rib chiqadiyu, ammo sotib olishga puli bo'lmaydi. Ko'chadan o'tib ketayotgan bir do'stini to'xtatib, unga voqeani aytadi va qo'yarda qo'yamay qarz oladi.

Qo'lyozmani sotib olib uyga qaytgach, Ali Amiriy bir necha kun, ertayu kech undan ko'zini uza olmaydi. "Kitob oldim, uyga keldim, yemakichmakni unutdim. Bu kitobga haqiqiy qiymat bermak lozim bo'lsa, jahonning xazinalari kifoya qilmas", deydi u. Ali Amiriyni maftun etgan bu qo'lyozma kitob Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" deb nomlangan ajoyib durdonasi bo'lib chiqdi Diyorbakirdan topilgan "Devoni lug'atit turk"ning bu qo'lyozmasini, hattot Fotih Damashqiy (asl ismi Muhammad bin Abu Bakr bin Abdul Fotih alSaviy ham Damashqiy) 1226-yilda Qoshg'ariyning o'zi yozgan nusxadan ko'chirib yozganligi ma'lum bo'ldi. Bu qo'lyozma hozirda Turkiyaning Istanbulida deyishadi. Garchi qo'lyozma 1914-yilda topilgan bo'lsada, Mahmud Koshg'ariydek buyuk olim o'tganligi va uning "Devoni lug'atit turk" asari bo'lganligini XX asrdan ancha ilgari ham olimlar tilga olib o'tganlar. Masalan, XIV asrda yashagan Qashqarlik olim Muhammadning "Tojulasodat va unvonulidrok" asaridagi bir qancha joylari aynan "Devon"dan ko'chirilganligini ko'rish mumkin. Misrlik olim Badriddin Ayniy (XV) o'zining "Ixbil juman ori tarixi ahli zamon" nomli kitobining "Turk qavmlari qissasi" bobida "Men bularni Mahmudul Koshg'ariy"ning "Devon"ida ko'rdim" degan iqrori bor. Ayniqsa, XVII asrning mashhur sharqshunosi Hoji Xalfa Kotib Chalabiy o'zining sharqdagi buyuk shaxslar biografiyasi va ishlarini bayon etuvchi qomusiy tavsifidagi "Kashf az Zunun" asarida Mahmud Koshg'ariy va uning asari haqida quyidagicha izoh bergan: "Muhammad bin Husayn ibn Mahmudning "Devon"i bir jilddir... asarini arabcha izoh etgan. Turk tilining 18 harfi izohlangan. Asarini Muqtadi bin Amirulloh o'g'li Xalifa Abulqosim Abdullohga hadya etgan" deyiladi. Kotib Chalabiyning "Kashf azZunun" nomli asariga asoslanib, Koshg'ariyning "Devon"i Yevropa manbalarida ham tilga olingan. 1904-yilda Vengriya fanlar akademiyasining til bo'limi nashr etgan bir to'plamda XIXV asrlar davomida turkiy tillarda yozilgan asarlar ro'yxatiga "Devoni lug'atit turk" ham kiritilgan. Ammo qo'lyozmaning o'zi qariyb 800 yillar davomida fan kishilariga noma'lum bo'lib qolavergan. Shu jihatdan Diyorbakirdagi "Kitob savdosi" voqeasi har qanday ta'rifga loyiqdir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i 3 tomдан iborat holda arab tilida 1915--1917-yillarda Istanbulda K.Rifat muharrirligida, 1939-1941- yillarda keksa tilshunos Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, nashr ettiriladi. 1928-yilda Karl Brokkelman qisqacha so'z boshi bilan kitobning nemis tilidagi tarjimasini nashr ettiradi. Bu borada sharqshunos olim V.V.Bartoldning fikri ibratli, u o'zining "Qirg'izlar" nomli asarida Mahmud Koshg'ariy to'g'risida: bu shunday yagona adibki, u O'rta Osiyo to'g'risida arab tilida yozgan boshqa barcha mualliflardan farq qiladi: Mahmud turli kitoblardan ko'chirib yozmagan, balki o'z ko'zi bilan ko'rib bilib yozgan" [B.B.Бартольд. 1943, стр.30], deydi.

“Devoni lug‘utit turk” asari bo‘yicha uzoq yillar ilmiy izlanish olib borgan taniqli sharqshunos olim Solih Mutallibovni ham qayd etishimiz lozim. S.Mutallibov 1960-1963- yillarda uch tomdan iborat “Devon”ni arab tilidan o‘zbekchaga tarjima qilib nashr ettiradi. Nihoyat 1967-yilda hassos olimlar G‘.Abduraxmonov, S.Mutallibovlar tahriri ostida “Devon”ning bir tomlik indeks lug‘ati ham bosmadan chiqdi.

Biz, Mahmud Koshg‘ariyning hayoti haqida juda oz ma‘lumotga egamiz. Uning to‘liq ismi, yuqorida aytilganidek, Mahmud ibnul Husayn ibn Muhammadal Koshg‘ariy bo‘lgan. Koshg‘ariyning 1008-yilda Qashqarda tug‘ilib, 1102-yilda, 94 yoshida vafot etganligi ma‘lum. «Devon»ning oxirida bu kitob umrini oxiriga yetkazgani quyidagi misrada bayon qiladi:

*Kuchandi bilagim, yeg‘udi tilagim,
Tilindi bilagim, tegrab angar jartilur.*

«Devonu lug‘atit turk» asari esa hijriy 469-yilida (milodiy 1076-1077) yozilganligini asardan bilish mumkin. Ushbu asar, Hoshimiylar sulolasidan, Abbosiylar avlodidan bo‘lgan Abulqosim binni Muhammad Muqtadoga armug‘on qilingan. Asarning yozilish tarixi lug‘atda shunday bayon qilingan: “Nok yili turklarning o‘n ikki yil nomlarining biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi”- deyilgan jumalarni o‘ish mumkin.

Koshg‘ariy so‘z boshidagi “a”ni “ha” qilib talaffuz qiluvchi qabilaga mansub ekanligini bayon qiladi. Bu ma‘lumot uning qaysi qabiladan ekanligini aniq ko‘rsatib bermasa ham, lekin bu qabilaning turkiy qabilalar orasida katta nufuzga ega ekanligidan guvohlik beradi. Chunki Mahmud Koshg‘ariy ta’kidlagan fonetik xususiyat keyinchalik turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida shunchalik kengaydiki, so‘z boshidagi “a” dangina emas, balki “o”, “u” unlilaridan oldin ham “h” orttiriladigan bo‘ldi. Masalan, *avuch-havuch, o‘l-ho‘l, o‘kuz-ho‘kuz, ulkar-hulkar va boshqalar*. Demak, Mahmud Koshg‘ariy mansub bo‘lgan qabila o‘zbek xalqining shakllanishida ham uzviy bir qavm bo‘lib xizmat qilgan. Mahmud Koshg‘ariy 94 yil umr ko‘rib, «Devonu lug‘atit turk» asaridek qomusiy bir asarni yaratgan buyuk zot, so‘zsiz, o‘z davrining yetuk olimlaridan. Xususan, tilshunoslikka katta havas bilan qaragan. Shuning uchun ham u turkiy urug‘ va qabilalar yashagan barcha yerlarni birmabir kezib, ularning tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘atit turk» asaridan tashqari, turkiy tillar sintaksisiga doir “Javohirun nahv fi lug‘atit turk” (Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari) asarini ham yozganligi haqida ma‘lumot beradi. Afsuski, bunday nodir asar bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilgani yo‘q.

“Devonu lug‘atit turk”ning bizgacha qo‘lyozmasi yetib kelgan va u ayni vaqtda Istambulda saqlanadi. Uni ko‘chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma‘lumotiga ko‘ra, Qo‘lyozmani Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan

nusxadan ko‘chirilgani aytiladi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli etnografik, tarixiy etimologik lug‘atlarning barcha elementlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug‘at bo‘lib, o‘z muallifini dunyoga ulug‘ tilshunos, adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa ko‘p fanlardan yaxshi xabardor bo‘lgan yirik fan arbobi, o‘rta asr qomusiy olimi sifatida tanitdi deyishimiz mumkin.

O‘z devonida Koshg‘ariy ”Turklarda ko‘rkamlik, yoqimlilik, odoblilik, so‘zining ustidan chiqishlik, dadillik, kamtarlik kabi maqtashga sazovor xulq va fazilatlar sonu sanoqsizligini” qayd etar ekan, o‘z fikrini isbotlash uchun juda ko‘plab badiiy lavhalar, she‘riy parchalar, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar keltiradi.

“Devoni lug‘atit turk” turkiy tillarning birinchi qiyosiy grammatikasidir. Shu bilan birga “Devon” turkiy tillar qiyosiy manbasidir. Shu sababli Mahmud Koshg‘ariy umumtilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning XI asrdagi asoschilaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xullas, turkiy xalqlarning tilini, tarixini, madaniyatini, adabiyoti va san‘atini, ularning yashash sharoiti va urfodatlarini o‘rganishda “Devon” juda katta ahamiyatga ega asar hisoblanadi. Bu asar turkiy tillarni, ularning rivojlanish xususiyatini, o‘zaro birbiriga ta’siri masalalarini aniqlashda juda muhim manba bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q. U faqat tilshunoslik asari bo‘libgina qolmasdan o‘z davrining qobusnomasi hamdir.

Adabiyotlar

Темур тузуклари. (1991). Нашриёт матбаа бирлашмаси. 144.

Кошғарий М. (1960). *Девону луготит турк. Уч томлик.* 1-том. Фан. 498.

Темур ва Улугбек даври тарихи. (1996). Қомус. 264.

Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. (2008). Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.

Абдурахмонов Ғ. Рустамов А. (1992). *Қадимги туркий тил.* Ўқитувчи.

Валихўжаев Б. *Ўзбек эпик поэзияси тарихидан.* Тошкент: Фан, 1974.

Валихўжаев Б. (1973). *Ўзбек адабиётишунослиги тарихи.* Ўзбекистон. 191.

Валихўжаев Б. (2002). *Мумтоз сиймолар.* А.Қодирий номидаги халқ мероси. 322.

Маллаев Н.М. (1962). *Абулқосим Фирдавсий.* Ўзадабийнашр. 92.

Маллаев Н.М. (1976). *Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. 3-нашри.* Ўқитувчи. 664.

Малов С.Е. (1951). *Памятники древнетюрский письменности.* Наука.

Маънавият юлдузлари (2001). *Марказий Осиёлик маишхур сиймолар, алломалар, адлиблар.* Халқ мерос. 408.

O‘ZBEK TILIDA OTNING SUN’IY SEMANTIK XOTIRASI

Shahboz Zarmasov*
Munojot Saydazamova*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ot so‘z turkumining semantik maydoni, semantik maydon uzvlari, paradigmatic munosabat turlari hamda paradigma a‘zolarining o‘xshash va ziddiyatli xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Otning semantik maydonidagi paradigmalar munosabati bevosita kuzatishga berilmagan mohiyat sifatida til egalarining ongida saqlanadi. Kompyuter lingvistikasining sun’iy semantik xotirasida mohiyat, umumiylik sifatida ana shunday bevosita kuzatishga berilmaganlarning modeli jamlanadi. Biroq modellashtirish jarayoni “bevosita kuzatishga berilgan” xususiylik, hodisaning eng muhim xususiyatlarini aniqlash, solishtirish, saralash va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Maqolada o‘zbek tilining milliy korpusi sun’iy semantik xotirasining lingvistik bazasi sifatida otning semantik maydonidagi paradigmalar bevosita kuzatishda berilmagan shaklda milliy modellashtiriladi,

* Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi, shakhbozzarmasov1993@mail.ru

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

modellashtirish borasida tavsiyalar beriladi. Ushbu kichik tadqiqot yakunida esa o'zbek tili egalarining lingvomadaniy olami qanday bo'lsa, o'zbek tilining milliy korpusida ham aynan shu olam sun'iy tarzda aks etmog'i lozim, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: *modellashtirish, milliy model, semantik maydon, semantik to'r, sun'iy semantik xotira, leksik ma'no guruhlari, paradigma, to'plam-tasnif, paradigmatic munosabat, pog'onali munosabat, uyadoshlik, o'zbek tilining milliy korpusi, kompyuter lingvistikasi.*

ARTIFICIAL SEMANTIC MEMORY OF NOUNS IN UZBEK LANGUAGE

Abstract

This article discusses the semantic field of the part of speech of a noun, the connections of the semantic field, the types of paradigmatic relations, and the similar and contradictory features of the members of a paradigm. The relationship of paradigms in the semantic field of nouns is stored in the consciousness of language owners as an entity that is not subject to direct observation. In the artificial semantic memory of computer linguistics, the model of such unobservables is summarized as an entity, universality. However, the process of modeling is carried out by identifying, comparing, sorting and generalizing the "directly observed" feature, the most important peculiarities of the event. In the article, as a linguistic base for the artificial semantic memory of the national corpus of Uzbek language, paradigms in the semantic field of nouns are modeled nationally in a form not specified during direct observation, and recommendations for modeling are given. At the end of a small study, a conclusion is made on what the linguo-cultural world of Uzbek speakers is, such a world should be artificially reflected in the national corpus of Uzbek language.

Keywords: *modeling, national model, semantic field, semantic network, artificial semantic memory, lexical meaning groups, paradigm, set-classification, paradigmatic relation, hierarchical relation, nestedness, national corpus of Uzbek language, computer linguistics.*

Globalashuv ijtimoiy hayotning avtomatizatsiyalashuvini tezlashtirib yubordi. Bugungi jamiyat axborotni avtomatlashgan shaklda olishga intilmoqda. Ilm-fanda sun'iy intellekt tizimlarini yaratish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inson va kompyuter muloqoti optimallashtirildi, til birliklarining elektron korpusi, elektron lug'atlar va semantik maydonning elektron resurslari yaratildi.

Ma'lumki, tilga tizim sifatida yondashish, til birliklari va ularning o'zaro munosabatida umumiylik-xususiylik kabi dialektik kategoriyalarni farqlash cheksiz

paradigmalar yig'indisini tashkil etuvchi olamning semantik maydonini ulkan sistemaviy hudud sifatida tadqiq etishga olib keladi. F.Berezin tilni har bir tolasi boshqa tolalar bilan chambarchas holda bog'lanib ketgan ulkan matoga qiyoslaydi (Березин, 1975). Bizningcha ushbu "ulkan mato"ni semantik maydonga mengzash mumkin.

Semantik maydoni atamasi ilk bor Y.Trir tomonidan ishlatilgan. U semantik maydon atamasi ostida "tushunchalar maydoni yoki doirasi"ni nazarda tutadi. Shundan so'ng, V.Portsig "ma'nolarning mohiyatan bir-biriga bog'liqligi", G.Ipsen "so'zlarning muayyan guruhlarni tashkil qila olishi", A.Yolles "leksik birliklarning semantik birlashishi", F.Dornzeyf va V.Vertburglar "leksemalarning semantik guruhlanishi" kabi fikrlarni bildirishadi (Собинов, 2022). O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begimov, Sh.Iskandarova, O.Bozorov, B.Qilichev, R.Safarova, H.Hojiyeva, M.Narziyeva, I.Qo'chqortoyev, A.Sobirov kabi atoqli tilshunos olimlarning semantik maydon tushunchasi haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq "hissiy" va "tushunchaviy" ma'nolar o'rtasida, "ma'no" va "belgilash" o'rtasida, "mazmun" va "referensiya" o'rtasida, "denotat" va "konnotat" o'rtasida, "belgi" va "ramz" o'rtasidagi chegaralar (Шемакин, 1972) hali to'liq belgilab olinganicha yo'q.

Ushbu maqolada semantik maydon mohiyatini tashkil etuvchi yuqoridagi chegaralarni umumiylik-xususiylilik dialektikasi asosida ajratib olish, milliy til egalari ongidagi leksemalarni muayyan qonuniyatlar asosida birlashtirish, birlashtirish asnosida kompyuter lingvistikasida *sun'iy semantik maydon (xotira)ni* tashkil etish masalalari ot so'z turkumi semantik maydoni misolida tahlil qilinadi.

Olamning inson ongida o'z in'ikosini topishi, so'ngra ikkilamchi obraz sifatida uning tilda voqelanishi murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonning keyingi bosqichida sezgi a'zolarimizga ta'sir eta oladigan – "bevosita kuzatishga berilgan" xususiylilikni kuzatish orqali predmetning o'xshamagan belgilaridan uzoqlashib, o'xshash, bir xil belgilar ajratiladi, ular o'zaro solishtiriladi va mohiyat sifatida umumlashtiriladi shu tariqa tushuncha shakllanadi va u o'z navbatida aniq leksemada o'z ifodasini topadi. Semantik maydonni shu tartibda modellashtirish til egalariga ma'lum bir sohada ishlatiluvchi leksik birliklarning asosiy jamg'armasini butun ko'lami bilan anglash, muloqot jarayonida ulardan eng zaruriysini (ehtiyoj tushib turganini) qo'llash imkonini beradi, leksik birliklarning mazmuniy bog'lanishini ta'minlaydi.

Otning semantik maydonida bir-birini eslatib turuvchi predmetlar paradigmatic munosabat asosida birlashgan, birikkan guruhlarni tashkil etadi. Bu kabi leksik ma'no guruhlari til egalarining ongida ham "bevosita kuzatishga berilmagan" shaklga ega.

Bevosita kuzatishga berilmagan ot turkumiga mansub paradigmalarda o'xshash va ayrim farqli leksemalar birlashadi, farqli belgilar o'xshashlikni inkor etolmaydi. Ushbu paradigmalar kompyuter lingvistikasining sun'iy semantik xotirasida abstrakt

modellarda beriladi. Buni hayvonlar misolida ko‘rib chiqamiz: hayvonlar LMG til egalari ongida umumiylik, mohiyat, imkoniyat sifatida saqlangan. Bu leksik ma‘no guruhi tilshunoslikda zoonimlar deb nomlangan bo‘lib, *bo‘ri, ayiq, she‘r, ot, sigir, mushuk, echki, kiyik, tulki* kabi hayvon nomlari kompyuter lingvistikasining sun‘iy semantik xotirasida [Ot^{t-zoo}] milliy modeli ostida sun‘iy guruhlanadi.

Tilshunos olim A.Sobirovning fikricha, “semantik maydon paradigmalarini belgilash chog‘ida narsa va hodisalarning ekstensional va intensional belgilariga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega” (НИКИТИН, 1988). L.Novikovga ko‘ra, ekstensional umumiy bir sinfni, intensional shu sinfga mos bo‘lgan o‘ziga xoslikni ifodalaydi (НОВИКОВ, 1982). Demak, ekspensional-intensionallik munosabati semantik maydondagi umumiylik-xususiylik dialektikasiga aynan mos keladi. Masalan, hayvonlar ekstensional belgilariga ko‘ra zoonimlar paradigmasini hosil qilsa, intensional belgilariga ko‘ra yovvoyi hayvonlar va uy hayvonlari paradigmasi ajratiladi. Kompyuter lingvistikasining sun‘iy semantik xotirasida zoonimlar umumiy bir sinf – ekstensional sifatida [Ot^{t-zoo}] milliy modeli tarkibiga ham, ziddiyatli belgilariga ko‘ra ajratilgan ichki paradigma – intensionallar sifatida yovvoyi hayvonlar – [$Ot^{t-zoo}_{yovvoyi}$]; uy hayvonlari – [Ot^{t-zoo}_{uy}] milliy modellari tarkibiga ham kiritiladi. Demak, paradigma a‘zolarining oppozitsiyasi muayyan bir paradigma boshqa bir nechta paradigmalar yig‘indisi ekanligini ko‘rsatadi.

Til va nutq dialektikasining ekspensional-intensionallik kategoriyasi asosida qurilgan semantik doiradagi boshqa paradigmalarni ham yuqoridagi yondashuv asosida modellashtirish mumkin. Masalan, *jilg‘a, irmoq, soy, daryo* kabi cheksiz gidronimlar uchun [$Ot^{t-gidro}$]; *daraxt nomlari, gul nomlari, o‘t-o‘lan nomlari...* kabi cheksiz fitonimlar uchun [Ot^{t-fito}] ekstensional milliy modellar beriladi.

Atoqli tilshunos olim A.Nurmonov paradigmatic munosabatni bir sathga mansub bo‘lgan birliklar munosabati deb, o‘xshash tushunchalarning ma‘lum uyalarga to‘planishi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, leksemalarni bitta uyaga birlashtirish uchun asos bo‘lgan umumiy ma‘no, shu uyaning barcha a‘zolarida ham takrorlanishi shart. O‘zbek tilining semantik maydonida bunday uyalar juda ko‘p (НЕЪМАТОВ, РАСУЛОВ, 1995). Masalan, *binafsha, ismaloq, tomaqaymoq, otquloq, chuchmoma, yalpiz* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – **o‘simlik**; *qishloq, shahar, sahro* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – **joy**; *bulbul, mayna, musicha, to‘ti, qarchig‘ay, qirg‘iy* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – **qush**; *qalam, kitob, cho‘mich, kosa, gilam, sholcha* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – **buyum**; *misqol, botmon, hovuch, siqim* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – **miqdor**; *maktab, idora, do‘kon, bozor* leksemalarida umumlashtiruvchi ma‘no – tashkilot, muassasa kabi. Bulardan atoqli ot bo‘lmagan o‘simlik nomlari uchun [Ot^{t-fito}]; atoqli ot bo‘lmagan joy nomlari uchun [Ot^{t-topo}] shaklida onomastik modelni ko‘chirish orqali transpozitsion model yaratiladi. Chunki, o‘simliklar,

qushlar va joylarning atloqli otlari o'zbek onomastikasida alohida nom ostida jamlangan. Biroq keyingi leksik paradigmalarni ekstensional va intensional modellashtirishda murakkablik bor. Shuning uchun ularning intensional modeli bilan cheklanamiz: tashkilot-muassasa nomlarini ifodalovchi paradigma uchun [$Ot_{tashkilot}^t$]; buyum nomlarini ifodalovchi paradigma uchun [Ot_{buyum}^t]; miqdor nomlarini ifodalovchi paradigma uchun [Ot_{miqdor}^t] shaklida intensional milliy modellar beriladi. Bu atoqli otlar tizimini aniq belgilab olish lozimligini ko'rsatadi.

Til va nutq dialektikasida qurilgan paradigmalar ziddiyati katta to'plam, kichik to'plam va tasniflarni ajratadi. Mazkur bo'linish A.Sobirovga tayanilgan eksptensional-intensionallik borasidagi fikrlarimizga aynan mos keladi. Jumladan, otning ma'no guruhlarini modellari ham to'plam-tasnif munosabati asosida qurilgan. Demak, har bir yirik paradigma tarkibida ma'lum belgilarning ziddiyatiga asoslangan bir qator kichik paradigmalar mavjud. Masalan, zoonimlar to'plami quyidagi kichik to'plamlarga ajratiladi: *buzoq, tana, g'unajin, sigir, govmish, ho'kiz, buqa, ...qoramol*; *ot, baytal, biya, ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobu, to'riq, jiyron, bedov toy...ot*; *qo'y, qo'chqor, qo'zi, baqlan, hisori, arabi, merikos... qo'y*; *it, qanjiq, ko'ppak, bo'ribosar, tozi, gurji, kuchuk it*; *eshak, mocha, xo'tik, xachir ... eshak* kabi.

Yuqoridagi leksik to'plamlarning tasnif (leksema)lari orasida yosh, jins va tur xususiyatlariga ko'ra farqlanish mavjud. Kompyuter lingvistikasining *sun'iy semantik xotirasida* leksemalar har bir xususiyatiga ko'ra alohida model tarkibiga kiritiladi. Namuna: *ot, baytal, biya, ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobu, to'riq, jiyron, bedov toy...* [Ot_{ot}^{t-zoo}] milliy modeli tarkibiga jamlansa, jins (gender) xususiyatlariga ko'ra zidlanishda *baytal, biya, jiyron* so'zlari [$Ot_{ot-(a)}^{t-zoo}$]; *ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobu, to'riq, bedov* so'zlari [$Ot_{ot-(e)}^{t-zoo}$] milliy modeliga kiritiladi.

Yana bir misol sifatida qoramol to'plamining turli oppozitsiyalar asosida hosil qilingan modellarini ham ko'rib chiqamiz: *buzoq, tana, g'unajin, sigir, govmish, ho'kiz, buqa, ...* to'plamining milliy modeli $Ot_{qoramol}^{t-zoo}$ ko'rinishida berildi. Ushbu paradigma a'zolari yoshiga ko'ra "oppozitsiya zanjiri"ga terilsa, [$Ot_{qoramol}^{t-zoo \uparrow}$] milliy modelida beriladi, modeldagi [$\uparrow$] belgisi yosh jihatdan o'sish xususiyatini ifodalaydi. Bordi-yu to'plam a'zolari jins xususiyatiga ko'ra ajratilsa, *tana, g'unajin, sigir, govmish* uchun [$Ot_{qoramol-(a)}^{t-zoo}$]; *ho'kiz, buqa* uchun [$Ot_{qoramol-(e)}^{t-zoo}$] modeli keltiriladi, ushbu modellardagi [(e)] va [(a)] belgisi gender xususiyatlarni ifoda etadi. Agar to'plam a'zolarining yosh va jins xususiyatlari birlashtirilsa, *tana, g'unajin, sigir, govmish* uchun [$Ot_{qoramol-(a)}^{t-zoo \uparrow}$]; *ho'kiz, buqa* uchun [$Ot_{qoramol-(e)}^{t-zoo \uparrow}$] milliy modeli to'plam-model sifatida beriladi.

Bundan tashqari, tilshunoslar paradigma a'zolari o'rtasida "teng qiymatli ziddiyatlar"ning mavjudligi ham aytadilar. Ushbu ziddiyatda tasniflar (leksemalar)

to‘plamning turi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *bo‘rikalla, eskichopon, amiri, qirqma, gulobi, kampirqovun, umrboqi, aravakash, cho‘gari* kabilar **qovun**; *Qatra, felyeton, ocherk, novella, qissa, povest, roman* kabilar **nasr**; *g‘azal, tuyuq, ruboiy, fard, masnaviy, qasida, oq she‘r, poema, doston* kabilar **nazm**; *drama, komediya, tragediya, tragikomediya* kabilar **drama**; *sho‘rva, mastava, palov, ugra, lag‘mon, manti, shovla, dimlama, qovurma* kabilar **taom**ga birlashadi va otning semantik maydonida to‘plamni tashkil etadi. Ushbu paradigmalar kompyuter dasturlarining sun‘iy semantik xotirasida modellar ko‘rinishida saqlanadi. Biz semantik xotira manbayi sifatida qovun paradigmasi uchun [Ot_{qovun}^t]; nasr paradigmasi uchun [Ot_{nasr}^t]; nazm paradigmasi uchun [Ot_{nazm}^t]; drama paradigmasi uchun [Ot_{drama}^t]; taom paradigmasi uchun [Ot_{taom}^t] ko‘rinishidagi milliy modellarni invariant sifatida keltirdik. Bu modellar kompyuter lingvistikasining sun‘iy semantik xotirasida ishga tushmagan (bevosita kuzatishga berilmagan) umumiylik, mohiyat, imkoniyat, to‘plam sifatida saqlanadi.

Teng qiymatlilik asosidagi paradigma kichik paradigma pozitsiyasiga o‘tib, yirik paradigmani hosil qilishi mumkin. Masalan, *nasr, nazm, drama kabi* kichik paradigmalar *adabiyot (yirik) paradigmasiga*; *haykaltaroshlik, rassomchilik, kino, teatr* kichik paradigmalar *san‘at paradigmasiga* birlashadi. Kompyuter lingvistikasida adabiyot uchun [$Ot_{adabiyot}^t$]; san‘at uchun [$Ot_{san‘at}^t$] shaklida milliy modellar beriladi. Otning semantik maydonida yirik paradigma va kichik paradigma yoki katta to‘plam va kichik to‘plamning farqlanishi paradigmatic munosabat pog‘onali asosda quriladi degan xulosaga olib keladi, bu jarayonda semantik maydon eng yirik paradigma yoki eng yirik to‘plam deb baholanadi.

Paradigmatik munosabatlar orasida ot turkumi doirasida kuzatiladigan vazifadoshlik munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita kuzatishda berilgan nutq birliklari vazifasiga qarab umumlashtiriladi va invariant-model sifatida ularning fikriy qurilmasi yaratiladi. Masalan, *o‘pka, bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, un paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i, tanglay, til, tish, milk, lablar* paradigmatic qatoridagi leksik birliklar nutq tovushlarini hosil qilish vazifasiga ko‘ra bir yerga jamlanadi va o‘zbek tili milliy korpusining semantik xotirasiga [Ot_{nutq}^{t-v}] milliy modeli bilan; *tish, og‘iz bo‘shlig‘i, til, jig‘ildon, oshqozon, o‘t, ichak, to‘qqizqorin, yo‘g‘on ichak, buyrak* paradigmatic qatoridagi leksik birliklar ovqat hazm qilish vazifasiga ko‘ra bir yerga jamlanadi va o‘zbek tili milliy korpusining semantik xotirasiga [Ot_{hazm}^{t-v}] milliy modeli bilan; *mashina, avtobus, trolleybus, tramvay, taksi, poyezd, qayiq, kema, paraxod, korabl, parom, aeroplan, samolyot, vertolyot, aerobus, raketa* paradigmatic qatoridagi leksik birliklar qatnov vazifasiga ko‘ra bir yerga jamlanadi va o‘zbek tili milliy korpusining semantik xotirasiga [Ot_{qatnov}^{t-v}] milliy modeli bilan kiritiladi. Biroq qatnov qayerda amalga oshirilishiga ko‘ra vazifadoshlikning kichik paradigmaları hosil qilinishi mumkin. Bunday paytda, *mashina, avtobus, trolleybus, tramvay, taksi, poyezd*

soʻzlari [$Ot_{qatnov-yer}^{t-v}$]; *qayiq, kema, paraxod, korabl, parom* soʻzlari [$Ot_{qatnov-suv}^{t-v}$]; *aeroplan, samolyot, vertolyot, aerobus, raketa* soʻzlari [$Ot_{qatnov-fazo}^{t-v}$] milliy modellarida beriladi.

Otning semantik maydonida tabiiy yoki sunʼiy tarzda hosil qilingan son-sanoqsiz paradigmalar yuqoridagi yondashuv asosida modellashtiriladi. Bu semantik maydonni ikkiga – bevosita kuzatishga berilgan xususiylik, hodisa, voqelik hamda ularning ortidagi umumiylik, mohiyat, imkoniyatga ajratadi. Kompyuter lingvistikasida turli avtomatik analizatorlar orqali bajarilgan vazifalar bevosita kuzatishda berilgan hodisa, voqelik sanalsa, avtomatik analizatorning ishlashini taʼminlovchi modellar bevosita kuzatishda berilmagan mohiyat, imkoniyat hisoblanadi. Har qanday narsa mohiyat va uning yakka hodisasi sifatida moddiylashish qonuniyati asosida muvozanatlashadi.

Paradigmatik munosabatning yana bir turida aʼzolarining birikishi natijasida umumiy mohiyatga tomon boriladi, yaʼni qismlar yigʻiladi, butunga aylanadi. H.Nematov va R.Rasulovlar buni notoʻliq ziddiyatlar deb ataydi. A.Sobirov butun-boʻlak munosabat sifatida baholaydi. Bu paradigmada komponentlar toʻplamning qismlari sifatida beriladi, agar qismlardan biri uzib olinsa, toʻliqsizlik paydo boʻladi. Masalan, **kostum** butun-nom sifatida *yeng, yoqa, tugma, yon choʻntak, koʻkrak choʻntak, oʻgʻri choʻntak, etak, jiyak, astar* kabi boʻlak nomlarni talab qiladi. Ushbu qismlar kompyuter lingvistikasida [$Ot_{kostum}^{a-\oplus}$] butun modelida beriladi. Demak, kompyuter lingvistikasining sunʼiy semantik xotirasida har bir butunlik alohida modelda beriladi va qismlarini oʻzida toʻplaydi. Natijada ushbu tur alohida keng koʻlamli sunʼiy semantik xotirani yaratadi. Jumladan, *soch, qosh, qovoq, kiprik, koʻz, quloq, burun, ogʻiz, peshona, ensa, iyak* leksemalari [$Ot_{bosh}^{a-\oplus}$] modeliga; *barmoq, kaft, tirnoq, tirsak, yelka* leksemalari [$Ot_{qoʻl}^{a-\oplus}$] modeliga; *tirnoq, kaft, tovon, toʻpqi, ilik, tizza, bolder, son* leksemalari [$Ot_{oyoq}^{a-\oplus}$] modeliga jamlanadi. Shuningdek, bu uchala paradigma kichik paradigma pozitsiyasiga oʻtib, *bosh, oyoq, qoʻl* zanjiridagi yirik paradigmami hosil qiladi va bular uchun kompyuter lingvistikasida [$Ot_{tana}^{a-\oplus}$] koʻrinishidagi abstrakt milliy model yaratiladi.

Shuningdek, paradigmatic munosabat til egalarining urf-odatlarini, anʼanalari ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi bilan chambarchas holda reallashadi. Demak, otning leksik maʼno guruhlarini modellashtirish, tasniflarning eng muhim belgilarini umumlashtirish, bu umumiylik asnosida mohiyat sifatida toʻplamni belgilashda til egalarining lingvomadaniy xususiyatlarni ham eʼtiborga olish lozim. Masalan, [Ot_{taom}^t] milliy modeliga *shoʻrva, mastava, palov, ugra, lagʻmon, manti, shovla, dimlama, qovurma* kabi milliy taomlar kiritilsa, yevropa taomlari uchun alohida model yaratiladi.

Umuman olganda, til va nutq vaqelanishidagi birinchi, bosh mezon “bevosita kuzatishga berilmaganlik” va “bevosita kuzatishga berilganlik”dir. Otning semantik maydonidagi paradigmlar munosabati bevosita kuzatishga berilmagan mohiyat sifatida til egalarining ongida saqlanadi. Kompyuter lingvistikasining sun’iy semantik xotirasida mohiyat, umumiylik sifatida ana shunday bevosita kuzatishga berilmaganlarning modeli jamlanadi. Biroq modellashtirish jarayoni “bevosita kuzatishga berilgan” xususiylik, hodisaning eng muhim xususiyatlarini aniqlash, solishtirish, saralash va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xususda N.Komlev shunday deydi: “Dunyo qanday bo’lsa, biz uni asl holatida ko’ramiz va shu asosda so’zlarni ma’lum bir guruhlariga ajratib, tasniflaymiz”. Demak, inson olamdagi narsa va hodisalarni sinflarga ajratishda, ularni tur va jinslarga, muayyan ma’no guruhlariga bo’lib chiqishda, eng avvalo, ular o’rtasidagi munosabatlar tizimiga asoslanadi, modellashtirish jarayonida ham ushbu munosabat buzilmaydi. O’zbek tili egalarining lingvomadaniy olami qanday bo’lsa, o’zbek tilining milliy korpusida ham aynan shu olam sun’iy tarzda aks etmog’i lozim.

Adabiyotlar

- Березин Ф.М. (1975). *История лингвистических учений*. Москва. Высшая школа.
- Неъматов Х., Расулов Р. (1995). *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. Тошкент. Ўқитувчи.
- Никитин М.В. (1988). *Основы лингвистической теории значения*. Москва. Высшая школа.
- Новиков Л.А. (1982). *Семантика русского языка*. Москва. Высшая школа.
- Новое в зарубежной лингвистике. (1989). Вып. 24. *Компьютерная лингвистика*. Москва. Прогресс.
- Собиров А. (2022). *Ўзбек тили лексикасининг систем-структур тадқиқи*. Монография. Тошкент.
- Шемякин Ю.И. (1982). *Начала компьютерной лингвистики*. Учеб пособие. Москва. Изд-во МГОУ, А/О.

TIL O‘QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR TAHLILI

Qobiljon Abdurasulov *

Annotatsiya

Til o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nimmasini shakllantirishga oid yondashuvlar tahlili berilgan bo‘lib, tinglab tushunish ko‘nimmasi va malakasini shakllantirishning metodikasi shunigdek, uning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. O‘z navbatida maqolada axborotni og‘zaki idrok etish muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan jarayonlarning funksional xususiyatlari va ushbu mexanizmlarning xorijiy tilda xabarni idrok etish uchun yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Nutqni idrok etishda eshitib tushunish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqni aniqlash jarayonida o‘quvchining aqliy stressi va faol aqliy faoliyati eng muhim jihati ekanligi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan solishtirilganda namoyon bo‘ladi. Tinglab tushunish bo‘yicha ishlab chiqilgan metod va usullarning mazmuni va mohiyati uning ta‘limdagi ahamiyatini bilan bog‘liq jihatlari izohlanadi.

Kalit soʻzlar: *tahlil, til, maʼno, koʻnikma, matn, kognitiv jarayon, psixologik va pedagogik asos, oʻquv materiallari, matn.*

ANALYSIS OF APPROACHES TO FORMING LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN LANGUAGE TEACHING

Annotation

In Language Teaching, an analysis of approaches to the formation of auditory comprehension is given, and the methodology for the formation of auditory comprehension cognitions and skills is such that its role and significance are discussed. In turn, the article examines the functional features of processes that ensure the success of the oral perception of information and the difficulties associated with the insufficient formation of these mechanisms for the perception of a message in a foreign language. The process of auditory comprehension is considered very important in the perception of speech. Scientific research shows that the most important aspect of mental stress and active mental activity of a student in the process of speech recognition is manifested in comparison with other types of speech activity. The content and essence of the methods and methods developed for listening and understanding are explained in its aspects related to its importance in education.

Keywords: *analysis, language, meaning, skill, text, cognitive process, psychological and pedagogical basis, educational material, text.*

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida chet ellik talabalarga oʻzbek tilini oʻrgatish jarayonidagi faollik, shuningdek, samarali natijaga erishish va undagi psixologik jarayonning tarkibiy qismlari tahlil etilganligini kuzatish mumkin. Chet elliklar uchun oʻzbek tili taʼlimi samaradorligini oshirishda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati va yangi taʼlim muhitiga qoʻshilish jarayonida dastlab talaba duch keladigan lingvistik va ekstralingvistik tabiatning koʻplab qiyinchiliklari bilan bogʻliq ekanligini takidlash lozim. Oʻquv maʼruzasini adekvat idrok etish va tushunish darajasiga kommunikativ nutqni aniqlash kompetensiyasini shakllantirishda chet elliklarning kasbiy tayyorgarliklari muvaffaqiyatining shartlaridan biridir.

Oʻz navbatida, ogʻzaki muloqotni idrok etish jarayonining tarkibiy qismlarini ajratish va tinglash mexanizmlarini rivojlantirishdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish lozim. Bunda esa xorijliklarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda zarur koʻnikma va malakalarni shakllantirish uchun samarali vazifalar va mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, xorijliklarga til oʻrgatish jarayonida til oʻrganuvchining sohasi, dunyoqarashi,

yoshi, ularning o'tmishdagi shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda metodika tanlash va unga mos keluvchi o'quv materiallarini tayyorlash muhim hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, o'qituvchining vazifasi o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish, turli murakkablikdagi maxsus tashkil etilgan o'quv vazifalarini hal qilishda uning faoliyatini kerakli natijaga yo'naltirish, uning maqsadi fan bo'yicha bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni egallashdan iborat. Til o'rgatish jarayoni shaxsiy yo'naltirilganlik va faollik yondashuvi asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Tinglash ko'nikmasini va malakani izchil shakllantirib borish kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasiga erishishning samarali usullaridan biridir.

Tadqiqotchilar odatda nutqni idrok etishni ko'p darajali jarayon sifatida ta'riflaydi, tinglovchilarga ularning bilimlarini mustahkamlashda imkon beradigan bir qator ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Nutqni idrok etishda uchta asosiy daraja muhim ahamiyat kasb etadi:

- psixoaakustik (nutq signalining jismoniy xususiyatlarini idrok etish);
- lingvistik (fonetik, nutq signalining leksik, sintaktik va semantik namoyishi);
- kognitiv (nutqning tuzilishi gaqida ma'lumotli gepoteza).

O'qituvchilar tadqiqotga pragmatik munosabatda bo'lsa, tinglovchilarga dars davomida qanday tinglash haqida qaror qabul qilishga o'rganadilar. Darslarda eshitib tushunishdan foydalanish tinglovchilarning tinglash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Biroq bunday natijaga erishish uchun o'quvchilarda ko'proq eshitib tushunish darslarini tashkillashtirish lozim. Til o'qitish amaliyotida tinglab tushunishning ham bir qator qiyinchiliklari bor. Tinglash har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri aloqa jarayonida, radio, audio-video materiallar orqali bo'lishi mumkin. Audio materiallarini tinglashda tembr, ovozning balandligi, so'zlovchining jinsi (erkak, ayol yoki bolalarning ovozi) ham ta'sir qiladi. Audio materiallar bir martalik va qisqa muddatli taqdimot bo'lgani uchun ham tinglovchining xotirasida ma'lumotlar yaxshi saqlanib qolmasligi mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar tinglash jarayonida matnning uzunligi, hajmi ko'proq bo'lsa tinglovchining tezda charchab, diqqati bo'linishi va bu ayni paytda qiziqishning ham yo'qolishini ta'kidlashgan.

Til faoliyatini o'rgatish va nutqni tanib olish uning turlaridan biri sifatida olimlar tomonidan turli ilmiy qarashlar mavjud. Kognitiv faoliyatning psixologik va pedagogik asoslari bo'yicha L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, M.V.Daver, O.M.Leontev, AK Markova, S.L.Rubinshteyn, N.F.Talizina, I.S.Iakimanskaya [5; 439] va boshqalarning asarlarida ko'rishimiz mumkin. Tilni chet tili sifatida o'qitishda psixolingistik aspektlar V.O.Artemov, T.I.Zinkin, O.M. Sokolov, I.A.Zimniyaya asarlarida ham izohlangan. Nofilolog talabalar uchun ona tilini o'rganishda lingvistik va uslubiy asoslar T.O.Vishniakova, N.D. Galskova, T.I. Kapitonova, O.D.Mitrofanovalar asarlarida tahlil qilingan. Ilmiy matnning lingvistik-didaktik

xususiyatlarini M.M.Kojina, N.A.Mets, O.D.Mitrofanova, T.B.Odintsova, ilmiy matnning mantiqiy-denotatsion tuzilishi va lingvistik xususiyatlarini T.I.Dridze, K.I.Motina, N.V.Pirotti va boshqalar ochib berganlar. (Ushakova N., 2020, 438).

Matnni eshitib tushunishda psixologik ko'nikmalar ham muhim rol o'ynaydi. Bunda eshitgan ma'lumotni eslab qolish ham katta ahamiyatga ega. Ingliz psixologi Barlett klassik asarlarda eslab qolishni "sxema" atamasi bilan atagan. U "sxema"ni har doim bo'lishi kerak bo'lgan ulkan tajribalar yoki reaksiya o'tmishdagi tajribalarga taalluqli ekanligini aytadi. Barlett bu sxemani "o'tmish ta'sirida" deb ataydi. Sxemalarda insonlarning bilimlari aks etadi. Eski bilimlar yangi ma'lumotlarga sxema orqali ta'sir qiladi. U sxemada saqlanib qolgan bilimlar tuzilishini xotira deb hisoblagan. Sxema miyada shakllantirilgandan so'ng, u olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi, tushunadi, yod oladi. (Xiaoli Bao, 2016, -p. 207).

Tinglovchi tinglaganda javob berishdan avval eshitgan so'zlarning ma'nosini tushunishi va idrok etishi kerak. Albatta, bu o'rinda asosiy e'tibor matnning ma'nosiga, mazmuniga qaratilgan bo'ladi, shakl esa unda ikkilamchi holat kasb etadi. Til o'rganuvchilar nutqda qanday ma'no ifoda etilayotganini aniqlay olishi uchun leksik va grammatik ma'lumotlardan faol ravishda tanlab oladilar va semantik sohatdan izohlaydilar. Til o'rganuvchilar nutqni idrok etishda tilning grammatikasi, tilning lug'at boyligi va semantikasi, shuningdek, orfoepik me'yorlar to'g'risida ma'lumot oladilar va ulardan yangi ma'no xususiyatlarini idrok etadilar. Eshitib tushunish malakasiga diqqatning qaratilishi til ta'limi nazariyasida Krashenning "maqbul input" (comprehensible input) g'oyasi bilan bog'liq holda yangi darajaga chiqadi. Mazkur g'oyaga ko'ra til o'rganishda o'qish va eshitish uchun o'rganuvchining darajasiga mos material taqdim etish bu jarayonning samarali bo'lishini ta'minlaydi. D.Nunan ona tili ta'limida eshitib tushunish o'tgan asrning 90-yillarigacha avtomatik o'rganiladigan jarayon sifatida qaralganini, G.Brown o'z tadqiqotida eshitib tushunish va og'zaki nutq ham mashqlar asosida shakllantirilishi zarurligini isbotlab bergach, aynan tili ta'limida ham eshitib tushunishga alohida e'tibor qaratilganligini aytib o'tadi. (Ne'matov O., G'ulomov A va boshqalar, 1997. 235-b.)

O'qituvchi til o'rganuvchilarga matn tanlashda matnning grammatik va semantik jihatlarini inobatga olib, ular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni taqdim etadilar. Albatta bu jarayon orqali samarali natijaga erishish mumkin, lekin to'laqonli emas. Sababi, matn tanlashga asosiy e'tibor matnning strukturasi, grammatikasiga qaratiladi. Aslida esa dastlab matndan kelib chiqib emas, balki til o'rganuvchining grammatik va leksik bilimi, dunyoqarashi muhim aspekt hisoblanadi. Shu asosida matn tanlash va undan keyin matnning grammatik va leksik jihatlariga e'tibor qaratish maqsadli bo'ladi. O'qituvchi matn tanlashda matnning tarkibiga va uni o'quvchilarga yetkazib bera olish ahamiyati mavjud bo'lgan matnlarni tanlasa,

maqsadga muvofiq bo'ladi. Tilshunos olimlar tilning grammatik shaklini tavsiflashda tilning fonologik, morfologik, sintaktik bo'limlari bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlashgan. Grammatika bu tilning tuzilishi yoki tizimning qanday ishlatilishi haqidagi bo'limdir. Nutqning yaratilishi tovushlardan boshlanadi. Tovushlar so'zlardan, so'zlar esa ibora va jummalarni tashkil qiladi. Grammatika esa o'rganuvchilarning nutqini shakllantirishda yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda tinglovchilarga eshittiriladigan matn muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tinglash nutq faoliyatining mustaqil turi bo'lib, o'qish va yozishdan ko'ra qiyinroq ekanligi olimlar tomonidan juda ko'p ta'kidlangan. Tinglash ta'lim maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi, talabalarga chet tilida matnni tushunish imkoniyatini beradi. Demak, tinglash chet tilini o'rganish uchun kuchli vositadir; o'rganilayotgan tilning tovush tomonini, uning fonetik tuzilishi va intonatsiyasini egallash imkoniyatini beradi.

O'quvchilar matnni eshitib tushunish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Agar matn murakkab grammatik qismlardan, masalan, ibora yoki murakkab so'z birikmalariga ega bo'lsa, bunday matn o'zbek tilini o'rganishning ilk bosqichlarida qiyinlik qilishi mumkin. Yoki rasmiy uslubga xos bo'lgan matnlar ham o'quvchilar uchun tushunishga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'quvchi matnni tinglash jarayonida nutq oqimi va ularning xotirasidagi leksik-sintaktik birliklar bilan qiyoslanadi. Uning mahsulini o'quvchilar so'zlarni so'zma-so'z talqin qilganlarida bilinadi. Og'zaki nutq nutq tovushlari asosida yuzaga kelsa, nutq tovushlarini idrok qilish va farqlash eshitish orqali amalga oshadi. O'quvchilar matn persepsiyasini yaxshi o'zlashtirishi uchun matnning semantik jihatlariga e'tiborni qaratmoq lozim. Semantik til ko'nikmalari so'zlar, iboralar, jumlarlar va hatto mazmuniy bloklarning ma'nolarini tushunish va ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni anglatadi.

Til o'rganishda, ayniqsa tinglab tushunishda so'zlar va ularning semantikasi juda muhim, lekin grammatik jihatdan to'liq va mukammal bo'lgan matnlar til o'rganuvchilarning bilimiga va ularning matnni yanada chuqur tushunishiga katta yordam beradi. Grammatik jihatdan tuzilgan dasturlarda o'qituvchilar talabalarga grammatikani o'qitish va xatolarni ustida ishlash vazifasi qo'yiladi. Bu vazifa o'qituvchilarning amaliyotda grammatik qoidalarni qay tartibda til o'rganuvchilarga yetkazib berishlari bo'yicha material tanlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Grammatik elementlarni o'rgatishda hikoyalardan ham foydalansa bo'ladi, chunki hikoya orqali grammatik birliklarni aniqlash va tasvirlash jarayonlarini o'rgatish mumkin. Bunda induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali fikr-mulohazalar yuritiladi. Undan tashqari hikoya orqali grammatikani o'qitish usuli ko'p qirrali usullardan biri bo'lib, uni o'rganib chiqqandan so'ng grammatikani o'qitish uchun qulay vositaga aylanishi mumkin. Bundan tashqari qo'shiq matnini o'rganishda ham o'quvchilarda grammatik birliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Qo'shiqlar bu

nutqda oson ishlatilishi mumkin bo'lgan manbalardan biridir. Bunda ham o'quvchining bilim darajasi, qiziqishlari, yoshi va o'rganilishi kerak bo'lgan grammatik ko'rsatkich muhim rol o'ynaydi.

Matn persepsiyasi murakkab jarayon sifatida turli aspektlarda o'rganilgan. Bularning asosiylari sifatida kvantitativ, psixologik va psixolingvistik yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin. Psixologik yondashuvda birlamchi obyekt inson bo'lib, matnning qabul qilinishida uning individual ruhiy holati, xususiyatlari ko'proq tahlil qilinadi. (Azizxo'jaeva N., 2006, 27-28-b.)

Matnning mazmuniy persepsiyasida matn o'z formal-semantik yaxlitligini saqlab turadi va so'zlar uning tarkibiy qismi sifatida, ya'ni matn tizimining qonuniyatlariga bo'ysungan element sifatida yuzaga chiqadi. Matnning to'g'ri va to'liq tushunilishi uchun til o'rganuvchi har bir so'zning alohida holdagi ma'nosini yaxshi bilishi muhim. Biroq ma'lum holatlarda til o'rganuvchi uchun notanish bo'lgan so'zning ma'nosi kontekstdan anglashilib turadi yoki tanish bo'lgan so'zning ma'nosi kontekstda boshqa ma'no kasb etishi mumkin. Umuman, alohida so'zning ma'nosini bilish yoki bilmaslik matnni tushunish darajalariga ta'sir etadi (Nazarova S., 1992, 92-215-b.).

Eshitib tushunish darslari aniq maqsadlar asosida yaratilmog'i, tinglab tushunish bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i kerak. Bu tinglash jarayonining oddiydan murakkabga o'tishini anglatadi. Bundan tashqari tinglovchilar nimani tinglash, qayerda tinglash va qanday tinglash kerakligini bilishlari lozim. Bu ko'rsatmalar, albatta, o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Matnni eshitib tushunishda tinglovchilar noma'lum so'zlarga duch kelganda ular bu so'zlarning ma'nosini qidirib, eshittirilayotgan ma'lumotni tinglamasligi mumkin. Tinglash vaqtida hatto e'tiborni biroz buzish ham tushunishga xalaqit berishi mumkin. O'qituvchi bu holatlarni ham oldindan nazoratga olgan holda tinglovchilarga tushunmagan so'zlarini tushuntirib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar matn tinglovchi uchun qiziqarli bo'lsa, bunday holatda tinglovchi matnni katta qiziqish bilan tinglaydi. (Murodova A., 2020, 15-22- b.). Dastlabki eshitish signalni qayta ishlagandan so'ng, nutq tovushlari, akustik shovqinlar va fonetik ma'lumotlarni qidiradi. So'ngra bu nutq ma'lumotlari keyinchalik so'zlarni aniqlab yuqori darajadagi til ko'nikmalarini hosil qiladi. Nutqni idrok etishning o'ziga xos jihatlari bo'lib, avvalo nutqni o'rganishda uning akustik xususiyati bilan lingvistik shaklning kesishmalarini ko'rishimiz mumkin. Nutqni idrok qilishning asosiy muammolardan biri shovqindir. Agar nutq aniq sof shaklda talqin qilinsa, shovqin bo'lishidan qat'iy nazar tezda idrok qilinadi. Klassik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eshitish qobiliyatining pasayishi nutqning eshitish shaklidagi diskriminatsiyasini yomonlashtiradi. Sensor izlari yo'qolgunga qadar, nutqning eshitish effektlari idrok oqimi orqali hal qilinadi. Matthewning "Handbook of

psycholinguistics” nomli kitobida Howell va Darvinlarning fikricha, tarkibning pasayish darajalari har xil, ammo 100 ms dan keyin nutqning kichik tarkibiy qismlarini ilg‘ashimiz mumkinligi, 400 ms dan keyin esa hech narsani eshitmasligimizni aytib o‘tishgan. (Matthew J., Traxler., M.Gernbacher, 2006, 204).

Shunday qilib, tinglash jarayonini tahlil etish va o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari va nutq faoliyatining eng qiyin va eng muhim turlaridan biri sifatida grammatik va semantik asos turadi. O‘z navbatida, o‘quvchilar mashg‘ulotlarning turli bosqichlarida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llari, texnikasi va asosiy mashqlarni ham mana shu aspektdan hal etish mumkin.

Adabiyotlar

Azizxo‘jayeva N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.

Nazarova S. (1992). *O‘zbek tili o‘qitish metodikasi*. (O‘zbekiston xalq ta’limi vazirligi talabalar uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etgan). O‘qituvchi.

Ushakova N. (2020). *Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students*. Ukraina: Kharkiv National Automobile and Highway University.

Маркова А.К. (1983). *Формирование мотивация учения в школьном возрасте*. Просвещение.

Xiaoli Bao (2016). “A Study on Schema Theory-based Listening Teaching Mode for English Majors” International Journal of English Linguistics.

BADIIY MATNDA DISFEMIZMLARNING O‘RNI

Hamid Yodgorov *

Annotatsiya

Asar qahramonlarning qiyofasini ochishda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida tabiiy namoyon qilishda disfemizmlarning o‘rni beqiyos. Tildagi bunday birliklarning tasviriylik va ekspressivlik imkoniyatlari asosan badiiy matnlarda namoyon bo‘lganligidan, bu matnlarda til vositalarining ishtirokini stilistik va lingvopoetik aspektlarda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma’nosi bo‘lib, u evelmizatsiyaga zid turadi. Buning sababi – disfemizatsiya hodisasining ba’zan ijtimoiy, ba’zan esa individual stereotiplar bilan bog‘lanishi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy qo‘llanish differensiatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, kontekstual ma’nodoshlik qatorining boyishini ham ta’minlaydi. Matn, bog‘liq qurshov va nutqiy vaziyat ma’nodoshlik qatori muvaqqat a’zolarining shu qatordagi o‘rnini belgilovchi ijtimoiy omillarni mustahkamlovchi vositadir.

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Guliston davlat universiteti. hamid.yodgorov@mail.ru

Mazkur maqolada badiiy asarning xalqchilligini, asar tilining tasviriyligini, ifodaliligini, qahramonlar nutqining individualligini namoyon qilishda disfemik birliklarning poetik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Tilda bunday birliklarning mavjudligi yozuvchi uchun, badiiy tasvir uchun benihoya katta imkoniyat ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, disfemizmlarning uslubiy bo'yoqdorlik jihatidan katta imkoniyatlarga ega ekanligi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *disfemizm, disfemik birlik, evfemizm, leksema, badiiy matn, qarg'ish, so'kish, qasam, jargon, argo, disfema qo'llash mahorati, denotat, konnotatsiya, kontekstual ma'nodoshlik, poetik til, nutqiy qo'llanish.*

POETIC OPPORTUNITIES OF DISPHEMIC UNITS

Abstract

The role of dysphemisms is incomparable in revealing the image of the heroes of the work, in presenting it naturally in front of the eyes of the reader. Since the possibilities of imagery and expressiveness of such language units are mainly manifested in artistic texts, it is important to study the participation of language tools in these texts in stylistic and linguopoetic aspects.

Dysphemization is the pragmatic meaning of language units, which is the opposite of euphemization. The reason for this is that the phenomenon of dysphemization is sometimes associated with social and sometimes individual stereotypes. Dysphemization also leads to the differentiation of lexemes in speech use. This, in turn, provides enrichment of the range of contextual meaning. The text, related environment and speech situation are means of reinforcing the social factors that determine the place of temporary members in this line of meaningfulness.

This article shows the poetic possibilities of dysphemic units in expressing the nationalism of the artistic work, the expressiveness and expressiveness of the language of the work, and the individuality of the characters' speech. It is thought that the presence of such units in the language is a huge opportunity for the writer and for the artistic image. At the same time, the fact that dysphemisms have great possibilities in terms of stylistic coloring is highlighted on the basis of examples.

Key words: *dysphemism, dysphemic unit, euphemism, lexeme, artistic text, cursing, swearing, swearing, slang, slang, skill of using dyspheme, denotation, connotation, contextual meaning, rhoetic language, speech usage.*

Disfemik birliklar muayyan millatning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog'liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar hisoblanadi. Disfemizmlarning evfemizm bilan o'xshash tomoni shundaki, denotatga ma'lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm

bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi. Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, evfemizmdan farqli o'laroq, kam o'rganilgan. Buning sababini esa, madaniy muloqot me'yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qaralgan.

Odatda tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalilmay, unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yarseva tahriri ostida chop etilgan "Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar"ni olish mumkin. Unda evfemizm xususida so'z ketganda yo'l-yo'lakay "uslubiy va emosional betaraf so'zni nisbatan qo'pol, noqulay so'z bilan almashtirish" deya ta'riflanadi (Yarseva, 1990. S.26.).

Disfema – denotatga sub'ektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Bu, albatta, unga adabiy tilda o'rin yo'q deyishga asos bo'la olmaydi. Disfemik ma'noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o'rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo'qligini, maqsad noma'lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko'rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi – zid vosita sifatida qaraladi (Rahimova, O'TA, 2016. 4-son, 97-101-b.).

Ma'lumki, bugungi o'zbek adabiy tili qat'iy me'yorga solinib, qulay ko'rinishga keltirilgan mezonlar asosida ish ko'radi. Gap badiiy asar tili haqida borganda bu mezonlarni chetlab o'tish hollari ko'zga tashlanadi. Ijodkor kechinmalarining asl holida moddiylashtirilishi shuni taqozo etadi. Bu haqda Ozod Sharafiddinovning "Olamning qalbi" nomli kitobida shunday deyiladi: "Bunday she'riyat hamisha shoirning noyob tili bili bog'liq. Bu til nafaqat shoirning ona tilidir, balki shoirning shaxsiy tili hamdir" (Sharafiddinov, 2014. 220-b.).

Halima Xudoyberdieva ijodini kuzatar ekanmiz, disfemik birliklardan ham badiiy matnni shakllantirishda unumli foydalanganligini ko'ramiz (Xudoyberdiyeva, 2020). "**Neniki ko'rdim kecha...**" she'riga e'tiborni qaratamiz:

Ojiz, go'lliging ko'rdim,
Bir-birin **g'ajib**, egan
Nojins **qulliging** ko'rdim,
Negayam ko'rdim, nega?!

Odatda **g'ajimoq** leksemasi ko'pincha mushuk, it va, umuman, hayvonlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur leksemadan boshqa ijodkorlar ham stilistik figura sifatida foydalanganligini quyidagi misollar tasdiqlaydi:: Ko'chada yotgan suyakni qaysi it g'ajimaydi! (A.Qahhor. Og'riq tishlar). Agar mazkur termin odamga nisbatan

ishlatilsa, asosan salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi: Qo'yib bersa, hozir ular bir-birini g'ajib tashlashga tayyor edilar, ammo cho'tir kishining amirona vazmin ovozi ularni bosib qo'ydi (H.Tursunqulov. Hayotim qissasi).

“O'zbek tilining izohli lug'ati” (M.,1981) da “g'ajimoq” fe'liga shunday izoh berilgan: Suyak, qattiq non va shu kabilarni kemirib emoq, mujimoq (ko'pincha it, mushuk, yirtqich hayvonlar haqida). Shoira xalqimizning kechagi (yaqin o'tmishdagi) ayanchli kunini obrazli tasvirlar ekan, uning o'z haq-huquqi masalasida ojiz ekanligini, o'z taqdirini o'zi belgilashda tarqoq ekanligini, shu bilan birga, go'lligini, soddaligini ayanch bilan tasvirlaydi. Shunday paytda bir millat bo'la turib, bir-birini sotgan, bir-biriga xiyonat qilgan kimsalardan, birining go'shtini ikkinchisi g'ajigan odamlardan nafratlanadi. Shoira bunday ko'rinishni qullik bilan tenglaydi, bunday manzarani ko'rganligidan, guvohi bo'lganligidan, **“neniki kecha ko'rganligidan”** afsuslanadi.

Ma'lumki, **“g'ajimoq”** fe'li sememasida **“emoq”** semasi mavjud. Shunday bo'lsa-da, shoira ikki leksemani yonma-yon qo'llaydi. **“Emoq”** qa nisbatan **“g'ajimoq”** da ma'no kuchli ifodalanadi. Shoira “g'ajimoq”ni qo'llash bilan o'z poetik niyatiga erishgan, chunki g'ajish odamiylikka xos xislat emas.

Ijodkor misralarda **“ko'rmoq”** fe'lini takror-takror qo'llash bilan bunday ayanchli manzarani ko'rish qanchalar azob ekanligini kitobxon ruhiyatiga singdirishga harakat qilmoqda. Toki bunday illatlar odamiylikka yot ekanligini ular bilishsin.

Mazkur she'rning keyingi bir parchasi shunday boshlanadi:

Go'rimda ham kuyar oy

Sovurilib yotarman.

Ko'rganlarim unutmay

Qovurilib yotarman.

Mana individuallik, mana mahorat, mana o'ziga xos yondashuv...Halima Xudoyberdieva asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo'lamiz. Har qanday yoqimli narsa, yoqimli so'z odamga yoqadi, kayfiyat bag'ishlaydi. Lekin aksi bo'lsa-chi? Odatda har qanday odamga *qabriston*, *mozoriston*, *go'riston* degan so'zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday **sovuq** tushunchani anchayin yumshatadi. Lekin ijodkor bu safar unday qilmaydi, narsani o'z oti bilan aytib, **go'r** so'zini ochiq qo'llaydi. Bu bilan lirik qahramonning o'sha paytdagi ruhiy holatini, ichki kechinmasini bor bo'yi bilan ko'rsatishga intiladi. Voqelikni silliq, yumshoq ko'rsatish ijodkorning ruhiy holatini to'liq ifodalay olmasligini his qiladi.

Garchi **sovurilmoq**, **qovurilmoq** leksemalari ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, u shaxsning kechinmalari bilan bog'liq. Har ikki leksema ko'chma ma'noda salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi. Har qanday behudaga sarflangan vaqt,

pul, ishga nisbatan *sovurmoq* leksemasi ishlatiladi. Xalqimizda “o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq” degan ibora bor. Inson uchun qovurilish- og‘ir azob. Ichki kechinmalarni bundan ortiq ifodalashning imkoni yo‘q. Shunday ekan, shoira mazkur so‘zlarni badiiy matnga mahorat bilan olib kirgan va poetik individualligini namoyish qilgan.

Halima Xudoyberdieva she‘rlarining poetik tilini o‘rganar ekanmiz, adabiyotshunos D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” kitobidagi quyidagi jumlar diqqatimizni tortadi: “YOzuVchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan normadan og‘adi (ya‘ni til unsurlarini odatdagidan o‘zga shakl, ma‘no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo‘llaydi) va shu “og‘ish”dan ma‘lum badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutadi. Bu xil og‘ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, leksik, morfologik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin” (Quronov, 2007.122-b.). Shoira she‘rlarida ham yuqorida sanab o‘tilgan og‘ishlar natijasida tilning poetikligiga erishiladi. 1990 yilda yozilgan “**Biz o‘tarmiz. Eslar ul, qiz**” she‘ridan parcha keltiramiz:

O, ona Sharq, ona Sharq-sen,
Bugun **fitna, qonga** g‘arqsen.
Merosxo‘rlarim manqurt deb,
Moziydagi bilim **yig‘lar**.

Shoira mazkur she‘rida vulgarizmlardan, dialektizmlardan, arxaik grammatik vositalardan unumli foydalanadi. Ma‘lumki, **fitna, qon to‘kish, manqurt** kabi birliklar sovuq tushunchalarni tashiydi. 1990 yillardagi ayrim Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro qon to‘kishlar, janjalli voqealar ijodkorga tinchlik bermaydi. Fitna bor joyda qon to‘kiladi, fitna bor joyda yovuzlik hukmron bo‘ladi, fitna bor joyda og‘a inisiga g‘anim bo‘ladi. Shoira bundan tashvish tortadi, so‘ngsiz savollariga javob izlaydi. Dunyoning dunyo bo‘lishiga ulkan hissalarini qo‘shgan moziydagi turkiy allomalar “merosxo‘rlarim manqurt” deb yig‘layotganlarini katta afsus bilan yozadi. Vaholanki, “**manqurt**” termini o‘zligini bilmaydigan, o‘tmishi yo‘q, itoatkor kishiga nisbatan ishlatiladi. Faqat o‘zligini bilmaydigan qavmlargina bir-biriga tosh otishi mumkinligini badiiy mahorat bilan matnga olib kiradi.

Ma‘lumki, evfemizmning bosh unsuri- xushmuomalalik. “**O‘lim**” singari shunday xunuk, yoqimsiz bir tushunchani shoira shaklan boshqa, mazmunan bir bo‘lgan evfemik vositalarni qo‘llab, har bir she‘rida takrordan qochib, turlicha ifodalaganligini ko‘ramiz. Quyidagi parchada ham **o‘lmoq** tushunchasini “**biz o‘tarmiz**” shaklida evfemik qo‘llab, poetik to‘kislikni ta‘minlagan. Vazn talabiga ko‘ra, **o‘g‘il** so‘zini sheva imkoniyatlaridan foydalangan holda **ul** tarzida matnga olib kirgan, **bul** va **shul** olmoshlarini arxaik qo‘llab, go‘zal bir she‘riy imoratni yarata olgan.

Shoira uchinchi va to'rtinchi misralarda turkiy qavmlar o'rtasidagi nizolardan jabr tortgan o'zbek va qirg'izlarning ahvolini tasvirlashda disfemik birliklardan ham foydalanadi. Bunday fojiali, achinarli holatni o'z oti bilan aytishni ma'qul topadi va badiiy matnga **sho'rlik o'zbek, sho'rlik qirg'iz, o'lim yig'lar** kabi disfemizmlarni olib kiradi:

Biz o'tarmiz.Eslar ul, qiz,
Bul asrdan qolgay shul iz.
Sho'rlik o'zbek. Sho'rlik qirg'iz.
Qoq o'rtada o'lim yig'lar.

Mustaqillik bergan ne'matlar cheksiz. Ularni sanab adog'iga etish qiyin. Lekin o'tgan feodal jamiyatida, sobiq Sho'rolar davrida har bir ijodkor o'zidan nimalar o'tganini o'zi yaxshi biladi. Halima Xudoyberdieva 1991-yil aprel oyida Abdulla Oripovga bag'ishlab, "**Shoir nomi**" nomli she'rini yozadi. Mazkur she'rdan parcha keltiramiz:

Qodiriyning qonlarini obdon ichib to'ydilar,
Hanuz bilmam men Usmonni otdilarmi, so'ydilar,
Nasimiyning terisini shilib, ko'zin o'ydilar,
Endi bildim, nechun sening ko'zing kulmas, og'ajon,
Ko'zlaringda "xalqim" degan sezim kulmas, og'ajon.

O'tmishda xalqimizning etuk farzandlari, olimu fuzalolari qanday yashaganliklari, qanday ijod qilganliklari, erk deganning quli bo'lganliklarini ochiq namoyon qilish uchun, kitobxonga bor bo'yi bilan ko'rsatish uchun, tarixni to'g'ri yoritish uchun shoira matnga **qonini ichmoq, otmoq, so'ymoq, terisini shilmoq, ko'zini o'ymoq** kabi yoqimsiz birliklarni olib kiradi. Bunday birliklar o'rnida silliq, yumshoq, muloyim eshitiladigan birliklarni qo'llash mumkin edi, biroq bunday yondashuv tarixiy haqiqatni bu darajada yoritmagan bo'lardi. Kitobxon she'rni o'qir ekan, o'tmishning jirkanch sahifalari uning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi, xalqimizning ayanchli tarixini chuqur anglab etadi, adolat va haqiqat yo'lida adashmaydi.

Shu o'rinda polyak yozuvchisi Yan Parandovskiyni quyidagi gaplarini eslashni ma'qul topamiz: "Darhaqiqat, yozuvchining yozuvchiligi u tanlaydigan badiiy vositalarda namoyon bo'ladi- bu vositalar yozuvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan taassurotlarni imkon qadar keng va teran qo'zg'atmog'i yoxud chiqarmog'i mumkin bo'lsin" (Parandovskiy, 1951. 13).

Xalq tili misoli bir buloq ekanligi ma'lum. Lekin bu buloqdan hamma ijodkor ham birdek suv icha olmaydi. Shoirada so'z tanlash iqtidori shunchalar kuchliki, bu so'zlardan da'vat, chaqiruv, undash hidlari ufurib turadi. She'riy matndagi har bir so'z odamning ruhiyatiga ta'sir qiladi, nimagadir undaydi, o'ylantiradi, ogohlikka, insofga, birdamlikka chorlaydi. Qo'llanayotgan har bir so'z odamga mas'uliyat

yuklaydi, go‘yo sening harakatingga, faoliyatingga, o‘tmishingga baho berayotganday jaranglaydi. Uning she‘rlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, odamiylik, ezgulik, sadoqat ulug‘lanadi.

Xulosa qilib aytganda, shoira Halima Xudoyberdieva o‘z ijodida disfemik birliklardan badiiy vosita sifatida unumli foydalangan. Bunday birliklar voqelik, shaxs yoki narsa haqida yorqin tasavvur uyg‘otish, shuningdek, o‘quvchida kuchli taassurot qoldirish hamda o‘zining munosabatini ochiq namoyon qilish maqsadining amalga oshishiga imkon yaratgan.

Adabiyotlar

Ярцева В.Н. (1990). *Лингвистический энциклопедический словарь*.

Rahimova D. (2016). *Poetik tilda muallif “men”ining aks etishi*. O‘TA.

Sharafiddinov O. (2014). *Olamning qalbi*. Ma’naviyat. Toshkent.

Xudoyberdieva H. (2020). *Tanlangan asarlar*. Sharq . Toshkent.

Quronov D. (2007). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Fan. Toshkent.

Парандовский Ян. (1951). *Алхимия слова*. Варшава.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘ZLASHUV USLUBINING QO‘LLANILISHI

Fazliddin Galiyevich,^{*}
Mohichehra Fazliddinovna,^{*}
E‘zoza Fazliddinovna^{*}

Annotatsiya

Tadqiqotchilar uslubiyatning o‘rganish obyekti til uslublari, leksik, grammatik sinonimiya hamda til vositalarining ma’no va qo‘llanish imkoniyatlarini tekshirish deb bilsalar ham, lekin ularni yoritishda, tasnif qilishda, til vositalarining uslubiy hamda his-hayajonni ifodalovchi bo‘yoqlarini tushunishda bir-birlaridan farq qiladilar. Ko‘rinadiki, uslubiyat har biri o‘z muayyan uslubiy belgi – ifatlariga ega bo‘lgan uslublarni o‘rganadi. Masalan, funksional uslubiyat ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini

^{*}Filologiya fanlari doktori, professor, Guliston davlat universiteti. fazliddindpr@mail.ru.

^{*}Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi, Guliston davlat universiteti. mohichehradpr@mail.ru.

^{*}Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, Guliston davlat universiteti. e‘zozadpr@mail.ru.

tekshiradi. Milliy til uslubiyatning mundarijasi birmuncha keng bo'lib, u tilning barcha uslubiy sistemasini tekshiradi. Bu uslubiy sistema uslublardan tashqari, tilning yozma va og'zaki shakllarini, adabiy va so'zlashuv nutq ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, uslubiyat til birliklaridan qaysi biri u yoki bu uslubda, yozma yoki og'zaki nutqda ko'proq ishlatiladi, degan masala bilan ham shug'ullanadi.

Kalit so'z: *adabiy so'zlashuv uslubi, jargon, sheva, leksik-frazeologik hodisalar, so'zlashuv uslubi, shaxsiy baho, aniqlik, shakl.*

USE OF SPEAKING STYLE IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract

Although researchers believe that the object of study of methodology is the examination of language styles, lexical, grammatical synonymy, and the possibilities of meaning and use of language tools, they are not the same in illuminating, classifying, and understanding the stylistic and emotional colors of language tools. They differ from each other. It seems that methodology studies styles, each of which has its own specific stylistic features. For example, functional methodology examines the specific characteristics and means of expression of scientific, official, journalistic, and artistic styles. The content of the national language methodology is rather wide and it examines the entire methodological system of the language. This methodological system includes, in addition to styles, written and oral forms of the language, literary and colloquial forms of speech. Thus, methodology also deals with the issue of which of the language units is used more in one or another style, in written or spoken speech.

Key words: *literary speech style, slang, dialect, lexical-phraseological phenomena, speech style, personal assessment, accuracy, form.*

O'zbek tilshunosliganing tahliliy ma'lumotlari asosida hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv uslubi va oddiy so'zlashuv uslubi.

Umuman olganda, adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy normalariga mos bo'lib, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan ajralib turadi. Uning tili sodda, jargon va sheva elementlaridan holi bo'lishi asosiy belgilaridan biridir. Masalan, *Til sistemadir. Til sistem tuzilishiga ega bo'lgan, sistem xarakterdagi ijtimoiy hodisadir. Demak, til hodisa-lari, til faktlari o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, bir – birini talab etadigan, taqozo qiladigan belgilardir. Anig'i til belgilari til sistemasining elementlari, birliklari sifa-tida bir-birini belgilaydi. Ular o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga, aloqaga kirishib, bir butunlikni – til sistemasini hosil qiladi.* Adabiy

soʻzlashuv uslubi oʻz adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va maʼlum boʻlgan asosiy uslub hisoblanadi. Tilning adabiy soʻzlashuv uslubi kundalik aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi: maktablarda va oʻquv yurtlarida oʻqitish ishlari shu uslubda olib boriladi, undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy soʻzlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turlaridandir (Rahmatullayev, 1996, 76-b.).

Yuqorda zikr etilgan soʻzlashuv uslubidan farqli oʻlaroq, oddiy soʻzlashuv uslubi uchun betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. Unda soʻzlashuv nutqiga xos his-hayajon yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lugʻat boyligidan soʻz tanlashida yaqqol koʻrinadi. Oddiy soʻzlashuv uslubi tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, yaʼni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin. Soʻzlashuv uslubining bu ikki turi oʻzining bir qator grammatik, leksik-frazeologik va fonetik xususiyatlariga ega boʻlib, uslubining fonetik xususiyatlari bir tomondan, umumadabiy tilga xos, ikkinchi tomondan, ogʻzaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini koʻrish mumkin. Masalan, *Komil, qani, yugur uyga. Opangni opkegin baqqa. Esim qursin, ustozim bergan topshiriqlarni unutibman-a* (Abdurahmonov, 1992, 16-b.).

Soʻzlashuv uslubining nutqning xarakter va xususiyatlariga koʻra talaffuz normalarini ikki tipga ajratish mumkin. Birinchi tip talaffuz normasi lektorlar, aktyorlar, diktorlar, notiqalar nutqi uchun xarakterli boʻlib, adabiy til normalariga rioya qilishni talab etadi, unda har bir soʻz aniq, dona-dona talaffuz qilinishi shart. Masalan, *Ayni paytda, mazkur talab turmushda paydo boʻlgan biror yangilikni, masalan, yangi predmetni atash uchun yangi soʻz yaratish yoki boshqa tildan shu yangilikning nomini ham olishdangina iborat emas, balki u hamma yangiliklar, dinamika, hamma oʻzgarishlarning tugʻilish manbayidir.*

Darhaqiqat, talaffuzning ikkinchi tip normasi esa, asosan, soʻzlashuvda, ogʻzaki nutqda uchraydi. Soʻzlashuv uslubida umumisteʼmoldagi adabiy-neytral soʻzlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi. Soʻzlashuv uslubiga mansub soʻzlar koʻpincha amaldagi adabiy-normativ shakllardan farqlanuvchi yoki unga qarama-qarshi keluvchi fonetik belgilarga ega. Masalan, *Ana huv-v adirning nariyogʻida Koʻkabuloq qishlogʻi bor.* Buning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

- soʻz tarkibidagi tovushlarning oʻrin almashinishi. Masalan, *qiygʻir, nalat, shapra, oʻrpimoq* soʻzlari talaffuzga koʻra jonli soʻzlashuvga xos boʻlib, ularning adabiy talaffuz formasi *qirgʻiy, laʼnat, sharpa, oʻpirmoq*dir.

- soʻz tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi. Masalan, *quflamoq (qulflamoq), tashamoq (tashlamoq), koʻkartmoq (koʻkartirmoq), barikaram (bargikaram).*

- biror tovushning orttirilishi. Masalan, *chechmoq (yechmoq), qamchin (hamchi), korchallon (korchalon), yangitdan (yangidan).*

- tovush almashinishi. Masalan, *bo‘qoq (buqoq), mo‘nchoq (munchoq), ko‘mirchak (kemirchak), ko‘ynak (ko‘ylak), tannov (tarnov), qamich (qamish), nusqa (nusxa), qalmoq (qarmoq), qimillamoq (qimirlamoq), tiqillatmoq (tiqirlatmoq), boylamoq (bog‘lamoq), maxtamoq (maqtagamoq)* va boshqalar.

- affikslar qo‘shilishi natijasida o‘zak-negizlarda hosil bo‘ladigan qisqartmalar. Masalan, *opti (olipti), kepti (kelibdi), opkepti (olib kelibdi)*.

Demak, talaffuzning bu usuliga xos ko‘rinishlaridan badiiy adabiyotda og‘zaki nutqni aks ettiruvchi o‘rinlarda, asar qahramonlari nutqida foydalaniladi. Masalan, *“Chinakam tanqidchi odamlardan o‘zib ketadi, jamoatchilik fikrini boshqaradi. Agar xaloyiq bo‘ronlar alg‘ov-dalg‘ovida adashib, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘igan bo‘lsa, munaqqid aslo o‘zini yo‘qotmasdan bor ovozi bilan “Ortga qaytmoq kerak”, deya qichqiradi”*.

So‘zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari shundaki, bu uslubida ishlatiladigan lug‘atning asosiy qismini faol leksik qatlam tashkil qiladi. Shuningdek, adabiy-neytral lug‘atning katta bir qismi kundalik hayotdagi narsa va hodisalarni ifodalashga oid bo‘lib, ular ham asosan, so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. Masalan: *non, osh, tuz, yer, osmon, quyosh, yulduz, kishi, bola, er, xotin, o‘rtoq, oyoq, qo‘l, ko‘z, ota, ona, kitob, qalam, xalq, olmoq, kelmoq, uxlamok, sen, biz, u, bu* va boshqalar. Haqiqatan ham, so‘zlashuv uslubidan kishilar faqat kundalik turmush muomalasidagina emas, balki xilma-xil sharoitlarda – uyda, ko‘chada va ish joylarida ham foydalanadilar. Shuning uchun so‘zlashuv uslubida kundalik turmushga oid lug‘atdan tashqari, siyosat, san‘at, madaniyat, sport va so‘zlovchining kasb-hunariga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko‘plab ishlatiladi.

Bu uslubining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika “maxsuslik” xususiyatiga ega bo‘lmay, balki har qanday nutq uslubida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatdan uslubiy neytral hisoblanadi. So‘zlashuv uslubini asosan so‘zlashuv bo‘yog‘iga ega bo‘lgan leksika xarakterlaydi. Demak, uslubiy bo‘yoqli so‘zlashuv elementlariga oddiy so‘zlashuv hamda sodda tilga oid leksika kirs, oddiy so‘zlashuv leksikasiga, yuqorida aytib o‘tilganidek, adabiy til normalariga mos keluvchi so‘zlashuv uslubining oddiy so‘zlashuv turida ko‘proq ishlatiladigan so‘zlar bo‘ladi. Sodda tilga esa adabiy normaga u yoki bu darajada mos kelmaydigan leksika kirishi bilan belgilanadi. So‘zlashuv uslubi salbiy va ijobiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv leksikaga juda boy bo‘lishi bilan ajralib turadi. Masalan, *bola, farzand, jujuq, churvaqa* so‘zlari o‘zaro ma‘lum semantik munosabatda bo‘lib, asosan bir ma‘noni anglatadi. Bulardan *bola* so‘zi betaraf, u barcha nutq uslublarida keng qo‘llanadi. *Farzand* so‘zi ko‘proq kitobiy uslubga xos bo‘lsa, *jujuq* esa jonli so‘zlashuvga xos bo‘lib, unda erkalash-suyish

ottenkasi bor. *Churvaqa* soʻzida esa uslubiy boʻyoq juda aniq seziladi va bu soʻzda umuman mensimay qarash maʼnosi mavjud (Shomaqsidov, 1985, 85-bet).

Bundan tashqari, soʻzlashuv uslubida tasviriy soʻzlardan yasalgan feʼllar ham koʻp ishlatiladi. Masalan: *akillamoq, bobillamoq, valdiramoq, doʻngʻillamoq, mingʻillamoq, poʻkillamoq, poʻngʻillamoq, toʻngʻillamoq, tingʻillamoq* kabi. Kamsitish, mensimaslik, umuman betakalluf muomalada ishlatiladigan bunday birliklar tovush va obraz bilan bogʻliq boʻlgan harakatni ifodalaydi hamda shu harakatning bevosita atamasi boʻladi. Bu uslubida keng tarqalgan hodisalardan yana biri ot turkumidagi soʻzlarni qisqartirib ishlatishdir. Masalan, quyidagi qisqartmalar jonli tilimizda keng ishlatiladi: *mil-mil* (*million-million*), *kilo* (*kilogramm*), *gidro* (*gidrostansiya*), *fo-to* (*fotografiya*), *metro* (*metropoliten*), *taksi* (*taksomo-tor, yaʼni kirakash avtomobil*), *marshrutka* (*marshrutli taksi – belgilangan marshrutga qadar boradigan avtomobil*).

Maʼlumki, soʻzning ichki formasi, hodisalarga nom berishga asos boʻlgan muhim belgisi maʼlum darajada ayon boʻlib turadi. Soʻzda ichki formaning ayon boʻlib turishi undagi baho maʼnosi va ekspressivlikni ham kuchaytirishi mumkin. Soʻzlashuv uslubidagi koʻpgina yasama soʻzlarda mana shu ichki formatga ega boʻlish saqlangan. Masalan, *kekkaymajon singari otlarning hosil boʻlishida kekkaymoq feʼlining, yapasqi sifatining yasalişida yapaloq soʻzining belgilari nazarga olingan*.

Til hodisalariga eʼtibor beradigan boʻlsak, oddiy soʻzlashuv nutqida umumisteʼmoldagi koʻpgina adabiy-neytral soʻzlar koʻchma maʼnoda ham qoʻllanadi. Oddiy soʻzlashuv nutqiga xos maʼno kasb etgan bunday soʻzlar adabiy tildagi maʼno xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressiv boʻyoqqa ega ekanliklari bilan ajralib turadi. Adabiy tilda iskovich iz va hidni iskab topadigan it, kuchuk maʼnosini bildirsa, soʻzlashuv nutqida esa koʻchma maʼnoda nafrat, jirkanch ottenkalariga ega boʻlgan “izquvar, aygʻoqchi,” maʼnosini anglatadi. Masalan, *Qambar choʻloqdek iskovich yetti iqlimda bormikin? (O.)*

Tahliliy maʼlumotlarga suyanadigan boʻlsak, feʼllarning koʻpchiligi polisemantikdir. Chunonchi, *tuzlamoq* soʻzi adabiy tildagi maʼnosidan tashqari, soʻzlashuv tilida “*pand bermoq, aldamoq, qoʻlga tushirmoq*” maʼnosida ham qoʻllanadi. Adabiy tilda *qulamoq* feʼli toʻgʻri va koʻchgan maʼnoda asosan “*yiqilmoq*”, “*qulab (agʻanab) tushmoq*”, “*buzilib ketmoq*” maʼnolarida ishlatiladi. Soʻzlashuv tilida esa “*oʻlmoq, jon bermoq*” maʼnolarida ham qoʻllanadi. Masalan, *Chol qulamay turibdi. Qulagan kun... merosimni daʼvo qilaman. (O.) Qiyoslang: imtihondan yiqildi yoki quladi.*

Shuningdek, *choʻzmoq* feʼli adabiy maʼnolaridan tashqari, soʻzlashuv tilida «*qaytarmoq, qaytarib bermoq*» maʼnolariga ham ega. Masalan, “*Pulni choʻz, jannatning kalitini qoʻlingga tutqazaman*”. (O.)

Umuman olganda, oddiy soʻzlashuv uslubiga xos belgiga ega boʻlish xususiyatini biron kasb-hunar bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarda ham va boshqa tillardan oʻzlashtirilgan baʼzi soʻzlar misolida ham koʻrish mumkin. Masalan, *andavalamoq* feʼli ish quroli *andava vositasida* “*suvamoq*” maʼnosidan tashqari, soʻzlashuv nutqida koʻchma maʼnoda “*biron kamchilikni bekitmoq*”, “*boʻyab ketmoq*”, “*xaspoʻshlamoq*” maʼnolarini ham ifoda qiladi. Kasb-hunarga oid *shibbalamoq* feʼli esa koʻchma maʼnoda “*adabini bermoq*”, “*taʼzirini bermoq*”, “*koyimoq*” maʼnolarida ishlatiladi. Xuddi shuningdek, tarkibida ruscha *soldat*, *schyot* soʻzlari boʻlgan *xonasallot*, *xomchoʻt* leksemalari ham oddiy soʻzlashuv uslubiga mansubligiga koʻra farqlanadi. *Xonasallot* soʻzi “*uy-joyi va oilasidan ajralgan, xonavayron boʻlgan*” maʼnosidan tashqari, soʻzlashuv tilida soʻkish va koyishni ifodalaydigan “*malʼun, laʼnati, shum, badbaxt*” maʼnosida ishlatiladi. *Xomchoʻt* koʻchma maʼnoda “*taxminiy, dastlabki hisob*”ni anglatadi.

Til taraqqiyotiga eʼtibor beradigan boʻlsak, soʻzlashuv tili ham oʻz taraqqiyotining har bir bosqichida yangi soʻz va iboralar hisobiga boyib boradi. Chunonchi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to revolyutsiyaga qadar oddiy soʻzlashuv nutqida oʻz maʼnosi va yasallishiga koʻra juda xilma-xil koʻpgina yangi soʻzlar paydo boʻldi. Bularning baʼzilari oʻzbek tilida avvaldan mavjud boʻlgan soʻzlar vositasida yasalgan, baʼzilari rus tilidan kirgan boʻlib, talaffuzi va yozilishi jonli soʻzlashuv nutqiga moslashtirilgan soʻzlardir. Masalan, *patta*, *chipta* (*yoʻl bileti* – masalan, “*temir yoʻl bileti*” maʼnosida), *chiptachi* (*temir yoʻl kassiri*), *poʻrim* (*olifta, olifta kiyinishlik*), *sim qoqmoq* (*telegraf orqali xabar qilmoq*), *shayton arava* (*velosiped*), *soʻlkavoy* (*bir sumlik – pul, tanga*), *pudratchi* (*podryadchik*), *koʻnka* (“*konka*” – *ot qoʻshib yuritilgan shahar transporti*) *izvosh*, *izvoshchi* (*ikki yoki toʻrt gʻildirakli yengil arava, kirakash arava*), *izvoshchi* (*izvosh haydovchi*), (*advokat, yurist*).

Biroq bir maʼlumotga alohida eʼtibor berish lozimki, til taraqqiyotining revolyutsiyadan oldingi davri nuqtai nazaridan neologizm deb baholangan soʻzlarning koʻpchiligi hozir arxaizmga aylangan. Ulardan faqat oʻtmish voqeligini tasvirlashda uslubiy maqsad uchun foydalaniladi. Bunday soʻzlarning hozir faol soʻzga aylanganlari ham bor. Bunda ularning leksik maʼno hajmi kengayadi. Masalan, *pudratchi* soʻzi hozir odatdagi soʻz sifatida “*baylab (baholab) ish oluvchi qurilish tashkiloti, boshqarmasi*” maʼnosida, shuningdek, “*uyquni pudratga olganmi*” kabi koʻchma maʼnoda ishlatiladi.

Soʻzlashuv uslubidagi emotsional-ekspressiv leksika oʻz maʼnosiga koʻra nutq uslublarining barchasida ishlatiladigan adabiy-neytral leksika bilan oʻzaro munosabatda, bogʻlanishda boʻladi. Bir predmet va hodisa koʻpincha oʻzaro maʼnodosh soʻzlar, leksik sinonimik vositalar yordamida ifodalanadi. Soʻzlashuv uslubida narsa va hodisani uning turli xil qoʻshimcha semantik va emotsional-

ekspressiv ottenkalari bilan ifodalovchi leksik vositalar juda keng qo'llanadi. Qo'shimcha emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo'lgan sinonim so'zlarni ko'plab ishlatish asosan oddiy so'zlashuv uslubi uchun xos xususiyatdir. Masalan, *xunuk* so'zi ma'nosi bilan birlashuvchi *badbashara*, *badburush*, *badqovoq*, *tasqara*, *taviya*, *taraqqos* sinonimik qatorda so'nggi ikki so'z, asosan oddiy so'zlashuv uslubiga xos. *Soqov* so'zi atrofida uyushgan *tilsiz*, *gung*, *gungalak* so'zlaridan so'nggisi so'zlashuv tiliga mansub. *Bechora*, *sho'rlik*, *boyaqish* so'zlari ham nutqda ishlatilishi jihatidan o'zaro farq qiladi. Bulardan *boyaqish* so'zi ko'proq so'zlashuv uslubiga xos. "*Biror ish-harakatni o'rniga qo'yimoq*", "*qoyil qilib bajarmoq*" ma'nosi bilan birlashgan *boplamoq*, *do'ndirmoq*, *o'rinlatmoq* fe'llari, asosan, oddiy so'zlashuv uslubida ishlatilishi bilan farqlanadi. *Qotirmoq*, *o'xshatmoq* fe'llari esa so'zlarining ko'chgan ma'nolarida oddiy so'zlashuv uslubiga xos ma'no kasb etadi (G'ulomov, Asqarova, 1961, 5-96-b.).

Ilmiy faktlarga suyanadigan bo'lsak, sinonimik munosabat so'zlardagina emas, frazeologik birikmalarda ham mavjuddir. Lekin frazeologik sinonimlar nutq ko'rinishlariga xoslanganligi jihatdan u qadar ko'p va rang-barang emas, ular asosan so'zlashuv nutqiga va qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xos. Masalan, (oldingi qator iboralar umumnutqqa xos, keyingilari so'zlashuv nutqiga xos iboralar; ularning chegarasi tire bilan ajratilgan): "*lom-mim*" *demaslik* – *churq etmaslik*; *miyasi g'ovlab ketdi* – *kallasi g'ovlab ketdi*; *ta'bi xira* – *ta'bi nomozshom*; *dunyodan o'tmoq* – *jon bermoq*.

Darhaqiqat, so'zlashuv uslubining ishlatilish sharoitlari, ohang va imo-ishora singari vositalardan foydalanish hamda fikr va bayonning asosan kundalik turmush xarakteriga ega bo'lishi, odatda, gap tuzishning juda murakkab grammatik qurilishlarini talab qilmaydi. Suhbatda (necha kishi ishtirok etishidan qat'i nazar) so'zlovchi va tinglovchining voqelikka munosabati ma'lum sharoitda nutq vaziyatidan, holatdan bilinib turadi. Vaziyat suhbatdoshlarning nutqiga aniqlik kiritadi, uni to'ldiradi, fikrning to'la aniq bo'lishiga ko'maklashadi. Suhbatdoshlar xoh sodda, xoh murakkab fikrni ifoda etsinlar, ular hamma vaqt suhbat vazoyatiga suyanadilar. So'zlovchi o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, nimanidir ohang orqali tushuntirishi yoki nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Shunday qilib, suhbat sharoitida namoyon bo'luvchi vaziyat so'zlashuv nutqi uchun xarakterli xususiyatdir. Bunda paralingvistik vositalar (imo-ishora, ko'z, qo'l, bosh harakatlari kabilar) ham alohida ro'l o'ynaydi (Musayev, 2000, 25 b.).

Suhbat vaqtida dialog muhim rol o'ynaydi. Agar dialoglar savol-javob xarakterida bo'lsa, javob to'liqsiz gap shaklida bo'ladi. Bunday gaplarda yashiringan muayyan bo'lak suhbatdoshlar nutqidagi oldingi va so'nggi jumlar mazmunidan anglashilib turadi. Umuman, fikrni ixcham ifodalash maqsadida juda zarur bo'lmagan gap bo'lagini takrorlamaslik – "tushirib qoldirish" jonli so'zlashuv tili uchun

xarakterlidir. “To‘liqsiz gapning jonli tilda ko‘p uchrashining bir sababi so‘zlash paytidagi vaziyatning, mimika va turli imo-ishoralarning fikrni ixcham anglatishga imkon berishidir. Ular aytilmagan – ifodalanmagan bo‘lakning kompensatsiyasidir”.

Fikrni odatdagiga qaraganda ifodali, ta’sirli ifodalash usullaridan biri ajratilgan bo‘laklardan foydalanishdir. So‘zlashuv uslubida gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklaridan muhim uslubiy-grammatik vosita sifatida keng foydalaniladi. So‘zlashuv uslubining hozirgi taraqqiyot bosqichida ajratilgan bo‘laklarning keng qo‘llanishi, avvalo, o‘zbek yozma adabiy tilining xalq tiliga yaqinlashuv hodisasi bilan bog‘liqdir. Ya’ni kuzatilgan maqsadning har xilligiga – maqsadning yo‘nalishiga qarab, so‘zlashuv uslubida darak, so‘roq, buyruq va undov gaplarning qisqa hamda ixcham ko‘rinishlari, to‘liqsiz formalari juda keng qo‘llanadi. Ayniqsa, so‘roq gaplar ko‘p ishlatiladi.

Sof so‘roq gaplar taajjub, shubha, gumon singari turli-tuman ottenkalarga ega bo‘ladi. Bunday so‘roq gaplar tarkibida so‘roqni bildiradigan so‘zlar qo‘llanmaydi, shu so‘roq ohangi orqali ifodalanadi. Masalan,

– Hujjatingiz? (Hujjatingiz qani?) Ismingiz (Ismingiz nima?). Shuningdek, so‘zlashuv uslubida undov gaplar ham ko‘p ishlatiladi.

Til sathlarining yadrosi bo‘lgan morfologik sistema – milliy tilning barcha nutq uslublari uchun yagona va umumiy bo‘ladi. Ya’ni morfologiya sohasida so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyati oz darajada seziladi. Chunki nutq uslublarining morfologik jihatdan farqi, asosan, u yoki bu morfologik elementlarni ortiq yoki kam ishlatishdagina ko‘rinadi. Chunonchi, holat oti yasovchi *-chilik*, *-garchilik* murakkab qo‘shimcha so‘zlashuv uslubi uchun xarakterli bo‘lgan otlar yasaydi. Masalan, (qavsdan tashqarida berilgan otlar so‘zlashuv nutqiga xos, qavsning ichida berilganlari shu otning adabiy tildagi shakli): *xafagarchilik* (*xafalik*), *muttahamgarchilik* (*muttahamlik*), *tabibgarchilik*, *tabibchilik* (*tabiblik*), *sherikchilik* (*sheriklik*), *yuzakichilik* (*yuzakilik*), *dinchilik* (*dindorlik*), *tilyog‘lamachilik* (*tilyog‘lamalik*).

Tahliliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlari fe’lning ba’zi formalarining ishlatilishida ham ko‘rinadi. O‘zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlarda fe’lning *-i(b) edi* formasi og‘zaki nutqda *-uvdi*, *-ovdi* tarzida talaffuz etiladi, deb ko‘rsatiladi. Talaffuzdagi bu holat to‘liqsiz fe’lning bu shaklini og‘zaki nutqqa xos qilib qo‘yadi. Misollar, *Egardan irg‘itib yuborishlariga sal-pal qoluvdi. (Sh. Rashidov.) Shahardan kelishimda yo‘lni qisqartirish uchun qir orqali yurib... shu yo‘ldan keluvdim. (U. Nazarov.)*

Yuqoridagi misol bilan bir qatorda, *-r edi* shaklida ham shu holatni ko‘rish mumkin. So‘zlashuv uslubiga xos bu shaklda badiiy asarlarda jonli tilni aks ettiruvchi o‘rinlarda, asar qahramonlari nutqida keng foydalaniladi.

Bulardan tashqari, fe'l formalari qo'llanish chastotasi jihatidan ham biror uslubga xoslangan bo'ladi. Masalan, *bo'l* ko'makchi fe'lining *-gan* qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlarga qo'shib kelishi tufayli hosil bo'lgan. Masalan, *ovqatdan bir oz yegan bo'ldi, bir-ikki og'iz gapirgan bo'ldi, u yoq-bu yoqni ko'rgan bo'ldi* kabi formalari, ayniqsa, jonli tilda ko'p uchraydi. Xuddi shuningdek, fe'lning ikkinchi shaxsi uchun *-ng + iz + lar* va *-ng+lar* shakllari qo'llanadi. Masalan, *bordingizlar va bordinglar (-iz o'rniga -lar)*. Bulardan keyingi shakl jonli tilda juda ko'p ishlatiladi. Jonli tilda keng qo'llanishiga ko'ra ularni so'zlashuv uslubiga xoslangan shakllar deyishimiz mumkin.

O'zbek tili leksikasida shaxsiy baho ifodalovchi shakllar, ya'ni kichraytirish, erkalash ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalarni olgan so'zlar, oddiy so'zlashuv uslubida ba'zan affiksoid holatiga kelgan *jon, xon, xo'r (xo'rda, xo'rak), bachcha (vachcha), tilla* kabi elementlarni olgan shaxsiy baho bildiruvchi otlar so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladi. Ular orqali so'zlovchi bir shaxsga nisbatan salbiy munosabatini ifodalaydi: *oyimcha, do'ndiqcha, tirrancha, kerilmajon, qaqajon, kekkaymaxon, baloxo'r, ko'zaxo'r, pashshaxo'rda, mazaxo'rak, jinnivachcha, oyimtilla va boshqalar*.

So'zlashuv uslubida sifatlardagi shaxsiy baho *shakllarida (Oydekkina ekansan-u olabayroq kiyimlarga balo bormi? (S.A.),* fe'llardagi harakatning miqdoriy belgisini ifodalovchi shakllar *-(i)msira, -(i)qira)* keng qo'llanadi. Masalan, *kulimsiramoq, yig'lamsiramoq, oqarinqiramoq, iljayinqiramoq* kabi.

Xulosa qilib aytganda, so'zlashuv uslubining ba'zi morfologik xususiyatlarini boshqa so'z turkumlari doirasida ham kuzatish mumkin va bu borada bir qancha yangidan yangi ilmiy mulohazalarni keltirish hamda ilmiy tadqiqotlarga asos qilib olish mumkin.

Adabiyotlar

Раҳматуллаев Ш. (1996). *Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари*. Фан.

Ғуломов А., Асқарова М. (1961). *Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис*. ЎзССР давлат нашриёти.

Abdurahmonov F. A. (1992). *O'zbek adabiy tilining uslubiy normalari*. O'qituvchi.

Shomaqsudov A. va b. (1985). *O'zbek tili uslubiyasi*. O'qituvchi.

Musayev A.S. (2000). *O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi*. *Fil. fan. nom. diss. avtoref*.

O‘ZBEK TILI ISH YURITISH HUJJATLARINING TARTIB-TAMOYILI

Dunyogozal Nazarova *

Annotatsiya

Ma'lumki har qanday ishning o'z tartib-taomili mavjud. Masalan, biror yumush bilan qaysidir tashkilot, muassasa, korxona yoki idoraga murojaat qilish uchun ma'lum namunadagi hujjatni to'ldirishga to'g'ri keladi. Keyingi bosqichda ariza, tilxat, ma'lumotnoma, dalolatnoma, ishonchnoma kabi hujjatlardan zarurini topshirish talab etilishi mumkin. Ish faoliyatda hujjatlarni davlat tilida yuritishda ham xuddi shunday jarayonlarga kun-kunora duch kelimiz. Ish jarayonimiz sarhisobini ham davlat tilidagi hisobot shaklida yetkazishimiz kerak bo'ladi.

Mazkur maqolada o'zbek tili ish yuritish hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo'lib, hujjatlarning tartib-tamoyili qay tarzda ekanligi ochib berilgan. bundan tashqari o'zbek tili ish yuritish ulubining til xususiyatlari va ularning ta'lablari ham ko'rsatib o'tilgan.

* Nukus, "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi. e-mail: nazarova@mail.ru

Kalit soʻz: *ish yuritish, hujjat, hujjatchilik, rasmiy uslub, ish qogʻozlari, hujjat tuzilishi, hujjat turlari.*

Hammaga ayonki, yaqin oʻtmishimizda sanoqli hujjatlarga oʻzbek tilida yozilgan va bu muommo haligacha davom etmoqda. Rus tilidan andoza olib qurilgan soʻzlardan iborat hujjatlar amalda boʻlsa, davlat tilining nufuzini oshirish haqida gapirishning oʻzi nooʻrin hisoblanadi.

2019-yil 21-kuni Prezidentimizning “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni ayni shu omillarni inobatga olgan holda qabul qilingani, shubhasiz. Koʻp oʻtmay mazkur hujjatga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Davlat boshqaruvi organlari, xoʻjalik birlashmalari, hokimliklar tuzilmalarida rahbarning maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi. Qisqa qilib aytganda amaliy ishlar boshlangan. Davlat tilini rivojlantirish departamenti bu bordagi ezgu saʼy-harakatlarga bosh-qosh boʻlmoqda.

Inson oʻz fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor boʻlishi, kundalik muloqat tilidan tashqari, rasmiy hujjat yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunonchi ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmun jihatdan va shaklan xilma-xil boʻlgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi.

Oʻzbek tili ish yuritish uslubi adabiy tilning kitob-harf uslublarini anglatadi. U qonunlar, farmonlar, farmoyishlar, shartnomalar, aktlar, guvohnomalar, ishonchnomalar matnlarida, muassasalarning ish yozishmalarida amalga oshiriladi. Oʻzbek tili ish yuritish nutqining ogʻzaki shakli yigʻilish va konferensiyalardagi nutq va maʼruza, sud nutqi, rasmiy telefon suhbat va ogʻzaki buyruq bilan ifodalanadi. Rasmiy ish nutqi ish munosabatlarining maʼlum tartib va tamoyilga solinishini aks ettiruvchi yuqori darajadagi standartlashtirish orqali yuzaga chiqariladi.

Yurtimiz olimlari ham Oʻzbek tili ish yuritish uslubining oʻziga xos xususiyatlari toʻxtalib oʻtgan. Xususan, M.Aminov va boshqalar tomonidan yozilgan “Davlat tilida ish yuritish” kitobida quyidagi maʼlumotlarni keltirib oʻtilgan: “rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qoʻshimchalarini olgan soʻzlar, koʻtarinki-tantanavor yoki bachkana, dagʻal soʻzlar, shevaga oid soʻzlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan soʻzlar, oʻxshatish, jonlantirish, mubolagʻa, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi” (АМИНОВ М. 2020, 16-b).

N.Mahmudov, A.Rafiyev va I.Yo‘ldoshevlar quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi” (Suyarova A. 2018. 5-b).

Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud.

Shuningdek hujjatchilikda imlo va tinish belgilari masalasiga alohida e‘tibor qilish kerak. Hujjatning nomini bosh harf bilan yozgan ma‘qul, shuningdek bosma matnda boshqa usul bilan, masalan, mazkur nomni to‘liq icha bosh harflar bilan yozish orqali ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Lekin hujjatning nomi bo‘lganligi uchun (sarlavhalardagi kabi) undan so‘ng nuqta qo‘yish shart emas. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga javob berishi lozim.

1. Ish qog‘ozlari, odatda siyohli, sharikli ruchkada (ko‘k, qora, gunafsharang sterjen bilan) aniq dastxat bilan yoziladi. Ariza, tarjimayi hol, bildirgi (raport) kompyuterda yozilmay, faqat qo‘l bilan yoziladi. Dalolatnoma (akt), bayonnoma, hisobot kabi hujjatlar kompyuterda terilishi mumkin.

2. Hujjatlarda o‘chirish yoki tuzatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Ish qog‘ozlarining har bir turi umum qabul qilingan shaklda va muayyan izchillikda tuziladi.

4. Hujjat matni qisqa, ravon, aniq va mantiqli (ortiqcha so‘z va iborasiz) bayon qilinishi kerak. Hujjat tili juda lo‘nda bo‘lishi lozim. Ish qog‘ozlarida biror shaxsga murojaat etilganda “Siz” olmoshi (shuningdek, uning turlangan shakllari – “Sizga”, “Sizning”, “Sizdan” va b.) bosh harf bilanyoziladi.

5. Son, odatda, raqam bilan yoziladi. Pul hujjatlari (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat)da raqamdan so‘ng qavs ichida shu raqamning so‘zdagi ifodasi ko‘rsatiladi.

6. Arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan so‘ng qo‘shimcha yozilmay, uning o‘rniga defis (-) qo‘yiladi: 3-chorak, 4-kurs. Rim raqamidan so‘ng hech qanday qo‘shimcha yozilmaydi: I chorak, II kurs.

7. Turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi. Masalan No, §, %, (telegrammalarda bular so‘z bilan – raqamli, band, foiz kabi ifodalanadi.)

8. Ish qog‘ozlarda ularning imzolanishiga rioya etiladi: avval hujjatga imzo chekadigan mansabdor shaxs lavozimining nomi, so‘ng shaxsiy imzosi va familiyasi ko‘rsatiladi.

Tegishli matnni hujjat turiga va uning zaruriy qismlari mazmuniga mos tarzda mustaqil ravishda tuza olish, jo‘natilgan hujjatga tashkilot munosabatini aniq ifodalagan holda to‘g‘ri yozish, taklif yoki e‘tiroz bildirish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosalash, umumlashtirish va bunda kirish so‘zlardan, iqtibos, ko‘chirma

gaplardan o‘rinli foydalana bilish ko‘nikmalarini o‘stirishga oid uslubiy materiallarni barchaga qiziqarli tarzda yetkazish taqozo etiladi. Korxonalarda rahbar tomidan chiqarilgan ko‘rsatmalar birinchi shaxs tilidan bo‘ladi. Shu jumladan ba‘zi insonlar tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati kabilar) ham birinchi shaxs, birlik sonda yoziladi (Keldiyorova G.S. Toshkent. 4-b). Boshqa hujjatlar esa yo birinchi shaxs ko‘plik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda tuziladi. Shuningdek to‘g‘ri yozish qoidalari tilshunoslar tomonidan tuziladi va jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi va imlo qoidalari hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Kishilar o‘zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta‘lim jarayonida, madaniy-ma‘rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburiyatlar mavjud.

Aslini olganda davlat tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofliigi va boyligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, uning so‘zlashuv doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh, o‘quvchi va talaba ona tilidagi so‘z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. Chunki so‘z – fikrning qurolidir. Kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi

Adabiyotlar

Аминов М. va boshqalar.(2020). Давлат тилида иш юритиш. Тошкент.

Mahmudov N., Rafiyev A. va Yo‘ldoshev I. (2010). Davlat tilida ish yuritish. (Akademik litseylar uchun darslik). Toshkent-

Suyarova A. (2018).O‘zbek tilida ish yuritish uslubiy qo‘llanma. Namangan.

Keldiyorova S., Ablayeva N.A. (2009). O‘zbek tilida ish yuritish. Toshkent.

VIRTUAL MAKONDA NOVERBAL VOSITALAR ORQALI MULOQOT

Farhod Toshtemirov *

Annotatsiya

Internet foydalanuvchilari onlayn muloqot jarayonida belgilardan foydalangan holda ramziy ma'noni bildiruvchi ikonik belgilar yordamida muloqot qilishadi. Yuz ifodasi hamda his-tuyg'ularni ifodalashning bu usuli internetdagi shaxslararo hurmat jihatiga ta'sir ko'rsatadigan matn orqali ifodalab bo'lmaydigan aloqa maslahatlarini etkazishi mumkin. Belgili belgilar yordamida yuborilgan xabarlar boshqa odamni xuddi shunday his qiladi va tan olinishi, yoqtirilishi yoki hurmat qilinishi tuyg'usini bildiradi, bu esa sherikning yuzini va avtonomiyani saqlab qoladi. Ushbu tadqiqotda biz yuqoridagi muhokamani qo'llab-quvvatlaydigan bir qator farazlarni tekshirish uchun virtual chat muhitida ishlatiladigan ikonik belgilarning turlari va miqdorini statistik tahlil qildik. Tahlil natijalariga ko'ra, internet foydalanuvchilari o'zlari uchun muhim bo'lgan narsa haqida so'rashganda va boshqa odam ularga yaqin bo'lmaganda

* Turon universiteti, farhod.toshtemirov@gmail.com

ko'proq emotsiklardan foydalanishga moyil bo'lgan. Bundan tashqari, xushmuomalalik ifodasi turiga qarab, kollegializatsiya strategiyasi va avtonomiyani hurmat qilish strategiyasi so'zlarida ijobiy kulgichlar tez-tez ishlatilgan, kollegializatsiya strategiyasida va yashirin strategiyada salbiy kulgichlar ko'p ishlatilgan. . Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ikonkali belgilar orasida kulgichlar yuzma-yuz muhitda og'zaki bo'lmagan yuzni saqlash strategiyalariga o'xshash funktsiyaga ega va shu tariqa Internetdagi silliq va tabiiy o'zaro ta'sirlarga ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar: *noverbal muloqot, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomim, paratil, fazoviy munosabatlar, eshitish nutqi, vizual uslub, emoji, kulgichlar, quvonch, kulgi.*

COMMUNICATION THROUGH NONVERBAL MEANS IN VIRTUAL SPACE

Abstract

Internet users communicate using iconic symbols, which represent symbolic meaning by using symbols in the process of online communication. Facial expression and this way of expressing emotions can convey communication cues that can't be conveyed through text that affect interpersonal respect online. Symbolic messages make the other person feel the same way and convey a sense of recognition, liking, or respect, which preserves the partner's face and autonomy. In this study, we statistically analyzed the types and amounts of iconic symbols used in virtual chat environments to test a number of hypotheses that support the discussion above. According to the results of the analysis, Internet users tended to use more emoticons when asked about something important to them and when the other person was not close to them. In addition, depending on the type of politeness expression, positive emoticons were used more often in collegialization strategy and autonomy respect strategy words, and negative emoticons were used more in collegialization strategy and covert strategy. . Based on the above results, it can be said that among iconic symbols, emoticons have a similar function to non-verbal face-saving strategies in face-to-face environments, thus influencing smooth and natural interactions on the Internet.

Key words: *non-verbal communication, gestures, facial expressions, pantomime, paratile, spatial relations, auditory speech, visual style, emoji, emoticons, joy, laughter.*

Ogʻzaki boʻlmagan noverbal muloqot – soʻzlardan tashqari muloqotning barcha tomonlarini oʻz ichiga olgan muloqot shakli hisoblanadi. Ushbu turdagi nutq axborot, his-tuygʻular va fikrlarni yetkazishda muhim rol oʻynaydi.

Nutqiy jarayonda kishilar tomonidan foydalanilgan noverbal vositalar vaqtlar mobanida oʻzgarib, oʻz shaklini va maʼnosini oʻzgartiradi. Shunday boʻlsada, paratil vositalar tarixdan fan sifatida oʻrganilib, hozirgi davrgacha tilning yordamchi vositasi hisoblanadi. Kuzatishlarga asosan, til insonlar muloqotida eng samarali vosita hisoblansa, amaliy nuqtai nazardan u yagona dominant muloqot vositasi emas.

Nolisoniy vositalarni verbal ifodalash, ularning nominativ xususiyatlari va semantik oʻziga xosliklari badiiy matnda namoyon boʻladi. Nolisoniy vositalarning nominatsiyasi lisoniy birlik sifatida leksik-semantik, leksik-grammatik, struktur jihatdan lingvistik tadqiq obyekti sanaladi. Ularning matn tarkibida ishlatilishi, uslubiy-matniy xususiyatlarining denotativ tomonlari kinemalarning soʻzlashuv jarayonida tabiiy qoʻllanishini anglatadi. (Саидхонов М. 2022. 211-b.)

Ifoda vositalarining rang-barangligi soʻzlashuvchilar nazarda tutgan kommunikativ maqsad yoki axborotnigina ifodalamaydi. Nutq ishtirokchilari muloqot jarayonida foydalanadigan har bir lisoniy yoki nolisoniy sistema birliklari verbal va noverbal aktlarni hosil qilishi bilan birga, soʻzlashuvchilar shaxsiga doir xususiyatlarni ham ifodalashiga xizmat qiladi. Bu har qanday til sistemasida mavjud boʻlib, oʻsha tilga mansub barcha aktlarda namoyon boʻladi. Shuning uchun ham har qanday tilda oʻsha millatning urf-odati, milliy qadriyatlari, madaniyati aks etadi. Bu esa dunyo xalqlari tillarining oʻziga xos kodlanish sistemasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Kodlanish sistemasi nafaqat tilda, balki nutqiy muloqot jarayonida koʻmakka keluvchi boshqa ifoda vositalarida toʻliq aks etadi. Nolisoniy sistema elementlari ham millatning urf-odati, qadriyati va madaniyatini aks ettiruvchi maxsus kodlanish tizimi sifatida eʼtirof etiladi. Muloqot jarayoni ana shu bir necha kodlanuvchi sistema elementlari yordamida amalga oshiriladi. Umuman, ifoda vositalari bir jihat bilan shaxsga xos xususiyatlarni koʻrsatish uchun xizmat qilsa, ikkinchi jihat bilan millat tili va oʻsha xalqning oʻziga xos mentaliteti, madaniyati, urf-odatini ifodalashga xizmat qiladi. Buni fan tilida ifoda vositalarining milliy-madaniy kodlanishi deb yuritiladi. (Ҳақимов. 2022. 66-b.)

Onlayn muloqotda ogʻzaki boʻlmagan noverbal muloqot bu yoʻnalishning oʻrganilmagan qiziqarli va muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Chunki onlayn muloqot oʻzaro munosabatlarda koʻplab anʼanaviy noverbal elementlar kamroq koʻzga tashlanadi yoki, aksincha, yangi shakllarga aylanadi.

Noverbal muloqot turlari bir necha shakllari mavjud:

- imo-ishoralar: maʼnoni yetkazish uchun qoʻllarni yoki tanani harakatlantirish (masalan, biror narsaga ishora qilish).

- yuz ifodalari: his-tuyg'ularni aks ettiruvchi yuz ifodalari (tabassum, qoshlarini chimirish).
- pantomima: xabarlarini so'zsiz yetkazish uchun tanadan foydalanish;
- paratil: aytilgan narsani idrok etishga ta'sir qiluvchi intonatsiya, ohang, nutq hajmi va ritmi;
- fazoviy munosabatlar: suhbatdoshlar orasidagi masofa, bu yaqinlik yoki rasmiyatchilik darajasini ko'rsatishi;
- eshitish nutqi: ma'noni bildiradigan so'zlardan boshqa tovushlar (masalan, xo'rsinish, kulish).

Noverbal muloqot vositalari og'zaki nutqni to'ldiradi, bildirilgan fikrning ma'nosini oshiradi. Ba'zida og'zaki bo'lmagan xabar va so'zlarni almashtirishi mumkin (masalan, "ha" deyish o'rniga bosh silkitish). Shuningdek, imo-ishoralar yoki yuz ifodalari suhbatdagi ba'zi fikrlarni ta'kidlashi, suhbatning borishini nazorat qilish uchun og'zaki bo'lmagan signallardan foydalanish (masalan, boshqa odamga qarash, gapirish istagini bildirishi) mumkin.

Xabar ohangi intonatsiya va kontekstda eshitish komponenti bo'lmasa-da, o'quvchi so'z tanlash va vaziyat konteksti orqali muallif ohangini talqin qilishi mumkin.

Matn terishdagi xatolar ba'zida ehtiyotsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa ba'zan xabarlarini to'g'ri idrok etishga ta'sir qilishi mumkin.

Virtual profillar va uning avatarlari identifikatsiya va yashirin signallar profil uslubi, tanlangan fotosuratlar va avatarlar foydalanuvchining shaxsiyati va kayfiyati haqida ma'lumot berishi mumkin.

Vizual uslub noverbal muloqotning muhim elementi bo'lib, foydalanuvchi idrokiga estetik jihatdan ta'sir qiladi.

Og'zaki bo'lmagan muloqot kontekst va madaniy farqlariga qarab bir madaniyatda maqbul bo'lishi mumkin bo'lgan vositalar boshqasida haqorat sifatida qabul qilinishi (masalan, suhbat davomida uzoq yoki yaqin turish) mumkin. Muloqot holatlari (rasmiy uchrashuv va do'stona suhbat) noverbal ishoralarining qanday ishlatilishiga ta'sir qiladi. Noverbal muloqot psixologiyada noverbal muloqot belgilar boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi, biznes va boshqaruvda noverbal muloqotdan to'g'ri foydalanish muzokaralar va jamoaviy ishlarni yaxshilashga yordam beradi. Ta'lim jarayonida esa, o'qituvchilar ijobiy ilmiy muhitini yaratish uchun noverbal muloqotdan foydalanishlari mumkin.

Shu bilan bir qatorda noverbal muloqot shakllari internet muloqotning asosiy vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Internet muloqotda emojilar, kulgichlar, GIF va memlar hamda dinamik ifoda vositasida nomoyon bo'ladi.

Emotsional belgilar tushunchasi, mavjud kulgich tushunchasi, hissiyotlarni anglatuvchi "his-tuyg'u" va "piktogramma" birikmasidan yaratilgan so'z bo'lib, boy

his-tuyg'ularni bildiruvchi va onlayn makonda muloqotni osonlashtiradigan noverbal vizual tildir. (Xvan Ha-seong va Joo Seong-bok, № 9, 2012-yil, 139-140-b.)

Emoji va kulgichlar tuyg'ularni ifodalash va kontekstuallik kabi funksiyalarni bajaradi.

Emoji so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan his-tuyg'ularni va kayfiyatni yetkazishga yordam beradi. Masalan, 😊 quvonchni, 😞 esa qayg'uni anglatishi mumkin. Turli emojilar muloqot kontekstiga qarab turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. GIF animatsiyalari va memlar esa hissiyotlar yoki reaksiyalarni yetkazishi va bu esa muloqotni yanada ifodali va jonli qiladi. Aksariyat hollarda memlar va GIFlar madaniy holatlarga havola qiladi, bu esa qabul qiluvchi uchun qo'shimcha kontekst va ma'no yaratishga sabab bo'ladi.

Internet muloqotda noverbal muloqot shakllari katta harflar bilan matn yozish (CAPS LOCK) ko'pincha baqirish yoki kuchli his-tuyg'ularni ko'rsatish sifatida qabul qilinadi. Belgilar va shriftlar orqali (~) yoki (*) yulduzcha qo'llanilishi so'zni ta'kidlashi yoki ravon qilishi mumkin.

Og'zaki bo'lmagan nutq bizning kundalik muloqotimizda muhim rol o'ynaydi. Uning jihatlarini tushunish muloqot qobiliyatimizni sezilarli darajada yaxshilaydi va tushunmovchiliklardan qochishga yordam beradi.

Internet nutqidagi noverbal muloqot o'ziga xos xususiyatlar va shakllarga ega. Turli vositalar va belgilar yordamida muloqot ishtirokchilari jismoniy o'zaro ta'sirning yetishmasligiga qaramay, o'zlarining his-tuyg'ulari va fikrlarini samarali tarzda yetkazishlari mumkin. Ushbu jihatlarini tushunish raqamli makonlarda samarali muloqot qilish qobiliyatimizni yaxshilashi mumkin.

Adabiyotlar

Саидхонов М. (2022). Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари Монография.

Ҳакимов М. (2022). Мuloqot жараёнида новербал воситаларнинг ўрни. / Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari.

Крейдлин Г. (2002). Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. / Новое литературное обозрение.

Кунисына В., Казаринова Н., Погольша В. (2001) Межличностное общение: учебник для вузов.

Курашкина Н. (2013). Основы фонетики английского языка. The Essentials of English Phonetics: Учебное пособие. Наука.

Xvan Ha-seong va Joo Seong-bok. (2012) "Matnli xabarlarda kulgichlardan foydalanish bo'yicha tadqiqot: foydalanish motivatsiyasi va ijtimoiy sezgirlik o'rtasidagi korrelyatsiyaga e'tibor qaratish", Media, Gender & Culture, № 9.

Seonjin Kim. (2014). "Mobil messenjerlarning emotsional xususiyatlari

bo'yicha qiyosiy tadqiqot", Koreyaning raqamli dizayn kengashi.
<http://www.bloter.net/archives/235424>

“BOSH EGMOQ” PARALINGVIZMINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Barotova Muxiba *

Annotatsiya

Bugungi tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda tilning nutqiy bosqichiga oid masalalarni tahlil qilish yetakchi o'rinni egallaydi. Ayniqsa, nutqning lisoniy va nolisoniy vositalari, ularning o'zaro munosabati va so'zlovchi maqsadini ochiqlashdagi ahamiyati xususida izlanishlar olib borish til imkoniyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratmoqda. Nutq jarayonida verbal ifodalardan tashqari turli tana harakatlari, mimikalar va jestlar ishlatilishi tabiiy hol. Bu esa tilshunoslikda paralingvizmlar nomi ostida o'rganiladi. Paralingvizmlar jonli muloqot jarayonining

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti, barotovamuxiba1992@gmail.com

ajralmas qismi sifatida adresat-adresant kommunikatsiyasini to'ldirish, ishora qilish, ma'no yuklash kabi vazifalarni bajaradi. Fanda bosh, qo'l, yelka, ko'z va boshqa tana a'zolari asosida qo'llaniladigan bir qator paralingvizmlar, ularning qo'llanish holatlari va semantik xususiyatlari haqidagi ilmiy mushohadalar uchraydi. Ushbu maqolada "bosh egmoq" paralingvizmi badiiy asarlardan olingan matnlar orqali leksik-semantik tahlil qilingan. Shu asosda, o'zbekona paralingvizmlarning xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *verbal muloqot, nonverbal muloqot, paralingvizmlar, kinetik paralingvizmlar, adresat, adresant, leksik ma'no, sema, milliylik, o'zbekona madaniyat.*

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PARALINGUISTIC "BOSH EGMOQ"

Abstract

It is known that in today's research in the field of linguistics, the analysis of issues related to the speech stage of the language occupies a leading place. In particular, conducting research on the linguistic and non-linguistic means of speech, their interaction and their significance in revealing the speaker's purpose allows for a deeper analysis of language possibilities. In addition to verbal expressions, it is natural to use different body movements, facial expressions and gestures in the speech process. This is studied in linguistics under the name of paralinguistics. As an integral part of the process of live communication, paralinguistics perform tasks such as filling in the addressee-listener communication, indicating, loading meaning. In science, there are a number of paralinguistics used on the basis of head, hand, shoulder, eye and other body parts, scientific observations about their usage and semantic features. In this article, the paralinguism "bow" is analyzed lexically-semantically through texts taken from literary works. On this basis, opinions were expressed about the characteristics of Uzbek paralinguistics.

Key words: *verbal communication, non-verbal communication, paralinguistics, kinetic paralinguistics, addressee, addressee, lexical meaning, sema, nationality, Uzbek culture.*

Verbal aloqaga bog'liq bo'lmagan barcha birliklar so'zlashuv jarayonining yordamchi vositalari sanaladi. Nutqiy muloqotni shu ikki omil: verbal va nonverbal vositalarning mujassamlashuvi asosida vujudga keladigan yaxlitlik sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Paralingvistika – nonverbal birliklar, ya'ni ohang, mimika, imo-ishora, tana harakatlarining xususiyatlarini o'rganuvchi soha. Uning o'rganish obyekti paralingvistik vositalar bo'lib, nutq egasining maqsadini ochib berish, nutqni tejash, bo'yoqdorligini oshirish kabi vazifalarni bajarishga xoslangan. Muayyan bir til

o'sha tilda muloqot qiluvchilar uchun erkin, tayyor va tushunarli so'zlashuv vositasi ekanligi barchaga ayon, ammo paralingvistik vositalar haqida bunday fikr yuritish to'la asosli bo'la olmasligi ham mumkin. Chunki bajariladigan imo-ishoralar ma'lum jamiyat kishilari aloqa-munosabatining samarasidir, u ijtimoiy guruh, davr va sharoitni taqozo qiladi. Chunonchi, suhbatdoshlar orasidagi masofa uzoq bo'lsa yoki atrofda kishilar ko'p bo'lsa, bu vaziyatda muloqot ishtirokchilari uchun paralingvizmlar asosiy muloqot shakli hisoblanadi. Shuningdek, paralingvistik vositalar davr nuqtayi nazaridan ham farqlanishi amaliyotda kuzatilgan. Masalan, qadimgi Rimda gladiatorlar janglari uyushtirilgan bo'lib, mag'lub qulning taqdiri birgina bosh marmoq orqali hal qilingan, ya'ni bosh barmoqning yuqoriga ko'tarilishi – yashab qolishi hamda pastga qaratilishi – o'limga mahkumligini anglatgan. Bugungi kunda esa bu paralingvizm butunlay boshqacha semani anglatishi barchaga ayon: bosh barmoqning ko'tarilishi “hammasi joyida”, “zo'r”, “ajoyib” semalarida namoyon bo'lsa, uning aksi bo'lgan harakat “yaxshi emas”, “yomon” semalarini bildiradi. Ko'rinadiki, paralingvistik vositalarni tahlil qilishda davr va ijtimoiy muhitni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashga, fikrning emotsionalligi va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan noverbal vositalardan foydalanadi. “O'zbekona aloqa-aralashuvda, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo'l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho'ziq, to'xtatib talaffuz qilish orqali ham ma'lum ma'no ifoda etiladi. Shuni ta'kidlash joizki, noverbal vositalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari turlichadir (Jurayeva, 2023, 657-b). Ular qo'l, yelka, lab, ko'z, qosh, gavda, bosh harakatlari orqali ifodalanadi. So'zlovchi ham, tinglovchi ham o'z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar - turli xil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi.

Hozirga qadar o'zbekona paralingvistik vositalar va ularning semantik xususiyatlari o'zining to'la ilmiy yechimini topmagan. Xususan, kinetik – tana a'zolari ishtirokidagi noverbal harakatlarning ham turlari va anglatadigan ma'nolari atroflicha o'rganilmagan. O'zbek olimlarining tadqiqotlariga e'tibor berilsa, asosan, M.Saidxonov, A.Nurmonov, M.Kurbanov izlanishlarida tana a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan paralingvistik vositalar muayyan guruhlarga ajratilgan holda tadqiq qilinganini ko'rish mumkin.

Noverbal vositalarning turlari, ularning kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyatini tilshunos olim Abdulhamid Nurmonov tahlilga tortadi va o'z ishida yoritib berishga intiladi. Tilshunos olim I.B.Glub nutq ta'sirchanligini shakllantirishda paralingvistik vositalarning o'rnini tilining tasvir vositalari bilan bir qatarga qo'yadi. Glubning fikricha, paralingvistika fikr (tushuncha)ning drijyoridir. (Jurayeva, 2023, 658-b.)

M.Qurbanov “O‘zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi” deb ataluvchi dissertatsiyasida tana a‘zolari asosida shakllanadigan paralingvistik vositalarni uch guruhga ajratgan holda tahlil qiladi: 1) bosh va undagi uzvlar asosida shakllanadigan noverbal birliklar; 2) gavda va uning uzvlari asosida shakllanadigan noverbal birliklar; 3) qo‘l va oyoq asosida shakllanadigan noverbal birliklar (Kurbanov, 2021, 118-b.). B.Axmedov tadqiqotida esa tana a‘zolari ishtirokida hosil bo‘ladigan paralingvistik vositalar guruhlarga ajratilmay, umumiy xususiyatlarini ta’riflash asosida tahlil qilingan (Axmedov, 2021, 58-b.).

Tana a‘zolari ishtirokidagi paralingvistik birliklarning aynan qaysi biri ko‘p qo‘llanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, shubhasizki, muloqot jarayonida qo‘l va bosh harakatlari so‘zlashuv jonli va mazmunli bo‘lmaydi. Shuningdek, bosh uzvlari ham muloqot komponentini to‘ldiruvchi, hissiy bo‘yoq qo‘shuvchi vosita sanalishi kunday ravshan. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, bosh va uning uzvlari bilan bog‘liq paralingvizmlar nutqiy muloqot jarayonidagi eng faol va ko‘p qo‘llanadigan vositalar bo‘lib, birgina bosh harakati bilan aloqador yigirmadan ortiq paralingvistik vositalar qo‘llanilishi kuzatiladi. Birgina bosh egmoq paralingvizmi kontekstda xilma-xil ma’nolarni bildirib kelishi ochiqqlangan. Lug‘atlarda “bosh egmoq” birligiga quyidagicha izoh berilganini ko‘rishimiz mumkin: “**Bosh egmoq** (Boshini xam qilmoq, boshini u yoq-bu yoqqa egmoq) – **boshni to‘g‘ri**, tik holatidan biror tomonga tortmoq; qayirmoq, bukmoq” (Hojiyev, 2001, 36-b.).

Tahlillar natijasida mazkur paralingvizm o‘zbekona nutqda o‘nga yaqin semalarni anglatishi ayon bo‘ldi. Quyida har bir semaning izohini badiiy matnlar orqali tahlil qilib chiqamiz:

2. Xafa bo‘lmoq:

Kecha eshak bozorida dallollik qilgan “zamonaviy broker” bugun uch qavatli dachasini “yuvsu-yu”, chalasavod “hofiz” bir soat “hangragani” uchun boshidan dasta-dasta “ko‘ki”dan sochsalar... Davraning bir burchida o‘tirgan shoir yurak qoni bilan yozgan g‘azallari tuproqqa qorishganidan ko‘ngli o‘ksib izdihomdan bosh egib chiqib ketsa, hayratlanmay ilojim yo‘q (Hoshimov, 2018, 11-b.)

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidan olingan ushbu matndagi bosh egish paralingvizmining aynan xafa bo‘lish semasini bildirib kelishi uchun lisoniy vositalar ham muayyan vazifa bajargan, ya’ni matndagi “ko‘ngli o‘ksib” verbal tasviri harakatning ichki semasini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

8. Kamtarlik:

Majnunolning bosh egib sukut saqlashi donoligi va chayirigidan. Qamishning g‘oz turib shovullashi nodonligi va mo‘rtligidan... qiziq, ikkalasi ko‘pincha yonma-yon o‘sadi... (Hoshimov, 2018, 18-b.)

Matndan anglashilib turibdiki, donolik va chayirlik ifodalari bosh egish harakatining ijobiy bo'yog 'ini – kamtarlik xususiyatini ifodalagan.

9. Andisha qilmoq:

Nimaga chaqirtirganimni bilasanmi? – dedi Hosilboyvachcha.

– Bilmayman.

– Men seni sotdim, a? Qilich javob bermay, *boshini egdi*.

– Sotdim. Nega to'g'ri gapdan qo'rqasan? Nima uchun sotdiykin, deb o'ylamadingmi?

– O'yladim.

– Xo'sh, nimaga sotdim?

– Ming o'ylasam ham sababini bilmadim (Malik, 2008. 13-b).

Paralingvistik vositalarning yozma nutqdagi ma'nolarini to'la anglash va izohlashda verbal vositalarning xizmati kattaligini ta'kidlab o'tgan edik. Chunki bu vositalar matnni o'quvchi kishi ko'z oldida jonli muloqot muhitini shakllantirish va tasavvur qilish imkonini beradi. Yuqorida berilgan badiiy parchada ham "javob bermay", "nega to'g'ri gapdan qo'rqasan?" ifodalari orqali bosh egish harakatini bajargan obrazning suhbatdoshi oldida andisha qilganligini anglab olish qiyin emas.

10. Itoat qilmoq:

– Adasi, doni qolsa ham, suvini iching, – dedi Manzura, yalinish ohangida.

Asadbek xotining ko'ngli uchun yana bir qoshiq ichdi-da: – Zo'rlama, – dedi. – Ko'nglim g'ash. Ishtaham yo'q.

Manzura kosani olib xontaxta chetiga qo'ydi-da, *boshini egib* indamay o'tirdi. Ertalabdan beri Asadbekning nazarida uy huvillab, egasiz bo'lib qolganday tuyulayotgan edi (Malik, 2008, 106-b.)

Ushbu badiiy matnda "bosh egmoq" paralingvistik vositasining genderologik xoslanganligi ko'zga tashlanadi. Ayni paytda, matn milliy mentalitetimizga xos bo'lgan oila boshini hurmat qilish, itoat qilish, g'amxo'rlik qilish kabi bir qator o'zbekona axloq qoidalarini ham o'zida mujassam etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, o'zbek ayollarining eriga itoat qilib, har bir so'zini qonunday qabul qilishi madaniyat belgisiga aylangan. Keltirilgan matnda birgina "boshini egib indamay o'tirdi" ifodasining o'zi yuqorida sanalgan barcha milliylik belgilarini namoyon qila olgan.

11. Xijolat bo'lmoq:

– O'zingiz nima uchun o'tirgansiz?

Asadbek achchiqlanib, Jalilga qovoq uyub qaradi. Chuvrindi xijolatlik bilan *boshini egdi*. Qariyaga esa bu savol malol kelmadi:

– Har narsa mavridi bilan, bo'tam. Bu yerda hasrat daftari o'qish joiz emas (Malik, 2007, 164-b.)

Matndan anglashilib turibdiki, berilgan paralingvizmning “xijolat bo‘lish” semasini ko‘rsatish maqsadida “xijolatlik bilan bosh egdi” birligi berilgan.

12. Mulozamat bildirmoq:

– Vatanga faqat muhabbat kerak...Bizning qalbimiz Vatan sog‘inchi ila tepar. Umrimiz xalos bo‘lgach, ustimizga Vatan hajri kafanini yopajaklar, – u shunday deb soatiga qarab olgach, o‘rnidan turdi-da, *boshini kiborlarcha egib* ta‘zim qildi. – Cho‘x tashakkur, azizlarim. Oqshomingiz xayrli o‘lsun. Asadbek kuzatmoqchi edi, u unamadi. Odati yevropacha, gaplari o‘zbekcha-turkcha aralash bo‘lgan bu odam Asadbekda yaxshi taassurot qoldirdi. (T.Malik, 2007, 187-b.)

13. Mulzam bo‘lmoq:

– Endi, oka, biz bir joyning odamimiz, ot tepkisi otga o‘tmaydi. – Rahmat, ukam, – dadam yana *boshini xam qildi*. – Siz bizlarni siylasangiz, sizni Xudo siylasin. – Men-ku shu yerning odamiman, – Dalavoy ovozi pasaytirdi. – Ammo o‘rtoq Toshevning oldida, shu ish shundoq bo‘lgani chatoq bo‘ldi (Hoshimov, 1996, 48-b.)

Shuni ta’kidlash joizki, bir paralingvizmning lisoniy ifodasini matnda aks ettirishda aynan bir xil so‘zlardan emas, balki sinonimik qatorlardan ham foydalanish mumkin. Yuqorida keltirilgan badiiy parchada ham “bosh egmoq” harakati “boshini xam qilmoq” ifodasi bilan berilgan.

Ma’lumki, *bosh egmoq* harakati o‘zbekona o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi vositalardan sanalib, xalq orasida, asosan, xafa bo‘lish yoki mulzam bo‘lishni bildirishda keng qo‘llanadi. Tahlil qilingan matnlar orqali esa birgina boshni pastga egish harakati vaziyat va bajaruvchining holatiga ko‘ra o‘nga yaqin semalarni namoyon qilishi ma’lum bo‘ldi.

Badiiy adabiyotlarda “bosh egmoq” paralingvizmining varianti sifatida “boshini u yoq-bu yoqqa egmoq” shakli ham uchrashiga guvoh bo‘lish mumkin. Ushbu paralingvistik vosita boshni o‘ng yoki chapga egish orqali bajarilishi bilan xarakterlanadi. Xususan:

14. O‘ziga oro bermoq:

– Bolani ehtiyot qil, – oyim ayvon burchagida o‘tirib, to‘nkarilgan piyoladan o‘sma botirib qoshiga tortayotgan opamga tayinladi.

– Xavotir olmang. – Opam *boshini u yoq-bu yoqqa egib*, bir cheti siniq ko‘zguga qiyo-qiyo qararkan, jilmaydi. – O‘zim qarab turaman. (Hoshimov, 1996, 48-b.)

“Bosh egmoq” harakatining har doim ham qo‘llanilavermaydigan bir qator semalari mavjudligi tahlilga tortilgan matnlar orqali namoyon bo‘ldi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, jonli muloqot muhitida bu semalar yanada kengayishi mumkin. Chunki muloqotning to‘laqonli bo‘lishida, suhbat maqsadining yuzaga

chiqishida suhbat amalga oshirilayotgan makon, davr, suhbatdoshlarning jinsi va psixologik holatlari ahamiyatga egadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bir paralingvistik vosita faqat bir yoki ikki xil semantik ma'noni bildirib kela oladi, deyish biryoqlama qarash bo'lishi mumkin. Sababi, suhbat jarayonining o'zi yaxlit bir sistema sifatida muloqot joyi, vaqti-zamoni, suhbatdoshlar holati, Yoshi, jinsi, ijtimoiy va shaxsiy holati kabi birliklarning majmuidir. Shunday ekan, paralingvizmlarning leksik-semantik ma'nolarini aniq izohlash uchun butun suhbat jarayoniga yaxlit bir butunlik sifatida yondashib baholash lozim bo'ladi.

Tabiiyki, inson muloqot jarayonida o'zini qurshab turgan olam haqida axborot beribgina qolmay, balki predmetning tinglovchiga yoki o'zining xabar qilinayotgan predmetga bo'lgan munosabatini ifodalashga moyillik ham bildiradi. Shunday ekan, paralingvistik vositalar nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida inobatga olinishi, chuqur o'rganilishi zarur.

Adabiyotlar

Ахмедов Б.Р. (2021). Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.

Hojiyev A. va boshqalar. (2001). Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Sharq. Toshkent.

Hoshimov O'. (1996). Dunyoning ishlari. Sharq. Toshkent.

Hoshimov O'. (2012). Ikki eshik orasi. Sharq. Toshkent.

Ҳошимов Ў. (2018). Дафтар хошиясидаги битиклар. Янги аср авлоди. Toshkent.

Jurayeva Sh.A. Paralingvistik vositalarning verbal tasviri / "Science and Education" Scientific Journal.

Курбанов М.А. (2021). Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.

Malik, Tohir. Shaytanat (1-kitob), (2007).

Malik, Tohir. Shaytanat (2-kitob), (2007).

Нурмонов А. (1980). Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. Андижон.

“TUYA” LUG‘AVIY MA’NOVIY GURUHI QATNASHGAN MAQOLLARDA “KATTALIK” SEMASI

Marjona Jumayeva *

Annotatsiya

Maqolada xalq donishmandligi timsoli bo‘lmish maqollarda faol qo‘llanilgan “tuya” zoonim komponenti hamda mazkur jonivorga xos fiziologik holat “tana a’zosining kattaligi” asos qilib olingan maqollar tahlilga tortilgan. Badiiy asarlar misolida matn qurshovida o‘rganilgan. Mazkur maqol bilan variantdosh hamda sinonim maqollar sanab o‘tilgan va o‘zga xalqlar xalq og‘zaki ijodiyotiga murojaat qilinib har bir maqol kulturologik jihatdan tahlilga tortilgan. Kognitiv nuqtayi

* Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi, tosnazarovzasurbek@gmail.com.

nazardan xalq tafakkur tarzida maqolning qo'llanilish xususiyatlari va o'rinlari, assotsiativ maydoni masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *zoonim, komponent, fiziologik holat, matn qurshovi, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, assotsiativ maydon, sema, variantdosh, sinonim.*

THE TERM OF “BIGNESS” IN THE ARTICLES WHICH CONTAINS THE “TUYA” DICTIONARIC SPIRITUAL GROUP

Abstract

The article analyzes proverbs based on the "camel" zoonym component, which is actively used in proverbs as a symbol of folk wisdom, and the physiological state of this animal, "the size of a body part". The examples of works of art are studied in the context of the text. Variant and synonymous proverbs with this proverb are listed, and each proverb is culturally analyzed by referring to the folk art of other nations. From the cognitive point of view, attention is paid to the features and places of use of the proverb in the style of folk thinking, associative space.

Key words: *zoonym, component, physiological condition, text environment, cognitive linguistics, linguoculturology, associative field, sema, variant, synonym.*

Teva o'g'irlagan teva bo'yi chuqur qazir. O'zbek xalqi uchun or-nomus, g'urur birinchi o'rinda qadrlanadigan fazilat. **Kambag'allik ayb emas, o'g'rilik ayb,** deya dono xalqimiz bejizga aytmagan. Mullaning yomoni – varaqchi, Odamning yomoni –qaroqchi; Ochko'z boyimas, o'g'ri to'yimas; To'g'ri bola o'stirsang, xalq ichida sher bo'lar, Egri bola o'stirsang, ikki ko'zi ko'r bo'lar; To'g'ri boshni egri qilich kesmas; To'g'ri oshini yer, Egri boshini; To'g'ri yurdim–yetdim murodga, Egri yurdim – qoldim uyatga; To'g'ri o'sgan gul bo'lar, Egri o'sgan kul bo'lar; To'g'ri o'zar, egri ozar; Egri o'sgan terak, Nimaga ham kerak; Egri qoziqqa–egri to'qmoq; Egri qo'l ishga yetmas, Ishga yetsa ham, ishi bitmas (Ўзбек халқ мақоллари, 1989. 510-6.) kabi yuzlab maqollarda o'g'rilikning qoralanganligi, insoniylik tamoyillariga zid ekanligi, bu illatning oxiri – xalq ichida sharmandalik ekanligi aytib o'tilgan. **Teva o'g'irlagan teva bo'yi chuqur qazir.** Mazkur maqolda og'rilik qanchalik katta bo'lsa, uning tashvishi, vasvasasi ham ulkan bo'lishi ta'kidlangan. Birovning ignasiga ham qilingan xiyonat, uni yashirishga bo'lgan harakat insonni nafaqat oromidan, balki halovatidan ham ayiradi. Tuya zoonimi qatnashgan mazkur maqolda tuya o'g'irlagan inson uni yashirish uchun uning kattaligi va haybatiga yarasha joy hozirlamog'i va odamlar ko'zidan bekitishga urinishi kerakligi aytilgan. Bu esa mushkul vazifa. Ana shu mushkullik va tuya bilan baravar chuqur qazishning mashaqqatini berish uchun ham maqolda etalon sifatida tuya zoonimi tanlangan. **Chuqur** leksemasi o'zbek lingvomadaniyatida turli konseptosferalar qurshovida

o'rganiladi. *Chuqur* – 1 ot. qazilgan, o'yilgan yoki tabiiy chuqurlik, o'yi, o'ra. *Birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan.* 2 sifat. Sathdan ancha past; *Sokin daryo, chuqur oqadi.* 3 ravish. Ichdan, o'pkadan to'lib chiquvchi, o'pkani to'ldiruvchi. *Nigora chuqur nafas oldi.* (Sharq yulduzi). 4 sifat. Har tomonli keng, asosli, teran ma'no. *Chuqur ma'no.* 5 sifat. Ko'chma ma'no. *Kuchli dard, kuchli qayg'u.* 6 ravish. Yuzadan ichkariga, ich-ichiga. *Chuqur botaveradi yurakka xanjar.* (X.Davron). 7 ravish. Mustahkam, qattiq. *Halima Nosirovaning beqiyos san'ati, tabiiy va betakror ovozi xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi* ("Saodat") (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, 87-b.). Yuqoridagi maqolda "chuqur" leksemasi ot so'z turkumida, chuqur joy ma'nosida qo'llangan.

Xitoy hududida eng ulkan hayvon sifatida – ajdarho, Hindistonda – fil, Irlandiyada–gigant kiyik, O'rta Osiyoda esa – tuya tilga olinadi. Shu sababdan ham kattalik mazmuni berishda "tuya" jonivori tanlangan. O'zbek lingvomadaniyatida mazkur jonivor – hajm jihatdan ulkanligi haqidagi tasavvur bilan shakllangan. Qadimda ham chorvachilikda, ham ulov vositasi sifatida mazkur jonivor tanlangan. "Tuya" zoonimining maishiy turmushda faol ishtiroki madaniyatimizga yaqinligi bilan belgilanadi.

Maqolda poetik jihatdan "teva" so'zining ikki marta takrorlanishi mazmunni kuchaytirish va ta'kidlash vazifasini bajargan. O'g'rilikning shu til egasi bo'lgan etnos lingvomadaniyatida qoralanishi va qilmaslik da'vati - tilda mavjud bo'lgan "Oq tuya ko'rdingmi yoq" – ulkan xatolani ham yashirish haqidagi paremasiga qarama-qarshi turadi. Falsafa qonuniyatida ijobiylik qanchalik yuqori bo'lsa, salbiy xususiyatlar ham unga mutanosib ravishda o'sib borishi ziddiyat qonunida aks etgan. Mazkur qonuniyat barcha narsaning mohiyatini tashkil etadi (Гегель, Наука логики, 1970, 501-c.). Birgina "tuya" zoonimi qatnashgan ikki maqolda ikki xil mazmun anglashiladi. "Teva og'irlagan teva bo'yi chuqur qazir" maqolida o'g'rilik va talonchilikdan uzoqda yurish da'vat qilingan bo'lsa, "Oq tuya ko'rdingmi, yoq" paremasida ulkan yolg'onlardan, katta xatolardan ham ko'z yumish kerakligi ta'kidlangan.

Vaqtni g'animat bilgan dadasi bir kechadayoq Pishpakdan sho'ng'ib, Mirsalim hozir turgan shahardan chiqdi. Bir oz vaqt o'tgach, oilasini chaqirtirib oldi, «tuya ko'rdingmi? Yo'q!» deb, to'nini o'zgartirdi, fuqaro bo'lib oldi (Shuhrat, 2004,156-b.)

Mazkur tushunchaning lingvokulturema sifatida shakllanishida tuyaning katta vaznga va shaklga ega ekanligi, o'g'rilikni amalga oshirishdan ko'ra yashirish ko'proq mushkulligi va o'g'riga qiyinchilik tug'dirishi, xalqimizda o'g'rilikning qoralanishi va uyat sifatida qabul qilinishi asos bo'lgan.

Tuya qancha bo'lsa, jihozi o'shancha.

Xitoy hududida eng ulkan hayvon sifatida – ajdarho, Hindistonda – fil, Irlandiyada – gigant kiyik, Oʻrta Osiyoda esa – tuya sanaladi. Ushbu maqolda ham tuyaning katta vazni va bu vazniga mos ogʻir yuk koʻtara olish jihati eʼtiborga olingan. Oʻzbek dunyoqarashida oʻzining hududi jihatdan tuya ulkan hayvon boʻlganligi sabab ham koʻpgina maqollarda katta jussaga nisbatan “tuya” hayvoni oʻxshatish etaloni sifatida keltiriladi. Aynan shu katta vazga ega boʻlganligi sabab ham yuk tashish hamda qumlik sahroda ulov vositasi sifatida faoliyat koʻrsatishda eng maqbul jonivor sifatida tuya tanlangan. Sarbon tomonidan tuyaga ogʻir vazndagi yuk uning koʻta olish qobiliyatidan kelib chiqib ortilgan. Koʻplab jihozlar mazkur jonivor orqali bexatar manzilga yetkazilgan. Garchi ulov vositasi sifatida ot, eshak kabi jonivorlar ham yuk tashish uchun xizmat qilsa-da, ammo tuya ularga nisbatan chidamli va koʻplab yukni koʻtara olgan. Mazkur maqolda tuyaning lingvokulrema sifatida shakllanishida uning katta vaznga egaligi hamda uzoq masofa uchun ogʻir yukni bemalol koʻtara olish qobiliyati asos boʻlgan. Maqolda qoʻllangan *qancha* – *oʻshancha* soʻroq va koʻrsatish olmoshlari poetik jihatdan maqolning taʼsirli va hamohang chiqishi uchun xizmat qilmoqda.

Roʻzgʻorning barcha yukini oʻz gardaniga olgan inson ham vazifasini uddalash uchun barchasiga sabr qiladi, har qancha ogʻirlikni koʻtarishga harakat qiladi. Mazkur maqol orqali sabr-qanoat, masʼuliyat kabi fazilatlarga ishora qilingan. Milliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan mazkur fazilatlar oʻzbekona mintallitetning, maʼnaviy va milliy qadriyatlarning asosi boʻlib xizmat qiladi.

Tekkanga – tuya boshi,

Tegmaganga – quyon boshi

Variant: Kinga barmoqday,kinga tirnoqday. Biror narsa hammaga baravar taqsimlanishi shart boʻlsa-yu,taqsimlovchi oʻz manfaatini koʻzlab, yo tanish bilishlikka borib,birovga koʻp, birovga esa turli bahonalar bilan kam bersa, yuqoridagi maqollarni kesatiq tarzida aytadilar.”Barobarlik-birodarlik”;” Tenglik-kenglik”; “Teng yeganni tangri suyibdi, Ortiq yeganni arvoh uribdi” degan maqollar ham borki, bular bilan noinsof, olgʻir, yulgʻich odamlar adolatga, insofga chaqiriladi (Shomaqsudov, Hikmatnoma, 1990, 388-b.).

Tuya toʻpigʻi ham toʻpiq,

Qoʻy toʻpigʻi ham toʻpiq

Har ikki ham “toʻpiq” deb ataladi-yu, ammo katta-kichikligida farq qiladi. Bu bilan majozan: “Hamma odam ham “odam” deb ataladi-yu, ammo odamda ham odam bor- biri yaxshi, biri yomon; biri aqlli, biri ahmoq; biri dilkash, biri dilgir; biri saxiy, biri baxil; biri doʻst, biri dushman va h.k. deyilmoqchi (Shomaqsudov, Hikmatnoma, 1990, 388-b.).

Otning odimi katta, tuyaning – tovon.

Ayrim insonlar erinchoqligiga qaramasdan, tugʻma qobiliyati tufayli muvaffaqiyatga erishsa, baʼzilar tinimsiz harakati va izlanishi bois maqsadiga erishadi. Mazkur maqolda qobiliyatli inson harakati tabiatan yirik boʻlgan tuya tovonini misolida, mehnatkash va tirishqoq kishi harakati ot odimi misolida tasvirlangan. Insonlar har ikki sharoitda ham oʻz ustida izlansa, yaxshi natijalarga erishishiga ishora qilingan. Zero, qimirlagan – qir oshar (Shomaqsudov, Hikmatnoma, 1990, 315-b.).

Dunyo shunday yaralganki, kimdir qator imkoniyatkar qurshovida dunyoga kelsa, boshqalar shu imkoniyatga ega boʻlish uchun tinmay mehnat qiladi (Xolmonova, Tosheva, Zoonim komponentli paremalarning izohli lugʻati, 1990, 401-b.).

Oshnanagdan tuya soʻra,

Uyalsa, biya berar

Mazkur maqol ikki maʼnoda qoʻllanilgan: Birinchidan, kishi vaqtida oʻz haq-huquqini talab qilishni bilishi lozim. Uyat va andishani roʻkach qilib oʻtirgan shaxs oʻziga tegishli boʻlgan narsani olishdan ham quruq qoladi. Ikkinchidan, niyatni katta qilib, yurakni keng qilish lozim. Toki, togʻ soʻragan bandasiga Olloh hech boʻlmaganda tepalik beradi (Xolmonova, Tosheva, 2016, 155-b.).

Pashshadek gunoh tuyadek koʻrinadi.

Baʼzi odamlar oʻzgalarning kichkina kamchiliklarini kattalashtirib, oʻzlarining ulkan gunohlarini esa koʻrishmaydi. **Tirnoq ostida kir qidiradigan** bu toifadagi odamlarga nisbatan ushbu maqol kinoya sifatida qoʻllaniladi.

Dadam shunday deb aytadi-yu, lekin Metinni yolgʻon gapirishga oʻzi majbur qiladi. Nega deganda Metinning pashshadek gunohi dadamga tuyadek boʻlib koʻrinadi. Ukam bechora keyin rosa soʻkish eshitadi. SHuning uchun ham u yolgʻon ishlatib, dadamning doʻq-poʻpisasidan qutulsam deydi. Lekin baribir oxiri sir ochilib, rosa gap eshitadi-ya...

— Dadamga nima deb bahona qilsamikin? — deb qoldi bir kuni Metin menga termulib. Xabarim bor, bir necha kundan beri dadam Metinga bugun albatta sochingni oldirib kel, deb tayinlaydi. Metin boʻlsa oʻyin bilan ovora boʻlib, nuqul buni esidan chiqaradi. Oʻsha kuni ertalab ishga ketayotib, dadam:

— Ishdan qaytgunimcha sochingni oldirib kel, boʻlmasa xafa qilaman, deb Metinni qattiq koyib bergan edi. (Aziz Nesin, 2006, 72-b.)

Endi “partiya majlisida odam koʻnglidagi gapni aytolmaydi”, degan masalaga kelsak, bu ham Majidiy haqida yozilgan hikoya ham Melievning uydirmasi. Oramizda bunday gap boʻlgan emas. Partiya majlisida partiyaga qarshi emas, partiya oldinga surgan tadbirlarni amalga oshirish masalasi va choralari koʻriladi. Partiya majlisi men singari millatchilarning dushmanchilik, emiruvchilik harakatlari amalga oshiriladigan joy emasligini yaxshi bilaman. Men Melievning uydirmalarini rad qilish

bilan o‘zimni gunohlardan, hech bo‘lmaganda tilga olingan gunohlardan pok edim, deb da’vo qilmoqchi emasman. Zinhor, men bu fikrlardan juda-juda uzoqdaman. Men, **tuyadek gunohlarimni bo‘yinga olaturib, pashshadek ingichkasidan** voz kechish harakatida emasligimga ishonilishni iltimos qilaman. Men bu narsalarni o‘zimni oqlash uchun emas, haq-adolat xotiri uchun rad etayotibman, xalos. Endi Ilyosovning meni “antisovet kishi ekanligini ko‘p vaqtlardan beri bilar edim”, degan so‘ziga picha to‘xtab o‘tmoqchiman (Malik, Ozod inson haqida qoshiq, 27-b.).

Tuya qancha, yarasi – shuncha.

Varianti:”filning yarasi filcha bo‘ladi”; “Ulkan boshning ulkan bo‘lur g‘avg‘osi”, “Katta boshning og‘iri ham katta bo‘ladi”, “ Ro‘zg‘ori kattaning tashvishi ham katta”, “ Katta boshning og‘rig‘i ham katta bo‘ladi”, “ Katta daraxtning soyasi ham katta”, “Katta karvon katta ko‘char”, “Tuya qancha katta bo‘lsa, yuki shuncha og‘ir bo‘ladi”, “Tuya qancha – yarasi shuncha”, “ Filning yarasi filcha bo‘ladi”, “ Bo‘z yamog‘i – bo‘zcha, Qop yamog‘i – qopcha”, “To‘ylikning to‘ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor”.

Bu maqollar bilan: “El-yurt og‘asining, yo‘lboshchining, rahbarning, oila boshlig‘ining va h.k. ning tashvishi, javobgarligi, mas’uliyati boshqalarnikiga nisbatan kattaroq bo‘ladi. Shunday ekan, “katta” larga mazza-da-hamma imkoniyatlari bor, qo‘llarini qayoqqa uzatsalar yetadi, aytganlari-aytgan, deganlari-degan, buyruq bersalar-bas, deb o‘ylamay qo‘yaqol”, deyilmoqchi. (Shomaqsudov, 1990, 401-b.).

Xulosa qilib aytganda, xalq maqollarida “tuya” leksemasining faol qo‘llanilishi xalq milliy mintallitetida mazkur jonivorning muhim ahamiyatga ega bo‘lganligidan va kulturologik jihatdan yaqin hisoblanganligidan dalolat beradi. Paremalarda leksema sifatida keng namoyon bo‘lishiga asos sifatida uning fiziologik jihatdan katta vaznga hamda hajmga ega ekanligidir. Yuqoridagi maqollarda ham tuyaning ayni shu jihati dominant sifatida ustunlik qilgan va kognitiv jihatdan tanlanishida muhim rol o‘ynagan maqollar tahlilga tortildi. Zero, kognitiv dunyoqarashda xalq intellektual olamida va maishiy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan jihatlar assotsiativ maydonda o‘rganiladi. “Tuya” leksemasi ham muhimlilik darajasiga ko‘ra assotsiativ maydonda eng ko‘p qo‘llaniladigan va tanlanadigan zoonimlardan biridir.

Adabiyotlar

Imom Al Buxoriy. (1997). Al jome as-sahih. 2-qism. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent.

Маслова В. (2001). Лингвокультурология: Учебное пособие. Academia.

Сафаров III. (2006) *Когнитив тилишунослик*. Рисола. Toshkent.

Schmidt-Nielsen B., Schmidt-Nielsen K. (1955). The camel, facts and fables // UNESCO Courier, – № 8.

To'g'ay Murod. (2008). Ot kishnagan oqshom. Sharq. Toshkent.

O'zbek xalq maqollari. (2009). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.

Xolmonova Z., Tosheva D. (2016). Zoonim komponentli paremalarning izohli lug'ati. Turon zamin ziyo. Toshkent.

Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. (1990). Ҳикматнома. Ўзбек совет энциклопедияси. Toshkent.

Sharipova M. (2023). Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari ("Qo'y" lug'aviy-ma'noviy guruhi asosida): Filol. fan. nomz. diss...

<https://sinaps.uz/maqola/10133/>

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL TIPOLOGIYA MASALASIGA MUNOSABAT

Ozoda Sharipova *

Annotatsiya

O'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan antroposentrik paradigma yangi asr avvalidanoq lingvistik tadqiqotlarda peshqadam sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlari sifatida e'tirof qilingani holda sohaning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil yo'nalishlar

* Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti. Ozodaxon925@gmail.com

sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Bu sohalar juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Mazkur yo'nalishlar uchun umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o'rganish obyekti – bu konseptdir. Konsept, keng qamrovlilik tabiatidan kelib chiqqan holda, unga berilgan ta'riflar va bildirilgan munosabatlar singari murakkab tipologik qurilmaga ega. Olimlar tomonidan konseptlarning ichki qurilishi, qamrov doirasi, ahamiyatlilik va aniqlik darajasi, yashovchanligi, verballashuv shakllari hamda usullari kabi turli asosli klassifikatsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur maqolada ular tahlilga tortilgan va muallifning shaxsiy qarashlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, konsept, tipologiya, konseptual klassifikatsiya.*

ATTITUDE TO THE PROBLEM OF CONCEPTUAL TYPOLOGY IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

The anthropocentric paradigm, which took its first steps in the last quarter of the last century, has become one of the leading fields in linguistic research since the beginning of the new century. Cognitive linguistics and linguaculturology are recognized as the leading directions of the anthropocentric paradigm, embodying the latest achievements of the field and increasingly strengthening their status as independent directions. These areas intersect with psycholinguistics at many points. One of the main categories common to these areas, an important object of study is the concept. The concept, due to its comprehensive nature, has a complex typological structure, as well as the definitions given to it and the relations expressed. Scientists have developed various basic classifications of concepts, such as internal structure, scope, significance and accuracy level, viability, forms and methods of verbalization.

Key words: *anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, linguaculturology, psycholinguistics, concept, typology, conceptual classification.*

Konsept tiplari haqida fikr yuritishdan oldin tipologiyani mohiyatini va u ilmiy tadqiqot jarayonida qanday ahamiyat kasb etishini anglab olmoq joiz.

Tipologiya (*yun.* "typos" – "belgi, iz; namuna, shakl", "logos" – "fan, ta'limot") obyektlarni mavhum, umumlashgan model(tip)lar yordamida klassifikatsiyalashga asoslangan ilmiy tafakkurning universal usullaridan biri. Bu usul yordamida o'rganilayotgan obyektlar o'rtasidagi integral va differensial belgilar aniqlanadi, natijada obyektning yarusi chegaralanib, uning ustida chuqur izchil ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Konseptning keng ko'lamli va ko'p sathli murakkab tabiati uni ma'lum belgi-xususiyatlar asosida tasniflash

zaruratini tug'diradi. Konseptual tipologik tahlil nafaqat konseptlar o'rtasidagi semantik farqlarni aniq chegaralar asosida ajratishga, balki ong, anglash, munosabat, faoliyat tushunchalarini integratsion yondashuv orqali modellashtirish uchun ham xizmat qiladi.

Konseptlarning funksional, struktural jihatdan umumiy va farqli xususiyatlari asosida olimlar tomonidan turlicha tasniflari ishlab chiqilgan.

R.Langaker konseptning shartli ravishda quyidagi uch turini ajratib ko'rsatadi:

* Minimal konseptlar. Bu turga olim ranglar, burchak, chiziq, qavariqlar kabi kichik shakllarni kiritadi.

* Konfiguratsion konseptlar. Bu tur konseptosferalar (milliy konseptlar jamlanmasi)ning deyarli barchasi uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'zgarish, yaqinlashish, aloqa, davomiylik, ajralish, ko'payish, kengayish va h.k. kabi fenomenlarni o'z ichiga oladi.

* Konseptual arxetiplar. Olim bu turdagi konseptlarni tom ma'nodagi original konseptlar sifatida baholaydi va unga inson hayotining barcha jabhalarida tez-tez uchrab turadigan fundamental tushunchalarni kiritadi (Langaker, 2012, 26-b.).

* V.A.Maslova konseptni tasniflashda ularning mazmuniy tuzilmasiga asosan yondashib, to'qqiz guruhga bo'ladi (Maslova, 2006, 75-b.):

- 1) dunyoviy konseptlar: *makon, zamon, raqam, vatan, tong, tun va h.k.*;
- 2) tabiat bilan bog'liq konseptlar: *suv, olov, daraxt va h.k.*;
- 3) inson tabiatiga xos konseptlar: *dono, yetakchi va h.k.*;
- 4) ma'naviy–axloqiy konseptlar: *vijdon, nomus, gunoh va h.k.*;
- 5) ijtimoiy tushuncha va munosabatlar: *ozodlik, do'stlik, urush va boshq.*;
- 6) emosional xarakterdagi konseptlar: *baxt, quvonch, baxtsizlik va h.k.*;
- 7) artefaktlarni ifodalovchi konseptlar: *uy, saroy, ibodatxona va boshq.*;
- 8) ilmiy bilimlar konseptosferasi: *filosofiya, filologiya, fizika va h.k.*;
- 9) san'at konseptosferasi: *arxitektura, musiqa, raqs, rassomlik va boshq.*

A.P.Babushkin konseptlarni leksik-frazeologik doirada quyidagicha tasniflaydi:

1) kichik fikriy manzaralar – inson ongidagi individual va kollektiv obrazlar jamlanmasi, kognitiv kartinalar;

2) konsept sxemalar – olamning leksik birliklar yordamida ma'lum shaklda namoyon bo'ladigan perseptiv va kognitiv manzarasi;

3) giperonim konseptlar – ramziy ko'chim, ya'ni konnotati mavjud bo'lmagan tushunchalar;

4) konsept-freym – assotsiativ xotirasida saqlanuvchi sahna sxemalarining jamlanmasi;

5) konsept-ssenariy – stereotip epizodlar haqidagi informatsiyaning namoyon bo'lishi, so'z bilan ifodalasa bo'ladigan tafakkurdagi hodisalar ketma-ketligi, dinamikasi;

6) insayt – favqulotda anglangan muayyan munosabatlar va tuzilmalar;

7) kaleydoskopik konsept – doimiy turg'un assotsiatsiyaga ega bo'lmagan, goh kognitiv kartina, goh freym, goh ssenariy ko'rinishida namoyon bo'ladigan ko'chimga asoslanuvchi konsept (Babushkin, 1996).

N.N.Boldirev konseptlarni umumiy holatda aniq-hissiy obraz, tasvir, diagramma, tushuncha, prototip, propozitsiya (taklif), freym, ssenariy (skript) hamda geshtaltga ajratgan holda tasniflaydi. Shuningdek, olim konseptlarning ma'lum asosga ko'ra xususiy tiplarini ham keltirib o'tadi. Jumladan, mazmuniga ko'ra madaniy, lisoniy, huquqiy, iqtisodiy va emotsional konseptlarni; verballashtirish vositalariga ko'ra esa fonologik, leksik, frazeologik, onomastik, grammatik, matniy va matndan katta birliklar vositasida ifodalangan konseptlar guruhlarini tasnif qiladi (Boldirev, 2001, 36-b.).

Z.D.Popova va I.A.Sternin tasnifiga ko'ra konseptlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Reprezentatsiya – obyektning umumlashtirilgan hissiy-vizual tasviri yoki hodisalar. Bunga misol sifatida hissiy idrok etiladigan belgilar qatorida *titroq* - tananing tez-tez chayqalishi keltirilgan;

2. Sxema – muayyan umumlashtirilgan fazoviy-grafik yoki kontur diagrammasi bilan ifodalangan konsept. Masalan, umuman daraxtning vizual tasviri – poya va barglar;

3. Tushuncha – predmet yoki hodisaning umumiy, asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi, ularning ratsional tasviridan iborat bo'lgan konsept. Masalan: kvadrat - tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak, samolyot - tashuvchilari bo'lgan havodan og'irroq obyekt;

4. Freym – ko'p komponentli va keng qamrovli tasvir ifodasi bo'lib, unda predmet yoki hodisalar haqidagi standart bilimlar jamlanadi. Masalan, do'kon: komponentlari - sotib olish, sotish, tovarlar, narx va boshqalar; stadion -tuzilishi, tashqi ko'rinishi, o'yin maydoni va h.k.;

5. Ssenariy (skript) – harakat va rivojlanish belgilariga ega bir nechta stereotipik epizodlar ketma-ketligi. Masalan, stadion alohida holatda qamrov chegarasi freym, stadiongga tashrif buyurish, stadiondagi chiqish, stadionni rekonstruksiya qilish va h.k.lar esa skriptlar;

6. Geshtalt – murakkab, yaxlit funksional fikrlashdagi individual hodisalarning xilma-xilligini tashkil qiluvchi, ongdagi alohida hodisalarni tartibga soluvchi fenomen. Bunga misol qilib o'yin, qiynoq, ishq, qismat kabi so'zlar keltirilgan. Shuningdek, ularning tasnifidan yana guruh (yosh, jins, kasbiy va boshqalar) va

individual; mavhumlik darajasiga ko'ra aniq (naturfaktlar, artefaktlar) va mavhum (mentefaktlar); obyektivlik tabiatiga ko'ra verballashgan handa noverbal konseptlar ham o'rin olgan (Popova, Sternin, 2007, 82-85-b.).

M.V.Pimenova konseptning tasvirlar (Rossiya, Rossiya, ona), g'oyalar (sotsializm, kommunizm), ramzlar (oqqush) va madaniy konseptlar singari turlarini sanab, madaniy konseptlarning o'zini ham ichki guruhlariga ajratadi (Pimenova, 2004, 8-10-b.):

* madaniyatning universal kategoriyalari – *vaqt, makon, harakat, o'zgarish, sabab, oqibat, miqdor, sifat*;

* ijtimoiy-madaniy kategoriyalar – *erkinlik, adolat, mehnat, boylik*;

* milliy madaniy kategoriyalar – *iroda, kelishuv*;

* axloqiy kategoriyalar – *yaxshilik, yomonlik, burch, haqiqat*;

* mifologik kategoriyalar – *qo'riqchi farishta, dev va h.k.*

Konseptning yuqorida keltirib o'tganimizdan tashqari yana olimlar tomonidan bir qancha turlari ajratilgan bo'lib, bu tipologiya kimlar tomonidan qaysi jihatga ko'ra amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumotlar "Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da umumlashtirilgan: "Konseptlarning quyidagicha tasniflari mavjud: ... yuqori darajadagi konseptlar, oddiy konseptlar (S.G.Vorkachev); birlamchi konseptlar, ikkilamchi konseptlar, metakonseptlar, mutanosib konseptlar, shakllangan konseptlar, shakllanayotgan konseptlar, chegaraviy konseptlar, boshlang'ich lingvomadaniy konseptlar (G.G.Slishkin); parametrik konseptlar, noparametrik konseptlar (V.I.Karasik)".

Olimlarning konseptologik tipologiya bo'yicha qarashlari, garchi shaklan farq qilsa-da, mohiyatan bir-birini to'ldirib turadi. Ulardagi tafovut tasnif uchun tanlangan asosga yondashuvda namoyon bo'ladi. Keng va murakkab tuzilishga egalik sifatidan kelib chiqadigan bo'lsak, konseptlarning mukammal va barcha ilmiy maqsadlarga xizmat qiluvchi universal tasnifi bo'lishi mumkin emas. Shuni inobatga olib, konseptni quyidagicha bir necha asosga ko'ra tasniflashni ma'qul deb topdik.

Dastavval konseptlar qamrov doirasi va ifoda usuliga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1.Lingvistik konseptlar. Bu tur nutqiy voqelanish imkoniyatiga, lug'aviy ifodaga ega bo'lgan barcha til birliklari tarkibini o'z ichiga oladi.

2.Paralingvistik konseptlar – imo-ishoralar orqali muayyan tushunchani ifodalovchi konseptlar. Mazkur turga kiruvchi birliklar so'zga ekvivalent bo'la olishi ham, bo'la olmasligi ham mumkin. Ular o'z ichida quyidagi turlarga bo'linadi:

•fonatsion – tembr, talaffuz usuli, suhbatning tezligi, turli xil to'xtalishlar;

•kinesika – imo-ishora, mimika, gavda qismlari harakati;

•grafik konseptlar – logotiplar, ramzlar. Masalan,  iPhone (Iphone kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot semasiga ega logotip); bayroq (davlat ramzi).

3.Lakunar konseptlar – ifoda imkoniyati va kommunikativ yuklamaga ega bo‘lmagan, “ta’riflashga so‘z ojiz” qabilidagi tushuncha va kechinmalar. Bu tushunchalar ong darajasida anglanadi, biroq uni anglatish uchun lug‘at tarkibida kerakli so‘zni topib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, adabiyotlarda tillararo lakunalar nomi ostida guruhlanuvchi “turli tillarni qiyoslaganda, ulardan birida boshqa tildagi birlikka mos leksik ekvivalent topilmaganda aniqlanadi”, deya tavsiflanuvchi birliklar, bizning mazkur klassifikatsiyamiz doirasida, lingvistik konseptlar tarkibiga kiradi. Chunki bunday tushunchalarni kamida o‘sha tilda muloqot qiluvchi aholi vakillariga so‘z orqali anglatish mumkin. Shuningdek, undagi lakunarlik belgisi ham nisbiy xarakterga ega bo‘lib, agar shu tushunchani ifodalashga ehtiyoj bo‘lsa, u xoh aniq, xoh mavhum bo‘lsin, so‘z o‘zlashtirish yo‘li bilan bu bo‘shliqni to‘ldirib, ehtiyojni qondirish yo‘li mavjud. Masalan, o‘zbek tilli kishilar konseptual maydoniga kirishga ulgurgan *risk* so‘zi anglatgan tushuncha yaqin yillargacha biz uchun lakunar bo‘shliq edi. Biroq endi tavakkal qilishdagi xavf anglanda his qilinuvchi ichki qo‘rquv, shu bilan birga ijobiy yakunga umid va h.k. kechinmalarni umumlashtirib, holatni bir so‘z bilan ifodalash imkoni mavjud. Biz lakunar konseptlar sifatida guruhlagan tushunchalarning esa morfologik shakli mavjud emas. Ilmiy faraz, badiiy fantaziyalarda bu holat ko‘proq namoyon bo‘ladi. Yangi kashfiyot, ixtirolar, shu bilan bir qatorda, yangi konseptual leksik birliklar ham bu kabi kechinmalarni ifodalash ehtiyoji natijasida shakllanadi.

Konseptlar umumiylik darajasiga, ya’ni qancha miqdordagi subyektlar uchun ahamiyat kasb etishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Individual konseptlar;

2.Guruhiy konseptlar:

- milliy guruh: *hasher* (o‘zbek millati uchun);

- diniy guruh: *kafan* (islom dini);

- jinsga oid guruh: *ro‘mol* (ayol jinsi vakillari);

- mintaqaviy guruh: Sharq va G‘arb qadriyatlar tizimidagi o‘ziga xosliklar.

3.Universal konseptlar – dunyo xalqlari uchun birdek ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi konseptlar.

Konsept yashovchanligiga ko‘ra:

1.Mutlaq boqiy konseptlar (konstantalar) – inson hayot faoliyatining, ehtiyoj va intilishlarining negizini tashkil qiluvchi; borliq mavjud bo‘lishi uchun doimiy o‘zgarmas birlamchi ahamiyat kasb etuvchi konseptlar: *suv, olov, tosh, oila* kabi.

2. Empirik-o'zgaruvchan konseptlar – qo'llanish davri va doirasidan kelib chiqqan holda qisman farqlanuvchi semantik tuzilmaga ega konseptlar. Konsept anglatadigan ma'noda tafovutning namoyon bo'lishi quyidagi ikki asosga ko'ra sodir bo'ladi:

a. Zamonga asoslanuvchi – ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti natijasida ichki kognitiv-semantik tuzilmasi dastlabki holatiga – ilk anglatgan ma'nosiga nisbatan o'zgarishga uchragan konseptlar. Masalan: *osh* so'zi dastlab barcha ovqat turlarini anglatgan bo'lsa, hozirgi kunda faqat *palov* ma'nosini bildiradi. *Insho*, *vazir*, *qalam* va yana bir qator konseptual birliklar mavjudki, ular tashuvchi ma'no – tarixiy taraqqiyot jarayonida yo toraygan, yo kengaygan va yoiniki ko'chimga asoslangan holda o'zgarishga uchragan.

b. Makonga asoslanuvchi – bir davrda turli hududda ayrim belgilari bilan farqlanuvchi semantik maydonga ega konseptlar. Masalan, *juma* konsepti islomiy mamlakatlarda barcha uchun umumiy semalaridan tashqari *dam olish*, *jamoaviy ibodat ado etish kuni* sifatidagi konseptual mohiyatga ega. Bu mohiyat o'sha hududda yashovchi musulmonlar bilan bir qatorda g'ayridinlar uchun ham umumiy, chunki g'ayridinlar ongida ham, garchi jamoaviy ibodatda ishtirok etmasalarda, o'zi yashayotgan muhit ta'sirida bu kun bilan bog'liq ravishda masjidlar oldidagi gavjum manzara gavdalanadi va ular ham bu kunda dam olishadi. Xristianlik yoki boshqa dindagi mamlakatlarda bu kunga asosan haftaning beshinchi kuni sifatida munosabatda bo'lish oqibatida konseptning mohiyat qisqaradi. Islom davlati bo'lmagan, lekin islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda esa bu konsept "haftaning beshinchi kuni" bilan birga "jamoaviy ibodat ado etish kuni" konseptual mohiyatni anglatadi. Biroq bunday hududlar uchun undagi "dam olish kuni" semasi mavjud emas.

3. Yashovchanlik xususiyatini yo'qotgan konseptlar – qo'llanishi tarixning ma'lum davri bilan chegaralangan, u ifodalaydigan kognitiv-semantik manzara bugungi hayotda ayni shaklda mavjud bo'lmagan konseptlar: *qarol*, *dubulg'a* kabi;

4. Yangi paydo bo'luvchi konseptlar – ijtimoiy hayotda, kishilar ongida yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi konseptlar. Bular o'z ichiga yangi kirib kelayotgan texnikalar, asbos-anjomlar, shuningdek, moddiy asosga ega bo'lmagan tushunchalarni ham qamrab oladi. Masalan: *chat*, *risk*.

Konseptlar mazmun mundarijasiga ko'ra shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi:

- Biomorfik konseptlar – jonlilik belgisiga ega barcha birliklar: kishilik jamiyati, flora, fauna olamiga oid konseptlar: ona, aka; gul, giyoh; bo'ri;
- Makonga asoslanuvchi konseptlar: *Misr*, *poytaxt*;
- Predmetga asoslanuvchi konseptlar: *kiyim*, *asbob*, *yozuv*;

- Abstrakt konseptlar – nisbiy, o‘zgaruvchan, emotsional ma’no ifodalovchi konseptlar: *ulush, maroq, azob, baxt, burch*;

- Faoliyat-jarayonga asoslanuvchi konseptlar: *yurmoq, yugurmoq, yashamoq, kelishuv*;

- Hodisaga asoslanuvchi konseptlar: *momoqalldiroq, yomg‘ir*;

- Ijtimoiy-siyosiy konseptlar: *sotsializm, kommunizm*;

- Belgi ifodalovchi konseptlar: *yaxshi, tez*;

- O‘lchov ifodalovchi konseptlar: *vaqt o‘lchovi; og‘irlik o‘lchov birliklari*;

- Ilmiy konseptlar – ilm-fanga oid tushunchalar: *huquq, iqtisod, fizika*;

- San’at konseptosferasi: *arxitektura, musiqa, raqs*.

Aytib o‘tilganidek, yuqorida keltirilgan tasniflarning barchasi shartli xarakterga ega. Negaki bunda bir turga kiruvchi konseptual birlikni ma’lum bir xususiyati asosida yoki ko‘chim vositasida boshqa turlar tarkibiga ham kiritish mumkin. Bu ayniqsa makropropozitsiyada – matn tarkibida yanada aniq namoyon bo‘ladi va ko‘p kuzatiladi.

Adabiyotlar

Langacker R. W. (2012). *Essentials of cognitive grammar*. Oxford University Press.

Маслова В. А. (2006). *Введение в когнитивную лингвистику*. Наука.

Бабушкин А.П. (1996). *Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка*. Воронеж.

Болдырев Н.Н. (2001). *Когнитивная семантика*. Тамбов.

Попова З.Д., Стернин И.А. (2007). *Когнитивная лингвистика*. Восток-Запад.

Пименова М.В. (2004). *Душа и дух: особенности концептуализации*. Кемерово.

IJTIMOIIY-MADANIY YONDOSHUV ASOSIDA RUS TILINI FILOLOG TALABALARGA O‘QITISH

Saidaxon Mamadaliyeva *

Annotatiya

Maqolada rus tilini filologiya yonalishi talabalariga o‘qitishning ijtimoiy-

* Namangan davlat universiteti doktoranti. m.saida@mayl.ru

madaniy jihatlarini ko'rib chiqiladi, bunda rus tili vositachi til sifatida filologiya yonalishi talabalarini rus xalqining madaniy qadriyatlari bilan tanishtirish vositasiga aylanishi haqida fikrlar bayon qilingan. Oliy ta'lim tizimida chet tili sifatida rus tili darslarida sosiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga innovasion yondashish, turli ijtimoiy madaniy kontekstlarda o'qitish, zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2020-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq, xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh, bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, ularning mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish, barkamol mutaxassis shaxsni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlarida rus tili fanlarini o'qitish ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Ayniqsa, talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash bo'yicha linvotexnologik yondoshuvlar va metodikasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada talabalarga rus tilida sosiolingvistik bilimlarni o'rgatishning nazariy–metodologik prinsiplari etnopsixologiya, psixolingvistika, sotsiokulturologiya, lingvokulturologiya, sosiolingvistika kabi zamonaviy fanlarning so'nggi yutuqlari asosida mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantirishning muhim omillarini aniqlash va izchil tadqiq etish muammosi dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: *sotsial-madaniy jihatlar, sotsial-madaniy yondashuv, o'quvchilarga yo'naltirilganlik, bilish, murakkab jarayon, madaniy qadriyatlar.*

TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO PHILOLOGY STUDENTS ON THE BASIS OF A SOCIO-CULTURAL APPROACH

Annotation

The article examines the socio-cultural aspects of teaching the Russian language to students of philology, where Russian language as an intermediary language becomes a means of familiarizing students of philology with the cultural values of the Russian people. Special attention is paid to the innovative approach to the development of sociolinguistic competence, teaching in different social and cultural contexts, effective use of modern information technologies in the classes of Russian as a foreign language in the higher education system.

Key words: *socio-cultural aspects, socio-cultural approach, student orientation, cognition, complex process, cultural values.*

Jahonda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan keng

islohotlar, dunyo hamjamiyatida global integrallashuv jarayonining keskin darajada o'sib borishi chet tillarni o'rganish va o'qitish sohasini rivojlantirishni talab qilmoqda. Oliy ta'lim tizimida chet tili sifatida rus tili darslarida sociolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga innovasion yondashish, turli ijtimoiy madaniy kontekstlarda o'qitish, zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2020-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq, xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh, bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, ularning mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish, barkamol mutaxassis shaxsni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlarida rus tili fanlarini o'qitish ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Ayniqsa, talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash bo'yicha lingvotexnologik yondoshuvlar va metodikasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada talabalarga rus tilida sociolingvistik bilimlarni o'rgatishning nazariy–metodologik prinsiplari etnopsixologiya, psixolingvistika, sotsiokulturologiya, lingvokulturologiya, sociolingvistika kabi zamonaviy fanlarning so'nggi yutuqlari asosida mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantirishning muhim omillarini aniqlash va izchil tadqiq etish muammosi dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda rus tilini chet tili sifatida o'qitish masalalariga oid ilmiy qarashlar J.Jalolov, O'.H.Hoshimov, I.Ya.Yaqubov, L.T.Ahmedova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Sociolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy–metodik asoslari, ijtimoiy–lingvistik xususiyatlari, ijtimoiy–madaniy kontekstlarda o'qitish masalalari G.T.Mahkamov, S.A.Ziyayeva, S.A.Djusupova, P.X.Amanov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Rus tilini o'qitish metodikasi masalalari L.T. Axmedova, M.Djusupov, V.I.Andriyanova, I.N. Styrkas, S.H.Abdullaeva, S.N. Abdullaeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan

Sociolingvistik yo'ndoshuv ilmiy nashrlarda ikki tomondan ko'rib chiqilgan.

- ijtimoiy–madaniy yo'ndoshuv kompetensiyaning tarkibi qismi sifatida, kommunikativ vaziyatlarda til shakllarining bilish malaka va ko'nikmalardan iborat so'lashchilarining ijtimoiy maqomlaridan, ijtimoiy vazifalaridan kelib chiqib to'g'ri va o'rinli foydalanish tushuniladi.

- sociomadaniy yo'ndoshuv kompetensiyaning ajarmas qismi sifatida sociolingvistik gender, ijtimoiy guruh va shevalarga xos ijtimoiy qatlam vakillarining lisoniy xususiyatlari tavsiflanadi

Globalashuv va barcha integratsiya jarayonlarining kuchayishi davrida

ob'ektiv voqelik haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda tilning rolini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda, shuning uchun hozirgi bosqichda rus tilini mutaxassislik sifatida o'qitishda ta'lim mazmunining ijtimoiy-madaniy komponentning ahamiyati ortib bormoqda

Rus tilini o'qitish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirish, kundalik hayotda ham, ta'lim va kasbiy sohada ham madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirishga qodir bo'lgan talabalarning ikkinchi til lisoniy shaxsini tarbiyalash vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqot jarayonida chet tillarida so'zlashuvchilarga nisbatan bag'rikenglik va ijobiy munosabat, ijtimoiy-madaniy hodisalarga tahliliy yondashish, hurmat, ochiqlik va shaxslararo tafovutlarni, munosabatlarni va sheriklarni tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Rus va o'zining mamlakati madaniyatining faktlari va hodisalarini tahlil qilish va taqqoslash talabalarning ikkilamchi ijtimoiylashuvining muhim shartidir, buning natijasida ular rus madaniyatining o'ziga xosligi, o'zgachaligini bilib oladilar, yangi dunyoqahashga ega bo'ladilar, va uning o'ziga xos me'yorlar va qadriyatlari tizimi haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. (Axmedova L.T., 2012, 48-b.).

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida filologiya fakulteti talabalarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga, ularning o'rganilayotgan til mamlakatining an'analari, xulq-atvor modellari va qadriyatlarini egallashiga umuman yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Til tsikli fanlarini o'qitish nazariyasida hozirgacha rus tilini mutaxassislik sifatida o'qitish mazmunining ijtimoiy-madaniy komponenti sifatida nimani tushunish kerakligi va ushbu komponentni o'qitishning muayyan bosqichlarida qanday taqdim etish kerakligi haqida umumiy qabul qilingan nuqtai nazar mavjud emas edi.

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish muammosi murakkab yaxlit jarayon sifatida qaraladi, bunda rus tili vositachi til sifatida filologiya talabalarini rus xalqining madaniy qadriyatlari, rus mentaliteti bilan tanishtirish vositasiga aylanadi.

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayoni madaniyatning quyidagi milliy o'ziga xos tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi: an'analar (yoki madaniyatning barqaror elementlari), shuningdek, rus xalqiga xos bo'lgan urf-odatlar; rus etnik guruhining hayotiga hamroh bo'lgan marosimlar; an'anaviy maishiy madaniyati; kundalik hayotidagi xulq-atvor, xatti-harakatlar (verbal va noverbal xatti-harakatlar bilan bog'liq odatlar); xalqning estetik an'analarini, dunyoning milliy lisoniy manzarasi, idrok etish va tafakkurning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi badiiy madaniyat. (Shchukin, 2003, 78-b.).

Milliy guruhlarda rus tilini o'qitish usullarini doimiy ravishda takomillashtirish ko'p jihatdan uni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-lingvistik asoslarga ham tayanish zarurati bilan bog'liq. Rus tilini rus bo'lmagan talabalarga o'rgatishda talabalarning

boshqa fanlarni o'rganish jarayonida egallagan umumiy leksik fondini rus tilida o'rganiladigan pedagogika, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi ta'lim fanlarining imkoniyatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali talabalarning so'z boyligini faol o'zlashtirishi alohida ahamiyatga ega. (Abuzyarov, 1986, 36-b.).

Rus tilining ishlab chiqarishda, jamoat joylarida, bir necha tillarda o'qitiladigan maktablarda amal qilishi natijasida shakllangan zamonaviy lingvistik vaziyatni o'rganish jarayonida rus tili nutqining katta imkoniyatlari ham ocilib boradi.

Shunday qilib, xalqlarning millatlararo muloqoti uchun rus tilini o'qitishga yordam beradigan barcha omillarni hisobga olish rus tilini milliy guruhlarda o'qitishning ijtimoiy-madaniy jihatining asosini tashkil qiladi.

Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, fan, xalqaro aloqalar va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ehtiyojlarini hisobga olgan holda milliy guruhlarda rus tilini o'qitish usullari ularning tadqiqotlari ko'lamini va mazmunini kengaytiradi, o'qitishning barcha zaxiralarini ishga tushiradi. (Vereshchagin, Kostomarov, 2003, 86-b.).

Kafedramizning muammoli laboratoriyasida rus tili darslarida filologiya talabalari uchun til o'rgatish tizimi ishlab chiqilgan. Keling, milliy guruhlar talabalari uchun til o'rgatish muammosini hal qilishda kompleks yondashuvni ta'minlaydigan ushbu tizimning alohida bo'g'inlariga to'xtalib o'tamiz.

Birinchi bo'g'in - o'qituvchining so'z-terminologik lug'at va umumiy leksik fondning boshqa so'zlari ustida doimiy, tizimli ishlashi. U "Yagona nutq rejimi" tizimida amalga oshiriladi. Lug'at ishlari o'qituvchi tomonidan barcha darslarda va iloji bo'lsa, turli bayramlarga bag'ishlangan madaniy tadbirlarda o'tkazilishi mumkin bo'lgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar vaqtida amalga oshiriladi.

Har bir darsda o'quvchilarning lug'atlariga umumiy leksik fondan 20-30 ta so'z yoki o'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan atamalar kiritiladi. Shu bilan birga, oldingi darslarda o'rganilgan so'zlar takrorlanadi. Shunday qilib, talabalar 20-30 lug'at birligini o'zlashtiradilar, bu oyiga 300-400 so'z va yiliga taxminan 2-3 ming so'zni tashkil qiladi.

Bu ish barcha fanlar o'qituvchilaridan keng lingvistik va uslubiy bilimga ega bo'lishni talab qiladi, bu esa darslarni takomillashtirish, dars sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Har bir guruhda siz "Faollashtirilgan lug'at jurnali" ni kiritishingiz mumkin, unda o'qituvchilar darsda ishlashlari mumkin, talabalar ham o'z navbatida ushbu jurnal namunasi asosida yod olgan so'zlari asosida lug'at daftar yuritadilar. Bu o'qituvchilarga tanlangan va faollashtirilgan lug'atni hisobga olishga yordam beradi, lug'at ishlarida uzluksizlikni o'rnatadi va shu bilan o'qituvchi faollashtirilgan lug'at

haqidagi talabalarning bilimlarini tekshirish va ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunga o'quvchilar bilan nutqni rivojlantirish va so'z boyligini boyitish bo'yicha o'tkaziladigan maxsus sinfdan tashqari mashg'ulotlar, atoqli yozuvchi va shoirlarning yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini egallash va rivojlantirishga, nutqni to'g'ri yetkazish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchini shakllantirish, uning ilmiy-uslubiy dunyoqarashini kengaytirishda bu ishning ahamiyati va zarurligi o'z-o'zidan yaqqol ko'rinib turibdi. O'qitishning har bir bosqichida har qanday lingvistik fanni o'rganishda talabalar mustaqil tahlil va sintezning zarur minimal ko'nikmalarini oladi.

Talabalarning ilmiy to'garaklari ham talabalarni jalb etishning yaxshi o'quv shakli hisoblanadi. Uslubiy to'garaklar a'zolari rus tili darslarida o'quvchilarning kognitiv faolligini faollashtirish muammolari, lingvistik to'garak a'zolari esa so'z yasash muammolari, rasmiy hujjatlar uslubi, badiiy matnlarning lingvistik tahlili bilan shug'ullanadi.

Shu tariqa o'quvchilar lug'atlar, ma'lumotnomalar, darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ishlashga, ilmiy-metodik jurnallardan foydalanishga o'rganadilar. Talabalarni maxsus ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish, alohida mavzular, darslik bo'limlari, monografiyalar bo'yicha konspektlar olish, konspektlarni tuzish, ilmiy-metodik adabiyotlarga sharhlar tayyorlash muhim o'rin tutadi. (Abuzyarov, 1986, 36-b.).

Filologiya fakulteti talabalariga rus tilini o'rgatish, ularni kelajakda yetuk mutahassis bo'lishida til o'rgatishda muammolarga duch kelmasligini oldini olish lozim. Bu masala katta davlat ahamiyatiga ega bo'lib, uni hal qilish uchun mas'uliyat asosan rus tilini o'qitish metodikasi mutaxassislari, rus tili va adabiyoti o'qituvchilari, xalq ta'limi tegishli mutaxassislar ning zimmasiga tushadi, o'z navbatida ularning vazifasi

rus tili fani o'qituvchilari, boshqa turdosh fanlar o'qituvchilari, darsdan tashqari tadbirlar va tadbirlar tashkilotchilari, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosarlari bilan ishlashda yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatishdan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, rus tilini chet tili sifatida o'qitishda sotsial-madaniy yondashuv metodikaning asosiy kategoriyasi sifatida xorijiy tillarni o'qitishning mahalliy va xorijiy uslublari an'alariga va lingvodidaktika fanining rivojlanishiga asoslanadi.

Adabiyotlar

Абузьяров Р.А. (1986). Социолингвистические аспекты обучения русскому языку учащихся национальных школ. Ташкент.

Ахмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Автореф. дисс... д-ра пед. наук. 48-54.

Дэвидсон Д., Митрофанова О. (2018). Функционирование русского языка: Методический аспект // Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Monografiya. Toshkent. 187.

Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. (2005). O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. Fan. Toshkent.

Русский язык и литература в общении народов мира. (1990). Moskva. 6-15.

Safarova R., Musayev U., Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. (1990). Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Moskva.

Saidova. M. Sh. (2023). Yangi avlod darsliklari ta'lim jarayoninig muhim bo'g'ini sifatida. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro. 187.

Sobirova M.Y. (2023). Ona tili ta'limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Dis....ped. fan. dokt. Namangan. 256.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 5-bo'lim. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997-yil 9-son.

Щукин А.Н. (2003). Методика преподавания русского языка как иностранного. Moskva. 78-84.

TURKIY TAOM NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

**Zarifa Alimova*,
Zarnigor Abdullayeva*,
Muattar Rasulova***

* Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti. zarifaxon@gmail.com.

* Farg'ona davlat universiteti talabasi. zarifaxon@gmail.com

* Farg'ona davlat universiteti talabasi. zarifaxon@gmail.com.

Annotatsiya

O'zbek xalqi juda katta madaniy merosga ega. Bir necha asrlar davomida otabobolarimizdan bizga meros sifatida yozma shaklda yetib kelgan asarlar juda katta miqdorni tashkil etadi. Bu asarlar ichida ham ilmiy, ham ma'naviy jihatdan yetuk sanalgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari milliy xazinamizni boyitdi. Ushbu asar turkiy qabilalarning lug'at boyliklarini izohlashga qaratilgan. Olim bu so'zlarni faqatgina izohlab qolmay, qabilalar o'rtasidagi fonetik, morfologik xususiyatlarni ham izohlab bergan.

Mahmud Koshg'ariy fonetikani mukammal bilgan olim sifatida ham tan olinadi. "Devonu lug'otit-turk" asarida fonetika bo'limi alohida bo'lim sifatida izohlanmagan, chunki asar qurilishi buni talab qilmagan. Olimning asar davomida fonetika bo'yicha keltirgan ba'zi ma'lumotlari o'sha davr fonetikasini ancha keng izohlagan. Olim bu asarda qo'llangan har bir tovushni mukammal o'rgandi va ilmiy asoslab berdi. "...Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini, fiziologik va akustik holatlarini aniqlab chiqdi. Uning bu sohadagi chidamli mehnati, bir tarafdin, juda ko'p so'zlar etimologiyasini fonetik qonunlar orqali puxta ilmiy asosda aniqlashga imkoniyat yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, o'sha davr tilshunosligida fonetikaga xos ko'pgina yangiliklarni ochishga, bu sohaga bir qancha yangiliklar qo'shishga, fonetikani bir qancha yangi qoidalar bilan boyitishga imkoniyat yaratdi". Ushbu ma'lumotlardan shuni bilish mumkinki, olim bu asarni shunchaki lug'at tarzida yaratibgina qolmay, fonetikaga doir umumiy va mushtarak g'oyalarni g'oyat puxta darajada ilmiy asoslab bergan.

Tayanch so'zlar: leksik sistemasi, qadriyat, urf-odatlar, xalq marosimlari, tovushlarning kombinatsiya, . "Devonu lug'otit-turk" asari, fiziologik va akustik holatlar.

LINGUISTIC ANALYSIS OF TURKISH DISH NAMES

Abstract

The Uzbek people have a great cultural heritage. There is a huge amount of works that have come down to us as a legacy from our ancestors for several centuries. Mahmud Koshghari's work "Devonu Lugatit-Turk" enriched our national treasure among these works. This work is aimed at explaining the vocabulary of Turkic tribes. The scientist not only explained these words, but also explained the phonetic and morphological characteristics of the tribes.

Mahmoud Koshgari is also recognized as a scientist who knows phonetics perfectly. The phonetics section is not explained as a separate section in the work "Devonu Lugotit-Turk", because the construction of the work did not require it. Some of the information given by the scientist on phonetics in the course of the work

explained the phonetics of that time quite widely. The scientist thoroughly studied every sound used in this work and scientifically justified it. "... determined the positions, physiological and acoustic conditions of sounds as a result of combination. His persistent work in this field, on the one hand, made it possible to determine the etymology of many words through phonetic laws on a thorough scientific basis, and on the other hand, to open many innovations specific to phonetics in the linguistics of that time, several innovations in this field made it possible to add, to enrich phonetics with several new rules". From this information, it can be known that the scientist did not just create this work in the form of a dictionary, but also scientifically justified the general and common ideas about phonetics. About 300 proverbs used and in use in the Devonian language of that time reflect all sound changes, a number of phonetic processes, such as sound fall, sound rise, and sound change. Our work is devoted to the analysis and research of these phenomena.

Key words: lexical system, value, traditions, folk rituals, combination of sounds, . The work "Devonu Lugotit-Turkish", physiological and acoustic conditions.

Tilshunoslikning leksik sistemasida taom nomlari alohida o‘rin tutadi. Chunki ular ham lingvistik, ham etnografik tomondan ahamiyatlidir. Binobarin, ularni o‘rganish ko‘p jihatdan ilmiy ahamiyatga ega deyish mumkin. Taom nomlari qayd etilgan dastlabki manbalar sirasiga bir qator yozma yodgorliklar kiradi. Bular orasida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘ziga xos manba hisoblanadi.

Asar materiallari kuzatilishi natijasida yuzga yaqin taom nomlari tanlab olindi va ular K.Mahmudovning “O‘zbek taomlari” kitobida qayd etilgan 21 ta turning ayrimlarigagina xos ekanligi aniqlanadi. Shunga ko‘ra, ushbu maqolada ularning lingvistik xususiyatini inobatga olgan holda quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq deb topildi:

Taom nomlari:

kundalik turmushda odatiy tarzda tayyorlanadigan taom nomlari: byn-sho‘rva (o‘g‘iz, qipchoq, suvorin tillarida). [М.Комшарий, 1960, 67-6.] Byshkal-lochira (hoqoniyaliklarda). Lochira hozirgi o‘zbek tilida achirilmagan xamirdan tandirga yopiladigan non.

a) Biror maxsus marosim bilan bog‘liq taom nomlari: Basan-o‘lik ko‘milgach yeyiladigan taom, jug‘ – o‘lgandan so‘ng beriladigan ovqat.

b) Taom tayyorlashda ishlatiladigan narsa-predmet nomlari: Awran - temirchi o‘chog‘ining qo‘rasiga o‘xshatib qo‘yilgan yer tandir, ashich-buqach – qozon tovoq, jacg‘ach- uvra taxta.

d) Taom tayyorlovchi kasb-koriga aloqador nomlar: *Chälchi*- oshpaz va hokazo.

“Devonu lug‘otit turk”da uchraydigan taom nomlari lingvistik xususiyatiga ko‘ra o‘ziga xos bo‘lib, ular etimologik nuqtai nazardan ham keng tahlil etilmog‘i lozim. Biroq, bu ishni amalgam oshirish oson yemas. Negaki, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da ham bu nomlarning kattagina qismi uchraydi. Masalan, Ash – oziq-ovqat so‘zining izohi kabi [III.Раҳматуллаев, 2000, 261-б.].

Xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlar bilan bog‘liq holda azaldan tayyorlanib kelinadigan non, sumalak, palov (osh), chuchvara (ba‘zi joylarda barak deb ham nomlanadi), somsa, g‘ilmindi, manti, kabi xilma-xil bahoriy taomlar sirasida sumalak ham mavjud. Sumalak taom nomining kelib chiqishi haqida turlicha qarashlar bor U odatda, bahorda tayyorlanadi.

Mahmud Koshg‘ariy ta’kidlashicha, sumalak ivitilgan bug‘doy ma’nosidagi so‘zga aloqadodrdir. Olim bu haqda shunday ma’lumot keltiradi: Suma- ivitilgan bug‘doy nomi. Uni quritib tuyuladi. So‘ng undan ugra osh, va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so‘z qo‘llanadi.

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (turkiy so‘zlar)da Sh. Rahmatullayev sumalak asli *suma* so‘zidan olingan yekanligini, yeski o‘zbek tilida kichraytirish ma’nosini ifodalovchi –lak qo‘shimchasi bilan hosil qilinganligini ko‘rsatib, so‘z shaklini *suma+lak=sumalak> sumäläk* tarzida belgilaydi va shunday xulosa bildiradi: “...Bu so‘z asli oz miqdorda ivitilgan bug‘doy” ma’nosini anglatgan, hozirgi ma’nosi shu ma’no asosida yuzaga kelgan”.

Xalq marosimlari bilan bog‘lik bo‘lgan taom nomlarining hududiy tarqalishi bir xil emas. Masalan, to‘y marosimlarida tayyorlanadigan taom nomlaridan biri *mayso‘k* (so‘k qovurilgan tariq sariyog‘ va shakar aralashtirilib iste’mol qilinadigan shirinlik) (Qoraqolpoq hamda Xorazmda) nikoh to‘yi va beshik to‘yida tayyorlanib, kelgan mehmonlarga tarqatiladi.

Atala – unni yog‘da qovurib, keyin suv bilan qaynatib tayyorlanadigan yengil hazm qilinadigan quyuq ovqat. Bu ot o‘zbek tilida ma’no taraqqiyoti natijasida “suyuq narsani cho‘mich bilan to‘lg‘az” – ma’nosini anglatuvchi **ätälä** – fe’lidan o‘sib chiqqan.

Atala — bug‘doy, arpa yoki jo‘xori unidan tayyorlanadigan taom. Atala parhez, shifobaxsh hisoblanadi. Kasal, holdan toygan, yangi ko‘zi yorigan ayollarga atala ichiriladi. Uni tayyorlash uchun qo‘y yog‘ini qozonda qizdirib, bug‘doy uni solinadi va qizarguncha qovuriladi. Oz-ozdan suv solinib uzluksiz aralashtirib turiladi. Ayrim joylarda (Urgut, Tayloq tumanida) atalaga qiyma, tuxum ham solinadi. Atala tayyorlashda 500 gramm un, 100 gramm qo‘y yog‘i, tahbga ko‘ra tuz solinadi.

Bo‘tqa – bir necha tur donni qaynatib pishirilgan quyuq ovqat. Bu ot yeski o‘zbek tilidagi “qorishtirh ma’nosini anglatgan bot fe’lidan –qa qo‘shimchasini

qo'shish bilan yasalgan). [М.Кошғарий, 1960, 256-б.]. О'zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan. Bot-+qa = botqa > bo'tqä.

Do'lma- tok, karam bargining qiyma bilan to'ldirib o'rab pishiriladigan ovqat. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "biror bo'shliqni egalla" ma'nosini anglatgan.

Yupqa – xamirni yupqa yoyib, qizdirilgan qozonda har ikki tomonini ag'darib pishirib, so'ng ichiga qiymali piyozdog' solib, to'rtburchak shaklida taxlab tayyorlanadigan ovqat nomi. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi "yon ko'lamini ingichka qilib yoy" – ma'nosini anglargan yub– fe'lidan –qa qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yasalgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'zbek tilida taom nomlarininig shakllanishi, qadimgi turkiy lug'atlarda qayd etilgan taom nomlari hozirgi o'zbek adabiy tilida birmuncha yaxshiroq saqlanib qolgan.

Adabiyotlar

М.Кошғарий. (1961). Девону луғотит турк. III томлик. II том,

Ш.Раҳматуллаев. (2000). *Ўзбек тилининг этимологик луғат*. (туркий сўзлар). Тошкент.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006). 5 жилдлик. 1 жилд, 113.

Э.В.Севортян. (1974). *Этимологический словарь тюркских языков*.

LISONIY TADQIQOTLAR TIZIMIDA INSON OMILI GENEZISI

**Nizomiddin Quldashev*,
Saodatxon Solijonova***

* Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Farg'ona viloyati hududiy bo'linmasi rahbari. quldashev@gmail.com

* Farg'ona davlat universiteti magistranti. saodatxon@gmail.com

Annotatsiya

Nutq va nutqiy faoliyat hodisasi ma'lum bir davrga qadar psixologlar tomonidan o'rganilgan va tilshunoslarning unga murojaatini XIX asrning boshlari va o'rtalarida Potebnya va Boduen de Kurtene asarlari bilan bog'liqdir. Aynan shu davrdan boshlab ana shu asarlarga tayangan holda tilshunoslikning yangi yo'nalishi psixolingvistika fani shakllandi. Tilshunoslik va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada paydo bo'lgan psixolingvistika fanimiz tajribasining kengayishidir. Badiiy asar poetikasi doimo nafaqat adabiyotshunoslarni filolog olimlarni ham qiziqtirgan masalalardan biri bo'lib kelgan.

Kalit so'zlar: *nutq, nutqiy faoliyat, sotsiologiya, fan obyekti, semiotik tilshunoslik, etnolingvistika.*

GENESIS OF THE HUMAN FACTOR IN THE SYSTEM OF LINGUISTIC RESEARCH

Abstract

The phenomenon of speech and speech activity has been studied by psychologists for a certain period, and the reference to it by linguists is associated with the works of Potebnya and Baudouin de Courtenay in the early and middle of the 19th century. From this period, based on these works, a new branch of linguistics, the science of psycholinguistics, was formed. Psycholinguistics, which appeared at the intersection of linguistics and psychology, is an extension of the experience of our science. The poetics of a work of art has always been one of the issues of interest not only to literary scholars, but also to philological scholars.

Key words: *speech, speech activity, sociology, object of science, semiotic linguistics, ethnolinguistics.*

Lingvistik poetikaning paydo bo'lishi tilshunoslikda yangi lingvopoetika yo'nalishini vujudga keltirdi. Albatta, bu yangi yo'nalish hozirgi kunda bir qator tilshunos hamda adabiyotshunos olimlarning diqqat markazidadir. Tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi qarashlar tilshunoslikda yangi semiotika yo'nalishini vujudga keltirdi. Semiotik tilshunoslik bu aslida mohiyatiga ko'ra semiotikaning kelib chiqishi va o'zagini tashkil etgan bo'lib, u hozirda bilimning ko'plab sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda hamda tilshunoslikni yangi g'oyalar bilan boyitmoqda. Etnologiya hamda etnografiya dastlab qarindoshlik va rang atamalarini o'rganish uchun qo'llanilgan bo'lib, u samarali lingvistik usullardan biri bo'lgan tarkibiy tahlil usulining rivojlanishiga turtki berdi. Hozirgi kunda tilshunoslikda etnolingvistikaga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sotsiologiya insonlarning ijtimoiy munosabatlarini, shaxsiy o'zaro ta'sirlarini, hamda lingvistik munosabatlar masalalari

bilan shug'ullangan. Keyinchalik insonlarning tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashlari kengayishi natijasida sotsial lingvistika fani vujudga keldi. Nutq patologiyasi, tilning ongsizlik sohasi bilan bog'liq ravishda ekanligi tibbiyot sohasida o'rganilgan edi. Nihoyat, ko'z o'ngimizda nutq buzilishlarini, psixoanalizning lingvistik asoslarini o'rganadigan yangi soha shakllantirildi.

Shunday qilib, qo'shni sohalar bilan chegaradosh, turli sohalar bilan tutashgan joylarda lingvistik tajribamiz, bilim va salohiyatimiz kengayib bormoqda, kashfiyotlar qilinmoqda, yangidan yangi nazariyalar shakllanmoqda, tadqiqotlar asosida ilmiy manbalar yaratilmoqda. Ushbu yangidan yangi nazariyalarning paydo bo'lishi tilshunos olimlardan o'z fanining obyektini qayta ko'rib chiqishni, yangi tajribalarni inobatga olgan holda o'z bilim manbayini kengaytirishni talab qilmoqda.

Darhaqiqat shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, XIX asr tarixiylik davri ostida o'tdi. Doimo o'zgarib turuvchi obyekt tilni tarixiy harakatda, taraqqiyotda o'rganish kerak degan fikrimiz o'zini himoya qildi. Tilshunoslikda qiyosiy tadqiqotlar paydo bo'ldi, qiyosiy tarixiy metod shakllandi, tilni tarixiyliigi, tilni bilish, avvalo, uning tarixini bilish ekani to'liq ma'lum bo'ldi. Tilni fan obyekti sifatidagi o'ziga xosligini belgilab berishda uning tarixiy xarakteri hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Tilshunoslikning ilmiy paradigmasiga tayanadigan yo'nalish ya'ni, ilmiy g'oyalar, usullar, qabul qilingan g'oyalar yig'indisi tarixchilik ilm-fan mezonini bo'ldi. Ba'zi manbalarda tilni o'rganishni tarixiylikdan boshqa yana boshqa tekshirish borligi keltiriladi. Bizningcha, tilni tarixiy bo'lmagan ammo ilmiy tekshirish deganda ko'zlangan narsa, asosan, tilni tarixiy, ammo nomukammal o'rganishdir. Tadqiqotchi oddiy faktlarni o'rganish va ularni mulohaza qilish chegarasidan o'tishi bilan, u voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga va ularni anglashga harakat qilishi bilanoq, tarix sohasi darhol boshlanadi garchi u buni anglamasa ham. Umuman olganda qanday qilib tadqiqotchi uning paydo bo'lish tarixi, rivojlanish taraqqiyoti haqida bilmay, anglamay turib u haqida muvafaqiyatli gapirishi mumkin. Tilshunoslikda XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan tirik tillar va lahjalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi boshqa bir tarafdin ilmiy jamoatchilikning tarixiy yondashuvining mashhur despotizmiga, o'lik tillarga qiziqish munosabati edi. Yana boshqa tomondan esa shakllangan va rivojlangan milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq rivojlanayotgan jamiyatning yangi-yangi ehtiyojlari va manfaatlariga tilshunoslarning bevosita munosabati edi. XX asr boshidan beri tilshunos olimlar o'z diqqat e'tiborini haqiqatdan ham ishlaydigan tirik tilga qaratdilar, bu uning ijodiy xarakteri, estetik funksiyasi, tilni bilishning psixologik asoslari kabi xususiyatlarini targ'ib qilishga olib keldi. Tilshunoslik so'zlovchi shaxsiga yuzlandi. Keyinchalik, asrimizning ikkinchi yarmida taniqli faylasuf olim, faqat tarixiy yondashuvning, bilishdagi tarixiy ufqning afzalliklari va shu bilan birga cheklovlarni baholab, shunday degan edi.

“Tarixiy vosita bo‘lish bu o‘z o‘zini bilishga sho‘ng‘ib ketmaslik.” [Пауль Г., 1960. 42-43-b.]

O‘z-o‘zini bilishga yo‘naltirilganlik, eng avvalo, tilshunoslik obyektniing mohiyatini ochib berdi. Tilning psixologik xususiyatga ega ekanligiga ishonish tabiiy bo‘ldi. Shu sababli ham tilshunoslikning ilmiy paradigmasi qayta tiklandi. Albatta, psixologizm tarixiylikni bekor qilishni, butunlay inkor qilishni anglatmasligi kerak va umuman olganda anglatmaydi. Ammo shu o‘rinda bahs-munozaralar qizg‘inida o‘zini-o‘zi tasdiqlash, o‘zini oqlash maqsadida ikki ilmiy paradigmaning qarama-qarshiligi bir-biriga zid bo‘lib qoldi. Psixologik paradigma lingvistik ilmiy tajribaning yangi kengayishiga turtki berdi. Eslab o‘tsak, tilshunoslikdagi zamonaviy fanologiyaniing ikki manbasidan biri Boduen de Kurtene tomonidan fonema mohiyatini psixofonik tushunish edi. A.A.Shaxmatov ham o‘zining “Sintaksis” nomli asarida sintaksis hodisa va tuzulmalarni talqin qilishda ham psixologik kategoriyalardan kelib chiqib, ularning tegishli lingvistik dizaynini izlaydi. “Zamonaviy rus adabiy tili” inshosida u tilshunoslikning psixologik paradigmaga bo‘lgan xoslikni ifodalab, quyidagi fikrlarni keltiradi. “Har bir shaxsning tili haqiqiy mavjudotga ega; qishloq, shahar, tuman, odamlarning tili mashhur ilmiy fantastika bo‘lib chiqadi. Sababi, u til faktlaridan iborat bo‘lib, ular ma’lum birliklarning bir qismi bo‘lgan ma’lum birlik yoki tribal vositalar, cheksiz bo‘lish, ularning tilini to‘liq o‘rganish mumkin emas.

Adabiyotlar

Виноградов В.В. Бодуен де Куртене. (1963) . Нзд-во АН СССР. 6

Humboldt V.V. (1985). *Language and Philosophy of Culture*. Progress.

Safarov Sh. (2008). *Pragmalingvistika*.

Жинкин Н.И. (1982). *Речь как проводник информации*. 108.

Попова З.Д., Стернин И.А. (2007). *Когнитивная лингвистика*. Восток-Запад. 51.

Тырышкина Е.А. (2002). Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. ... канд. филол. наук. Новосибирск.

Постовалова В.И. (1988). Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. 55.

Серебренников Б. А. (1988). Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. 179.

Тырышкина Е.А. (2002). Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. ... канд. филол. наук. Новосибирск. 22.

SOHAVIY TERMINLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

**Muhammadjon Mamajonov *,
Xayrullo Norxo‘jayev ***

Annotatsiya

* Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsent. xayrullo@gmail.com

* Farg‘ona davlat universiteti magistranti [.xayrullo@gmail.com](mailto:xayrullo@gmail.com)

Turli kasb va sohaga oid bo'lgan terminlarning lisoniy xususiyatlari har doim olimlar diqqatini jalb qilib kelgan. Terminlar bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'lami bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Sohaga oid bo'lgan so'zlar leksikasi va ularning o'rganilishi bo'yicha ilmiy ishlar tahlil qilinganda sohaviy terminlarga oid bo'lgan tadqiqotlar diqqatimizni tortdi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada sohaviy terminlarning lisoniy xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, istiloh, umumadabiy til, semasiologik, tarixiy, kognitiv, aktual yo'nalish, ilmiy tushunish, kasbiy atama, terminologiya aspektlari, terminologiya yo'nalishlari.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF FIELD TERMS

Abstract

Linguistic features of terms related to various professions and fields have always attracted the attention of scientists. The scope of scientific research conducted on terms has not lost its relevance to this day. When analyzing the lexicon of words related to the field and the scientific works on their study, the studies related to the field terms attracted our attention. From this point of view, this article briefly touched on the linguistic features of industry terms.

Key words: *terminology, term, istilah, general literary language, semasiological, historical, cognitive, actual direction, scientific understanding, professional term, aspects of terminology, directions of terminology.*

Terminologiya – bilimning turli sohalarida terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi va ishlashining xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Terminologiya – fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llaniladigan terminlar majmuyidir. [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023, 56-b.]. Tilshunoslikning bu sohasi bugungi kunda fan, texnika, kasb-hunarga oid bo'lgantegishli tushunchalarning to'plamini aks ettiradi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, terminologiya tartiblangan tizimli shakllanish deb xulosa qilish mumkin. Hozirgi kunda terminologiyaning turli yo'nalishlari va aspektlari ajratilgan: masalan, S.Grinev terminologiyani quyidagicha aspektlarga bo'ladi:

- a) umumiy – maxsus lug'atdagi umumiy xususiyatlar va jarayonlarni o'rganadi
- b) semasiologik – atamalar semantikasini o'rganadi
- c) tarixiy – terminologiyalar tarixini o'rganadi. ularni tartiblash bo'yicha tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.
- d) kognitiv – ilmiy bilish va tafakkurda atamaning rolini o'rganadi.

Tilshunos olim V.Tatarinov esa terminologik tadqiqotning metodologik kelib chiqishi, atama nazariyasi, filologik tadqiqotlar, funksional va stilistik tadqiqotlar, diaxronik tadqiqotlar, terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish, terminologiya, ilmiy-texnik tarjimaning terminologik jihatlari, professional lingvodidaktika, sanoat terminologik tadqiqotlari kabi sohalarni belgilaydi. L.Alekseeva va S.Mishlanova normotsentrik (integral, mantiq bilan muloqotga yo'naltirilgan), lingvotsentrik (integral, tilshunoslik bilan muloqotga yo'naltirilgan) va antropotsentrik (kognitiv, odam bilan muloqotga yo'naltirilgan) terminologiyasini farqlashadi. Umumiy terminologiya bo'yicha asosiy ishlardan biri sifatida S.Grinevning "Terminologiyaga kirish" kitobini ajratib ko'rsatish lozimdir. Muallif terminologiyaning fan sifatida mohiyatini ochib beradi, terminologiyaning asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatadi, maxsus lug'at tipologiyasini o'rganib, atamani alohida belgi sifatida tahlil qiladi. Bu ilm-fan bilan bevosita bog'liq, chunki u turli bilim sohalariga xizmat qiladi. Konsepsiya, ya'ni ilmiy tushunish natijasida, bu tizimning boshqa a'zolariga mos keladigan atamasiz fanga kirish mumkin emas. Terminologiya va mantiq o'rtasida o'zaro bog'liqlik munosabatlari mavjud, chunki terminologiyada turli xil mantiqiy texnikalardan foydalaniladi (tasniflash, har qanday sohadagi bilimlarni tizimlashtirish) va mantiq tegishli atamalar bilan tavsiflanadi.

Terminologiya sohasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deya izohlanmoqda. Ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga hamisha turtki bergan va ayniqsa, yigirma birinchi asrda globallashuv ijtimoiy hayotga juda katta ta'sir ko'rsatishi tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyatlaridan biriga aylandi. Har bir milliy tilning leksikasi doim harakatda, o'zgarishda bo'lib turadi. Tilda yangi so'zlar paydo bo'lib, ular leksikani to'ldiradi hamda boyitib boradi, yangi so'z ijtimoiy hayotning talabi bilan yaratiladi. Ayniqsa, terminologiyada bu jarayon ko'zga yaqqol tashlanadi. Jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan termin va terminologiya masalalariga davlat miqyosida e'tibor berib kelingan, jumladan, o'zbek tili terminologiyasi ham ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. O'zbek tili terminologiyasi sohasidagi ishlarni XX asrning 50-yillarida O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi huzuridagi Til va Terminologiyasi qo'mitasi boshqarib kelgan (qo'mita 1931-1937-yillarda faoliyat ko'rsatgan), keyinchalik 1964-yildan boshlab O'zbekiston fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi Terminologiya bo'limi bu sohadagi ishlarni olib bordi. 1988-2004-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi o'zbek tili

Terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish bilan shug'ullanib keld. 2004-yil yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"dagi PF-3358-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan mazkur qo'mita faoliyati to'xtatilib, atamashunoslikka oid ishlarni tartibga solishni muvofiqlashtirish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi "Davlat tili haqida"gi Qonunni joriy etish komissiyasi zimmasiga yuklatildi. 2019-yil 21-oktabrda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli farmonlaridan so'ng terminologiya sohasi muammolariga e'tibor yanada oshsi. Zero, termin muammolarini hal qilish va ularni qo'llash masalalarini o'rganish tilshunoslar oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanardi. Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari turlichadir. Masalan, boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi kabilardir. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga amalga oshmoqda. Biror bir soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazam ravishda rivojlanishidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi hisoblansa, terminologiyada bular salbiy hodisa sanaladi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida turli terminlardan foydalanilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qish va o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli ham terminologiya ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turilishu maqsadga muvofiqdir. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida termin va uning lisoniy belgi-xususiyatlarini o'rganishga doir ko'pgina tadqiqotlar qilingan. Shunga qaramasdan, terminologiya sohasida hali o'z tadqiqini kutib yotgan muammolar soni talayginadir. Masalan, kasb-hunarga oid hisoblangan qassobchilik terminlarining lisoniy xususiyatlari muammosi ham shular jumlasidandir. Tilshunoslikda termin tushunchasi hozirgacha turlicha talqin qilmoqda. Ba'zi tilshunoslar terminga ilm va fan-texnikaga oid so'z va iboralarnigina emas, balki barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlari, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan vositalari nomlari, shuningdek, o'tmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, ya'ni kasb-hunarga oid so'zlarni ham kiritmoqdalar. Ma'lumki, termin so'z hamda ibora singari tilning lug'aviy birligi sanaladi. Termin deb atalgan maxsus lug'aviy birlikni oddiy ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega lug'aviy birlik hisoblangan so'zga qarama-qarshi qo'yish orqali uning o'ziga xos belgi-xususiyatlari o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

O'zbek tilining izohli lug'ati. (2023). G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent.

Менглиева Сунбула. "Increasing the professional competence of cadets through the method of projects. Общество и инновации 3.10/S (2022): 296300.

Savranbekovna, Mengliyeva Sunbula. (2022). "WAYS OF TEACHING VOCABULARY AND MILITARY TERMS TO CADETS IN ENGLISH" Open Access Repository 8.2. 139-141.

Shirnova, Nilufar Djabbarovna, Shirnova, Nargiza Djabarovna. (2023). LISONIY PARALLELIZM HODISASIGA DOIR // ORIENSS. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lisoniy-parallelizm-hodisasiga-doir>.

O'ZBEK TILIDA SUBSTANSIAL SINTAKSEMALARNING VARIANTLARI

Nigina Axmedova *

Annotatsiya

* Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi. akhmedovanigina@gmail.com

Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek til materiali zahirida umumiy pozitsiv gap shaklining paradigmatic solishtirilishi vositasida gap sintaktik shakli paradigmaticasi namoyon bo'lish jihatlari yoritishdan iborat. Shuningdek, jonli nutqining turli grammatik hodisalarda zamonaviy tahlil usullarini qo'llash orqali tizimli asosda dolzarb grammatik muammolarga kirishdir.

Kalit so'zlar: *sintaktik gap, predikat, subyekt, sodda gap, sifatdosh, paradigmatica, tizim, sifatdosh, predikatsiya.*

OPTIONS OF SUBSTANTIAL SYNTAXESMS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Annotation

The purpose of this article is to shed light on the aspects of the manifestation sentence form in the Uzbek language material. It is also an introduction to current grammatical problems on a systematic basis by applying modern analysis methods to various grammatical phenomena of live speech.

Key words: *syntactic sentence, predicate, subject, simple sentence, adjective, paradigmatic, system, adjective, predication.*

Ma'lumki, sodda gap tarkibiga turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi felli birikmalarni kiritish natijasida bu gap qurilishi murakkablashishi (ham shakl, ham mazmun jihatdan) va bunday birikmalardagi ikkinchi darajali predikatsiyaga kora gapda predikativ jamlanish yuzaga kelishi mumkin. Ana shunday birikmalar bilan murakkablashgan sodda gaplarda bu predikativ jamlanishga kora shu tipdagi gaplarning sintaktik maqomini belgilashda, ya'ni bunday gaplar haqiqatan ham sintaktik jihatdan sodda gapmi yoki ergash gapli qoshma gapmi, degan masalada, xususan, turkologiyada, qolaversa, boshqa tilshunosliklarda ham uzoq yillardan beri keskin munozara boradi, biroq, hanzugacha yagona, to'g'ri, ko'pchilik tomonidan tan olingan bir fikrga kelinganicha yo'q. Bunday tizim (konstruksiya)lardagi, garchi ikkinchi darajali bo'lsa-da, predikatsiya ayni tizimlarni malum darajada ergash gap sifatida qo'llanuvchi muayyan tizimlar bilan yaqinlashtiradi. (Мухин А.М. 1985. 153-с.)

Ana shundan kelib chiqib, o'z egasiga ega bo'lgan sifatdosh gaplarni aniqlovchi ergash gap deb talqin qilish to'g'ri emas, bunday tizimlar bilan to'la ma'nodagi ergash gaplar o'rtasida to'liq tenglik yo'q. Bu tizimlarning bosh gap bilan bog'lanishida ergash gaplarning bosh gap bilan boglanishidagiga qaraganda sezilarli darajada farq bor. Ayni paytda bu tizimlardagi kesim deb qaralgan fe'l shakllarning kesimlik darajasi ham bosh gapdagi kesim bilan aynan bir xil emas. Mazkur tizimlarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Bu propozitsiya esa harakat va uning

bajaruvchisi o'rtasidagi, belgi va belgi egasi o'rtasidagi va shu kabi munosabatlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham bunday tizimlarning bo'laklari o'rtasida, subyekt – predikat aloqasi mavjud, ammo ularda gap qurilishining muhim ega-kesimlik belgilarining yo'qligi bu birliklarning gap sifatida qaralishiga imkon bermaydi. (Пешковский А.М. 1956. 245-с.). Mazkur subyekt – predikat aloqasiga ko'ra bunday tizimlarni ikkinchi darajali predikatsiyali tizimlar deb nomlash mumkin. Ana shunday tizimlarda predikativ bo'lak vazifasini fe'ning shaxssiz shakllaridan tashqari bor, yo'q kabi modal so'zlar, shuningdek, boshqa ko'pgina belgi ifodalovchi sozlar ham bajarib kelishi mumkin.

Masalan: *They were met by an old man with a white beard.*

Bularni soch-soqoli oppoq bir chol qarshi oldi (A. Qahhor),

Those who have melody in their heart live in all the times.

Qalbida kuyi bor odamlar hamma zamonda yashaydi (M. Mahmudov) gaplarida oppoq va bor so'zlari predikativ bo'lak vazifasida, yani ikkinchi predikatni ifodalab kelgan, bu bolalar ikkinchi darajali predikatsiyali tizimni shakllantirgan. Bu tizimlarga ko'ra mazkur sodda gaplarda semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan. Ularning semantik-sintaktik xususiyatlari ham ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdash oramlarning semantik-sintaktik xususiyatlari bilan deyarli bir xil. Hatto ularda sifatdash shaklida qo'llanishi mumkin bo'lgan bo'lmoq bog'lamasining o'zni ham sezilib turadi. Masalan: *soch-soqoli oppoq (chol) – soch-soqoli oppoq bolgan (chol); Qalbida kuyi bor (odamlar) – Qalbida kuyi bor bolgan (odamlar).* Shuning uchun ham ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdash o'ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplarning semantik-sintaktik tahlilidan kelib chiqadigan xulosalarni bunday tizimlar bilan murakkablashgan sodda gaplarga ham to'liq tadbiiq etish mumkin.

Ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh birikmalar qatnashgan sodda gap tarkibidagi mazmunlar qoshiluvda ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat bilan asosiy propozitsiyadagi harakatning bir paytda sodir bo'lganlik ma'nosidan iborat qo'shimcha ma'no ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Adolat went to the spring with her instrument on her shoulder. Adolat ketmonni yelkalab, buloq boshiga bordi (I. Rahim).*

Ayrim hollarda ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh birikmaning predikativ bo'lagi bo'lgan ayni ravishdosh fe'ning analitik shaklidan yoki hozirgi zamon shaklidan shakllanganda birmuncha boshqacharoq qoshimcha ma'no ifodalanadi. Ikkinchi darajali predikatda ifodalangan harakat davomli bo'ladi, asosiy predikatda ifodalangan harakat esa mazkur davomli harakat ichida bajariladi. Shuni ham aytish mumkinki, bunda ikkinchi darajali predikatning asosiy predikatga tobeligi birmuncha kuchsizlanadi va ayni paytda uning umumiy subyekt (gapda ega shaklida ifodalangan)ga tegishliligi, u bilan aloqadorliligi yana ham bo'rtib ko'rinadi. Masalan: *Drying her hands in the towel, Saltanat looked out of the kitchen window.*

Saltanat qo'lini sochiqqa arta turib, oshxona derazasi orqali tashqariga qaradi. Bunday gaplardagi propozitsiyalarning qo'shiluvi ayni propozitsiyalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasidan iborat qo'shimcha ma'noni aks ettirishi mumkin. Bunda ayni propozitsiyalarning aloqasi benihoya zich boladi, ular bir-birini hamisha taqozo etadi. Zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab mantiqan bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi darajali predikatsiyali ayni ravishdosh o'ramlar sabab mazmunli propozitsiyani ifoda etadi va bu propozitsiya asosiy propozitsiyani keltirib chiqaradi, uning voqe bo'lishi uchun sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat (holat va sh. k.) asosiy propozitsiyadagi harakat (holat va sh.k.)dan oldin amalga oshadi. Masalan: *Aziz, irritated by this weep, cant sleep on the balcony even in summer. Aziz shu yigidan bezib, yozda ham balkonda yotolmaydi.*

Juda ko'p hollarda tarkibida ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh gaplarda ifodalangan propozitsiya asosiy propozitsiyadagi harakatning bajarilishi tarsi, usulini ifodalaydi. Bunda ayni propozitsiyaning asosiy propozitsiyaga tobeligi yaqqolroq seziladi. Masalan: *Sherzod looked out moving the window curtain. Sherzod deraza pardasini surib, tashqariga qaradi (O.H).*

Gapda so'zlar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Bu bog'lanish ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida reallashadi. Masalan: *Talabalarimiz qishki sessiyani muvaffaqiyatli yakunladilar* gapida grammatik jihatdan quyidagicha shakllanib, ozaro boglangan birikmalar mavjud:

- 1) Talabalarimiz yakunladilar;
- 2) sessiyani yakunladilar;
- 3) qishki sessiyani;
- 4) muvaffaqiyatli yakunladilar.

Har bir so'z birikmasi kamida ikki mustaqil so'zdan tashkil topadi. Har ikki so'z birgalikda murakkabroq tushunchani anglatish uchun xizmat qiladi. Demak, o'zaro semantik, grammatik jihatdan bog'langan ikki yoki undan ortiq mustaqil So'zlar qo'shilmasi so'z birikmasi deyiladi. So'z birikmasining yuqorida keltirilgan ko'rinishlari erkin birikma sanaladi. Erkin birikmalarni turg'un birikmalardan farq qilish kerak. Chunonchi, yeng shimarmoq, qo'ltigidan tarvuzi tushmoq, xamir uchidan patir kabi iboralar ham strukturasiga ko'ra so'z birikmasi hisoblanadi, ammo bu birikmalar tarkibidagi so'zlar gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi, chunki ular nutq paytidan oldin o'zaro birikkan holda mavjud bo'ladi, nutqda ham shu holicha qollaniladi, hozir buzilmas birikma holatiga kelib qolgan. Bunday birikma tarkibidagi so'zlarning har biri mustaqil tushuncha bildirmay, butunicha ko'chma ma'no ifodalaydi, gapda ham bitta vazifada keladi. Birikmalarning bu tiplari turgun birikmalar deb ataladi. Turgun birikma leksikologiya (frazologiya)da o'rganiladi. (Bushuy T., Safarov Sh. 2008. 88-b.).

Erkin birikmalar sintaksisning o'rganish obyektidir. Unda o'zaro bog'lanib kelayotgan har bir so'z mustaqil tushuncha bildiradi, gapning bolagi vazifasida keladi, alohida so'roqqa javob boladi. So'z birikmasini qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq, yalang oyoq, bosh yalang kabi qo'shma so'zlardan ham farqlash lozim. Qo'shma so'zlar so'z birikmasi kabi ma'lum darajada murakkabroq tushunchani ifodalasa-da, sodda so'z kabi gapda birgina gap bo'lagi vazifasini bajaradi, so'z birikmasi (erkin birikma) tarkibidagi so'zlar esa, yuqorida aytib o'tilganidek, alohida-alohida gap bo'lagi vazifasida keladi. So'z birikmasi sintaktik kategoriya sifatida sintaksisda o'rganilsa, qo'shma so'zlar qaysi so'z turkumiga xosligiga ko'ra morfologiyada o'rganiladi. So'zlarning gapdagi sintaktik aloqasi ikki xil boladi: tenglanish va ergashish (tobelanish). Gapda bir xil vazifada kelgan bo'laklarning teng boglovchilar vositasida yoki sanash intonatsiyasi orqali bog'lanish teng bog'lanish deb ataladi. Masalan: *O'rik va bodom gulladi. O'rik, bodom gulladi kabi*. Teng sintaktik aloqada bo'lgan bo'laklar orasida tobelik bo'lmaydi. Ergash bog'lanish esa biri hokim, biri tobe bo'lgan gap bo'laklarining sintaktik aloqasini ifodalaydi. Masalan: bizning jamoamiz; kitobni o'qimoq; qizil gullar kabi birikmalarda bizning, kitobni, qizil sozlari tobe, jamoa, oqimoq, gullar hokim sozlar hisoblanadi. (Asadov R.M., & Mekhribon Xurshedovna Makhmudjonova, 2021. 78-b.).

Tobe so'z hokim so'zni biron bir tomondan aniqlaydi, toldiradi yoki izohlaydi. Tobe so'z, odatda, biron kelishik affiksini qabul qiladi yoki u keng ma'noda belgi bildiruvchi so'z bilan ifodalanadi (yaxshi bola, polat sandiq kabi).

So'zlarning ergashish yo'li bilan bog'lanishi uch xil boladi:

1. Moslashuv. 2. Boshqaruv. 3. Bitishuv.

Moslashuvli birikmada hokim va tobe so'zning shaxs-sonda o'zaro moslashib kelishi moslashuv deyiladi. Masalan: Biz o'qidik, Ravshan o'qidi. Mening ukam. Bizning ko'chamiz kabi. Bu birikmalarning birinchi va ikkinchisida o'qidik so'zi biz so'zi bilan, o'qidi so'zi Ravshan so'zi bilan shaxs (I shaxs, III shaxs) larda molashgan. Boshqaruvli birikmada esa tobe so'zning hokim so'z talab qilgan kelishik affiksini olishi (bosh va qaratqichdan tashqari) yoki ko'makchi bilan qolishi boshqaruv deyiladi.

Masalan: darsni tayyorlamoq, imtihonga tayyorlanmoq, sizdan kichik, qalam bilan yozmoq, paxta uchun kurashmoq kabi bog'lanishlarda tayyorlamoq, tayyorlanmoq, kichik, yozmoq, kurashmoq – hokim so'zlar talabiga ko'ra tobe so'zlar kelishik qo'shimchalari (-ni,-ga,-dan) yoki ko'makchilar (bilan, uchun) bilan qo'llanadi. Bitishuvli aloqada hokim so'z tobe so'z bilan asosan tartib va intonatsiya yordamida birikadi. (Azar B.S. 2007, 67-b.).

Masalan: a'lochi talaba, aqlli bola, chaqqon qiz, e'tiborli kishi, birinchi bosqich, shoshib gapirdi, turtinib yurdi, shiq-shiq tugma, tez yurdi kabi. Bitishuvda tartib yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun tartibning va intonatsiyaning (ohangning)

o'zgarishi bunday aloqa asosida tashkil topgan so'z birikmasining grammatik xarakterini ham o'zgartiradi.

Solishtiring: go'zal bog' (bitishuv), Bog' – go'zal (moslashuv). Sifatlovchi va sifatlanmish (chaqqon qiz), ravish holi va fel kesim (jilmayib gapirmoq) o'zaro bitishuv yo'li bilan aloqaga kirishadi. Aniqlovchi vazifasidagi yoki holat bildiruvchi so'zlar asosan tobe so'z, aniqlanmish yoki kesim vazifasidagi so'zlar esa hokim so'z bo'ladi. Gap fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradigan, turli his tuyg'ularni ifodalaydigan bir so'z yoki bir necha so'zlar yig'indisi, nutqning grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy intonatsion tugallikka ega bo'lgan qismidir.

Masalan: Oy. Nozik jimjitlik. Salqin shamollargina, qizning sochlari bilan o'ynashardi. Bunda uchta gap bor: 1. Oy. 2. Nozik jimjitlik. 3. Salqin shamollargina, qizning sochlari bilan o'ynashardi. Bu gaplarning har qaysisi ma'lum fikr bildiradi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi, ularning har biri gapda biror grammatik funksiyani – gap bo'lagi vazifasini bajarib keladi.

Masalan: *Viloyatimiz paxtakorlari rejani oshirib bajardilar. Bu gapda paxtakorlar – ega, viloyatimiz – aniqlovchi, rejani – toldiruvchi, oshirib – hol, bajardilar sozi esa kesimdir.* Gap bo'laklari ikkiga – bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Bosh bo'laklar (ega va kesim) gapning asosini tashkil qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) gapning bosh bo'laklarini aniqlaydi, to'ldiradi yoki izohlaydi. (Ashurov Sh. S. 2007, 153-b.).

Xulosa qilib aytganda, har qanday gap so'zlovchining maqsadini: xabar berish, tinglovchidan biror voqea-hodisani so'rash, buyurish, maslahat kabi manolarni ifodalaydi. Shunga kora gaplar uch turga bolinadi: darak gap, soroq gap, buyruq gap. Biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gap darak gap deyiladi. Masalan: *Kecha biz Navoiy muzeyiga bordik. Darak gap yuz bergan, yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan bildiradi. Nazokatning ovozi titrab, yuragi urar edi. (S.Ahmad) – gapida tasdiq mazmuni; U imtihonga tayyorlanmadi. U imtihonga tayyorlagan emas. U imtihonga tayyorlangani yo'q – gaplarida inkor mazmuni ifodalangan. Darak gaplar bir tekis, tinch ohangda talaffuz qilinadi. Intonatsiya gap oxiriga tomon pasaya boradi. Yozuvda darak gaplarning oxiriga odatda nuqta quyiladi. Gap tarkibidagi sozlar turli vazifani bajaradi – gapning turli bo'laklari bo'lib keladi. Bu so'zlar o'zaro bog'langanda, o'zaro munosabatda kirishgandagina gap bo'lagi bo'la oladi.*

Adabiyotlar

Asadov R.M., & Mekhribon Xurshedovna Makhmudjonova. (2021). Componential analysis syntactic units on the base of syntactic valence. Philosophical Readings, XIII (4). Pp.32293236.

Ashurov Sh. S. (2007). Ingliz va ozbek tillarida kesim tipologiyasi. Samarqand.

Azar B.S. (2002). Understanding and using English grammar Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. Moscow.

Bushuy T., Safarov Sh. (2007). Til. qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent.

Chomskiy N. (1957). Structures „S“ – Gravenhage, p1. Harris Z.S. Co-occurrence and Transformation in Linguistic Structure, “Language”, vol.3, №3(Part I), 283-340.

Пешковский А.М. (1956). Русский синтаксис в научном освещении. Москва, 245.

NUTQ VA BADIY NUTQ TUSHUNCHASI

Xayrulla Ibragimov *

* Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi. akhmedovanigina@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada nutq va xalq tilining o'zaro munosabati, she'riy nutqni tashkil etuvchi lingvistik birliklar, badiiy matnni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil markaziga qo'yilgan.

Kalit so'zlar: *Nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq uslublari, badiiy nutq, nasriy nutq, she'riy nutq, she'riy til, xalq tili, adabiy til, lirik asar.*

CONCEPT OF SPEECH AND ARTISTIC SPEECH

Annotation

The article deals with the interaction of poetic speech and the national language, the language units that form poetic speech, and the scientific and theoretical foundations of the study of a literary text from the view of linguistics.

Key words: *speech, oral speech, written speech, speech styles, artistic speech, poetic speech, poetic language, folk language, literary language, lyrical work.*

Nutq yozma va og'zaki ifoda shakliga ega bo'lib, u so'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarni o'z ichiga oladi. Har bir nutq uslubi ma'lum maqsadni ifoda etishga xizmat qiladi.

She'riy til – murakkab, serqirra, serjilo, obrazli nutq. She'riy nutq – she'r tuzilishi - o'zgacha bir dunyo: she'r to'qimasida, birinchidan, nasriy va dramatik asarlardagidek, g'oya, obraz, konflikt, syujet, kompozitsiya, badiiy til unsurlari mavjud bo'lsa, ikkinchidan, unda faqat she'r tuzilishiga xos bo'lgan unsurlar: musiqiylik, ohang, ritm, bo'g'in, turoq, bosh turoq, turkum, vazn, qofiya, band, ko'chimlar, figuralar, badiiy san'atlar, fonetik usullar bo'lishi hamda she'riy nutqda A.Fitrat ta'biri bilan aytganda, «yurak sezgilarini ko'rsatadigan» ma'naviy-ilohiy kuch-ohangrabo, joziba bo'lishi shart.

She'riy nutq — badiiy nutqning nasriy (sochma) va she'riy (tizma) tarzidagi ikki shaklidan biri bo'lib, tilning muayyan ichki o'lchamga solingan, ma'no ko'chishiga asoslangan, hissiyotga to'yingan alohida ko'rinishi.

Filologiya fanining rivojlanish tarixida she'riy nutq (poetik til) muammosi tilshunoslik chegaralari doirasida o'rganilgan va rivojlantirilgan, keyinchalik u tilshunoslik chegaralaridan chiqib ketgan. Uzoq vaqt davomida tilshunoslar va adabiyotshunoslar o'zaro she'riy matnlarni o'rganish huquqi to'g'risida bahslashishgan va bunday matnlarni lingvistik yo'naltirilgan tadqiqotlar tilshunoslikning she'riy nutq muamolarini o'rganishga haqli degan tezisni asoslashdan boshlangan.

Hozirgi vaqtda ushbu sohadagi lingvistik tadqiqotlar namunasini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan filologiya doirasida

alohida yo‘nalish paydo bo‘ldi. Bu “she’riy asarlarni til prizmasi orqali ko‘rib chiqish va she’riyatda dominant vazifani o‘rganish” bilan shug‘ullanadigan soha lingvistik poetika (poetik nutq nazariyasi)dir.

“Poetik lug‘at”da poetika “adabiy asarlarning tarkibiy shakllari va yangi shakllar ta’siri ostida ushbu shakllarning o‘zgarishi tarixiy qonuniyatlari” deb ta’riflanadi (Квятковский А.П., 1996, 76-b). Rus poetikasining tug‘ilishi va rivojlanishida ko‘plab tilshunos va adabiyotshunoslar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bular: V.G.Admoni, M.M.Baxtin, R.A.Budagov, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, I.R.Galperin, L.Y.Ginsburg, G.A. Gukovskiy, V.M.Jirmunskiy, A.N.Kojin, D.S.Lixachev, Yu.M.Lotman, A.A.Potebnya, V.Y.Propp, T.P.Silman, B.V.Tomashevskiy, Y.N.Tumyanov, V.B.Shklovskiy, L.V. IŇerba, B.M. Eyxenbaum, Y.G.Etkind, P.O.Yakobson va boshqalar.

Hozirgi kunda tilshunoslik poetikasi ichki va xorijiy adabiy merosni tushunishda boy tajribaga ega. Biroq, she’riy nutq nazariyasida ko‘plab muhim masalalar hali ham munozarali. Xususan, ko‘p sonli asarlar bilan, poetik tilning umume’tirof etilgan va har tomonlama bahsli nazariyasi hali ishlab chiqilmagan, uning maqomi masalasi to‘liq hal etilmagan va “poetik” so‘zining o‘zi, shuningdek, “poetik til”/“poetik nutq” bugungi kunga qadar noma’lum tarkib bilan to‘ldirilmoqda.

She’riy nutq she’rning yaratilishi uchun eng muhim birlamchi vosita bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra nasriy nutqdan qadimiyydir. U inson tamaddunining dastlabki paytida uzoq vaqtgacha badiiy nutqning yagona shakli bo‘lgan. Chunki she’riy nutq qurilishidagi tartiblilik, musiqiylik, hissiylik, o‘lchovlilik uni kundalik qora so‘zdan farqlagan, u orqali ifodalanayotgan axborotning san’atga tegishlilikini ko‘rsatib turgan.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da she’riy nutqqa shunday ta’rif berilgan:
“Muayyan bir o‘lchov (vazn) asosidagi ritmga ega, o‘zining musiqiy jarangi, emotsional-hissiy to‘yintirilganligi bilan farqlanuvchi nutq shakli. She’riy nutqdagi o‘ziga hos intonatsiya, musiqiylik ritmik bo‘laklar va ritmik vositalar, o‘ziga xos fonetik va sintaktik tashkillanish orqali vujudga keladi. She’riy yo‘lda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o‘quvchiga “yuqtirilishi”da uning ritmik- intonatsion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni she’rning ritmik-intonatsion xususiyatlari uning mazmuni bilan belgilanadi, mazmun bilan uyg‘unlik kasb etadi. O‘zining kelib chiqishi jihatidan she’riy nutq badiiy nutqning nasriy shaklidan qadimiyroq, aniqrog‘i, o‘z vaqtida u badiiy nutqning yagona shakli bo‘lgan. Milliy adabiyotlar tarixining ilk bosqichlarida adabiy asarlar she’riy yo‘lda yozilgan, nasrda yozilgan badiiy asarlarning paydo bo‘lishi, nasrning badiiy nutq ko‘rinishi sifatida shakllanishi esa nisbatan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Sababi, “she’riy nutqdagi o‘ziga xos tashkillanish uni odatdagi nutqdan keskin farqlaydi va shuning o‘ziyoq yetkazilayotgan informatsiya san’atga aloqador ekanini ta’kidlab

turadi. Zero, nasriy nutq o'zining qurilishi jihatidan kundalik muloqotda qo'llaniluvchi nutqqa yaqin, she'riy nutq so'z san'atiga xos maxsus hodisadir" (D.Quronov, 2010, 345-b.). Lug'atda she'riy nutqning sinonimi sifatida nazm ko'rsatilgan bo'lib, bu termin nisbatan kam hollarda keng ma'noda qo'llanib, umuman she'riyatni bildiradi, bu keng ma'nodagi nasr bilan qarshi qo'yilgan holda yuzaga chiqishi ko'rsatilgan.

She'riy nutq – badiiy ijod vositasi va badiiy idrok predmeti sifatida nutq xususiyatlarining umumiyligi; ba'zan she'riy nutq oyat qonunlariga muvofiq tashkil etilgan san'atdir. Tor ma'noda she'riy nutq yoki “poetik til” so'zlashuv, frazeologiya va sintaksisdan foydalanib, hozirgi zamongacha she'riyatning muayyan tiliga tegishli bo'lib, deyarli nutqning boshqa sohalarida qo'llanilmaydi. Badiiy uslubni she'riy, nasriy va dramatik nutq uslublariga, ularni yana o'z navbatida janrlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Badiiy adabiyotda she'riy nutq va xalq tili bir butun holda namoyon bo'lsa, asar o'qishli, tushunarli hamda xalqona ruhga boy bo'ladi. Adabiy til va badiiy asar tilida xalq tilining muhim jihatlari umumlashadi. Shoir tilining individualligi mana shu mushtaraklikda namoyon bo'ladi.

Badiiy asar matnlarida har bir rivojlangan tilning ikki asosiy funksional ko'rinishi – adabiy til va jonli xalq tilining dialektik birligi, o'zaro uzviy bog'liqligi ochiq namoyon bo'ladi. Rus olimlari L.V.Shcherbak va V.V.Vinogradov hamda A.I.Yefimov ko'rsatishlaricha, “til taraqqiyotining ma'lum davrlariga xos adabiy til me'yorlarini badiiy asarlarning matnlarini tahlil qilish orqali belgilash mumkin” (Ефимов А.И., 1961, 83-b.).

XIII-XVI asrlarda eski o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan adabiy til me'yorlari turli davrlarda yashagan Xorazmiy, Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlari tilini o'rganish, lingvistik tahlil qilish asosida aniqlanadi. O'sha davrlarda yaratilgan yodgorliklarning tili o'z davri xalq tiliga, tushunishning yengilligi jihatidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga hamda jonli xalq tiliga ancha yaqin turadi.

Tilning xilma-xil birliklarini badiiy adabiyot asarlarida ishlatish hamma vaqt uslub jihatidan asoslangan bo'ladi. Jumladan, yuqorida tilga olingan shoirlarning, ayniqsa Alisher Navoiyning asarlari XIV-XV asrlardagi eski o'zbek adabiy tilining xususiyati, uning og'zaki va yozma shakllari, shuningdek jonli xalq tili hamda adabiy tilning og'zaki shakli qanday ekanligi to'g'risida aniq tasavvur bera oladi. Yozuvchi yoki shoir o'z asarlarida turli darajadagi til birliklarining ma'lum qolipga solingan, takomillashgan namunalarini, shakllarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari badiiy asarlarda ko'proq va aniqroq namoyon bo'ladi. Demak, turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish o'sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beradi. Badiiy asar tilini

o'rganish bu xil lingvistik tekshirishlarning ikki jihatini bir-biri bilan bog'laydi, uning ikki tomonini belgilash imkonini beradi, ya'ni badiiy asar matnlarida adabiy til me'yorlari hamda ma'lum darajada jonli xalq tilining xususiyatlari aks etganligi aniqlanadi.

Tilning xilma-xil birliklarini badiiy adabiyot asarlarida ishlatish hamma vaqt uslub jihatidai asoslangan bo'ladi. Jumladan, yuqorida tilga olingan shoirlarning, ayniqsa Alisher Navoiyning asarlari XIV-XV asrlardagi eski o'zbek adabiy tilining xususiyati, uning og'zaki va yozma shakllari, shuningdek jonli xalq tili hamda adabiy tilning og'zaki shakli qanday ekanligi to'g'risida aniq tasavvur bera oladi. Yozuvchi yoki shoir o'z asarlarida turli darajadagi til birliklarining ma'lum qolipga solingan, takomillashgan namunalarini, shakllarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari badiiy asarlarda ko'proq va aniqroq namoyon bo'ladi. Demak, turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish o'sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beradi. Badiiy asar tilini o'rganish bu xil lingvistik tekshirishlarning ikki jihatini bir-biri bilan bog'laydi, uning ikki tomonini belgilash imkonini beradi, ya'ni badiiy asar matnlarida adabiy til me'yorlari hamda ma'lum darajada jonli xalq tilining xususiyatlari aks etganligi aniqlanadi.

Til hodisalarini to'g'ri va chuqur tushungan holda keng ilmiy tahlil qilish, hozirgi jonli xalq tili, so'zlashuv nutqi xususiyatlari bilan adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari faktlarini qiyoslab o'rganish natijalari o'tmirdagi jonli xalq tilining ayrim xususiyatlarini bilib olishda ma'lum asos bo'lishi mumkin. Yozma manbalar asosida o'tgan asrlardagi jonli xalq tili, so'zlashuv nutqi xususiyatlarini o'rganishda tarixiy obidalarini, badiiy asarlarning matnlarini, ayniqsa, o'z davriga xos nutq amaliyotini aks ettiruvchi asarlarni tanlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olim S.Karimov "badiiy asarda til vositalarining qo'llanishini qat'iy bir qolipga solib bo'lmasligini, unda umumxalq tilidagi barcha elementlarning qo'llanishida chegaraning yo'qligini, xullas, badiiy matnda umumtil fondining birliklari uchrashi mumkin"ligini ta'kidlab o'tgan (S.Karimov, 2010, 192-b.).

Xulosa qilib aytganda, umumxalq tilining ko'p unsurlaridan she'riy nutqda foydalanish mumkin. Masalan, dialektizm, varvarizm, vulgar, jargon so'zlardan badiiy nutqda faol qo'llanishini kuzatish mumkin. Xalq tilining bu muhim vositalaridan o'z o'rnida foydalanish ijodkorning mahoratini belgilaydi.

She'riy nutqda xalq tili unsurlari shoir yoki yozuvchining badiiy yondashuvi asosida individuallik kasb etishi mumkin. Ijodkor xalq tilida mavjud birlikka obrazli tafakkuri orqali yangicha yondashuv asosida o'zgartirish kiritishi, boyitishi mumkin.

Adabiyotlar

Квятковский А.П. (1966). Поэтический словарь. Советская Энциклопедия. Москва.

Quronov D. (2010). Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent.

Ефимов А.И. (1961). Стилистика художественной речи. Москва.

Karimov S. (2010). O‘zbek tili funksional stilistikasi. Samarqand.

YOSHLARNI MILLIY URF-ODAT VA AN‘ANALAR RUHIDA TARBIYALASHDA ILMNING O‘RNI

Xanifaxon Xamdamova *

* O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD). Jizzax politexnika instituti. xanifaxamdamova@gmail.com.

Annotatsiya

Ma'lumki, yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lib yetishuvida eng yaxshi urf-odatlar, udumlar, an'analar, xalq odobnomasining ahamiyati katta. Chunki kimda-kim yoshlikdan xalqimizning asrlar mobaynida sinovdan o'tgan, xalqchil hayotiy odatlarining pandnomasini yaxshi o'zlashtirib olsa, ota-bobolarimizning pand-nasihatlariga va o'gitlariga quloq solsa, unday inson elda baland obro' topadi. Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida ilm-ma'rifatning o'rni, xususan, xalq og'zaki ijodi namunalarining talaba-yoshlarni milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalashdagi roli haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *milliy urf-odatlar, milliy an'analar, ma'naviyat, kamolot, axloqiy fazilatlar, «Ommaviy madaniyat», folklor asarlari.*

THE ROLE OF SCIENCE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS

Abstract

It is known that the best customs, customs, traditions, and folk etiquette are of great importance in raising the younger generation with high moral qualities. Because if a person from a young age learns the time-tested principles of life of the people of our nation, listens to the advice and teachings of our ancestors, then such a person will acquire a high reputation in the country.

This article examines the role of science and education in the upbringing of youth, in particular, the role of examples of folk art in educating students in the spirit of national customs and traditions.

Key words: *national customs, national traditions, spirituality, maturity, moral qualities, "Folk culture", folklore works.*

Ilm insonni ulug'laydi, uni yaqinlar, atrofidagi insonlar orasidagi obro'yini oshiradi. Yoshlarni milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalash, ilm-fanga e'tiborli bo'lish qilib tarbiyalash har qachongidan ham hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biridir.

Men yoshlarning ma'naviy kamolotga erishishida asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, yangilanib, xalq madaniyati, ma'naviyatini o'z mazmunida ifodalab kelayotgan bebaho merosimiz hisoblangan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning respublikamizdagi ijodiy tashkilot xodimlari, adabiyotchilar, san'at ahliga qarata aytgan quyidagi: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas

qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi", degan gaplari bevosita folklorga ham taaluqlidir.

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni hamisha qadrlash, ularni har tomonlama o'rganib, ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylantirish folklorshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda bugungi san'at va adabiyotning yuksak namunalari bilan birga, asrlar sinovidan yorug' yuz bilan o'tib kelayotgan boy ma'naviy merosni hozirgi va kelgusi avlodlarga hamkor, hamnafas, hamqadam qilish yo'lida katta ishlar amalga oshirilayotgani shu nuqtayi nazardan ham qadrlidir. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrda qabul qilgan «2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qaror izchillik bilan amalga oshirib borilmoqda. Bu esa milliy folklor san'atimiz xazinalari hozirgi va kelajak avlod ma'naviy kamol topishida yanada samarali hissa qo'shishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Folklor hayot hikmatlarining badiiy xazinasidir. Buni dalillovchi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Ma'lumki, yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lib yetishuvida eng yaxshi urf-odatlar, udumlar, an'analar, xalq odobnomasining ahamiyati katta. Chunki kimda-kim yoshlikdan xalqimizning asrlar mobaynida sinovdan o'tgan, xalqchil hayotiy odatlarining pandnomasini yaxshi o'zlashtirib olsa, ota-bobolarimizning pand-nasihatlariga va o'gitlariga quloq solsa, unday inson elda baland obro' topadi. Men, ushbu qarashlardan kelib chiqqan holda, muhim bir narsaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ma'lumki, folklor xalq hayotining barcha qatlamlari bilan uzviy holda yashab keladi, uni tinglovchilardan ayrim holda tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Doston, ertak yoki xalq qo'shig'ining tinglovchisi ayni vaqtda folklor tashuvchisi hamdir. Ya'ni folklor faqat dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, umuman aytganda, ijrochi bilangina emas, folklor tashuvchilari bo'lgan tinglovchilari bilan ham tirikdir. Muayyan bir folklor asarini tinglayotgan tinglovchi uni o'zlashtiradi, qayta-qayta eshitavergach, uning ma'lum qismlarini ijro etish malakasini ham hosil qiladi. Xatto, eng iste'dodli va zukko tinglovchilar, hozirgi kun iborasi bilan aytsak folklor tanqidchisi darajasiga ko'tariladi. Ustoz folklorshunoslarimiz asarlarida qayd etilganidek, kamolga yetgan shogirdlarni mustaqil doston aytishga yo'llashdan oldin ular katta shoirlarning imtihonidan o'tgan. Bu katta shoirlar bilan birgalikda tinglovchilar ham o'z baholarini bergan. Shunday ekan, folklorga xos noyob xususiyat sifatida bu ijodiy jarayonda ijrochi ijodkorlar bilan bir paytda tinglovchilar ham ishtirok etganligini, tinglovchilar xalqning asrlar davomida ijro etilib, sayqal topib kelayotgan namunalarini bedahl saqlashga, rivojlantirishga hissa qo'shganlarini aytib o'tish zarur bo'ladi. Zero, Ergash Jumanbulbul o'g'li «O'zbeklarda so'zga sinchi ko'p bo'lar» – deb bejiz aytmaydi.

Buyuk dostonchimiz xalqimiz orasida soʻzning sinchilari koʻp ekanligini nima uchun alohida taʼkidlab aytadi? Shuning uchun-ki: soʻzning sinchisi buzgʻunchi soʻzni qabul qilmaydi, inkor qiladi, oʻzining va boshqalarning maʼnaviy shikastlanishiga yoʻl qoʻymaydi. Bu fazilatga biz bugungi kunda alohida eʼtibor berishimiz kerak. Mamlakatimizda sogʻlom, maʼnan yetuk, har tomonlama uygʻun rivojlangan, estetik barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qilinayotganining ham sababi shu. Yoshlarimiz estetik barkamol boʻlsa, unga «Ommaviy madaniyat» hech qachon oʻz taʼsirini oʻtkaza olmaydi. Binobarin, folklorning faqat isteʼmolchining emas, ijoddoshni ham tarbiyalash tajribasidan oʻrnak olishimiz kerak. Yurtimiz boʻylab hali ham folklor buloqlari qaynab yotibdi. Jahon hamjamiyati bizning durdonalarimizga ixlos va havas bilan qarayotgani, oʻrganayotgani hech kimga sir emas.

Men yaqinda bir jurnalistning maqolasini oʻqidim, unda Surxondaryoda hanuz davom etib kelayotgan, lekin hozircha ilmiy eʼtiborga tushmagan «Badash» sanʼati haqida yozilgan. Muallif Badash asosan Navroʻz va Hosil bayramlarida, sunnat va nikoh toʻylarida doira, chanqovuz, doʻmbira, sibizgʻa, dutor kabi sozlar yordamida ijro etilishini, joʻr boʻlayotgan sozga nisbatan uni doira, chanqovuz yoki doʻmbira badashi deb ataganlarini, shu tariqa badashning 70 ga yaqin turi mavjud boʻlganinini, shulardan 50 ga yaqin badash turlari toʻylarda ijro etilganini koʻrsatib oʻtar ekan, shunday deb yozadi: «Qiziqarli jihati: doira chalishni bilmagan ayolning u qadar obroʻ - eʼtibori boʻlmagan, shu sababli qizlar bolalikdan doira chalishga oʻrgatib borilgan. Aksariyat ayollar 50 ga yaqin badash soʻzini bilganlar, shunga mos raqs ijro etganlar. Badash aytadigan ayol qizil satindan parpar koʻylak va lozim kiyib, qasaba deb ataladigan bosh kiyimi ustidan oq shalpat roʻmol yopingan. Oyoqlarida sadaf tugmali kovush boʻlgan. Besh poyali isirgʻa osilgan quloq atrofidagi soch gajakdor qilib qoʻyilgan» Demak, maʼnan goʻzal inson tashqi jihatdan ham goʻzal boʻlishga erishgan. Har bir ijrochi ayol jonli sanʼat asari, jonli badiiy obraz boʻlib yashagan. Estetik barkamol ayol estetik barkamol avlodni tarbiyalaydi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Demak, biz yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularni faol, ijodkor qilib kamol toptirishga erishishimiz zarur. Xalqimizning necha ming yillik ijodiy tajribasi folklor misolida bugun ham toʻlaqonli roʻyobga chiqishi muhim. Ana shu maʼnoda eng katta tadbirlarimizda ham bogʻcha bolasidan torib maktab oʻquvchilari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari, oliy oʻquv yurtlari talabalari umuman bolalar va yoshlar havaskorlar sifatida ishtirok etayotganlari, koʻp hollarda mahoratlari bilan hammaning koʻnglini rom qilayotgani respublikamizda yoshlar tarbiyasi toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganini, bunda folklor tajribasidan ham samarali foydalanayotganini koʻrsatadi. Folklorga, milliy va jahon madaniyatiga oshno va ijoddosh boʻlib oʻsayotgan avlodimiz «Ommaviy madaniyat»ga hech vaqt aldanmasligi ishonamiz. Bu oʻrinda taʼkidlab oʻtish joizki, yoshlarimiz boy

madaniyatimizning tashuvchilari va davomchilari sifatida o'zlarini namoyon qilmoqda.

Tilshunos olimlar folklor janrini o'rganish maqsadida qishloqlarda, xonadonlarda bo'lib, yoshu qari bilan suhbatlashib, folklorning turli janrlariga oid namunalarni eshitib yozib olganlar. Bular orasida rivoyatlar, afsonalar, ertaklar, yor-yorlar, kelin salomlar, tez aytishlar, mehnat qo'shiqlari, «Alpomish», «Ravshan», «Dalli» dostonlarining ertak variantlari, topishmoqlar, marsiyalar, duolar (ehson duosi, dasturxon duosi, safar duosi, kelin-kuyov duosi, qovun-tarvuz duosi, imtihon duosi) mavjudligini ta'kidlar ekan, maqola muallifi: «Shuningdek, folklorshunoslikda kam qayd etilgan «Churiya», «Ho'sh-ho'sh», «Shamol chaqirish», «Shamol to'xtatish», «Yomg'ir chaqirish» qo'shiqlari borligi aniqlaganlar. Folklorshunos olimlarning asarlarida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalq og'zaki ijodi taraqqiyotida tanazzul jarayoni ro'y berayotgani haqida ayrim mulohazalar bor. Ammo viloyat qishloqlarida istiqomat qiluvchi aholi bilan bevosita aloqa bog'lash bu haqda qat'iy hukm chiqarishga hali erta ekanini ko'rsatmoqda».

Bejiz emaski, nomoddiy madaniy meros, jumladan, musiqa folklorini butun hilma-xilligi va ayni paytda bu xilma-xillik uyg'unligida qabul qilish ishtiyoqi kuchayayotgani yaqqol sezilmoqda. «Odnoklassniki.ru» filmida (rejissyor Hilol Nasimov) chanqovuz kuylari milliy ma'naviyatimizning timsoli sifatida namoyon bo'lishi - buning bir dalili, deb o'ylaymiz. Razolat botqog'iga botgan, o'z vatandoshlarini pullashni kasb-kor qilib olgan Bo'ri navbatdagi qurbon – o'z qizi ekanini bilib qoladi. U yordamga shoshiladi... Qizini balo changalidan qutqazgandek, uni o'z panohiga olgandek bo'ladi. Lekin ro'y bergan mudhish – hayvonlar ham sodir etmaydigan voqea... uning bunday deb o'ylashiga zarracha imkon qoldirmagan. Ana shunda bu badbaxting qon-qonida, balki instinktiv tub-tublarida saqlanib qolgan or-nomus, insoniylik hissi qoldiqlari larzaga keladi, tilga kiradi. Qizi bilan yuzma-yuz bo'lganida, o'zining qanchalik tubanligini sezgandir bu kimsa... U, instinktiv tarzda, xalq kuyidan najot kutadi – chanqovuz chaladi, chalaveradi, chalaveradi... Chanqovuz kuylari qizining dardlarini aritayotgandek, o'zining so'nib bitgan insoniylik tuyg'ularini yallig'lantirayotgandek bo'ladi... Bu kuylar xalq ma'naviyatining jonli ifodasi bo'lib, ruhni poklaydi, yiqilganlarni oyoqqa turg'azadi, yurib borayotganlarni qanoatlantiradi. Chanqovuz kuylari sahnasi «Odnoklassniki.ru» filmining ahloqiy-estetik mujassamligidir. Bu sahnani yo'q deb tasavvur qilsak, mazkur film tarovati yo'qolgandek bo'lib qoladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishni istardikki, mamalakatimizda sog'lom avlod ma'naviyatini shakllantirish va tobora boyitib borishi yo'lida olib borilayotgan ezgu ishlar samarali bo'lishini ta'minlashga, - qaysi sohada ishlashimizdan qat'i nazar, - barchamiz bab-baravar burchlimiz. Folklor qahramonlari badiiy obrazlar bo'lib yashash bilan birga, xalqimizni namoyon qiluvchi timsollar va ramzlarga ham

aylangan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek «Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslikdir».

Adabiyotlar

Ишаев А. (1971). Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликда ўрни. Фан. Тошкент. 173-179.

Ўйдошев М. (2007). Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлил асослари. Фан. Тошкент. 78.

Жуманазарова Г.У. (2011). Ўзбек халқ достонлари матнининг лингвостатистик таҳлили. Тафаккур. Тошкент. 72.

Мирзаев Т. (2015). Достонлар гултожи // Ўзбек халқ ёдгорликлари. 1-жилд. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. Тошкент. 28.

Ўринбоева Д. (2009). Ўзбек халқ оғзаки достонлари тилининг лингвостатистик таҳлили. Самарқанд. 136.

O‘ZBEKISTON VA XALQARO MIQIYOSDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI TERMINOLOGIYASINING AHAMIYATI

Qo‘ldasheva Nazokat*

Annotatsiya

* Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti. goldashevanazokat@gmail.com

Xalqaro axborot texnologiyalari terminlari hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu soha har kuni rivojlanib, yangi texnologiyalar va tushunchalarni o'z ichiga olmoqdaki, ushbu terminlar axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni tushunish, ulardan foydalanish va ilg'or texnologiyalarni O'zbekistonga joriy qilish uchun muhim sanaladi. Xalqaro axborot texnologiyalari terminlari butun dunyoda bir xil ma'noga ega bo'lib, ularning yurtimizda ham qo'llanilishi hamkorlikni osonlashtiradi. Bu imkoniyatlar xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish yoki xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: *termin, tarmoq, xalqaro hamkorlik, masofaviy ta'lim platformasi, elektron ta'lim, mobil ilovalar, kiberxavfsizlik, veb-dasturchi*

SIGNIFICANCE OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY IN UZBEKISTAN AND INTERNATIONALLY

Annotation

Global information technology terms are now used by companies working in the field, which are developing every day and include new technologies and technologies, these terms are important for the development of information technologies, to carry out updates and to introduce advanced technologies to Uzbekistan is counted. International information technology terms have the same meaning all over the world, and the document facilitates cooperation in our country. This is the basis for cooperation with people or participation in entrepreneurship.

Key words: *Term, network, international cooperation, distance learning platform, e-learning, mobile applications, cyber security, web developer.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar to'g'risidagi ko'plab ma'ruzalar, nutqlarda raqamli iqtisodiyotga o'tishining ahamiyati va bu borada ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritilib, jumladan, **2020-yil - Raqamli iqtisodiyot va raqamli infratuzilma to'g'risidagi majlis nutqida: "Raqamli O'zbekiston – 2030"** dasturi qabul qilinganligini e'lon qildi hamda 2021-yil- **Yoshlar forumida:** Yoshlar uchun raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim ekanligi haqida gapirib; "Yoshlarimizni raqamli texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish va ularga zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish - bu kelajagimiz uchun eng muhim vazifalardan biridir. Raqamli savodxonlik nafaqat texnologiyalarni bilish, balki ulardan samarali foydalanish demakdir", - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekistonda yangi davr, uyg'onish davri — Uchinchi Renessans davri boshlandi. Bu jarayon hozirgi kunda yurtimizda tezlik bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari sifatida o'zining barcha sohalarida

aks etmoqda. Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lugʻaviy birliklarning paydo boʻlishi, maʼlum lugʻaviy birliklarning eskirib isteʼmoldan chiqishi, soʻzlarni yangi maʼnolar yoki ayrim maʼnolarni yoʻqotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan respublikamiz hayotining barcha sohalarida roʻy bergan katta oʻzgarishlar, rivojlangan juda koʻplab mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayishi juda qisqa vaqt ichida oʻzbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Yuzlab diniy-tasavvufiy atamalarni isteʼmolga kirib kelishi ayni shu ijobiy taʼsir natijasidir [Мадвалиев А. 2018, 3-13-b.].

Yurtimizda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish va takomillashtirish boʻyicha yigirmadan ortiq qaror hamda farmonlar eʼlon qilindi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining globallashuvi vujudga keldi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining globallashuvi natijasida elektron xizmatlar sonining oshib borishi, yangi axborot dasturlarining yaratilishi va ularni hayotimizda joriy qilinishi lugʻat boyligimizda yangi-yangi terminlarni keltirib chiqardi. Bundan tashqari axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida xalqaro miqiyosda raqobatlasha oladigan lugʻat tarkibimiz boyiy boshladi. Amalga oshirilayorgan barcha oʻzgarish va yangilanishlar avvalo tilda aks etar ekan, jarayonlar tilshunoslar oldiga ham qator vazifalarni qoʻydi. Yaʼni xalqaro hamkorlik va termonologiya masalasidir.

Quyida Oʻzbekiston va xalqaro miqiyosda bu ahamiyatning jihatlarini koʻrib chiqishimiz mumkin: **1. Standartlashuv.**

ISO (International Organization for Standardization) — xalqaro standartlar tashkiloti, axborot texnologiyalari sohasida ham keng qamrovli standartlar ishlab chiqadi.

ITU (International Telecommunication Union) — telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalari boʻyicha xalqaro tashkilot boʻlib, axborot texnologiyalari terminologiyasini standartlashtirish bilan shugʻullanadi.

Oʻzstandart agentligi — Oʻzbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari sohasidagi milliy standartlarni ishlab chiqish va joriy qilishga masʼul tashkilot.

2. Taʼlim va malaka oshirish.

Axborot texnologiyalari sohasidagi terminologiyaning umumiyligi Oʻzbekiston taʼlim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, xalqaro terminlarni toʻgʻri tushunish va qoʻllay olish yosh avlodning malakasini oshirishda, xorijiy resurslardan foydalanishda va ilmiy izlanishlarda katta rol oʻynaydi. Shu bilan birga, oʻzbek tilidagi terminologiyani rivojlantirish, terminlarni milliy tilga moslash orqali taʼlim sifatini oshiradi. Masalan, **Masofaviy taʼlim platformalari** — yoshlarning oʻzlariga qulay boʻlgan joydan bilim olish imkonini taʼminlaydi hamda taʼlim platforma ustoz

va yoshlar o'rtasida samarali aloqani ta'minlab, ma'ruza va topshiriqlarni masofaviy tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Elektron ta'lim — elektron ta'lim vositalari ko'plab o'quv materiallarni, interaktiv darslar va testlarni taqdim etib, o'qitish jarayonini individual tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Virtual va kengaytirilgan reallik — ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini ko'rgazmali va interaktiv qiladi. Masalan, yoshlar tarixiy joylarni virtual ravishda ziyorat qilishlari yoki ilmiy laboratoriya tajribalarini xavfsiz tarzda amalga oshirishlari mumkin.

Sun'iy intellekt va chat-botlar — yoshlarni individual tarzda kuzatib borib, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim yo'lini taqdim etadi. Chat-botlar yordamida yoshlar avtomatik ravishda javob olishi yoki mashg'ulotlarda qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi mumkin.

Video-konferensiya tizimlari — ushbu tizimlar ustoz va yoshlar orasida jonli muloqot va mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, pandemiya davrida keng qo'llanilganligini aytib o'tishimiz mumkin.

Mobil ilovalari — mobil ilovalar yordamida yoshlar har qanday vaqtda va joyda bilim olishlari mumkin. Bu ilovalar interaktiv darslar, testlar va mashg'ulotlarni taklif qiladi.

3. Xalqaro hamkorlik

Xalqaro axborot texnologiyalari terminologiyasidan foydalanish O'zbekistonning xalqaro bozorga chiqishga imkoniyatlar yaratadi. Masalan, xalqaro tenderlarda ishtirok etish, xorijiy mijozlar bilan ishlash va texnologiya bo'yicha hamkorlikni kengaytirish uchun to'g'ri va umumiy tushuniladigan terminlar muhim hisoblanadi.

Elektron savdo — xalqaro bozorlar o'rtasida elektron tijorat vositalari orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish jarayoni. Elektron savdo global iqtisodiy hamkorlikni kengaytiradi va xalqaro tijorat aloqalarini mustahkamlaydi.

Virtual hamkorlik — turli geografik joylarda joylashgan tashkilotlar va mutaxassislar o'rtasida onlayn platformalar orqali hamkorlik qilish. Bu hamkorlik video konferensiyalar orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali xalqaro hamkorlik — xalqaro tashkilotlar, davlatlar va jamoat birlashmalari o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zaro axborot almashinuvini amalga oshirish va hamkorlik qilish.

4. Innovatsiyalarni tez o'zlashtirish

Yangi texnologiyalar va axborot texnologiyalar yangiliklari xalqaro miqyosda tezlik bilan tarqalmoqda. Bu yangiliklarni yurtimizga tez va to'g'ri o'zlashtirish uchun to'g'ri terminologiyadan foydalanish zarurligini bildiradi. Axborot

texnologiyalar terminlari global bo'lgani uchun, ularni bilish yangi innovatsiyalarni va raqamli mahsulotlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Veb-sayt — internet tarmog'idagi bir elektron manzilda joylashgan turli ko'rinish va hajmdagi hujjatlar majmuyi.

Veb-dasturchi — internet tarmoqlari uchun maxsus dasturlar yaratuvchi mutaxassis.

Vebinar, veb-seminar — internet tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalangan holda o'tkaziladigan seminar, onlayn seminar.

Veb-sahifa — elektron resurs ko'rinishida tayyorlanga hujjat, veb-sayt sahifalaridan biri.

5. Madaniy o'zaro ta'sir

Texnologiyalar madaniy o'zaro ta'sirlarni kuchaytiradi. Xalqaro terminlarni o'zlashtirish madaniy integratsiyaga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, o'zbek axborot texnologiyalar terminologiyasini rivojlantirish, milliy madaniyatni saqlash va boyitish imkonini beradi.

Kiberxavfsizlik — raqamli ma'lumotlarni xalqaro miqyosda himoya qilish. Kiberxavfsizlik xalqaro axborot tizimlarida madaniy, tijorat va davlat axborotlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Xalqaro multimedia kommunikatsiyasi — xalqaro madaniy almashinuv va hamkorlikni rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Bu video, ovoz, animatsiya va matnli materiallardan foydalanib, xalqaro miqyosda axborot almashishni ta'minlaydi.

Xalqaro axborot xavfsizligi — xalqaro maydonda axborot almashish jarayonlarini himoya qilish. Bu termin davlatlar o'rtasida ma'lumotlar oqimining xavfsizligini ta'minlash, maxfiy axborotni himoya qilish va kiber tahdidlardan saqlanishni o'z ichiga oladi.

Madaniy merosning raqamli saqlanishi — madaniy meros obyektlarini raqamli shaklga keltirish va ularni saqlash. Ushbu texnologiyalar yordamida tarixiy hujjatlar, san'at asarlari va madaniy an'analarni kelajak avlodlar uchun saqlash imkoniyati yaratiladi.

Global bilim bazasi — jahon miqyosida mavjud bo'lgan ilmiy, madaniy va texnik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan onlayn resurslar to'plami. Bu termin xalqaro miqyosdagi axborotga erkin kirish va bilim almashinuvini ifodalaydi.

O'zbekiston va xalqaro hamkorlik so'nggi yillarda mamlakatning ichki va tashqi siyosatida eng muhim yo'nalishlardan biriga aylanganki, olib borilayotgan iqtisodiy, madaniy, tashqi aloqalar, tadbirkorlik, ta'lim, energetika va transport, qishloq xo'jaligi kabi sohalardagi islohotlar xalqaro hamkorlikni kengaytirishga katta hissa qo'shmoqda. **Investitsiyalarni jalb qilish orqali** Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya bilan xalqaro

hamkorlikni kengaytirdi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda yirik loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. Sohalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani, buning natijasida terminologik tizimning ham boyib borayotgani sir emas. O'zbek tilida axborot texnologiyalari terminlari milliy madaniyatga mos ravishda rivojlanishi kerak, ammo xalqaro atamalar bilan hamohang bo'lishi ham muhimdir. Shu orqali texnologik jarayonlar va innovatsiyalarni tezroq va samaraliroq joriy qilishga erishiladi.

2023-yil — Innovatsiyalar va texnologiyalar forumida: Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jarayonini jadallashtirish va innovatsiyalarni keng miqyosda qo'llash haqida so'zlabi: "Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar – bu bizning iqtisodiy o'sishimiz va xalqimiz farovonligini oshirishning kalitidir. Bu yo'lda biz xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy imkoniyatlarni to'liq safarbar qilishimiz lozim"— deya ta'kidlagan.

Adabiyotlar

O'zbek tilining izohli lug'ati. (2022). 5-6-jildlar. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati. (2023). "Kafolat print company" nashriyoti.

Madvaliyev A. (2017). O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Davlat ilmiy nashriyoti.

Мадвалиев А. (2018). Ўзбек лексикографиясининг мустақиллик даври тараққиёти //Ўзбек тили ва адабиёти 5-son, 3-13.

Dadaboyev H. (2019). O'zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent.

Internet saytlari: wikipedia.uz tsuull.uz ziyouz.com fayllar.org <https://portal.guldu.uz>

ZAMONAVIY YO'NALISH – PSIXOLINGVISTIKA MODERN DIRECTION– PSYCHOLINGUISTICS

Gulmira Komilova *

Annotatsiya

Ushbu maqolada psixolingvistikaning vujudga kelishi, inson ruhiyati va nutqi, nutqiy jarayonlarda tilning o'рни yoki til hodisalari yuzaga kelishida psixologik

* Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti. goldashevanazokat@gmail.com

omillar va o‘zaro bog‘liqligi, Qo‘chqor Norqobil drammarida kuzatiladigan psixolingvistik holat va misollar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, nutq, til, nutq strukturasi, til hodisalari.*

MODERN DIRECTION – PSYCHOLINGUISTICS MODERN DIRECTION – PSYCHOLINGUISTICS

Abstract

This article talks about the emergence of psycholinguistics, the human psyche and speech, the role of language in speech processes or psychological factors and their interrelationships in the occurrence of language phenomena, the psycholinguistic situation and examples observed in Kochkor Norqabil's drama.

Keys word: *psycholinguistics, speech, language, speech structure, language phenomena.*

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan bo‘lgan psixolingvistika va uning o‘rganish obyekti, muammo va yechimlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda qator ilmiy ishlar ham amalga oshirilayotgani, tilshunoslikdagi yutuqlardan hisoblanadi.

Psixolingvistikaning psixologik va lingvistik manbalari, dastlabki psixolingvistik g‘oyalar Vilgelm fon Gumboldtning antinomiyasida va “yosh grammatikachilar”ning individual psixologiya nazariyasida shakllangan edi. Jumladan, nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini chambarchas bog‘lashga xizmat qilishi haqidagi g‘oya Gumboldtga tegishlidir. V. fon Gumboldtning talqinicha, tillar xalqlar va alohida shaxslarning ijod mahsuli, chunki til nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladi. U til va uning sohibi bo‘lgan jamoa munosabatini bilish zarurligini ta’kidlaydi. Zero, til tizimidagi umumiylik va xususiylik belgilari aynan jamoa va shaxs munosabatlariga borib taqaladi. Bu munosabatlar asosida, o‘z navbatida, til tizimining ijtimoiy va individual xususiyatlari qarama-qarshiligi (antinomiyasi) shakllanadi. Til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligini V. fon Gumboldt ular bajaradigan vazifalar hamohangligida ko‘radi. Binobarin, til ham xuddi tafakkur singari ijodiy jarayondir. V. fon Gumboldtning fikricha, til paydo bo‘lishining eng birinchi sababi insonning ichki ehtiyoji, ya’ni olam va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishishidir. V. fon Gumboldtning tilning ijodkorona faoliyati, o‘zgaruvchanlik tabiati kabi xususiyatlari haqidagi fikrlari nutqiy faoliyat nazariyasi yoki psixolingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari uchun tayanch nuqta vazifasini o‘tadi. V. fon Gumboldt tilni “tashqi dunyo hodisalari va inson botiniy dunyosi” oralig‘idagi dunyo sifatida ta’riflagan edi. Faoliyatning til dunyosiga ko‘chishi haqidagi g‘oya Gumboldtning muhim

kashfiyotlaridan biridir. [Фон Гумбольдт В., 1984. 82-b.]. Ushbu g'oya ko'p jihatdan mashhur psixolingvistlar L.S.Vigotskiy va A.R.Luriyalarning g'oyalari uchun asos bo'ldi. Haqiqatdan ham, Gumboldt aytganidek, nutqiy faoliyat negizida "lisoniy qobiliyat" yotadi. V. fon Gumboldt individual nutqiy harakatlar vositasida bajariladigan lisoniy ijod faoliyatining uzluksizligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Uning ta'kidicha, til mavjudligining shakli taraqqiyotdir va "tilga qandaydir o'lik mahsulot sifatida emas, balki ijodiy jarayon holida qarash lozim", u – "to'xtovsiz faoliyatdir" Tildagi o'zgarishlar sabablarini jamiyatdagi o'zgarishlardan emas, balki inson ruhiyatidagi o'zgarishlardan deb bilgan olimlar haqli edilar. Chunki inson ruhiyatida kechayotgan jarayonlar oqibatida nutq shakllanadi va til hodisalari yuzaga keladi. Ruhiyat ta'sirida nutq o'zgaradi, tabiiyki bu holat, til bilan bevosita bog'liq sanaladi. Badiiy asarlardagi qahramonlar nutqida bu kabi holatlarni kuzatish ancha qulay kechadi. Chunki obrazlarda psixolingvistik sharoit yuzaga keladi. Qahramonlar psixologiyasi esa hayotlari, tarbiyasi, muhit va dunyoqarash bilan bog'liqdir. Misol qilib Qo'chqor Norqobilning ba'zi drammlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, "Baxtning bozori bormi" drammasida, ishxonada boshliq o'zgargani va u, hisobchilarni imtihon qilishini eshitgan ayollar nutqida: "...At.At. At. Attestatsiya!" so'zi qo'llanishi, ya'ni ruhiyatda hayajon, qo'rquv kuzatilganda, o'z-o'zidan so'zlar uzilib, bo'g'in shaklida talaffuz qilinishi, tabiiyki, psixologiyaning lingvistika bilan tutash o'rnini belgilaydi, nazarimizda. Shunday vaziyatlarda til strukturasi ham inversiya hodisalari kuzatiladi. Inson, shaxs nutqida nutq birliklari qanchalik individual bo'lsa har payt bir guruh insonlar bir paytda eshitgan so'zlari, har bir insonning psixikasida har xil jarayonni kechirishi mumkin va nutqida bir xillik emas, balki, har xillik kuzatiladi. Ba'zan esa bu holat bir xillikni yuzaga keltirishi ham mumkin. Chunki, qo'ruv hissi ham har bir shaxsda har xil psixik holatga kirib nutqida har xil lingvopsixologik ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

"Zamon avloniysi" drammasida, qizining farzandini imtihondan yiqilgani uchun o'z maktabiga qabul qilmayotgan maktab direktori xotiniga : *"Bilasanmi, bilim va maktab, xalqning kelajagi degan tushunchalar farzand, nabira degan tushunchalardan ham baland turadi. Halollik va adolatdan o'z bolangga nisbatan ko'rsatayotgan mehr-muhabbating ustun kelsa, ko'p nohaqliklarga qo'l urishga majbur bo'lasan. Adolat va haqiqatdan bolangni baland qo'ysang, adolat va haqiqat haqida gapirishning hojati qolmaydi. Munofiqlar dunyosidan esa bizni bilim va maktab asrab qoladi"*. Qahramon ruhiyatida haqiqatparvar inson shaxsiyati borligi uchun ham adolat, insonni yorug'likka olib chiquvchi kuch sifatida aynan shu leksemaga katta e'tibor qaratgani kuzatiladi.

Bu kabi misollarni ko'p keltirishimiz mumkin. Asosiy masala til vositalari, grammatik qurilish, nutqiy jarayon, nutq strukturasi ham bevosita psixolingvistik jarayonga aylanadi va o'rganish asnosida bir-birini takrorlamas lingvopsixologik

o'zgarishlar kuzatiladi. Boduen de Kurtene shuning uchun ham tilda individuallik bilan umumiylikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o'zida umumiy umuminsoniylik mavjud ekanligini bayon qiladi. Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individ nutqiga asosiy e'tiborni qaratdi. Boduen de Kurtene ko'ra, "inson tilining mohiyati faqat psixikdir. Tilning mavjudligi va uning rivojlanishi sof psixik qonuniyatlar bilan bog'langan. Inson nutqida yoki tilida birorta ham psixik bo'lmagan hodisa mavjud emas va mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Hozirgi zamon psixolingvistikasi uchun Boduen de Kurtene qarashlarining eng muhim tomoni uning "nutq faoliyatidagi aniq qiymat odamdan ajratilgan til emas, balki odamdin" degan fikri edi. [Глухов В.П., 2008, 56-с.]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til, tafakkur, ruhiyat, jamiyat, atrof-muhit, til va nutq, psixolingvistikaning ajralmas bo'laklaridir. Bu tushunchalarni bir-biridan ayro anglab ham tadqiq etib ham bo'lmaydi. Til bor ekan, har qanday psixologik jarayonlarni tahlil qilish imkoni tug'iladi. Bu esa o'z navbatida lingvopsixologiyaga ehtiyojni oshiradi. Til nutqda namoyon bo'ladi, psixologik holatlar esa, bir paytni o'zida ham tilga, ham nutqqa ta'sir ko'rsatadi va namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

Фон Гумбольдт В. (1984). Избранные труды по языкознанию. 82.

Глухов В.П. (2008). Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. Астрель.

Глухов В.П. (2008). Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. Астрель. 15.

Новиков А.И. (2003). Текст как объект исследования лингвopsихологии // Методология современной психолингвистики: Сб. статей. Барнаул: Изд-во Алт. ун-та. Москва.

TIL – MUQADDAS QADRIYAT

Shokir Sattorov*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tili hodisalari, tilning aloqa vositasi ekanligi, uning estetik ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari xalqaro miqyosda ona til bayrami kuni hamda O'zbek tili bayrami kunlarini nishonlashi. Til

* Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi shokirsattorov@gmail.com

taraqqiyoti juda murakkab jarayon ekanligi, muayyan xalq tili shakllanishi bilan adabiy til mavqeiga ega bo'la olmasligi xususida so'z boriladi. Adabiy til tilning eng yuqori – oliy shakli ekanligi, tilning nutqiy holati adabiy tilga nisbatan baholanishi. Tilning davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish masalasi uni qo'llanish doirasining kengaytirish, undan foydalanishda til me'yorlariga amal qilinganligi, shu tilda xalqaro miqyoslarda ahamiyatga ega bo'lgan teran ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratilganligi bilan belgilanishi ko'rsatilgan. Dunyodagi biror narsa tildek hammaga tegishli, hammaga birdek taalluqli emasli, tilga befarq bo'lmaslik burch hamda uning sofligi, nufuzi uchun kurashish yuksak e'tiqodning belgisi ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tilning taqdiri, funksiyali hodisa, Umumjahon deklaratsiya, axloqiy qadriyat, Xalqaro ona tili kuni, Muhokamat ul-lug'atayn", xalqaro nufuzi, Hoja Samandar Termiziy, tasviriy ifodalarga boy, O'zbek tilining izohli lug'ati.

LANGUAGE IS A SACRED VALUE

Abstract

This article provides valuable information about the phenomena of the Uzbek language, the fact that the language is a means of communication, and its aesthetic effect. In addition, the celebration of the Mother Language Day and the Uzbek Language Day at the international level. It is said that the development of a language is a very complex process, and that it cannot acquire the status of a literary language with the formation of a specific national language. The fact that the literary language is the highest form of the language, the speech status of the language is evaluated in relation to the literary language. It is shown that the issue of increasing the prestige and position of the language as a state language is determined by the expansion of the scope of its use, the observance of language norms in its use, the conducting of deep scientific researches of international significance in this language, and the creation of artistically excellent works. . It is said that something in the world, like a language, belongs to everyone, it does not apply to everyone equally, it is a duty not to be indifferent to the language, and it is a sign of high faith to fight for its purity and prestige.

Key words: *The fate of the language, functional phenomenon, Universal Declaration, moral value, International Mother Language Day, Muhokamat ul-lughatayn", international prestige, Hoja Samandar Termizi, rich in descriptive expressions, explanatory dictionary of the Uzbek language.*

Til har bir xalq, har bir millat uchun buyuk qadriyat, u insonga yaratgan tomonidan in'om etilgan xazinadir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas

bog'langan. Shunga ko'ra u kishilar o'rtasidagi muhim aloqa vositasidir. Til ko'p funksiyali hodisa. U aloqa vositasi bo'lishi bilan birgalikda insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy boyliklarni avlodan-avlodga yetkazuvchi o'rni bilan estetik ta'sir etuvchi vosita, muxtasar aytganda inson ma'naviy olamining muhim qismidir. 2001-yil YUNESKO "Madaniy xilma-xillik to'g'risidagi Umumjahon deklaratsiya"sini qabul qildi. Bu deklaratsiyasi tillarning har xilligini insoniyatning umumiy boyligi deb atadi va tilni insonning qadr-qimmatini bilan teng bo'lgan axloqiy qadriyat sifatida muhofaza qilish zarurligini e'tirof etdi. Buning boisi til el-yurtning dunyoqarashini, ma'naviy hayotining mazmunini, ong-u shuuridagi qadriyatlarining ifodachisi, shu ifodalarni avloddan-avlodga yetkazuvchi vositasidir. Tilsiz insoniyat tomonidan yaratiladigan ma'naviy boyliklarni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish mumkin emas. Bu tilning inson faoliyatining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro ona tili kuni ko'p tillilikni rag'batlantirish, turli tillarda yaratilgan madaniyatlarni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, har bir xalqni o'z ona tilida ta'lim olishi, davlat ishlarini o'z tilida yuritishi kabi maqsadlarga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Til o'ziga xos muayyan ichki xususiyatlar asosida shakllanib, rivojlanib boradi va shu til egasining barcha nutqiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hech qanday til shu tilda so'zlovchilarning o'z fikrini bayon etish ehtiyojlarini qondirmaslik holatida bo'lmaydi. Biroq ayrim tillarda ana shunday imkoniyatlar yuqori darajada bo'ladi va bunday tillar til vositalariga boy tillar hisoblanadi. O'zbek tili ana shunday til vositalariga boy til bo'lib, hazrat Alisher Navoiy bundan besh asr muqaddam "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilining naqadar cheksiz imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatib bergan.

Ma'lumki, tilning boyligini ko'rsatadigan jarayon bu nutq. Shunday ekan, inson o'zi foydalanayotgan tilning xususiyatlarini, nozik jihatlarini o'zlashtirishi undan muomala jarayonida maqsadga mos foydalanishi lozim bo'ladi. Zero, til bilish, unga hurmat e'tibor bilan qarash, odob doirasida va oqilona so'zlash inson madaniyatini, ma'naviyatini yuksakligini, komillikni namoyon etuvchi holatlaridan biridir.

Til kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolari tomonidan rivojlantirib boriladi. Tilni rivojlantirish, adabiy til normalarini belgilash, shu normalar asosida tilning qoidalarini yaratishni taqozo etadi. Til taraqqiyoti juda murakkab jarayon bo'lib, muayyan xalq tili shakllanishi bilan adabiy til mavqeiga ega bo'la olmaydi. Adabiy til tilning eng yuqori – oliy shakli bo'lib, tilning nutqiy holati adabiy tilga nisbatan baholanadi. So'zlarning nutqda qo'llanishi, so'z ifoda etayotgan ma'noning keng iste'molda mavjudligi, so'zlarning talaffuz me'yorlariga mosligi adabiy tilga nisbat berilgan holda izohlanadi.

Tilning davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish masalasi uni qo'llanish doirasining kengaytirish, undan foydalanishda til me'yorlariga amal qilinganligi, shu tilda xalqaro miqyoslarda ahamiyatga ega bo'lgan teran ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratilganligi bilan belgilanadi. Hozirgacha mamlakatimizda o'zbek tilida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, atoqli ijodkorlarimizning badiiy asarlari o'zbek tilining nihoyatda boy, ifoda xususiyati jihatidan keng til ekanligini tasdiqlaydi.

Tilning xalqaro maydondagi nufuzi muayyan tilning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va unga bo'lgan qiziqish bilan belgilanadi. Bugungi kunda ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'zbek tilining o'qtilishi, xorijiy olimlarning o'zbek adabiyoti, o'zbek tili bo'yicha tadqiqotlar olib borayotganligi o'zbek tilining xalqaro nufuzi yuqori ekanligidan dalolatdir.

Jamiyat, tabiatdagi barcha narsalar bog'liqligining o'ziga xos qonuniyatlari singari til taraqqiyotining ham o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonuniyatlar tilning tabiatidan kelib chiqadi va unda til materiallari mujassam bo'ladi. Til taraqqiyotida zo'rma-zo'rakilik bo'lmaydi, istagan kishi istagancha so'z hosil qilib, uni o'zi xohlagan ma'noda qo'llay olmaydi. Til tarixidan ma'lumki, muayyan davrlarda ma'lum muddat til va nutqda mavjud bo'lgan sun'iy lug'aviy vositalar tildan chiqib ketgan. Eng muhimi sun'iy vositalarning tildan chiqib ketishiga tilning o'zi, til qonuniyatlari zamin yaratib beradi. Buning boisi jamiyatidagi birorta narsa barcha jamiyat a'zolari uchun tildek bir xilda emas. Zero, olim ham, dehqon ham, katta-yu kichik – hamma bitta tilda bir xilda so'zlash imkoniyatiga ega. Shu bois tilni bir kishi emas, xalq yaratadi va xalqning hammasi uchun bir xilda xizmat qiladigan til ona tilidir. Tilni ona bilan tenglashtirishning ham ramziy ma'nolari bor. Til inson ongi shuuriga onaning so'zlari, ona allasi bilan singib boradi. Bola ilk so'zlarni onadan eshitadi, ana shu ona tilidan unga yuqqan til ona tilidir. O'zbeklarning o'z tiliga nisbatan ona tili degan nisbatni berishi ham, shu xalqning donoligi, madaniyat va ma'rifatda yuqori darajada turishidan dalolatdir. Tilni shu darajada qadrlab, uni ona tili deb ulug'lar ekanmiz, nutqda undan foydalanishda ham madaniylikni, ma'rifatni namoyon etish kerak bo'ladi. Ona tili har bir xalqning buyuk qadriyati, shu xalq turmush tarzining ma'naviyatini namoyon etuvchi vosita ekan, uning sofliqi, barqarorligi uchun kurashish xalqning ongli a'zolarining burchidir.

Qadim-qadimdan allomalarimiz kishilarning so'zlash tarziga alohida ahamiyat berib kelgan. Bilib gapirish, o'z o'rnida so'zlash – axloq-odobning namunasi, mantiqli va mazmunli gapirish – bilimdonlik, donolik belgisi deb hisoblangan. Buyuk alloma Hoja Samandar Termiziy "Andishasizlik bilan aytilgan so'z sinalmagan zaroltindir. Aytmoqchi bo'lgan so'zingni avval o'zing o'ylab mahak toshi (toza-notozalikni ajratuvchi tosh) imtihonidan o'tkazib, tayyor bo'lgach, xayolingga

nimaiki kelsa, zohir qil, yuzaga chiqar” – deganda tilning qudratli kuchga ega ekanligini nazarda tutgan bo‘lsa ajabmas.

Bugungi kunda dono allomalarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan til, so‘z, so‘zlashish madaniyati, so‘zlashish odobi haqidagi durdona fikrlar tilga katta e‘tibor qaratishimiz lozimligini, uni milliy boylik sifatida avaylab asrashimizni taqozo etadi.

O‘zbek tili har jihatdan mukammal va tasviriy ifodalarga boy til. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **bosmoq** so‘zining o‘n olti ma’noda, **ketmoq** so‘zining esa yigirmaga yaqin ma’noda qo‘llanilgani aks ettirilgan. So‘zning matnlarda bu darajada ko‘p ma’nolarni ifodalashi tilning mukammalligini belgilaydi. Darhaqiqat, bugunchi o‘zbek tilini fonetik, orfografik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham mukammallikka erishgan til deb bemalol ayta olamiz. O‘zbek tilining lug‘at tarkibini boy va xilma-xilligi, yangi lug‘aviy vositalarni adabiy tilga olib, kiritish uchun yetarli ichki manbaga ega ekanligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda Davlat tilining amaliy tadbiqiga hukumat tomonidan alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining

30 yilligini keng nishonlash arafasida “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli farmoni fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu farmonga ko‘ra keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ham ma’qullandi.

Ma’lumki, Mustaqil Hamdo‘stlik mamlakatlaridan birinchilardan bo‘lib, 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. 1990-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Davlat tili to‘g‘risi”dagi Qonunni amalga oshirish Davlat dasturi tasdiqlandi. Bu davlat tili maqomini ro‘yobga chiqarishdagi muhim ish edi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingan kun – bizda o‘zbek tili, ona tili kuni deb e‘lon qilindi. Oradan 9 yil o‘tib, 1999-yilning noyabr oyida BMT Bosh konferensiyasida YUNESKO tashkiloti tomonidan 21-fevral – “Xalqaro ona tili kuni” deb e‘lon qilingan. Mazkur sana 2001-yildan buyon xalqaro miqyosda, barcha xalqlar uchun keng nishonlanib kelinmoqda. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida ham har bir xalqning o‘z milliy tafakkuri, ma’naviyati, ruhiyatining o‘zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o‘z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o‘z Vatani va o‘z tiliga bo‘lgan muhabbati, unga bo‘lgan ehtiromi, qadrlash tuyg‘ulari yangilanadi.

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi o‘zbek tilining yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda shu tilda

gaplashuvchi xalqning madaniyati, urf-odatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar kuchaydi. O'zbek tili va adabiyoti masalalarini chet ellarda ham o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu faktlar jahon miqyosida ham o'zbek tilining o'z o'rnini borligini ko'rsatadi, Zero, A.Navoiy, Z.M.Bobur asarlari orqali bu til allaqachon olimlar e'tiborini jalb etgan edi.

Davlat tili haqidagi qonun o'zbek tilining qo'llanish doirasini yanada kengaytirdi, tilning barcha sathlari, barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratdi. Davlat tili haqidagi qonunning mohiyati haqida gapirganda, qonunda avvalo o'zbek tilining rivojlantirilishi, uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilinishi ta'kidlab qo'yildi (1-modda). Qonunning barcha moddalari o'zbek tilining qadr-qimmatini aloqa jarayonidagi o'rnini tiklashga qaratildi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili bo'lganligi uchun bu tilning ravnaqi, qo'llanishi va muhofazasini ta'minlash O'zbekiston hukumatiga yuklatildi. Respublika miqyosidagi eng yirik anjumanlar, yig'ilishlar davlat tilida olib boriladigan bo'ldi. O'zbekiston hududida yashab turgan barcha millat va elatlar tillarining erkin amal qilishni ta'minlanishi, ushbu tillarning ravnaq topishi, ularga hurmat bilan munosabatda bo'linishi uchun tegishli sharoitlar yaratilishi belgilab qo'yildi.

Respublika hududida davlat tilida, shuningdek rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida hamda respublikada aholi zich yashaydigan boshqa millatlarning tillarida umumiy o'rta ma'lumot olishni ta'minlash belgilab qo'yildi. Bular o'zbek tilining mavqeyini oshishini, hayotning barcha jabhalarida undan keng foydalanish imkoniyatini yaratib berdi.

Tilning normativ vositalarining tanlanishi, me'yorlashtirish, zamonaviy talablarga mos keladigan darslik, qo'llanmalar yaratish, davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni o'rganish va uni tuzatish ustida ish olib borish tilshunoslar zimmasidagi vazifalar bo'lsa, tilning sofliqi, uning madaniyligi, nufuzi uchun kurashish barcha til egalarining vazifasidir. Chunki til xalqniki, u tilshunos, olim, yozuvchi, talaba yoki yakka shaxsniki emas, hammaniki bo'lganligi uchun uning nufuzi uchun kurashish ham jamoa ishidir. Dunyodagi biror narsa tildek hammaga tegishli, hammaga birdek taalluqli emas. Shunday ekan, tilga befarq bo'lmaslik burch va uning sofliqi, nufuzi uchun kurashish yuksak e'tiqodning belgisidir.

Xulosa shuki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Uni barcha jabhalarda rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratildi. Til ta'limi, til siyosatini yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bugunda shu tilning barqarorligini ta'minlash, uning sofliqi uchun kurashish barcha madaniyatli kishilarning burchidir.

Adabiyotlar

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli farmoni.

Абдурахмонов Ғ, Рустамов А. (1992). Қадимги туркий тил. Ўқитувчи. 168.

Сагдуллаев А. (1996). Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқитувчи. 112.

Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий. (1999). Сунани Термизий. VI жилдлик. I жилд. Тарж. М.Кенжабек. Адолат. 688.

Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. (1989). Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. Ўзбек тили ва адабиёти журнали.

Бозоров О. (1997). Ўзбек тилида даражаланиш. 159.

TILSHUNOSLIKDA POLIFUNKSIONALLIKNING O'RGANILISHI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Gulmira Xudoyberdiyeva*

Annotatsiya

*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti. gulmirakhon91@gmail.com.

Ushbu tezisda polifunksionallik hodisasining lingvistik xususiyatlari va unga tilshunoslarning bildirgan fikrlari tahlil qilingan. Ma'lumki, til birliklarining polifunksionallik xususiyati tilshunoslarga avvaldan ma'lum bo'lib kelgan. Lekin turli tilshunoslik paradigmalarida bu hodisaga lingvistik yondashuv turli xil bo'lgan. An'anaviy tilshunoslikda polifunksionallikning til birliklaridagi muhim o'rni doim tan olingan. Sistem-strukturalistik yo'nalishda esa so'zning noaniqligi asabiylashtiruvchi holat sifatida e'tiborga olinmaydi. Shu sababli tilda har doim mavjud bo'lgan polifunksionallik tilshunoslar orasida noaniq fikrlarni keltirib chiqargan. Tezis ushbu xilma xil nazariyalar tahliliga qaratildi.

Kalit so'zlar: *polifunksionallik, konversiya, transpozitsiya, leksema, polisemiya, funksiya, terminologiya, grammatika, morfemika, leksema.*

THE STUDY AND LINGUISTIC FEATURES OF POLYFUNCTIONALISM IN LINGUISTICS

Annotation

This thesis analyzes the linguistic features of the phenomenon of polyfunctionality and the opinions expressed by linguists to it. It is known that the feature of polyfunctionality of language units has been known to linguists since the beginning. But in different linguistic paradigms, the linguistic approach to this phenomenon is different. In traditional linguistics, the important role of polyfunctionalism in linguistic units has always been recognized. In the system-structuralist direction, however, the ambiguity of the word is ignored as an irritating condition. Because of this, the always present polyfunctionalism in the language has produced ambiguous opinions among linguists. The thesis focused on the analysis of these diverse theories.

Key words: *polyfunctionality, conversion, transposition, lexeme, polysemy, function, terminology, grammar, morphemic, lexeme.*

Polifunksionallik – (grekcha polu *ko'p* va lot. *functio* ishlash, faoliyat) so'zlaridan olingan bo'lib ko'p vazifalilik yoki bir nechta funksiyalarning kombinatsiyasi deb tarjima qilish mumkin. Bu so'z termin sifatida matematika, fizika texnika, biologiya kabi ko'plab fan sohalarida faol qo'llanilishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Tilshunoslikda esa polifunksionallik til tizimidagi turli darajadagi birliklarning xususiyati sifatida e'tirof e'tiladi.

Polifunksionallik hodisasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarda ham olimlarning fikrlarida turfa xillikni uchratamiz.

O'zbek tilshunosligida ushbu masalaga e'tibor qaratilgan. Misol sifatida Sh. Gulyamovanning doktorlik dissertatsiyasini misol qilish mumkin. Mazkur

tadqiqotlarda polifunksionallik asosan leksik sathda o'rganilgan va polifunksionallikka polisemiya va omonimiya hodisalarining o'rtasida turgan hodisa[Gulyamova, 2021, 153-b.] deb ta'kidlaydi.

T.Valiyevning "O'zbek tili yo'lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini" nomli dissertatsiyasida polifunksionallik hodisasiga to'xtalgan. Olim polifunksionallikni polisemiya dan ancha uzoqlashgan, ammo omonimlikka hali yetib bormagan nutq hodisasi [Valiyev, 2017, 78-b.] deb ta'rif bergan.

M.Mirtojiyev "O'zbek tili semasiologiyasi" kitobida polifunksionallik va polisemiya o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratadi: Polisemiya ma'lum bir so'zning bir necha leksik ma'noga ega bo'lishi deb qaralsa, so'zlar polifunksionalligining yuzaga kelishi esa konversiya bilan bog'liq"[Reformatskiy, 1967, 64-b.]. Konversiyaga ko'ra ayrim so'z leksik ma'nosi ikkinchi turkum vazifasini ham olib qayd etilishi, o'sha so'zning polifunksional holda berilishi bo'ladi [Mirtojiyev, 2010, 103-b.] deb hisoblaydi.

Professor A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da konversiyaga quyidagicha ta'rif bergan: "Konversiya – so'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi [Hojiyev, 2002, 49-b.]. Konversiyaga ko'ra ayrim so'z leksik ma'nosi ikkinchi turkum vazifasini ham olib, qayd etilishi o'sha so'zning polifunksional holda berilishi bo'ladi. Lekin tilshunoslikda polifunksionallik va konversiya hodisalari aynan bir tushuncha sifatida qarash ham notog'ri.

Tilshunos Turniyozov polifunksionallik hodisasini funksional transpozitsiya bilan yondosh hodisa deb hisoblaydi. Olimning fikrlariga asosan, har bir so'z o'z funksiyasiga ko'ra biror bir morfologik kategoriyaga mansub bo'ladi. Sintagmatik qator doirasida so'zlar bir morfologik kategoriyadan ikkinchi morfologik kategoriyaga ko'chirilishi mumkinligini e'tirof etadi[Turniyozov, 2003, 56-b.].

R.Sayfullayeva transpozitsiya ham, konversiya ham nutqiy hodisa bo'lib, ularni leksikalizatsiya va uning yuqorida ko'rsatilgan ko'rinishlari bilan aralashtirish mumkin emas [Sayfullayeva, 2010, 136-b.] deb hisoblaydi.

Tilshunoslikda polifunksionallik til birligining bir nechta vazifalarni yoki ma'nolarni bajarish qobiliyatini bildiradi. Umuman olganda u barcha til sathlarida namoyon bo'lishi mumkin: Biz ulardan ba'zilarini ko'rib o'tishga harakat qilamiz

Leksemalarda polifunksionallik: Bir so'z turli so'z turkumlarida o'z ma'nosida qo'llanishi mumkin. So'zlarning polifunksionalligi sintaktik qurshovda aniqroq ko'rinadi. Masalan, yaxshi so'zi sintaktik qurshovda sifat yoki ravish so'z turkumidagi ma'nolarini anglatishi mumkin. *Yaxshi qiz* (sifat)- *yaxshi o'qimoq* (ravish) kabi.

Fikrimizni dallillash maqsadida keltirishga harakat qilamiz:

Kasalini yashirsang isitmasi oshkor qiladi;

Shifoxonaga og‘ir kasal insonni olib kelishdi.

Birinchi gapda *kasal* so‘zi ot so‘z turkumida ikkinchi gapda sifat so‘z turkumida ekanligi anglashilmoqda.

Shubhasiz, u bu ishni uddalaydi-modal so‘z

Uning bu ishni uddalashi *shubhasiz*.- sifat

Misollardan ko‘rinib turibdiki, so‘z lokalizatsiyasi polifunksionallikning yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynaydi.

Grammatik birliklar ham polifunksional bo‘lishi mumkin. Xususan, yordamchi so‘zlar orasida polifunksionallik keng tarqalgan. Ayniqsa, o‘zbek tilida bu hodisa bog‘lovchi va yuklamalarda ko‘plab uchraydi. Masalan, *bilan* (*ko‘makchi* va *bog‘lovchi*), *-u*, *-yu*, *-da* (*yuklama* va *bog‘lovchi*) kabi.

Ona bilan bola gul bilan lola- bog‘lovchi

Qunt bilan o‘qidi, mahorat bilan chizdi- ko‘makchi

Rus tilshunos olimasi M.I.Cheremisina “Ma’lum bir holatda bog‘lovchi yuklamaga va aksincha, muayyan pozitsiyalarda yuklama bog‘lovchi vazifasini oladi”[Cheremisina, 1976, 270-b.].

Morfemika sohasida ham bu hodisaning mavjudligi qayd etilgan. Bir morfem (so‘z qismi) bir nechta grammatik vazifalarni ifodalashi mumkin. Masalan, “-s” qo‘shimchasi ingliz tilida ko‘plik va egalik vazifalarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Xuddi shunday, o‘zbek tilida ham *-gan* morfemasi bir paradigmada sifatdosh shakli bo‘lishi bilan bir qatorda kesimni shakllantirish xususiyatiga egaligi bilan polifunksionallik xususiyatini namoyon qiladi.

Masalan: *O‘qigan bola darsda yaxshi javob berdi.* -sifatdosh shakli

U shaharga bolasini izlab kelgan.- kesimni shakllantiruvchi zamon shakli

Tilshunos Sh.Rahmatullayev qo‘shimchalar o‘rtasidagi polifunksionallik masalasida shunday fikr bildirgan: “Ko‘pma’nolilik hodisasini ko‘pvazifalilik hodidasidan farqlash kerak. Masalan, tushum kelishigi – bir vazifali; lekin bosh kelishik – ko‘p vazifali; bosh kelishikdagi leksema: 1) ega vazifasida, 2) izohlovchi vazifasida va boshqa vazifalarda keladi. Shu asosda bosh kelishikni ko‘p ma’noli deb bo‘lmaydi.”[Rahmatullayev, 2006, 36-b.] Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, morfemik polifunksionallikni sintaktik vazifa bajara olish imkoniyati jihatidan asoslab bergan.

Pragmatika sohasida ham polifunksionallik ko‘plab uchraydi: Til birliklarida nutqda foydalanishda bir so‘z yoki gap turli pragmatik funksiyalarni bajarishi mumkin. Masalan, “Ertaga soat 5 da uchrashamiz” gapi nafaqat uchrashuv vaqtini belgilash, balki pragmatik vaziyatga bog‘liq holda uchrashuvga chaqirish yoki tasdiqlash ma’nolarini ham ifodalaydi. Bunda intonatsiya muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, polifunksionallik til birliklarining birlamchi vazifasiga qo‘shimcha ravishda yana boshqa funksiyaning ham namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq hodisadir. Polifunksionallik haqidagi olimlarning fikri turlicha ekan, mazkur hodisa tilshunoslik sohasida o‘z yechimini kutib turibdi.

Adabiyotlar

Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Universitet.

Mirtojiyev M. (2010). O‘zbek tili semasiologiyasi. Mumtoz so‘z.

Sayfullayeva R. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

Валиев Т. (2017). Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол.фан.бўйича фал. доктори(PhD) дисс. автореф.

Гулямова Ш. (2021). Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. Филол.фан.доктори (DsC) дисс. автореф.

Реформатский, А.А. (1967). Введение в языковедение. Просвещение, 1967.

Турниёзов Н., Турниёзова К. (2003). Функционал синтаксисга кириш. Фан.

Ҳожиёв А. (2002). Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.

Черемисина М.И. (1976). Слалные конструкции русского языка.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

Sayyora Otanazarova *

Annotatsiya

Maqolada XX asr o‘zbek nazariy tilshunosligi taraqqiyotini A.G‘ulomov ilmiy qarashlarisiz tasavvur etib bo‘lmasligi bayon qilingan. XX asrning 40-80-yillar

* NamDU filologiya fakulteti magistranti. Email: sayyoramapiraliyeva@gmail.uz

o‘zbek milliy tilshunosligining ana shu vakili ilmiy merosi haqida imkon doirasida to‘liq ma‘lumot berishga, jiddiy ilmiy qarashlariga, ularga nisbatan bildirilgan mulohazalarga munosabat bildirishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik tahlil, tasnif usuli, sinxron-formal tasnif, morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika.*

THEORETICAL ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS

Abstract

The article is about the development of twentieth-century Uzbek theoretical linguistics is inconceivable without the scientific views of A. G‘ulomov. In the 40s and 80s of the twentieth century, efforts were made to provide as much information as about the current state of Uzbek national linguistics and to take their serious scientific views and opinions.

Key words: *linguistic analysis, classification, synchronous-formal classification, morphology, syntax, lexicon, stylistics.*

Milliy taraqqiyot milliy til mavqei va nufuzi yuksalishida yaqqol ko‘zga ashlanadi. “O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi-milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019). Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar o‘zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko‘tarish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrabavaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir” (Resolution of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2019). Shu ma‘noda o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo‘nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining ilk sahifasi sifatida tarixda qolgan XX asr boshlaridagi tilshunoslik merosini tadqiq etish milliy manfaatlarimizni ta‘minlash, ma‘naviy qadriyatlarimizni tiklash ishlarida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida bu davr tili va tilshunosligi keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Turkogogiyada, jumladan, o‘zbek tilshunosligining rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlarmiz, tilning barcha qirralarini ochib bergan, jahon tilshunosligi qatoriga qo‘shishga muyassar bo‘lgan. Biroq tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullangan jonkuyarlarning ilmiy asarlarini o‘rganish masalasi tizimli yoritiladi.

XX asrning boshlarida shakllana boshlagan o'zbek nazariy tilshunosligi bugungi kunga kelib, zamonaviy tilshunoslikning tarkibiy qismiga aylandi. Umumturkiy tilshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy manba bo'lgan M.Qoshg'ariy, A.Navoiy, Zamaxshariy, Abu Xayyon kabi zabardast olimlar ilmiy ishlarini eslamaslik mumkin emas. Zamonaviy o'zbek tilshunosligi haqida fikr bildirilganda esa Fitrat, Elbek, G'ozi Olim Yunusov, Ashurali Zohiriy, Abdulla Avloniy, Shorasul Zunnun kabi til ilmining nazariy rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shgan ko'plab o'zbek fidoyi olimlar bilan bir qatorda E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, N.Kononov, V.V.Reshetov, S.N.Ivanov kabi rus olimlarining nomlarini ham tilga olib o'tish zarur. XX asrning 20-30-yillarida ijod qilgan o'zbek adiblarining badiiy, ilmiy va publitsistik asarlarini tadqiq qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bunga M.Qurbonova, B.To'ychiboev, M.Yo'ldoshev, Yo.Sayidov, F.Bobojonov, D.Ne'matova, T.Tog'aeu, Z.Chorieva, L.Jalolova va boshqalarning ishlarini ko'rsatish mumkin (Toychiboyev, 2011, 39- bet). Mustaqillik yillariga nazar soladigan bo'lsak, o'zbek tilshunosligiga hissa qo'shgan olimlarda ilmiy asarlari o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ayrim ishlar qilingan.

Tilshunosligimizning ilmiy-nazariy tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar XX asrning 30-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlandi. Aynan shu davrda o'zbek tilshunosligida rus olimlari A.N.Kononov, S.E.Malov K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.Reshetov kabi yirik tilshunoslar bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida o'z maktabini yaratgan olim A.G'ulomov iste'dodli tilshunoslar F.Abdullaev, T.Ibrohimov, A.Ibrohimov, S.Usmonov, F.Kamolov, T.Salimov, U.Tursunov, E.Fozilovlar qatorida edi. Olim o'zbek tili grammatik qurilishi tizimini yaratish maqsadida jahon lingvistik tahlil va tasnif usulini asosiy mezon sifatida belgilab, o'z qarashlarini sinxron-formal tasnif metodi vositasida yaratdi. Olimning ishlariga sinchkovlik bilan e'tibor qaratilsa, o'zbek ilmiy tilshunosligi taraqqiyotida ham sistem struktur, ham substantsional tilshunoslikning haqiqiy asoschilaridan ekanligiga amin bo'lamiz. Sinxron-formal tasnif metodi XX asrning 40-80 yillariga qadar o'zbek tilshunosligida yetakchilik qilganligiga qaramay, 70-yillardan boshlab Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, O.Usmonov, A.Rustamov, M.Mirzaev, F.Ubayeva, A.Xojiev, M.Mirtojiev, I.Qo'chqortoev kabi va ulardan keying bir qator etakchi olimlar ishlarida kuzatildi.

O'zbek tilshunosligidagi yechimini topmayotgan muammolar xususida olimlarimiz tunu kun izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, tilshunos olimlaridan biri B.To'ychiboev o'zining «O'zbek nazariy tilshunosligi asoschisi yohud «Ayyubona tadqiq» xususida so'z» maqolasida «...barcha fanlar kabi tilshunoslikka ham har bir davr o'z talabini qo'ygan. Shuning uchun tilshunoslik tarixini o'z tarixi bilan bog'lab kuzatish maqsadga muvofiqdir» - deb aytib o'tgan. Masalaga shu nuqtai nazar bilan yondashadigan bo'lsak, o'tgan asrning qirqinchi yillaridan boshlab

o'zbek tilini nazariy jihatdan o'rganish davr talabiga aylandi. O'zbek tili ilmiy grammatikasining nazariy asoslarini yaratish uchun esa Sharq va G'arb filologiyasining ilg'or g'oyalari bilan qurollangan, mumtoz til, xalq tili, xalq og'zaki ijodi namunalari tili va adabiy tilning ichki imkoniyatlarini, shuningdek, taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur his qiluvchi hamda yaxshi biluvchi zabardast olim zarur edi», - deyar ekan, to'la haqli edi (Toychiyev, 2011, 39-bet). «40-yillardan o'zbek tili ilmiy jihatdan atroflicha, chuqur o'rganila boshlandi. Tilshunoslikning tildagi har bir sath birliklarini o'rganishga qaratilgan fonetika, morfemika, so'z yasalishi, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi bo'limlari shakllana boshladi. 1940-yilda bu davrni A.G'ulom o'zining «O'zbek tilida aniqlovchilar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan boshlab berdi», -degan fikri ayni haqiqatdir. Olimning A.G'ulomov haqida aytgan bu fikrlari ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. XX asrning 40-80-yillari o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti haqidagi ishlarda, aynan shu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligini ta'kidlovchi dalillar bilan to'qnashganmiz, haqiqatan ham, A.G'ulomov o'zbek nazariy tilshunosligining poydevorini qo'ygan, favqulodda iste'dodga ega bo'lgan betakror tilshunos edi. O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanish davri haqida gap borar ekan, A.G'ulomovdan bir yil keyin nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan prof. U.Tursunov ilmiy faoliyati haqida to'xtalmaslik mumkin emas. A.G'ulomov 1940-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo'lsa, U.Tursunov, bir yildan keyin o'z ilmiy ishini yakunlash bilan, o'zbek nazariy tilshunosligining shakllana boshlanganligini to'la namoyon etdi. Qizig'i shundaki, A.G'ulomov «O'zbek tilida aniqlovchilar» monografiyasi bilan o'zbek nazariy grammatikasining poydevorini qo'ygan, oxir-oqibat yirik tilshunoslik ilmiy maktabini asoschisiga aylangan bo'lsa, U.Tursunov yuqorida qayd etilgan tadqiqoti bilan o'zbek nazariy tilshunosligi poydevorini mustahkamladi va Samarqand tilshunoslik ilmiy maktabining asoschisiga aylandi.

O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotiga, katta hissa qo'shgan boshqa olimlar faoliyatiga to'xtalishdan avval shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, arab tilshunosligi rivojiga hissa qo'shgan, shu bilan birga umuman, jahon tilshunosligi taraqqiyotini ta'minlagan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Abubakr Sakkokiy, Yoqut Hamaviy, Abu Hayyon, Jaloliddin Abu Muhammad Abdulloh turkiy, Abu Mansur as-Saolibiy kabi ko'pgina sharq olimlarining, shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus turkologlari: F.E.Korsh, A.E.Krimskiy, M.A.Kazembek, N.I.Ilminskiy, V.A.Bogoroditskiy, N.I.Ashmarin, L.Z.Budagov, P.M.Melioranskiy, V.V.Radlov, S.E.Malov, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.N.Samoylovich kabi yirik olimlar va XX asrning 20-30-yillarida tilshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borgan va yuqorida tilga olingan o'zbek olimlari, keyingi davr o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini

belgilashda muhim o‘rinni egallaydilar. O‘zbek nazariy tilshunosligining shakllanishida ularning ilmiy izlanishlari asosiy manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarsiz o‘zbek tilshunosligining keyingi ilmiy bosqichini belgilash qiyin. Ma‘lumki, o‘zbek milliy, ilmiy tilshunosligining shakllanishini ana shu olimlarning izlanishlari, qarashlari ta‘minladi. Bu tadqiqotlar: a) turkiy tilshunoslikning shakllanishi uchun bosh manba bo‘lgan; b) o‘zbek tilshunosligining alohida ajralib chiqishini ta‘minlagan; v) o‘zbek adabiy tili mavqeyini belgilash uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan; g) milliy ilmiy tilshunoslikning shakllanishiga shart-sharoit yaratgan bo‘lib, mazkur jarayonda bu olimlar hissi juda katta bo‘lgan. Bugungi kunda XX asr 40-yillaridan keyingi davr taraqqiyoti haqida fikr bildirilganda, hech shubhasiz, 1934-yilda O‘zFA qo‘mitasi hozirgi til va adabiyot ilmiy tekshirish institutining tashkil topishi, bu institutning o‘zbek tilshunosligining yirik ilmiy markaziga aylanganligini aytib o‘tish zarur. XX asrning 20-yillarida faoliyat ko‘rsatgan G‘ozi Olim Yunusov, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.Zohiriy, A.Avloniy, Sh.Raximiy, Sh.Zunnun, K.Ramazon, Elbek, N.Said va boshqalarni 30-yillardan boshlab ular qatorini to‘ldirgan A.K.Borovkov, V.Reshetov, S.Ibrohimov, A.G‘ulomov, U.Tursunov, S.Mutallibov, O.Usmonov, F.Kamolov, S.Zufarov, T.Ibrohimov, I.A.Kissen, Z.Ma‘rufovlarni hamda 40-yillarda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilgan V.V.Reshetov, A.G‘ulomov, F.Kamolov, U.Tursunov, O.Usmonov, Z.Ma‘rufov, A.Ma‘rufov kabi olimlar faoliyatini, 50-60-yillarda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan va yetuk tilshunoslar sifatida tan olingan V.V.Reshetov, G‘.G‘ulomov, G‘.Abduraxmonov, F.Abdullaev, M.Asqarova, O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirzaev, S.Ibrohimov, S.Mutallibov, A.Hojiev, A.Rustamov va Sh.Rahmatullaev kabi olimlar o‘z hissasini qo‘shgan.

O‘zbek tilshunosligi muammolari bilan shug‘ullangan yigirma beshta fan doktori va yuzdan ortiq fan nomzodidan iborat ilmiy jamoa XX asrning 70-yillariga qadar shakllandi. Albatta, 70-80-yillar davomida ular soni yanada ko‘paydi (1982-yilga qadar). Tilshunos fan nomzodlari soni 60 taga yaqin, fan doktorlari esa 70 tadan ortiqroq edi. 1982-yildan to istiqlolgacha bo‘lgan davrda bu raqamlar o‘zgarganligi ma‘lum, ya‘ni fan doktorlari soni 100 atrofida, fan nomzodlari esa 300 dan ortib ketdi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, shu vaqt oralig‘ida yaratilgan tadqiqotlarning deyarli hammasi o‘sha davr uchun eng dolzarb bo‘lib, o‘zbek tilshunosligi rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan edi. O‘zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyotini belgilab berishni nazarda tutgan dolzarb muammolar edi. Zero, tadqiqotlarsiz, o‘zbek tilshunosligining keyingi davr taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Albatta, bu davr tilshunosligining talabidan kelib chiqqan holda kamchiliklarini kuzatish mumkin. Ba‘zan zamonasozlikka moyil bo‘lgan, tazyiqlar ta‘sirida ochiq aytilmagan, metodik jihatdan boshqacharoq tarzda bajarilgan, ijtimoiy tuzum barqarorligiga qat‘iy ishonch

bildirilgan tarzda yondashilgan va bir yoqlamaliklarga yo'l qo'yilgan holda tavsiflangan ishlar ham uchraydi. Bu hol, tilning leksik sathini tadqiq qilish borasidagi terminologiyaga oid ishlar doirasidagi tadqiqotlar kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligining XX asrning 40-80-yillarida prof. A. G'ulomov, S.Usmonov va boshqa yirik olimlarning jahon tilshunosligi, shu jumladan, rus tilshunosligidagi ilg'or qarashlar, yutuqlar asosida yaratilgan nazariy fikrlari, mulohazalari tayanch manba bo'lganligi hammaga ma'lum. Jahon tilshunosligining shu davr ruhi bilan sug'orilgan jiddiy nazariy fikrlari, ilmiy asoslangan qarashlari va meroslari allaqachon o'zbek xalqining qadriyatlari qatoridan mustahkam o'rin egallagan. A.G'ulomov deyarli barcha yutuqlaridan bahramand bo'lgan, ilg'or qarashlarga nisbatan o'z bahosini bera oladigan, o'zbek tilshunosligiga tatbiq etadigan darajada ekanligi bilan ajralib turardi. Bular merosini jiddiy tadqiq qilmay turib, ularga munosib bahoni bermay turib, o'zbek ilmiy tilshunosligining keyingi istiqbolini belgilash maqsadga muvofiq emas. Zero, bu olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari zamonaviy ilmiy tilshunoslik taraqqiyotini belgilovchi asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Nomlari yuqorida zikr etilgan olimlarning ilmiy me'roslari, ma'lumki, birinchidan, noyob manbalarga aylanib bo'lgan; ikkinchidan, bu manbalar, ilmiy qarashlar hali jiddiy tadqiq etilmagan, to'laligicha o'quvchilarga yetkazilmagan; uchinchidan, sho'rolar davri tilshunosligidagi barcha ilmiy-nazariy qarashlar, shu jumladan yetakchi, tan olingan olimlarning ilmiy merosi mustaqillik davri milliy ruhi nuqtai nazaridan mukammal baholanishi lozimligi, 40-80 yillardagi muhim ilmiy qarashlarning zamonaviy tilshunoslikning yuzaga kelishida manba bo'ganligini asoslash masalasi ham bor. XX asr o'zbek nazariy tilshunosligi taraqqiyotini A.G'ulomov ilmiy qarashlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib maqolada 40-80-yillar o'zbek milliy tilshunosligining ana shu vakili ilmiy merosi haqida imkon doirasida to'liq ma'lumot berishga, jiddiy ilmiy qarashlariga, ularga nisbatan bildirilgan mulohazalarga munosabat bildirishga, tahlilga tortishga harakat qildik.

Adabiyotlar

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, (2019). No. PF-5850 "On measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language" .

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 4, (2019). No PP-4479 "On the celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan" On State Language "/" Ma'rifat "newspaper.

Abdurahmonov F., ShukurovSh. (1973). Historical grammar of the Uzbek language.

Djalolova L. (2007). Linguistic research of Abdullah Qadiri's novel "The Past": Philol. Ph.D. diss. rework.

Qurbonova M. (1993). Fitratningtilshunoslikmerosi: Filol. Ph.D. diss. rework.

Toychiboev B. (2011). Historical numbers. Ziyo.

Toychiboev B. (1995). Fitrat is a linguist.

Tog'aev T. (2005). AshuraliZohiriyvauningtilshunoslikmerosi: Ph.D. diss. rework.

AK Borovkoveski as a researcher of Uzbek language dictionaries // Problems of Uzbek language history.

Choriyeva Z. (2006). Linguistic, spiritual and stylistic features of the letters in Abdullah Qadiri's novel "The Past": Ph.D. diss. rework.

O'ZBEK TILISHUNOSLIGIDA ISTIQLOLGACHA BO'LGAN DAVRDA OT SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI

Sarvinoz Alimova*

Annotatsiya

Soʻzlarni turkumlarga ajratish masalasi dunyo tilshunosligining yillar davomida dolzarbligini yoʻqotmagan, barcha tillar grammatikasi uchun ustuvor boʻlgan holatda oʻzining implisit va eksplisit yondashuvlar nuqtayi nazaridan amaliy va nazariy isbotini topgan. Ammo shu yondashuvlar orasida haligacha bir umumiylikning yoʻqligi, mavjud qoida va tamoyillarning bir-biridan farqliligi hali-hanuz kuzatiladi. Jumladan, ot soʻz turkumining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi oʻz tarixiy taraqqiyotiga ega boʻlib, koʻplab tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlarni oʻz ichiga oladi.

Ot soʻz turkumiga oid qaydlar ilk oʻrta asrlar tilshunoslari tomonidan tadqiq qilina boshlanib, eʼtiborli jihati ularning akasariyati oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Keyingi asrlarda tilshunoslik maydoniga yirik asarlar keladiki, ular butun Oʻrta Osiyo ahli uchun ustuvor manbalarga aylanadi.

Rus tilshunoslari tomonidan mavzuyimiz doirasida yaratilgan qator darsliklar, ulardagi rus tilshunosligiga xos, ammo oʻzbek tilshunosligiga qisman mos kelmaydigan qoida va tamoyillar bu sohada yirik tadqiqotlarning dunyoga kelishiga zamin yaratdi.

Kalit soʻzlar: *grammatika, lugʻat, kelishiklar, son kategoriyasi, kompozitsiya, otlarning yasalishi, grammatik kategoriyalar, sintagmatika, paradigmatika.*

THE STUDY OF THE NOUN PHRASE CATEGORY IN THE PRE-INDEPENDENCE PERIOD IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

The question of categorization of words has not lost the relevance of World linguistics for years, having found its practical and theoretical proof in terms of the point of implicit and explicit approaches in the case of priority for the grammar of all languages. But among these approaches, it is still observed that there is still no commonality, the existing rules and principles differ from each other. In particular, the study of the noun phrase category in Uzbek linguistics has its own historical progress, which includes a lot of research and scientific research.

Notes on the noun phrase series began to be researched by early medieval linguists, and the notable aspect was that their acacarity did not lose its importance. In the following centuries, large works come to the field of linguistics, which become priority resources for the people of all of Central Asia.

A number of textbooks created by Russian linguists within the framework of our topic, the rules and principles inherent in Russian linguistics in them, but partially incompatible with Uzbek linguistics, laid the groundwork for the birth of major research in this area.

Key words: *grammar, dictionary, agreements, number Category, composition, making of nouns, grammatical categories, syntagmatics, paradigmatics.*

O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy mantiq ilmiga oid sir-asrorlarni yoritar ekan, arab grammatikasi uchun ma'lum bo'lgan ism, fe'l va yuklama atamalarini shu fan nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikriga ko'ra ismlar va fe'llar alohida mavjud bo'lmay, ular birgalikda qo'llanganidagina bir butun ma'no kelib chiqadi deb ta'kidlaydi. Ya'ni ism o'zi alohida olinganda fikr bildiruvchi o'zida hech qanday zamonga moslikni anglatmaydi. Masalan, hayvon, inson, Zayd kabi. Lekin Zayd yurmoqda yoki Zayd yuradi tarzida fe'llar bilan qo'llanganida gaplar shakllanadi va bir butun sifatida zamonda moslashgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi (Аль-Фараби, 1975, - С: 109-116).

Forobiy, shuningdek, "Fozil odamlar shahri" asarida jismlarning suvrati ya'ni ko'rinish xususiyatiga ega bo'lishlik nuqtayi nazaridan substantivatsiya, subyekt va modda nomlari haqida fikr bildiradiki, bunda biz aniq va mavhum otlar tushunchalariga oid qarashlarni ko'ramiz (Абу Наср Фарабий, 1993. 223-б.)

Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan "Devonu lug'otit turk" (Махмуд Кошғарий, 1960, 85-б.) nafaqat lug'at, balki turkiy tillardagi ismlarning batafsil tavsifini o'z ichiga olgan qimmatli grammatik manba sifatida ot so'z turkumi haiqdagi ma'lumolarni ham o'z ichiga olgan. "Devon"da tasvirlangan otlar bilan bog'liq asosiy grammatik jihatlar – son, jins, kelishiklar kategoriyalari hamda ushbu turkumdagi so'zlarning yasalishiga oid qaydlarni qoldiradi.

Garchi zamonaviy turkiy tillarda jins toifasi grammatik jihatdan zohirlanmagan bo'lsa-da, "Devon"da Mahmud Qoshg'ariy jinsni bildiruvchi ba'zi so'zlarni tasvirlaydi. Masalan, hayvonlar va odamlarda erkak va ayol jinsini ko'rsatuvchi uchun so'zlar turlicha, ya'ni *er* so'zi erkak ma'nosida, *og'ul* so'zi o'g'il farzand ma'nosida qo'llangan:

"Alg'il o'g'ut mendin, og'ul yordam tila,
Bojda ulug' bilga bo'lub, bilgin tila.
(O'g'il mendan nasihat ol, fazilat tila,
El-yurt orasida ulug' olim bo'l, ilmingni tarqat)

Shuningdek, *ulich* – sevimli farzand ma'nosida bolalarni sevish, erkalatish uchun ishlatiluvchi so'z, *ulichim* – esa o'g'ilcham ma'nosida qo'llangani aytiladi. Yosh qizlarga nisbatan qiz so'zidan tashqari *o'kach*, *anach* so'zlari ham qo'llanilib, o'z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz ma'nosini anglatgan. *Uma* – so'zi esa tubut qabilasi tilida ona ma'nosida keladi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki turkiy tilning ilk shakllanish davrlarida ham kishilarning jinsiga qarab murojaat qilinishda ishlatiladigan otlar talaygina bo'lgan.

“Devon”da otlardagi son kategoriyasining ifodalanishi qisman yoritilgan. Jumladan, *er* – erkak soʻzi koʻplikda *eran* shaklida ishlatilishi hamda bu holning kamdan-kam uchrashi va qoidaga xilofligini aytib oʻtadi. Chunki koʻplik qoʻshimchasi -lar//-lār tarzidadir, degan fikri bilan kifoyalanadi. Bunga sabab olim bu haqidagi qarashlarini oʻzining yana bir asarida keltirilganini oʻzi taʼkidlab oʻtadi: “Birlik, koʻplik, oshirish, chagʻishtirish, kichraytirish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni “Javohirun nahvi fi lugʻatit turk” (“Turkiy tillarning lugʻatiga oid gavharlar”) ismli ayrim asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak”. Bu asar esa bizgacha yetib kelmagani maʼlum.

Otlarning yasalishi xususida ularning tub va yasama boʻlishi, yasama otlar asosan feʼl oxiriga oʻn ikki harfdan birini qoʻshish bilan yasalishini keltirib oʻtiladi. Masalan, olim, dono, aqlli maʼnolarida keluvchi *bilga* soʻzi *bildi* feʼliga alif qoʻshilib, taom maʼnosidagi *uva* soʻzi burdalatdi, uvadi maʼnoli *uvadi* feʼlidan, kokil maʼnosidagi *kesma* soʻzi esa kesdi feʼlidan yasalgani kabi misollar keltirib, har bir harf orqali yasalgan otlar sanab oʻtiladi. Yana bu borada narsa-buyum otlari, qurol otlari, zamon va makon otlarining yasalishi misollar bilan yoritiladi. Muallifning otlarni guruhlashtirishga oid qarashlaridan uning turdoah va atoqli otlar haqidagi maʼlum qaydlarini ham anglash mumkin.

Oʻzbek adabiy tilining shakllanishida ulkan hissa qoʻshgan mutafakkir Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” (Навоний, 1967, 3-6.) asarida uning morfologiyaga oid qarashlari ifodalangan. Asarda u oʻsha davrda keng isteʼmolda boʻlgan, ijod ahli uchun ustuvor til sifatida ahamiyat kasb etgan forsiy tilni turkiy til bilan solishtirar ekan, bu tilning boy imkoniyatlarini, leksik-morfologik xususiyatlarini koʻrsatib beradi.

Maʼlumki, Navoiy yashab, ijod qilgan davr uchun muhimlik kasb etgan arab grammatikasi asosida soʻz turkumlarini uchga – ismlar, feʼllar va harakat (yordamchi)larga ajratadi. Shu bilan birga u turkiy tilda mavjud 100 ta feʼlni hamda 100 ta ism (ot)larni tahlil qilgan holda oʻz asarini yaratadi. Xususan, ot soʻz turkumining leksik-semantik xususiyatlari hamda yasalishi borasida qaydlar qoldiriladi. Turkiy tildagi otlarning shakldoshlik xususiyatiga toʻxtalib, tajnis va iyhom sanʼatlarini ifodalab goʻzal baytlar yaratish mumkinligi taʼkidlanadi. Masalan, ot soʻzining ism, hayvon, buyruq maʼnosidagi feʼl maʼnolarida kelishini bir tuyuq orqali koʻrsatib beradi:

“Chun pariyu hurdur oting, begim,
Surʼat ichra dev erur oting, begim,
Har xadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.”

Xuddi shun tarzda muallif it, sog'in, tuz, ko'k, ter va to'r so'zlarini ham ma'nolarini izohlab o'tadi. Asarda o'sha davrda qo'llangan qarindoshlik otlariga ham izoh berib o'tilgan. Agar forsiy tilida katta va kichik yoshdagi qaarindoshlarning ikkalasiga nisbatan "*birodar*" deyishsa, turkiylar katta yoshdagilari uchun "*og'a*" va kichiklari uchun "*ini*" so'zlarini; katta va kichik yoshdagi qiz qarindoshlariga "*xoxar*" so'zi forsiylarda, turkiylarda yoshi kattalariga "*egachi*", kichiklariga "*singil*" so'zlarini ishlatilishini alohida solishtirib o'tadi.

Asarda yana kishi nomlaridan tashqari narsa-buyum nomlari, joy nomlari, inson va hayvonlarning tana a'zolariga alohida to'xtalib o'tiladi.

Otlarning yasalishi xususida -chi yasovchisining forsiy tilda yo'qligi, faqt turkiy tilga xosligi keltiriladi: "Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngg'ida "-chi" ki, «chi» lafzidur, ortturlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, *qo'rchi*, va *suvchi* va *xizonachi* va *kerak-yarog'chi* va *chavgonchi* va *nayzachi* va *shukurchi* va *yurtchi* va *shilonchi* va *axtachi* yo'sunlug' ko'ptur".

Hozirgi o'zbek tilida -vul qo'shimchasi bilan yaslgan so'zlar bilinar0-bilinmas holatga kelganligi ma'lum. Lekin bu qo'shimcha o'zbek tilidagi eng qadimiy ot yasovchi qo'shimchalar sirasidandir. Navoiy bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar xususida shunday fikr bildirib o'tadi: "Yana bir "vov" va "lom" ba'zi lafzg'a ilhoq qilib bir maxsus sifatqa tayin qilurki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu'tabardur. Andoqki, *hirovul*, *qarovul* va *chingdovul* va *yankovul* va *so'zivil* va *patovul* va *kitpovul* va *yasovul* va *bakovul* va *shig'ovul* va *daqavul* kim, alar mundin ulviydurlar".

Bundan tashqari shaklan -vul affiksi bilan bog'liq -l affiksi bilan yasalgan otlar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirib o'tadi: *qaxol*, *yasol*, *qabol*, *tunqol*, *birqol*, *to'sqol* va *sevarg'ol* kabilar. Navoiy haqida A.Nurmonov ta'kidlab o'tganidek: "U garchi so'z yasalish strukturasi bo'yicha fikr bildirmasa ham, lekin so'z yasashga asos, yasovchi vosita, va yasalma tushunchalari haqida ma'luotga ega bo'lgan".

O'zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi davrlarida o'rta asrlarda hamda xonliklar hukronligida ham morfologiyaga oid qarashlar mavjud bo'lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa bu soha rus tilshunoslari tomonidan o'rganilib, o'zbek tilini tez va oson o'rganish uchun qator qo'llanmalar yaratildi. M. A. Терентьев "Грамматика турецкая, персидская, киргизская (казахская) и узбекская" (1875); "Хрестоматия турецкая, персидская, киргизская и узбекская" (1876); И.А.Беляев "Руководства к изучению сартовского языка" (1906); В.А.Алексеев "Самоучитель сартовского языка" (1884); С.Лапин "Карманный русско-узбекский словарь с приложением краткой грамматики узбекского языка" (1895) (II нашри 1914); Л.Афанасьев "Словарь сартовских слов с

главнейшими грамматическими правилами” (1908); И.Ягелло “Сартовский переводчик” (1908); И.Ягелло “Этимология сартовского языка для курсов при Ташкентском отделении общества востоковедов” (1910); Н.Будзинский “Грамматика сартовского языка и русско-сартовские разговоры” (1910) (Нурмонов А., 2002, 115-б.) kabilar shular jumlasidandir.

O‘zbek ma’rifatparvarlarining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat tilimiz rivoji uchun salmog‘li asarlar yozilishida yangi davrni boshlab berdi. Jumladan, morfologik birliklarga to‘xtalib, ot so‘z turkumi to‘g‘risida o‘zi eslatgan narsaning nomini bildiruvchi so‘zlar ot sifatida ta’riflanadi. Aniq va mavhum otlar borasida ma’nosi “ko‘zga ko‘rinarlik” hamda “ko‘zga ko‘rinmas” sifatidagi tasniflashlarni berib o‘tadi.

Davr nuqtayi nazaridan otlarning aksariyati tubligini ozchiligi esa yasamaligini qayd etgan holda yasama otlarni uch guruhga ajratadi: o‘rin , qurol va ish otlari kabi. Jumladan, o‘rin otlari -loq handa -oq qo‘shimchalari orqali yasalib, “bir narsaning o‘rnini bildiruvchi so‘z” sifatida keltiriladi.

Hozirgi kunga kelib tub otlar sifatida tushuniladigan ko‘pgina otlar muallif tomonidan yasama otlar sifatida ko‘rsatiladi. Qurol otlari sifatida ta’riflangan so‘zlar sirasiga kiruvchi *pichoq, tayoq* so‘zlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari ushbu guruhga mansub otlarni -g‘ich, -qich, -gich, -kich; -qi, -gi; -oq, -ak; -choq, -chak hamda -liq, -lik qo‘shimchalari bilan yasalishini ta’kidlaydi.

Abdurauf Fitrat tomonidan tavsiflangan otlarning yasaliish jihatidan uchinchi guruhi, ya’ni ish otlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida harakat nomi sifatida tavsiflanuvchi fe’lning vazifaviy shakliga to‘g‘ri keladi. “Yozdim” fe’lida bo‘lgan ishning oti yozmoq, keldim fe’lidagi ishning oti kelmakdir”(Αβφypayφ Φ., 2006, 145-146-б.). Ushbu guruhga mansub otlarning yana bir turi buyruq fe’llariga - (i)sh qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi: *bilish, yozish* kabi.

Ish otlari sifatida keltirilgan otlarni yasah uchun -im, -u(v), -nch, -qin/-g‘in qo‘shimchalari ham keltirilgan: *unim, onglov, yozg‘u, kelu(v), qo‘rqunch, toshqin* kabi.

Subyektiv baho shakllarini olgan otlar Fitrat tomonidan “kichiklangan otlar” sifatida ta’riflangan va ularni hosil qilish uchun -cho/-cha, -gina/-g‘ina, -gina/-kina qo‘shimchalari ishlatilishi keltirilgan: *og‘acho, kelicha, qizqina* kabi. -chiq, -choq, -chak, -loq kabi qo‘shimchalar bilan yasalgan otlarning kam sonda mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan: *chaqaloq, qizaloq, qopchiq* kabi.

Kompozitsiya usulida yasalgan otlarning “ Sarf ” asarida ikki xil usul bilan yuzaga kelishi , jumladan “...ikki ot yoki bir sifat bilan bir ot qo‘shilib bir narsaning oti bo‘lganda qo‘shma ot”, deyilishi *oybolta, oqsoqol* kabi so‘zlar bunga misol qilib ko‘rsatilgan.

Ajratib yoziladigan qo'shma otlar tarkibidagi har bir so'z alohida ma'no anglatishi ta'kidlangan holda ularni ajratib yozish zarurligi qayd qilingan: *Maorif idorasi*.

Abdurauf Fitratning ot so'z turkumi bo'yicha fikrlari atroflicha bo'lib, uning yasalishidan tortib, ko'plik kategoriyasining ifodalanishigacha izohlangan, misollar bilan yoritilgan.

1925-yilda nashr qilingan "O'zbekcha til saboqlig'i" kitobida ham ot so'z turkumi haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Bu kitobning mualliflari 20-yillarning yetakchi tilshunoslari Munavvar Qori, Qayum Ramazon va Shorasul Zunnunlardir. Ular ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni dastlab ikki guruhga bo'ladilar: 1) atoqli otlar, 2) turdosh otlar (asarda ism atamasi bilan berilgan).

1934-yilda maktablar uchun chop etilgan "Grammatika" kitobida so'z turkumlariga semantik va morfologik tamoyillar asosida yondashuv ko'zga tashlanadi. Kitobning mualliflari X. Qayumiy va S. Dolimov 7 ta so'z turkumini ajratib ko'rsatadilar: 1) ot, 2) sifat, 3) son, 4) olmosh, 5) fe'l, 6) yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, ravish), 7) undov va tovushga taqlidiy so'zlar.

Q. Ramazon va X. Qayumiyning 1937-yilda bosmadan chiqqan "Grammatika. Sarf" nomli darsligida esa "so'zlarning ma'nolari va gapdagi rollariga qarab asosiy guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deb ataladi (Eltazarov, 2021, 86-b.)", deb ta'kidlanadi va ular haqida ma'lumotlar beriladi.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari, ularga xos paradigma va kategoriyalarni ilmiy asosda o'rganish XX asrning 40-yillariga kelib rivojlanib bordi. Bu borada qator ilmiy kuzatishlar e'lon qilindi. Xususan, otlardagi qator yasovchi qo'shimchalar hamda ko'plik kategoriyasini tahlil qilgan taniqli tilshunos Ayub G'ulomovning ishlarini ko'rib chiqsak. U o'zining "О суффиксе -даш в узбекском языке" nomli maqolasida -dosh affiksini kelib chiqishidan tortib, o'zbek tilida so'z turkumlarini differentsiatsiyasi, jumladan ot va fe'l so'z turkumlaridagi va ularni yasovchi affikslardagi shakldoshlikka oid qarashlarini ifodalaydi.

"К некоторым вопросам аффиксации в узбекском языке" maqolasida esa olim o'zining o'zbek tili affiksatsiyasiga oid qaydlarini keltirib o'tadi. Bu asarda o'sha davr uchun bu borada muhim manba sifatida Zokir Ma'rufovning "Словообразующие суффиксы имен существительных в узбекском литературном языке" (Toshkent, 1941) ishini ham ko'rsatib o'tadi. Ot yasovchi qo'shimchalardan -a, -oq, -qin, -choq, -chiq, -chi kabilarning kelib chiqishi misollar bilan dalillanadi. Ko'plik qo'shimchasi ba'zi manbalarda so'z yasovchi qo'shimcha sifatida ko'rsatilgan bir davrda olim bu bahs borasida o'z qarashlarini ham bildirib o'tadi: "Otlarning ko'plik qo'shimchasi yangi so'z, asos hosil qilmaydi, uni shartli ravishda so'z o'zgartiruvchi affiks deb hisoblash mumkin". Demak, zamon nuqtayi

nazaridan ko‘plik kategoriyasi haqida yetarlicha asoslar mavjud bo‘lmagan holda A.G‘ulomovning keying yirik tadqiqotlari uchun zamin yaratilgan, deyish mumkin.

“Словообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке” maqolasida juft va takroriy otlarning yasalishi misollar bilan tushuntirib berilganligi ahamiyatli bo‘lib, juda ko‘p so‘zlarning tarixiy kelib chiqishi ham tahlil ostiga olingan. “Об аффиксе -лик в узбекском языке” maqolasi ot yasovchi unumdor -lik affiksi haqida batafsil ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Otlarga xos muhim grammatik kategoriya kelishiklar xususida “O‘zbek tilida kelishiklar” (1941) monografiyasi hali hanuz o‘z muhimligini yo‘qotgan emas. Ishda “Kelishiklar formalarni o‘zgartirishgina emas, u hammadan burun ma’no hodisasidir. Otlarning nutq ichida turli tus olishi ma’noga qarab, shuning talabi bilan bo‘ladi. Kelishiklar otning gapdagi rolini ko‘rsatadi.

Kelishik ko‘shimchalari asosan otlarga qo‘shilib keladi, biroq ot vazifasida kelgan so‘zlar ham kelishik bilan turlana oladilar, bunday chog‘da ular ot hukmida bo‘ladilar”, deya aytib o‘tiladi.

Ushbu monografiyada o‘zbek tilidagi kelishiklar soni 7 ta deb ko‘rsatiladi:

1. Bosh keishik
2. Undash kelishigi
3. Qaratqich kelishigi
4. Tushum kelishigi
5. Jo‘nalish kelishigi
6. O‘rin-payt kelishigi
7. Chiqish kelishigi

“ Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydigan undash kelishigi (vocativus) gap bo‘laklaridan ayrim bo‘lgan so‘zlarni ifoda etadi. Uning bu ayrimligi, mustaqilligi ma’no jihatidan, bir qadar sezilgani kabi, tovush va boshqa xususiyatlari jihatidan ham bilinadi: shu bo‘lak 1) ayrim pauza bilan ajralib turadi; 2) o‘zida intonatsion tugallikning elementlarini saqlaydi. Masalan: Salima-yu! Opam chaqirayaptilar. Bundagi “Salima-yu ” intonatsiyasi bilan xarakterlanganidek, shu kelishikka xos bo‘lgan belgilarga ham egadir”. Demak, olimning fikriga ko‘ra gapda undalma vazifasida kelgan so‘zlar undash kelishigida turgan hisoblanadi. Bu kelishik bosh kelishigidan o‘zi aytilayotgan intonatsiya, gapdagi o‘rni bilan ajralib turar ekan.

Tadqiqot ishida, shuningdek, barcha kelishiklar tarixiy kelib chiqishidan tortib, grammatik ifodalanishlariga oid muhim qaydlar, kuzatishlar berilgan.

A.G‘ulomovning yana bir monografiyasi yuqorida ta’kidlanganidek, “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” (1944) bo‘lib, ko‘p yillik kuzatishlar zahirida yaralgan bo‘lib, bugunga qadar o‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasining ifodalanishiga oid muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotda o‘zbek tilida ko‘plik shaklining ifodalanishi quyidagi ko‘rinishlarga egaligi ko‘rsatiladi:

1. Morfologik ifodalanish.
2. Leksik ifodalanish.
3. Sintaktik ifodalanish.

Birinchi tur ot va fe'l guruhidagi so'zlarda ishlatiladigan ayrim qo'shimchalardan iborat (*bolalar, aytingiz, aytdik, aytdilar...*). Ikkinchi tur jamlik bildiruvchi so'zlardan iborat (*el, qo'shin, poda...*). Bularning jamlovchi sanalishi mazmunanginadir, ular ko'plikning grammatik ko'rsatkichga ega emasdir). Uchinchi tur miqdor bildiruvchi so'zlarning ot bilan aniqlovchilik aloqasiga kirishuvi yo boshqa turli so'zlarning takrorlanib, o'shanday aloqaga kirishuvidan tug'ilgan birikmalardir (*dasta-dasta gul, baland-baland tog'lar*). Sifatning takrori ham aniqlanmish ot orqali ifodalangan predmetning soni bilan bog'langan.

-lar qo'shimchasi otlarda ko'plik kategoriyasining yagona belgisi sifatida ta'riflangan holda uning qo'lanishidagi barcha leksik-semantik, grammatik hamda stilistik jihatlarini "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi"ning 9 qismida batafsil izohlanadi. Xususan, otlarning ko'plik shakli olishi bilan bog'liq ma'nolari o'z ichida bo'linishlarga ega 13 xil ma'noviy bandlar bilan tahlil qilib beriladi. Bu monografiya haqida "Ishda ko'plik tushunchasining mohiyati, ko'plikning ifodalanish usullari, ko'plik qo'shimchasi vositasida yuzaga chiquvchi ma'nolar, arab va fors tilidan o'zlashgan ko'plik ko'rsatkichlarining o'zbek tilidagi o'rni, sondagi moslashuv va shu kabi ko'plab masalalar ilmiy yoritilgan" deya ta'kidlashadi R.Sayfullayeva va M.Jo'raboyevlar "Maktab yaratgan tilshunos" maqolasida.

XX asrning 50-yillariga qadar yaratilgan ko'plab ilmiy nashrlarda grammatika atamasi ostida uning morfologiya va sintaksis bo'limlari "Sarf" va "Nahv" sirasida o'rganilishi yoki o'z nomlari bilan atalgan holda faqat darslik yoxud qo'llanma shaklida bo'lganligi ma'lum. 1957-yilda o'zbek tili grammatikasi borasidagi barcha xulosalar, ilmiy qaydlar avvaliga broshyura sifatida o'sha davrda A.S.Pushkin nomida bo'lgan Til va adabiyot instituti tomonidan e'lon qilinib, tanqidiy fikrlash asosida tilshunos mutaxassislar, oliy o'quv yurti o'qituvchilari tomonidan ko'rib chiqilib, qisqartirilgan yoki kengaytirilgan holatda Faxri Kamol tahriri ostida "Hozirgi zamon o'zbek tili" nomi bilan nashr etildi. Bu qo'llanmada otlarning ma'nosi, grammatik xususiyatlari to'g'risida, otlarning yasaliishi va ot yasovchi affikslar, otlarning tuzilishiga ko'ra turlari, qisqartma ot(abbreviatura)larga bag'ishlangan bo'limlar mavjud bo'lib, har biri qo'llanilishiga doir misollar bilan boyitilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan mavjud kamchiliklari ham shu bo'lganki, berilgan misollarning aksariyati Sovet ittifoqi hukmronligi doirasida qo'llanilgan so'zlar (*колхоз, клуб, Октябрь* kabi)dan tashkil topgan. Ba'zi bir o'rinlarda rus tilidagi so'zlar namuna sifatida ko'rsatilgan (*библиотеканинг китоби, электрсушилка* kabi). -ist, -tor,

-ant, -ent, -ik, -ioner kabi affikslarning shaxs oti yasovchilar sifatida ko'rsatilar ekan, bugunga kelib bu so'zlarning muqobilini ko'rsatish mumkin. Bular singari juz'iy kamchiliklar, albatta, o'sha davr siyosiy boshqaruvi natijasida yuzaga kelganligi ma'lum. Bu asar o'zbek morfologiyasidagi tamoyillarni izohlashda tub burilish yasagan asarlardan bo'lgan, deyishimiz mumkin. Chunki "qayd etish lozimki, bunga qadar tilshunosligimizda tamoyillarning mohiyati yoritib berilmagan edi".

Rus turkolog olimi A.N.Kononov 1960-yilda "Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi" ilmiy asarini yaratilishi sohamiz doirasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, otlardagi son, egalik kategoriyalari; kelishik va ko'makchilarning qo'llanilishi; shaxs yoki narsani ifodalashi; aniq yoki noaniqlikni bildirishi; atoqli va turdosh turalrga bo'linishi qatorida o'zining so'z yasaliish tizimiga ega ekanligi alohida ta'kidlangan. Ahamiyatlisi, o'zbek tilida rod tushunchasining qo'llanishi qanday namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. "Ko'pgina hind-yevropa tillariga xos bo'lgan grammatik jins toifasi turkiy tillar oilasidagi tillarda mavjud emas, shuning uchun gap bu yerda odamlar va hayvonlarning ba'zi nomlarini ko'rsatishdagina uchraydigan biologik jinsni ifodalash yo'llari haqida borishi mumkin", deydi tadqiqotchi va leksik, sintaktik, morfologik hamda fonetik usullar bilan rod kategoriyasining yuzaga chiqishini izohlaydi. Aynan grammatik jins kategoriyasining mavjud emasligidan otlarning jonli yoki jonsizligi na ularning rodlarda qo'llanilishidan, na shaxs-sonda qo'llanilishidan anglab olinishi mumkin. Faqat shaxs otlariga kim hamda narsa-buyum otlariga nima so'roq olmoshlarini ishlatish orqali ularni farqlash mumkin (Kononov, 1960, -c.74).

"Hozirgi zamon o'zbek tili. Fonetika, Grafika, Orfografiya, Orfoepiya, Leksikologiya, Morfologiya" kitobi yaratilgandan so'ng o'zbek tili morfologiyasiga doir yangi tadqiqotlarni e'tiborga olgan holda ikki jildli "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (T., "Fan", 1966), "O'zbek tili grammatikasi", I tom, Morfologiya (T., "Fan" 1975), II tom, Sintaksis (T., 1976) asarlarining maydonga kelishi esa, o'zbek tili grammatikasining takomillashuvida katta rol o'ynadi. Jumladan, "O'zbek tili grammatikasi"da so'z yasaliishining alohida bo'lim sifatida berilishi hamda konversiya hodisasining alohida bo'limda tushuntirib berilishi tilshunoslikda katta ahamiyatli bu mavzularning borasida ochiq turgan ko'p savollarga javob berilishiga zamin yaratgan. Asarda grammatik ma'no hamda shakl mutanosibligi izohlanar ekan, ular bir butunlikda grammatik kategoriyani hosil qilishi bayon qilingan. Bunda otlardagi ko'plik ularning birlik shakliga zid holatda bo'lib, bu qarama-qarshilik son kategoriyasini tashkil qilishi, kelishik kategoriyasi esa kelishik shakllarining yig'indisidan iborat bo'lishi nazarda tutilgan. Bu asar haqida tilshunos A.Nurmonov "Xususan, otlarda son, egalik kategoriyasining ifodalanishi shu darajada mukammal, shu darajada o'zbek tili materiallariga asoslanib, o'ziga xos tomonlarini chuqur

yoritib berildiki, u turkologiya fanida ot turkumiga bag'ishlangan eng sara asar bo'lib qoldi", deb e'tirof etganidek, haqiqatda tilimizning rus tilshunosligi doirasida o'rganilishidan tub uzoqlashish bo'lganligi seziladi.

1975-yilda yana bir tilshunos olim R.Qo'ng'urov tomonidan o'zbek tili uslubshunosligiga oid "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar" monografiyasi e'lon qilindi. Bu monografiya doirasida "Ot formalarining stilistik xususiyatlari" qismida otlardagi ko'plik va egalik shakllarining uslubiy jihatlari tadqiqot ostiga olindi. Olimning fikricha "Otlarning ko'plik qo'shimchasi **-larni** ola olish ola olmasligi, bu affiksni olgan so'zlarning ma'no nozikligi, egalik, tegishlilik tushunchasining qabatlanishi, kelishik qo'shimchalarining otlarda saqlanishi yoki tushib qolishi, bu kategoriyalarning uyushiq bo'lakli gaplarda uning bo'laklariga munosabati bilan ma'no nozikliklarini aniqlash grammatika bilan birga stilistikaning ham vazifasidir". O'sha davrning dolzarb muammolaridan biri sifatida yuzaga chiqqan grammatik kategoriyalarning uslubiy taraflarini ochib berish muammosi aynan R.Qo'ng'urov tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, "Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari" (1980) monografiyasida ot so'z turkumidagi so'zlarga qo'shiluvchi kichraytirish hamda erkalash shakllari haqida ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning 1975-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan va 1980-yilda chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kabi oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida chop qilingan nashrlarda ham so'z turkumlari, ularning mohiyati, turlari xususida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan. Keyingi keltirilgan asarda Otlar quyidagi semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi:

1. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

2. Kim yoki nima so'zlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra.

3. Sanalish yoki sanalmasligiga ko'ra.

So'z yasalishi sohasida yirik tadqiqotlardan biri hisoblangan "Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi" qo'llanmasi 1979-yilda A.Hojiyev tomonidan yozilgan bo'lib, unda tilimizdagi so'z turkumlarning yasalishi, xususan, ot so'z turkumidagi so'zlarning sintetik, kategorial va nokategorial shakllari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ko'p sohalar singari o'zbek tilshunosligi ham qator yutuqlarni ko'rsata boshladi. Sohamiz taraqqiyoti yanada rivojlanib, bu borada ko'plab asarlar yaratildi.

Adabiyotlar

Аль-Фараби(1975). Логические трактаты, философия. Наука.Алма-Ата.

Абу Наср Форобий (1993).Фозил одамлар шахри.Танланган асарлар.Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент.

Абфурауф Фитрат. (2006) Танланган асарлар. Ж.IV.Маънавият. Тошкент.

Нурмонов А. (2002).Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўзбекистон. Тошкент.

Eltazarov J. (2021). O‘zbek va jahon tilshunosligida so‘z turkumlarining o‘rganilish tarixidan(monografiya). Ipak yo‘li xalqaro turizm universiteti.Samarqand.

Кононов А. (1960). Грамматика современного узбекского литературного языка. Наука Москва.

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN PAREMALARNING TEMATIK GURUHLANISHI

Annotatsiya

“Lison ut-tayr majoziy asar. Qushlar ta'riflangan bo'lsa-da, asar Alloh visoliga yetishish haqidadir. Asarda uchragan maqol, matal, hikmatli so'zlar tematik tahlil qilindi. Alisher Navoiy ijodi janriy rang-barangligi hamda mazmuniy-g'oyaviy yuksakligi bilangina emas, balki ilg'or fikr-g'oyalarning o'ziga xos ifodasi bilan ham o'zbek she'riyati tarixida yuksak mavqega va shuhratga ega ekanligi hech kimga sir emas. Navoiy lirik janrlar doirasini kengaytirish va poetik jihatdan rivojlantirish, ularning ijtimoiy mohiyatini oshirish borasidagi tashabbuslari yuksak g'oyalarning mukammal badiiy shaklda ifodalanishi uchun imkon beradigan poetik vositalar topib, ijod jarayoniga keng joriy etish yuzasidan olib borgan jiddiy ishlari bilan bevosita qo'shilib ketgan. Binobarin, Navoiy asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini, shoir san'atkorligining o'ziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalari doirasi, shuningdek, ularni qo'llash usullarida yanada aniq namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: *ramz, majoz, maqol, hikmatli so'z, erkin birikma, vatanparvalik bilan bog'liq paremlar, eran, sevgi-sadoqat bilan bog'liq paremlar.*

THEMATIC GROUPING OF PAREMAS USED IN THE EPIC "LISON UT-THAIR"

Annotation

The Language of the Birds is figurative work. Although the birds are described, the work is about the vision Allah. Proverbs, aphorisms and wise words found in the work were analyzed thematically. It is no secret that Alisher Navoi's work has a high position and fame in the history of Uzbek poetry, not only because of its genre variety and content-ideological height, but also because of its unique expression of advanced ideas. Navoi's initiatives to expand the scope of lyrical genres and develop them poetically, to increase their social essence, were directly combined with his serious work on finding poetic tools that allow for the expression of lofty ideas in a perfect artistic form and widely introducing them into the creative process. Consequently, the ideological-artistic value of Navoi's works, the unique aspects of the poet's artistry are more clearly manifested in the scope of his poetic image tools, as well as the methods of their application.

Key words: *symbol, trope, proverb, aphorism, free compound, laws related to patriotism, eran, pames related to love and devotion.*

“Lison ut-tayr” dostonida juda ko'p paremlar qo'llangan bo'lib, ularni mavzuviy guruhlashda asosan tilning ichki va tashqi tomonlari inobatga olinadi. Ayni

* Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi xojamovamotabar@gmail.com.

paytda aytish joizki, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma'lumotlar so'zlarning mavzuiy guruhlarida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Demak, leksemalarni mavzuiy guruhlariga ajratib tadqiq etish tilning xalq hayoti bilan bog'liq tomonlarini yoritish uchun xizmat qiladi.[E. Begmatov 1985. 121-b.]

Maqol, matal va aforizmlar tipidagi paremalarni to'plash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fanlarining zimmasiga tushadi. Adabiyotshunoslar o'zbek tilidagi maqol-matal, aforizmlarni faqat tematik jihatidagina klassifikatsiya qilishadi. Masalan, "O'zbek xalq maqollari" to'plamida 1800 ta maqol-matal 31 mavzuga ajratib klassifikatsiya qilingan. Ularni R. Jumaniyozov 22 mavzuga, A. Xolmuhamedov esa 56 mavzuga ajratadi.[R.Jumaniyozov,1964] Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, maqol-matal tipidagi paremalarni tematik jihatdan klassifikatsiya qilishda ma'lum bir qonuniyat yo'q, shuning uchun ularni ko'plab temalarga ajratib klassifikatsiya qilish mumkin. Paremlar badiiy tasvirlash vositalariga ko'ra ham klassifikatsiya qilinsa bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, evfonik vositalariga ko'ra, o'xshatishni, taqqoslashni, parallelizm, anaphora, kinoya, piching, kesatichni ifodalashiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin.

Paremalarni tematik guruhlash murakkab va mukammalligi bilan ajralib turadi. Chunki bu turda material muayyan mavzu guruhlariga ajratiladi, har bir mavzudagi material esa o'z ichida tartib bo'yicha beriladi. Ushbu tartib bo'yicha tuzilgan maqol to'plamlari foydalanish jihatidan qulayligi, eng muhimi, muayyan mavzu doirasini ko'rsatib berishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi.

Er yoki eran leksemi badiiy adabiyotda el-yurt himoyachisi, komil murshid, mard, vatanparvar sifatida qo'llangan. E. Sevartyan ta'kidlashicha, ushbu so'z mard bahodir qo'rqmas ma'nosida qo'llangan. M. Koshg'ariy ham ëplik – mardlik, erlik ma'nosida qo'llaydi. Olimning fikricha, Ëpän shaklida ham qo'llanadi. Lekin bu hol kam uchraydi va qoidaga xilofdir. Chunki ko'plik qo'shimchasi -lar // läp tarzidadir, – deb aytgan.

"Lison ut-tayr" da tariqatga kirish orzusidagi, ammo yo'l mashaqqatidan havotirga tushib, ortga chekinmoqchi bo'layotgan qushlarga Hudhud tomonidan erlik maqomi ibrat qilib ko'rsatiladi. Aniqrog'i dostonda nafs-u havo qutqularidan tahlikaga tushgan zaif kimsalarga qarama-qarshi o'laroq baland shaxsiyat egalari er nomi bilan ulug'lanadi. Tovus va Tazarv (tustovuq) qushlarining turli bahonalarga javoban dono Hudhudning hikmatomuz fikr qarashlari bayon etiladi:

Odam o'lg'on zebi zohirdan demas,

Kimki ondin faxr etar – odam emas.

Noz ila husn o'ldi shohidlar ishi,

Dard-u mehnat birla xushtur er kishi.[A.Navoiy.1996. 61-b.]

Paremada soxtakorlik, yuzakilik, zohirparastlik – zeb-ziynatga o‘chlik metaforalar orqali keskin qoralanadi. “Zebi zohir” – o‘tkinchi ziynatlarga o‘ch kishilar oxir-oqibatda el-ulus oldida masxara bo‘lishini Hudhud tilidan ta’sirli beriladi. Ularga ibrat o‘laroq, dostonida er leksemasi keltiriladi. Er so‘zi orqali umr asosini axloq go‘zalligi hamda komillikda, deb bilgan uyg‘oq va ogoh odamlarni ifoda etgan. Navoiyning fikricha asl ziynat adab, ezgu xulq va pok siyratdir:

Zevar kishiga ne toju, ne afsar bil

Ul zevar adab birla hayo darxar bil

Har kimki adabsizdur, ishin abtar bil,

Alqissa, eranlarga adab zavar bil.[Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 2013. 59-bet]

“Lison ut-tayr” dostonida “Shayx San’on” haqidagi hikoyatda uchragan ishq-muhabbat mavzusidagi paremalarni tahlil qilamiz:

LXXIX bob

Nazmiy bayoni:

Kimki bo‘lsa ahli ishq, ey peshvo,

Bil ani mazhi adab, koni hayo.[A.Navoiy, 1996, 124-b.]

Mazmuni: Ey, peshvo! Kimki, ishq ahlidin bo‘lsa, uni faqat odobli va hayo koni deb bilgil! “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” da ushbu paremaning variantdoshlari quyidagicha uchraydi: “Ishqi borning imoni bor”.[Berdiyev H, Rasulov R, 1984, 115-b.] Paremaning mazmuniy strukturasida ishq mavhum ot tayanch leksema bo‘lib qolavergan.

“Gar qo‘ya olmas esang bu yo‘lg‘a gom,

Ishq oyinida bo‘lsang notamom.

Tark aylab kufu din aylab qabul,

Dayrdin ket, Ka‘bag‘a qilg‘il nuzul”.[A.Navoiy, 1996, 137-b.]

Mazmuni: “Agar ishq qoidasida yetuk bo‘lmasang, bu yolga qadam qo‘yma, ya’ni aytilgan jarimalarni bajarmasang, kofirlikdan voz kechib, diningni qabul qil hamda ibodatxonani qo‘yib, Ka‘baga qayt!” [A.Navoiy, Nasriy bayoni, 41-b.]

Shayx San’on Ka’bada avliyo kishilar va qavmni yetaklovchilar orasida xuddi payg‘ambar o‘z sahobalari bilan turgandek edi deya ta’riflanadi. Uning 400 ta shogirdi bo‘lib ularning har birining darajasi Junayd va Boyazidlarga teng kelardi deb aytilgan edi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi nega aynan shunday buyuk bir shaxs bir tarso qiziga bo‘lgan muhabbati tufayli dindan kechdi? Buning javobi esa oddiy chunki u tarso qizini ham Ollohga qo‘ygan muhabbati kabi sevadi va unga erishish uchun shunday ishlarni qilishga majbur bo‘adi. Dostondagi ana shu bosh falsafiy masala Shayx San’onning sevgi qissasida qisqaroq bo‘lsa-da yaqqol ifodalangan. Paremada ham shunga urg‘u beriladi.

Yo‘ldagi barcha to‘siqlar ham qizga bo‘lgan muhabbati tufayli ko‘zga ko‘rinmaydi. Navoiy bu o‘rinda biz ham Ollohning jamoliga yetishish yo‘lida har qanday to‘siqni yengib o‘tishimiz kerak degan fikrni ilgari suradi. Hamda ushbu hikoyatdagi o‘zak masala – olamning Olloh jilvasidan iboratligi, odamning Olloh quyoshining zarrasi ekanligi haqidagi ta’limot Fariddin Attorning ijodi, Alisher Navoiyning ijodi va Mashrab ijodida o‘zak tomir sifatida yashaydi. Didaktikada Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Mashrab Mansur Hallojning “anal haq” (men Xudoman men Xudoning bir zarrasiman) degan ta’limotdan o‘sgan mutafakkir mutasavvuflardir.

Chunki bu ish keldi beshak ishq ishi,

Kimki oshiq ermas, ul ermas kishi.[A.Navoiy,1996,159-b.]

Chunki bu ish beshak ishq ishidir: kimki oshiq bo‘lmasa, u inson sanalmaydi.[A.Navoiy. 50-b.] Paremaning leksik ma’nosida haqiqiy ishq turibdi.

Bor anga ishq ichra jon bermak murod,

Ishq qaydidindurur barcha kushod.[A.Navoiy,1996, 160-b.]

U faqat ishq ichra jon berishni o‘ziga maqsad qilishi kerak, chunki ishq tufayli barcha mushkullar yechiladi.

Navoiy “o‘t” leksemasi bilan bog‘liq hikmatlardan foydalanadi. Zero, o‘t – ishq timsoli. Aslida tilshunoslikda “ishq” va “o‘t” so‘zlariga sinonim sifatida qaralmaydi. Ular bitta ma’noni anglatmaydi. Lekin dostonida bular bir tushunchani ifodalab kelgan kontekstual sinonimlardir. Kontekstual sinonim til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum matn doirasida sinonimik munosabatga kiritilishidir. Bular nutqiy hodisa bo‘lib, nutqning og‘zaki va yozma shakllarida voqelanadi.

“Fard emas ushshoq ko‘ngli ohdin,

Ne chiqar juz dud otashgohdin”. [A.Navoiy, 244-b.]

Ya’ni, “Oshiqlar ko‘ngli o‘tli oh chekishdan begona emas, axir otashgohdan duddan boshqa yana nima chiqishi mumkin?”. Shu tasvir g‘oyatda ahamiyatli. Bunda noreal (oshiqlar ko‘ngli o‘tli ohdan begona emasligi) tasvir, real (otashgohdan doimiy tutun chiqib turishi) tasvir bilan dalillanmoqda.

“Kimsa bo‘ldi ishq aro tushkan dam o‘t,

O‘tqa nekim tushti bo‘ldi ul ham o‘t.

Ishq o‘rtar kim sorim oylanur,

Kim tushar o‘t davrasig‘a o‘rtanur.

Ishq sargardoni ermastur uyun,

Kim erur jismig‘a o‘t tushqon quyun.

Ishq aro lozimdur o‘rtanmak-o‘q,

O‘t aro kuymakdin o‘zga chora yo‘q”. [A.Navoiy, 245-b.]

Mazmuni: “Kishi ishqqa muftalo bo‘lgan dam, ya’ni ishq aro tushgan dam o‘t bo‘ladi. Axir o‘tga neki tushsa, u ham o‘t bo‘ladi; Ishq kimning atrofida aylansa, uni o‘rtaydi. Chunki o‘t domiga tushgan kuyadi, o‘rtanadi; Ishq sargardoni bo‘lmoq o‘yin emas. Axir jismiga o‘t tushgan kimsa quyunga ayladi; Ishq aro faqat o‘rtanmoq lozim. O‘t aro kuymoqdan o‘zga chora yo‘q”. Bu paremada ham “ishq” va “o‘t” leksemalari orqali sinonimiya kuzatilgan. Bu sinonimlar paremalarning semantik-struktural tuzilishida ham muhim o‘rin tutadi.

Kimki ishqig‘a kamol erodidur,

Onga ma’shuqi vujudi yodidur.

Sizda ham gar ishqdin bor ersa lof,

Aysh eting gar kelsa ondind dardu sof.[A.Navoiy. 1996. 297-b.]

Kimki ishqda kamolot kasb etsa, uning vujudida ma’shuq yodi mujassamlashgan bo‘ladi. Agar siz ham ishq borasida lof urmoqchi bo‘lsangiz, undan sizga dard kelsa ham shodlik o‘rnida qabul eting! Paremalarning har ikkala qismi ham alohida qo‘shma gapdan iborat. Birinchi qismdagi paremada “ishq” va “ma’shuq” so‘zlari ikkinchi qismida esa “dard” va “shodlik” leksemalari qatnashgan. Birinchi qismdagi so‘zlar o‘zaro yaqin tushunchani anglatgan bo‘lsa, ikkinchi qismi o‘zaro zid tushunchadir.

So‘z qo‘llashning san’at darajasida yoki san’at darajasida emas ekanligini baholash uchun, eng avvalo, so‘z va uning ma’nosi va bu ma’noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so‘zning qo‘llanilishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan qo‘shimcha ma’no nozikliklari ba’zi hollarda, avvalo, so‘z ma’no qurilishining o‘zida imkoniyat sifatida mavjud bo‘ladi, ular so‘zning ma’no qurilishi tarkibida ilgari qayd etilgan bo‘ladi.

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan - kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Umuman, “Lison ut-tayr” dostonida yaratilgan paremalarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, didaktikasi bilan qadimdan mashhur bo‘lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oddiy axloqiy nomalardan tortib kishilar hayotidagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatlarigacha o‘z in’ikosini topgan.

Adabiyotlar

A.Navoiy. (1996). Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. Fan. – Toshkent.

A.Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayoni www.ziyouz.com kutubxonasi

Begmatov E. (1985). Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Fan.

Бердиёров Х., Расулов Р. (1984). Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Ўқитувчи.

R.Jumaniyozov. (1964). So‘z ko‘rki maqol.

BOLALAR ICHKI NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Marjona Raxmonova*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar ichki nutqining o'ziga xos xususiyatlari xususida so'z yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, ichki nutq ovozsiz ichki muloqotning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanib, keltirilgan maqolada bu nutqiy jihat psixolingvistik jihatdan tadqiq etiladi. Ichki nutqqa xos bo'lgan jihatlar xususida turli olimlar tomonidan turfa xil fikrlar ifodalangan bo'lib, ularning ayrimlari maqolada namuna sifatida keltiriladi. Tashqi nutq va uning turlarini maktab darsliklaridan boshlab juda yaxshi o'rganganmiz. Ichki nutq esa o'zbek tilshunosligida yetarlicha o'rganilgan emas. Biz ichki nutqni monologlar shaklida qisman o'rganganmiz, xolos. Aynan ichki nutq mavzusini lingvistika va psixolingvistika fanlari yuzasidan o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Chunki tilni, nutqni o'rganar ekanmiz, ushbu hodisalarning o'z – o'zidan – shunchaki, nutq a'zolarining harakatidan hosil bo'lib qolmaganligini, ular uchun ongdagi holatlar asos vazifasini bajarayotganini ham bilib olishimiz lozim.

Kalit so'zlar: *ichki nutq, egosentrik nutq, metokognitsiya, metakognitiv bilim, arifmetika, nutq, tashqi nutq, muloqot.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S INNER SPEECH

Abstract

This article talks about the specific features of children's inner speech. It should be noted that inner speech is considered a unique form of silent inner communication, and this aspect of speech is studied psycholinguistically in the presented article. Various scientists have expressed different opinions about the features of internal speech, and some of them are given as examples in the article. We have studied foreign speech and its types very well, starting from school textbooks. Internal speech is not sufficiently studied in Uzbek linguistics. We have only partially studied inner speech in the form of monologues. We have set ourselves the goal of studying the topic of inner speech in terms of linguistics and psycholinguistics. Because when we study language and speech, we should learn that these phenomena are not formed by themselves, just from the movement of the speech organs, but that the states of consciousness serve as the basis for them.

Key words: *inner speech, egocentric speech, metacognition, metacognitive knowledge, arithmetic, speech, external speech, communication.*

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti izlanuvchisi
mrsrakhmonova@gmail.com

Bolalar ichki nutqini o'rganish Yevropada 1960-yillardan boshlandi va keng o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotchi Winsler 2000-yillarda davomida olib borgan tajribalarida bolalarda nutq 3-4 yoshdan boshlab ikkinchi bosqichga o'tishini, ya'ni ular o'zari bilan gaplasha boshlashlarini aytib o'tadi. Bu sa o'z navbatida "ichki nutq" deb ataladi. Bunday holatda bola atrofidagi kattalarga o'z nutqida taqlid qilsa, demak u kattalarning unga nisbatan xatti-harakatlarini tartibga solishga urunayotgan bo'ladi. Bundan tashqari boallarda ichki nutq atrofda yuz berayotgan va unga ta'sir o'tkazayotgan hodisalarni qayta kodlash uchun xizmat qiladi. Dastlab ichki nutq bolalarda juda ham keng yoki cheksiz bo'lishi ham mumkin. Chunki ular o'zlarini tanqid qiladigan kimdir bilan suhbatlashgandan ko'ra ichki nutqni afzal ko'radilar. Bu esa bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchning susayishiga olib keladi. Kattalardan, asosan, bolalarni tanqid qilish o'rniga ularni rag'batlantirish talab etiladi. Kognitiv bilimlarni qayta ishlash va miyada dekodlash jarayonida ham bolalar uchun ichki nutq eng birinchi darajali omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog'liqdir. Bola jumalarning mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqot shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ — shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Ichki nutq bolalardagi kognitiv rivojlanishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Dastlab tashqi nutq bilan qorishiq holda yuzaga chiqadigan ichki nutqni biz kattalar eshitsak ham eshitmaganday turishimizva e'tibor bermasligimiz, e'tibor bersak ham bolalarga buni bildirmasligimiz lozim. Chunki bolalar ichki nutqni o'zlarining "sir"lari deb biladilar. Kattalar tomonidan chegaraning buzilishi esa ularda uyalish, kuchli xafa bo'lish, stress, asabiylik, dovdirash kabi salbiy psixologik holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zan bolalar ichki nutqlarida o'zlarining orzularini ham aytadilar. Bunday holatda biz ularning orzularini amalga oshirishga va ularga "syurpriz" qilishga harakat qilsak ular uchun cheksiz quvonch ulashishimiz mumkin. Ammo ba'zi holatlarda bolalarda ichki nutqning mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Bunday vaziyatda ota-nalar bolalarga yordam berishi, ya'ni har xil mashqlar bajartirish orqali ichki nutq shakllantishlari mumkin. Jane Healy o'zining "Your Child's Growing Mind" (2004) asarida bu haqida batafsil ma'lumot beradi. U oddiy bir jarayon orqali bolada ichki nutq shakllantirishni boshlash mumkinligini aytadi: bunda har xil rangga bo'yalgan qog'oz bo'lakchalarini olib, ularni doskaga (yoki biror taxtaga) ilamiz va birma bir ranglar

nomini aytamiz (masalan, qizil yoki ko'k). Bola esa ortimizdan qaytaradi. Biroz turib yana qayta aytadi. Bu bolaga harakatlarini boshqarishga yordam beradi. Miyaga esa mashqni tezroq bajarishga buyruq beriladi. Ushbu mashq bolaga ayni vaziyat va jarayon haqida o'ylashni o'rgatadi. Healy o'z kitobida "sehrli so'zlar" jumlasini keltirib o'tadi va bu so'zlarni bolaga 4 yoshdan boshlab o'rgatish lozimligini hamda bu paytda bola so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglay olishini uqtiradi. Bu so'zlar "men qila olaman", "men eplayman", "keyinroq shunday qilaman" va boshqa shu kabi ishonchni oshiruvchi jumlar edi. Yana bir usul esa siz o'zingiz rejalashtirayotgan biror ish, faoliyat yoki biror muammoli vaziyat haqida "baland ovozda o'ylang", ya'ni siz o'ylayapsiz, aslida u - ichki nutq, ammo bolada ko'nikma hosil bo'lishi uchun ichki nutqingizni baland ovozda o'zingizga gapirayotgandek takrorlang. Masalan, "nonushta uchun nima tayyorlasam ekan?", "uyda tuxum bor ekanmi?", "tezroq harakat qilmasam ulgura olmayman" kabi. Haley ushbu amaliyotlarni bajarish orqali bolaning miyasini uyg'otish mumkin ekanligini aytib o'tadi. Bu mashqlar orqali biz bolada so'zlash, fikrlash va miya o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaymiz. Asosan, 3-5 yosh oraliqida bu mashqlar bajarila boshlansa, 9 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda bu amaliyot bolada to'liq o'zlashtiriladi va bolalar tengdoshlari bilan bir xil fikrlay boshlaydilar. Bolalardagi ichki nutqning kech rivojlanishi yoki rivojlanmay qolishi ko'proq impulsiv mayllarga ega bolalarda uchraydi. Bunday bolalar diqqatni jamlay olishmaydi. Bir qarashda ular giperaktivdek ko'rinadilar, ammo ularning harakatlari aslida tartibsiz va maqsadsiz bo'ladilar. Bunday bolalarda ichki nutq miyada kechmasdan bira to'la harakatga aylanadi. Ular dars vaqtida o'rinlaridan turib ketishlari, kimningdir joyiga borib o'tirib olishlari, doskaga istalgan so'zlarni yozib, har xil rasmlarni chizishlari ham mumkin. Chunki ularda fikrlash qobiliyati juda sust bo'ladi. Ammo bunday bolalarni biz psixologik jihatdan nosog'lom deya olmaymiz. Healy impulsiv bolalar bilan ishlaganda ularga dastlab 5 savolni o'zlariga berishlarini va shu savollarga javob berishni o'rgatishni maslahat beradi: Nima qilishim kerak? Buni qanday qilsam foydaliroq bo'ladi? Avval nima qilishim kerak bo'ladi? Rajaga amal qilyapmizmi? Rejadagi ishlarni tugatdimmi? Bu savollarga javob toppish orqali bola reja tuzishni va tartibni o'rganadi. Dastlab bola bu savollarni baland ovozda aytadi, keyinchalik esa bu savollarni o'ylay boshlaydi, ya'ni ichki, individual holatga keltiradi. Bu orqali unda ichki nutq shakllanib, harakatlarini tartibga sola boshlaydi. Healy bu usulni "muammolarni yechish texnikasi" deb ataydi. Bu murakkab jarayonni falsafiy jihatdan tahlil qilsak u til, ong, tafakkur, tasvir va tasavvur, muloqot hamda o'z-o'zini bilishning kesishmasidan tashkil topadi. Shu o'rinda metakognitsiya haqida to'xtalsak. Metakognitsiya – o'ylash haqida o'ylash, ya'ni o'y-fikrlarimizni tartibga solish jarayoni bo'lib, ichki nutqning bir qismi hisoblanadi. Bolalarda metakognitsiya jarayoni ichki nutq bilan birga shakllanadi. Metakognitsiyada bolalar ko'nikma hosil

qilish uchun o'zlashtirgan bilimlarni miyada qayta ishlaydilar. Metakognitiv bilim – intellectual faoliyatni boshqarishda bevosita va bilvosita qabul qilgan axborotlarni qabul qilish, boshqarish (regulyatsiya qilish). Metakognitiv bilim bevosita qabul qilingan axborotlar ustidan intellektual nazorat olib borishni ta'minlaydi va metakognitiv bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha metakognitiv bilimga ega bo'lgan bolalar maktabga o'qishga qabul qilingach, ularning intellektual qobiliyatlari yuqori bo'lishi aniqlangan. Metakognitiv bilimlar bolaning fikrlash qobiliyatini o'stiradi, metabolish jarayonlarini rivojlantiradi. Bunda topshiriqlarni bajarish jarayonida bola diqqatni jamlashni o'rganadi, ma'lumotlarni saralay oladi, o'zining faoliyatiga baho beradi. Ilk bor Jon Fleyvel tomonidan 1976-yilda fanga kiritilgan metabolish tushunchasi, bugungi kunda chuqur o'rganilmoqda. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, metabolish insonning o'zlashtirgan bilimlarini miyada qayta ishlashidir. Bilimlarni qayta ishlash jarayonida esa bevosita miyada ichki nutq faollashadi. Ichki tahlillar, tavsiflar orqali insonda o'zlashtirilgan bilimga nisbatan ko'nikma hosil bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ham ushbu jarayonni shakllantira olishimiz lozim. Chunki maktab yoshiga yetganda bolalarda yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'lmaydi. Yuqorida esa metabolish va ichki nutqni rivojlantirish uchun bir qator mashqlar haqida ham aytib o'tdik. Logopediya sohasida gapirishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashdan oldin ularning ichki nutqi rivojlanganmi yoki yo'q ekanligi aniqlashtiriladi. Bunda bolaga bitta rasmni bir necha bo'laklarga bo'lgan holda ko'rsatiladi hamda dastlab, tartib bilan terib beriladi. Bemor bola ushbu rasmga 2-3-daqiqa qarab uni o'rganadi. Logoped rasmni tartibsiz holatga keltirib, boladan yana qayta terishini so'raydi. Agar bola rasmni to'g'ri tera olsa, demak unda ichki nutq rivojlangan bo'ladi va gapirishidagi nuqsonni davolash ancha oson kechadi. Aks holda esa ichki nutqni shakllantiruvchi shunga o'xshash mashqlar bilan shug'ullanish kerak bo'ladi. Ichki nutq, asosan, maktab Yoshida, ya'ni 6-7 yoshdan individuallashtiriladi. Ungacha esa bolalarda tashqi nutq bilan qorishgan holda (ular o'zlari sezmagan va xohlamagan holda baland ovozda o'zlari bilan gaplashishlari mumkin) bo'ladi.

— *“Bog'cha opa bo'lganda albatta tanirdi, — deb o'yladi u ichida, — keyin kelardi-da, qulog'imdan cho'zib burchakka turg'azib qo'yardi. Ko'zoynakli opa esa tanimadi. Yo'q, ko'zoynakli opa emas, otini qiziq qilib aytgan edi. Mu... mula... E-e, “bog'cha opa” deyish oson edi, bog'chaga — bog'cha, opaga — opa. Nega ularning otini “maktab opa” qo'yishmagan? Maktabga — maktab, apaga — opa bo'lardi. Aytishga ham oson edi”.* (Isaxonova, 2013, 2-b.)

— *“Qaysi biri edi? Unisi... yo'q, bunisi... Yo'q, kattasi katta bo'ladi-da. Anavi bo'yi uzuni — kattasi!”* (Isaxonova, 2013, 2-b.)

“Qani edi, shu chumchuqning ichiga kirib, unda kechayotgan jarayonlarni ko‘rib bo‘lsa”, – o‘yladi u va o‘qituvchining ravon nutqidan allalanib, o‘z odaticha, pinakka ketdi. Biologiya darsi davom etardi. (<https://kun.uz>)

Onasi bilan bo‘lgan suhbatni eslab bo‘sh ko‘cha bo‘ylab borarkan, bolaning oyoq kiyimi ho‘l bo‘lib ketdi. “Onam tez orada keladi”, - deb shivirlaydi u. (ichki va tashqi nutqning qorishib ketishi)

Bola to‘shakda tinchgina yotar, buvisining xizmatidan minnatdor bolib turib, xayoldan o‘tkazdi: ertaga ertalab sog‘ayib, albatta, maktabga borishi kerak. U yana maktabida yaqinda o‘zlarining o‘rmonida paydo bolgan uch bug‘u haqida qanday qilib hikoya qilib berishigachao‘lab qo‘ydi, ya‘ni bug‘ularning oq urg‘ochisi – bu o‘sha Shoxdor ona bug‘u, uning kattagina va baquvvat bolasi ham bor, ular bilan ulkan shoxli bahaybat qo‘ng‘ir bug‘u ham birga, u juda kuchli bolib, Shoxdor ona bug‘u va uning bolalarini bo‘rilardan qo‘riqlaydi. U yana shular bilan birga, agar bug‘ular shu yerda qolib, hech qayoqqa ketib qolmasa, unda Shoxdor ona bug‘u tezda O‘razqul amaki bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirib berishini ham hikoya qilishni ko‘ngliga tugib qolgan edi. (Aytmatov, 2018, 132-b.)

Bola esa arg‘uvon daraxti tagida ko‘zlarini yumgancha xayol surardi: “Yuliya buvim bechora obdan charchabdi. Ilgarilari ovozi naqadar yoqimli edi, endi bo‘lsa odamni naq chaqib olay deyapti. Balki, menga shunday tuyulayotgandir. Anovi odam chindan ham buvammikin-a? Shunchalik osoyishta va yoqimli gapirar ekanki!.. Ha, buvim charchaganga o‘xshaydi. Ishqilib, manavi cholga qo‘shib jo‘natib yubormasa go‘rgaydi. Bundan keyin sirayam uni xafa qilmasdim! Jo‘natmasa, jo‘natib yubormasa mayliydi...” (Nodar Dumbadze, 2014, 3-b.)

Bola esa o‘y o‘ylab borardi: “Mana, oldimda keksa, kasalmand, inqillab-sinqillagan, boshida rangi uniqib ketgan shlyapali chol boryapti... U meni daraxtga oyog‘imdan osib qo‘ymoqchi... Chol mening bobom... Otamning otasi... Bobo! Uning ketidan ergashishga meni nima majbur qilyapti? Nima uchun xuddi quldek itoat bilan shu chang yo‘ldan sudralib ketyapman: ikki qadam chetga chiqsam bas, to‘rt tomonim qibla, ketaveraman!.. Lekin unday qilolmayman! Qila olmayman! Meni qandaydir bir kuch majbur qilib olib ketyapti, cholning ketidan borasan-vassalom, deyapti! Bu qanday kuch o‘zi? Nima uchun men — charchab holdan toygan, och, issiq va tashnalikdan behol bo‘lgan bola shartta ortimga qaytib keta olmayapman? Nega? Bu qanday kuch o‘zi?” (Nodar Dumbadze, 2014, 3-b.)

Oftobda qoraygan, sochlari paxmoq bola endi chinor tagida belkurakka tayanib, loy bo‘lib ketgan yalangoyoqlariga g‘amgin qarab turar va o‘ylardi: “Bir yilda u shunchalar qarib, buchayib qolibdi. Yuzi to‘la ajin... Ovozi qandaydir bo‘g‘iq... Lekin, baribir, u mening onamga — yosh, chiroyli, yoqimtoy, quralayko‘z, mehribon onamga o‘xshaydi. Sochlari ham, yurishi ham o‘xshaydi. Agar ko‘zimni yumib tursam uni o‘z onam deb o‘ylashim mumkin”. (Nodar Dumbadze, 2014, 3-b.)

Yosh bolalarda ichki nutq, asosan, 3 yoshdan (tashqi nutq va fikrlash jarayoni shakllana boshlagani bilan) shakllana boshlaydi. Dastlab ichki nutq tashqi nutq bilan qorishgan holda bo‘ladi, ya’ni bolalar aslida ichda aytishlari kerak bo‘lgan fikrlarini baland ovozda aytib yuboradilar. Bu jarayon, asosan, bolalarning biror o‘yin mashg‘ulotlari bilan mashg‘ul bo‘lgan vaqtlarida yaxshiroq ko‘zga tashlanadi. Bu jarayonda bola o‘yindagi noto‘g‘ri harakati uchun o‘zini koyishi yoki to‘g‘ri amalga oshirgan xatti – harakati uchun o‘zidan xursand bo‘lib “ura”, “yes”, “epladim”, “zo‘r-zo‘r”, “vau” va boshqa shu kabi so‘zlarni aytishi mumkin. Shu payt unda nima degani haqida savol berilsa, u javob berishni xohlamaydi, chunki bola o‘zining individualligini saqlab qolishni xohlaydi. Aynan shu holat orqali biz bolalarning ichki nutqini tashqi nutqidan ajrata olishimiz mumkin. 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan olib borgan kuzatishlarimiz natijasida bolalardagi ichki nutq 3 yoshdan 4 yoki 4 yarim yoshgacha baland ovozda aytib yuborilishi, 5 yoshdan boshlab esa ichki nutq tashqi nutq bilan qorishiq holatda kelganda, bolaning tovush tembri biroz pasayganini, 6 yoshdan esa pichirlashga o‘tganini ko‘rdik. 7-8 yoshdan boshlab ichki nutq to‘liq individuallashtiriladi va tashqi nutqdan batamom ajratiladi. Bu jarayon bolaning maktabga borishi bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki dars jarayonida o‘qituvchi bolalardan tinchlik saqlashlarini va bir-birlariga xalaqit bermasliklarini talab qiladi. Bunday holatda bola sekin pichirlashga, undan ichda o‘zi-o‘zi bilan o‘zi muhokama qilishga o‘tadi. Ichki nutqning shakllanishida, ayniqsa matematika va mental arifmetika fani ko‘proq yordam beradi. Chunki o‘quvchi misol va masalalarni yechish vaqtida miyada fikrlash jarayoni tezlashadi. Ammo dars qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda u dastlabki muhokama uchun paydo bo‘lgan fikrlarini baland tovushda ayta olmaydi, bu holatda u ichki nutq orqali o‘zi bilan o‘zi misol va masalalarning javoblarini hisoblab, tahlil qila boshlaydi. Oxirida eng maqbul javobni daftarga yozadi yoki og‘zaki (tashqi) nutqda ustoziga aytadi. Umuman nutqning rivojlanishi uchun bolada ong va ong osti ko‘nikmalar to‘liq rivojlangan bo‘lishi kerak. Shuningdek, biz ko‘pincha e’tibor bermaydigan yoki bolaning shunchaki “tabiiy holat” deb hisoblaydigan bolaning o‘zi bilan gaplashishi uning sog‘ligi, aqliy faoliyatining rivojlanishi va nutqining shakllanishi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Mutaxassis logoped bilan suhbatlashganimizda, u gapirishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashdan oldin birinchi qabulda bolalarning ichki nutqi shakllangan yoki yo‘q ekanligini aniqlab olishini aytgan edi. Buning uchun esa oddiy bir tajriba o‘tkazilar ekan. Tajribada mutaxassis bolaga bitta rasmni to‘rt-besh bo‘lakka bo‘linganini ko‘rsatadi va ularni tartib bilan yig‘ib beradi, bola ma’lum vaqt (1-2 daqiqa) davomida suratga termulib turgach, uni yana tartibsiz holatga keltirib, boladan qayta terib berishi so‘raladi. Agar patsient uni to‘g‘ri terib bera olsa, unda ichki nutq shakllangan va tashqi nutqidagi nuqsonlarni davolash jarayoni oson kechadi. Aksincha, bola rasmlarni to‘g‘ri tartibda terib bera olmasa, “unda ichki nutq

shakllanmagan va shu sababli tashqi nutqida ham muammolar paydo bo'lgan", deb tashxis qo'yiladi. Bunday bolalar bilan ishlashda dastlab, ularning ichki nutqini shakllantirish uchun nashqlar beriladi. Ichki nutq shakllanib bo'lgach, tashqi nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qilinadi. Agar bajarilgan amaliyot va mashg'ulotlar natijasida bemor bolada ichki nutq shakllanmasa bolaning psixologik holati o'rganiladi. Psixologik holatiga qarab bola bilan shug'ullanib boriladi. Uy sharoitida esa bolalarning ichki nutqlarini shakllantirish uchun 3-5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ko'proq rasm chizdirish, ertaklar o'qib berish, har xil jumboqli o'yinlar o'ynatish va fikrlashga undaydigan mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish kerak bo'ladi.

-Oyimga ham ukol qilishsa, sog'ayib ketadilar, deb o'yladi bolakay.

O'rniga qaytib yotarkan, osmonga qarab yana qo'lini cho'zdi:

-Oyimni tuzalishiga katta pul ber, Xudojon .

"Ishqilib yutaylik-da. Eh, oyoq kiyimim yo'q-ku. Endi nima qilsam ekan? Bo'ldi, Sardordan so'rayman". Shunday xayol bilan bolakay o'zidan ikki eshik narida turadigan qo'shnisining eshigini taqillatdi .

Bazan o'yladi, "ketib yuborsammikin qishlog'imga. Yo'q, men hali yulduz bo'laman", - deb ovutdi o'zini .

Kichkina Ra'no nima qilarini bilmas edi.

Xudo nimaga ukachamni olib qo'ydi?

"Nimaga olib qo'yding" deb so'rardi Xudodan.

Xudo javob bermas edi .

"Onam qiynalib ketdi-ku? Otam so'rida boshini egib o'tirib qolmoqda-ku? Men ham sog'inib-sog'inib ketyapman-ku?"

- Ariqcha, Xudo nimaga ukachamni olib qo'ydi?

- Bilmadim, o'rtoqjon. Unaqa narsalarga mening aqlim yetmaydi. (Sulton I, 2017, 275-b.)

- Ariqcha, oqyapsanmi?

- Ha, qizgina, oqyapman.

- Suving urug'larga to'lib ketibdi.

- U o'tlar ayyor-da. Kelib yulib tashlashingni sezib, urug'larini suvlarimga sochishdi. Oqib borib, boshqa xavfsiz joylarga o'rnashishsin, deya.

- Men hammasini yulib tashladim. Endi ekinzorimiz top-toza.

- Yasha, qizgina. Juda aqlli qizsan-da.

- Bo'pti, ariqcha, men ketdim. Xosi bilan o'ynayman desam, Xosinikidayam ish ko'p ekan.

- Mayli, qizaloq, yaxshi bor. (Sulton I, 2017, 276-b.)

"Onam tez orada keladi"- deb shivirlardi u o'ziga o'zi .

“Onam biz uchun, ro‘zg‘or uchun uzoqlarda yuribdi”,- deb o‘ziga tasalli beradi.

Badiiy mantlardan olingan parchalarda ko‘rishimiz mumkinki, bolalar ichki nutqlari, asosan, tashqi nutqlaridan farq qilmaydi. Hajmida biroz farq qilishi mumkin. Ammo ular ichki nutqda (garchi ichki nutq tashqi nutq bilan qorishib oshkoralik hosil qilgan bo‘lsa ham) tashqi nutqqa nisbatan ancha erkin bo‘ladilar. Kattalardan cho‘chish, o‘ziga ishonchning zaifligi kabi holatlar kuzatilamydi. Izzat Sultonning “Onaizorim” qissasidan keltirilgan parchada qizchani ichki nuqti berilgan. Ammo bunda ichki nutq qoidalariga nisbatan buzilish va ziddiyat holatlari kuzatiladi, chunki so‘zlovchi va tinglovchi birlashgan holatda emas. So‘zlovchi -o qizcha, tinglovchi sa ariqcha. Fikrlar monolog emas, dialog tarzida tuzilgan. Buni tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalo bolalar psixologiyasiga e‘tiborimizni qaratmog‘imiz lozim. Bolalar ichki nutq nima ekanligini yoki ichki nutqdagi fikrlarini kimga aytayotganliklarini bilmaydilar. Shunchaki gapirib ketaveradilar. Ammo ba‘zida ular o‘zlariga “suhbatdosh” topib olishlari ham mumkin. Ular uchun “suhbatdosh”ning kim? yoki nima? jonli yoki jonsiz, real yoki xayoliy ekanligi muhim emas. Ularni adolat bilan tinglasa bo‘ldi. Asarda qahramon – qizcha ham shu qoidaga amal qiladi va ariqchani o‘ziga sirdosh, suhbatdosh qilib oladi. Unga borib mitti qalbining tub-tubidagi fikrlarini aytar ekan, savollariga ariqchani tilidan o‘zi javob beradi. Oyisining koyiganidan tortib, yaqin dugonasi haqida ham u bilan sirlashadi. Sababi, ariqcha unga qarshi fikr bildirmaydi, uni sabr bilan tinglaydi. Shu o‘rinda yana bolalar psixologiyasiga qaytsak, bolalar uchun eng yomon inson – bu ularga qarshi fikr bildirgan, koyigan va ularning ustidan kulgan inson. Asarda qizcha ham suning uchun ariqchani sirdosh sifatida tanlaydi. Balki ko‘nglida odamlar uni telbaroq deb o‘ylamasliklari uchun o‘z-o‘ziga gapirgandan ko‘ra ariqcha bilan gaplashishni afzal biladi:

– *Ariqcha, Xudo nimaga ukachamni olib qo‘ydi?*

– *Bilmadim, o‘rtoqjon. Unaqa narsalarga mening aqlim yetmaydi. (Sulton I, 2017, 280-b.)*

Ariqcha va qizchani dialogida ariqchani “bunaqa narsalarga aqlim yetmaydi” jumlasiga e‘tibor qaratsak, qizcha ariqchani o‘ziga tengdosh deb biladi. O‘zidan katta emas. Shu sababli ham u bilan “sirlashadi”. Aslida esa ukachasini Xudo nimaga olib qo‘yganiga uning aqli yetmaydi. Buni esa ariqchani tilidan o‘ziga uqtiradi. Bu ham bolalar fitratiga xos bo‘lgan vaziyatdir.

Xulosa o‘rinda ayta olamizki, aynan yosh bolalar nimani o‘ylashsa shuni gapiradilar. Ko‘p hollarda hech qanday o‘zgarishlarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri ongda fikrlarni tashqi dunyoga nutq vositasida uzatadilar. Kattalar esa o‘ylagan fikrlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini “tarozi”ga qo‘yib, keyin eng maqbulinagina tashqi dunyoga uzatadilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, ichki nutq yosh bolalarda har doim ham

yashirin tarzda kechmaydi. Bolalar ichki nutlarini ogʻzaki holda ham bayon qilish holatlari juda koʻp uchraydi.

Adabiyotlar:

Aytmatov Ch. (2018). Oq kema. Yoshlar.

Isaxonova Sh. (2013). Katta “A”, kichkina “A”. Toshkent.

N. Dumbadze. (2014). Qon. Toshkent.

Nosirova R. (2020). Maktabgacha taʼlimda metakognitiv koʻnikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qoʻllash boʻyicha tajriba-sinov ishlarining mazmuni. Impact factor jurnali, 614-622.

Sulton I. (2017). Asarlar. Romanlar va qissalar. 2-jild. Gʻ.Gʻulom.

<https://vk.com/wall>

<https://championat.asia/oz/news>

OBJEKTIV VA SUBYEKTIV MODALLIK MA'NOLARINING DIXOTOMIYASI

Muzaffar Obilov *

Annotatsiya

Ushbu maqolada modallik kategoriyasining obyektiv va subyektiv turlari o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, obyektiv modallik voqelikning real holatini aks ettirsa, subyektiv modallik so'zlovchining fikrga munosabatini ifodalaydi. Ular grammatik va leksik vositalar orqali turlicha namoyon bo'ladi hamda gapning semantik va pragmatik qirralariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer kabi olimlarning modallik tasnifiga doir qarashlari tahlil qilingan. J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning modallik talqinidagi yangi jihatlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *modallik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modallik tasnifi, modallikning lisoniy ifodasi.*

DICHOTOMY OF THE MEANINGS OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE MODALITY

Annotation

This article analyzes the differences between objective and subjective types of modality category. According to the results of the research, the objective modality reflects the real state of reality, while the subjective modality represents the speaker's attitude to the idea. They are manifested in different ways through grammatical and lexical means and affect the semantic and pragmatic aspects of the sentence. The article also analyzes the views of scientists such as G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer on the classification of modality. New aspects in the modality interpretation of J. Bayby, R. Perkins and V. Pagliuca are shown.

Key words: *modality, objective modality, subjective modality, modality classification, linguistic expression of modality.*

Tilshunoslikda modallik kategoriyasi til va nutqning muhim hodisalaridan biri sifatida o'rganiladi. Modallik gapda aks ettirilgan voqelikning haqiqatga munosabatini va so'zlovchining fikrga nisbatan pozitsiyasini turli lisoniy vositalar yordamida ifodalaydi. Modallik murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning mohiyatini to'liq ochib berish va tasniflashga oid turli yondashuvlar mavjud. Modallikning shakllanishida obyektiv va subyektiv omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Muayyan bir modallik ma'nosining obyektiv yoki subyektiv ekanligini aniqlash

* University of Business and Science, m-obilov@mail.ru.

ba'zan mushkul kechadi. Obyektiv va subyektiv modallik turlarini farqlashda tadqiqotchilar har doim ham yagona fikrga kela olmaydilar. Shunday bo'lsa-da, modallikni ifodalovchi vositalarning aksariyatini obyektiv yoki subyektiv modallikka mansub deb hisoblash mumkin.

Hozirda modallikka doir tadqiqotlar turli yo'nalishlarda davom etmoqda. Tilshunoslar bu murakkab hodisaning kommunikativ va pragmatik qirralarini yoritishga, uning diskursiv faoliyat bilan aloqasini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Modallikning lisoniy ifodasi turli tizimli tillarda qiyosiy o'rganilmoqda. Modallik turlarining farqlanishi va ularni bir-biridan ajratishda hali ham munozarali o'rinlar mavjud. Xususan, obyektiv va subyektiv modallikning an'anaviy dixotomiyasi ba'zan shartlilik kasb etishi va ularning o'zaro bog'liqligi butun modallik maydoni uchun umumiy ekanligi e'tirof etilmoqda. Shunday bo'lsa-da, bu ikki tushuncha hamon modallikni tasniflashda asos sifatida xizmat qiladi.

Modallikning mohiyatini teran anglash uchun turli yondashuvlarni birlashtirgan holda, uning lisoniy ifodasi va nutqiy voqelanishini birgalikda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Modallikka oid ilmiy izlanishlarni fundamental va amaliy yo'nalishlarda olib borish, uning kognitiv va lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratish zarurati mavjud. Hozirgi zamon tilshunosligida modallik tadqiqi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shubhasiz, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar tilning kommunikativ imkoniyatlarini yoritishda, nutqiy muloqot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada modallik kategoriyasini tadqiq etishda tavsifiy va qiyosiy-tipologik yondashuvlar qo'llanilgan. Modallikni ifodalovchi lisoniy birliklar semantik va funksional jihatdan tahlil qilingan. Turli tillardagi modallik vositalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, modallik hodisasiga tizimli yondashuv asosida uning turli sath birliklari bilan aloqadorligi o'rganilgan.

Tilshunoslikda modallik kategoriyasini tavsiflash va tasniflashga doir turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ko'pchilik olimlar modallikning ikkita asosiy ko'rinishi – obyektiv va subyektiv modallikni ajratib ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu ikki modallik turi o'rtasidagi farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

G'arb tilshunosligida "ildiz" (root) modallik sifatida bilingan obyektiv modallik gapning propozitsional mazmuni bilan uzviy bog'liq. U voqelikning real holatini, ya'ni ifoda etilayotgan fikrning haqiqatga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi. Obyektiv modallikning ifodalanishida asosan grammatik vositalar, jumladan, fe'l mayllari, modal fe'llar faol ishtirok etadi. Bu modallik turi orqali gapning to'g'riligi yoki noto'g'riligi, ehtimollik darajasi kabi ma'nolar uzatiladi. Masalan, "Toza ichimlik suv muammosi bugun to'la yechim topdi. (Yangi O'zbekiston. 2024,

iyun)” gapida obyektiv modallik mavjud bo‘lib, unda tasvirlangan vaziyat real voqelikka mos keladi.

Subyektiv modallik esa, g‘arb tilshunosligida “epistemik” (epistemic) modallik deb ham yuritiladi. U so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini va hissiyotlarini aks ettiradi. Subyektiv modallikning ifodalanishida leksik vositalar, xususan, modal so‘zlar, kirish so‘zlari, undov so‘zlar keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim sintaktik konstruksiyalar (masalan, tasdiq so‘roq gaplar, modallashgan konstruksiyalar) va prosodik vositalar (intonatsiya, urg‘u) ham subyektiv modallikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu modallik turi yordamida so‘zlovchi o‘z fikrining ishonchlilik darajasi, gumonliligi, shuningdek, emotsional holati kabi ma’nolarni tinglovchiga yetkazishi mumkin. Masalan, “Qabul qilinayotgan har qanday hujjatlardagi muhim g‘oyalar, tashabbuslar amalga oshmay qolishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida subyektiv modallik ifodalangan bo‘lib, unda so‘zlovchining taxmini, gumonliligi aks etgan.

G‘arb tilshunosligida modallikning obyektiv va subyektiv turlarini farqlash keng tarqalgan bo‘lib, ular “ildiz” va “epistemik” modallik terminlari bilan yuritiladi. Shu bilan birga, ayrim olimlar modallikning boshqa turlarini ham ajratib ko‘rsatishga harakat qiladilar. Jumladan, deontik modallik (majburiyat, ruxsat, taqiq kabi ma’nolarning ifodalanishi), dinamik modallik (imkoniyat, qobiliyat kabi ma’nolarning bildirilishi), aletik modallik (mantiqiy zaruriyat yoki imkoniyatning aks ettirilishi) kabi turlari ham ilmiy adabiyotlarda tilga olinadi.

G.Zolotovanning modallik kategoriyasini tasniflashga doir qarashlari ushbu murakkab hodisaning turli qirralarini ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini inobatga olgan holda farqlashga imkon beradi. Uning yondashuvida modallik gapning umumiy mazmuniy tuzilishi bilan uzviy aloqada talqin qilinadi va modallikning turli til sathlaridagi ifodalanish vositalari qamrab olinadi.

Zolotova modallikni ifodalovchi munosabatlarni uch turga ajratadi:

1. So‘zlovchining voqelikka munosabati. Bu modallik turi tashqi sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, asosan fe’l mayllari orqali ifodalanadi hamda asosiy yoki predikativ modallikni anglatadi. Asosiy modallik o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

a) haqiqiy yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri modallik. Bunda gapning mazmuni real voqelikka mos keladi va aniq fe’l mayllari orqali ifodalanadi. Misol tariqasida keltirilgan “Uchrashuv avvalida Adil Karimli davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomlari va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida aynan mana shu modallik turi mavjud;

b) noreal yoki bilvosita modallik. Bunda gapning mazmuni real voqelikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmaydi, balki faraz, o‘xshatish, istak kabi ma’nolarni ifodalaydi. Noreal modallik shart mayli orqali ifodalanadi. “Yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish va innovatsiyalar kabi zamonaviy sohalar istiqboldagi hamkorlikning

muhim yo‘nalishlariga aylanishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida esa ehtimollik ma’nosini ifoda etuvchi noreal modallik qayd etilgan.

2. So‘zlovchining gap mazmuniga munosabati. Ushbu modallik turi ham tashqi sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, so‘zlovchining gapda ifoda etilgan fikrga nisbatan ishonch yoki noaniqlik darajasini bildiradi. Bunday modallik modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. “Yon-atrofga qarab, bir xil ism-familiyali boshqa tengdoshim bo‘lsa kerak, deya jim o‘tirganman. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “kerak” modal so‘zi orqali so‘zlovchining noaniqlik munosabati aks ettirilgan.

3. Predmet va predikativ belgi o‘rtasidagi munosabat. Ushbu modallik turi ichki-sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, gap tarkibidagi predmet va unga xos belgilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni aks ettiradi. Bunday munosabatlar lug‘aviy jihatdan, fe‘l, holat kategoriyalari va sifatning qisqa shakllari orqali ifodalanadi hamda quyidagi ma’nolarni anglatishi mumkin:

a) imkoniyat. Misol tariqasida keltirilgan “Ular kuniga 50-60 kilometrgacha masofani uchib o‘tishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “mumkin” modal fe‘li harakatning bajarilish imkoniyatini ifodalaydi. Ya’ni, ular (masalan, qushlar) bunday masofani uchib o‘tish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi;

b) mayl. “O‘sha yillari ozodlik harakatini sezib qolgan sho‘rolar Buxoroda o‘zgarish va yangilanish qilmoqchi bo‘lishgan. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” jumlasida “-moqchi” zamon qo‘shimchasi orqali sho‘rolarning o‘zgarish va yangilanish qilish istagi, mayli aks ettirilgan;

c) zaruriyat. “Internet makonida esa axborot nihoyatda ko‘p, ularni bir-biridan farqlash, yolg‘on xabarlarini ajrata olish uchun ham immunitet shakllangan bo‘lishi kerak, (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “kerak” modal fe‘li axborotlarni farqlash uchun immunitetning shakllanishi zarurligini ta’kidlaydi;

d) majburiyat. “O‘zbekiston degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “shart” modal fe‘li savollarga javob topish va ularni hal qilish majburiyatini ifodalaydi. Agar kelajakda O‘zbekiston nomini saqlab qolmoqchi bo‘lsak, bu ishlarni bugundan boshlashimiz majburiy ekanligi uqtirilmoqda (Золотова, 1973, 351-c).

Zolotovaning tasnifi modallikning turli ko‘rinishlarini ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda farqlashga imkon beradi. Uning yondashuvi modallikni gapning umumiy mazmuniy tuzilishi bilan bog‘liq holda talqin qiladi va modallikning turli til sathlaridagi ifodalanish vositalarini qamrab oladi.

Biroq Zolotovaning tasnifi modallikning barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi va ba’zi munozarali tomonlarga ega. Xususan, so‘zlovchining gap mazmuniga munosabatini alohida tur sifatida ajratish bahsli, chunki bu munosabat ko‘pincha

birinchi tur, ya'ni so'zlovchining voqelikka munosabati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shuningdek, predmet va predikativ belgi o'rtasidagi munosabatlar modallikning alohida turi sifatida emas, balki leksik-grammatik ma'nolar sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

V.Panfilovning modallik kategoriyasiga mantiqiy-konseptual yondashuvi obyektiv va subyektiv modallik o'rtasidagi farqlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu ikki tushuncha o'rtasidagi chegaralarni belgilashga xizmat qiladi.

Uning talqiniga ko'ra, obyektiv modallik gapning mazmuni bilan uzviy bog'liq holda, muayyan vaziyatdagi real aloqa va munosabatlarning xususiyatlarini yoritadi. Obyektiv modallik gapning semantik tuzilishiga singib, uning propozitsional mazmunini shakllantiradi va voqelikdagi bog'lanishlarning haqiqiy holatini aks ettiradi.

Subyektiv modallik esa so'zlovchining voqea yoki holatni idrok etish jarayonini ifodalaydi. U so'zlovchining gapning mazmuniga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini bildiradi. Subyektiv modallik ko'proq gapning ifoda planiga taalluqli bo'lib, so'zlovchining kommunikativ maqsadlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Olim obyektiv va subyektiv modallik o'rtasida qat'iy chegaralar mavjud emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayni bir til vositalari ham obyektiv, ham subyektiv modallikni ifodalashi mumkin. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

–fe'ning xabar mayli aksariyat hollarda subyektiv aniqlikni, ya'ni so'zlovchining gapning mazmuniga ishonchini bildiradi;

–fe'ning xabar mayli obyektiv modallikni ham aks ettirishi mumkin, chunki u voqelikdagi real aloqa va munosabatlarni ham ifodalaydi (Панфилов, 1977, 40-с.).

Shunday qilib, modallikning shakllanishi va ifodalanishida obyektiv va subyektiv omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Garchi tushunchalar xilma-xil bo'lsa-da, modallikning asosiy ikki ko'rinishi sifatida obyektiv va subyektiv modallikni ajratish mumkin.

Obyektiv modallik voqelikning real holatini yoki uning haqiqiy manzarasini aks ettiradi hamda faktlar va voqealar o'rtasidagi mavjud aloqalarni yoritadi. Subyektiv modallik esa so'zlovchining fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, uning ishonch darajasini ifodalaydi. Bunda so'zlovchi fikrning haqiqatga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligini baholaydi va o'z navbatida, bu uning subyektiv qarashlarini aks ettiradi.

Modal mantiqda modallik to'rt asosiy turga bo'linadi: deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik. Ushbu tasnif modallikning turli ma'no qirralarini aniqlashga xizmat qiladi va tilshunoslikda ham keng qo'llaniladi. Quyida har bir modallik turining o'ziga xos xususiyatlarini A. Kratzerning qarashlariga tayangan holda tahlil qilamiz(Kratzer, 1991, 640-с.).

Deontik modallik ijtimoiy-axloqiy me'yorlar, qonun-qoidalar bilan bog'liq bo'lib, kishilarning xatti-harakatlariga nisbatan majburiyat, ruxsat yoki taqiqni ifodalaydi. Masalan, "Joylarda cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni tashkil etish kerak. (Zarafshon. 2024, yanvar)" gapida deontik majburiyat, "Vaholanki, bunday xatti-harakatlar bajarish mumkin emas. (Zarafshon. 2024, yanvar)" gapida esa deontik taqiq ma'nosi mavjud. Deontik modallik insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Epistemik modallik so'zlovchining gapning propozitsional mazmuni, ya'ni uning haqiqatga mos kelish darajasiga bo'lgan ishonchini ifodalaydi. Masalan, "U kecha kelgan bo'lishi mumkin" gapida so'zlovchi subyektning kecha kelganiga taxminiy ishonchini bildirmoqda. Shu bilan birga, "U albatta keladi" gapida esa so'zlovchining subyektning kelishiga yuqori darajada ishonchi aks etgan. Epistemik modallik vositalari orqali so'zlovchi o'z bilimlarining qay darajada ishonchli ekanligini tinglovchiga yetkazadi.

Aletik modallik propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi, uning mantiqiy zaruriyati yoki imkoniyatini bildiradi. " $2+2=4$ " kabi mantiqiy haqiqatlar aletik zaruriyatga misol bo'la oladi. Aletik modallik asosan matematik va mantiqiy mulohazalarda qo'llaniladi.

Dinamik modallik esa subyektning qobiliyati yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. "U 100 metrga 10 soniyada yugura oladi" gapida jismoniy qobiliyat, "Bu kompyuter 1 terabayt ma'lumot saqlashi mumkin" gapida esa texnik imkoniyat ma'nosi mavjud. Dinamik modallik narsalar va shaxslarning ichki xususiyatlari bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi to'rt modallik turi bir-biridan farq qilsa-da, ular o'zaro aloqador. Misol uchun, deontik majburiyat ko'pincha dinamik imkoniyatni ham talab qiladi. Epistemik taxmin esa aletik ehtimollik asosida yuzaga keladi.

Kratzerning tasnifi tilshunoslikda modallikning turli ma'no qirralarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq shuni ham inobatga olish kerakki, bu tasnif tilning barcha modal vositalarini to'laqonli qamrab olmaydi. Xususan, emotsional munosabatni ifodalovchi ba'zi modal so'zlar (masalan, "afsuski", "xayriyat" kabi) ushbu tasnifga mos kelmaydi.

Tilshunoslikda deontik va epistemik modalliklarni farqlash alohida ahamiyat kasb etadi. J.Layonz deontik modallikni shaxs tomonidan bajariladigan harakatlarning zarurati va ehtimolligi bilan bog'lasa, epistemik modallikni harakatlar yoki voqealar ro'y berishiga nisbatan taxmin yoki ishonch bilan aloqador deb ta'riflaydi. Uning fikricha, har qanday modallik obyektiv yoki subyektiv bo'lishi mumkin. Obyektiv modallik mustaqil kuzatuvchining dalillarga asoslangan fikrlarini ifodalasa, subyektiv modallik shaxsning o'z mulohazasiga tayangan holda voqelikning muayyan holatini baholashini anglatadi (Lyons, 1977, 388-p.).

F.Palmer ham o'z tadqiqotlarida deontik va epistemik modalliklarning farqlarini tahlil qilgan. U deontik modallikni majburiyat va ruxsat sifatida, epistemik modallikni esa ehtimollik va ishonch sifatida talqin qiladi. Uning deontik modallikni majburiyat va ruxsat sifatida talqin qilishi juda o'rinlidir. Deontik modallik subyektning biror harakatni bajarishi yoki bajarmasligi bo'yicha tashqi ko'rsatmalar, ijtimoiy normalar bilan bog'liq. Masalan, "Ammo harbiy xizmatchi har qanday sharoitda ham o'z ontiga sodiq bo'lib, vazifasini bajarishi shart. (Zarafshon. 2024, yanvar)" gapida majburiyat ma'nosi ifodalangan. Deontik modallik ko'p hollarda nutqiy aktlar (buyruq, taklif, maslahat kabi) bilan ham aloqador.

Epistemik modallikni ehtimollik va ishonch ma'nolari bilan bog'lash ham to'g'ri yondashuvdir. Epistemik modallik voqelikning ro'y berish imkoniyati, unga ishonch darajasini bildiradi. Masalan, "Ko'llar tizimida suv sathining pasayib ketishi esa ushbu salbiy holatning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin. (Zarafshon. 2024, yanvar)" gapida o'rtacha ehtimollik, "Hech shubhasiz, biz bularning barchasini prokuratura organlari faoliyatiga berilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy ifodasi sifatida qabul qilamiz va ana shu ishonchni oqlash uchun bundan buyon ham bor kuch-g'ayratimiz, bilim va tajribamizni safarbar etamiz. (Xalq so'zi. 2024, yanvar)" gapida esa kuchli ishonch ifodalangan. Epistemik modallik orqali so'zlovchining propozitsional mazmun haqiqiylikiga munosabati aks etadi.

F.Palmer ta'kidlaganidek, bu ikki modallik turi turli lisoniy shakllar orqali ifodalanadi. Deontik modallik, asosan, modal fe'llar, buyruq mayli, maxsus konstruktsiyalar bilan bog'liq bo'lsa, epistemik modallik uchun modal fe'llar, modal so'zlar va sintaktik vositalar xosdir. Masalan, "You must do it" (Sen buni bajarishing kerak.) va "You are required to do it" (Sendan buni bajarishni talab etiladi.) jumllarida deontik majburiyat turli usullarda ifodalanmoqda.

Shu bilan birga, olim aytganidek, deontik va epistemik ma'nolar ba'zan o'zaro bog'lanishi, qorishishi mumkin. Ba'zi modal birliklar kontekstga ko'ra har ikkala ma'noni ham ifodalay oladi. Masalan, "You must be aware of this evidence" gapi deontik (majburiyat) yoki epistemik (kuchli ishonch) modal ma'noni bildirishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, deontik va epistemik modalliklar nafaqat alohida gap doirasida, balki butun diskurs, matn miqyosida ham namoyon bo'ladi. Ular keng kontekst, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liq.

Tilshunoslikda aletik va dinamik modalliklar o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi bu ikki tushuncha o'rtasida ko'pincha farq sezilmasa-da, ba'zi tadqiqotchilar ularning o'ziga xos jihatlarini ta'kidlashadi(Papafragou, 2000, 220). Aletik modallik gaplarning mantiqiy haqiqiylikini ifodalasa, dinamik modallik subyektning qobiliyati yoki imkoniyatini

anglatadi. Aletik modallik obyektiv, dinamik modallik esa subyektiv xarakterga ega. Shuningdek, aletik modallik mantiqiy zaruriyat va imkoniyatni aks ettirsa, dinamik modallik subyektning ichki imkoniyatlarini ifodalaydi. Aletik modallik “zarur”, “mumkin” kabi predikatlar orqali, dinamik modallik esa “qodir”, “-a oladi” kabi birliklar yordamida ifodalanadi.

F.Palmer modallikning asosiy mezonlaridan biri sifatida subyektivlikni ko‘rib chiqadi. U an‘anaviy deontik va epistemik modallik turlari bilan bir qatorda dinamik modallikni ham ajratadi. Palmer dinamik modallikni subyektning biror ishni bajarish qobiliyati yoki talabini ifodalovchi hamda so‘zlovchining vaziyatga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini aks ettiruvchi modallik turi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, u qobiliyatni ifodalovchi iboralarni modallikdan tashqari faktik bayonotlar sifatida qarab, ularni modallik doirasiga kiritmaslikni taklif etadi.

Uning modallikning subyektivlik bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlashi o‘rinlidir. Zero, har qanday modal ma’no so‘zlovchining pozitsiyasi va munosabatini aks ettiradi. Shuningdek, dinamik modallikni alohida tur sifatida ajratishi ham asoslidir. Dinamik modallik orqali subyektning qobiliyati, ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari ifodalanadi. Dinamik modallikni e’tirof etish modallik maydonining doirasini kengaytiradi va uning antropotsentrik xarakterini namoyon qiladi.

Dinamik modallik doirasiga quyidagi ma’nolar kiritilishi mumkin: a) qobiliyat (subyektning biror harakatni bajarish layoqati); b) ehtiyoj (subyektning biror narsaga muhtojligi); c) istaklar (subyektning istaklarini ifodalash). Shunday qilib, dinamik modallik insonning “ichki dunyosi”ni, uning qobiliyatlari va intilishlarini aks ettiradi.

F.Palmerning yana bir muhim fikri shuki, dinamik modallik orqali so‘zlovchining vaziyatga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari ham ifodalanadi. Masalan, “Markazga shaxsan o‘zi kelgan holda yoki YIDXP orqali murojaat qilishi mumkin. (Namangan sadosi. 2024, yanvar)” degan gapda so‘zlovchining real imkoniyatlari va ishontirish niyati aks etadi.

Biroq, bizningcha, F.Palmerning ayrim qarashlari munozaralidir. Jumladan, uning qobiliyat iboralarini modallik doirasiga kiritmaslik taklifi bahsli. Mening nazarimda, semantik jihatdan “U yugura oladi” bilan “Uning yugurish qobiliyati bor” gaplari o‘rtasida katta farq yo‘q. Ikkalasida ham subyektning imkoniyati ifodalangan, faqat bu ma’no birinchisida grammatik (modal fe‘l bilan), ikkinchisida esa leksik (ot bilan) ifodalangan xolos. Aslida qobiliyat iborolari ham modallik maydonining bir qismi bo‘lib, ular ham dinamik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning modal ma’nolarning evolyutsiyasi asosidagi tasnifi modallik hodisasiga yangicha yondashuvni taklif etadi va uning turli qirralarini qamrab olishga intiladi. Ularning to‘rt guruhli modallik tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: agentga yo‘naltirilgan modallik, so‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik, epistemik modallik va tobe modallik. Bu tasnif modallikning

an'anaviy turlarini yangi tushunchalar bilan boyitadi va til hamda nutqda subyektning roli va so'zlovchining ishtirokini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi (Bybee, 1994, 176-p.).

Agentga yo'naltirilgan modallik tushunchasi dinamik modallik bilan o'xshash bo'lib, ikkalasi ham subyektning imkoniyatlari va sharoitlarini ifodalaydi. Biroq agentga yo'naltirilgan modallik nafaqat subyektning o'ziga xos xususiyatlarini (masalan, jismoniy qobiliyatini), balki tashqi omillar (ruxsat, majburiyat kabi) ta'sirini ham qamrab oladi.

So'zlovchiga yo'naltirilgan modallik tushunchasi nisbatan yangi va o'ziga xos bo'lib, u so'zlovchining propozitsional mazmun va uni bajarishga shaxsiy munosabatini bildiradi. Masalan, "Tuproq bilan shag'al qatlamini tekshirib ko'rish uchun mutaxassislar berishingiz kerak. (Said Ahmad, Ufq)" gapi so'zlovchining ishtirokini va uning tinglovchiga ko'rsatmasi yoki talabini ifodalashi mumkin. Biroq bu turdagi modallik faqat so'zlovchining ishtirokini emas, balki uning his-tuyg'ulari va istak-xohishlarini ham qamrab olsa, yanada mukammal bo'lar edi.

Epistemik modallik alohida ajratilishi an'anaviy yondashuvga mos keladi. Ushbu modallik turi propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi va ro'y berish ehtimolini bildiradi. Masalan, "Shu bir gapi uning butun vujudini larzaga solishi, hatto taqdirini o'sha onda yo u yoqli, yo bu yoqli qilishi mumkin. (Said Ahmad, Ufq)" gapi epistemik modallikni ifodalaydi.

Tobe modallik esa gapning bir qismi boshqa qismga tobelik hosil qilganda yuzaga chiqishini ko'rsatadi. Masalan, "U kelishini aytdi" gapida "kelish" harakati "aytish" harakatiga tobelik hosil qilmoqda. Tobe modallik modal ma'nolarni emas, balki grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Shu sababli uni alohida modallik turi sifatida qarash munozarali hisoblanadi.

Umuman olganda, J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning tasnifi modallikning an'anaviy turlarini yangi qarashlar bilan boyitadi va modallikni faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki keng ma'noda, pragmatik va antropotsentrik fenomen sifatida o'rganish muhimligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, ularning tasnifida ayrim munozarali jihatlar ham mavjud. Xususan, agentga yo'naltirilgan modallik dinamik modallikni to'liq qamrab ololmaydi. So'zlovchiga yo'naltirilgan modallik esa nafaqat uning ishtirokini, balki hissiy holatini ham ifodalashi mumkin. Tobe modallik esa modallik turi sifatida emas, balki modal munosabatlarni ifodalovchi grammatik vosita sifatida qaralsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Obyektiv va subyektiv modallik dixotomiyasi modallik kategoriyasini tushinishda fundamental ahamiyatga ega. Bu ikki modallik turi o'rtasidagi farqlar quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Obyektiv modallik gapning propozitsional mazmuni bilan bog'liq bo'lib,

voqelikning real holatini, ya'ni ifoda etilgan fikrning haqiqatga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi. Subyektiv modallik esa so'zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini va hissiyotlarini ifodalaydi.

2. Obyektiv modallik ko'proq grammatik vositalar (fe'l mayllari, modal fe'llar) orqali ifodalansa, subyektiv modallik leksik vositalar (modal so'zlar, kirish so'zlari), sintaktik konstruksiyalar va prosodik vositalar yordamida namoyon bo'ladi.

3. Obyektiv modallik voqelikning haqiqiy manzarasini tasvirlaydi va faktlar hamda voqealar o'rtasidagi real aloqalarni yoritadi. Subyektiv modallik esa so'zlovchining fikrga nisbatan pozitsiyasini, ishonch darajasini va emotsional munosabatini aks ettiradi.

4. Obyektiv modallik gapning semantik tuzilishiga singib, uning propozitsional mazmunini shakllantiradi. Subyektiv modallik esa ko'proq gapning ifoda planiga taalluqli bo'lib, kommunikativ maqsadlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

5. Obyektiv va subyektiv modallik o'rtasida qat'iy chegaralar mavjud emas – ayni bir til birligi kontekstga ko'ra har ikkala modallik turini ham ifodalashi mumkin. Masalan, fe'lning xabar mayli obyektiv modallikni ham, so'zlovchining ishonchini ham bildirishi mumkin.

Shunday qilib, modallikning shakllanishida obyektiv va subyektiv omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Garchi tushunchalari xilma-xil bo'lsa-da, modallikning asosiy ikki ko'rinishi sifatida obyektiv va subyektiv modalliklarni ajratish mumkin. Ularning farqlarini anglash modallik hodisasining mohiyatini chuqurroq tushunish va uning lisoniy ifodasini to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Shu bois, tilshunoslikda bu ikki modallik turining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Modallikning asosiy turlari sifatida obyektiv va subyektiv modalliklar ajratiladi. Obyektiv modallik voqelikning real holatini, subyektiv modallik esa so'zlovchining fikrga munosabatini bildiradi.

G'arb tilshunosligida modallik "ildiz" va "epistemik" modallik sifatida ham o'rganiladi. G.Zolotova, V.Panfilov kabi olimlar modallikni sintaktik va semantik jihatlarini hisobga olgan holda tasniflashga harakat qilgan. Panfilovning mantiqiy-konseptual yondashuvi obyektiv va subyektiv modallik chegaralarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Modal mantiqda esa deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik turlari ajratiladi. Deontik modallik majburiyat va ruxsatni, epistemik modallik ehtimollik va ishonchni, aletik modallik mantiqiy zaruriyatni, dinamik modallik esa shaxsning imkoniyatlari va qobiliyatlarini ifodalaydi. F.Palmer deontik va epistemik modalliklarni, aletik va dinamik modalliklarning farqlarini tahlil qilgan.

J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning tasnifi an'anaviy yondashuvlarni yangi tushunchalar bilan boyitadi va modallikni pragmatik va antropotsentrik fenomen

sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Ularning tasnifidagi agentga va so'zlovchiga yo'naltirilgan modalliklar hamda tobe modallik tushunchalari munozarali hisoblanadi.

Demak, modallik hodisasi ko'p qirrali bo'lib, uning turli jihatlarini tadqiq etish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Uning shakllanishi va ifodalanishida obyektiv hamda subyektiv omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Modallik turlarini aniqlashda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish, modallik vositalarining semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. (1994). *The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in Languages of the World*. Chicago: University of Chicago Press.

Золотова Г.А. (1973). *Очерк функционального синтаксиса русского языка*. Москва: Наука.

Kratzer A. (1991). *Modality*. In von Stechow A., Wunderlich D. (eds). *Semantics: An International Handbook of Contemporary Research*. Berlin: de Gruyter.

Lyons J. (1977). *Semantics*. Vol. I, II. Cambridge: Cambridge University Press.

Панфилов В.З. (1977). *Философские проблемы языкознания*. Москва: Наука.

Papafragou A. (2000). *Modality: Issues in the Semantics-Pragmatics Interface*. Amsterdam: Elsevier.

O'ZBEK TILI TAOM NOMLARI MAVZUVIY GURUHINING O'RGANILISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rushana Nabiyeva*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari leksik-semantik guruhining mavzuviy guruhlari ilmiy fikrlar asosida atroflicha yoritilgan bo'lib, ushbu mavzuviy guruhlarni boyitayotgan yangi oziq-ovqat mahsulotlari o'zlashmalari ham tahlilga tortilgan. Shuningdek, gastronomik diskursda paydo bo'layotgan yangi taom nomlari mavzuviy guruhlari haqida fikr yuritilgan. Ma'lumki, leksik-semantik guruhlar o'z ichida ikki va undan ortiq leksemalarning mazmuniy guruhlari jamlaydi. Shu kabi o'zlashma oziq-ovqat nomlari leksik-semantik guruhidagi "taom nomlari mavzuviy guruhi" alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilida ushbu mavzuviy guruhning qo'llanish ko'lami ortib, o'z ichida kichik mavzuviy to'dalarni ham hosil qilmoqda. Maqolada o'zbek tilida taom nomlarining o'rganilishi, taom nomlari mavzuviy guruhining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, taom nomlari mavzuviy guruhining ichida paydo bo'layotgan kichik mavzuviy to'dalarga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *leksik-semantik guruh, ideografik lug'atlar, tezaurus lug'atlar, gazak nomlari, taom nomlari, tezpishar taom nomlari, salat nomlari, pitsa, barbekyu*

STUDY OF THE THEMATIC GROUP OF FOOD NAMES IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS CHARACTERISTICS

Annotation

In this article, the thematic groups of the lexical-semantic group of names of food products in the Uzbek language are covered in detail based on scientific opinions, and the assimilation of new food products enriching these thematic groups is also analyzed. Thematic groups of new food names emerging in the gastronomic discourse are also discussed. It is known that lexical-semantic groups include meaningful groups of two or more lexemes. The "thematic group of food names" in the lexical-semantic group of such adopted food names is of particular importance, and the scope of the use of this thematic group in the Uzbek language has increased, and it includes small thematic groups within it. is also generating. The article focuses on the study of food names in the Uzbek language, the specific characteristics of the thematic group of food names, as well as the small thematic groups that appear within the thematic group of food names.

* Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti, rushana.nabiyeva@internet.ru.

Key words: lexical-semantic group, ideographic dictionaries, thesaurus dictionaries, snack names, food names, fast food names, salad names, pizza, barbecue.

Tilda oziq-ovqat nomlarining o'zlashtirilishi nafaqat lingvistik faoliyat, balki jamiyatning madaniy jabhasi bilan ham bevosita aloqadordir. Zeroki, tilning madaniyatga, madaniyatning esa tilga ta'siri mavjud bo'lib, bunday talqinlar ko'proq sotsiolingvistik aspektidagi tadqiqotlar uchun manba bo'ladi. Chunki madaniyat har bir xalq uchun muhim qadriyat bo'lib, ularning milliy o'ziga xosligini ifodalashda taom nomlarini tushunish yoki tabdil qilish yanada nozikroq ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy. Shu jihatdan qaraganda taom nomlari ham o'ziga xos madaniy realiyalar sifatida har qanday millat uchun qadrlidir.

Leksik sath birliklarini *leksik-semantik maydon*, *leksik-semantik guruhlar*ga ajratib tasnif qilish amaliy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, bu har qanday tilda olamning sistemali va umumiy manzarasini gavdalantirishga, aks ettirishga imkon beradi. Olima R.Sobirova (Sobirova, 2021, 5-b.) *leksik-semantik guruhlar* (LSG) so'zlarni jamlashning yuqori darajali yaxlitligi sifatida voqelikning biror-bir sohasini aks ettirishda tilning so'z boyligini tizimli ravishda birlashtirish mexanizmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlaydi. Leksik-semantik guruhlar o'z ichida ikki va undan ortiq leksemalarning mazmuniy guruhlarini jamlaydi. Xuddi shuningdek, o'zlashma oziq-ovqat nomlari leksik-semantik guruhidagi "taom nomlari leksik-semantik mavzuvii guruhi" alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilida ushbu mavzuvii guruhning qo'llanish ko'lamini ortib, o'z ichida kichik mavzuvii to'dalarni ham hosil qilmoqda.

Rus tilshunosi R.Shxumishxova (Shxumishxova, 2011, 26 c.) taom nomlari mavzuvii guruhini o'z ichida bir qancha kichik guruhchalarga ajratadi: a) ovqatlanish tartibiga ko'ra: **issiq ovqat (sho'rvalar) nomlari** – *borsh, uxa, shi, solyanka, sho'rva, frikadelkali sho'rva*; **sovuq ovqat (sho'rvalar) nomlari** – *okroshka, lavlagili sho'rva* kabilarga ajratilgan; b) taomning tabiati va asosiy tarkibii qismiga ko'ra: **yaxlit go'sht bo'lagidan tayyorlangan taom nomlari** – *romshteks, steyk, karbonad*; **qiyma go'shtdan tayyorlangan taom nomlari** – *manti, chuchvara, frikadelka, kotlet, do'lma, lo'la-kabob*; **to'g'ralgan go'shtdan tayyorlangan taom nomlari** – *qovurdoq, kabob (shashlik), bifshteks, gulyash, chixambili*; c) **baliq va baliq mahsulotlaridan tayyorlangan taom nomlari** – *baliq, qizil ikra, shprot*; d) **suyuq ziravorlar** – *tkemali, sous, sirka, muss*; d) **xushbo'ylatgichlar** – *paprika, chili, vanil, zanjabil, zira, qalampir, yalpiz, dolchin, dafna bargi* va shu kabilarga bo'linadi.

A.R. Shxumishxovaning rus tilida XX asrda o'zlashgan taom nomlariga bag'ishlangan maqolasida o'zlashma *fast-fud* taomi nomlari alohida rivojlanayotgan rus ovqat nomlariga parallel ravishda o'sib borayotganini ta'kidlaydi: "Amerika

madaniyatidan olingan oziq-ovqat mahsulotlarining mashhurligi ma'lum darajada hayot tezligining oshishi bilan izohlanadi, bu aslida "tezpishar ovqat" (*fast-fud*)ga mos kelishi mumkin" (Shxumishxova, 2009, 192-194). A.R.Shxumishxova fikrlariga dalil sifatida *chizburger*, *gamburger*, *fishburger*, *hotdog* kabi misollarni keltrib o'tgan.

R.S. Nurmuxametova tatar tilida taom nomlari bilan bog'liq leksik birliklarning lug'atda 4 xil: so'zlashuv jarayonidagi faol leksik birliklar, arxaik leksika, neologizmlar va dearxizatsiya (leksik dearxaizatsiya – arxaik (arxaizm yoki istorizm) so'zni o'sha til so'zlashuvchilar tomonidan foydalanishning quyi jarayonidan faol iste'molgacha bo'lgan qaytarish jarayoni. Ta'kid bizniki, N. R.) leksikasi kabi turlarga bo'linishini izohlaydi. R.S. Nurmuxametova har bir millatning o'ziga xos taomlari ham moddiy madaniyatning eng qadimiy va mustahkam tarkibiy qismlaridan ekan, ularni nomlaydigan leksika til leksik tarkibining yetarlicha barqaror bo'lishiga qaramay, u tashqi o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bilan ajralib turishini alohida ta'kidlaydi (Nurmuxametova, 2013, 86-91).

Hozirgi xitoy tilshunosligining aksariyat tadqiqotlarida oziq-ovqat nomlari turlari, shuningdek, *snek (gazak)* nomlari, ularning iste'molchiga psixologik ta'siri, onomastik xususiyatlari, mahalliy taom nomlarining lingvistik korpusi kabi masalalar o'rin olgan. Xitoy tilidagi *snek (gazak)* nomlarini onomastik tadqiq qilgan Dan Zhao (Dan Zhao, 2021, 14-20) o'zi tahlil qilgan tadqiqotlarda, asosan, nomlarning kelib chiqishi, turlari va til xususiyatlariga e'tibor qaratilganini yozadi. Bundan tashqari, kuzatishlarida pazandachilik onomastikasiga oid oziq-ovqat nomlarini sotsiolingvistik yoki fonologik nuqtayi nazardan o'rgangan tadqiqotlar ham mavjudligini keltirib o'tadi. Dan Zhao *snek (gazak)* atamasiga ham izoh berib, xitoy tilida uning "*gazak*", "*fastfud*" va "*dessert*" kabi ishtahaochar yengil taom turi ma'nolarida ishlatilishini izohlaydi. Uning fikricha, mazkur tavsif nafaqat Xitoyda, balki ularni madaniyatlararo nomlash uchun muhim bo'lib, *tavsifiy oziq-ovqat nomlari* odamlarga notanish ovqatlar haqida ma'lumot berishga yordam beradi, tavsiflovchi nomlar taom haqidagi ma'lumotni osonlik bilan uzatadi va iste'molchilarni ularni tatib ko'rish ehtimolini oshiradi.

O'zbek xalqining pazandachilik sohasidagi taom nomlari etnograf olim K.Maxmudovning "O'zbek tansiq taomlari" (Maxmudov, 1989, 352-b.) kitobida lug'aviy-mavzuviy guruhlariga ajratilgan bo'lib, unda taom nomlari 6 ta mavzuviy guruhga: *sabzavot va mevalardan* tayyorlanadigan tansiq taomlar, *sut-qatiq va tuxumdan* tayyorlanadigan tansiq taomlar, *go'shtdan* tayyorlanadigan tansiq taomlar, *baliq, uy parrandalari va ilvasin* go'shtidan tayyorlanadigan tansiq taomlar, *guruch va dukkakli donlardan* tayyorlanadigan tansiq taomlar, *xamirdan* tayyorlanadigan tansiq taomlar kabilarga bo'lingan. Biroq ushbu kitobdagi taom nomlari retseptiv

izohlangan bo‘lib, undan faqatgina lingvistik material sifatida foydalanish mumkin, xolos.

O‘zbek tilshunosligida oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq ilk lingvistik qarashlar M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asariga borib taqaladi. Hozirda neologizm xarakteridagi *yogurt* o‘zlashmasi ham dastlab “Devoni lug‘atit turk” da “*suyuq jogurt*” deya tilga olingan. “Devon”dagi gastronomik birliklarni tahlil qilgan olim N. Rasulova lug‘atdagi oziq-ovqat nomlarining 7 xil tasnifga ajratib o‘rganish mumkinligini aytadi: *non mahsulotlari, xamirli taomlar, sut bilan bog‘liq mahsulotlar, guruch va don mahsulotlari bilan bog‘liq mahsulotlar, go‘shtli taomlar, suyuq taomlar, ichimliklar* kabi (Rasulova, 2020, 159-160 b.).

N.Abdulaxatov va b. tomonidan nashr etilgan “Devoni lug‘atit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi” (Abdulaxatov va b., 2013, 27-b.) qo‘llanmasida “Devon”dagi xamirli taom nomlari “*qijma ogra*” – bir xil xamir nomi, uni chumchuqlar tili kabi yupqa va qing‘ir qilib kesilgan taom; “*sarmachuq*” – ugra oshning bir turi; “*tutmach*” – turklarning mashhur ovqati, asli *tutma ach* “och tutma” demakdir; “manti” – asli xitoycha so‘z bo‘lib, “yumaloq xamir” ma’nosini anglatadi; “*lag‘mon*” – do‘ng‘oncha so‘z bo‘lib, “*lyonmyan*”, ya’ni “sovutilgan” yoki “cho‘zilgan xamir” kabilar izohlangan.

O‘zbek tiliga o‘zlashayotgan taom nomlarini yig‘ilgan materiallar asosida quyidagicha tasniflash mumkin:

a) tansiq taom nomlari: *boloneze, lazanya, bifshteks, gaspacho, falafel, gulyash, kotlet, xashlama, sushi, ratatuy, steyk* kabilar;

b) tezpishar(fastfud) taom nomlari: *bayts, lavash, chizburger, pitsa, strips, shourma, slugburger, po-boy, barbekyu* kabilar;

Tezpishar (fastfud) taom nomlarining o‘zbek tiliga kirib kelishi va tobora jonli tilda faolligi bevosita g‘arb madaniyatining ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, ularning aksariyati ingliz tiliga mansub o‘zlashmalardir. Masalan, hot-dog – yumshoq bulochkaga issiq kolbasa va boshqa masalliqlar solib tayyorlanadigan tezpishar taom. Inglizcha hot – issiq va dog – it so‘zlarining birikuvidan tashkil topgan nomdagi “dog” so‘zi ingliz tilida “kolbasa” ma’nosida ham qo‘llanadi. Chizburger – pishloqli gamburger (inglizcha cheese – pishloq) bo‘lib, an’anaviy gamburgerdan farqli o‘laroq, eritilgan pishloqni o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda aytish joizki, “O‘zbek tilining izohli lug‘atida gamburger o‘zlashmasi keltirilgan bo‘lib, hamburger – ham – dudlangan son go‘shti + burger – ichiga biror narsa solib pishirilgan bulochka; toblab, qizartirib pishirilgan go‘sht yoki qaynoq go‘shtli qiyma hamda qayla, oshko‘klar qo‘shilgan buterbrod deya izoh berilgan. Gamburger o‘zlashmasi esa o‘z atrofida bugungi kunda chizburger, shefburger, bigburger, vopper, makchiken, bigtasty, mcdouble, macmaffin, baconator kabi tezpishar taom nomlari ham o‘zbek tiliga kirib keldi va “gamburger” assotsiatsiyasida birlashadi. Naggets – tovuq go‘shtini qovurib

tayyorlanadigan tezpishar taom bo'lib, bu nom inglizcha nuggets – oltin bo'lagi, bo'lak ma'nolarini anglatadi. Strips – tovuq go'shtini unga belab qovuriladigan tezpishar taom, ingliz tilida strips – chiziqlar degan ma'noni bildirib keladi. Strips tezpishar taomlar tayyorlovchi KFS restoranlar tarmog'i tomonidan 1995-yilda ixtiro qilingan.

Tezpishar taom nomlarining ortishi va jonli tilda qo'llanish ko'lamining kengayishi gastronomik maydonda bir necha omillar hisobiga sodir bo'lmoqda. Bular tezpishar taomlarning iqtisodiy tomonlama arzonligi, tez tayyor bo'lishi, tanlash imkoniyatining kengligi kabi omillar bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda, ayniqsa, insoniyat hayotida internet diskursining mavqeyi ortishi insonlarni mazali va to'yimli taom tayyorlashga ketadigan vaqtni tezpishar taomlar, snek (gazak)larga almashtirishdek salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Bu o'rinda jamiyat hayotida tezpishar taom ishlab chiqarish biznesi bilan shug'ullanuvchi brendlarning ravnaq topishini ta'kidlab o'tish joizdir. Masalan, dunyodagi eng yirik shunday brendlardan biri McDonald korporatsiyasi dunyoning yuzdan ziyod davlatiga o'zining keng assortimentini olib kirgan restoranlar tarmog'idir. McDonald butun dunyoda o'zining gamburger, sendvich, kartoshka fri va sutli kokteyllari bilan tanilgan brendlardan biridir.

a) xamirli taom nomlari: *cheburek, xachapuri, laxmadjun, sirniki, kroket, grenka, belyashi* kabilar;

b) salat nomlari: *kimchi, mimoza, olivye, sezar, vinegret, smak, violetta, kamdi-cha, kapriz, pantsanella, tabule* kabilar.

Rus tilshunosi T.Karasyova (Karasyova, 2004, 24-c.) oziq-ovqat mahsulotlarining mavzuviy guruhlarini belgilashda ikkita asosiy tamoyilni ko'rsatadi: Bular: *oziq-ovqatlarning tabiati* va *ular tayyorlanadigan asosiy mahsulot*. T.Karasyova ajratgan oziq-ovqat mahsulotlarining mavzuviy guruhleri 7 tani tashkil etadi va bulardan yettinchi guruh *ritual (marosim) taom nomlari* deb nomlangan.

Rus tilidagi kulinar-gastronomik lug'aviy birliklarni o'rgangan A.B.Xrebit (Xrebit, 2013, 22-c.) "oziq-ovqat" denotativ sohasini nominativ prinsipga ko'ra 8 ta guruhga bo'lib tasnif qiladi: 1) har qanday taom tayyorlash uchun zarur bo'lgan masalliqalar; 2) un mahsulotlari; 3) gazaklar; 4) birinchi ovqatlar va ularning tarkibiy qismlari; 5) asosiy ovqatlar: a) go'sht; b) sabzavotlar; c) yormalar; d) aralash mahsulotlar; 6) garnirlar; 7) shirinliklar; 8) ichimliklar kabi. A.B.Xrebit tasnif qilgan oziq-ovqat mahsulotlari mavzuviy guruhi orasida "*garnir*" leksemasi o'zbek tilida ham ancha faollashgan bo'lib, ushbu leksemaning o'zbek tilida muqobili topilmadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*garnir*" leksemasi fransuzcha "ta'minlamoq, bezamoq" ma'nosini bildirib, *go'shtli ovqatga qo'shib beriladigan, sabzavot, makaron, yorma va sh.k.lardan tayyorlanadigan yengil ovqat* (O'TIL, 2023, II jild, 197-b.) deb ta'rif berilgan. "Garnir" taomlari mavzuviy guruhiga *chechivitsa*,

grechka, pyure, ragu, perlovka, bulgur, fri, mangal, fasol, grenka kabi taom nomlarini misol qilib keltirish mumkin.

Aytish joizki, rus tilshunosligida bajarilgan aksariyat tadqiqotlarda taom nomlari 2 ga: ***birinchi ovqat*** va ***asosiy ovqat*** kabi mavzuviiy guruhga ajratilgan bo‘lib, bu rus xalqining ovqatlanish madaniyati bilan bevosita aloqador. O‘zbek tilida esa, asosan, gastronomik kitoblarda taom nomlari taom tarkibidagi asosiy masalliqqa ko‘ra mavzuviiy guruhlarga ajratilgan. Xususan, shunday manbalardan biri M.Mo‘minova tomonidan nashr etilgan “Ovqat tayyorlash jarayoni” nomli o‘quv qo‘llanmada taomlar – *suyuq taomlar, yorma, dukkakli don va makaron mahsulotidan tayyorlanadigan taom va garnirlar, sabzavotlardan tayyorlanadigan taomlar, tuxumdan tayyorlanadigan taomlar, baliqdan tayyorlanadigan taomlar, go‘shdan tayyorlanadigan taomlar, parranda go‘shidan tayyorlanadigan taomlar, yaxna taom va tamaddilar, shirin taomlar, xamirli taomlar, parhez taomlar* kabi mavzuviiy guruhlarga bo‘lib tasnif qilingan. (Mo‘minova, 2006, 168-b.). O‘quv qo‘llanmada “*tamaddi*” nomi ostidagi mavzuviiy guruhda *sariyog‘li, pishloqli, kolbasali buterbrod, sendvich, kanape* o‘zlashma taom nomlari keltirilib, tayyorlanish jarayoni haqida ma’lumot berilgan.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi paytlarda o‘zbek tilidagi oziq-ovqat lug‘aviy-mavzuviiy guruhlari miqdori anchayin kengaygan bo‘lib, ular ko‘proq yangi o‘zlashmalar hisobiga boyib boriyotgani xarakterlidir. O‘zlashmalarni lug‘aviy-mavzuviiy guruhlarga bo‘lib tasnif qilish esa gastronomik turdagi yangi tezaurus lug‘atlar tuzish, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga so‘zliklar tanlashda muhim material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

Собирова Р.Х. (2021). Уй-рўзгор буюмлари лексикаси микромайдонининг лингвокултурологик талкини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Андижон, 5.

Шхумишхова А.Р. (2011) Номинации понятийной сферы «пища»: Структурно-семантический и функциональный аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп, Шхумишхова А.Р. (2009) Заимствованные слова – названия пищи в русском языке второй половины XX века. Альманах современной науки и образования, 192-194.

Нурмухаметова Р.С. (2013) Развитие кулинарной лексики татарского языка XX – начала XXI века. Филология и культура, 86-91.

Махмудов К. (1989) Ўзбек тансиқ таомлари. Меҳнат. Тошкент.

Dan Zhao. (2021) Snack names in China: Patterns, types, and preferences. Names: A Journal of onomastics, 14-20.

Rasulova N.N. M.Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida keltirilgan ba'zi gastronomik birliklar haqida. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 159-160.

Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабаева У. (2013) Маҳмуд Кошғарийнинг "Девони луғотит турк" асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. Янги аср авлоди. Тошкент.

Карасёва Т.В. (2004) Названия пищи в воронежских говорах (этнолингвистический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Воронеж, 24 с.

Алхаидри Б.Х. (2013) Кулинарно-гастрономическая субстантивная лексика в образном употреблении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Воронеж, 22 с.

O'zbek tilining izohli lug'ati. (2023) VI jildli. II jild. G'afur G'ulom. Toshkent, 197-b.

Mo'minova M. (2006) Ovqat tayyorlash jarayoni. Toshkent.

GAZETA DISKURSI: TADQIQ VA TALQIN

Baxriddin G‘apporov *

Annotatsiya

Gazeta diskursi jamiyatdagi muhim voqealar, fikrlar hamda qarashlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab lisoniy tuzilmadir. Ushbu tadqiqot gazeta matnlarining til xususiyatlari, ularning maqsadi, auditoriyasi va ijtimoiy kontekstini chuqur tahlil qiladi. Gazeta matnlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, ob‘ektivlikka intilish, xabardor qilish, ta’sir ko‘rsatish hamda baholash kabi jihatlari alohida e’tibor bilan o‘rganilgan. Shuningdek, “diskurs” va “matn” tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va farqlar haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, psixolingvistika, ingvokognitiv, ekstralingvistik, komponent, verbal, nonverbal.*

NEWSPAPER DISCOURSE: RESEARCH AND INTERPRETATION

Annotation

Newspaper discourse is a complex linguistic structure that plays a crucial role in conveying important events, opinions, and perspectives to the wider public. This research provides an in-depth analysis of the linguistic features of newspaper texts, their purpose, audience, and social context. The unique characteristics of newspaper texts, including the pursuit of objectivity, informing, influencing, and evaluating, are studied with special attention. Additionally, detailed information is provided on the interrelation and differences between the concepts of "discourse" and "text."

Key words: *discourse, text, psycholinguistics, linguocognitive, extralinguistics, component, verbal, nonverbal.*

Bugungi kunda rivojlanayotgan tilshunoslik yo‘nalishlari orasida "diskurs" tushunchasi alohida o‘rin egallaydi. Ushbu hodisani N.D. Arutyunova, A.D. Belova, D.J. Brown va J. Yule, T. van Dijk, V.I. Karasik, O.S. Kubryakova, M.L. Makarov, P. Serio, O. Sheigal, A.P. Zagnitko va boshqalar batafsil o‘rganishgan. Ba’zi mutaxassislar tilshunoslikda "diskurs bum" haqida fikr yuritishadi (Приходько, 2009, 22-30-cc.). Turli diskurs turlarini ularning amalga oshirish vositalari va kommunikativ-vaziyat parametrlari yig‘indisi sifatida tasniflash va o‘rganish zarurati tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu ishning maqsadi jurnalistik diskurs tushunchasini "funksional uslub" va "matn" tushunchalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda umumlashtirish, gazeta diskursning asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatishdan iborat.

* University of Business and Science Email: baxriddinapporov91@gmail.com.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs murakkab kommunikativ hodisa sifatida tushuniladi. U nafaqat ma'lum bir matnni yaratish jarayonini o'z ichiga oladi, balki tilshunoslik ishining ko'plab ekstralingvistik shart-sharoitlarga – tevarak-atrof haqidagi bilimlar, qarashlar, fikrlar va ma'ruzachining o'ziga xos maqsadiga bog'liqligini aks ettiradi. Diskursda bilimning murakkab iyerarxiyasi aks etadi, bu uning yaratilishi va idrok etilishi uchun zarurdir. Ya'ni, har qanday lingvomadaniy hodisa singari, diskurs ham sof lisonidan tashqari, tashqi “ekstralingvistik” va ichki “lingvokognitiv” o'lchovlarga ega (Лукьянова, 2013, 2013, 209-212-с.).

“Diskurs” terminining etimologiyasiga nazar tashlasak, uning kelib chiqish tarixi XIV asrga borib taqaladi. Fransuz tilidan tarjima qilinganda *discours* “anglash va fikrlash jarayoni”, lotinchadan esa *discursus* “qo'shish”, so'nggi davrdagi lotin tilida “suhbat”, O'rta asrlardagi lotin tilida “fikrlash”, 1550-yillardan boshlab “biror mavzuni rasmiy nutq yoki yozuvda muhokama qilish” degan ma'noda ishlatila boshlandi (<https://www.etymonline.com/-search?q=-discourse>). Bundan ko'rinib turibdiki, diskursni yagona ta'rif bilan ifoda qilish mushkul ish. Bugungi kunga kelib bu termin shu darajada keng ma'noda qo'llaniladiki, aksariyat tilshunoslarga haligacha bu terminning konkret ma'nosini ochib berish qiyinchilik tug'dirmoqda. Ye.S. Kubryakovaning hozirgi davrda tilshunoslik fani taraqqiy etgan bo'lishiga qaramay, diskursga berilgan umumiy qabul qilingan birorta ta'rif mavjud emasligi haqidagi fikrlari o'rinlidir. Bu esa diskurs tushunchasining murakkabligi hamda ko'p qirrali ekanligi bilan izohlanadi, unga turli qarashlar orqali yondashiladi.

Ushbu tadqiqotda gazeta diskursining lingvistik va ijtimoiy jihatlarini o'rganilib, asosiy tahlil metodologiyasi sifatida diskurs tahlili qo'llanilgan. Gazeta matnlarining nafaqat ob'ektivlik, xabardor qilish, balki ta'sir ko'rsatish kabi xususiyatlari kontent tahlili yordamida tadqiq qilingan. Shu bilan birga, auditoriya va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda, matnning kommunikativ maqsadlari aniqlangan. "Diskurs" hamda "matn" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik esa

Tadqiqotchilar diskurs tushunchasini yagona ta'rif orqali ochib berish imkonsizligini anglagan holatda, uning kommunikativ funksiyasi, ijtimoiy konteksti, kognitiv jarayonlari va matn xususiyatlari kabi turli jihatlariga alohida urg'u berib, turlicha ta'rif va izohlarni taklif qilishdi. Ferdinand De.Sassur diskursni (*langue*) va nutq (*parole*) o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqdi. Uning fikricha, diskurs til tizimining amalda qo'llanilishi hamda nutq orqali amalga oshirilishidir. Ya'ni diskurs til tizimidagi mavhum qoidalarni real hayotda, muloqot jarayonida qo'llash orqali yuzaga keladi. Bosqacha aytganda, u diskursni tilning ijtimoiy va kommunikativ funksiyasini amalga oshirish vositasi deb hisoblangan. Diskurs nafaqat alohida so'zlar va gaplarni, balki ularning o'zaro bog'liqligi, konteksti va ijtimoiy ma'nosini ham o'z ichiga oladi. U ham alohida so'zlar va gaplarni, ham ularning o'zaro bog'liqligi, konteksti va ijtimoiy ma'nosini o'z ichiga oladi (Saussure, 1916, -

pp. 40-57.) O'zbek tilshunosligida ham "diskurs" hamda "matn" haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Sh. Safarovning fikricha, matn va diskursni faqat "og'zaki" hamda "yozma" sifatlari bilan farqlash to'g'ri emas, chunki ularning har ikkisi ham insonning lisoniy faoliyati mahsulidir. U qo'shimcha qilib, matn hamda diskursni bir-biridan farqlash uchun ularning moddiy ko'rinishga ega bo'lishi kerak degan fikr ham ma'lum ma'noda no'to'g'ri. Chunki, har ikkisi ham faoliyat natijasi mahsuli bo'lsa, erishilgan natija har doim ham moddiy tus olishi shart emas (Safarov, 2008, 47-b.).

Kubryakova matn inson tajribasi bilan uzviy bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab, uni so'zlar yig'indisi degan fikrdan yiroqda. Matn insonning xis-tuyg'ulari, o'y fikrlari va qarashlarini ifoda etuvchi birlik hisoblanadi. Matn mazmunini to'liq anglash uchun o'quvchi u orqali ifoda etilgan inson tajribasiga hamfikir bo'lishi, uni o'z tajribasi bilan qiyoslashi va undagi ma'nolarni anglashi lozim (Кубрякова, 2004, 516-c.). Bizning fikrimizcha, matn – bu "tirik organism" kabidir, u o'quvchi ongida rivojlanadi hamda o'zgarib boradi. Uni anglash jarayoni – bu o'quvchi hamda matn muallifi o'rtasidagi muloqot, o'zaro tajriba almashinuvi va birgalikda yangi ma'nolar yaratish jarayonidir. "Matn" va "diskurs" tushunchalarini sinonim deb hisoblab bo'lmaydi. Diskurs matnga qaraganda kengroq ma'no-mazmunga ega. U nafaqat lisoniy faoliyatning mahsuli, balki biror jarayonni o'zini ham anglatadi. Hozirgi kunda "diskurs" tilshunoslik, falsafa, adabiy nazariya, siyosatshunoslik, etnologiya, pedagogika, tarix va hatto media tadqiqotlarida turli hodisalarni tavsiflash uchun ishlatiladigan ko'p ma'noli tushuncha sifatida keng tarqalgan. Biroq, shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlarda "diskurs" va "matn" tushunchalari chalkash va bir-birini o'rnida erkin almashinib ishlatilayotgani kuzatilmoqda.

J.I. Ismoilovaga ko'ra, "diskurs" tushunchasini "matn" tushunchasini hisobga olmasdan anglash mumkin emas. Diskursga berilgan zamonaviy ta'riflarning deyarli barchasi matn bilan taqqoslashga asoslangan: matn - tizim birligi, diskurs - nutq hodisasi; matn - mahsulot, diskurs - jarayon; matn - virtual mavhum mavjudlik, diskurs - bu mavjudlikning voqealanishi va hokazo (Исмаилова, 2006, 70-c.). "Diskurs" va "matn" tushunchalarini birinchi bo'lib farqlaganlardan biri T.A. van Deyk bo'lib, u Kinch bilan hammualliflikda yozgan "Bog'langan matnni tushunish strategiyalari" asarida "diskurs" tushunchasini ma'lum bir mazmuni (darsliklarda) bo'lgan, ma'lum bir auditoriyaga mo'ljallangan (va'z, dissertatsiya) "matn" sifatida ko'rsatgan (Дейк, 1988, 231-c.). Diskurs tushunchasini tushunish uchun turli xil ekstralingvistik omillarni hisobga olishimiz kerak. Masalan, E.I. Sheygal "til mavhum til tizimi sifatida haqiqatan ham diskurs, aniqrog'i, diskurslar shaklida mavjud ... Muloqot har doim inson faoliyatining muayyan sohasida, muayyan ijtimoiy makonida sodir bo'ladi (Шейгал, 2004, 15-c.)", - deb ta'kidlaydi.

Olim diskurs muloqotning muayyan vaziyatida yuzaga keladi va ishtirokchilarning turli ijtimoiy darajalari va pozitsiyalarining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Ushbu qarashni qo'llab-quvvatlagan tadqiqotchi N.D. Arutyunova shunday deydi: "Diskurs - bu ekstralingvistik-pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillarning kombinatsiyasini aks ettiruvchi bog'langan matn; voqea nuqtai nazaridan olingan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida, odamlar va ularning ong mexanizmlari (kognitiv jarayonlar) o'rtasidagi munosabatlarda ishtirok etuvchi komponent sifatida ko'rib chiqiladigan nutq. Diskurs - bu "jonli so'z" ("hayotga singdirilgan") (Арутюнова, 1990. 136-137-с.). "Diskurs — bu dinamik hodisa, chunki diskurs davomida manzil va qabul qiluvchi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi, shunga ko'ra, diskursiv muloqotda savol-javob, munozara — barchasi mavjud. Matn esa statik hodisa, til harakatining natijasidir. Matnda o'quvchi jonli muloqotga kira olmasligi sababli, muallifning aytmoqchi bo'lgan fikrini, niyatini kuzatish bilan kifoyalanadi, o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi" (Кенжеканова, 2015, 40-43-б.). Ba'zi hollarda diskurs ikki komponentli majmua sifatida ham aniqlanadi: til harakatining jarayoni va uning natijasidan (ya'ni matndan) iborat. E.S. Kubryakova hamda O.V. Aleksandrova matn va diskurs tushunchalarini taqqoslab, "diskurs deganda haqiqiy nutq faoliyati, nutq faoliyatini shakllantirish bilan bog'liq kognitiv jarayonni tushunish kerak, matn esa ma'lum bir shakldagi nutq faoliyatining yakuniy natijasidir. Shunday qilib, haqiqiy nutq va uning natijasini qarama-qarshi qo'yib taqqoslash matnning qanday ma'noda diskurs sifatida aniqlanishini tushunishga yordam beradi: qabul qiluvchi shaxsning ongiga yetib borgan va qabul qilingan taqdirdagina." Matnni tashkil etuvchi gaplar ketma-ketligi, mazmunan bog'liqligi, grammatik belgilari, pragmatik yo'nalishi va ta'sir etish funksiyasi kabi elementlarni kuzatish ularni qarama-qarshilikda, ya'ni diskursning qachon matn sifatida, matnning esa diskurs sifatida aniqlanishini to'g'ri ko'rsatadi. Diskursni "jarayon, harakat hodisasi sifatida", ya'ni matnni shakllantirish jarayoni yoki uni qabul qilishning (so'zlash, aytish va boshqalar) sinxron harakati sifatida aniqlash kerak (Кенжеканова, 2015, 40-43-б.).

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan munozarali masala bo'lib kelayotgan "matn" va "diskurs" masalasi haqida A.P. Chudinov ular o'zaro bog'liq tushunchalar deb hisoblab, "matn" tushunchasini tilshunoslik tadqiqotlarining (sintaksisning yuqori birligi) obyekti sifatida, "diskurs" tushunchasiga esa lingvistik-ijtimoiy xususiyat xos ekanligini va diskursni lingvomadaniyatshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik, siyosiy tilshunoslik fanining predmeti sifatida ko'radi (Кенжеканова, 2015, 19-б.). Matn va diskurs sinonim sifatida ishlatilsa ham, ular turli xil hodisalardir. Olim G'.Enes diskurs va matnni quyidagicha ta'riflaydi: "Diskurs - bu amalda qo'llaniladigan nutq. Bu pragmatik, ijtimoiy, madaniy, psixologik va boshqa ekstralingvistik omillar bilan

birga, voqealar nuqtai nazaridan olingan va shu omillar bilan bog'liq bo'lgan matn; ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan nutqdir. Matnda muallif matnni keng ommaga mo'ljallab, ularga yo'naltiradi, lekin o'zi bevosita muloqotga kirishmaydi. Diskurs ijtimoiy va madaniy institutlar tomonidan shakllantirilgan, oqimli nutq sifatida qaraladi" (Әнес, 2014, 74-78-б.). Ya'ni, diskurs matnga qaraganda kengroq va murakkabroq tushuncha bo'lib, matn ham murakkab toifalar qatoriga kiradi. Hozirgi tilshunoslikda diskurs tushunchasiga berilgan ta'riflar masalasini hal qilishning turli usullari mavjud. Ularning tasnifi Y.S. Kubryakovaning "Diskurs, nutq, nutqiy faoliyat" asarida quyidagicha guruhlangan:

Strukturaviy-sintaktik usul: diskurs matn fragmenti sifatida, ya'ni gapdan katta darajadagi tuzilma (murakkab sintaktik hamda frazeologik birlik) yaratish;

Strukturaviy-stilistik usul: nutq tilining matnli bo'lmagan tashkil etilishi sifatida diskurs;

Kommunikativ usul: diskurs og'zaki muloqot sifatida (nutq, til qo'llanishi va funksiyasi) yoki dialog, suhbat (dialogik muloqot turi) (Кубрякова, 2000, 7-25-с.).

Ya'ni, mos ravishda, diskurs "tildagi til" sifatida berilgan o'ziga xos ijtimoiy tuzilma. Diskurs birinchi navbatda matnda yashaydi, lekin eng muhimi, o'ziga xos grammatika, lug'at, so'z qo'llanmalari va o'ziga xos sintaksisdan iborat matnda namoyon bo'ladi. Professor B. Shalabay matnni quyidagicha ta'riflaydi: "matn - turli xil sifatlarga ega bo'lgan qismlarning xilma-xil munosabatlaridan tashkil topgan murakkab tuzilma" (Шалабай, 2007, 80-87-б.). Diskurs va matn juda o'xshash tushunchalar. Ularning orasidagi farqni aniqlash katta muammolardan biridir. O'z navbatida, A.Ye. Karlinskiy matn va diskursni kommunikatsiya shakllari sifatida ko'rib chiqib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi:

Diskurs - "nutq faoliyatining ovozli shakldagi jarayoni", matn esa "nutq faoliyatining grafik shakldagi natijasi".

Diskurs - "muayyan vaziyatdagi verbal va noverbal vositalarni hisobga oluvchi spontan nutq faoliyati", matn esa "qayta ishlangan nutq".

Diskurs faqat kommunikatsiya ishtirokchilari ishtirokida sodir bo'ladi, matn esa kommunikatsiya ishtirokchilari ishtirokisiz ham amalga oshishi mumkin. Diskursga "vaqt va makon birligi sharoitida nutq faoliyatini shakllantirish va qabul qilish" xos bo'lsa, matn uchun "turli vaqt va makon sharoitida nutq faoliyatini shakllantirish va qabul qilishni" yetkazish xosdir. Diskurs "so'zlovchi - tinglovchi" rollarining dialogik "uzluksiz o'zgarishi", matn esa "to'liq bo'lmagan kommunikativ vaziyatdagi" bitta muallifga tegishli bo'ladi (Карлинский, 2003, 84-с.). "Matn - bu til tizimidagi o'ziga xos ma'nosi va mohiyatiga ko'ra, gaplarning oddiy ketma-ketligi emas, balki mazmuniy-tarkibiy murakkab butunlik. U mantiqiy, grammatik, mazmuniy bog'lanishlarga asoslangan, aniq mazmunli yaxlit muloqot birligi" (Смағұлова, 2007, 149-б.).

"Diskurs esa til shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini, uning nutq darajasini, milliy idrokni o'zlashtirishini, aytilgan so'zni umumlashtira olishini, tushunishini, undagi emotiv birliklarni his qila olishini, ijtimoiy oqimlarni anglashini, intellektual darajasini, ya'ni nutq uslubining qoliplarini, so'z madaniyatini o'zlashtirishini bilib olish imkonini beruvchi tilning o'ziga xos darajasi" hisoblanadi (Әнес, 2010, 278-6.) "Diskurs" tushunchasi ba'zan "matn" va "nutq" tushunchalari bilan bog'lanadi. Biroq, bu masalaning yechimi yoki ta'rifi rus tadqiqotchisi V.V. Bogdanovning asarlarida berilgan va ular o'rtasidagi farq aniqlangan. U "matn" va "nutq"ni diskursning sinonim bo'lmagan tomonlari sifatida aniqlab, ularni diskursning ikkita alohida aspekti sifatida ko'rib chiqadi. Har qanday nutq matnli shaklda va har qanday matn "ovoqli" shaklda bo'lavermaydi, shuning uchun diskurs keng ma'noda og'zaki va yozma til darajasi sifatida tushuniladi. Matn (tor ma'noda) "muayyan (oddiy fonografik yoki ideografik) yozuv vositasi orqali qog'ozga tushirilgan til material" deb xulosa qiladi olim (Мәшимбаева, 2009, 124-6.). Biz matnga berilgan bu ta'rif juda asosli ekanligini tasdiqlaymiz, chunki matn asosan yozma shaklga ega bo'lgan, qog'ozda o'z aksini topgan nutq shaklidir. Bir qator tadqiqotchilar matn va diskurs tushunchalarini o'rganib, matn va diskurs tushunchalariga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda (1-jadval), ikki sinonim tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatadi:

diskurs - til birliklarining barcha qo'llanilishini bog'lovchi nom;

diskursni nutqiy harakat, so'zlash usuli, yo'li deymiz;

diskurs matn yaratuvchisi - matn - matn qabul qiluvchisi uchligining yaxlitligi asosida qaraladi;

diskurs - suhbatdoshlarning o'zaro munosabati (Смағұлова, 2008, 18-6.).

Matn va diskurs: farqli belgilari 1-jadval

Diskurs	Matn
Muloqot akustik jihatdan amalga oshiriladi	Muloqot vizual tarzda amalga oshiriladi
Muloqot lingvistik va lingvistik bo'lmagan vositalar orqali amalga oshiriladi	Shakllangan, me'yorlashgan nutq faoliyati
Suhbatdoshlar bir-biri bilan shaxsan suhbatlashish imkoniyatiga ega	Suhbatdoshlar o'rtasida shaxsiy aloqa yo'q, u muallif tomonidan tavsiflanadi
Muloqotning amalga oshirilishi va uni qabul qilish bir vaqtning o'zida, makon va vaqt sharoitida amalga oshiriladi	Muloqotning paydo bo'lishi va uni qabul qilish har xil bosqichlarda, turli makon va vaqt sharoitida amalga oshiriladi;
Diskurs muayyan vaqt oralig'i bilan bog'liq	Vaqt oralig'iga bog'liq emas (asr, kun, soat, daqiqa, o'tmish va hozirgi)
Muloqotning amalga oshirilishi doimo ikki kishining (so'zlovchi va tinglovchining) yuzma-yuz, navbatma-navbat almashinishi, jonli muloqot orqali amalga oshiriladi (Смағұлова, 2008, 19-6.).	Muloqotning amalga oshirilishida jonli aloqa yo'q;

Keling, diskurs va matnni kognitiv nuqtayi nazardan ko'rib chiqaylik. Diskurs bir nechta nutqiy harakatlardan iborat bo'lishi mumkin; diskursga funksional tugallanganlik, kommunikativ aniqlik, tuzilmaning tizimli tashkil etilishi xosdir; diskurs etnomadaniy, ijtimoiy, psixologik va boshqa jihatlardan iborat vaziyatni aks ettiribgina qolmay, balki ishtirokchilar yoki kommunikatsiya qiluvchilarning shaxsiy, mental olamiga ham nazar soladi. Inson hayot tajribasining ko'rsatkichi sifatida etnomadaniy birliklar inson ongida o'z aksini topadi. Diskursni kognitiv nuqtai nazardan ko'rib chiqish uni matn darajasidan keng va kengroq ko'lamda ko'rib chiqishni talab qiladi. Bunday tahlil fanlararo fan sohalari doirasidagi bilim zahirasiidan foydalangan holda muayyan xalqning mental xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, tilshunoslar tomonidan ong, tafakkur, mentalitet kabi tushunchalarni o'rganish so'zlovchi yoki kommunikatsiya qiluvchilarning til qobiliyatini to'liq o'rganishga yo'l ochadi.

Professor E.D.Suleymenova diskursning kognitiv tabiati haqida shunday tushuntiradi: "Tilning mazmunli tomonining har qanday talqini til, tafakkur va haqiqat o'rtasidagi munosabatlar masalalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Til va kognitiv tushunchalarni tahlil qilishning o'ziga xos metodologik ahamiyati va unga bo'lgan yuksak qiziqish bu holatni asoslaydi" (Сүлейменова, 1989, 6-7 с.). Rus tadqiqotchisi Ye.I. Sheygal tilshunoslik tadqiqotlarida "diskurs" va "matn" toifalarining o'zaro bog'liqligini quyidagicha ta'kidlaydi:

matn til tizimida yozilgan, diskurs esa jonli nutq, jonli muloqot tili sifatida qaraladi;

diskurs nutq tuzilishi bilan bog'liq harakat, jarayon hodisasi sifatida, matn esa tayyor mahsulot, yakunlangan rasmiy nutq harakatining natijasi sifatida ko'rsatiladi;

diskurs va matn amalga oshirish munosabati bilan bog'liq: diskurs matnda namoyon bo'ladi;

diskurs nutq harakatining voqeasi sifatida tushuniladi, uning davomida matn mental konstrukt sifatida paydo bo'ladi;

diskurs og'zaki nutq sifatida, matn esa yozma nutq sifatida joylashtiriladi;

"diskurs" atamasi "nutq" va "matn" kabi turli tushunchalar bilan qardosh tushuncha sifatida qaraladi; diskurs "nutq" va "matn"ga xos barcha parametrlarga ega (nutq tovush substansiyasi bilan bog'liq, spontan yoki normativ bo'lmasligi mumkin, matn esa til materialining grafik tasviri bilan ajralib turadi, matn tayyorlangan, normativ bo'ladi);

diskurs muayyan muloqot kontekstida verbal matnlar va boshqa belgilar majmui yordamida amalga oshiriladigan muloqotga, ishtirokchilarning o'zaro munosabatlariga asoslangan kommunikativ voqea sifatida aniqlanadi; bu usulni quyidagi formula ko'rinishida berish mumkin: "diskurs = matn + interaktivlik + vaziyat konteksti + madaniy kontekst (Кыхаренко, 1988, 10-12-с.).

diskurs" atamasi "nutq" va "matn" kabi turli tushunchalar bilan qardosh tushuncha sifatida qaraladi; diskurs "nutq" va "matn"ga xos barcha parametrlarga ega (nutq tovush substansiyasi bilan bog'liq, spontan yoki normativ bo'lmashligi mumkin, matn esa til materialining grafik tasviri bilan ajralib turadi, matn tayyorlangan, normativ bo'ladi);

XX asrning oxirlariga kelib axborot-kommunikatsiya sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, natijada bunday an'anaviy ifoda vositalari insonlarni nafaqat o'zlarini o'rab dunyo, balki o'zligini tushinishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ilm-fan sohasidagi bunday yutuqlar, publisistik diskursni katta kuch sifatida jamiyatga kirib borishini ta'minladi. Gazeta diskurs yoki nutq ommaviy axborot vositalari vakillari va ommaviy auditoriya o'rtasidagi uzoq masofali muloqot shakli sifatida ta'riflanadi. U o'zining intuitsional hamda kognitiv tabiati bilan tavsiflanadi. Ushbu diskurs doirasida subyektga (OAV) jamiyat manfaatlarini turli darajada ifodalashda muhim vazifa yuklanadi. Bu publisistik diskursning zamonaviy jamiyatdagi hukmron rolini ta'kidlab, OAV ning jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy muloqotga ta'sir qilish kuchini aks ettiradi. Gazeta diskursga nisbatan bosma ommaviy axborot vositalari tomonidan mafkuraviy jihatdan shakllantirilgan ramziy tizim sifatida qarash mumkin. U ijtimoiy hukmron doira vakillari manfaatlariga xizmat qilib, ijtimoiy jarayonlarni idrok etish va tartibga solishda asosiy kuch hisoblanadi. Uning asosiy funksiyalari qatoriga jamiyatga ta'sir o'tkazish, axborot uzatish, reklama qilish, ko'ngil ochar kontentlar taqdim qilish va ma'lum mafkuralar orqali ijtimoiy voqelikni shakllantirish kiradi. Ushbu diskurs jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish hamda saqlashda samarali ekanligi alohida sanab o'tiladi. Bu esa publitsistik diskursni yuqorida sanab o'tilgan vazifalarini yashirin, bilinar-bilinmas tarzda amalga oshirilishi bilan izohlanadi (Новохачева, 2005, 31-с.).

Publitsistik (gazeta) diskurs masalasini tahlil qilayotganda, shuni yodda tutish darkor, gazeta diskursi shunchaki odatiy so'zlardan tashkil topgan matn emas. O'quvchiga taqdim qilingan ishonchli va aniq ma'lumotga asoslangan maqolaga qo'shimcha tariqasida, shuni aytish mumkinki, har qanday publisistik diskursda o'quvchining umumiy bilim bazasida lug'aviy jihatdan anglash murakkab bo'lgan ma'lumotlar o'rin olishi mumkin. Oldindan egallangan bilim va ko'nikmasi bo'lmagan o'quvchiga muallif tomonidan aytilmoqchi asosiy ma'noni anglash imkonsiz ishga aylanadi, chunki diskurs biror bir vaziyat yoki holat asosiga quriladi. Belyaninning fikricha, publisistik nutq ko'pincha ikki tomonlama maqsadga yo'natirilgan bo'ladi. Birinchisi axborot berish bo'lsa, ikkinchisi esa manipulatsiya qilish. Hatto, bir qarashda shunchaki informatsion kontent bo'lib ko'ringan axborot ma'lum auditoriyani bilvosita biror maqsadga erishish yo'lida harakatga keltiruvchi kuch vazifasini bajarishi mumkin (Белянин, 2009, 194-с.). Gazeta diskursda tilning ta'sirchanlik funksiyasi (targ'ibot-tashviqot) amalga oshiriladi, bu ko'pincha

informatsion funksiya (yangilikni yetkazish) bilan birlashtiriladi. Bu diskurs turidagi nutq ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, davriy mashrlarda (gazeta, jurnallarda) hamda notiqlikda qo'llaniladi (Ляпун, 2011, 109-с.). Gazeta diskursning ekstralingvistik jihati uning maqomi, siyosiy yo'nalishi, nashrning mafkuraviy bo'yog'i, jamoaviy mualliflik, matnni yaratish va iste'mol qilishning tezkorligi, davriylik va omma, ayollar, erkaklar, yoshlar, bolalar va boshqa auditoriyaga yo'naltirilganlik) haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Lingvokognitiv diskurs barcha ekstralingvistik ma'lumotlarni shaxsning til ongida ifodalaydigan va diskursni shakllantirish va idrok etishga ta'sir qiluvchi, xususan, til vositalarini (til o'lchovini) tanlashni belgilaydigan kognitiv modellarda amalga oshiriladi. Biz gazeta diskursni jurnalistik uslubning tarkibiy qismi sifatida alohida diskurs turi sifatida ko'rib chiqamiz. Diskurslarning "muloqot uslubi" bo'yicha talqini uslubning o'ziga xos "tegishli og'zaki nutqni amalga oshirishda bilimni qayta ishlashning kognitiv protseduralari" majmui sifatida jarayon-natijaviylik tushunchasidan kelib chiqadi. So'zlovchining o'ziga xos pragmatikasiga muvofiq muloqot faoliyatlarini tashkil etishning ma'lum bir texnikasi bo'lgan uslub "funktional tartib" hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Garchi "funktional uslub" va "diskurs" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi hal qilish imkonsiz bo'lsa ham, mutaxassislar so'zlashuv, rasmiy ish, badiiy uslub va boshqalar haqida fikr yuritish mumkin deb hisoblashadi. Uslub bu diskursning tizimli shakllantiruvchi omilidir, diskurs esa - "madaniy ongda aks ettirilgan ijtimoiy ahamiyatga ega g'oyalarni mujassamlashtirishning og'zaki vositalari ombori." Har bir kommunikativ vaziyatga xos bo'lgan nuqtai nazardan, har qanday funktsional uslub diskursga eng mos keladigan uslubiy xususiyatlar, usullar va hukmron g'oyalarning ma'lum bir to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda funktsional uslub "diskursli dunyo modelini qurishning o'ziga xos burchagi" dir. Biroq, bu pozitsiyani tadqiqotimiz uchun asos sifatida qabul qilib, "diskurs", "uslub" tushunchalarining bunday o'zaro bog'liqligi ancha shartli ekanligini hisobga olish kerak, hech bo'lmaganda ular turli ilmiy paradigmalarga tegishli ekanligi va shunga mos ravishda turli sohalarga ega. Diskursning fanlararo o'rganish ob'ekti bo'lgan "funktional uslub" tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida qolmoqda. Ensiklopedik ma'lumotlarga ko'ra, publisistik uslub ikki jihatdan farqlanadi. Birinchidan, u ommaviy axborot sohasida qo'llaniladigan adabiy tilning funktsional uslublaridan biridir. Ikkinchidan, turli stilistik bo'yoqlardan tashkil topgan, yuksak til namunasidir. Matbuot tili sifatida u mintaq, mamlakat ichki va tashqi hayotidagi voqea-hodisalar haqida hikoya qiluvchi davriy nashrlar tilidir. Matbuot tilida muayyan ijtimoiy va lingvistik stereotiplar yuzaga keladi. Axborotni tezkor qabul qilish va yetkazishning o'ziga xos shakllari sifatida "til klishelari" mavjud. Gazeta diskursning informatsion funksiyasi gazeta, jurnalda turli janrlardan (axborot, xabar, maqola, intervyu, reportaj, ocherk, sharh va boshqalar) foydalanishni taqozo etadi.

Gazeta diskursning axborotga yo'naltirilganligi hujjatlilik, xolislik, axborotni dolzarb bayon etish, rasmiylik, mantiq va argumentativlik bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, diskurs matn bilan bevosita bog'liqdir. Umumiy kontekstda ikkita filologik jihatdan muhim hodisaning birga mavjud bo'lishi tasodifiy emas, balki hatto qonuniydir. Differentsiatsiyaning umumiy usuli ularni "umumiy-xususiy" nisbatda ko'rsatishdir, bu yerda matn diskursning konstitutsiyaviy birligi bo'lib xizmat qiladi, diskurs esa yuqori darajadagi abstraktsiya birligi bo'lib, uning ichida cheksiz miqdordagi individual matnlar mavjud.

"Diskurs" abstraktsiyasi faqat muayyan matnlar mavjud bo'lganda moddiylashadi: "diskurs - bu matn vositasida muloqot holatiga tushirilgan matn". Gazeta matnining tuzilishi uslub xususiyatlari bilan belgilanadi. Uning asosiy maqsadi xabardor qilish, muayyan fuqarolik pozitsiyasini ifodalash, odamlarni uning haqiqatiga ishontrish va ba'zan fikr shakllantirishdan iborat bo'lganligi sababli, jurnalistlar buning uchun tilning barcha resurslarini safarbar qiladilar. Shu bilan birga, til vositalarini tanlash ularning ijtimoiy va baholash xususiyatlari va ommaviy auditoriyaga samarali, maqsadli ta'sir qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bunga ko'pincha taqdimot mantig'ini hissiy rang bilan uyg'unlashtirish orqali erishiladi, bu publitsistik matnlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi (Бойчук, 2009, 135-139-c.). Gazeta matnlarning pragmatik yo'nalishining o'ziga xos ko'rsatkichlari orasida odatiy va tasodifiy leksik va frazeologik birliklar, maqollar va matallar ajralib turadigan leksik belgilardir. Leksik hamda frazeologik birliklar nutqda ekspressiv va informatsion funktsiyalarni bajaradi. Ular taqdimotni jonlantirish, o'quvchini qiziqtirish va materialga emotsional quvvat berish uchun mo'ljallangan. Nominativ birliklarni baholash hamda tanlash kommunikativ relevatsiya (ma'lumotning muhimligi, dolzarbligi) tamoyili asosida sodir bo'ladi, metafora va o'xshatishlardan keng foydalanish esa publitsistik uslubning pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqadi (Худолій, 2004, 20-c.). Gazetada axborotni yetkazishning asosiy usuli matn hisoblanadi. Semiotika ilmi matnni har qanday belgilar ketma-ketligi sifatida, har qanday aloqa shakli sifatida belgilaydi. Tilshunoslik matn tushunchasini verbal belgilar ketma-ketligigacha toraytiradi.

Psixolingvistika – matnni yaratish va tushunish jarayonlari haqida bo'lgan fan – matnni haqiqatni aks ettirish usullaridan biri sifatida ko'radi va til elementlari bilan ishlaydi. Gazeta matnlari yozma nutqning eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ular ommaviy xarakterga ega bo'lganligi sababli ko'p sonli ko'p sonli o'quvchilar auditoriyasi tomonidan o'qiladigan yozma matnlarning biridir. Kundalik gazeta mutolaa qilish ko'pchilik uchun odat tusiga aylangan. Gazeta diskursiga odatda alohida nutq shakli sifatida qaraladi. O'ziga xos belgi-xususiyatlari bo'lganligi tufayli, u boshqa nutq shakllaridan ajralib turadi. Shuning uchun, gazeta diskursini mustaqil matn shakli sifatida o'rganish eng ma'qul uslublardan biri sanaladi. Van

Dijk gazeta maqolalarining tuzilishini qoidalar asosiga qurilgan yangiliklar “sxemasi” yordamida tahlil qiladi. Ushbu sxema esa ierarxik ya’ni muhimlik darajasiga qarab, tartiblangan kategoriyalar jamlanmasidan iborat.

XX asrning oxirida axborot-kommunikatsiya sohasida yuzaga kelgan oʻzgarishlar publisistik diskursning jamiyatga kirib borishini ta’minladi. Gazeta diskursi ommaviy axborot vositalari va auditoriya oʻrtasidagi uzoq masofali muloqot shakli sifatida ifodalanadi, uning intuitsional va kognitiv tabiati mavjud. Bu diskurs OAV tomonidan jamiyat manfaatlarini ifodalashda muhim rol oʻynaydi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda ta’sir koʻrsatadi. Publisistik diskurs, shuningdek, gazeta diskursining til va kontekst xususiyatlariga qarab shakllantirilgan ramziy tizim sifatida koʻriladi. U jamiyatdagi turli guruhlar oʻrtasida munosabatlarni oʻrnatish va saqlashda samarali boʻlib, koʻpincha informatsion va manipulatsiya funksiyalarini amalga oshiradi. Gazeta diskursining asosiy funksiyalari axborotni uzatish, reklama qilish, ma’lum mafkuralar orqali ijtimoiy voqelikni shakllantirishni oʻz ichiga oladi. Publisistik diskurs matnlari til vositalaridan tashkil topgan boʻlib, leksik va frazeologik birliklar yordamida ekspressiv va informatsion funksiyalarni bajaradi. Bu diskurs turidagi nutq, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, kommunikativ kontekstlarda qoʻllaniladi. Gazeta diskursini oʻrganish, uning til uslublarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va kontekstual talqinini amalga oshirish orqali tilshunoslik va kommunikatsiya sohasida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Adabiyotlar

Арутюнова Н.Д. (1990). Лингвистический энциклопедический словарь / под редакцией В.Н. Ярцевой. Советская энциклопедия, 136-137.

Белянин В.П. (2009). Психоллингвистика / Московский психосоциальный институт. Флинта, 194.

Бойчук К.В. (2009). Мова газетних текстів як засіб впливу на читача // Наукові записки. – Вип. 11. Острог, 135-139.

В.М. Русанівський, О.О. Тараненко, М.П. Зяблюктаін. (2004). Вид-во «Українська енциклопедія» ім. М.П. Бажана, 824 с.

Дейк Т.А. ван, Кинч В. (1988). Стратегия понимания связного текста / Новое в зарубежной лингвистике. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – Вып. Прогресс, 231.

Исмаилова Ж.А. (2006). Текст и дискурс в современной лингвистической парадигме // Наука и образование Южного Казахстана. Серия гуманитарные науки № 6 (55). 70.

Карлинский А.Е. (2003). Принципы, методы и приемы лингвистических исследований. – Алматы: КазУМОиМЯ им. Абылай хана, 184.

Кенжекканова К.К. (2015). Мәтін және дискурс ерекшеліктері // Абай атындағы ҚазҰПУ хабаршысы. Филология ғылымдары сериясы. – №1 (51). Алматы, 40-43.

Кубрякова Е.С. (2000). О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. 7-25.

Кубрякова Е.С. (2004). Язык и знание: на пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры. 516.

Кухаренко В.А. (1988). Интерпретация текста. Просвещение, 10-12.

Лук'янова Т.Г. (2013). Об'єктивація гендерних стереотипів англомовними атрибутивними сполученнями, що позначають природні характеристики людини [Електронний ресурс]. – Режим доступу: <http://eprints.zu.edu.ua> 209-212.pdf.

Мәшимбаева А.Ж. (2009). Тілек-бата сөздерінің сүгестиясы мен прагматикасы: фил.ғыл. канд. ... дисс. Алматы, 124.

Новохацева Н.Ю. (2005). Стилистический прием литературной аллюзии в газетно-публицистическом дискурсе конца XX – начала XXI веков: автореф. дисс. на соискание науч. степени канд. филол. наук: спец. 10.02.01 "Русский язык" / Н.Ю. Новохацева. – Ставрополь, 31.

Приходько А.Н. (2009). Таксономические параметры дискурса // Язык. Текст. Дискурс: Научный альманах Ставропольского отделения РАЛК / Под ред. проф. Г.Н. Манаенко. – Вып. 7. Изд-во СГПИ. 22-30.

Смағұлова Г. (2007). Көркем мәтін лингвистикасы. Алматы: ТОО Триумф «Т». 149.

Смағұлова Г. (2008). Күркебаев К., Жұмағұлова Ә. Шешендік сөздердің дискурсы. Алматы: Арыс. 18.

Смағұлова Г., Күркебаев К., Жұмағұлова Ә. (2008). Шешендік сөздердің дискурсы. Алматы: Арыс, 19.

Сүлейменова Э.Д. (1989). Понятие смысла в современной лингвистике. Алма-Ата: Мектеп, 6-7.

Caussure, F. de. (1916). Cours de linguistique générale. Paris: Payot. 40-57.

Шалабай Б. (2007). Мәтінді зерттеудің ғылыми негіздері // Қазақ тілі мен әдебиеті. – № 10. Алматы, 80-87 б.

Шейгал Е.И. (2004). Семиотика политического дискурса. Гнозис, 15.

Чудинов А.П. (2007). Политическая лингвистика: учебное пособие. Флинта, Наука, 41.

Әнес Ғ. (2010). Мәтіндік семантикалық-этимологиялық кеңістіктің теориялық мәселелері: фил.ғыл. докт. ... дисс. Алматы, 278.

TURIZM SOHASIDA QO‘LLANADIGAN O‘ZBEK TILIDAGI TERMINLARNING VUJUDGA KELISH BOSQICHLARI VA DERIVATSION O‘ZIGA XOSLIKLAR

O‘tkir Ostunov *

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm sohasining dinamik o‘shishini aks ettiruvchi o‘zbek tilida turizm atamalarining paydo bo‘lish bosqichlari va derivativ xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola tarixiy kontekstlarni, sotsiolingvistik omillarni va zamonaviy lingvistik tendentsiyalarni tahlil qilib, ushbu atamalarning qanday rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot mamlakatning madaniy merosini asrab-avaylash bilan birga turizm jozibadorligini oshirishda ixtisoslashgan lug‘atning muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek turizmi, terminologiya, derivatsiya, sotsiolingvistika, madaniy meros, til evolyutsiyasi, iqtisodiy taraqqiyot, leksik o‘zlashtirish, tarkib, globallashuv.*

EMERGENCE STAGES OF UZBEKI TERMS USED IN THE FIELD OF TOURISM AND CHARACTERISTICS OF DERIVATION

Annotation

This article investigates the stages of emergence and the derivational characteristics of touristic terms in the Uzbek language, reflecting the dynamic growth of the tourism sector in Uzbekistan. By analyzing historical contexts, sociolinguistic factors, and contemporary linguistic trends, the article aims to elucidate how these terms have evolved. The study highlights the significance of specialized vocabulary in enhancing the country’s tourism appeal while preserving its cultural heritage.

Key words: *uzbek tourism, terminology, derivation, sociolinguistics, cultural heritage, language evolution, economic development, lexical borrowing, compounding, globalization.*

Turizm – bu mutaxassislarga sayohat, mehmondo‘stlik va madaniy almashinuvning turli jihatlari haqida samarali muloqot qilishda yordam beradigan noyob terminologiya bilan to‘ldirilgan dinamik sanoatdir. Ushbu shartlarni tushunish tashrif buyuruvchilar tajribasini ham, turizm biznesining operatsion samaradorligini

* Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Tillarni o‘qitish kafedrasida katta o‘qituvchisi vatkan77@mail.ru +998(94) 4777-601.

ham oshirishi mumkin. Bu yerda turizm sanoatida keng qo'llaniladigan ba'zi asosiy sayohat atamalari mavjud.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, turizm atamasining etimologiyasi xazina, kazino, turizm atamalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, u keng tarqalgan bo'lib qo'llanilgan va "omborxona" ma'nosida ombor sifatida shakllangan tushuncha bilan bog'liqligini ko'rsatdi. pul, pul yoki davlatga tegishli mulkni saqlash". O'rganilgan tarixiy manbalar turizm atamalarining turli fonetik o'zgarishlarga uchraganligi va o'ziga xoslik bilan qo'llanilganligi, og'zaki nutq va yozma manbalarda faol qo'llanilganligini ko'rsatadi. O'zbek tilida turistik atamalarning rivojlanishi nuqtai nazaridan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar qatlami bir necha turlarga bo'linadi va 20-asr boshlarigacha shakllanish va rivojlanish bosqichida ma'lum bir tizimlilik darajasiga yetgan. Bu atamalarning ayrimlarining bugungi kungacha qo'llanilayotganligi arablar, forslar, o'zbeklar va boshqa turkiy xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar orqali og'zaki va yozma tilning uzoq va murakkab rivojlanishining mahsulidir. Jahon turizmi va madaniyatiga integratsiyalashuv o'zbek tilini dunyoning turli tillari, jumladan, o'zbek tilini yangi o'zlashtirishlar: ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillar bilan boyitgan romano-german tillari bilan yanada kengroq qiyosiy tahlil qilishni talab etadi. Ayni paytda o'zbek tili jahon tillari orasida teng maqomga ega bo'lib, Lars Yoganesson tomonidan tuzilgan jahon tillari ensiklopediyasi yoki Xendrik Boschotenning asari buning yaqqol isbotidir. Ma'lumki, turizm va iqtisodga oid terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlardan Ch.S.Abdullayeva, X.A.Musayev, O.Olimjonov, M.Xolboyev va boshqalarni alohida qayd etish mumkin. Aytish joizki, turizm terminologiyasi, xususan, turizm sohasi terminologiyasi bo'yicha monografik va dissertatsiya ishlari yetarli darajada amalga oshirilmagan. Turizm sohasi terminologiyasining maqsadli shakllantirilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan va yanvar oyidan kuchga kirgan "Turizm bo'yicha Davlat byudjetining ijrosi to'g'risida"gi qonun bilan bog'liq. Bugungi kunda bu muammo tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Turizm sohasida qo'llaniladigan o'zbek tilining turistik terminologiyasini o'rganishda tipologik qarama-qarshi til tizimlarining derivativ xususiyatlarini qiyoslash ham alohida ahamiyatga ega. Bu, albatta, lug'atlar yaratish zaruratining dolzarbligi bilan izohlanadi. Tez rivojlanayotgan bu leksik qatlamning faollashishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ko'zgusidir.

Tilning leksik tizimidagi bu faol qatlam ham mamlakatning globallashuv jarayonida kechayotgan iqtisodiy o'sishdan dalolat beradi. O'zining boy tarixiy merosi va rang-barang madaniy merosiga ega O'zbekiston Markaziy Osiyoning muhim turizm maskaniga aylandi. Turizm industriyasi gullab-yashnagan sari ixtisoslashgan lug'atning rivojlanishi samarali muloqot va targ'ibotning zaruriy

shartiga aylanadi. Ushbu maqolada o'zbek tilida turizm atamalarining paydo bo'lish bosqichlari ko'rib chiqiladi va ularning hosilaviy xususiyatlari o'rganiladi, til va turizmning o'zaro ta'siri haqida tushuncha beriladi. Bugungi kunda o'zbek turizmi terminologiyasi faol shakllanish va rivojlanish bosqichida, shuning uchun u yetarlicha tizimlashtirilmagan va tartibga solinmagan. Bu esa ayrim tushunchalarning muqobilligi yo'qligi va bu sohaga oid lug'atlarning kamligidan dalolat beradi.

O'zlashtirilgan tushunchalar ko'pincha o'zbekcha o'xshashlariga mos kelmaydi. Masalan: gid, ekskursiya, paket, mehmonxona, motel, mehmon uyi, jip safari, qishloq turizmi, ro'yxatdan o'tish, chiqish, butik mehmonxona, flotel, tur rahbari, turoperator, tur-menejer, ovqatlanish xizmati atamaları. Shuning uchun ham bunday tushunchalarning umumiy adabiy tilda va maxsus yaratilgan lug'atlarda ma'nosini oydinlashtirish uchun ularning ma'nosini dominant tarzda qayd etish maqsadga muvofiqdir. Bunday hodisa G'arbiy Evropa madaniyati ta'sirida bo'lgan ko'plab tillar lug'atida qayd etilgan globallashuv jarayonlari bilan bog'liq.

Xususan, o'zbek tilining lug'at tizimiga G'arbiy Yevropa, jumladan, ingliz turizmi terminologiyasining kiritilishi o'zlashtirilgan terminologik birliklarni tizimlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi va o'zbek tilining adabiy me'yorini qo'llashda alohida ahamiyat kasb etadi. Xorijiy sheriklar bilan doimiy aloqalar, O'zbekistonning jahon turizm iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy atamalarning tarqoq bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda yangi so'zlarning faol kirib borishi va kiritilishi bu fikrni tasdiqlaydi. XIX asr Angliyada turizm tizimi yanada mukammallashib, o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrlarda turizm sohasiga oid quyidagi terminlarni uchratish mumkin: *tourism (turizm), tourist (turist), traveller (sayohatchi), excursionist (ekskursiyachi), interpreter (tilmoch), guide (yo'l boshlovchi), tour destination (turistik manzil)* Angliya tarixining XIX asrlar davrida fransuz, lotin va ingliz tiliga oid turizm terminlari yaxlit holda qo'llanilgan.

Davrlarning o'ziga xosligi, zamonlarning va hukmdorlarning o'zgarib turishi turizm terminlarining turli shaklda qo'llanilishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Ilk o'rta asr an'analari asosida qirol saroyi va saroy huzuridagi muassasalarni nomlash hamda ta'riflash uchun lotin terminlaridan foydalanilgan. Bugungi kunda xorij mamlakatlarida, xususan, Britaniya va AQSHda ham turizm funksiyalari, ayrim o'ziga xosliklarni hisobga olmaganda, deyarli o'xshash. Ularga, asosan, davlat byudjetini ishlab chiqish, rejalashtirish, tuzish, taqsimlash; turizm prognozlash (taxmin qilish); ijtimoiy xarajatlarni nazorat qilish; byudjet balansini me'yorida tutib turish; Turizm va byudjet hisoboti loyihasini tuzish, uni ko'rib chiqish uchun hukumatga taqdim qilish kabilar kiradi. Turizm haqidagi ayrim ma'lumotlar X.Mamatqulovning inglizcha-ruscha tarixiy lug'atida ham uchraydi. Muallif qo'llagan

turizm terminlari XIX asrda keng iste'molda ishlatilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham ishlatiladi. Masalan: **traveller, excursionist, treasure, destination, guest-house**

1. O'zbekistonda turizmning tarixiy mazmuni. Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrda ijtimoiiy hayot va sayyoplarning Temur davlatiga intilishi aks etgan. O'zbekistonda turizmning tarixiy mazmuni qadim zamonlarga borib taqaladi. Ushbu hudud qadimgi Ipak yo'li bo'ylab joylashgani sababli, savdo va madaniyat almashinuvi markazi bo'lgan. Bu erda ko'plab qadimiy shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent — o'zining boy tarixiy va arxitektura merosiga ega.

2. Qadimiy Davr. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi davrlarda mavjud bo'lgan shaharlar, masalan, Buxoro va Samarqand, savdo yo'llarining asosiy nuqtalari bo'lgan. Ular nafaqat iqtisodiy, balki madaniy markazlar sifatida ham tanilgan.

O'rta Asrlar. O'rta asrlarda O'zbekiston Islomi qabul qilishi bilan turizm yanada rivojlandi. Amir Temur va uning avlodlari davrida bu hududda ulkan qurilishlar, madrasalar va masjidlar bunyod etildi. Bu joylar nafaqat sayyohlar, balki olimlar va san'atkorlar uchun ham jalb etuvchi markazlar bo'lib qoldi.

XIX asr. XIX asrda O'zbekiston Rus imperiyasining bir qismi bo'lib qoldi. Bu davrda sayyohlik rivojlanishi boshlanib, mahalliy madaniyat va tarixga qiziqish ortdi.

Mustaqillik Yillari. Mustaqillikdan so'ng, 1991-yildan keyin O'zbekiston turizm sohasida yangi bosqichga o'tdi. Mamlakatning boy tarixiy merosi, qadimiy shaharlar va madaniy an'analar sayyohlar uchun qiziqarli manzilga aylandi. Hozirda O'zbekiston xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda, shuningdek, madaniy va ekologik turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

1.1. Mustaqillikdan oldingi davr

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgunga qadar turizm asosan sust rivojlangan, ichki va xalqaro sayohatlar cheklangan edi. Sayohat bilan bog'liq terminologiyaning aksariyati rus tilidan olingan bo'lib, Sovet Ittifoqining siyosiy va madaniy ta'sirini aks ettiradi. Bu davrning lug'ati asosan utilitar bo'lib, turizmning madaniy yoki tajribaviy jihatlariga emas, balki asosiy sayohat logistikasiga e'tibor qaratgan.

1.2. Mustaqillikdan keyingi davr

Sovet Ittifoqining parchalanishi O'zbekistonda turizm rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Hukumat mamlakatning tarixiy joylari va tabiiy go'zalliklarini targ'ib qila boshladi, bu esa xalqaro tashrif buyuruvchilarning ko'payishiga olib keldi. Bu davrda O'zbekistonning madaniy-tarixiy boyliklariga

qiziqish ortib borayotganini aks ettiruvchi yangi atamalar sezilarli darajada paydo bo'ldi.

2. Turistik atamalarning paydo bo'lish bosqichlari

2.1. Dastlabki bosqich: Qarz olish va moslashish

Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda o'zbek tiliga ko'plab ingliz va g'arb atamalari turizmga oid adabiyotlar, marketing materiallari va o'quv dasturlari orqali kirib keldi. Masalan, "turizm", "mehmonxona" kabi atamalar to'g'ridan-to'g'ri qabul qilingan, ko'pincha o'zbekcha talaffuzga mos keladigan biroz fonetik moslashuvlar bilan.

Turizm rivojlanishi bilan yangi tushunchalar mutlaqo yangi atamalarni yaratishni taqozo etadi. Bu, ayniqsa, onlayn turizm (onlayn turizm) kabi atamalar paydo bo'lgan raqamli turizm kabi sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

2.2. Rivojlanish bosqichi: Mahalliy atamalarni yaratish. Turizm sanoati rivojlangan sari mahalliy madaniyat va tarix bilan aks-sado beradigan mahalliy atamalarni yaratish uchun birgalikda harakat qilindi. Masalan, "sayohat" xorijiy ekvivalentlarni almashtirib, turizmni rivojlantirish uchun ishlatiladigan mashhur atamaga aylandi. Bu davrda "madaniyat sayohati" (madaniy turizm) kabi qo'shma atamalar ham paydo bo'ldi va O'zbekistonning noyob takliflarini ta'kidlaydi.

"Chayxona" atamasi o'zbeklarning an'anaviy turmush tarzini aks ettirib, mehmondo'stlikni ta'kidlaydi. Uning turizm industriyasidagi ahamiyati turistlarni jalb qilishda madaniy amaliyotlarning muhimligini ta'kidlaydi.

2.3. Joriy bosqich: Global ta'sir va integratsiya. So'nggi yillarda globallashtiruv o'zbek turizmi leksikoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. "Ekoturizm" va "sarguzasht turizmi" kabi turizmdagi ko'plab zamonaviy tushuncha va amaliyotlar o'zbek tiliga tarjima qilingan, natijada "ekoturizm" va "sarguzasht sayohati" kabi atamalar paydo bo'lgan. Ushbu integratsiya turizm sanoatida mahalliy va global istiqbollarning uyg'unligini ta'kidlaydi.

3. O'zbek turistik atamalarining hosilaviy xususiyatlari

3.1. So'z yaratish jarayonlari

O'zbek tilida turistik lug'atning shakllanishi bir qancha lingvistik jarayonlar bilan tavsiflanadi:

- Qo'shma gap: Yangi atamalar ko'pincha ikki yoki undan ortiq so'zlarni birlashtirib yasaladi. Masalan, "sayohat" (sayohat) va "markazi" (markaz) "sayohat markazi"ni (sayohat markazi) yaratadi. Boshqa yangi atamalar ko'pincha mavjud so'zlarni qo'shish orqali shakllanadi, bu aniqlik va o'ziga xoslikni oshiradi. Masalan: Samarqand-turizm (Samarqand turizmi), Oshpazlik-turizm (pazandachilik turizmi). Kalk tarjimalar asl tilning tuzilishini saqlab qolgan holda xorijiy atamalarning bevosita tarjimalarini o'z ichiga oladi. Misol tariqasida ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan, lekin o'zbek lingvistik kontekstiga moslashtirilgan ekoturizm

(ekoturizm)ni keltirish mumkin. “Registon” atamasi nafaqat manzilni, balki O‘zbekistonning madaniy o‘ziga xosligini ham ifodalaydi. Ushbu amaliy tadqiqot terminologiya tarix, arxitektura va milliy g‘ururni qanday qamrab olishi mumkinligini ko‘rsatadi.

- Affiksatsiya: Prefiks va qo‘shimchalardan foydalanish yangi atamalarni hosil qilish imkonini beradi. Masalan, “turistik” (turistik) so‘zi “turizm” (turizm) so‘zidan qo‘shimcha qo‘shish orqali olingan.

- Kredit tarjimalari: Ayrim atamalar bevosita xorijiy tillardan tarjima qilinadi. Masalan, “madaniy turizm” “madaniyat sayohati” deb tarjima qilingan.

3.2. Madaniy va kontekstual ta'sirlar

Turistik atamalarning paydo bo‘lishida madaniy aloqadorlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ko‘pgina atamalar mahalliy urf-odatlar, an‘analar va tarixiy sharoitlarni aks ettiradi. Masalan, “mehmondo‘stlik” o‘zbek madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy xususiyat bo‘lib, sayyohlarni jalb qilish maqsadida reklama materiallarida tez-tez ta’kidlanadi.

4. Muhim turistik atamalarning amaliy tadqiqotlari

4.1. "Ipak yo‘li". “Ipak yo‘li” atamasi O‘zbekistonning qadimiy savdo yo‘llaridagi asosiy nuqta sifatidagi tarixiy ahamiyatining ramzidir. U mamlakatning boy madaniy merosini qamrab oladi va tarixiy sarguzasht va kashfiyot tuyg‘usini uyg‘otish uchun turizm marketingida keng qo‘llaniladi.

4.2. “Pazandachilik turizmi”. Pazandachilik turizmi ommalashib borar ekan, mahalliy oshxonaga oid atamalar, masalan, “plov” turizm leksikoniga moslashtirildi. Bu atama nafaqat an‘anaviy taomni ta’riflaydi, balki butun dunyodan taom ixlosmandlarini o‘ziga jalb etib, O‘zbekistonning madaniy elchisi bo‘lib xizmat qiladi.

4.3. “Ekoturizm”. Atrof-muhit barqarorligi to‘g‘risida xabardorlikning kuchayishi bilan “ekoturizm” O‘zbekiston turizm lug‘atining muhim qismiga aylandi. Bu atama ham global tendentsiyalarni, ham mamlakatning tabiiy landshaftlari va bioxilma-xilligini targ‘ib qilishga qaratilgan mahalliy tashabbuslarni aks ettiradi.

5. Rivojlanayotgan terminologiyada texnologiyaning roli

Raqamli media va texnologiyalarning yuksalishi turistik atamalarning tarqalishi va qabul qilinishini o‘zgartirdi. Onlayn platformalar, sayyohlik bloglari va ijtimoiy tarmoqlar terminologiyaning tarqalishini tezlashtirdi, bu esa kengroq auditoriyani O‘zbekiston turizmi bilan bog‘lash imkonini berdi. Ushbu platformalarning interaktiv tabiati real vaqt rejimida fikr-mulohaza yuritish va turistik imtiyozlarning o‘zgarishiga javoban lug‘atning evolyutsiyasiga imkon beradi.

6. Turizmni rag‘batlantirishning oqibatlari

Turistik lug‘atning evolyutsiyasi O‘zbekistonni sayyohlik yo‘nalishi sifatida targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Samarali aloqa brending va marketing

harakatlari uchun zarurdir. Aniq va madaniy jarangdor terminologiya O'zbekistonning sayyohlik takliflarining jozibadorligini oshirishi bilan birga, xalqaro auditoriya bilan chuqurroq aloqa o'rnatishi mumkin.

7. Qiyinchiliklar va imkoniyatlar. Ijobiy o'zgarishlarga qaramay, yangi atamalardan izchil foydalanish va tushunishda muammolar qolmoqda. Noto'g'ri talqin qilish yoki maxsus lug'at bilan tanishmaslik samarali muloqotga to'sqinlik qilishi mumkin. Biroq bu muammolar lingvistik ta'lim va madaniy almashinuv imkoniyatlarini ham taqdim etadi, bu esa yanada inklyuziv turizm muhitini rag'batlantiradi. Xorijiy terminologiyani integratsiyasi, ayniqsa, tezda moslashish uchun resurslarga ega bo'lmagan mahalliy korxonalar uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Terminlarni standartlashtirishga urinishlar mavjud bo'lsa-da, mintaqaviy o'zgarishlar turizm yagona lug'atni qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Raqamli platformalarning ko'tarilishi onlayn bron qilish, marketing va ijtimoiy media bilan bog'liq yangi atamalarni kiritdi. Ushbu texnologik siljish o'zbek turistik leksikasini doimiy ravishda moslashtirishni talab qiladi. Onlayn sayyohlik agentliklarining paydo bo'lishi lug'at tarkibiga ham ta'sir ko'rsatdi va onlayn buyurtma (onlayn buyurtma) va veb-sayt (veb-sayt) kabi atamalarni talab qildi.

Xulosa. O'zbek tilida turistik atamalarining paydo bo'lishi va kelib chiqishi til va turizm rivojlanishi o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ko'rsatadi. O'zbekiston o'zini jahon turizm bozorida muhim o'yinchi sifatida ko'rsatishda davom etar ekan, uning lingvistik landshafti evolyutsiyasi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va jalb qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu terminologik o'zgarishlarni tushunish, uning boy madaniy merosini saqlab qolgan holda, mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishni maqsad qilgan manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar

Abdurahmonov A. (2021). O'zbekistonda turizm va madaniy meros: til va o'zlik. Toshkent. O'z adabiyoti matbuoti.

Mamatov B. (2022). O'zbek turizmi atamalarining lingvistik jihatlari. O'zbek tili fanlari jurnali, 15(3), 45-60.

Karimova N. (2023). Globallashuvning o'zbek tili va turizmiga ta'siri. Toshkent: Milliy universitet nashriyoti.

Suyunov D. (2020). O'zbekistonda zamonaviy turizm kontekstida leksik taraqqiyot. Turizm tadqiqotlari xalqaro jurnali, 12(2), 78-89.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2022). O'zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyalari: lingvistik istiqbollar. Toshkent: TSEU matbuoti.

O'ZBEK TILI TIBBIY TERMINLARIDA POLISEMIYA HODISASI

Buronova Xolida *

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyotga aloqador terminlarning umumiste'moldagi va o'z ichki doirasidagi bosh hamda yondosh ma'nolari, ularning xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Monosemantik va polisemantik tibbiy terminlar farqlangan. Yondosh ma'nolarning yuzaga kelish asoslari, tibbiy terminlar doirasidagi o'ziga xosliklari misollar orqali ilmiy dalillangan.

Kalit so'zlar: *polisemiya, monosemiya, bosh ma'no, yondosh ma'no, umumiste'moldagi so'z, termin, omonim.*

THE PHENOMENON OF POLYSEMY IN UZBEKI MEDICAL TERMS

Annotation

This article reflects on the general and side meanings of terms related to medicine in general terms and in its inner circle, their characteristics. Monosemantic and polysemantic medical terms are distinguished. The basis of the occurrence of side meanings, their peculiarities within the framework of medical terms are scientifically proven through examples.

Key words: *polysemy, monosemia, prime meaning, adjacent meaning, universal word, term, homonym.*

O'zbek tilida polisemiya uchragan so'zlar salomog'i talaygina. Tildagi ushbu jarayon Mahmud Koshg'ariy davridan shu bugungacha o'rganib tadqiq etilib kelinmoqda. A.Navoiy davrida esa bu hodisani omonimiya jarayonidan farqlash, ular o'rtasidagi o'xshash jihatlar ilmiy dalillangan. Umumiste'moldagi so'zlar qatori kasb-hunarga aloqador terminlar doirasida ham ushbu jarayonni kuzatish mumkin. Bu tilning serqirra va jilokorligini ta'minlaydi. Shuningdek, milliy tilga xos tejamkorlikni ham taqozo etadi.

Polisemiya (grekchadan polys – ko'p va sema – belgi) so'zning ikki va undan ortiq ma'nosi bor, degan ma'noni bildiradi. Ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilishda leksemalarni tanlash qiyin bo'lishi mumkin. Ular ma'no va so'zning ishlatilishidagi chalkashlikdan kelib chiqadi.

So'zlarda polisemiyaning vujudga kelishi diaxronik jarayon sanaladi. Shakli, vazifasi, xarakter-xususiyati bilan aloqadorlikning yuzaga kelishi polisemiyaning yuzaga keltiradi. Bunda so'zlar semasiaro ma'noviy zanjir, ya'ni aloqadorlik, bog'liklik mavjud bo'lib, u so'zning muayyan xususiyatiga ko'ra yuzaga keladi. Bu

* O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali buranovaxoloda8987@gmail.com

masalaga R.Z.Ginzburg quyidagi fikrni ilgari surgan: alohida ma'nolarga emas, balki birinchi bo'lib bitta so'z (yoki atama)ning semantik strukturasi doirasida turli ma'nolarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi muammosi bilan duch kelishini ta'kidlagan. Muallif polisemiya odisasini sinxronika va diaxronika nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Masalan, "ko'z" – insonning tana a'zosi. Ushbu so'zning shakliy xususiyati, ya'ni qabariqlik belgisi "daraxtning ko'zi" birikmasiga ko'chgan. Uning "tananing asosiy organi" semasiga ko'ra "buloqning ko'zi", "ishning ko'zi" kabi tushunchalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. V.P.Danilenko polisemiya shunday ta'rif beradi: "So'zning qobiliyati sinxron planda turli predmetlar, hodisalar, belgilar va munosabatlarning sinflarini ifodalash uchun bir vaqtning o'zida bir necha ma'nolarga ega". Bu masalaga I.X.Islomov quyidagicha xulosa beradi: Tarixiy kontekstda muallif polisemiyaning o'sish jarayoni sifatida belgilaydi va rivojlanish yoki umumiy ma'noda ma'lum bir so'zning semantik strukturasi o'zgarishlar sifatida tushunadi. Diaxroniya nuqtayi nazaridan polisemiyaning rivojlanish jarayonida so'zning asl, birlamchi ma'nosini (yoki ma'nolarini) saqlab qolishini va bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha yangi ma'nolar kasb etishini nazarda tutadi. Bu holda asl ma'no asosiy, keyinchalik bu so'zda yuzaga kelgan boshqa ma'nolar ikkinchi darajali va semantik hamda etimologik jihatdan birinchisiga qarama-qarshi hisoblanadi. Muallif polisemiyaning manbalaridan biri so'z semantik strukturasi ishlatilishi jarayonida o'zgarishi, degan xulosaga keladi.

Umumiste'moldagi so'zlarning polisemiya uchirashi va uning hosilalari talaygina. Terminlarda esa, asosan, monosemantik birliklarning salmog'i yuqori. Quyida ularning izohi beriladi:

MADOR Organizmning ish-faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi ruhiy-jismoniy kuch-quvvat.

KO'KSUV Ko'zdan yosh oqib turishi bilan kechadigan ko'z kasalligi.

KO'PAYISH *biol.* O'zidan ko'p nasl qoldirish, urchish.

LANJLIK Jismonan butun tana, oyoq-qo'l mushaklari tpnusi pasaygan, ruhan qiziqish so'nib, atrof-muhit voqealariga befarq bo'lgan loqaydlik holati.

Yuqoridagi birliklar monosemantik xususiyatga ega bo'lib, tibbiy terminlar doirasida bir tushuncha va ma'no uchun qo'llanadi. Ammo tibbiy terminlarning shunday turlari ham mavjudki, ular boshqa sohalarida ham muayyan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. S.V.Grinev fikriga ko'ra, bitta leksik birlik tomonidan bir necha tushuncha bilan ataladigan holatlar polisemiya yoki omonimiya sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin".

Demak, o'zbek tili tibbiyotga aloqador terminlarini ikki guruhga tasniflash mumkin:

1. Monosemantik tibbiy terminlar;

2. Polisemantik tibbiy terminlar.

Atamalarni idrok etish va qo'llash muayyan semantik maydonni hosil qiladi. Shunga ko'ra terminlarda uchraydigan polisemantik jihat ikki turlidir: biri muayyan soha ichida yuz bersa, ikkinchisi sohalararo ko'p ma'nolilikni hosil qiladi. Bu masalada S.N.Chistyuxina "sohalararo polisemant" atamasini joriy etgan [Чистюхина С.Н. Межотраслевые полисеманты в терминологии современного английского языка. Вестник МГОУ. Серия «Лингвистика». № 3, 2011.]. Ba'zan umumiste'moldagi leksemalar terminologik ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, *qon*, *o'las*, *bo'shliq* kabi. Ular tibbiyotga aloqador atamalarni yuzaga keltirgan. Bunday so'zlarga nisbatan leksema-termin atamasi qo'llanadi. Demak, terminlarda polisemiya holati umiste'moldagi so'zlarda ham, sohaviy ahamiyatga ega atamalar doirasida ham kuzatilishi mumkin. Bu semantik maydonning ko'lamiga ko'ra xarakterlanadi. Terminlarda polisemiyaning aniqlash, uni his qilish matnga aloqador sanaladi. Bu masalada O.S.Axmanova shunday deydi: terminlar polisemiya va kontekst o'rtasidagi munosabatlar masalasi bilan bevosita bog'liq atama. Haqiqatan ham, terminning ko'p ma'noliligi uning sintaktik qurshoviga aloqadordir. Kontekstual mohiyatidan kelib chiqqan holda terminning matndagi semantik maydoni belgilab beriladi. Bunga D.S.Lotte quyidagi fikrni bildiradi: yozganidek, terminologiya aniq bo'lishi uchun bu atama "nisbiy aniqlik" xususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni bu atama berilgan fanlar ichida bir ma'noli bo'lishi kerak. Bu fikr V.A.Tatarinov tomonidan ham ilgari surilgan. Uning fikricha, terminlar doirasida polisemantik xususiyat mutlaqo bo'lmasligi kerak. Bu sohaviy terminning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlab beradi.

Avvalo, terminlarda monosemantik belgi ustun va barqarordir. Bu terminning asosiy belgisi ham sanaladi. Bir necha tushunchalarni ifodalash jarayoni, ayniqsa, ular bitta terminologik tizimga tegishli bo'lsa, bu asosiy muammolardan biridir, chunki bu hodisa inson bilimlarining barcha sohalarida kuzatiladi, – deydi tilshunos I.X.Islomov. Natijada, ilmiy va kasbiy muloqotni murakkablashtiruvchi ma'nolar polisemiyasi hosil bo'ladi.

Polisemantik xususiyat terminga aloqador bo'lmasligi kerakligini D.S.Lote ham aytib o'tgan Boisi terminlarning muhim belgisi va me'yoriy xususiyatlaridan biri bu monosemantik ahamiyat kasb etishidadir.

Umuman olganda o'zbek tili tibbiy terminlarini semantik maydoniga ko'ra tasniflar ekanmiz, ulardagi ma'noviy bir xillik va xilma-xillikka e'tibor qaratiladi. Bunda omonimlik hodisasi bilan bir qatorda posemantik, polifunksionallik belgilariga duch kelish mumkin. Albatta, bu tilning naqadar boyligi va serqirraligini ifodalab beradi. Ulardan nutqiy jarayonga to'g'ri va o'rinli foydalanish esa muloqotning mantiqiy izchilligini belgilab beradi. Quyida o'zbek tilidagi tibbiy terminlardagi ko'p ma'nolilik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz:

O'SMA I 1 Uzun cho'zinchoq, to'q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub ikki yillik o'tsimon o'simlik. **2.** Shunday o'simlikning bargidan siqib olinib, qosh va kipriklarga qo'yish uchun ishlatiladigan qora-yashil rangli suyuqlik.

O'SMA II tib. Organizmdagi o'zgargan va o'zining odatdagi shakli hamda vazifasini yo'qotgan hujayralardan iborat to'qimalarning zo'r berib o'sib ketishi.

Yuqoridagi so'zning leksik ma'nosi o'simlik turi, ammo uning "unib chiqish, o'sish" semalari bilan aloqadorlikda yuzaga kelgan kasallik turning nomlanishi polisemiyaning yuzaga keltirgan. Ya'ni o'simlik semasi o'z ma'noda bo'lsa, kasallikka nisbatan ishlatilishi esa ko'chma ma'noni tashkil etadi.

QON 1. Organizmning yurak va qon tomirlaridan iborat yopiq Sistema ichida to'xtovsiz harakatlanib turuvchi suyuq to'qimasi (a'zo va hujayralarni oziqlantiradigan, modda almashinishini ta'minlaydigan qizil suyuqlik) **2 ko'chma** Tug'ishganlik, qarindosh-avlodlik ramzi sifatida **3 ko'chma** Narsalarning yashash, harakatlanish ramzi sifatida; "joni", "yuragi"; qon tomiri. **4 ko'chma** Shaxsga xos hissiyot, his-tuyg'u.

Bunda qon tibbiy terminining ko'chma ma'no kasb etishi va ularning umumiste'molda qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Terminning leksemalashuv jarayonini kuzatish mumkin. Isnonning biologic faoliyati bilan aloqador tibbiy termin "qon-qarindoshlik", "narsalarning harakatlanishi", "insonning his-tuyg'usi" kabi bir nechta ko'chma ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

GUL I [f. – chechak] 1 bot. Yopiq urug'li o'simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan gulband, kosachabarglar, tojbarglar, changchilar va urug'chidan iborat qismi. **2 ko'chma** poet. Go'zal. **3 ko'chma** (I shaxs egalik qo'shimchasi bilan murojaat shakli) Yor, sevikli ayol. **4 ko'chma** (III shaxs egalik qo'shimchasi bilan) Eng yaxshisi, sarasi; fayz kirituvchisi, qizituvchisi.

GUL II tib. Qizilcha, qizamiq va boshqa ba'zi kasalliklar bilan og'riqan vaqtda badanda paydo bo'ladigan mayda qizil toshma.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" ning talablariga ko'ra so'zlar oldidagi rim raqamlari omonimlik, arab raqamlari esa ko'p ma'nonilik belgilarini ochib beradi. Yuqoridagi so'z "o'simlik" va "kasallik" ma'nolari tibbiyot doirasidagi terminologik polisemiyaning yuzaga keltirgan. Boisi ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi "rangli o'simlik" hisoblanadi. Turli qizg'imtir toshmalar ham shu o'simlikka shaklan, xususiyat jihatidan o'xshagani sabab kasallikka nisbatan bu nom ko'chgan. Demak, terminlar bir soha ichida ham ko'p ma'nolilikni yuzaga keltira oladi. Ammo bu lug'atda omonim so'zlar sirasiga kiritilgan. Bizningcha, bunda ma'no zanjiri uzilmagan va polisemantik xarakter kasb eta oladi. Shuningdek, ushbu so'zning "go'zal", "sevikli yor", "sarasi, eng yaxshisi" semalarida o'simlikning belgi-xususiyatlariga nisbatan zanjir mavjudligini bildiradi va bu umumiste'moldagi so'zlarga nisbatan ma'no ko'chishini yuzaga keltiryapti.

A'ZO [a. – uzvlar, qismlar] 1 Odam yoki hayvon organizmining muayyan bir vazifani bajaruvchi qismi. 2 Kishining butun vujudi; badan, tana. 3 Biror guruh, hudud va sh.k.da yashovchi, unga mansub shaxs. 4 Biror guruh, kengash, jamoa, jamiyat va sh.k.ga rasmiy qabul qilingan, saylangan, unda faoliyat ko'rsatuvchi, shaxs, jamiyat, mamlakat va sh.k.lar.

Ushbu termin A.Qosimovning "Tibbiy terminlar lug'ati"ga kiritilgan bo'lib, "qismlilik, to'daga mansublik" belgisiga ko'ra "badan, tana", "jamoaga aloqador shaxs, jamiyat, mamlakat" kabi ko'chma ma'nolarni hosil qilgan.

BARMOQ I 1 Qo'l va oyoq panjasining beshta harakatchan qismidan har biri.

BARMOQ II 1 ad. Har bir satrda bo'g'inlar sonining bir xil bo'lishiga, mutanosibligiga asoslangan she'riy vazn. 2 Taxminan o'rta qo'l (barmoq) eniga baravar uzunlik o'lchovi.

BARMOQ III *tex.* Mashina va mexanizmlarning g'o'lacha shaklidagi qismi.

Yuqoridagi so'z "Qo'l va oyoq panjasining beshta harakatchan qismlari" ma'nosida tibbiy termin hisoblanib, ikkinchi ma'nosi, ya'ni "she'riy vazn"ga nisbatan polisemantik xususiyat kasb etadi. Boisi barmoq vaznining talabiga ko'ra she'riy misradagi bo'g'inlar soni barmoqlar orqali sanalishi lozim. Ya'ni barmoq bilan sanashlilik vazifasi vaznning nomiga ko'chgan.

BEZ I 1 *anat.* Odam yoki hayvonning tirikligi uchun zarur moddalar ishlab chiqaradigan organ. 2 Shu organning yallig'lanishi natijasida do'mboqchaga aylangan holati. 3 *ko'chma* Gap ta'sir qilmaydigan, bezbet, sorbet.

BEZ II Surpdan ko'ra qalin, pishiq ip gazlama

Bu so'zning rim raqamida berilgan ikki ma'nosi tibbiy va to'qimachilik sohalariga aloqador omonim terminlar sanaladi. Ammo "organ" va shunga aloqador "kasallik" ma'nolarida polisemantik xarakter mavjud.

DAHLIZ *anat.* Ichi bo'sh a'zo va tuzilmalarning ularga kiraverish qismi; har qanday a'zo va tuzilmalarning dahlizi o'ziga xos chegara va tuzilishiga ega.

DAHLIZ [f. – kirish joyi, usti yopiq yo'lak] Uyning kiraverishiga qurilgan, odatda poyabzal va ust kiyimlar yechib kiriladigan birinchi xona.

Xulosa qilib shun aytamizki, tibbiy terminlarda ko'p ma'nolilik xususiyati mavjud. Buni Izohli lug'atda aynan kuzatish ham mumkin, yoinki tibbiyotga aloqador bilimlar asosida ham aniqlasa bo'ladi. Vaholanki, ularning ko'pchiligi A.Qosimovning "Tibbiy terminlarning izohli lug'ati"da aks etgan. Ularga aloqador o'z va yondosh ma'nolarni aniqlashda shu ikki manba asos qilib olinganda terminologik bazaning, manbaning yetishmasligi dolzarb muammolardan ekanligi oydinlashdi.

Adabiyotlar

Herre, H. (2006). Semantic Foundations of Medical Information Systems Based on Top-Level Ontologies / H.Herre, B.Heller // *Journal of Knowledge-Based Systems*. Vol. 19 (2). P. 107-115.

Лобанова Е.А. (2011). Полисемия как проблема в языке права. Сборник работ 68-й научной конференции студентов и аспирантов Белорусского государственного университета: в 3-х ч.: ч. 2. Минск: БГУ. 123-124.

A Course in Modern English Lexicology / Р.З. Гинзбург, С.С. Хидекель, Г.Ю. Князева [и др. 1979.]. Высшая школа,. 33-51.

Даниленко В.П. (1981). Терминология и норма / В.П. Даниленко, Л. Скворцов. №1. 77-83.

Исломов И.Х. (2021). Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини. Филол. Фан. Д-ри дисс... Тошкент. 125.

Рустамова Х.Е., Стожарова Н.К. ва бошқалар. (2014). Тиббиёт тарихи. Тошкент. 10.

Toshtemirovna, B. X. (2022). Characteristics of the use of words related to some adjectives in the work "kutadgu bilig" by yusuf khos hajib. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 976-981.

Buronova Xolida Toshtemirovna, & Tojiboyeva Anora Begmurod kizi. (2023). SOME STYLISTIC FEATURES OF VERBS IN TUNYUQUK INSCRIPTION (BASED ON RELATIONAL FORMS). *Open Access Repository*, 4(3), 374–377. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/RU8PY>

Buronova Xolida Toshtemirovna, & Aliqulova Sojida. (2023). “QUYUN IZLARI YOHUD OGHIY” ROMANIDA TEONIMLARNING FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 238–245. Retrieved from <http://www.ijournal.uz/index.php-/jartes/article/view/850>

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI TILIDA QO‘LLANILGAN FORS-TOJIKCHA SO‘ZLAR

Lutfulla Sindorov *

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oybekning “Navoiy” romani tilining o‘zlashma leksik qatlamlari, xususan, fors-tojikcha so‘zlar jamlanib, tematik jihatdan tasniflab chiqilgan hamda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili leksikasi, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, arabcha so‘zlar, fors-tojikcha so‘zlar, tasnif, bilingvizm, so‘z yasash.*

PERSIAN-TAJIK WORDS USED IN OYBEK'S “NAVOI” NOVEL

Abstract

In this article, the acquired lexical layers of Oybek's novel “Navoi”, in particular Persian-Tajik words, are collected, classified thematically and researched based on the achievements of modern science.

Key words: *lexicon of the Uzbek language, native layer, native layer, Arabic words, Persian-Tajik words, classification, bilingualism, word formation.*

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir bo‘ladi. Buning natijasida tillarning lug‘at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so‘zlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi bilan hamohang tarzda o‘zbek tili ham o‘zining tarixiy rivojlanishida ko‘plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo‘ldi. Shu bois, o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma‘lum qismini o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi. [Йўлдошев И. 2004. 209-б.]

O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki imkoniyatlari muhim manba hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o‘z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko‘rmaganidek, o‘zbek tili uchun ham faqat o‘z so‘zlari va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O‘zbek tili so‘z boyligining takomillashuvida tashqi manba ham sezilarli o‘rin egallaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi. Binobarin, turli tillarga mansub xalqlarning o‘zaro hamkorligi, qo‘shnichilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyoti, birinchi navbatda, leksikasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi tabiiy. Pirovardida so‘z almashish va o‘zlashtirish holatlari yuz beradi. Ushbu jarayon tarixiy sharoitlarga bog‘liq tarzda turlicha kechadi.

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o‘zbek adabiy tili uchun ham so‘z o‘zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid manbalarda qo‘llanilgan

* O‘zMU Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d.(PhD), dotsent, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Anorqulova@list.ru.

o‘zlashmalarning kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o‘zbekchaga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarlidir. Fors tili bu davrda ma’muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so‘zlarining o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashishida vositachi vazifasini bajargan. Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya mo‘g‘ulcha so‘zlar hisobiga kengaygan bo‘lsa, ma’muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forsiy o‘zlashmalar orqali boyigan. Umuman, turkiy tillar leksikasidagi chet so‘zlarni ikki guruhga taqsimlab tahlil etish maqsadga muvofiq:

1) qadimiy (islomgacha bo‘lgan) davr. Bunga sanskritcha, sug‘dcha va xitoycha unsurlar xos;

2) nisbatan yangi (islom hamda mo‘g‘ullar istilosidan keyingi) davr. Bu davrda turkiy til so‘z boyligidan arabcha, fors-tojikcha va mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar o‘rin egallaydi.

Turkiy tillar so‘z boyligida sug‘dcha, sanskritcha, xitoycha o‘zlashmalarning paydo bo‘lishiga turkiy xalqlarning qadimdan sug‘d, hind, xitoy, xorazm xalqlari bilan yaqindan bo‘lgan aloqalari mahsuli sifatida baho beriladi.

Tarixdan yaxshi ayonki, O‘rta Osiyo hududida azaldan turkiy aholi istiqomat qilgan. O‘rta Osiyo – ikki daryo oralig‘ida qadimdan forsiy tilda so‘zlashuvchi aholi turkiylar bilan birgalikda yashab kelgan. Ular Ahamoniylar hukmronligi davrida (mil.avv. VI-IV asrlar) katta ta’sirga ega bo‘lgan bo‘lsa, ularning keyingi yirik oqimi Movarounnahr hududlariga arablar bilan birga kirib keldi. Shu tariqa, turkiylar bilan eroniy zabon aholi o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy aloqa va qo‘shilib ketish hollari yuz bergan.

Turli etnik qatlamlarga mansubligidan qat’i nazar, O‘rta Osiyo xalqlari asrlar davomida deyarli bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo‘rlikka birgalashib kurashganlar. Bunday madaniy-adabiy aloqalar xalqlarning bir-biriga yanada yaqinlashuviga, hamkorliklarining mustahkamlanishiga olib kelgan.

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urug‘, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi va qo‘shilishi (qadimiy davrlarda).

2. O‘zbek tilining forsiy til bilan (IX-X, XI-XV asrlar) aloqasi.

3. O‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha).

Darhaqiqat, bu xalqlarning yonma-yon yashashi, o‘zaro munosabatlari va yaqinlashuvi, bir-biriga ta’siri natijasida ikki tillilik yuzaga kelgan.

Somoniylar davrida (IX-X asrlar) klassik forsiy adabiy til keng tarqala boshladi. Forsiy adabiy tilda bu davrda (VII-VIII asrlarda) fan va adabiyot sohasida, shuningdek, yuridik sohada hukmronlik qilgan arab tilini siqib chiqara boshlaydi. Bunday kurash dastlab XI asrda fors-tojik tilining arab tilini she'riyatdan siqib chiqarishiga sabab bo'ladi [Усмонов С. 1968. 110.].

O'rni kelganda e'tirof etish kerakki, XIV-XV asrlarda turkigo'y adiblar fors-tojik tilini yaxshi bilganlar va har ikkala tilda ijod qilganlar. Demak, forsiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishida quyidagi omillar muhim rol o'ynagan:

a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;

v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'analarining uzoq yillar davom etganligi;

g) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi;

d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik.

Oybekning «Navoiy» romani tilidagi fors-tojikcha o'zlashgan so'zlarni quyidagi leksik-semantik mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin:

1. Odam va hayvon a'zolari nomi: *aft, andom (jussa), angor, bel, chehra, dil, diydor, dum, gardan, gavda, kaft, kalla, kokil, lab, lunj, mijja, mo'ylab, mujda, mujgon, musht, panja, par, pat, peshona, rujor, siyna, tana, zulf* kabi so'zlar. Masalan, «U yo'g'on charpahil gavdali, dakkam-dukkam qizg'ish mo'ylabli» (9-bet).

2. Daraxt va o'simliklar, ular tanasining qismlari nomi: *anor, barg, bodom, changal, daraxt, don, g'uncha, giyoh, gul, magiz, meva, nihol, nok, novda, sabzi, sada, sarv, sho'ra, shox, xas, xashak, xazon, xina, zarang*, kabi so'zlar. Masalan, «Shoir bir vaqtlar zavqlanib kezgan saroyda gulzorlarni sog'inchli nazar bilan tomosha qilib, bosh qasrga borarkan sarvzorlar orasidan Husayn Boyqaro chiqib keldi» (373-bet).

3. Mashg'ulot va kasb-hunar, ular bilan aloqador tushunchalar nomi:

andoza, bastakor, bog'bon, charh, chilangar, cho'pon, darvozabon, dasta, dehqon, do'kondor, duradgor, gaz, go'lah;, hunar, hunarmand, juvoz, kisavur, kulol, mirob, mirza, misgar, nonvoy, oshpaz, payvand, peshdor, posbon, poytesha, sangtarosh, sarkor, sipohi, sozanda, tarozu, usta, zardo'z, zargar, kabi so'zlar. Masalan, «Qovog'i ochilmagan sarkor davraga bir ko'z yugurtirib, oshpazga «Boshlang», deb qichqirdi» (203-bet).

4. Oziq-ovqat, ichimliklar nomi: *boda, burda, charbi, go'sht, kunjut, lalmi, mastava, may, nabot, non, osh, palov, qand, sharbat, sharob, shira, xom, xurak, yog', zog'ora*, kabi so'zlar. Masalan, «Xilini, ta'mini surishtirmay, duch kelgan sharobni ko'taradigan Turonbekka ikki kosa may xech kor qilmadi» (28-bet).

5. Shaxs, inson tushunchasi bilan bog'liq nomlar: *kanizak, kaniz, hamroh; gadoy, hamsuhbat, hamxona, jahon, jonona, juvon, kamina, kampir, mehmon, mezbom, sohib, xushmuomala, xushsuhbat*, kabi so'zlar. Masalan, «Mehmonni laziz ovqatlar bilangina emas, shirin latifalar bilan ham kutmoq kerak» (316-bet).

6. Kiyim-kechak, ular qismlari, matolar hamda tikuvchilik, kashtachilikka oid so'zlar: *adras, astar, atlas, baxya, beqasam, charm, chit, chok, chopon, choyshab, dakana, doka, jig'a (toj), joma, kafsh, kallapo'sh, kamar, kavush, kimxob, kuloh, las, movut, nimcha, po'stin, qissa, ro'mol, sarupo, shoyi, tasma, yaktak zar, zarbof*, kabi so'zlar. Masalan, «*Dildor qorga to'lgan kafshini tushirib, kiyib, Davlatbaxt yashaydigan xonaga yugurdi*» (226-bet).

7. Turar-joy, qurilish va binokorlikka oid so'zlar: *ark, arra, ayvon, cho'p, chortoq, dahliz, daricha, darvoza, dasta, devor, g'isht, g'ob, gaz, gumbaz, katak, ko'shk, koshona, mehrob, narvon, panjara, paxsa, peshtoq, pona, poydevor, poygacha, poytesha, reja, saroy, ship, sinch, tarnov, taxta, tokcha, toqi, ustun, xobgoh, xoda, xona, xonaqoh, zambil, zina*, kabi so'zlar. Masalan, «*Poytesha bolta, arralarning sadolari ajoyib bir ohang bilan havoda yangraydi*» (201-bet).

8. Uy-ro'zg'or buyumlari, asbob-uskunalar nomi: *anjom, barkash, bo'yra, charh, chelak, chirog', dastgoh, dasturxon, dekcha, g'alvir, g'ildirak, gilam, jihoz, jom, jomashov, juvoz, kajava, kapgir, ko'rpa, ko'za, kosa, kunda, lagan, mola, obdasta, parda, piyola, poyondo, so'zana, tandir, ustara, xalacho'p, xalta, xum, xurmacha, zanjir* kabi so'zlar. Masalan, «*Dasturxonni yozib, nonni ushatdi, do'stlarini o'z odati bo'yicha yemakka qistadi*» (19-bet).

9. Qarindoshlik, yaqinlik munosabatiga doir so'zlar: *amaki, amakivachcha, begona birodar, do'st, dugona, farzand, go'dak, jigarband, jigargo'sha, momo, nabira, padar, yor*, kabi so'zlar. Masalan, «*O'z qo'lini nabirasi qoniga bo'yagan podshohdan nafratlandi*» (454-bet).

10. Yil, fasl, kun, vaqt, tezlik tushunchasi bilan bog'lik so'zlar: *bahor, bahoriy, bisyor, buqalamun (tez o'zgaruvchi) dam, choshgoh, darhol, doimo, gal, hafta, hamisha, hamon, hanuz, ko'hna, nahor, navbahor, ohista, palla, panjshanba, payt, peshin (vaqti), saraton, shom (vaqti), tez, shitob, zamon, zud, zum* kabi so'zlar. Masalan, «*So'ng dardli bil uh tortib, dunyoning buqalamunligi haqida shikoyatlandi*» (12-bet).

11. Ba'zi aniq narsalar, hodisalar nomi: *dam, darra, dasta, feruza, ganj, ganjina, gardish, gavhar, guldasta, gulxan, hamyon kalit, kunda, kungura, latta, laxtak, metin, mis, mum, mushk, nashtar, olmos, olov, otash, oyna, po'lat, pul, qog'oz, shamshod, shol, sim, simob, surma, taxta, tilla, to'tiyo, xas, xirmon, zahar, zar* kabi so'zlar. Masalan, «*Simobdan kumush, misdan oltin yasamoq mumkinligini shavq va bilan xayajon bilan so'zlab ketdi*» (68-bet).

12. Tabiiy hodisalar, tabiatning tabiiy obyektlari nomi: *bepoyon, biyobon,*

bo'ston, boda, chaman, chamanzor, chashma, daryo, dasht, do'l, falak, gardun, girdob, guliston, gulshan, gulzor, jahon, kon, lolazor, loy, maydon, oftob, shabada, shabnam, soya, vayrona, xiyobon, xurshid, yax, zamin, zax, kabi so'zlar. Masalan, «Uy ichiga yorug' bilan birga xush yoqar ko'klam shabadasi kirdi» (18-bet).

13. Kishilar tomonidan yaratilgan, belgilangan makon va joy nomi: *bazmgoh, bog', chorbog', dargoh, go'zar, gulzor, gusha, kabo'tarxona, karvonsaroy, ko'cha, kon, maydon, mayxona, navvoyxona, og'il, ombor, oromgoh, oshyon, ostona, poygoh, qushxona, sardoba, saroy, sarvzor, sayrgoh, xonadon, zindon kabi so'zlar. Masalan, «Devonxonaga kelgach, bu yerda maydonda qalin olomonni ko'rdi» (70-bet).*

14. Maktab, ma'rifat, ilm, ta'lim, musiqa, diniy tushuncha va tasavvurlar nomi: *shogird, ustod, donishmand, donish, dono, noma, namuna, pand, musiqiy, husnixat, ran, ohang, kuy, tarona, karnay, surnay, soz, novo, bazm, tor, do'tor, tunbur, nay, chang, g'ijjak, daf, rubob, xirgoyi, banda, bomdod, peshin, shom, xufton, nomoz, xudo, salla, so'fi, darveshnamo, so'fiyona kabi so'zlar. Masalan, «O'z ustodini bo'tun borlig'a bilan berilib tinglagan talabalar o'zoq cho'zilgan ogir sukunatdan so'ng yana hayajonlana boshladilar» (337-bet).*

15. Savdo-sotiq ishlari va tarixiy munosabatlarga doir so'zlar hamda harbiy tushuncha va qurol-aslaha nomi: *bozor, baho, arzon, pul, savdo, xaridor, savdogar, narx, tarozi, daromad, rasta, nasiya, toj, tojdor, poshoh, shoh, shohona, shahzoda, taxt, devon, muxr, boj, devonbegi, rahbar, tojdor, farmon, poytaxt, shahar, lashkar, navkar, jang, jantgoh, sarkarda, sardor, sipoh, chodir, shamshir, kamon, paxlavon, xanjar, chang (chang solmoq), dushman, chavgon kabi so'zlar. Masalan, «Farmonni tezda muhayyo qilib, sizga topshirurmiz» (86-bet).*

16. Hajm, miqdor va o'lchovni anglatuvchi so'zlar: *baland, past, bepoyon, novcha, mayda, daroz, nim, barobar, andak, toq, dona, chala, zich, ziyoda, kam, kamyob, serob, son, to'da, chandon, yagona, guruh, paysa, gaz, parcha, chorak, jura, palla, tax, farsang, yakka, bisyor, tanho kabi so'zlar. Masalan, «Husayn Bayqaro lashkari Mirzo Yodgorning parokanda yigitlarini bir necha farsang masofagacha shiddatli quvdi» (81-bet).*

17. *Yorug,,lik, issiqlik va rang-tus, xid, tam anglatuvchi so,,zlar: xira, taft, sho,,la, charotyun, zangor, gulrash, xafrang, zarrin, lolagun, lojuvard, siyoh rang, rangpar, rangin, toza, guldor, rango- rang, bo,,y, shirin, xushbuy, nordon, sho,,r, xush, maza kabi so,,zlar. Masalan, "Har ikki yog,,ida rango-rang guldor naqshlar bilan bezatilgan imoratlar qatorlashgan" (14-bet).*

18. Xususiyat, holat, belgi anglatuvchi va boshqa xil mavhum ma'noli so'zlar: *andisha, armon, badgumon, barno, baxt, bechora, botir, chirkin, dard, dilbar, dilgir, dilkash, dilpazir, dilrabo, gadoy, gulgun, gumon, gumroh, kamarbasta, kamtarin, karashma, mard, mardona, mast, mayparast, mehr, mehribon, mohtob, navozish, nigoh, nodon, nomard, noumid, noxush, noyob, nozanin, nozik, obod, omad, orom,*

orzu, oson, osuda, ovora, ozod, parishon, piyoda, pokdomon, pokiza, ranj, rostgo'y, sarafroz, shaydo, shod, sitam, sust, toza, umid, xanda, xohish, xomush, xudbin, xunob, xunuk, xurram, xursand, zabardast, zebo, ziyrak kabi soʻzlar. Masalan, «Xalqqa **sitam** qiluvchilarga boʻlgan gʻazabi yuragida chayqalib turadi» (348-bet).

19. Bogʻlovchi va modal soʻzlar: *agar, ba'zi, balki, chun, chunki, chunonchi, darkor, durust, gar, garchand, garchi, go'yo, goho, ham, hech, koshki, lek, lekin, magar, nogoh, nogohon, ofarin, raso, shoyad, xoh, yoki, zarur, zinhor* kabi soʻzlar. Masalan, «*Goho* shoirmi goʻyo uyqu bosgandek, charchoqlik egallab oladi» (280-bet).

Tilning soʻz boyligini diaxron aspektida oʻrganish til faktlarining taraqqiy etish usullarini aniqlash uchungina emas, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilish uchun ham alohida ahamiyatga ega. Demak, har bir tilning tarixi shu tilga mansub xalq oʻtmishi bilan bogʻliq. Xalq tarixida nimaiki yuz bersa, tilga ozmi-koʻpmi oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Bu, eng avvalo, tilning lugʻat boyligida sodir boʻladi. Shu nuqtayi nazardan, aytish mumkinki, «Navoiy» romani leksikasini mavzuiy guruhlar boʻyicha tahlil qilish natijasida doston tilida turli mavzuiy guruhga tegishli soʻzlar ishlatilganligi, ularda xalq turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼnaviy taraqqiyoti oʻz aksini topganligi ayon boʻldi. Ayni paytda, mazkur mavzuiy guruhlarining shakllanishida boshqa tillardan, xususan fors-tojik tilidan kirgan leksemalar ham katta ahamiyat kasb etgan. Asarda hayotning deyarli barcha sohalariga oid narsa-predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi leksemalar uchraydi. Binobarin, soʻzlarni mavzuiy guruhlariga ajratish til lugʻat tarkibini tizimli oʻrganishning qulay usullaridan hisoblanib, romanda qoʻllanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, oʻz qatlamga doir soʻzlarning oʻzlashmalar bilan oʻzaro munosabatini hamda ularning qoʻllanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga koʻmaklashadi.

Adabiyotlar

Abdushukurov B. (2019). XI—XIV asr turkiy yozma manbalarda qoʻllanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar—Golden Scripts.. T. 1. №. 1.

Kurolovich S. L. (2023). SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC "HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. T. 3. №. 06. 12-20.

Kurolovich S. L., Olimovich K. T. (2022). «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUGʻAT TARKIBIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. 233-236.

Lutfulla S., Abbos S., Aʼzimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT,

ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022. T. 1. №. 12. C. 384-388.

Lutfulla S., Abbos S., A'zimjon S. (2022). THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. T. 1. №. 12. 383.

Lutfulla, Sindorov. (2023). "HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG 'AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR" *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* 475-477.

Oybek. Navoiy. (2004). Roman. / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq. / Sharq, 496.

Бегматов Э. (1985). Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Фан. 200.

Дадабаев Х.А. (1991). Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. Ёзувчи. 186.

Жамолхонов Х. (2004). Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. Тошкент давлат педагогика университети. 146.

Йўлдошев И. (2006). Ўзбек китобатчилиқ терминологияси. Фан. 212.

Коркмазова Л. (2004). Освоение в русском языке тюркизмов с неясными основами. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Махачкала. 162.

O‘ZBEK TILIDA EVFEMIZMLARNING TASNIFIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Mahbuba Ashirova*

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘zbek tilidagi evfemizmlarning lingvistik va semantik tasnifiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tilshunoslari tomonidan berilgan tasniflar va ularning muhim jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada turli olimlarning evfemizmlarni ijtimoiy, madaniy va stilistik jihatdan guruhlariga ajratish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan yangi tasniflash taklif etilib, evfemizmlarning voqeliklarni yumshatish, madaniy moslashuv, tabu so‘zlarni almashtirish va hurmat saqlash kabi funksiyalari kengroq yoritilgan, va bu tasniflash jarayonida evfemizlar anglatgan ma’no yumshoq ifoda, madaniy o‘ziga xoslik hamda, ularni hosil qiluvchi holatlarga e’tibor qaratilgan. Qisman hodisaning linvo-kulturologik jihatlari va aynan o‘zbek tiliga xos xususiyatlari haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Ushbu tasnif evfemizm hodisasining lingvistik murakkabligi va ko‘p qirraliligini ochib beradi

Kalit so‘zlar: *evfemizmlar, tasniflash, lingvistik, semantik, stilistika, tabu, evfemizatsiya, ijtimoiy, madaniy, tilshunos, o‘zbek tili.*

CONSIDERATIONS ON THE CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article examines the linguistic and semantic classification of euphemisms in the Uzbek language, analyzing the classifications proposed by various scholars and their key aspects. It explores the social, cultural, and stylistic dimensions of euphemisms, along with a new classification suggested by the author. The functions of euphemisms, such as softening harsh realities, cultural adaptation, substituting taboo words, and maintaining politeness, are thoroughly analyzed. Additionally, the article discusses the linguocultural features of euphemisms and characteristics specific to the Uzbek language. The classification reveals the complexity and multifaceted nature of the euphemism phenomenon.

Key words: *Euphemisms, classification, linguistic, semantic, stylistics, taboo, euphemization, social, cultural, linguist, Uzbek language.*

Evfemizmlar jamiyatda axborotni “yumshoq” yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni turmushimizning deyarli barcha jabhalarida uchratishimiz va

* Toshkent amaliy fanlat universiteti katta o‘qituvchisi

qo'llashimiz mumkin. Evfemizmning paydo bo'lishida muloyimlik tamoyili yetakchilik qiladi. Chunki salbiy voqelikni yumshoq tarzda yetkazish evfemizm asosini tashkil qiladi [0].

Bundan tashqari bu til birliklari tabu so'z va holatlarni chiroyli ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Ularni o'rganish va tahlil qilish stilistika fan sifatida shakllangandan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Ya'ni antroposenterik tilshunoslikning rivojlanishi, qolaversa, nutq va tilni alohida sohalarga ajratilishi bunga sabab bo'ldi. Evfemizmlarni tadqiq qilish jarayonida hodisa lingvistik va semantik jihatdan turlicha tasniflanishi guvohi bo'ldik. Bunda tadqiqotchilar evfemizmlarni tasniflashda turli tomondan yondashgani ma'lum bo'ldi.

Izlanishlar natijasiga ko'ra, o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib N. Ismatullayev [0] evfemizmlarning tasniflagani aniqlandi. Olim ularni besh yirik guruhga ajratadi.

1) Tabu bilan bog'liq evfemizmlar (zaharli hashorot nomlari, yirtqich hayvonlar nomlari, kaslik nomi, er va xotinning bir birini nomlarini aytmaliklari)

2) Bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar.

3) Ma'nosi qo'pol aytish noqulay bo'lgan evfemizmlar.

4) Nutqiy bemazalik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar.

5) Stilistik evfemizmlar

Omonturdiyev o'zining "Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari"ga bag'ishlangan dissertatsiyasida evfemizmlarni tasviriyl obyektiga ko'ra [0]:

1. Oila qurish bilan bog'liq evfemik vositalar.

2. Axloqsizlik bilan bog'liq evfemik vositalar.

3. Jinsiy aloqa bilan bog'liq evfemik vositalar

4. Murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar.

5. Insonning aytishi uyat bo'lgan a'zolari va ular bilan bog'liq kiyim nomlari evfemasi.

6. Jinsiy va jismoniy nuqson bilan bog'liq evfemik vositalar

7. Kasallik, ruhiy kasallik bilan bog'liq evfemik vositalar.

8. Ovqatlanish va uning hazmi bilan bog'liq evfemik vositalar.

9. Insonning salbiy faoliyati bilan bog'liq evfemik vositlar.

10. Ayrim odat ananalar bilan bog'liq evfemik vositalar.


11. Siyosiy tushunchalar evfemasi.

12. Qarilik tushunchasi bilan bog'liq evfemik vositalar.

13. O'lim bilan bog'liq evfemik vositalar kabi tasniflaydi.

Olim ushbu guruhlarini tasniflar ekan ularni har birini misollar bilan isbotlashga harakat qiladi. [Omonturdiyev A.J., 2] Shuningdek, Omonturdiyev doktorlik

dissertatsiyasida tasniflashni bir muncha ixchamlashtiradi va takomillashtiradi. Unga ko'ra, obyektни yettita yirik guruhga va ularni, o'z navbatida, guruhlar tarkibidagi ma'lum kichik guruhchalarga ajratadi. [0, 80 bet].



N.I. G'aybullayeva evfemik birliklar kasallik va o'lim, aqliy va jismoniy yetishmovchilik, jinoyat va uning oqibatlari, kambag'allik va yo'qchilik, jinsiy munosabatlar va boshqa mavzuviy guruhlariga ajratilganligini guvohi ekanligini ta'kidlaydi [1, 49-bet].

Yana bir tilshunos o'zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari ustida tadqiqot olib borgan Sh.Gulyamova o'zbek tilida ayollar va erkaklar jinsiga oid evfemizmlarni leksik-semantik tasnifini keltiradi. Unga ko'ra [Gulyamova Sh. Q. 3] birinchi holatda, ya'ni ayollarga xos evfemizmlar:

1. Axloqiy emotsional va intellektual sifatlarni anglatuvchi
 2. Yosh bildiradigan
 3. Tashqi ko'rinishni ifodalaydigan
 4. Tana a'zolari bilan bog'liq
 5. Kasbkorni ifodalovchi
 6. Kasallik bilan bog'liq evfemizmlar shaklida tasniflansa
 7. Keyingi holatda erkaklarga xos efemizmlar
 8. Axloqiy emotsional va intelektual sifatlarni anglatuvchi
 9. Yosh bildiradigan
 10. Tashqi ko'rinishni ifodalaydigan
 11. Tana a'zolari bilan bog'liq
 12. Kasb-korni ifodalovchi
- shaklida ifodalaganligini guvohi bo'lamiz.

Dissertant o'z dissertatsiyasida yuqorida keltirilgan tasniflashni yetalicha isbotlab bergan. X. Qodirova tasniflashga munosabat bildirar ekan, evfemizmlarni tasniflash uning mohiyatini chuqurroq o'rganishga, turli nuqtayi nazardan kuzatishga, tadqiq etishga, ushbu hodisaning tuzilishini aniqroq yoritishga xizmat qiladi, xilma-xil tasnif esa evfemizmnining ko'p qirraliligidan va murakkab jarayon mahsuli ekanligidan dalolat beradi. [0, 45-bet] deb fikr bildiradi.

Yuqoridagi o'zbek olimlari tomonidan o'zbek tilida evfemizmlarni tasniflashga doir fikrlarni inkor etmagan holda evfemizmlarni lingvistik va semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. (Ma'no yumshatish) nozik ifoda.

Efemizmlar, odatda, og'ir vaziyatlarni, voqea-hodisalarning salbiy oqibatlarini, yumshatish yoki muloqot jarayonida axbarotni adresantga yoqimsiz ta'sirini kamaytirish maqsadida hodisa ayni o'zining nomi bilan emas boshqa nomlar yoki vositalar yordamida ifodalanadi. (masalam o'lmoq – dunyodan o'tmoq, dunyoni tark etmoq, vafot etmoq, (yo'qolib qolmoq – Surxondaryo shevasida; ketib qolibdi, yo'q bo'libdi, dumalab ketdi – Qashqadaryo shevasida) kabi. Misol .[]

2. Madaniy voqelikka moslashuv.

Ayni bir jamiyat yoki madaniyat talab etdigan evfemizmlar, bu holatda bir madaniyat uchun tabu bo'lgan hodisa yoki evfemizatsiyani talab qiladigan vaziat boshqasi uchun talab etilmasligi mumkin. G'arb madaniyatida ota-onaga senlab murojaat qilish, kelin bo'lib tushgan xonadonning a'zolarini nafaqat sizlab hattoki ismini aytib murojaat qilish mumkin emasligi. Hamma madaniyat uchun ham qabul qilinavermaydigan hodisa. Misol[]

3. Tabu so'zlarning o'rnini bosish.

Evfemizmlar, odatda, tabu so'zlar o'rnida qo'llaniladi. Jamiyatda aytish mumkin bo'lmagan odob-axloq, urf-odatlar yoki qonunchilik bilan bog'liq bo'lgan. Masalan jinsiy hayot, inson tanasining qismlarini ifodalashda muloyimlik bilan qo'llanadigan iboralar mavjud. Misol[]

4. Hurmat va odob saqlash.

Evfemizmlar kishilar o'rtasidagi hurmat munosabatlarini saqlashda yoki ularning hissiyotlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishda shlatiladi. Begonayot kishilarga sizlab murojaat qilish yosh ayollarga yoki yosh qizlarga murojaat qilganda yaxshi qiz, oppoq qiz, yoki yosh yigitlarga nisbatan yaxshi yigit aka, bo'la, kabi murojaatlarning evfemik bo'yog'ida ham, aslida, shu xususiyat yotadi. Misol[]

5. Tildagi o'zgarish jarayonlari

Bilamizki til ijtimoiy hodisa nutq esa uning hosilasi jamiyatdagi inson ongidagi va turmushidagi o'zgarishlar albatda unda aks etadi, va pirovardida nutqdagi hosilalar ham o'z ahamiyatini yo'qotadi yoki o'zgaradi shu qatori ushbu hodisani evfemizmlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. P.A Bugadov evfemizmlarning bu guruhini kontekstual evfemizmlar deb nomlaydi. Ular nisbatan mukammalroq va fikrni ifoda etayotgan shaxsning fe'l-atvori hamda matn sharoitiga asoslanadi [0]. Shuningdek, E.P.Senchinkaning bu boradagi fikrlari e'tiborga molik, ular doimo nutqda vujudga keladi va evfemizim hodisasining barcha talablariga javob beradi. Ammo tayyor qolipga ega bo'lmaydi. Odatda, bunday evfemizmlar obrazli va metaforik tabiatli bo'ladi [0, 23-bet]. Misol[]

Xulosa qilib aytish mumkinki evfemizmlarning lingvistik-semantik tahlil qilishda ularni tasniflash nafaqat hodisaning yangi qirralarini ochilishiga, qolaversa, ularni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Chunki tasniflash jarayonida undagi ma'no nozikliklari yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar

G'aybullayeva N.I. O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashr materiallari asosida): Diss. ...fil. fan.fal.f.dok.(Phd) – Buxoro, 2019.

Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Diss. ...fil.fan.nom. – Toshkent, 1997. –41-100betlar

Gulyamova Sh.Q. O‘zbek tilida efemizmlarning gender xususiyatlari: Diss. ...fil. Fan.fal.f.dok.(Phd), – Buxoro, 2020. 77 b

Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvador nutqi misolida), Diss. ... fil.fan.dok. – Toshkent, 2009.–80 bet

X.B.Qodirova Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati. Diss. ... fil.fan. n. – Toshkent, 2011. – 45 bet.

Бугадов Р.А. Введение в науку о языке.–М.:Индрик, 2003.

Сеничкина Е.П.Эвфемизмы русского языка.– 2006. – С23.

Исматиллаев Н. Эвфемизмы в узбекском языке. Автореф дисс. канд. филол. наук-Ташкент, 1964. – 24 с.

HAYVONLARNING YURISH TARZINI LEKSIK IFODALANISHI VA ULARDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

Dildora Turg'unova *

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tili iste'molida mavjud bo'lgan hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi leksemalar haqida fikr yuritilgan. So'nggi yillarda zoonim leksemalar va zoonim tarkibli lingvomadaniy birliklar faol o'rganilmoqda ammo bu kabi izlanishlarda zoonim harakatini ifodalovchi leksik birliklar nazardan chetda qolmoqda. Quyida hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlarga bo'linib ularning tarixiy shakllari va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *yurish harakati, leksik-semantik maydon, leksik-semantik guruh, oyoq vositasidagi harakat, tuyuq vositasidagi harakat, konnotativ ma'no.*

ETHNOLINGUICTIC AND LINGO-CULTURAL TEXTC OF ANIMAL MOVEMENT RECEARCH

Annotation

The article is about lexemes representing the walking behavior of zoonym that exist in the use of the Uzbek language, and it provides information that in recent years, zoonym lemmas and linguistic units containing zoonym have been actively studied, but in such research, lexical units representing zoonym behavior are left out of consideration. Lexemes representing the movement of animals are divided into lexical-semantic groups, and their historical forms and linguistic-cultural features are analyzed.

Key words: *walking movement, lexical-semantic field, lexical-semantic group, leg movement, hoof movement, connotative meaning.*

Bugungi kunda ko'plab tilshunoslar tomonidan zoonimlar yirik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmoqda (Yuldasheva, 2007, 124-b.) va zoonimlarning leksik-semantik jihatlari, ularning kontseptologik xususiyatlari aniqlanmoqda (Tosheva, 2017, 60-b). Biroq, aytish kerakki, bu boradagi tadqiqotlarning aksariyati hayvon nomlari haqida bo'lib, hayvonlarning harakatini ifodalovchi leksemalar, ularning leksik-semantik xususiyatlari, uslubiy qo'llanishi, shuningdek, lingvomadaniy va etnolingvistik jihatlari tilshunoslar e'tiboridan chetda qolmoqda. Holbuki, olamning lisoniy manzarasida nafaqat zoonimlar, balki ularning xatti-harakatini ifodalovchi so'zlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir tilda muayyan hudud faunasi bilan

* Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi, dt12194024@gmail.com.

bog'liq hayvon nomlari mavjud. Shunday ekan, ularning harakatini ifodalovchi leksik birliklarning ham turlicha bo'lishi tabiiy. Hayvonlarning harakatini ifodalovchi bunday leksemalar hayvon nomlari bilan valentlik hosil qilish bilan birga, muayyan kontekstda turli ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ham ega. O'zbek tilida hayvonlar xatti-harakatini ifodalovchi leksemalar til leksik zaxirasining katta qismini tashkil qilib, salmoqli o'rin tutadi.

Harakat va holat fe'llari mazmuniy guruhiga kiruvchi yurish harakatini ifodalaydigan fe'llarni mavzumiz doirasidan kelib chiqqan holda insonga xos yurish harakati; hayvonga xos yurish harakatini ifodalovchi fe'llar kabi mazmuniy guruhlarga bo'lish mumkin. Biz ushbu tadqiqotda faqat hayvonlarning yurishi bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi leksemalar haqida to'xtalamiz.

O'rni kelganda eslatib o'tish kerakki, yurish harakati lingvistik tushuncha bo'lib, u sub'ektning muayyan makonda oyoqlari yoki transport vositasi yordamida amalga oshiriladigan harakatini ifodalash uchun qo'llanadi. Yurish harakat fe'llari ham fe'l leksemasi tizimida o'ziga xos semantik maydonni tashkil etib, barcha yurish harakati fe'llari mazkur leksik-semantik maydon doirasida birlashadi (Rahimov, <https://cyberleninka.ru>).

Tadqiqotimizni o'zbek tilida hayvonlarning oyoq harakatini, yurish tarzini ifodalovchi *sakillamoq, izg'imoq, sörgilädi, yugurtmoq, japishdi, teztak qil; ang'ishlamoq, gijinglamoq, yelmoq, dingillamoq, dupurlamoq, yo'rg'alamoq, yo'rtmoq, lapanglamoq, sakramoq, sekinlamoq, tepmoq, tepkilamoq, depsinmoq, to'pillamoq, chig'anmoq (dial.), chopmoq, o'ynoqlamoq, o'qaloqlamoq, tepinmoq, takovar sur, irg'almoq* kabi so'zlar tashkil qiladi.

Yuqoridagi so'zlar oyoq bilan bog'liq harakatlarni ifodalash bilan birga, har biri xususiy ma'no farqiga, qo'llanilish o'rni va jarayoniga, sub'ektiv baho munosabatiga ega. Masalan: *sakillamoq* so'zi *behuda chopib, sakrab yurmoq* (O'TIL, 2008, 3-jild, 425-b.) ma'nosini ifoda etib, nutqimizda itning yurishiga nisbatan qo'llanadi. Bu leksemaning etimologiyasi fors-tojik tiliga borib taqaladi. Sak so'zi fors-tojik tilida it hayvonini ifodalaydi (O'TIL, 2008, 3-jild, 245-b). O'zbek tilida bu so'zga *-illa* so'z yasovchi affiksi qo'shilib, *sakillamoq* fe'li hosil qilingan. *Sakillamoq* leksemasi hayvon xatti-harakatini ifodalovchi so'zdir. E'tiborlisi shundaki, tahlilga olingan leksema so'zlashuv uslubida inson yurish holatini ifodalashda ham qo'llanadi. Bunday o'rinlarda salbiy uslubiy munosabatni ifodalaydi: *Va-a, qolib ketding, endi Halil akaning itidek sakillab piyoda kelasan!-dedi u Soat yuvoshga (E.Raimov).*

Sakillamoq leksemasi inson xususiyatiga ko'chirilganda shaxsning muhim ish bilan band emasligini, bekorchiligini, maqsadsiz yurganini ifodalaydi: *Kechasi-yu kunduzi kalta ishton kiyib, sakillab ko'chada chopgani chopgan*

(<https://yoshlikjurnali.uz/>). Shuningdek, bu leksema ishtirok etgan nutqiy vaziyatda retseptientning produtsentga nisbatan quyidagi munosabatlari ifodalanadi:

Va-a, qolib ketding, endi Halil akaning itidek sakillab piyoda kelasan! – dedi u Soat yuvoshga (kamsitish).

Shaharning qoq markazi, hamma sharoit muhayyo. Hu-uv Sirg‘alingda sakillab yurguncha! (achchiqlanish).

Kechasi-yu kunduzi kalta ishton kiyib, sakillab ko‘chada chopgani-chopgan (hurmatsezlik, kamsitish).

Kechgacha sakillagani bilan biror natijaga erisha olmadi (ishi bitmaganidan achinish ma‘nosi).

Izg‘imoq so‘zi biror maqsadda kezib yurmoq ma‘nosini ifodalaydi (O‘TIL, 2008, 2-jild, 184-b). Masalan:

Qorning och emasmi,

Omonmi joning?

Itlar izg‘ib yurar.

O, menga bu kech,

Aytgani shumidi Xudoning? (X. Rustamova).

“Izg‘imoq” leksemasi ham hayvon harakatidan inson harakatiga, uning yurish tarziga ko‘chirilgan. Nutqimizda “izg‘imoq” so‘zi insonga nisbatan qo‘llanganda “yurmoq” ma‘nosini kuchaytiradi. SHuningdek, “aniq maqsad bilan yurmoq” ma‘nosini anglatadi: *Tungi soat ikki: bu yigitlar nega ko‘chada izg‘iyapti? Buning ustiga ularning ikki nafari voyaga yetmagan* (Gazetadan).

Hayvon harakatini ifodalovchi semantik maydonning leksik-semantik guruhlarini hosil qilayotgan *sakillamoq* leksemasi *izg‘imoq* leksemasi bilan maqsadli-maqsadsiz harakatni ifodalash jihatidan o‘zaro zidlanadi.

“Yugurtirmoq ayn. yugurtirmoq” (O‘TIL, 2008, 5-jild, 78-b.). Yugurtirmoq, quvmoq, qo‘lga tushirmoq so‘zlari Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan itga nisbatan *sörgilädi* shaklida qayd etilgan: *it köjikni sörgilädi – it kiyikni quvdi*. SHuningdek, “Devon”da har narsani qo‘lga tushirish; hamla qilishga ham shu so‘z qo‘llanilishi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, “Devon”da ovchi itlarning o‘ljasiga hamla qilishi, yugurishini “*japishdi*” so‘zi ifodalagan. Bu so‘z japishur, japishmaq variantlariga ega bo‘lib, har narsaga nisbatan qo‘llangan: *It köjikkä japishdi – it ovga yopishdi* (Qoshg‘ariy, 2008, 2-jild, 1961, 77-b.).

Alisher Navoiy davriga kelib *sörgilädi* so‘zi iste‘moldan chiqqan. Navoiy bunday ma‘noni ifodalash maqsadida “*teztaklik qil*” so‘zidan foydalangan, bu so‘z “chopag‘onlik qilmoq”, “ildamlilik qilmoq” degan ma‘noda ishlatilgan (Fozilov, 1983, 3-jild, 221-b). Misol: *Ikki tozi bobidakim, poyada bir-birisidin qolishmas erdi, oxir biri adam dashtig‘a **teztak qildi** va biri qoldi* (Navoiy, Favoyid ul-kibar,

<https://uzsmart.ru>). Shuningdek, Navoiy qattiq chopmoq ma'nosini ifodalash uchun "yugurdi" so'zidan foydalangan: *Yugurdi hiylagar devonalardek, Yiqilg'on sham' uza parvonalardek* (Fozilov, 1985, 4-jild, 77-b.).

Yuqorida keltirilgan *yugurtirmoq, sörgilämoq, japishmoq, yugurmoq* leksemalari ham hayvonga, ham insonga aloqador bo'lgan oyoq vositasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifodalaydi. *Teztaklik qilmoq* leksemasi esa faqat hayvon harakatiga aloqadordir.

"*Gijinglamoq*" so'zi otning bo'ynini gaj qilib, o'ynoqlab turishini ifodalaydi (O'rinboyeva, 2017, 257-b.). Tabiatda ot hayvonini kuzatadigan bo'lsak, uning tinch turgan holatida ham bo'yin qismini va old tomondagi ikki oyog'ini tez-tez qimirlatib turishining guvohi bo'lamiz. Tilimizda hayvondagi bunday holatni ifodalovchi maxsus "*gijinglamoq*" leksemasi mavjud. Masalan: *SHu bois har bir qorani diqqat bilan kuzatardi, ayniqsa, otliq chol ortidan gijinglab, irg'ishlab borayotgan qo'ng'irtob toychoq uning e'tiborini jalb etdi* (N. Norqobilov).

Badiiy asarning ta'sirini oshirish maqsadida ba'zan harakatni bildiruvchi so'zlar takror shaklda qo'llanadi. Bunday o'rinlar produtsientning tasvirlanayotgan vaziyatni to'laqonli anglashini ta'minlaydi: *Uloq keldi. Tarlonni gijinglatib-gijinglatib bordim. Uloqni iskatib-iskatib oldim. ...Tarlon pishqirib-pishqirib qimtindi* (Tog'ay Murod).

Keltirilgan misolda takroran qo'llangan *gijinglamoq* leksemasi "tantanavorlik"; "ko'tarinkilik" semalarini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Endi esa *gijinglamoq* so'zi hayvon harakatidan boshqa narsalarning harakatini ifodalagan o'rinlarga diqqat qilaylik.

Zamonning rivojlanishi natijasida insonlarning turmush tarzi ham shunga muvofiq rivojlanishi tabiiy. Bugungi kunda og'ir yuk tashish, insonlarning uzog'ini yaqin qilish kabi vazifalarni, asosan, mashinalar bajarmoqda. Qadimda ot-ulov harakatini ifodalashda qo'llanadigan leksik birliklar bugungi avtotransport vositalarining harakatini ifodalash uchun ko'chirilmoqda. Masalan: *Quvsa shamol yetolmas mashinasini gijinglatib yurgan "okaxonlarimiz" haqida qisqacha so'zlashishni lozim topdik* (Internetdan).

Yuqoridagi matnda qo'llangan "*gijinglamoq*" so'zi avtomashinalarning "yangi", "tez yuradi", "yaxshi holatga ega" kabi semalarini ko'chma ma'nolarda ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Otning oldingi oyoqlari bilan bog'liq harakatni "*gijinglamoq*" leksema, orqa oyoqlarini havoda ko'tarib yugurish holatini "*ang'ishlamoq*" leksemasi ifodalaydi (<https://uz.wiktionary.org>).

Masalan: *Ketdi bedov ot ang'ishlab, Avazning vaqtini xushlab*. ("Intizor" dostoni).

Bu leksema o'zbek xalq dostonlarida ko'p uchraydi: *Ang'ishlaydi Zargarning mingan oti* ("Malikai ayyor" dostoni); *Yelib-yelib, harchand qichab ko'radi, Ang'ishlab bu "Qultoy" ketib boradi.* ("Alpomish" dostoni).

Folklor asarlari tilining izohli lug'atida ang'ishlamoq so'zi kishnamoq, gijinglab irg'imoq ma'nosini ifodalashi izohlanadi. (O'rinboyeva, 2017, 16-b.).

Hozirgi o'zbek tili iste'molida "ang'ishlamoq" so'zi mavjud emas, eskirgan so'z hisoblanadi. Bugun hayvonlardagi shunday harakatni "*shataloq otmoq*" leksemasi bilan ifodalaymiz. O'zbek tilida ot, mol va shu kabi hayvonlarning yugurish holatiga nisbatan "*shataloq otmoq*" so'zi qo'llanadi (O'TIL. 2008, 5-jild, 554-b.). Bu so'z hayvonga nisbatan orqa oyoqlarini baravar ko'tarib tepinmoq; tepinib yugurmoq; o'ynoqlab chopmoq ma'nolarini anglatadi (<https://uz.wiktionary.org>). Misol: *Ot pishqirib yubordi. Ikkinchi hamladan so'ng shataloq otib qochdi* (N. Norqobilov).

Tabiatda ko'proq ot, tuya, mol, qo'y kabi hayvonlarning yangi tug'ilgan bolasi orqa oyoqlarini har tomonga baland ko'tarib u yoq-bu yoqqa chopadi. Bunday holatdagi harakat o'zbek tilida "*shataloq otmoq*" so'zi bilan ifodalanadi: *Rosa otdi shataloq. Olma daraxt tagida, Uxlab qoldi bo'taloq* (M. A'zam).

So'zlashuv uslubida yuqoridagi leksema insonga nisbatan ko'chirilib "*o'ynamoq*", "*raqsga tushmoq*", "*ko'nglini xushlamoq*" ma'nolarini ifodalaydi:

O'mbaloq otib o'ynoli,

Lo'mbildoq otib o'ynoli,

Osmona uchib, aylanib quchib,

Shataloq otib o'ynoli (Xalq qo'shig'idan).

Shuningdek, insonga nisbatan "bekor yurmoq", "tashvish qilmaslik" kabi semalarni ifodalaydi: *Hammasi ko'chada shataloq otadi. Dadam bir xatlab ariqdan o'tdi-da, kartoshka paykaliga kirib ketdi* (O'tkir Hoshimov).

Bolalarga nisbatan qo'llanib, "vaqtini o'ynab o'tkazmoq" semasini ifodalaydi: *Yoshing to'qqizga chiqibdi-yu, ko'chada shataloq otishdan beri kelmaysan!* (O'tkir Hoshimov).

"Shataloq otmoq" so'zining "shatta otmoq" shakli ham mavjud bo'lib, keyingi ikki oyoq bilan tepmoq ma'nosini anglatadi (<https://uz.wiktionary.org>). Masalan: *SHu payt ot so'nani ko'rib, shatta otdi. Siddiqjon, xuddi ot olib qochadiganday, vahima bilan o'zini egardan otdi* (A. Qahhor). *Shataloq otmoq, shatta otmoq, ang'ishlamoq* so'zlari birinchi navbatda hayvonga xos harakatni ifodalaydi. Konnotativ ma'noda boshqa narsalarning harakat-holatiga nisbatan ko'chirilgandir.

O'zbek tilida "yelmoq" so'zi harakatga kelmoq, esmoq ma'nosini ifodalaydi. Bu so'z Alisher Navoiy asarlari tilida ham yugurmoq, chopmoq; tez yurmoq kabi ma'nolarni ifodalagan. Masalan: *Firoq dashtidin itgan ko'ngul yelib chiqqa olmas. Aning bu vodi aro g'ul rahnamunimu erkin?* (Fozilov, 1985, 2-jild, 523-b.).

SHuningdek, Navoiy asarlarida “yel” leksemasi “uchqur ot” ma’nosini ifodalagan o‘rinlar mavjud: *Chu chiqti yelga gulbargi taridek, Falak raxshig‘a mehri xovaridek*. (Fozilov, 1985, 2-jild, 523-b.).

Alisher Navoiyda yo‘rg‘a ot bir xilda chayqalmay yuradigan ot ma’nosini **takovar** so‘zi angdatadi. Ot surmoq ma’nosini ifodalovchi **sur** so‘zi bilan birikib otning chayqalmay, bir xilda yurishi ifodalaydi. Masalan:

Takovar surub zafliq tan bila,

Nihon jismi sorig‘a shevam bila (Fozilov, 1985, 3-jild, 168-b.).

O‘zbek tilida **dupurlamoq** so‘zi dupur-dupur taqlid so‘zidan yasalgan bo‘lib, shunday ovozni ifodalaydi (Hojiyev, Nurmonov, Zaynobiddinov, Kokren, Saidxonov, Sobirov, Quronov, 2001, 52-b.). Masalan: *Tashqarida ot dupurladi*. (S. Siyoyev). Bu leksema shunday tovush chiqargan har qanday narsaga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik tuyoqli hayvonlarning yurishidan chiqadigan holatni ifodalash uchun ham olingandir.

O‘zbek tilida **yo‘rg‘alamoq** so‘zi ot, eshak kabi hayvonlarning bir xilda, chayqalmay yo‘rg‘a yurish qilishini ifodalaydi (<https://uz.wiktionary.org>). Misol: *To‘riq tanish yo‘ldan ildam yo‘rg‘alab ketdi*. (O‘lmas Umarbekov).

Uslubiy maqsadda bu so‘z insonning yurishiga nisbatan ko‘chirilib, mayda qadam bilan u yoq-bu yoqqa gavdasini tashlab yurish holatini ko‘rsatadi. Salbiy uslubiy bahoni ifodalaydi: *Mang‘itilini xotini ovqat olib kelibdi, — dedi-da, elkasiga miltiq osgan zobit tugunni ko‘tarib to‘rdagi kabinet tomon yo‘rg‘aladi*. (<https://yoshlikjurnali.uz/>); *Egamberdi to‘riqni jadal haydab, egardan sakrab tushib, tizgindan tutgancha chorbog‘ egasi tomon yo‘rg‘aladi...* (SH.Xolmirzayev). Shuningdek, bu leksema ishtirok etgan lingvokulturologik birliklarda, xususan, **maqollarda** ham bunday salbiy uslubiy munosabat sezilib turadi: *Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar*. (O‘zbek xalq maqoli).

Yozma matnlarda tahlilga olingan so‘zni qo‘llash natijasida leksemaning leksik va uslubiy ma’nosidan tashqari “biror yumushni bajarish uchun majburan yurmoq”; “istamay harakat qilmoq” kabi mazmuniy munosabatlar ham ifodalanadi. Misol:

Dugonalar noiloj sumkalarini kiftlariga ilib, eshikka tomon yo‘rg‘alarkan, u yer-bu yerdan piq-piq kulgi eshitildi. SHaddod SHahlo bo‘sh kelmadi: bo‘sag‘asiga yetganida orqasiga o‘girildi, tilini chiqarib “va-a-a...”, deya ermaklagancha eshikni qarsillatib yopdi... (Ulug‘bek Hamdam).

Matnda qizlarni ketishni istamay harakat qilayotganligi ma’nosi *yo‘rg‘alarkan* leksemasi yordamida reallashmoqda.

O‘zbek tilida **yo‘rtmoq; yo‘rttirmoq** so‘zi leksik jihatdan hayvonning yurish harakatini ifodalaydi (O‘TIL, 2008, 2-jild, 282-b.). Masalan: *Egamberdi ketganidan keyin qorabayirga egalik qilish istagi unga yana tinchlik bermadi, hafta o‘tkazib,*

xafaqon bir kayfiyatda tag‘in to‘rig‘ini **yo‘rttirib**, Inodning chorbog‘ida paydo bo‘ldi. (SHukur Xolmirzaev).

Tahlilga olingan leksema qadimgi turkiy tilda **jortushdī** (jortushur, jortushmaq variantlari bilan) shaklida uchraydi: *Ol mēniḡ bilä jortushdī. U men bilan ot yo‘rtish (yurgizish)da bahslashdi* (Qoshg‘ariy, 1961, 2-tom, 111-b.). Shuningdek, **jo‘rtti**, **jo‘rtur**, **jo‘rtmaq**, **jortar** variantlari ham “Devon”da qayd etilgan (Qoshg‘ariy, 1967, 2-jild).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida yo‘rtmoq leksemasi tovush almashish hodisasiga uchragan. Biroq, bugungi kunda ham jonli tilda **jo‘rtti** shaklida **j** lovchi sheva hududlarida iste’molda mavjud.

Ayrim manbalarda yo‘rtmoq so‘zi bolaga nisbatan qo‘llanib *pildirab*, *erkin yurmoq* ma’nosini bildiradi,— deya izohlangan. (O‘rinboyeva, 2017, 218-b.). Bu esa tahlilga olingan leksema insonning yurish harakat-holatiga ham ko‘chishi mumkin, deya fikr bildirishimizga asos bo‘ladi.

D.B.O‘rinboyeva tomonidan tuzilgan lug‘atda yo‘rtmoq so‘zining izohi “bolaning harakatiga nisbatan qo‘llanadi”,—deya ko‘rsatilgan. Bizning nazarimizda, bunday ta’rif bilan leksemaning ma’nosi chagaralab qo‘yilgandek go‘yo. Negaki, yo‘rtmoq so‘zining o‘zbek tilida hayvon harakatiga nisbatan ishlatilgan o‘rinlari ham ko‘plab kuzatiladi. Misol: Dashtning qoq belidan toylar uyuri **yo‘rtib borayotir**. Ufqqa tomon... Ufq qirmiz yallig‘da (<https://kh-davron.uz/>).

O‘zbek tilida tirnoq yoki o‘tkir narsa bilan tilmoq, yulmoq, timdalamoq ma’nosi **tirnamoq** leksemasi bilan ifodalanadi (<https://wiktionary.org>). Bu so‘z ot hayvonining tuyoqlari vositasida yerni tirnashiga nisbatan qo‘llanib, hayvonning tabiiy harakatini ifodalaydi: *Tashqariladim, Tarlondan xabar oldim. Tarlon old oyoqlari bilan yer tirnadi. Qoziqni aylanib-aylanib chopdi. Pishqirib-pishqirib chopdi.* (Tog‘ay Murod). Bunday harakat qadimgi turkiy tilda **köridi** leksemasi bilan ifodalangan bo‘lib, Devonda otning oldingi oyoqlari bilan yer o‘yishini ifodalagan: *At köridi – ot oldingi oyoqlari bilan yerni o‘ydi* (Qoshg‘ariy, 1967, 3-jild, 279-b.). **Köridi** leksemasi arxaiklashgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida tirnamoq so‘zi bilan ifodalanadi.

Tepmoq so‘zi oyoq bilan zarb bermoq; tuyog‘ini yerga urib yer o‘ymoq ma’nosini ifodalaydi (<https://wiktionary.org>). Misol: *Itni qopmas deb bo‘lmas, Otni tepmas deb bo‘lmas.* (O‘zbek xalq maqoli).

Bu so‘z tuyoqli ish-ulov hayvonlariga nisbatan qo‘llanadi. Ba’zan so‘zlashuv uslubida parrandalarga nisbatan ham ishlatiladi. Misol: *Ammo uning tashrifi tovuqlarga yoqmadi. Xo‘roz esa ochiqdan ochiq tahdid qilmoqqa o‘tdi. Uning qanoti bilan yer supirib, yaqinlashma, yomon qilaman, degan ma’noda joyida chir aylanarkan, ketiga tislanib, tepmoqqa chog‘landi.* (N.Norqobilov).

Tirnamoq, tepmoq, köridi soʻzlari dastlab hayvon harakatiga nisbatan ishlatilgan boʻlib, keyinchalik boshqa narsalarning harakatiga koʻchirilgan.

Oʻzbek tilida ot hayvonining bosh harakatini ifodalovchi **sarkashlik qilmoq** leksemasi ham mavjud. Bu soʻz tojik tilidagi “bosh” maʼnosini anglatadigan “sar” otiga “tort” maʼnosini anglatuvchi kashidan feʼlining -kash hozirgi zamon asosini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, “bosh tortadigan”, “tixirlik qiladigan” maʼnosini bildiradi (Rahmatullayev, 2003, 3-jild, 207-b.).

Sarkashlanmoq feʼli otga nisbatan qoʻllanib, yuqoridagi maʼnolarni aks ettiruvchi harakatlarni ifodalaydi:

***Sarkashlandi** uchqur tuyogʻim,*

Qanotini qoqdi kuragim.

Dunyolarning kengliklarida,

Yayrab kishnadi ozod yuragim. (Zuhra Ochilova <https://kh-davron.uz>).

Konnotativ maʼnoda insonning ruhiyatidagi oʻgarishlarni ifodalaydi:

Nomozshomni bedor kutib tushlar uchdi.

*Aqlim uchdi...**Sarkashlanib** hushlar uchdi.* (Madina Norchieva <https://kh-davron.uz/>).

Qadimgi turkiy til leksikasida yuqoridagi sarkashlanmoq maʼnosini ifodalash uchun **möñdi** (variantlari möñär, möñmäk) soʻzi qoʻllangan: *At möñdi – Ot sarkashlik qildi, tepdi* (Qoshgʻariy, 1967, 3-jild, 400.). Otning boʻysunmay oʻjarlik qilishini, oʻzini u yoqqa-bu yoqqa tashlab, itoatsizlik qilishini anglatadi. Bu leksema qadimgi turkiy tilda faqat hayvonning sarkashlik qilishini ifodalagan boʻlib, insonga nisbatan qoʻllanmagan. Insonlarga nisbatan esa, **sunradi** soʻzi qoʻllangan (Qoshgʻariy, 1967, 3-jild, 410-b.).

Qadimgi turkiy tilda otning boshini bermay, egar-jabdugʻini qadatmay sakrashi **qalir** (variant qalimaq) leksemasi bilan ifodalangan: *at qalidi* (Qoshgʻariy, 1967, 3-jild, 287-b.). Har ikki+ *möñdi, qalidi* soʻzlari qadimgi turkiy tilda otning boʻyin tovlashi, sarkashlik qilishi kabi maʼnolarni anglatgan. Bu esa “Devon”da qayd etilgan hayvon harakatini ifodalovchi oʻzaro sinonim soʻzlardir. Keyinchalik Navoiy davri tilida yuqoridagi soʻzlar isteʼmolda uchramaydi.

Alisher Navoiy asarlari tilida **qingʻaymaq** soʻzi sarkashlik qilmoq maʼnosini ifodalaydi (Rahmatullayev, 2003, 8-b.). Shuningdek, Navoiy oʻz asarlarida “bosh tortmoq” maʼnosini ifodalash uchun sarkashlik qilmoq soʻzidan ham foydalangan: *Ul zamonda Faylaqus erdi, **sarkashlik qildi** ersa, sipoh tortib Rumgʻa yurub, qaysarni tutti va band qildi* (“Tarixi muluki ajam”).

Oʻzbek tili leksik zaxirasini oʻrganadigan boʻlsak, hayvonlar harakatini ifodalovchi soʻzlar ichida faqat muayyan hayvonning harakatiga nisbatan qoʻllanib, boshqa hayvonlarga nisbatan ishlatilmaydigan soʻzlar borligining guvohi boʻlamiz. Shulardan ayrimlari tuya hayvoniga aloqadordir. Tuya asosan ish-ulov hayvoni

bo'lganligi uchun yuk ortish, ustiga chiqib minishda dastlab uni qulay holatga keltirib olish kerak bo'ladi. Bunday hollarda gavda harakatini ifodalovchi **cho'kdi**, **cho'kaladi** so'zlari qo'llanadi. Bu leksemalarning kelib chiqishi turkiy xalqlarning uzoq tarixiy davriga borib taqaladi. Misol uchun, "Devon"da *ol anih tewasin chöktürdi* – u uning tuyasini cho'ktirdi shaklidagi misol uchraydi (Qoshg'ariy, 1961, 2-jild, 211-b.). Shuningdek, bu so'z qadimgi turkiy tilda oltin-kumushni suvda ayirib olish harakatiga nisbatan ham qo'llanganligi Mahmud Qoshg'ariy tomonidan e'tirof etilgan (Qoshg'ariy, 1961, 2-jild, 211-b.).

"O'zbek tilining etimologik lug'ati"da bu so'zning izohi berilmagan. Lekin, tuya hayvonini boquvchi chorvadorlar tilida hozir ham iste'molda mavjud bo'lib, hayvonning tizzasini yarim bukkan holatda gavidasini egish holatini ifodalaydi. Bu leksemaning hosil bo'lishiga oid ikki xil fikr bildirishimiz mumkin. Birinchisi, biron narsani quyiga tomon harakatini anglatuvchi "**cho'kmoq**" so'zidan hosil qilingan; ikkinchisi esa, aynan yirik ish-ulov hayvonlariga nisbatan qo'llanuvchi "**cho'k-cho'k**" haydash-chaqirish undov so'zidan fe'l yasovchi affiks vositasida hosil qilingan. Bizningcha, ikkinchi fikrimiz reallikka ancha yaqin. Chunki, cho'kdi, cho'kaladi so'zlarining leksik ma'nosi shu harakatni amalga oshirishga undash maqsadida qo'llanuvchi "cho'k-cho'k" haydash-chaqirish undov so'zidir. Bu so'zning XVII-XVIII asr adabiy manbalarida **cho'kurdi** shaklidagi varianti ham uchraydi: *Og'ir yuki yo'lda o'shal sarbon, cho'lda cho'kurdi tuzatay deb ravon.* (Gulxaniy).

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *cho'kdi* leksemasining *cho'kaladi* dialektal shakli ham mavjud. Ba'zan so'zlashuvda inson o'tirish harakatiga nisbatan cho'kdi, cho'kaladi shaklidagi so'zlardan foydalanamiz. Bunday hollarda produtsient va retsipient o'rtasidagi uslubiy baho; yosh bo'yicha baho; yaqinlik, do'stlik kabi milliy-madaniy xususiyatlar aks etadi. Masalan, *U (suhbatdoshini suhbatga chorlash maqsadida) biroz shu yerga cho'king dedi.* (So'zlashuvdan). Tahlilga olingan cho'kmoq leksemasi yuqorida ko'rib o'tganimizdek, dastlab hayvon harakatiga nisbatan qo'llangan bo'lib, keyinchalik ma'nosi kengayib, boshqa narsalarga nisbatan ko'chirilgan.

Hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi lingvistik vositalar uslubiy jihatdan farqlanadi. Shuningdek, har bir hayvonning xatti-harakatidagi biologik o'ziga xoslik uni ifodalovchi leksemaning semantik xususiyatida aks etmay qolmaydi. Biz buni yuqorida keltirilgan *sakramoq*, *chopmoq*, *yo'rtmoq*, *yo'rg'alamoq*, *irg'almoq* v.h so'zlar misolida ko'rib o'tdik.

Adabiyotlar

Yuldasheva D. (2007). *O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar: Filol. fanlari nomzodi... diss.* Toshkent. 124.

Tosheva D. (2017) *Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha fals. dok-ri (PhD) diss... avtoref.* Toshkent. 60.

Rahimova D. *Yurish harakat fe'llarining valentlik tarkibi.* [Internet manba]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yurish-harakat-fe-llarining-valentlik-tarkibi>.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 3-jild. / A. Madvaliyev tahriri ostida. (2006-2008). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 688.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 2-jild. / A. Madvaliyev tahriri ostida. (2006-2008) – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 671.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 5-jild. / A. Madvaliyev tahriri ostida. (2006-2008). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 594.

Qoshg'ariy M. *Devoni lug'otit turk.* III tomlik. 3-tom. / Nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. (1963). Fan. 464.

Fozilov E. (1985). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati..* IV tomlik. 3-tom. – Toshkent: FAN. 624.

Alisher Navoiy. *Favoid ul-Kibar* (III-qism). <https://uzsmart.ru/kutubxona/-asarlar>.

O'rinboyeva D. (2017). *Folklor asarlari tilining izohli lug'ati.* Samarqand: SamDU. 257.

Hojiyev A. Nurmonov A, Zaynobiddinov Z, Kokren K, Saidxonov M, Sobirov A, Quronov D. (2001). *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati.* Andijon. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 336.

Fozilov E. (1983). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.* IV tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan. 656.

Fozilov E. (1985) *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.* IV tomlik. 2-tom. – Toshkent. FAN. 642.

Qoshg'ariy M. *Devoni lug'otit turk.* III tomlik. 2-tom. / Nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. (1961). Toshkent. Fan. 428.

Rahmatullaev Sh. (2003). *O'zbek tilining etimologik lug'ati.* III tomlik. 2-3-tom. – Toshkent. Universitet. 600.

ABDULLA QAHHOR AFORIZMLARI

Obidaxon Fayzullayeva*

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida qoʻllanilgan aforizm darajasidagi hikmatli jumalarning yozuvchi mahorati natijasi ekanligi va ularning bugungi yoshlar uchun dasturulamal boʻla olishi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, aforizmlarning hikoyalarda qoʻllanilishida badiiy mahorat va ijodkor individualligiga ham eʼtibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: *Hikmatlar, badiiy adabiyot, aforizm, hikoyanavislik, badiiy mahorat, kinoya, muallif va qahramon nutqi.*

APHARISMS OF ABDULLA QAHHOR

Annotation

The article argues that the aphoristic-level wise sayings used in Abdullah Qahhor's stories are the result of the writer's skill and that they can be programmed for today's youth. Also, in the use of aphorisms in stories, attention is paid to artistic skill and the individuality of the creator.

Keywords: *Proverbs, fiction, aphorisms, storytelling, artistic skill, satire, author and protagonist speech.*

Abdulla Qahhor donishmand ijodkorlardan. Adibning hikoyanavislik mahorati adabiyotshunoslikda keng miqyosda oʻrganilgan va oʻrganilib kelinayotgan mavzulardan boʻlishiga qaramay, uning oxorli jihatlari hali-hanuz tadqiqotlarning obʼyekti boʻlib qolmoqda.. Adibning asarlarida qoʻllagan hikmatlari barchaning eʼtirofiga sazovor ekanligi, adabiyotshunos va ijod ahlining eng koʻp qoʻllaydigan iqtiboslaridan boʻlib qolganligi ham barchaga ayon. Xususan, “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini oʻtin yorishga sarf qilish kerak emas”, aforizmi badiiy adabiyot sohasining ijtimoiy hayotdagi beqiyos darajadagi ahamiyatini koʻrsatib bergan hikmatlardandir. Yoki “Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi” aforizmi zamirida esa yozuvchilikning masʼuliyati, uning mashaqqat va tinimsiz izlanishni talab etadigan soha ekanligini koʻrsatuvchi mazmun aks etganligini anglash mumkin.

Badiiy adabiyotning sehrli olam ekanligi haqidagi “Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan gʻoʻra ichiga qamab bera biladi”, degan jumlarida asarning jozibadorligi yozuvchining mahorati tufayli yuzaga

* Filologiya fanlari doktori, Guliston davlat universiteti dotsenti, e-mail: fayzullayevaobidaxon@gmail.com

kelishi xususida soʻz bormoqda. Abdulla Qahhorning bunday aforizmlari barcha ijod ahli uchun saboq, maktab boʻlarli darajada, faqat ushbu hikmatlarga tez-tez nazar tashlab qoʻyish lozim boʻladi.

Abdulla Qahhor asarlarida, jumladan, hikoyalarida ham oʻziga xos hikmat darajasidagi jumlar qoʻllanilgan va ular kitobxonlarning sevimli iboralariga aylanib ulgurgan.

Hikoyalarda qoʻllangan hikmatlar baʼzan muallif, baʼzan personaj nutqi orqali ifodalangan. Xususan, “Mahalla” hikoyasida Hikmat buvaning kampiri qazosidan keyin tushkun axvolda ekanligini koʻrib, unga dalda boʻladigan soʻzlarning asardagi epizodik obraz boʻlgan choʻtkachi tomonidan aytilishi, soʻzlar zamiridagi ohorli hikmat ham bosh qahramon taqdiridagi oʻzgarishlarga sabab boʻladi:

- Xafa boʻlmay yuribsizmi, otaxon... Kampir onam alomat ayol edilar... siz oʻsha kuni oʻzingiz bilan oʻzingiz ovora boʻlib taziya kelgan odamlarni payqamadingiz... Ana odamu... Mahallaga sigʻmay ketdi! Mahallamizning koʻchasi bir metr choʻkdi!.. Kampir onam dunyoga kelib odam ekan ekanlar. Dunyoga kelgan odam avvalboshi odam ekishi kerak ekan. Men ibrat oldim... [Abdulla Qahhor, 2005, 124-b.]

Parchada keltirilgan “odam ekish” jumlasini orqali insonning oʻz hayoti davomida qilgan ibratli amallari va insonlarga ulashgan ezguliklari nazarda tutiladi, yaʼni inson dunyoga kelgan chogʻidanoq atrofidagilarga, umuman, insonlarga yaxshilik qilib yashashi lozimligi haqidagi hikmat ushbu jumalarga singdirilgan.

Adibning “Oʻgʻri” hikoyasida qoʻllangan aforizmlari garchi hajv, kinoya mazmunida berilgan boʻlsa-da, asar qahramonlarining oʻziga xos jihatlari xarakterlashga xizmat qilgan. Xususan, Qobil boboning amin bilan suhbatini chogʻida qoʻllangan “yoʻqolmasdan ilgari bormidi?”, yoki “fuqaroning arziga borishi arbobning izzati boʻladi!” yoki xalq tilidan olingan “kishini begim degancha beli sinar ekan” kabilar shular jumlasidan.

“Nurli choʻqqilar” hikoyasida asarning yetakchi qahramoni boʻlgan Zuhraning bemaʼni hayotiy mantiqi tarzida aytilgan “chuchvaradan maqsad, goʻsht bilan xamir yeyish boʻlsa, ikkovi ham turibdi, qoʻshib yeyaveraman!” [Abdulla Qahhor, 2005, 124-b.] shaklidagi jumlaridan ushbu qahramonning hayot haqiqatini notoʻgʻri anglashini koʻrish mumkin. Yaʼni yozuvchi personaj nutqidagi notoʻgʻri mantiqiy xulosa orqali asar qahramoni xususida kitobxonga maʼlumot bermoqda.

Adibning “Oʻjar” hikoyasidagi “Har yomonning bir “ammo”si boʻlishi kerak, har yaxshining bir “lekin”i” hikmati xalq maqolining oʻziga xos maʼno kasb etgan shakli boʻlsa, “Yillar hikoyasidagi Murodjonning “Birovning ishiga saratonda qoʻl sovqotadi” hikmati esa qahhorona aforizmlardan biri boʻlib, unga koʻra har kim oʻz mehnati tufayli farogʻat koʻrishiga ishora qilinmoqda.

“Xotinlar” hikoyasidagi Sobiraxonning Asqar otaga aytgan “Xavotir bo‘lmang ota, qoqilsam yer ko‘taradi” jumllarida insonga taskin mazmuni anglashilsa, Qumriniso tilidan aytilgan “Ishi yo‘q it sug‘oradi” so‘zlarida asarning salbiy qahramonlaridan bo‘lgan Umriniso kabi ayollarning xarakter-xususiyatlariga ishorani anglash mumkin.

Ayrim hikoyalaridagi hikmatlar muallifning asar qahramoniga bergan ta‘rifi zamirida ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, “Ming bir jon” hikoyasidagi Akramjon obrazini xarakterlovchi “... aftidan, Masturaning bir minutlik oromi uchun o‘ng ko‘zini o‘yib berishga ham tayyor edi”, jumlasida ham o‘ziga xos hikmat bor, ya‘ni u xotini uchun boridan voz kechishga ham tayyor inson ekanligi gavdalantirilmoqda.

Shu hikoyadagi irodali insonlar xususida Mirrahimov tilidan aytilgan so‘zlar ham ayni hikmat:

- – Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. Mana shu ishonch Masturaga o‘limni yo‘latmaydi [Abdulla Qahhor, 2005, 114-b.]

- A.Qahhorning “Mahalla” hikoyasidagi qo‘sha qariyotgan qariyalar haqidagi hikmati ham o‘ziga xos: “... ellik uch yildan beri mehr atalmish ulkan tuyg‘u rishtasini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvib, bir-birining qalbini o‘rab-chulg‘ab kelgan...” [Abdulla Qahhor, 2005, 114-b.]

Ushbu hikmat orqali bir umr birga bo‘lgan insoni bu dunyoda yo‘q bo‘lgan chog‘ida qolgan juftning qalbidagi bo‘shliq aynan uni o‘rab turgan mehrning yo‘qolishi bilan paydo bo‘lishiga ishora qilinmoqda.

Adibning deyarli har bir asarida bu shakldagi hikmatlarni uchratish mumkin. Ularning har biri ohorlilik, hayotiylik bilan kishilarni jalb qiladi, o‘ziga yetarli xulosa chiqarib olishiga ko‘maklashadi. Balki shu sababli ham A.Qahhor qalamiga mansub qator etuk hikoyalar XX asr o‘zbek hikoyachiligining rivojida va hatto jahon hikoyachiligi taraqqiyotida ham munosib o‘rin tutib kelmoqdadir. Taniqli rus adabiyotshunosi V.Smironovning «Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatarga qo‘yish mumkin» [V.Smironova. 1963, 7] - deya bildirgan yuqori darajadagi bahosi yuqorida bildirilgan fikrlarning tasdig‘i bo‘lishi mumkin.

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi hikmatlarining ahamiyati haqidagi qarashlarni adabiyotshunos O.Abdullayev bildirgan fikrlaridan foydalangan holda quyidagicha yakunlash mumkin: “Bu hikoyalar haqida ko‘p yozilgan, ularning jahon adabiyoti durdonalaridan qolishmasligi allaqachon isbotlangan... Xullas, mustaqillik ruhini yuragiga joylab, o‘zligini anglab borayotgan avlod uchun bu hikoyalar katta hayot maktabi vazifasini o‘tashi, shubhasiz” [Abdulla Qahhor, 2005, 124-b.].

A.Qahhor qalamiga mansub hikoyalarning aksarida donishmand adibning hikmatlari o‘rin olgan. Hikoyalar uchun asos qilib olingan hayot haqiqati yoki hayotiylik tamoyili unda qo‘llanilgan aforizmlar tufayli yanada takomillashgan, insonlar xotirasidan mustahkam o‘rin olgan. Adibning badiiy adabiyot va yozuvchi mahorati xususida va umuman, hayot haqida aytgan hikmatlari – aforizmlari bugungi avlod yoshlari uchun, ijodkor ahli uchun dasturulamal bo‘lishiga shubha qilmaymiz.

Adabiyotlar

Abdulla Qahhor.(2007) Tanlangan asarlar. – T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 124.

V.Smirnova. (1963) Farg‘onalik Abdulla Qahhor. Дружба народов. 7-son.

“Jahon adabiyoti” jurnali, 1998 yil, 1-son, 35.

U.O‘ljaboyev. (2013) Abdulla Qahhor saboqlari. Guliston, Ziyo.

Umarali Normatov. (2010). Ustoz ibрати.Sharq.

O‘ZBEK TILI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ug‘iloy Bolbekova *

Annotatsiya

Bu maqola O‘zbek tilining ahamiyati va uni takomillashtirish jarayoni va jahon tillar o‘rtasida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. O‘zbek tili rivojlanish davri va uni rivojlantirishiga hissa qo‘shgan olimlar fikrlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, lingvistik, ma’naviyat, ona tili, sheva, adabiyot, tafakkur quroli*

HISTORY OF THE UZBEK LANGUAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY

Abstract

This article discusses the importance of the Uzbek language and the process of its improvement and its place among world languages. The period of development of the Uzbek language and the opinions of scientists who contributed to its development are described.

Key words: *Uzbek language, linguistics, spirituality, mother tongue, dialect, literature, tool of thought.*

O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilining ahamiyati va uning xalqimiz hayotidagi o‘rni benihoya kattadir. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi – xalqimizning milliy mustaqillikga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib, ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, davlat tilining boyitilishi va takomillashtirilishi taminlabgina qolmay, O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi va mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini nazarda tutiladi.

O‘zbek tilining yarstilishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

* Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. ugiloybolbekova@gmail.com

O'zbek tilining rivojlanish tarixi

Qadimgi turkiy til Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan va Turkiy til paydo bo'lgan.	Qadimgi o'zbek tili Ikkinchi bosqich XI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo'shdi.	Hozirgi o'zbek tili XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi.
--	---	---

Ma'lumki, "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir". Shunday ekan, ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan ona tiliga bo'lgan munosabat shaxsning ma'naviyatga bo'lgan munosabatini ham belgilaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Kamol topayotgan yosh avlodga ona tiliga e'tibor va ehtirom, unga davlat tili sifatida qarashning ma'suliyati kabi tuyg'ularni singdirish va mustahkamlab borish dolzarb muammolardandir. O'zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta. Buni uning ushbu misralarida ham bilish mumkin:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

O'zbek tili rivoji yo'lida bugungi kunda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ham Hazrat Navoiyning til rivojidagi amallarining mantiqiy davomidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan millatlar tashkilotining 72-sessiyasida o'zbek tilida ma'ruza qilgani ham buning yaqqol isbotidir.

O'zbek tilining takomillashish jarayoni to'rt asosiy manbaning ishtirokida amalga oshgan. Hozirgi foydalanishdagi o'zbek tili esa uch ko'rinishga ega bo'lib, birinchidan - shevalardan, ikkinchidan - umummilliy adabiy tildan va uchinchidan - ularning qorishmasi bo'lmish kundalik jonli muloqot tilidan tashkil topgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XX asrning 30-yillarigacha o'zbek tili yangi zamon o'zbek millatining tili sifatida shakllandi, o'z taraqqiyot yo'llarini aniqlab, rivojlana boshladi. (Muhridin HAKIMOV, Davlat tili bo'yicha) Jarqo'rg'on tuman hokimi maslahatchisi.)

Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili — millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti — bu uning milliy tili va adabiyotidir.

Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonni va 2020–2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo'nalishlari tasdiqladi.

Farmonga muvofiq, maktabgacha, maktablar va oliy ta'limda o'zbek tili va ona tili fanlarini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga e'tibor qaratish hamda o'zbek tilida izohli lug'atlar yaratish va davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyani oshirish to'g'risida ishlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Jamiyat a'zolarining tilga munosabatida ikki jihatni — umuman, tilga munosabat hamda ona tiliga munosabatni farqlab olish lozim. Birinchi holatda — tilning xalqni birlashtirishdek vazifani bajarishini anglab munosabat ko'rsatilishi, “Davlat tili haqida”gi qonun talablariga rioya etilishi, ish yuritishda adabiy til me'yorlariga amal qilinishi zarur. Ikkinchi holatda — ona tili o'ta milliy, etnomadaniy hodisa deb tushunilishi, ona tili taqdiriga millat taqdiri deb qaralishi, ona tili boricha qabul qilinishi kerak.

Bugungi o'zbek jamiyatida har ikki munosabatga aloqador muammolar yetarli. Bu “Davlat tili haqida”gi qonun talablarining ko'p hollarda bajarilmayotgani, davlat tilining amaliyotga keng joriy etilmayotgani, ta'limning turli bo'g'inlari va ish yuritishda lisoniy layoqatlilik darajasining pastligi, davlat tiliga ham, ona tiliga ham bepisand munosabatning uchrayotgani, til madaniyatining lozim darajada shakllanmayotganida ko'rinadi. O'zbek sotsiolingvistikasi jamiyatda davlat tiliga munosabatning ahvolini, jamiyat hayotining qaysi jabhalarida til bilan faol ta'sirlashuv kechayotganini, til siyosatida nimalarga e'tibor berish lozimligini aniqlashi va davlat tilini amaliyotga to'liq joriy etish hamda terminologiyani tartibga solish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishi zarur.

Til va jamiyat ta'sirlashuvi haqida so'z borar ekan, tilning jamiyatga qanday ta'sir etishini ham tushuntirmoq lozim. Mutaxassislar to'g'ri ta'kidlaganidek, tilning jamiyatga ta'siri jamiyatning tilga ta'siriga nisbatan kam o'rganilgan, hatto bunday ta'sirlashuvga shubha bilan qarash ham bor. Bizningcha, tafakkur quroli bo'lgan vositaning jamiyatga ta'sir ko'rsatmasligining o'zi shubhali, chunki til jamiyatni muntazam harakatlantirib turadi va bu tarz ta'sirlashuvning eng ibtidoiy aksi uning axborotni shakllantirish va uzatish vazifasida ko'rinadi. Jamiyatning tilga ta'siri naqd lisoniy natijalarda ko'rinadi, shu sababli, bu tarz ta'sirlashuv shubha uyg'otmaydi, bir qarashdayoq ta'sirlashuv natijalarini ilg'ash mumkin bo'ladi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyoti omillari	
Lingvistik	Ekstralingvistik
Muayyan tilning sistemaviy va strukturaviy xususiyatlari fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qonuniyatlar kiradi.	Ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy aloqalar, ilm -fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his- tuyg'ulari aynan shular jumlasidandir

Xulosa. Bugungi kunda yurtimizda o'zbek adabiy tilini yanada takomillashtirish va eski tillarni sekin astalik bilan yana faol til tizimiga tatbiq etish bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada o'zbek tilini rivojlantirish borasida bir ko'plab ilmiy namoyish va tadqiqotlar olib borilyapdi.. Til-jamiatni yuzaga chiqaradigan, uni takomillashtiradigan yagona omildir. Shuning uchun davlat tilimiz bo'lgan ona tilimizga e'tibor qaratmog'imiz zarur.

Adabiyotlar

Rasulova, A., & Raxmonqulova, M. (2022). Til va jamiyatning o'zaro munosabatlarida nutqini ijtimoiy-lisoniy aspektida tadqiq etish. In international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century (Vol. 1, No. 8, pp. 125-128).

Ahmadaliyeva Fazlatxon (2022). "O'ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI" Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Научный импульс» Октябрь.

Saidov, Yoqub. O'zbek adabiy tili tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma / Y. Saidov. Buxoro. "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. – 168 b.

“ALISHER NAVOIY ASARLARI TILINING IZOHLI LUG‘ATI” DA UZUMCHILIK SOHASIGA OID AYRIM LEKSIKANING IFODALANISHI

Nafisa Nuriddinova *

Annotatsiya

Alisher Navoiy asarlari tilida sohaviy terminologiya, xususan, uzumchilik sohasiga oid leksikaning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini aniqlash uchun ularni tarixiy-etimologik, geneologik jihatdan o‘rganish, semantik xususiyatlarini yoritish zarur. Ushbu maqolada «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» dan o‘rin olgan sohaviy terminlar, shuningdek, uzumchilikka oid leksik birliklarning leksik-semantik mazmuniga diqqatni qaratganmiz. Tilimizda an‘anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelinayotgan uzumchilik sohasi atamalari bilan zamonaviy shu sohaning terminlari o‘rtasida juda katta farq bor. Qadimgi uzumchilik sohasi atamalarining miqdori ancha cheklangan bo‘lsa, hozirgi yangi davr, ya‘ni bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi yoki variantli terminlarga ehtiyoj ortishi munosabati bilan agrar sohaga oid terminlar beqiyos boyib bormoqda. Bu esa tadqiqot mavzuyimiz dolzarbligini yanada oshiradi.

Tayanch so‘zlar: *lug‘atlar, qishloq xo‘jaligi leksikasi, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, sohaviy terminlar, atama, til taraqqiyoti.*

EXPRESSION OF SOME LEXICON RELATED TO VITICULTURE IN “ANNOTATED DICTIONARY OF THE LANGUAGE OF ALISHER NAVOI’S WORKS”

Annotation

In order to determine the historical formation and development process of lexicon related to viticulture in the language of Alisher Navoi’s works, it is necessary to study them historically and etymologically and clarify their semantic features. In this article, we have focused on the field terms and lexical units related to viticulture from the “Annotated Dictionary of the Language of Alisher Navoi’s Works”. There is a big difference between the terms of the field of viticulture, which have been traditionally preserved in our language since ancient times, and terms of this field today. While the number of old viticultural terms is quite limited, the terms related to the increasing need for new era, that is, in the conditions of the market economy. This increases the relevance of our research topic.

Key words: *dictionaries, agricultural lexicon, explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works, field terms, terminology, language development.*

* Samarqand chet tillari institute akademik litseyi, Nafisanuriddinova45@gmail.com

Ma'lumki, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biri terminologiya sohasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deya izohlanmoqda. Ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga hamisha turtki bergan va ayniqsa, yigirma birinchi asrda globallashuv ijtimoiy hayotga juda katta ta'sir ko'rsatishi tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyatlaridan biriga aylandi. Har bir milliy tilning leksikasi doim harakatda, o'zgarishda bo'lib turadi. Tilda yangi so'zlar paydo bo'lib, ular leksikani to'ldiradi hamda boyitib boradi, yangi so'z ijtimoiy hayotning talabi bilan yaratiladi. Ayniqsa, terminologiyada bu jarayon ko'zga yaqqol tashlanadi. Jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan termin va terminologiya masalalariga davlat miqyosida e'tibor berib kelingan, jumladan, o'zbek tili terminologiyasi ham ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlarni, jumladan, ilmiy merosimizni tadqiq qilishga katta yo'l ochib berildi. Shu kunning til, tarix, madaniyat bilan bog'liq muammolarini hal qilishda yozma yodgorliklarga murojaat qilish muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Bunday asarlarni o'rganish, jumladan, til tarixini o'rganish millatning shakllanish tarixi, merosi, madaniyati haqida zarur ma'lumotlar beradi. Zeroki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o'rganishning yagona ilmiy yo'li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir.

Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlar davomida yaratgan noyob madaniy yodgorliklar qatoriga shu xalq farzandlari yaratgan lug'atlar ham kiradi. Bunday lug'atlarning nodir qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan va ularning ba'zilar nashr qilingan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Turkiy tildagi so'z va iboralarni to'plash, ularni ilmiy o'rganish XI asrda yaratilgan «Devonu lug'otit turk» asariga borib taqaladi. Ushbu lug'atda o'z davridagi turli qabila-urug'lar tiliga mansub so'z va iboralar yig'ilgan. Bu haqda muallifning o'zi quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosga tartibga soldim» (Qoshg'ariy, 1960, 15-b.) Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillardagi so'z va iboralarni to'plash an'anasini o'rta asr lug'atshunoslari, jumladan, Alisher Navoiyning boy merosi davom ettirdi. Ko'p davrlardan buyon e'tibor berib kelinayotgan tilshunoslik

va uning asosiy sohalaridan biri bo'lgan lug'atchilikka oid izlanishlar, albatta, til taraqqiyotining asosiy aspektlardandir. Bu borada, o'tmishda va hozirda Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bir qancha lug'atlar yaratilganligi bizga ma'lum.

Xususan, «Badoye-ul-lug'at», «Xamsa bo halli lug'at», «Abushqa», «Sangloh», «Lug'ati atrokiya», «Lug'ati turkiy», «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy», «Halli lug'ati «Xamsa» yi Navoiy», «Halli lug'oti chig'atoyi «Xamsa» yi Navoiy», «Nisobi Navoiy», «Lug'ati Amir Navoiy», «Dar bayoni lug'ati Navoiy», «Halli lug'ati chig'atoyi» hamda Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan «O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at» va yana shu mualliflar tomonidan 1972-yilda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari lug'ati», 1983-1985-yillarda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» (4 tomli), shuningdek, «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at» kabilar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan turkiy, forsiy, arabiy so'z va iboralar mazkur lug'atlarda izohlangan. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining leksikologiya va leksikografiya bo'limida tayyorlanib, nashr etilgan 4 jildlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» nisbatan to'liqligi bilan e'tiborni tortadi. Tadqiqotchilar boy faktik materiallarni aynan shu lug'atlardan to'laqonli o'rganishi mumkin. Izohli lug'atdan faqat o'zbek mumtoz asarlari tilinigina emas, balki ko'pgina boshqa turkiy xalqlarning adabiy va tarixiy manbalarini o'rganishda ham foydalanib kelinmoqda. Ammo shoir asarlarining til xususiyatlarini o'rganish, uning yangi-yangi ma'no qirralarini kashf etish davom etaveradi. Zero, "Alisher Navoiy merosi mangulikka daxldor so'z maxzanidir" (Tojiboyeva,2021,10-b.) Har bir til lug'at tarkibining boyib borishi tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so'z o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

Mamlakatlar va xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo'shni xalqlarning o'zaro aloqalari natijasida yangi g'oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o'ziga xos taraqqiy etishiga, til lug'at tarkibining boyishiga olib keladi. (Muxtorov,1995,90-b.) Ta'kidlash lozimki, til birliklarining obyektiv olam, reallikni ifoda etishni, aksincha, obyektiv olam, borliqning semantik predmetlar orqali umumlashtirish jarayoni mavjudligini talqin qilish semasiologik yo'nalish sifatida izohlanadi. Semasiologik tahlil lug'aviy birliklarning semantikasi va u bilan bog'liq hodisalar nuqtayi nazaridan o'rganishdir. (Hojiyev,2002,87-b.) Shundan kelib chiqib, ANATILda qo'llangan so'z boyligini, jumladan, sohaga oid leksikaning ma'nolarini semantik jihatdan tadqiq etamiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, sohaviy leksika, xususan, uzumchilik sohasiga oid so'zlarning xilma-xilligi vaqt o'tishi bilan turli xil tadqiqot nazariyalari va tahlil usullaridan foydalangan holda ma'lum bir konseptual-terminologik vosita sifatida

shakllanishi, taraqqiy etishi mumkin. Bu xilma-xil ma'nolarning yuzaga chiqishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi, va albatta, Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan bir qator shu sohaga oid so'zlar bugungi kunda tilimizda uyg'un shakl va ma'nolarda qo'llanilmoqda. Ko'pgina istorizm va arxaizmlar esa bizga XIV-XV asrdagi qishloq xo'jaligi leksikasi haqida ma'lumot beradi. Navoiy asarlarining lug'at boyligi deb ataluvchi lkesik tizimning mohiyatini, so'zlarning qo'llanish doirasini, hajmi va chegarasini belgilash o'zbek tilshunoslik fani uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Turli sohalarga oid so'z va terminlar o'zbek tilshunosligida o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanish davri hisoblangan Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq mukammal, umumlashtirilgan leksikologik tadqiqotlar ko'p emas. Navoiy asarlari tili leksik boyligining ma'lum qismini qishloq xo'jaligi dunyosini aks ettirgan so'zlar tashkil etadi. Tadqiqotda Alisher Navoiy asarlari tilidagi ba'zi uzumchilik sohasiga oid so'zlar to'planib, ular qiyosiy, geneologik, leksik va semantik yo'nalishlarda tadqiq etildi. Bunday dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishi Navoiy asarlari leksik boyligi haqidagi ilmiy, nazariy bilimlarni to'ldiradi, o'zbek tili leksikasi taraqqiyot yo'lini to'g'ri belgilashda ulush bo'lib qo'shilishi shubhasizdir. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»da keltirilgan tadqiqotimizga oid bir qancha leksik birliklarning bugungi “ Qishloq xo'jaligi terminlarining izohli lug'ati”dagi ma'nolarini qiyoslagan holda nozik qirralarini tahlil etgan holda e'tiboringizga havola etamiz:

Kahgil- *somonli loy*. (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, I жилд. 104-б.) *Mohvash vasl ichra bo'lg'och komyob, Dedikim, kahgilg'a urdilar gulob*. Bugungi kunda somonli loy uzumchilik sohasida ham keng ishlatiluvchi unsurlardan biridir. Chunki areal jihatdan O'zbekistonning ba'zi viloyatlarida, xususan, Samarqandning Urgut, Tayloq tumanlarida somonli loy asosida *mayjo* deb ataluvchi joy hozirlanadi va bunda uzumlarning g'ujala qismi shu yerda yoyilib quritiladi. “*Mayjo*” leksikasining QXTIL (Jabborov X.2020.)da keltirilmaganligini inobatga olib, xalq leksiksidan unumli foydalangan holda lug'atni boytishimiz mumkin. Jo'ya- *jo'yak, ariq*.(Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, I жилд. 110-б.): *Toki bir jo'ya aro kesmakta tok, Ayladi oni yilon sanchib halok*. Navoiyning “Lisonut-tayr” asarida keltirilgan yuqoridagi misralaridagi jo'ya so'zi aynan *tokning jo'yasi* ma'nosida qo'llanilgan. “QXTIL” da ham *jo'ya* terminiga quyidagicha izoh berilgan: Jo'ya //jo'yak – *ekin arig'i, ikki pushta o'rtasidagi ariq*.

Demak, bugungi kunda tilimizda faol iste'molda bo'lgan bunday leksikalar XIII-XIV asrlarda ham keng muomalada bo'lganligini ko'rsatadi. Mavizob – *mayiz suvi, sharbat*. (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, I жилд. 188-б.): *Ravotib ro'za oyida har kecha o'n besh botmon bug'doy, besh botmon poludai dushobdin yo mavizobdin o'ttuz tabaq ulcha ehtiyoj bo'lg'ay*. QXTILda

sharbat- yangi uzilgan va terilgan meva, rezavor mevalar hamda sabzavotlardan siqib olinadigan shirali suyuqlik, meva suvi. (Jabborov X.2020.45-b.) Demak, Navoiy asarida keltirilgan mavizob soʻzi oʻrnida bugungi kunda sharbat muqobili qoʻllanilmoqda. Bunday leksikalarni arxaik variant sifatida baholashimiz mumkin. *Tok – oʻsimlik nomi, uzum toki* (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, II жилд. 240-б.): *Chu men bir jom uchun dehqon asirimen, ajab ermas libosim tok bargi rishtai bel bogʻlargʻa tok oʻlmoq.* QXTILda tok – uzum novdasi. Uzum oʻsimligi. (Jabborov X.2020.66-b.)

Ushbu leksika uzoq davrlardan beri oʻz maʼno ottenkasini saqlab, xalq orasida keng isteʼmolda qoʻllanilmoqda. *Mul – may, sharob* (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, I жилд. 345-б.). *Qon yutub bir gul gʻamidin oʻlganim yod aylasun, Gul chogʻI har kimki bir gulrux elidin ichsa mul.* Shuningdek, *mul – may – boda* soʻzlari Navoiy asarlarida sinonim tarzda qoʻllanganligining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan leksikalar fors-tojik tilidan mast qiluvchi ichimlik maʼnosida ayni shu davr umumisteʼmolida qoʻllangan boʻlsa, bugungi kunda qishloq xoʻjaligida lotincha soʻzdan olingan *vino* termini bilan qoʻllanilmoqda: *Vino – aylanuvchi, oʻraluvchi; uzum va mevalar sharbati yoki turpini achitqilar ishtirokida bijgʻitish yoʻli bilan tayyorlanadigan ichimlik.* (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983, IV жилд. 462-б.) *Uzum – uzum, tok: Jahon gʻami-yu uzum bodasi gumon qilmang, Ki zohir ahligʻa bu maʼni etti boʻyla zuhur.* QXTIL da uzum – tok oʻsimligining gʻujumlaridan iborat mevasi deb izohlangan. (Jabborov X. 2020.69-b.)

Umuman olganda, Navoiy asarlaridagi sohaviy leksika, jumladan, bogʻdorchilikning uzumchilik sohasiga oid birliklar tilimizning asriy tarixidan soʻzlashi bilan qiziqarlidir. Ularni leksik, stilistik, tematik, geneologik, terminologik va ayrim oʻrinlarda leksik-grammatik tomondan tahlil etish eski oʻzbek adabiy poetik tilining qirralarini ochib berishga katta xizmat qiladi. Ayniqsa, shoir asarlarida aynan shu sohaga oid atamalarning umumiy soni va ulardan qanchasi bugungi kunda tilimizda faol ishlatilayotganligini aniqlash hamda qanchasi arxaik yoki tarixiy variantga aylanganligini kuzatish, tilimiz taraqqiyoti uchun muhim boʻlgan qimmatli maʼlumotlarni bera oladi.

Maʼlumki, yangi lugʻatlar uchun optimal strategiyani ishlab chiqishdagi asosiy muammo lugʻatlarni tarkibi boʻyicha ham ulardagi maʼlumotlarning yetarliligi nuqtayi nazaridan ham haqiqiyliги muammosidir. Leksikografiya keng maʼnoda til birliklari inventarlarining barcha toʻplamini ularga tegishli boʻlgan u yoki bu turdagi maʼlumotlarni qamrab oladi. Semantik maʼlumotlarni aks ettirish eng boy va qiyin. Oʻzbek lugʻati tarixi Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridan boshlangan deb aytar ekanmiz, ushbu lugʻat faqat soʻzlar va ularning maʼnolarini

tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu o'rinda "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" ham sohaviy izlanishlar uchun katta manba vazifasini o'taydi.

Lug'atlarga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi, lug'at turlarining xilma-xilligi bu sohaning istiqbolidan darak beradi. Lug'atlar taraqqiyotida qadimdan bizning davrimizgacha qo'lyozma, toshbosma tarzida yetib kelgan asarlarning o'rni beqiyos. Sharq qo'lyozmalar fondida IX asrdan to XX asr boshlariga taalluqli bo'lgan arab, fors va turkiy tillardagi 25977 jild qo'lyozma, 39107 jild toshbosma va bosma asarlar, 5000 dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanmoqda. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ularlarning turli shakllari, ko'rinishlari soha taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan.

Qadimiy dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan xalqimizning tadrijiy rivojlanishi shu soha bilan bevosita bog'liqligi ko'hna tarix sahifalarida muhrlangan. O'troqlashishning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan sohaviy atamalar ko'lami kengayib, tilimiz boyib, taraqqiy etib kelmoqda. So'nggi yillarda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ilm-fan yutuqlari, ilg'or xorijiy tajriba va texnologiyalarning joriy qilinishi, jahon miqyosida globallashuv tobora kengayib va chuqurlashib borayotganligi muomalada bo'lgan so'zlar, atamalar bilan bir qatorda ko'plab xalqaro va xorijiy terminlar qo'llanilishi jarayonlarini tezlashtirdi. Yangi terminlarning kirib kelishi ularning muomalada bilib-bilmay turli xil ma'noda talqin qilinishi amaliy faoliyatda muayyan tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Qadimdan qo'llanilib kelgan sohaga oid ko'plab so'z va atamalarning asl mazmuni bilan tanishib, hozirda kundalik faoliyatimizda foydalanib kelinayotgan so'zlar hamda so'nggi yillarda kirib kelgan yangi terminlar ma'nosini izohlagan holda, lug'atlarimizni boyitish izlanishlarimizning samarasi bo'lib xizmat qiladi, albatta. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ta'limga va ma'naviyatga yangicha yondashuv va yangicha munosabat bu sohalarning taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Aynan mustaqillikka erishganimiz o'zbekistonliklarga, o'zbek tilshunoslari oldiga yangidan yangi vazifalar qo'ydi. Zotan, "Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim". (Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730).

So'nggi yillarda mamlakatimizda agrar sohaning yanada rivojlanishi, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarga keng yo'l ochilishi o'zbek tilida yangi iqtisodiy terminlar, ular orqali esa sohaga doir atamalarning yangi variantlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi

bosqichida soha terminlarini lugʻatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tadqiqotimiz obyekti boʻlgan uzumchilik sohasi, umuman, sohaviy terminlarning shakllanish manbalarini, umumtilda qoʻllanish doirasini, mazkur tizimda roʻy berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf yetish yoʻllarini aniqlash kabi qator masalalarni oʻrganish zarurati ham paydo boʻlmoqda. Bundan tashqari hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanilib kelinayotgan bogʻdorchilikka oid terminlarni toʻplash va sistemalashtirish ham zamonaviy oʻzbek tilshunosligi uchun muhim va dolzarb vazifadir.

Soʻnggi yillarda miqdoran ortib borayotgan leksikalar termin sifatida oʻzi ifodalagan mazmunni toʻlaroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qoʻllash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Shuni ham aytish kerakki, tilda anʼanaviy tarzda qadimdan saqlanib kelinayotgan uzumchilik sohasi atamalari bilan zamonaviy shu sohaning terminlari oʻrtasida juda katta farq bor. Qadimgi uzumchilik sohasi atamalarining miqdori ancha cheklangan boʻlsa, hozirgi yangi davr, yaʼni bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi yoki variantli terminlarga ehtiyoj ortishi munosabati bilan agrar sohaga oid terminlar beqiyos boyib bormoqda. Bu esa tadqiqot mavzuyimiz dolzarbligini yanada oshiradi. Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi - oʻzbek tili leksikasida uzumchilik sohasiga oid soʻzlarning oʻrganilish tarixini yoritish; uzumchilik sohasiga oid soʻzlar lugʻatini tuzish; -oʻzbek tilshunosligida uzumchilik sohasiga oid soʻzlar leksikografiyasini tuzishning ahamiyatini Alisher Navoiy asarlari leksikasi orqali chogʻishtirgan holda koʻrsatib berishdir.

Adabiyotlar

Махмуд Кошғарий.(1960). Девону луғотит турк. Уч томлик. III том.Тошкент: ЎзФА.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (1983). IV жилдлик. I жилд. Тошкент: Фан.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (1983). IV жилдлик. II жилд. Тошкент: Фан.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (1984). IV жилдлик. III жилд. Тошкент: Фан.

Мухторов А., Санакулов У.(1995). Ўзбек адабий тили тарихи. – Ташкент: Теачер.

Ҳожиёв А.(2002). Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.Тошкент.

Тожибоева М.(2021). Алишер Навоийнинг «Илк девонида арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини»: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.Тошкент.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI YORLIQLARINI LINGVOMADANIY TADQIQ ETISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI

Orifjon Choriyev*

Annotatsiya

Mazkur maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini lingvomadaniy tadqiq etishning zarurati va ahamiyati borasida to'xtalib o'tilgan. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matnida til, madaniyat va iste'molchilar xulq-atvori o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish uchun lingvomadaniy tadqiqotlar muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, tadqiqot ishida oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matnida madaniy aspektlarning ta'siri, lingvistikaning marketing va iste'molchini ishontirishdagi ahamiyati, xalqaro va milliy qonunchilik bilan tartibga solinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning iste'molchi va ishlab chiqaruvchining huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi roli hamda barqarorlik va eko-yorliqlarning turli madaniyatlarda aks etishi kabi masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar ifodalangan.

Kalit so'zlar: *oziq-ovqat mahsulotlari, lingvomadaniyatshunoslik, iste'molchi, yorliq, ishlab chiqaruvchi, marketing, xalqaro hujjat, milliy qonunchilik, eko-yorliqlar, mahallilashtirish.*

THE NEED AND SIGNIFICANCE OF LINGUOCULTURAL RESEARCH ON FOOD LABELS

Abstract

This article discusses the necessity and significance of linguocultural research on food products. In particular, it is emphasized that linguocultural research is important for understanding the relationship between language, culture, and consumer behavior in the text of food labels. The research paper also presents opinions on issues such as the influence of cultural aspects in the text of food labels, the significance of linguistics in marketing and consumer persuasion, normative-legal documents regulated by international and national legislation, and their role in protecting the rights and interests of consumers and producers, as well as the reflection of sustainability and eco-labels in different cultures.

Keywords: *food products, linguoculturology, consumer, label, producer, marketing, international documentation, national legislation, eco-labels, localization.*

* Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi, o.choriyev@tsul.uz

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatining o‘zaro integratsiyasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Integratsiyaning bunday jadallashishi axborot qabul qilish va uzatishdagi cheksiz imkoniyatlarning yuzaga kelganligi hamda zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqdir. Bu jarayon ishlab chiqaruvchidan ham, iste’molchidan ham har bir jamiyatning madaniyati, urf-odatlar, qarashlari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lishi lozimligini taqozo etmoqda. Bilamizki, tovarlar yorliqlari matnini tayyorlashda eng muhim vazifalardan bittasi marketing hisoblanadi.

Har bir ishlab chiqaruvchi o‘zining mahsuloti iste’molchilari sonini oshirishni maqsad qilar ekan, ulardan tovar iste’molchilari tili, madaniyati va qarashlarini alohida o‘rganish talab etiladi. Shu o‘rinda lingvomadaniyatshunoslik borasida to‘xtalib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz. Lingvomadaniyatshunoslik sohasi XX asrning oxirida alohida tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uning intellektual ildizlari antropologik tilshunoslik va etnolingvistikaning oldingi ishlariga borib taqaladi. Ma’lumki, Lingvomadaniyatshunoslik fanlararo soha bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganadi. U madaniy qadriyatlar, dunyoqarashlar va ijtimoiy me’yorlarning tilga qanday singib ketishini va til, o‘z navbatida, madaniy o‘ziga xoslikni qanday shakllantirishini tushunishga intiladi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik, antropologiya, semiotika va madaniyatshunoslikka asoslanib, til madaniy ma’nolarni ifodalash va uzatish vositasi sifatida qanday xizmat qilishi haqida tushuncha beradi.

Shuning uchun ham oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matnida til, madaniyat va iste’molchilar xulq-atvori o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish uchun lingvomadaniy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Jahon bozori tobora o‘zaro bog‘lanib borayotgan bir paytda, oziq-ovqat yorliqlari nafaqat me’yoriy va ozuqaviy ma’lumotlarni yetkazish vositasi, balki jamiyat qadriyatlari va me’yorlarini aks ettiruvchi kuchli madaniy artefaktlarga aylanmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarining lingvomadaniy jihatlarini tushunish yorliqlarning me’yoriy talablarga javob berishini ta’minlash, turli madaniy muhitlarda iste’molchilarga ta’sir etish va noto‘g‘ri yoki ikki xil ma’noli da’volardan qochish uchun juda muhimdir.

Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matnini lingvomadaniy tadqiq etishning zarurati va ahamiyatini bir nechta jihatlariga ko‘ra tahlil qilamiz.

1. Oziq-ovqat yorliqlari tilida lingvomadaniy aspektlarning ta’siri

Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matni yozilgan tilga mahsulot sotiladigan madaniy muhit chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu mahsulot yorliqlari bilan birga ularning nomlarida ham yaqqolroq ko‘rinadi. Xususan, Brendlarning nominativ funksiyasi va lingvomadaniy aspekti mavzusida tadqiqot olib borgan M.Madiyeva ta’kidlashicha, “brendlarni ifodalovchi til vositalari ham har bir tilda tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan xoslangan bo‘lib, unda millatga xo‘surf-odatlar, milliy qadriyatlar, etnik munosabatlar o‘z aksini topadi. Bu holda xalq ruhi bilan to‘yinadi, u millatning

bo‘linmas, xalqona ramziga aylanadi”(M.Madiyeva, 2023, 14-bet) Mahsulot yorliqlari matnida uchraydigan ayrim atamalar muhim madaniy ma’nolarni o‘z ichiga oladi va ular uyg‘otadigan ma’nolar madaniyatlar o‘rtasida farq qilishi mumkin. Wierzbicka ta’kidlaganidek, "madaniy kalit so‘zlar jamiyatning qadriyatlari va me’yorlarini aks ettiradi hamda ularning lug‘aviy ma’nosidan tashqariga chiqadigan konnotatsiyalari bilan to‘ldiradi" (Wierzbicka, 1997, 128-bet). Masalan, ko‘plab G‘arb mamlakatlarida "tabiiy" so‘zi tozalik, sog‘lomlik va ekologik barqarorlik bilan bog‘liq. Biroq, boshqa madaniyatlarda "tabiiy" tushunchasi yuqoridagi kabi ma’noga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu esa, yuqori maqsadli marketingni reja qilgan ishlab chiqaruvchilar mahaliy aholining lingvomadaniy o‘ziga xosliklarini oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarida aks ettirishi muhimligini anglatadi. Ushbu lingvomadaniy farqlarni hisobga olmaslik iste’molchilarning e’tiborini jalb qila olmasligi yoki ishonchsizligiga olib kelishi mumkin.

2. Lingvomadaniy tadqiqotlarning marketing va iste’molchini ishontirishdagi roli

Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari ishlab chiqaruvchilar uchun iste’molchilar bilan ishonchli aloqani o‘rnatish uchun marketing vositalari sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham lingvomadaniy tadqiqotlar marketologlarga turli lingvistik strategiyalar iste’molchilarning madaniy qadriyatlari va hissiy ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini tushunishida yordam beradi. Krishna oziq-ovqat mahsulotlarini yorliqlashda sezgi organlariga ta’sir etuvchi so‘zlarning muhimligini ta’kidlab, “boy ta’m” yoki “qarsildoq to‘qima” kabi iboralar iste’molchilarni mahsulotdan oladigan taassurotlarini tasavvur qilishga undaydi, bu esa xarid qilish ehtimolini oshiradi" deb ta’kidlaydi (Krishna, 2012, 53-bet). Buyruq shaklidagi "Hoziroq sinab ko‘ring!" yoki hissiy tajribalarni tasvirlovchi ishontiruvchi jumlarlar iste’molchilarning istaklari va his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, ularni bir mahsulotni boshqasidan afzal ko‘rishga undaydi. Biroq, bu lingvistik strategiyalar iste’molchilarni chalg‘itmaslik uchun madaniy jihatdan mos va qonuniy talablarga javob berishi lozim.

3. Me’yoriy talablarga rioya qilish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish

Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarida qo‘llaniladigan tilning shakllanishida huquqiy-me’yoriy asoslar muhim rol o‘ynaydi. Lingvomadaniy tadqiqotlar ehtimoliy huquqiy nizolarning oldini olgan holda oziq-ovqat yorliqlarining milliy va xalqaro qonunlarga muvofiqligini ta’minlashga ko‘maklashadi. Caputo va Faccini ta’kidlashicha, "yorliqlar qonunchilik talablariga muvofiq allergenlar, yaroqlilik muddati va ozuqaviy tarkib to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni taqdim etishi shart" (Caputo va Faccini. 2018. 112-bet). Salomatlik bilan bog‘liq aniq va ravshan berilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni noaniqlashtirib berib bo‘lmaydi. Hersey & Andrewsning fikricha, "Xolesterinsiz" yoki "kam yog‘li" kabi chalg‘ituvchi yoki noaniq da’volar

iste'molchilarni mahsulotning sog'liq uchun foydalarini haddan tashqari yuqori baholashga olib kelishi mumkin (Hersey & Andrews, 2014, 40-45-betlar).

Shu o'rinda tovar yorliqlarini tayyorlashda mavjud normativ-huquqiy bazaning muhimligi, iste'molchi manfaatlari, ishlab chiqaruvchi majburiyatlari va bunda lingvistikaning ahamiyati haqida to'xtalib o'tish o'rinlidir. Bu jarayon iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, qonunchilik talablariga rioya qilish va mahsulot marketingini samarali amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Xususan, Jahon Savdo Tashkiloti(WTO)ning Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risida(TBT)gi kelishuvi bu boradagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur **Kelishuv** xalqaro savdo jarayonlarini tartibga solish uchun 1995-yil 1-yanvarda kuchga kirgan bo'lib, texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarining kamsitishlarga yo'l qo'ymasligi va savdoga keraksiz to'siqlar yaratmasligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, u Jahon Savdo Tashkiloti a'zolarining inson salomatligi va xavfsizligini muhofaza qilish yoki atrof-muhitni muhofaza qilish kabi qonuniy siyosat maqsadlariga erishish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqini tan oladi. Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risida(TBT)gi kelishuv a'zolari savdoni osonlashtirish vositasi sifatida xalqaro standartlarga asoslanishini qat'iy rag'batlantiradi. Shaffoflik qoidalari orqali u bashorat qilinadigan savdo muhitini yaratishga ham qaratilgan[JST hujjati, 1995].

Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risida(TBT)gi kelishuv quyidagi asosiy normalarni qamrab oladi:

– **Texnik reglamentlar va standartlar:** davlatlar tomonidan belgilangan texnik talablar xalqaro savdo uchun to'siq yaratmasligi lozim. Bunda davlatlar xalqaro standartlar asosida texnik reglamentlar qabul qilishga intilishi kerak.

– **Muvofiqlikni baholash tartib-qoidalari:** mahsulotning standartlarga muvofiqligini tekshirish tartib-qoidalari xalqaro savdoga g'arazli to'siq bo'lmasligi kerak. Ushbu tartiblar, xususan sertifikatlash, inspeksiya va sinovlar xalqaro talablar bilan mos kelishi lozim.

– **Shaffoflik:** davlatlar texnik talablar va muvofiqlikni baholash jarayonlari haqida boshqa JST a'zolarini xabardor qilishi va maslahatlashuv jarayonlarini ochiq olib borishi kerak.

– **Kelib chiqish yeri asosida kamsitmaslik:** Kelishuvga ko'ra, mahsulotlar kelib chiqish mamlakati asosida kamsitilmasligi kerak. Mahsulotlarga qo'yiladigan texnik talablar ham ichki, ham tashqi bozorga bir xil qo'llanishi lozim.

Shuningdek, Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risida(TBT)gi kelishuv iste'molchilar uchun ham zarur bo'lgan jihatlarni qamrab oladi:

• **Xavfsizlik va sifatni ta'minlash:** TBT orqali davlatlar xavfsiz va sifatli mahsulotlarni ta'minlash uchun texnik reglamentlar joriy qilishi mumkin. Bu huquqiy mexanizm iste'molchilarga sifatli mahsulotlar sotib olishni ta'minlaydi.

• ***Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar:*** TBT bitimi xalqaro standartlarga mos mahsulotlarni bozorda mavjud qilishga yordam beradi, bu esa iste'molchilar uchun keng tanlov va sifatli tovarlarni taqdim etadi.

Yuqoridagi normalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Savdodagi texnik to'xislar to'g'risida(TBT)gi kelishuv xalqaro savdoni rag'batlantirish, texnik to'xislarni kamaytirish va mahsulot sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardosh muhit yaratadi va iste'molchilar uchun xavfsiz, yuqori sifatli mahsulotlarni kafolatlaydi. Shuningdek, tovarlarni xalqaro me'yorlar asosida lingvistik ekspertizadan o'tkazish imkonini yaratadi.

Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarning muhimligi nuqtayi nazaridan "Kellogg's Frosted Mini-Wheats" sudlov ishini misol keltirish mumkin. Bunda kompaniyaning don mahsuloti bo'yicha reklamasida sog'lik bilan bog'liq da'volari masalasi ko'rib chiqilgan. Da'vo arizasi Kellogg's muzlatilgan mini-bug'doylar bolalarning diqqat, xotira va boshqa aqliy qobiliyatlarini 20% gacha yaxshilashi mumkinligini ta'kidlovchi bir qator reklamalardan so'ng kiritilgan. Bu da'volar Kellogg's o'tkazgan tadqiqotga asoslangan edi. Biroq, da'vogarlar bu da'volar chalg'ituvchi va ilmiy jihatdan asoslanmagan deb ta'kidladilar. Da'vogarlar Kellogg'sning reklamalari muzlatilgan mini-bug'doylarni iste'mol qilish bolalarda sezilarli aqliy takomillashuvga olib keladi, degan taassurot qoldirishini ta'kidladilar. Ularning fikricha, bu da'volar noto'g'ri edi, chunki haqiqiy tadqiqot faqat ozchilik bolalarda diqqatning yaxshilanishini ko'rsatgan va o'rtacha yaxshilanish 20% dan ancha past bo'lgan. Bundan tashqari, da'vogarlar donning ozuqaviy tarkibi bunday da'volarni oqlamasligini, bu esa iste'molchilarni mahsulotning ilmiy jihatdan isbotlanmagan sezilarli aqliy foydalarga ega ekanligiga ishontirishini ta'kidladilar. Kellogg's o'z marketingini himoya qilib, ba'zi ijobiy natijalarni ko'rsatgan tadqiqotlarni ko'rsatgan bo'lsa-da, sud ishi yakunida Kellogg'sning tovon puli to'lashga rozi bo'lishi va muzlatilgan mini-bug'doylarning aqliy afzalliklarini bo'rttirib ko'rsatadigan maxsus reklamani to'xtatishi bilan yakunlandi(Kellogg's Frosted Mini-Wheats sudlov ishi, 2009)

Milliy qonunchilikda ham xalqaro talablardan kelib chiqqan holda Tovar yorliqlarining normativ-huquqiy, lingvistik talablari belgilangan. Mazkur hujjatlardan eng muhimlaridan biri sifatida 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunidir[O'RQ-746-son, 2022].

Mazkur Qonunning 6-moddasi tovar (ish, xizmat)lar to'g'risidagi ma'lumot deb nomlangan bo'lib, unda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart ekanligi, bunda mazkur ma'lumot tovarlarning

etiketkalarida, tamg'alarida, texnik hujjatida yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ayrim turlari uchun qabul qilingan boshqa usulda iste'molchilarga yetkazilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur moddada tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart ekanligi qayd etilgan:

tovarning (ishning, xizmatning) nomi;

tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;

tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan, o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;

narxi (tarifi) va sotib olish shartlari;

ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;

tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;

tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) to'liq nomi va joylashgan eri (yuridik manzili), litsenziyalar va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning QR-kodi (matritsali shtrix kodi), import qilinadigan tovarlar uchun esa ishlab chiqaruvchining hamda import qiluvchining nomi va joylashgan yeri (yuridik manzili);

tovar kelib chiqqan mamlakatning nomi;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek, ta'mirlashlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarning manzillari;

tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;

teatr-konsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalanish to'g'risidagi axborot.

4. Ekologik barqarorlik va eko-yorliqlarning turli madaniyatlarda aks etishi

Ekologik barqarorlikka e'tiborning kuchayishi mahsulotlarning atrof-muhitga ta'sirini ko'rsatadigan "organik" va "tabiiy toza" kabi eko-belgilarning ko'payishiga olib keldi. Biroq, Klaassen va Bouwman ta'kidlaganidek, "iste'molchilar ko'pincha noaniq yoki standartlashtirilmagan atamalarga shubha bilan qarashadi" (Klaassen va Bouwman, 2013, 72-bet). Eko-belgilar bo'yicha izchil dunyo standartlarining yo'qligi iste'molchilar orasida chalkashlik va ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, "organik" kabi atamalar aniq belgilanmagan yoki tartibga solinmagan hududlarda bunday holatlar uchraydi. Lingvomadaniy tadqiqotlar ekologik barqarorlikni tushunish va ifodalashdagi madaniy farqlarni aniqlab, eko-belgilarning

iste'molchilarga mos kelishini va mahsulotning atrof-muhitga ta'sirini aniq aks ettirishini ta'minlashga yordam beradi.

5. Dunyo bozorida mahalliyashtirishning roli va ahamiyati

Tobora globallashib borayotgan dunyoda oziq-ovqat yorliqlari turli bozorlarning til xususiyatlari va madaniy me'yorlariga moslashtirilishi lozim. Mahalliyashtirish shunchaki tarjimadan tashqari, yorliqning tili, tasvirlari va xabarlarini maqsadli auditoriyaning madaniy muhitiga moslashtirish jarayonidir. Chen, Arnould va Epp ta'kidlashicha, "yorliqlar mahalliy bozorlarning til xususiyatlari va madaniy me'yorlarini aks ettirish uchun moslashtirilishi kerak, aks holda iste'molchilarni begonalashtirish xavfi mavjud" (Chen, Arnould va Epp, 2014, 94-bet). Masalan, "tabiiy" atamasi bir madaniyatda sog'liqqa oid kuchli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, boshqasida esa ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Samarali mahalliyashtirish oziq-ovqat yorliqlarining turli bozorlardagi iste'molchilarga ma'qul kelishini ta'minlaydi, shu bilan birga madaniy dolzarblikni saqlab qoladi va potentsial madaniy xatolarga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlari matnida til va madaniyatning o'zaro ta'sirini ifodalash uchun lingvomadaniy tadqiqotlar muhimdir. Globallashuv va iste'molchilarning salomatlik hamda barqarorlik haqidagi xabardorligi oshgani sayin, oziq-ovqat yorliqlari iste'molchilarning madaniy qadriyatlari va hissiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga aniq va shaffof axborot manbai bo'lib xizmat qilishi kerak. Oziq-ovqat yorliqlarining lingvomadaniy jihatlarini o'rganish orqali lingvomadaniy tadqiqotlar yorliqlarning ham qonuniy, ham madaniy muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, u iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga foyda keltiradigan yanada shaffof, samarali va madaniy jihatdan sezgir oziq-ovqat yorliqlari tizimiga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

M.Madiyeva. Brendlarning nominativ funksiyasi va lingvomadaniy aspekti // Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) diss. avtoreferati. – T., 2023. – B. 14.

Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press. P. 128

Krishna, A. (2012). An Integrative Review of Sensory Marketing: Engaging the Senses to Affect Perception, Judgment, and Behavior. *Journal of Consumer Psychology*, 22(3), 44-58.

Caputo, S., & Faccini, L. (2018). Regulatory Compliance in Product Labeling: A Case Study of the EU Food Labeling Law. *Journal of European Consumer Law*, 12(3), 110-121.

Hersey, A., & Andrews, J. C. (2014). Nutrition and Health Claims: Regulatory Framework and Consumer Interpretation. *Health Communication*, 29(1), 40-55.

Jahon Savdo Tashkiloti(WTO)ning Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risida(TBT)gi kelishuvi. Available at: https://www.wto.org/english/tratop_e/tbt_e/tbt_e.htm

“Kellogg's Frosted Mini-Wheats” sudlov ishi. 2009. Available at: <https://www.ftc.gov/news-events/news/press-releases/2009/04/kellogg-settles-ftc-charges-ads-frosted-mini-wheats-were-false>

O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-5828750>

Klaassen, C. M. P., & Bouwman, L. (2013). Eco-Labeling and Sustainability Claims in Marketing: Consumer Awareness and Trust. *Journal of Sustainable Development*, 6(1), 68-80.

Chen, R., Arnould, E. J., & Epp, A. (2014). Cultural Branding and Symbolic Consumption in the Global Marketplace. *Journal of Marketing Research*, 51(5), 85-

IBORALARNI TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Elyor Mustafayev*

Annotatsiya

Iboralar semantik jihatdan bir butunlikni ifodalab, murakkab grammatik tuzilishga ega bo‘lgan frazeologik birliklardir. Ular har bir tilning o‘ziga xos ajralmas boyligi hisoblanadi. Iboralar ko‘pincha ko‘chma ma’noga ega bo‘lishi va gapda yaxlit bitta vazifada kelishi tufayli tarjima jarayonida bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababdan, zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri – bu iboralar tarjimasidir. Ushbu maqolada iboralar ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, ekvivalent, muqobil variant kabi tarjima usullari va ularning bir-biridan farqi o‘rganilib, har ikki tilda misollar yordamida asoslangan. Bundan tashqari, muallif bugungi kunda iboralar tarjimasida yuzaga keladigan dolzarb muammolarga ham to‘xtalib o‘tgan ularning yechimlari borasida o‘z fikr va xulosalarini bergan.

Kalit so‘zlar: *iboralar tarjimasi, frazeologik birlik, ko‘chma ma’no, tadqiqot obyekti, lingvistik xususiyat, ekvivalent, muqobil variant.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TRANSLATION OF PHRASES (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES)

Abstract

Phrases are phraseological units with a complex grammatical structure, representing a semantic unity. They are an integral wealth of each language. Due to the fact that phrases often have figurative meaning and function as a whole in a sentence, they create a number of difficulties in the translation process. For this reason, one of the most important objects of research in modern linguistics is the translation of phrases. This article analyzes the specific linguistic features of translating phrases from English into Uzbek. In particular, translation methods such as equivalents and alternatives, as well as their differences, were studied and substantiated using examples in both languages. In addition, the author also touched upon the current problems arising today in the translation of phrases and gave his thoughts and conclusions about their solutions.

Key words: *translation of phrases, phraseological unit, figurative meaning, object of research, linguistic feature, equivalent, alternative.*

* Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi, elyormustafayev1993@gmail.com

So‘nggi yillarda lingvistik tadqiqot ishlarida tarjima masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa lingvistik tarjimashunoslik yo‘nalishi taraqqiy etib borayotganidan dalolat beradi. Tarjimashunoslikda ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular aynan frazeologiya, ya‘ni iboralar tarjimasi bilan bog‘liq. Bu kabi masalalar yechimi, albatta, tarjimondan chuqur bilim va ko‘nikmalar talab qiladi. Ingliz tilidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Jumladan, Shekspir asarlari, Bayronning she‘riy to‘plamlari ilk tarjima asarlar sifatida baholanadi [Q.Musayev, 2005: 15]. Keyinchalik ingliz tilidan tarjima qilish ancha jadallashib ketdi. Natijada, tarjimashunoslikning yangi usullari paydo bo‘ldi va tarjima sifati yaxshilandi.

Iboralarni tarjima qilish muammolari ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan: V.S.Vinogradov, S.Florin, Y.F.Arsenteva, A.V.Fedorov, V.N.Komissarov va boshqalar shular jumlasidan. O‘zbek tilshunosligida tarjimashunoslik bilan G‘.Salomov, S.Mamajonov, N.Komilov, J.Sharipov, N.Vladimirova, E.Ochilov, Y.Po‘latov, I. G‘ofurov, O.Mo‘minov, A.Rashidov, R.Turg‘unova, Z.Alimova, N.Qambarov kabi olimlar shug‘ullangan, xususan ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimalarga doir tadqiqotlar Q.Musayev, M.Baqoyeva, S.Shukrullayeva, N.G‘iyosov, S.Sobirov, Q.Siddiqov tomonidan olib borilgan.

A. Iminov ko‘p o‘rinlarda asl matnda yo‘q bo‘lgan, biroq o‘zbek tilida mavjud frazeologizmlar, turg‘un iboralar, maqol, matal va aforizmlardan unumli foydalanishga erishgan. Bu esa asar asliyatida mavjud bo‘lmagan, biroq asar muallifi qalami va stilistikasiga xos badiiyatni yaratishga xizmat qilgan [Raximova, 2019, 16]. Shu bois, iboralar tarkibidagi mazmun komponentlarining polisemantik xususiyatlarini nazarga olmasdan turib, ularni tom ma‘noda tarjima qilib bo‘lmaydi. Iboralar tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima emas, balki, eng avvalo, semantik ma‘no va mazmundorligiga e‘tibor qaratish lozim.

Iboralar tarjimasi yozma yoki og‘zaki nutqqa obrazlilik va ohangdorlik berib, asarni ixcham va ta’sirchan qiladi. Shuning uchun tarjima ham original tildagi singari obrazlilik, asllikni saqlab qolishi va yaqqol ma‘no berishi lozim [Jo‘rayev, 1982, 37].

Iboralarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda, asosan, quyidagi yo‘llardan foydalaniladi:

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima. Ko‘pincha iboralar turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlarini o‘xshashligi sababli tarjimada tarjimonga yengillik beradi. Masalan, “cold war”, “to suck somebody’s blood” kabi iboralar o‘zbek tilida “sovuq urush”, “birovning qonini so‘rmoq” iboralariga mutlaq ekvivalent bo‘lib, ularni bemalol qo‘llash mumkin.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima. Iboralar tarjimasida ekvivalent tarjima topilmaganda, tarjimon muqobil variantlardan foydalanadi. Bunda ikki tildagi

iboralar o‘zaro muqobillik munosabatida bo‘ladi va bir-birining o‘rnini to‘ldira oladi. Biroq iboralar grammatik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lsada, ularning leksik tarkibi butunlay farq qilishi mumkin. Masalan, inglizlar kamyob, qimmatbaho biror narsani “region’s milk” iborasi bilan ifodalasa, o‘zbeklar unga nisbatan “anqoning urug‘i” iborasini qo‘llaydi. Biroq iboralarni har doim ham variantlar asosida tarjima qilish uslubning chalkashligiga, tarjimaning chegaralanib qolishi va natijada iboralarning uzluksiz takrorlanishiga olib keladi [G‘.Salomov, 1961: 38].

3. Kalka usulida tarjima. Ba‘zan bir tildagi iborani ikkinchi tilda ekvivalent yoki muqobil variant orqali tushuntirish imkoniyati mavjud bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun, bu holatda kalka usuli – so‘zma-so‘z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bunday tarjima usulida iboraning ma‘nosi, uslubiy vazifasi to‘liq saqlanib qoladi. Ingliz tilidagi “cold arms” iborasi “sovuq qurol” ma‘nosida kalkalangan.

4. Tasviriy usulda tarjima. Yuqoridagi uch usulda ham tarjima qilish imkoni bo‘lmaganda, tarjimon ma‘noni tasviriy yo‘l bilan berishga harakat qiladi. Ushbu tarjima usuli nisbatan erkin bo‘lib, tarjimon tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni bemalol tanlaydi. “to make a mountain out of a molehill” iborasini “bo‘rttirmoq” fe‘li bilan almashtirish imkoni bo‘lsa-da, “pashshadan fil yasamoq” iborasi bilan almashtirish iborani yanada ta’sirchan va tushunarli qiladi.

Aksariyat iboralar ijtimoiy va madaniy konteksga bog‘liq bo‘lib, ma‘noni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Bakerning ta’kidlashicha, iboralarni tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat tarjimaning nazariy jihatlarini, balki iboradagi nozik ko‘chma ma’nolarni ham yaxshi tushunishi zarur. Uning fikricha, matnni tarjima qilishda iboraning ma‘nosi va shaklini hisobga olish muhimdir. Iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish qiyin bo‘lganligi sababli, uning konteksi va ma‘no ekvivalentiga e’tibor qaratish kerak [Baker, 2011: 75].

Iboralarni tarjima qilishda bitta usuldan foydalanish tarjimada aniqlikni keltirib chiqarmaydi, aksincha ko‘zlangan mazmunga putur yetkazadi. Bu borada O.V. Petrova shunday deydi: “Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o‘rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so‘z birikmalarini hosil qilish xususiyatlari bilan bog‘liq” [O.Petrova, 2006: 18]. Iboralarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi tarjimini yanada murakkablashtiradi.

Ba‘zan tilda o‘ziga xos umumiydan belgilardan tashqari maxsus belgilar ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tildagi iboralar milliy va madaniy xususiyatlarni e’tiborga olgan holda tarjima qilinishi lozim. “as red as a cherry” – “olmaday qizil”, “when pigs fly” – “tuyaning dumi yerga tekkanda” kabi iboralar xalqning o‘ziga xos madaniyati, dini va urf-odatlaridan kelib chiqib tarjima qilinadi, aks holda tarjimadan kutilgan ma‘no anglashilmaydi.

Yuqoridagi tarjima usullaridan tashqari e’tibor qaratish lozim bo‘lgan tarjima turlari mavjud bo‘lib ular iboralarning mos kelishi turlaridir. Ular quyidagilar:

1. To‘liq mos kelish: to lose one’s head – kallasini yo‘qotmoq.

2. Qisman mos kelish – leksik va sintaktik jihatdan farq qiladi: to get out of bed on the wrong foot – chap yoni bilan turmoq.

3. Moslashishning bo‘lmasligi – bunda ularga mos birlik mavjud emas, so‘zma-so‘z yoki tasviriy usul yordamida tarjima qilinadi. Misol uchun, “the apple of my eye” (“ko‘zimning nuri”), “to pull one’s leg” (“mazax qilmoq”) [I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, 2012: 156–157].

Shunday qilib, iboralarni tarjima qilishning eng murakkab jihatlaridan biri, bu ularning semantik va vazifaviy tomondan ajralmas ekanligidir. Bundan kelib chiqadiki, iboralarni to‘g‘ridan to‘g‘ri kontekstdan tashqarida tarjima qilish qiyin.

Shuni ta’kidlash kerakki, tarjimada ikki tildagi iboralar asosiy tuzilishining grammatik shaklini saqlab qolish muhim. Masalan, “devorning ham qulog‘i bor – “walls have ears” deyish mumkin, lekin “wall has an ear” deyish mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, tarjimada bir tilning grammatik xususiyat va qoliplari ko‘chirilmaydi, balki tarjima qilinayotgan fikr boshqa bir tilning grammatik qonuniyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta tiklanadi [G‘.Salomov, 1966: 188]. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda faqat grammatikaga asoslanib emas, balki tilning lug‘at boyligi, ya’ni leksik imkoniyatlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Bu ikki til bir-biridan turli til oilasiga mansubligi, madaniyat va urf-odatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Bu esa tarjimani yanada murakkablashtiradi.

Filolog A.V. Fedorov asl nusxa bilan tarjima tili o‘rtasida yuz beradigan grammatik tafovutning uch xil ko‘rinishini qayd etadi:

1. Asl nusxa tilida asar tarjima qilinayotgan tilda bo‘lmagan grammatik element uchraydi.

2. Asar tarjima qilinayotgan tilda asl nusxa tilida bo‘lmagan, lekin tarjima jarayonida ishlatiladigan grammatik elementlar mavjud.

3. Asl nusxa tilida mavjud elementlar bor-u, ammo ularning funksiyalari bir-biridan farq qiladi [A.V. Fedorov, 1958: 179–180].

Bir iborani bir nechta tarjimon turlicha tarjima qilishi mumkin. Bunda mazmunan bir-biriga yaqin tarjima paydo bo‘ladi. Buning sababi tarjimon iboraning obrazlilikini saqlagan holda tarjima qilsa, boshqa biri variantni qo‘llash orqali tarjima qilishi mumkin. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, tarjimada, ayniqsa, iboralarni tarjima qilishda tarjimon matnga o‘zidan biror fikr qo‘shishi yoxud undan biror so‘z va iborani olib tashlashi mumkin emas.

Iboralarni tarjima qilishda yana bir qancha muammolar mavjud. Jumladan:

Madaniy farqlar. Iboralar aksariyat hollarda xalqlarning madaniyatini aks ettiradi. Ingliz tilidagi iboralar o‘zbek tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasli mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “to spill the beans” (“sirni oshkor qilish”)

o‘zbek tilida ekvivalentlik darajasida emas, bu yerda bir xil ma’noni bildirish uchun boshqa ibora qo‘llaniladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri va ko‘chma ma’no. Ko‘p iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish imkonsiz, chunki bu chalkashlik yoki ma’no yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, “kick the bucket” (“o‘lmoq”) iborasi to‘g‘ridan to‘g‘ri olingan bo‘lsa, bu o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Buning o‘rniga bir xil majoziy ma’noni bildiruvchi ekvivalent ibora qo‘llanadi.

Grammatik qonuniyatlar. Ingliz va o‘zbek tillarining grammatik qoidalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu jihat iboralar tarjimasini murakkablashtirishi, uning tuzilishini butunlay o‘zgartirishi ham mumkin. Inglizcha ibora o‘zbek tilidagi ibora bilan bir xil ma’no anglatishi mumkin, lekin ularning grammatik qurilishi mutlaqo farq qilishi mumkin. Masalan, “devorning ham qulog‘i bor – “walls have ears” iborasida ega-kesim munosabati tillar kesimida farq qiladi. Bunga o‘xshash farqlarni tarjima jarayonida ko‘plab uchratish mumkin.

Iboralarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish o‘ziga xos murakkabliklar va muammola keltirib chiqarishi tabiiy. Tarjima jarayonida bunday muammolarga bir qancha yechimlar taklif etish mumkin:

- ingliz va o‘zbek xalqlari madaniyatini tushunish tarjimonga o‘xshash mazmunni ifodalovchi iboralarni tezroq topishga yordam beradi;

- tarjimada so‘zma-so‘z tarjima qilishdan ko‘ra, iboraning asosiy ma’nosiga ustunlik berilishi maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv orqali tarjimada aniqlikka erishiladi;

- agar tarjima to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunarsiz bo‘lsa yoki asosiy tarjima turlari ish bermasa, fikrni o‘zbek tilida mantiqiy tarzda (tasviriy) qayta ifodalash foydali bo‘lishi mumkin.

- tarjima qilishda ibora ishlatilgan kontekstni tushunish juda muhim. Agar tarjimon kontekstni to‘g‘ri tushunmasa, uning nazariy bilimlari har qancha yuqori bo‘lmasin, tarjima butunlay boshqacha ifodalanishi mumkin.

- boshqa tillar singari ingliz va o‘zbek tillari ham doimiy taraqqiyotda, ya’ni bir so‘z yoki ibora iste’moldan chiqib ketishi yoki butunlay boshqa ma’no ifodalashi, yangi variantdoshlari paydo bo‘lishi kabi til hodisalariga duch keladi. Shu sababli, tarjimon o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirib borib, tildagi zamonaviy o‘zgarishlar, yangi paydo bo‘layotgan iboralardan xabardor bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda tarjimada turli xil zamonaviy dasturlar, platformalardan (Google translate, DeepL, AI) foydalanilmoqda. Ular orasida sun’iy intellekt (Artificial intelligence) tilshunoslik va tarjimashunoslikda yangi revolyutsiyani boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur dastur tarjimonlar ishini sezilarli darajada yengillashtirdi. Biroq tarjima dasturlari orqali qilingan ishlardagi xatoliklar iboralarning murakkab semantik va grammatik xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatadi.

Tarjima dasturlari kontekstni his qilolmaydi, tarjimaning nozik xususiyatlaridan foydalana olmaydi. Masalan, Google translate va AI orqali “*break the ice*” iborasini tarjimaga berish orqali quyidagi natijalarga guvoh bo‘lamiz:

Google translate: *break the ice* – muzni sindirish;

Artificial intelligence: *break the ice* – biror narsani boshlamoq.

Bundan ko‘rinadiki, tarjimada dasturlarga to‘liq suyanish tarjimonni noto‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, bu esa tarjimada g‘alaz tushunchalarni qo‘llanishiga olib kelib, umumiy mazmunga putur yetadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida iboralar tarjimasi hozirga qadar tarjima nazariyasining dolzarb mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Frazologik tarjima lug‘atlari ham o‘zining mukammal yechimini topmagan. Buning ustiga, barcha iboralar tarjimasini to‘liq qamrab olish imkonsiz, chunki tildagi doimiy o‘zgarishlar bunga yo‘l bermaydi.

Iboralarni tarjima qilish hech qachon oson bo‘lgan emas. Ular emotsional va ekspressiv ma’no tashish, ko‘chma ma’noga egalik qilish xususiyatiga ega. Bundan tashqari bir til doirasida ham hududiy jihatdan turlicha ma’noda ifodalanishi mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, ekvivalentlar, muqobil variantlar va tasviriy obrazlar kabi tarjima yo‘llaridan to‘g‘ri foydalana olish, tarjimani san’at darajasiga olib chiqadi va asarni qayta jonlantiradi. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi iboralarni ingliz tiliga o‘girish jarayonida madaniyat, grammatika va matn mazmuni kabi omillarni yaxlit holda hisobga olish zarur. Mazkur yondashuvlar orqali yuqori sifatli va aniq tarjimalarni amalga oshirishga erishiladi.

Adabiyotlar

Baker M. In other words: A coursebook on translation. – London: Routledge, 2011.

Fedorov A.V. Vvedeniye v teoriyu perevoda (Lingvisticheskiye problemy) [Introduction to the Theory of Translation (Linguistic Problems)]. – M., 1958.

G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.

Jo‘rayev K. Tarjima san’ati. – Toshkent, 1982.

Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2005.

Petrova O.V. Teoriya perevoda [A Theory of Translation]. – Moscow, 2006.

Raximova Sh.P. Ingliz tili idiomatik iboralarini o‘zbek tiliga o‘girishning lisoniy xususiyatlari. Fil. fan. fal. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2019.

Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent, 1961.

Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent, 1966.

O'ZBEK TILI BADIY MATNI LINGVOMADANIY POTENSIALINING IFODALANISH USULLARI

Shaxloxon Tursinbayeva*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiy matnlarining lingvomadaniy imkoniyatlaridan foydalanishning turli usullari o'rganiladi. Unda o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan, uning adabiyotiga singdirilgan boy madaniy merosidan til o'rganish, madaniy ong va adabiy durdonalarni qadrlashni oshirishda qanday foydalanish mumkinligi o'rganiladi. Tadqiqot o'zbek adabiy asarlarida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi, bu matnlarni ta'lim muhitiga integratsiyalash usullarini yoritadi. Maqolada adabiy misollarni har tomonlama tahlil qilish orqali tilshunoslar va madaniyat amaliyotchilariga o'zbek adabiy matnlarining o'ziga xos til va madaniy boyliklaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy strategiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbek adabiy matnlari, til salohiyati, madaniy salohiyat, madaniy meros, o'zbek tili, adabiy tahlil, madaniy o'ziga xoslik, madaniyatlararo muloqot.*

Abstract

This article explores different ways of using the linguistic and cultural possibilities of Uzbek literary texts. It explores how the unique features of the Uzbek language, the rich cultural heritage embedded in its literature can be used in language learning, cultural awareness and appreciation of literary masterpieces. The research examines the relationship between language and culture in Uzbek literary works, and sheds light on ways of integrating these texts into the educational environment. The article offers linguists and cultural practitioners practical strategies for effective use of specific linguistic and cultural resources of Uzbek literary texts through comprehensive analysis of literary examples.

Key words: *Uzbek literary texts, language potential, cultural potential, cultural heritage, Uzbek language, literary analysis, cultural identity, intercultural communication.*

Til va madaniy elementlarning adabiy matnlar ichida integratsiyalashuvi til va uning madaniy o'ziga xosligini saqlash, uzatish va rivojlantirish uchun hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek adabiy matnlari kontekstida ko'p asrlik tarixiy,

* Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti, shaxloxontursinbayeva@gmail.com

ijtimoiy va madaniy dinamikani aks ettiruvchi bu integratsiya ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyoti o'zining boy she'riy va nasriy asarlari bilan nafaqat o'zbek tilining lingvistik nozikliklarini namoyish etadi, balki o'zbek xalqining rang-barang madaniyatini ham o'zida mujassam etadi. Ushbu matnlarni o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tushunish imkonini beradi, lingvistik tuzilmalar va madaniy iboralar qanday qilib o'zaro bir-birini xabardor qilishini va bir-birini mustahkamlashini ochib beradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zbek badiiy matnlari o'zbek tiliga xos bo'lgan turli sintaktik, morfologik va fonologik xususiyatlarni tekshirish uchun qulay zamin yaratadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, aglyutinativ morfologiyasi, unli tovushlar uyg'unligi va alohida sintaktik tartib bilan ajralib turishini hisobga olsak, bu tadqiq hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu lisoniy xususiyatlar tilning strukturaviy o'ziga xosligini aks ettiribgina qolmay, balki o'zbek xalqi madaniy ongiga chuqur singib ketgan madaniy tuslar, idiomatik iboralar, kontekstual ma'nolarning tashuvchisi bo'lib ham xizmat qiladi. Jumladan, o'zbek she'riyatida metafora, allegoriya va ramziy tilning tez-tez qo'llanilishi bilvosita va puxta ifodaga bo'lgan madaniy afzallikni ta'kidlaydi, buni klassik fors va turkiy adabiy an'analardan kuzatish mumkin.

Madaniy nuqtayi nazardan o'zbek adabiyoti xalqning tarixiy rivoyatlari, ijtimoiy qadriyatlari va falsafiy dunyoqarashining ombori bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy kabi atoqli arboblarning asarlari shunchaki badiiy ifoda emas, balki o'zbek xalqining umumiy kechinmalari va donishmandligini aks ettiruvchi madaniy kodlar va tarixiy ma'lumotlar bilan mujassamlashgandir. Bu matnlar an'anaviy urf-odatlar, ijtimoiy ierarxiyalar va o'zbek jamiyatining rivojlanish dinamikasi haqida bebaho fikrlarni taqdim etadi. Qolaversa, doston va og'zaki an'analari kabi folklor unsurlarining adabiy matnlar tarkibiga kirib borishi adabiy manzarasini shakllantirishda og'zaki nutq madaniyatining ahamiyatini ko'rsatadi.

Ta'kidlash mumkinki, o'zbek adabiy matnlarini o'rganish ilmiy va madaniy nutqda davom ettirish o'zbek tilining lingvistik rang-barangligi va madaniy teranligini qadrlashni yanada oshiradi. Lingvistik ilmiy manbalar ta'kidlaganidek, lingvistik tahlilni madaniyatshunoslik bilan birlashtirgan fanlararo yondashuv ta'lim, tarjima va madaniyatlararo sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion metodologiya va tushunchalarni keltirib chiqarishi mumkin (M.Halliday, 1978). Shuning uchun ham ushbu maqola o'zbek adabiy matnlarining lingvomadaniy imkoniyatlaridan foydalanish usullarini yoritib berish, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va ta'limning kengroq sohalariga hissa qo'shadigan amaliy strategiyalar va nazariy fikrlarni taqdim etishga qaratilgan.

O'zbek adabiy matnlarini tahlil qilish lingvistik tahlilni madaniy talqin bilan bog'laydigan nozik yondashuvni talab qiladi. O'zbek adabiyoti turkiy, fors va arab

ta'sirining o'ziga xos uyg'unligi bilan ilmiy izlanishlar uchun murakkab til va madaniy manzarani taqdim etadi. Ushbu matnlarning lingvistik va madaniy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun ushbu bo'limda zamonaviy va klassik tadqiqot manbalaridan olingan ma'lumotlarni birlashtirgan lingvistik, madaniyat va adabiy nazariyalarga asoslangan ko'p tarmoqli metodologiya qo'llaniladi.

O'zbek adabiy matnlari til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bu tahlil o'zbek tilining adabiy matnlar tarkibidagi morfologik tuzilmalari, sintaktik qoliplari, semantik sohalari kabi asosiy lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, u ushbu lingvistik elementlarga murakkab tarzda to'qilgan madaniy motivlar, ramzlar va rivoyatlarni o'rganadi. Tadqiqot til va madaniyat bir-birini tashkil etuvchi, har biri bir-birini shakllantiradigan va aks ettiruvchi lingvistik nisbiylik (Uorf, 1956) va madaniy semiotikaning (Lotman, 1990) nazariy asoslariga asoslanadi.

O'zbek adabiyotining ahamiyatli jihatlaridan biri nafaqat uslubiy vositalar, balki chuqur madaniy ma'nolarni ham ifodalovchi majoziy til, jumladan metafora, o'xshatish, giperbolalardan keng foydalanishdir. Masalan, o'zbek she'riyatida tez-tez uchrab turadigan mehmondo'stlik, mardlik, muhabbat mavzulari nafaqat individual tuyg'ularning ifodasi, balki o'zbek xalqining ijtimoiy qadriyatlari, tarixiy kechinmalarining ham ko'zgusidir. Ushbu tadqiqotda batafsil adabiy tahlil orqali bunday lingvistik iboralar madaniy bilimlar va ijtimoiy me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgani, o'zbek tilida so'zlashuvchi jamiyat dunyoqarashi haqida tushunchalar berilganligi o'rganiladi.

Qolaversa, o'zbek adabiyotida ko'pincha tarixiy va afsonaviy unsurlarni o'zida mujassam etgan hikoya uslubidan foydalaniladi, madaniyatni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi qatlamli hikoya qilish uslubi yaratiladi. Ushbu stilistik tanlov kengroq turkiy og'zaki an'anaga mos keladi, bu yerda hikoya qilish jamoaviy xotira va o'zlikni mustahkamlovchi umumiy faoliyat sifatida ishlaydi. Ushbu hikoya tuzilmalarini nutq tahlili obyektiv orqali tahlil qilish (Gee, 2004) tilning ushbu matnlar ichida madaniy ma'noni yetkazish va ijtimoiy birlikni rivojlantirish uchun qanday ishlashini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotda qabul qilingan metodologiya sifatli xarakterga ega bo'lib, matn tahlili, nutq tahlili va etnolingvistik yondashuvlarning kombinatsiyasidan foydalanadi. Birlamchi ma'lumotlar turli tarixiy davrlarga oid saralangan o'zbek adabiy matnlaridan iborat bo'lib, Alisher Navoiy kabi mumtoz asarlardan tortib, hozirgi zamon bitiklarigacha. Bu tanlov o'zbek adabiyoti tarkibidagi til va madaniy elementlar evolyutsiyasini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Matnni tahlil qilish: Bu usul matnlar ichidagi til xususiyatlari va madaniy motivlarni tizimli ravishda kodlash va turkumlashtirishni o'z ichiga oladi. Ayrim lisoniy tuzilmalarning, masalan, fe'l shakllari yoki leksik tanlovlarning chastotasini

miqdoriy baholash orqali tadqiqot o'zbek adabiyotidagi kengroq til yo'nalishlaridan darak beruvchi qoliplarni aniqlaydi. Matn tahlili madaniy ramzlar va mavzularga ham taalluqli bo'lib, ularning turli vaqt va janrlarda tarqalishi va o'zgarishini ta'kidlaydi.

Diskurs tahlil: matn tahlili natijalariga asoslanib, nutq tahlili matnlar ichidagi tilning kontekstual ma'nolarini o'rganish uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuv tilning ijtimoiy voqelikni qurish, madaniy o'ziga xosliklarni muhokama qilish va yashirin madaniy bilimlarni yetkazish uchun qanday ishlatilishini o'rganadi. Masalan, o'ziga xos hurmat, xushmuomalalik strategiyalari yoki metafora tilidan foydalanish o'zbek tilida so'zlashuvchi dunyoda keng tarqalgan ijtimoiy ierarxiya va madaniy munosabatlarni ochib berishi mumkin.

Etnolingvistik yondashuv: til xususiyatlarini madaniy ma'nolar bilan bog'lash uchun tadqiqot etnolingvistik nuqtayi nazardan foydalanadi, bu tilni so'zlashuvchilarning ijtimoiy amaliyoti va e'tiqod tizimlari tomonidan shakllantirilgan madaniy artefakt sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuv, ayniqsa, o'zbek adabiy matnlarida kattalarga hurmat, jamoalar hamjihatligi, tabiatga hurmat kabi madaniy qadriyatlarining aks etishi va davom ettirishini tahlil qilishda qo'l keladi. Etnolingvistik tahlil matnlarning yanada yaxlit talqinini ta'minlash uchun adabiy ma'lumotlarni etnografik tadqiqotlar va madaniyat tarixi bilan o'zaro bog'lashni ham o'z ichiga oladi.

Til va madaniyat o'rtasidagi dinamik aloqani hisobga olgan holda, o'zbek adabiy matnlarini doimiy ravishda o'rganish nafaqat lingvistik va madaniy fanlarni boyitibgina qolmay, balki til ta'limi va madaniyatlararo muloqot uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishini taxmin qilish mumkin. Lingvistik ilmiy manbalar ta'kidlaganidek, til o'rgatishda madaniy jihatdan o'ziga xos materiallarni integratsiyalash o'quvchilarning lingvistik kompetentsiyasini va madaniy ongini oshiradi (Kramsch, 1993; Byram, 1997). O'zbek tili kontekstida bu yondashuv til ko'nikmalarini va madaniy savodxonlikni o'rgatish uchun badiiy matnlardan foydalanadigan innovatsion pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin.

Qolaversa, globallashuv madaniyatlararo kompetentsiyaga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirar ekan, o'zbek adabiy matnlarini tahlil qilishdan olingan tushunchalar o'zbek tili va madaniyatining nozik jihatlariga sezgir bo'lgan madaniyatlararo muloqot modellarini yaratish haqida ma'lumot berishi mumkin. Ushbu natija Halliday (1978) tizimli funksional tilshunosligi bilan mos keladi, bu tilning individual tajribalar va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida vositachilik qiluvchi ijtimoiy semiotik tizim sifatidagi rolini ta'kidlaydi.

O'zbek adabiy matnlarining lingvistik va madaniy jihatlarini tizimli tahlil qilib, bu tadqiqot nafaqat o'zbek adabiyotini akademik tushunishga hissa qo'shadi, balki uning imkoniyatlaridan kengroq ta'lim va madaniyatlararo kontekstlarda foydalanish

uchun asos yaratadi. Shunday ekan, ushbu tadqiqot natijalari o'zbek adabiy an'analari til va madaniyatning boy o'zaro ta'sirini yanada tadqiq etuvchi kelgusi tadqiqotlarga zamin yaratishi kutilmoqda.

O'zbek adabiy matnlarini tahlil qilish natijasida o'zbek tili tarkibidagi til tuzilmalari va madaniy ifodalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib beruvchi bir qancha muhim xulosalar berildi. Matn tahlili, nutq tahlili va etnolingvistik yondashuvlardan foydalangan holda ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotining ham lingvistik manba, ham madaniy ombor sifatida qanday ishlashini chuqurroq tushunishga yordam beradigan asosiy qonuniyat va tushunchalarni aniqladi. Bu topilmalar o'zbek adabiy matnlarining til bilimini, madaniy savodxonligini oshirish va madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishdagi imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

1. Morfologik va sintaktik tahlillar

Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek adabiy matnlarida turkiy tillarga xos xususiyat bo'lgan aglyutativ morfologiyadan qo'shimchalar birikmasi orqali murakkab ma'nolar yasashda ko'p foydalaniladi. Bu morfologik boylik nozik ifodalash imkonini beradi va o'zbek adabiyotining stilistik o'ziga xosligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, sintaktik tahlil predmet-obyekt-fe'l tartibining keng qo'llanilishini ko'rsatadi, bunda she'riy matnlarda urg'u va ritmik effekt uchun inversiya qo'llaniladigan o'zgarishlar kuzatiladi. Ushbu sintaktik tanlovlar nafaqat stilistik, balki ushbu matnlar yetkazishga intilayotgan madaniy hikoyalar bilan chuqur bog'langan.

2. Leksik semantika va obrazli til

Tadqiqotda o'zbek madaniy qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlarining timsoli bo'lgan madaniy o'ziga xos leksemalar va idiomatik iboralarning yuqori chastotasi aniqlandi. Masalan, mehmondo'stlik, qarindosh-urug'lik, tabiat bilan bog'liq atamalar ko'p qo'llaniladi, bu ularning o'zbek madaniyatida markaziy o'rinni egallaganligini ko'rsatadi. Majoziy til, jumladan, metafora va allegoriyalar mavhum tushunchalar va his-tuyg'ularni yetkazish uchun keng qo'llaniladi, ko'pincha tabiiy tasvirlar va an'anaviy ramzlardan foydalaniladi. Bu lug'aviy boylik nafaqat matnlarning estetik jozibadorligini oshiradi, balki madaniy tarbiya va o'ziga xoslikni mustahkamlash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

3. Fonologik xususiyatlar

Fonologik tahlil o'zbek she'riyati va nasrining evfonik sifatiga xizmat qiluvchi fonotaktik cheklov sifatida unlilar va undoshlar uyg'unligidan foydalanishni aniqladi. Mumtoz o'zbek she'riyatining o'ziga xos belgisi bo'lgan bu fonologik xususiyatlar badiiy matnlarda ritmik va ohangdor oqim yaratishda strategik foydalaniladi.

1. Ijtimoiy normalar va qadriyatlarni ifodalash

Madaniy tahlilda o'zbek adabiy matnlari jamiyat normalari va qadriyatlarining ko'zgusi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Keksalarga hurmat, jamoa hamjihatligi va tabiatga hurmat kabi mavzular takrorlanib turadi, bu adabiyotning madaniy davomiylik vositasi sifatida qanday ishlashini ko'rsatadi. Ushbu matnlarda ijtimoiy ierarxiyalar, gender rollari va axloqiy dilemmalar tasviri o'zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy tuzilishi haqida qimmatli tushunchalar beradi va ularni tarixiy va zamonaviy madaniyat dinamikasini tushunish uchun muhim manbaga aylantiradi.

2. Og'zaki an'analarni saqlash

Yozma adabiy shakllar ichida epik rivoyatlar va xalq ertaklari kabi og'zaki an'analarning integratsiyalashuvi diqqatga sazovor topilma hisoblanadi. Bu sintez nafaqat o'zbek tilining og'zaki merosini saqlab qoladi, balki uni zamonaviy auditoriyaga moslashtiradi, uning doimiy dolzarbligini ta'minlaydi. Og'zaki ijodga xos bo'lgan formulali iboralar, takroriy tuzilmalar va mnemonik vositalardan foydalanish ko'plab adabiy asarlarda yaqqol namoyon bo'lib, og'zaki va yozma madaniy ifodalar o'rtasidagi uzviylikni ta'kidlaydi.

3. Simvolizm va mifologik murojaatlar

O'zbek adabiy matnlarida mifologik shaxslar, tarixiy voqealar va madaniy arxetiplarga tez-tez murojaat qilingan simvolizm asosiy o'rin tutadi. Ushbu ramzlar ko'pincha bir necha darajalarda ishlaydi va matnlarning talqin qilish imkoniyatlarini boyitib, to'g'ridan-to'g'ri va metaforik ma'nolarni beradi. Misol uchun, tarixiy janglar yoki afsonaviy qahramonlarga havolalar nafaqat hikoya elementlari, balki zamonaviy kurashlar va intilishlar uchun allegoriya sifatida ham xizmat qiladi, shu bilan o'tmish va hozirgi madaniy kontekstlarni bog'laydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiy matnlarining lingvistik va madaniy boyligi til o'rganishda ham, madaniyatlararo muloqotda ham ta'lim natijalarini yaxshilash uchun katta salohiyatga ega. Ushbu matnlarni til o'quv dasturlariga kiritish o'quvchilarga yanada chuqurroq va kontekstga mos tajribani taqdim etishi mumkin, chunki ular madaniy kontekstga chuqur singib ketgan tildan foydalanish bilan shug'ullanadilar. Ushbu yondashuv Kramshning (1993) "uchinchi makon" konseptsiyasiga mos keladi, bu yerda til o'rganish lingvistik kompetentsiyani egallashdan ustun turadi va madaniy tushunish va empatiyani o'z ichiga oladi.

Qolaversa, madaniyatlararo ta'limda o'zbek adabiy matnlaridan foydalanish ona tili bo'lmaganlar o'rtasida o'zbek madaniyatini anglash va qadrlashni kuchaytirishi, globallashtirilgan dunyoda o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirishi mumkin. Ushbu matnlarni sharhlashda madaniy semiotikani qo'llash (Lotman, 1990) madaniy nyuanslar va ramziy ma'nolarga sezgir bo'lgan madaniyatlararo muloqot strategiyalarini ishlab chiqish uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Joriy tahlillarga asoslanib, kelgusidagi tadqiqotlar kognitiv tilshunoslik, raqamli gumanitar fanlar va madaniyatshunoslik fanlaridan olingan g'oyalarni o'zida

jamlagan holda o'zbek adabiy matnlarini fanlararo tadqiq qilishni kengaytirishda davom etishini taxmin qilish mumkin. Mavjud lingvistik manbalar (Gee, 2004; Halliday, 1978) ta'kidlaganidek, lingvistik tahlilni madaniy va kognitiv istiqbollar bilan birlashtirgan yaxlit yondashuv akademik tadqiqotlar uchun ham, ta'lim va madaniyatlararo muloqotda amaliy qo'llanmalar uchun ham yangi metodologiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, o'zbek adabiy matnlarini raqamlashtirish va kengroq tarqatish ularning til va madaniy manba sifatidagi rolini yanada oshirishga kirishish va ishtirok etishni osonlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek adabiy matnlarining lingvomadaniy salohiyati katta ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot ularning ta'lim va madaniyatlararo qo'llanilishini ta'kidlab, til va adabiyotdan madaniyatni saqlash, ta'lim va madaniyatlararo muloqot uchun kuchli vosita sifatida qanday foydalanish mumkinligini kengroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari til tuzilmalari va madaniy kontekstlarning murakkab o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, til va madaniyatning bir-biriga o'zaro ta'sir qilish usullari haqida muhim tushunchalarni taqdim etadi. Topilmalar sotsiolingvistika va madaniy tilshunoslikdagi hukmron nazariyalar bilan mos keladi, bu til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy qadriyatlar va kognitiv jarayonlarning aksi ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

Halliday M. (1978). Language as social semiotic.

Whorf B.L. (1956). Language, thought and reality: selected writings. Technology Press of Massachusetts Institute of Technology.

Lotman J. (1990). The Universe of the Mind: The Semiotic Theory of Culture.

Kramersch (1993). Context and Culture in language teaching.

Michael Byram. Teaching and Assessing Intercultural Communicative competence

FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING DARSLIKLARDA BERILISHI

Sharofat Toshmirzayeva *

Annotatsiya

Sinonimlar tilning eng muhim birliklari bo'lib, u har bir tilning boyligini ko'rsatuvchi asosiy mezon sanaladi. Sinonimlar ma'no nozikligi, uslubiy xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi va matnda ayni shu xususiyatlari bilan o'ziga xoslik kashf qiladi. Lekin ayrim sinonimlar ham borki, ular mazmunan farq qilmaydi va bu kabi sinonimik qator tilda so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Ushbu maqolada sinonimlarning nutqdagi va tildagi vazifalari borasida fikrlar ilgari surilgan, sinonimlar borasidagi olimlarimizning fikrlari keltirilgan holda ularga munosabat bildirilgan. Shuningdek, maktab va ta'limning keyingi bosqichlaridagi darslik va qo'llanmalarda frazeologik sinonimlar bilan bog'liq mavzularning berilish tartibi, ularda nazariy ma'lumotlarning berilishi hamda mavzuni mustahkamlash borasida berilayotgan topshiriq va mashqlar tahlil qilingan. Bu topshiriqlarning mavzuni o'zlashtirishdagi roli va ahamiyati ochib berilgan, mavzu o'zlashtirilishida paydo bo'luvchi murakkabliklar, kamchiliklar ko'rsatilib, zarur metodik tavsiyalar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *so'z, leksema, sinonim, sinonimik qator, mashq, topshiriq, metod, leksik sinonim, frazema, frazeologik sinonim, maqollar sinonimiyasi.*

PRESENTATION OF PHRASEOLOGICAL SYNONYMS IN TEXTBOOKS

Annotation

Synonymes are the most important units of the language, and it is considered the main criterion that shows the richness of each language. Synonyms differ from each other according to the subtlety of meaning, stylistic features, and discover their uniqueness in the text with these features. But there are some synonyms that do not differ in meaning, and such a synonymous series is formed as a result of word acquisition in the language. In this article, the opinions about the functions of synonyms in speech and language are put forward, the opinions of our scientists about synonyms are presented and the reaction to them is expressed. Also, the order of presentation of topics related to phraseological synonyms in the textbooks and manuals of the school and later stages of education, the assignments and exercises given in them to provide theoretical information and strengthen the topic were analyzed. The role and importance of these tasks in mastering the subject is revealed,

* Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU erkin tadqiqotchisi, sharofat.m.t@gmail.com

the complications and shortcomings arising in the mastering of the subject are shown, and the necessary methodological recommendations are mentioned.

Key words: word, lexeme, synonym, synonym series, exercise, assignment, method, lexical synonym, phrase, phraseological synonym, synonym of proverbs

Ma'lumki, sinonimlar nutq boyligini namoyon qiluvchi, fikr mazmunini aniq ifodalovchi, noo'rin takrorlarning oldini oluvchi til birliklaridir. Sinonimlar (ba'zi darslik va qo'llanmalarda *ma'nodoshlar* deb yuritilgan)ga turlicha ta'riflar berilgan. "Sinonimlar (grekcha – "*synonymos*" – "bir nomli") – birlashtiruvchi ma'nosi bir, qo'shimcha ma'no ottenkalari va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar" dir. (Asqarova va b., 1972, 42-b.)

M. Asqarova qarashiga ko'ra, "Yozilishi, talaffuzi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil so'zlar *sinonimlar* deyiladi. Bir ma'no atrofida birlashayotgan sinonimlar yig'indisi *sinonomik qator*, shu qatorga betaraf leksik ma'no ifoda etgan yoki adabiy nutqqa ko'proq xos bo'lgan so'z esa *dominanta* deyiladi" (Asqarova va b. 1972, 45-b.).

R.Sayfullayeva fikriga ko'ra, "Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar *sinonim* deyiladi" (Sayfullayeva va b. 2009, 112-b.).

Z.Xolmanova ushbu til birliklariga shunday ta'rif beradi: "Shakli har xil bo'lsa ham, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar *sinonimlar* deyiladi. Bir (xil) ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So'zlarning o'zaro sinonim munosabatda bo'lishi *sinonimiya* hodisasi deyiladi" (Xolmanova, 2017, 92)

G'Abdurahmonov "*Sinonim* bitta belgi, predmet, shaxs, voqeaning bir necha nomlar bilan aytilishidir" deb izohlaydi (Abdurahmonov va b., 1995, 101-b.).

"*Ma'nodosh so'zlar* bir umumlashtiruvchi ma'noga ega, ammo ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi, talaffuzi va yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir" (Rafiyev, 2014, 78-b.).

"Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga *sinonimlar* deyiladi. O'zaro sinonomik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar *sinonimlar uyasi* yoki *sinonimlar qatori* deyiladi. Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi *dominanta* deyiladi" (Nurmonov va b., 2013, 227-b.).

O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining keng qamrovli ta'rifi atoqli tilshunos akademik A.Hojiyevga tegishli: "Sinonimlar ma'nosining bir xilligi ularning o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma'noni ifodalash uchun bir necha so'zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to'la mos kelmasligini, ulardan har biri o'ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar qaysidir jihatlari bilan

bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi” (Shoabdurahmonov, 1980, 115-b.).

11-sinf darsligi II qismdan iborat. 1-qismi nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, 2-qismi uslubiyat masalalariga bag‘ishlanadi. Darslikning I qismida (Mahmudov va b., 2018.) sinonimlarga oid topshiriqlar ko‘p. Bular:

- leksik sinonimlarga;
- frazeologik sinonimlarga;
- maqollar sinonimiyasiga;
- tasviriy ifodalar sinonimligiga oid topshiriqlardir.

Darslikda nutq boyligi haqida qoida berilgan, unda nutqning ta’sir va tasvir quvvati uning boyligi orqali yuzaga chiqishi, muayyan til unsuri (so‘zlar, ma’nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k) ning takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al bo‘lishi, ta’siri ham shunga yarasha bo‘lishi ta’kidlangan. “Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya’ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo‘llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o‘lchanadi” (Mahmudov va b., 2018, 58-b.).

Darslikda Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan olingan bir qancha iboralarning izohlari sinonimlari bilan berilgan.

Jumladan,

Oyog‘iga bolta urmoq Mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq. Ma’nodoshi: **payini qirqmoq**

Og‘zining tanobi qochmoq Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. Ma’nodoshi: **og‘zi qulog‘iga yetmoq; boshi ko‘kka yetmoq; terisiga sig‘may ketmoq; qo‘yi mingga yetmoq**

Soyasiga ko‘rpacha solmoq Izzat-hurmat qilishni me’yoridan o‘tkazib yubormoq. Varianti: **soyasiga ko‘rpacha yozmoq; soyasiga ko‘rpacha to‘shamoq**. O‘xshashi: **boshiga ko‘tarmoq**.

Tinkasi qurimoq Toliqmoq, darmonsizlanmoq. Varianti: **tinka-madori qurimoq**. Ma’nodoshi: **holdan toymoq; holdan ketmoq** va hokazo.

Iboralar tilning jozibasini, so‘zlovchining notiqlik mahoratini ko‘rsatuvchi vosita ekanligini hisobga olsak, albatta, darslikda iboralarning ko‘proq berilishi, iboralar ma’nodoshlarining berilishi ona tili darsliklarining mavqeyini oshiradi, deb o‘ylaymiz. 72-betdagi 3-topshiriqqa qaraymiz:

Matnlarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan iboralarni ma’nodosh so‘zlar bilan almashtirib ko‘ring, shundan kelib chiqib iboralarning nutq boyligini ta’minlashdagi o‘rnini tavsiflang. 1. *Bir soat nari-berisida yetti uxlab tushiga kirmaydigan* voqeaning sodir bo‘lishi uni esankiratib qo‘ygandi. Umrida birinchi marta samolyotga tushgan odam osmon-u falakning *havosini olib, quloqni qomatga keltiradigan* motor tovushiga ko‘nikib olguncha *es-hushini yig‘olmadi*, nima

bo'lganining *tagiga yetolmadi*. 2. Keyingi paytlarda Mehriniso o'g'lining xoli paytini qanchalik poylasa, Botir bu uchrashuvdan shunchalik qochardi. *qattiq gapirib, cho'rt kessa*, ranjitib qo'yishini o'ylardi. *Ko'ngliga qarab* rozilik berishni o'ylasa vahm bosardi. 3. Mehrinisoning *yuragiga g'ulg'ula tushgan* edi. O'g'lining sadoqati, vafosi bilan ich-ichidan faxrlansa, sevganidan judo bo'lib ezilayotganiga rahmi kelardi. Qay yo'sinda tasalli berib, *yo'lga solishni* bilmasdi. (Rahmat Fayziy)

Iboralarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish orqali o'quvchi nutqdagi badiiylilikni yo'qotsa-da, oddiylilik, so'zlashuv uslubiga xos samimiylikka erishadi. Aksincha, leksemalar ma'nodosh iboralarga almashtirilsa, badiiylilik, mubolag'aviylik yuzaga keladi.

Ona tili (11-sinf) darsligining II qismida (Mengliyev va b., 2020) "So'z va ibora teng emas" nomli mavzu berilgan. Mavzuda so'zlarni iboralar bilan almashtirish(1), sinonim iboralarni juftlash(2) topshiriqlari berilgan:

1. **Ajratilgan so'zlar:** Siz *quvonganingizda* o'zingizdan quvonch energiyasini tarqatasiz, *kayfiyatingiz yaxshilanadi* va uni qayerga yubormang, sizga quvonchli tuyg'ular, quvonchli vaziyatlar quvnoq odamlar bilan qaytib keladi. Masalan, radiodan yoqtirgan kuyingizni tinglab *xursand bo'lsangiz, kutilmaganda* hayotning tuhfasiga ega bo'lasiz, *kayfiyatingiz chog' bo'ladi* – bularning hammasi tortishish qonunining kuchidir. (Deyl Karnegi)

Ajratilgan so'zlarni almashtirish uchun iboralar: ko'ngil chog'ligingizda, ko'ngil ravshanligingizda; bahri dilingiz ochiladi, ko'nglingiz ko'tariladi; labidan kulgi arimaydigan, chehrasi ochiq; ko'ngilni ko'taradigan, ko'ngilga xush keladigan; boshingiz ko'kka yetsa, dimog'ingiz chog' bo'lsa; hash-pash deguncha, ko'z ochib yumguncha (13.5-mashq)

2. **Sinonim iboralarni juftlash:** yerga urmoq; ko'kka ko'tarmoq; yuragi keng; yuragi tor; ko'ngli joyiga tushdi; yuragiga g'ulg'ula tushdi; almisoqdan beri; almisoqdan qolgan; ammamning buzog'i; og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi; anqoga shafe; anqoning urug'i; jag'ida jag' qolmadi; og'ziga mum solgan; jag'i tinmadi; labi labiga tegmaydi; og'ziga muhr bosilgan; og'zida osh damlamoq.(13.5-mashq)

Nazariy ma'lumotda ta'kidlanganidek, "Iboralarni ko'p qo'llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi" (Mengliyev va b., 2020, 49-b.).

Darslikdagi 14.1- topshiriqda (Mengliyev va b., 2020, 54-b.) sinonim maqollar berilgan va ulardan birini sarlavha sifatida qo'llab, matn tuzish vazifasi qo'yilgan.

1. Qo'shni qo'shnidan erta turishni o'rganar.
2. Qo'shnida pishar, bizga ham tushar.
3. Qo'shningga yomonlik sog'inma.
4. Qo'shning yomon bo'lsa, yomonlik kelar,

Qo'shning yaxshi bo'lsa, omonlik kelar.

5. Qo'shnimning bilgani – olamning bilgani.

6. Qo'shniga yalinma, kinoya so'z dog' etar,

Qurbing yetsa, ko'maklash, eshigingni bog' etar.

Qo'shnichilik mavzusidagi bu maqollarninig barchasini ham o'zaro ma'nodosh deb aytib bo'lmaydi, biroq "Qo'shning yomon bo'lsa, yomonlik kelar..." = "Qo'shningga yalinma, kinoya so'z dog' etar" = "Qo'shnimning bilgani – olamning bilgani" singari sintaktik qurilmalarning grammatik sinonimlarga yaqinligi bor.

Ma'lumki, tasviriy ifodalar muayyan bir tushunchaning so'z birikmasi orqali obrazli ifodalanishidir. Tasviriy ifodalarni bilish o'quvchi yoshlar uchun ham, kattalar uchun ham birday foydali. Nutqda ulardan to'g'ri, o'rinli va jo'yali foydalanish orqali fikr ta'sirchan ifodalanadi. Darslikda tasviriy ifodalarning qo'llanishiga oid test savoli berilgan:

15.5-mashq. She'riy parchadagi tasviriy ifodaning sinonimlari berilgan qatorni toping.

Onaginam! O'zing tortma davralardan el chorlaganda,

"Tiriklikning bayrami", deb sozlanganda tor.

O'zing so'lg'in lablar bilan pichirlaganday:

"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor". (H. Xudoyberdiyeva)

A. *Volidayi muhtaramam, onajonim, boshimdagi parvonam.*

B. *Fasllar kelinchagi, uyg'onish fasli, yasharish fasli.*

C. *Xalqdan yashirinma, boshqalardan berkinma, panaga chekinma.*

D. *Orzu-armonlar, dunyoda bor-yo'qlar, ajdod-avlodlar.*

"Tiriklikning bayrami" tasviriy ifodasi shoira tomonidan qo'llangan va boshqa ijodkorlarda uchramagan birlikdir. Bahor fasli ta'rifi uchun ishlatilgan bu o'xshatishning sinonimlari B. javobda bo'lib, *fasllar kelinchagi, uyg'onish fasli, yasharish fasli* tasviriy ifodalaridir. O'quvchi fantaziyasining kengayishi, nutqining boyishi uchun nafaqat leksik sinonimlar, balki grammatik, uslubiy sinonimlarni qo'llay bilishi ham ahamiyatlidir.

Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

✓ sinonimiya – til boyligi, omonimiya esa (darslikda tilning kambag'alligi deb atalgan bo'lsa-da) zakovat, farosat sinovi sifatida tilimiz uchun ahamiyatli. Sinonimlar – noo'rin takrorlarning oldini oluvchi, til boyligi va jozibasini namoyon qiluvchi vosita ekanligini hisobga olgan holda, darsliklarga bu mavzu qanday ko'rinishda bo'lmasin (nazariy ma'lumot shaklidami, mashq va topshiriqlar shaklidami), ko'proq kiritilishi kerak;

✓ so'z ma'nosini tusunish, anglab yetish, foydalanuvchining o'z lug'at boyligiga yana bir so'zni, teran his qilgan holda, qo'shib olishi – kashfiyot qilishdek gap. O'quvchi so'zning ma'nosini bilgach, sinonimlari bilan almashtirib qo'llay

olgach, badiiy asarning mohiyatini tushunadi. So‘z ustasi bo‘lgan yozuvchilarni ajrata oladi, asarni tanlab o‘qiydi. Asarni tanlab o‘qigan, ko‘p o‘qigan kitobxon o‘quvchining nutqi ravon, ifodali va, albatta, boy va ta’sirchan bo‘ladi;

✓ iboralarni ma’nodosh so‘zlar bilan almashtirish orqali o‘quvchi nutqdagi badiiylikni biroz yo‘qotsa-da, oddiylik, so‘zlashuv uslubiga xos samimiylikka erishadi. Aksincha, leksemalar ma’nodosh iboralarga almashtirilsa, badiiylik, mubolag‘aviylik yuzaga keladi.

Adabiyotlar

Abdurahmonov G‘., Rustamov H. (1995). Ona tili. 10 – 11-sinflar uchun. – Toshkent.

Abjalova M. O‘zbek tilidagi_sinonimlar_tasnifi. (Internet manba). URL: https://www.researchgate.net/publication/379754263_

Asqarova M., Abdurahmonov X. (1972). O‘zbek tili grammatikasining praktikumi. – Toshkent.

Asqarova M., Qosimova K. Jamolxonov H. (1976). O‘zbek tili. – Toshkent.

Baynazarova D. (2023). Ona tili. 4-sinf, 3-qism. – Toshkent.

Mahmudov N. va b. (2018). Ona tili. 11-sinf. – Toshkent.

Mahmudov N. va b. (2020). Ona tili. 5-sinf. – Toshkent.

Mavlonova K. va b. (2022). Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent. (Internet manba). URL: <file:///C:/Users/1/Desktop/6-sinf%20Ona%20tili%20yangi%20darslik-.pdf>

Mengliyev B. va b. (2020) Ona tili. 11-sinf. – Toshkent.

Mengliyev B. va b. (2022) Ona tili. 10sinf. – Toshkent. (Internet manba). URL: <file:///C:/Users/1/Desktop/10sinf%20Ona%20tili%20yangi%20darslik..pdf>

Nurmonov A. va b. (2013). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseykasb-hunar kollejlari talabalari uchun. – Toshkent.

Ona tili va o‘qish savodxonligi. (2022). 3-sinf, – Toshkent.

Rafiyev A., G‘ulomova N. (2014). Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent.

Sayfullayeva R. va b. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent.

Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва б. (1980). Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент.

Xolmanova Z. (2017). Tilshunoslikka kirish. – Toshkent.

Ҳожиёв А. (1974). Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – B 260.

Ҳожиёв А. (1981). Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент.

MUNDARIJA	
Inomjon Azimov	
Soʻzboshi	4
Qosimjon Sodiqov	
“Devonu lugʻati-t-turk” matnidagi harakat belgilari va turkiy soʻzlarning oʻqilishi masalasi	7
Abdulhay Sobirov	
Qadim buloqlardan sizgan ona til....	19
Ibrohim Yoʻldoshev	
Til tashnalligi	28
Muhammadxon Hakimov	
Deyksis va anafora hodisalari	42
Sharifa Iskandarova, F.Erkaboyeva	
Muhammad Yusuf sheʼriyatida makon leksemasining qoʻllanilishiga doir. . . .	49
Joʻliboy Eltazarov	
Yangi alifboni joriy etish: natijalar va saboqlar	56
Murodqosim Abdiyev, Shahnoza Muxtarova	
Arxeologik terminologiya shakllanishida leksik-semantik usul oʻrni	70
Joʻrayeva Bibish	
Bugungi kun taʼlimining dolzarb vazifasi.	78
Inomjon Azimov	
1929-yil may konferensiyasida imlo masalasining hal qilinishi	83
Muyassar Saparniyazova	
Oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasi xususida	92

Zulxumor Xolmanova	
O‘zbek tili lug‘at tarkibini ichki imkoniyatlar asosida boyitish omillari	99
Muhayyo Hakimova	
Metafora turlarida milliy tafakkurning aks etishi.	107
Nilufar Abduraxmonova, Azizbek Vosiljonov	
Farg‘ona viloyati shevalarining yozma va audio matnlarini korpus bazasiga kiritish bosqichlari	116
Bashorat Bahriddinova	
Lug‘at – ijtimoiy zarurat tufayli yuzaga kelgan ilk lingvistik janr sifatida	121
Baxodir Suyunov	
O‘zbek tiliga kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish – davr talabi	131
Ixtiyor Ermatov	
Terminlar tizimida giponimiya va ekvonimiya hodisalari	137
Muxtorali Zokirov	
Interferensiya hodisalari va tillararo munosabatlarning zamonaviy tahlili	149
Muhammad Hakimov, Dilrabo Ismoilova	
Androsentrizm va feministik lingvistika genezisi.	156
Usmonjon Rahimov	
Yana yuklamasining presuppozitsiyasi	164
Hamid Yodgorov	
“Sirg‘ali” etnotoponimining etimologiyasi xususida	176
Farxad Babadjanov	
Tashkiliy hujjatlarning tavsifi va lingvistik xususiyatlari	184

Ismoil Hojaliyev	
Nutqni shakllantiruvchi vositalarga doir	189
Husniddin Suyunov, Elyor Boymanov	
Turizm terminologiyasida ma’nodoshlik va variantdoshlik hodisalari	193
Muhabbat Saidova	
Yangi avlod darsliklari matni ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	197
Sayyora Xolmirzayeva	
Hujjatchilik tarixi	203
Hamida Juraqobilova	
O‘zbek va fransuz tillarida oriyentatsion metaforaning kognitiv xususiyatlari	210
Sobir Ahmedov	
Etnotoponimlarning semantik xususiyatlari	217
Nizomiddin Quldashev, Fotima Mahmudova, Zulayho Mahmudova	
Ko‘chim – leksikologiyaning obykti sifatida	226
Muxiba Barotova	
“Bosh egmoq” paralingvizmining leksik-semantik tahlili.	230
Dilmurod Ashurov, Umida Turakulova	
O‘xshatishlarda milliy madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi (T.Malik qissalarida qo‘llangan o‘xshatishlar misolida)	237
Ozodaxon Boltabayeva	
Ibratning “lug‘ati sitta alsina” va “jome’ul-xutut” asarlari xususida	251

Maftuna Sharipova	
O‘zbek xalq maqollarida metaforarizatsiya	258
Zilola Tillabayeva	
Samarqand viloyati o‘zbek shevalarining o‘rganilishi xususida	265
Ozoda Anorqulova	
“Oila” konseptining ayrim lingvistik xususiyatlari.	272
Dildora Axmedova	
Polifunksional so‘zlar semantik kengaytmasini ishlab chiqish muammolari ..	277
O‘rinboy Boboyorov	
Aholi vakillarini o‘zbek adabiy tilining yozma nutqi me’yor va qoidalariga o‘qitish masalasi	284
Shoira Bayxanova	
O‘zbek komediyalarida kulgi yaratuvchi vositalar tasnifi	290
Shokir Sattorov	
Mahmud Koshg‘ariy – buyuk tilshunos	298
Shahboz Zarmasov, Munojot Saydazamova	
O‘zbek tilida otning sun’iy semantik xotirasi	306
Qobiljon Abdurasulov	
Til o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga oid yondashuvlar tahlili	314
Hamid Yodgorov	
Badiiy matnda disfemizmlarning o‘rni	320
Fazliddin Galiyevich, Mohichehra Fazliddinovna, E‘zoza Fazliddinovna	
O‘zbek tilshunosligida so‘zlashuv uslubining qo‘llanilishi	326

Dunyogozal Nazarova	
O‘zbek tili ish yuritish hujjatlarining tartib-tamoyili	335
Farhod Toshtemirov	
Virtual makonda noverbal vositalar orqali muloqot	339
Barotova Muxiba	
“Bosh egmoq” paralingvizmining leksik-semantik tahlili	344
Marjona Jumayeva	
“Tuya” lug‘aviy ma’noviy guruhi qatnashgan maqollarda “kattalik” semasi .	351
Ozoda Sharipova	
Zamonaviy tilshunoslikda konseptual tipologiya masalasiga munosabat	357
Saidaxon Mamadaliyeva	
Ijtimoiy-madaniy yondoshuv asosida rus tilini filolog talabalarga o‘qitish . . .	364
Zarifa Alimova, Zarnigor Abdullayeva, Muattar Rasulova	
Turkiy taom nomlarining lingvistik tahlili	370
Nizomiddin Quldashev, Saodatxon Solijonova	
Lisoniy tadqiqotlar tizimida inson omili genezi	374
Muhammadjon Mamajonov, Xayrullo Norxo‘jayev	
Sohaviy terminlarning lisoniy xususiyatlari	378
Nigina Axmedova	
O‘zbek tilida substansial sintaksemalarning variantlari	382
Xayrulla Ibragimov	
Nutq va badiiy nutq tushunchasi	388

Xanifaxon Xamdamova	
Yoshlarni milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalashda ilmning o'rni . . .	393
Qo'ldasheva Nazokat	
O'zbekiston va xalqaro miqiyosda axborot texnologiyalari terminologiyasining ahamiyati	398
Gulmira Komilova	
Zamonaviy yo'nalish – psixolingvistika modern direction – psycholinguistics	403
Shokir Sattorov	
Til – muqaddas qadriyat	406
Gulmira Xudoyberdiyeva	
Tilshunoslikda polifunksionallikning o'rganilishi va lingvistik xususiyatlari. .	412
Sayyora Otanazarova	
O'zbek tilshunosligining nazariy masalalari	416
Sarvinoz Alimova	
O'zbek tilshunosligida istiqlolgacha bo'lgan davrda ot so'z turkumining o'rganilishi	422
Mu'tabar Xo'jamova	
“Lison ut-tayr” dostonida qo'llanilgan paremalarning tematik guruhlanishi . .	433
Marjona Raxmonova	
Bolalar ichki nutqining o'ziga xos xususiyatlari	439
Muzaffar Obilov	
Obyektiv va subyektiv modallik ma'nolarining dixotomiyasi	448

Rushana Nabiyeva O‘zbek tili taom nomlari mavzuviy guruhining o‘rganilishi va o‘ziga xos xususiyatlari	459
Baxriddin G‘apporov Gazeta diskursi: tadqiq va talqin	466
O‘tkir Ostons Turizm sohasida qo‘llanadigan o‘zbek tilidagi terminlarning vujudga kelish bosqichlari va derivatsion o‘ziga xosliklar	478
Buronova Xolida O‘zbek tili tibbiy terminlarida polisemiya hodisasi	485
Lutfulla Sindorov Oybekning “Navoiy” romani tilida qo‘llanilgan fors-tojikcha so‘zlar	491
Mahbuba Ashirova O‘zbek tilida evfemizmlarning tasnifiga doir ba’zi mulohazalar	498
Dildora Turg‘unova Hayvonlarning yurish tarzini leksik ifodalanishi va ulardagi lingvomadaniy xususiyatlar	504
Obidaxon Fayzullayeva Abdulla Qahhor aforizmlari	514
Ug‘iloy Bolbekova O‘zbek tili tarixi va bugungi kundagi ahamiyati	518
Nafisa Nuriddinova “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” da uzumchilik sohasiga oid ayrim leksikaning ifodalanishi	522

Orifjon Choriyev	
Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarini lingvomadaniy tadqiq etishning zarurati va ahamiyati	529
Elyor Mustafayev	
Iboralarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida)	537
Shaxloxon Tursinbayeva	
O'zbek tili badiiy matni lingvomadaniy potensialining ifodalanish usullari ..	543
Sharofat Toshmirzayeva	
Frazeologik sinonimlarning darsliklarda berilishi	550

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi IV respublika an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o'zlari
mas'uldirlar.**

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 16.10.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog'i 19,4. Shartli bosma taboq 20,1.

Adadi 50 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

Lme/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10

